Jaloliddin Manguberdi

MEROSI VA YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy
ANJUMANI TO'PLAMI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

JALOLIDDIN MANGUBERDI NOMIDAGI
HARBIY-AKADEMIK LITSEYI

“JALOLIDDIN MANGUBERDI MEROSI VA YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI”

Respublika ilmiy-amaliy anjumani

TO‘PLAMI

2026-yil 24-aprel

Urganch – 2026-yil

UO‘K: 37.013:355.233.231.1

KBK: 74.200.50+68
S 21

“Jaloliddin Manguberdi merosi va yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy yondashuvlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani to‘plami, 2026-yil “**Classic**” -nashriyoti, 880- bet.

ISBN: 978-9910-277-01-6

“Jaloliddin Manguberdi merosi va yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy yondashuvlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plamiga professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrlar, talabalar va tadqiqotchi mataxassislarning ilmiy ishlari kiritilgan.

Tashkiliy qo‘mita tarkibi:

I. M. Saidov	Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi direktori, rais
A.N. Ibadullayev	Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, rais o‘rinbosari
S.O. Avazmuratova	Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi o‘quv bo‘lim boshlig‘i, a’zo
M.N. Atajonov	Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi informatika fani o‘qituvchisi, a’zo
N.A. Nurullayev	Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi fizika fani o‘qituvchisi, a’zo
R.R. Ro‘zmetov	Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi fizika fani o‘qituvchisi, a’zo
R.O. Ro‘zmetov	Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi AVHTO fani o‘qituvchisi, a’zo
I.X. Allabergenova	Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi ingliz tili fani o‘qituvchisi, a’zo
I.Sh. Rahimova	Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi ona tili fani o‘qituvchisi, mas’ul muharrir
Y.S. Xudayberganov	Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi ona tili fani o‘qituvchisi, mas’ul muharrir

Mualliflarning nuqtayi nazarlariga putur yetkazmaslik maqsadida, to‘plamga kiritilgan materiallar faqatgina texnik jihatdan tahrir qilindi. Shuning uchun tahrir hay’ati matnlarda uchraydigan ba’zi bir noaniqliklar uchun javobgarlikni o‘zidan soqit qiladi.

Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi ilmiy-pedagogik kengashining 2026-yil 29-apreldagi 18-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan.

1751

UO‘K: 37.013:355.233.231.1
KBK: 74.200.50+68

ISBN: 978-9910-277-01-6 **“Classic” nashriyoti-2026**

MUNDARIJA

I SHO‘BA. JALOLIDDIN MANGUBERDI MEROSI VA YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI		
1.	**Axmedov Ulug‘bek Tadjivoyevich** Jaloliddin Manguberdi harbiy strategiyasining yosh avlodda vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirishdagi o‘rni	20-26
2.	**Raxmonov Raxmatullo Bozorovich** Jaloliddin Manguberdi merosi va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy yondashuvlari	26-31
3.	**Saidov Ixtiyor Mizrabovich** Harbiy ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalar va chaqiriqqacha boshlang‘ich tayyorgarlikni rivojlantirish masalalari	32-39
4.	**Anarbayev O.I** Jaloliddin Manguberdining harbiy mahorati va taktikasi	39-45
5.	**Tolipov Abdug‘affor Abdunabi o‘g‘li** Jaloliddin Manguberdining harbiy strategiyasi va taktikasi: tarixiy tahlil va uning zamonaviy harbiy san’atdagi ahamiyati	45-49
6.	**Rasulova Nodira Sardarovna** Jaloliddin Manguberdi siymosida yetakchilik (liderlik) fenomeni	49-53
7.	**Bobomurodov Dilshod Abduqaxxorovich** Jaloliddin Manguberdi siymosida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy metodlari	53-56
8.	**Bozorov Aziz Abloqulovich** Tarixiy qahra monlar merosi asosida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy pedagogik texnologiyalari	56-61
9.	**Rozimova Yorqinoy Yuldashevna, Saidaliev Saidazam Saiddavron o‘g‘li** Jaloliddin Manguberdining harbiy merosi va uning milliy armiya an’analarini shakllantirishdagi ahamiyati	61-66
10.	**Xakim G‘ofurovish Saidov** Yoshlar ongida o’zbek harbiy sarkardalari vatanparvarlik timsoli sifatida	66-71
11.	**Djasanov G‘ayrat Ibragimovich** Jaloliddin Manguberdining harbiy boshqaruv usullari va ularning harbiy doktrinada ahamiyati	71-74
12.	**Xotamov Shuhrat Nosirovich** Jaloliddin Manguberdi vatanparvarlik, mardlik va jasorat timsoli	74-81
13.	**Madyorov G‘ayratjon Avazjonovich, Do‘stqulov Maxamatsoli Maxamatsodiqovich** Jaloliddin Manguberdi qo‘shinining qurollanishi va ulardan jangda foydalanishning o‘ziga xosliklari	81-88

14.	**Ismoilov Alisher Axtamovich** Jaloliddin Manguberdi merosi - yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ma’naviy-huquqiy asosi	88-95
15.	**Sharipov Akbar Maksudovich** Jaloliddin Manguberdi merosi - yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ma’naviy-huquqiy asosi	95-101
16.	**Nurmuxamedov Muxiddin Mexriddinovich** Jaloliddin Manguberdi - milliy g‘urur va ma’naviy qalqon timsoli	102-107
17.	**Urazbaev Sanjar Aminbaevich, Yo‘ldoshev Olim Ibragimovich** Vatan himoyasi - oliy qadriyat: Jaloliddin Manguberdi jasorati misolida	107-112
18.	**Yuldashev Baxtiyor Tojiboyevich** Sulton Jaloliddin Manguberdi: strategik sarkardalik mahorati va milliy g‘urur falsafasi	112-118
19.	**Gulchira Xusainbekova Mavlanbekovna** Jaloliddinning ona vatanining mard o‘g‘loni, buyuk jasorat egasi	118-121
20.	**Abdug‘aniyev Shuxrat Abdug‘ani o‘g‘li, Shermatova Nazokat Safarovna** Zamonaviy harbiy ta’limda Jaloliddin Manguberdi jang san’ati va taktikasidan foydalanishning ahamiyati	121-128
21.	**Ibodullayev Jamshidbek Bahodir o‘g‘li** Jaloliddin Manguberdi harbiy jang san’ati: taktik usullar va strategik yondashuv	128-132
22.	**M.M. Mansurov** Globallashuv sharoitida yoshlar ijtimoiy ongini yuksaltirishda Jaloliddin Manguberdi merosining o‘rni	132-136
23.	**Sharipov Akbar Maksudovich, Abdullayev Shonazar Kuchkarovich, Sharopov Ikrom Komiljon O‘g‘li** Jaloliddin Manguberdi merosi - yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ma’naviy-huquqiy asosi	136-143
24.	**Yuldashev Baxtiyor Tojiboyevich, Madaminov Zokir Shavkatovich, Raimov Shaxzod Ozod o‘g‘li** Sulton Jaloliddin Manguberdi: strategik sarkardalik mahorati va milliy g‘urur falsafasi	143-149
25.	**Ro‘zmetov Sherzod Qahramonovich** Harbiy-akademik litsey o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi merosidan foydalanish	149-154
26.	**Muxammedov Maqsudbek G‘ulomboy o‘g‘li, Boymurodov Sardor Ergashali o‘g‘li** Modern approaches to educating youth in the spirit of military patriotism based on the legacy of Jaloliddin Manguberdi	154-158

27.	**Umarov Ismoiljon Olimjonovich, Turdiqulov Abdumansur Muhammadjon o‘g‘li** Yoshlar ongida harbiy-vatanparvarlik va qahramonlik qadriyatlarini shakllantirishda ta’lim-tarbiyaning istiqboldagi yo‘nalishlari	158-162
28.	**Mamayusupov Munavvarjon Burxoniddinovich** Yoshlar bilan ishlashning yangi tizimida yosh avlodning vatanparvarlik ko‘nikmalarini shakllantirish	162-172
29.	**Mustayev Ruslan Damirovich, Mamajonov Firuzbek Baxrom o‘g‘li** Jaloliddin Manguberdi harbiy strategiyasi va uni zamonaviy harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida qo‘llash	172-175
30.	**Mustayev Ruslan Damirovich, Ibragimov Lazizbek Umidjon o‘g‘li** Tarixiy qahramonlar merosi asosida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash: Jaloliddin Manguberdi modeli misolida	175-182
31.	**Nurmuxamedov Muxiddin Mexriddinovich, Rajabov Rasulbek Ro‘ziboyevich** Jaloliddin Manguberdi - milliy g‘urur va ma’naviy qalqon timsoli	182-187
32.	**Umarov Ismoiljon Olimjonovich, Jumaboyev Doniyorjon G‘iyosiddin o‘g‘li** Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari	187-191
33.	**Karimov Ravshanjon Abdufatoyevich** Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda yoshlar masalasi prezident murojaatnomasining e’tibor markazida	191-194
34.	**Tojiev Xakimjon Xoliqovich** Talaba yoshlarni vatanparvarlik tuyg‘usini oshirishning dolzarb masalalari	194-197
35.	**Akbarov Anvar Tojimatovich** Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashda g‘oyaviy-mafkuraviy saviyani rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	197-200
36.	**Mustaev Ruslan Damirovich** Ajdodlarimiz axloqiy merosida harbiy vatanparvarlik mezonlari masalasining yoritilishi	200-204
37.	**Мамаджонов Сойибжон Халилович, Абдуллаев Бахриддин Тожалиевич** Борьба государства хорезмшахов против монгольских завоевателей. Джалал ад-дин мангуберди	204-209
38.	**Tilavoldiyev Shahobidin Xoldarovich** Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkillashning o‘ziga xos xususiyatlari	209-213

39.	**Avazmuratova Salomat Alimovna** Jaloliddin Manguberdi merosi va yoshlarni harbiy vatanparvarlik tarbiyalashning zamonaviy yondashuvlari	213-217
40.	**Allabergenova Intizor Xojinazarovna, To‘liboyev Miraziz Po‘latovich** Interesting facts about the military activity of jalaladdin manguberdi and his role in instilling patriotism in youth	217-222
41.	**Хидойходжаева Хилола Тахировна, Мирзалиева Мухаббат Махамажановна** Психологические и педагогические аспекты формирования военных навыков, мужества и патриотических качеств у будущих защитников родины	222-228
42.	**Uskinov Samandar Saparbayevich** Tarixiy va badiiy asarlarda Jaloliddin Manguberdi siymosining yoritilishi	228-231
43.	**Uskinov Samandar Saparbayevich** Tarix darslarida milliy qahramonlar faoliyatini yoritishda badiiy asarlarning ahamiyati	231-234
44.	**Shermuratov Jamshid Tursunpo‘latovich** Jaloliddin Manguberdi merosi va uni yoshlar tarbiyasidagi o‘rni	234-238
45.	**M.Q.G‘affarov** Jaloliddin Manguberdi - vatan qahramoni	238-242
46.	**Alimkulova Baxtigul Baxromjon qizi, Hamroyev Islom Ibrohim o‘g‘li** Jaloliddin Manguberdi – mardlik va jasorat timsoli sifatida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati	242-247
47.	**Каримова Наргиза Мамурхоновна** Воспитание молодежи в духе военного патриотизма на основе наследия джалолиддина мангуберди на уроках математики	247-249
48.	**Xodjayeva Dildora Tuxtapulatovna** Temur tuzuklari – davlat boshqaruvining huquqiy asosi sifatida	249-252
49.	**Аллабергенова Дилноза** Наследие джалолиддина мангуберди и воспитание молодёжи в духе военного патриотизма современные подходы и актуальные методы работы	253-258
II SHO‘BA. ANIQ VA TABIIY FANLARNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI		
50.	**Masodiqov Qaxramonjon Xusanboy o‘g‘li, Ro‘ziboyev Dostonbek O‘ktamjon o‘g‘li** Harakat tezligining 1 tonna-kilometr transport ishiga to‘g‘ri keladigan yonilg‘i sarfiga ta’siri	259-263

51.	**Atamuratov Ilhomboy Bekturdiyevich, Xudayberganov Dilmurod Tuxtabayevich, Sobirov Shokirjon Ergashovich** Sun’iy intellekt - raqamli matn tahlili asosida turkiy adabiyot hamda hofiz xorazmiy asarlarining ma’naviy-falsafiy qatlamlarini ochib berish imkoniyatlari va metodologiyasi	263-267
52.	**Ibadullayev Abdulla Nazarbayevich** Onlayn test natijalari va faoliyat ko‘rsatkichlari asosida kasbiy yo‘nalishni prognozlash	267-271
53.	**Atajonov Muzaffar Ne’matjon o‘g‘li** Spam-xabarlar turlari va ularga qarshi an’anaviy hamda intellektual himoya usullari tahlili	271-276
54.	**Mirzayev To‘lanboy To‘lqinovich** Immersive texnologiyalar asosida yaratiladigan elektron ta’lim modelining komponentlari	276-280
55.	**Xojiyev Hamro Yuldashevich, Xasanova Go‘zal Maxmud qizi** Matematika fanining zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari	280-284
56.	**Iskandarov Jo‘shqin Shuxrat o‘g‘li, Ikromjonov Azizbek Muzaffar o‘g‘li** Sonlar nazariyasining kriptografik asoslari	284-289
57.	**Shaymardanov Xamza Xolmo‘minovich** Harbiy ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish	289-292
58.	**Turaboyev Bahodir Urolovich** Sun’iy intellektning matematik poydevori: algoritmlar ortidagi mantiq	292-296
59.	**Jumanazarova Shodiya Otojon qizi, Rahimova Zuhra Jamolbek qizi** Dyupen indikatritsasi. Sirt nuqtalarini turlarga ajratish	297-300
60.	**Jo‘rayev Elmurod Xo‘shmurodovich** Trigonometrik formulalarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar	300-303
61.	**Babaxanov Oybek Xatamovich** Fizikaning mikroelektronikada o‘rni	303-306
62.	**Yakubov Oybek, Rajapova Avazjon** Mathematics as the universal language of physical phenomena	306-309
63.	**Якубов Ойбек, Ражапова Авазжон** Роль абстрактных математических структур в развитии современной науки	309-312
64.	**Begimov Maxmud Maksudovich** Jaloliddin Manguberdi harbiy mahoratini o‘rganishda fizika qonuniyatlarining o‘rni va ahamiyati	312-316
65.	**Otayeva Salamat Sabirovna** Ilmiy bilish jarayonida tanqidiy fikrlash va ijodkorlikning ahamiyati	316-320

66.	**Sobirboyeva Gulrux Javlonbek qizi** Kasr tartibli hosilalarni o‘qitishda sun’iy intellekt asosidagi integrativ yondashuvning samaradorligi	321-323
67.	**Noraliyev Sanjarbek Nurislom o‘g‘li** Vilson teoremasi va uning murakkab sonlarni aniqlashdagi nazariy ahamiyati	323-326
68.	**Dilmurod Shomurodovich Abrayev** O‘quvchilarga kvadrat funksiyani o‘rgatish metodikasi	327-330
69.	**J. R. Xo‘jaqulov, D. Sh. Abrayev, X. A. Abdimurodova** Ba’zi elementar funksiyalarning kasr tartibli hosilalari	330-334
70.	**Yuldashev.S.M, Amatov.Y.SH** Harbiy maktablarda matematika fanini o'qitishni ahamiyati	334-340
71.	**Raximova Feruza Atabek qizi** Informatika va sun’iy intellekt: nazariy asoslar, texnologik rivojlanish va istiqbollar	341-344
72.	**Kurbanova A.X** Fizikada bilim va ko‘nikmalarni baholashning an’anaviy usullari, ularning afzallik va kamchiliklari	344-349
73.	**Jabborova Naima** Informatika fanini o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanish	349-352
74.	**Raximova Tozagul Sobir qizi** Neyron mashinaviy tarjima va transformer arxitekturasining metodologik asoslari: xorazm shevasi va o‘zbek adabiy tili o‘rtasidagi tarjima misolida	352-357
75.	**Yuldashev Sanjarbek Muhammad o‘g‘li, Amatov Yashnabek Sherimmat o‘g‘li** “Temurbeklar maktabi ” o‘quvchilarining matematika fanini o‘zlashtirishda shaxslilik sifatlarining psixologik xususiyatlari	357-364
76.	**Рустам Романович Рузметов, Нурбек Азимжанович Нуруллаев** интеграция национальных ценностей в преподавание физики как фактор патриотического воспитания воспитанников лицея	364-369
77.	**Masapayev Mansur Urinboyevich, Iskandarov Behzod Qurol o‘g‘li, Baxtiyorova Dilfuza Bahodir qizi** Sun’iy intellekt texnologiyalarning istiqbollari	369-375
78.	**Islomov Bobur Bahodirovich, Ruzibayeva Sarvinoz Ilhom qizi** Matematika fanini o‘qitish metodikasining nazariy va amaliy asoslari	375-379
79.	**Djabbarov Maxmudjon Maqsudovich** Orol bo‘yi hududlarida iqlim o‘zgarishi oqibatida yuzaga keladigan kasalliklarni vaqtliroq aniqlash va davolashning matematik modeli	379-383
80.	**Atamuratov Jaloliddin Rashidovich** Jaloliddin Manguberdi jang strategiyalarida matematik fikrlash elementlari	383-387

81.	**Allomov Zafar Kuromboyevich** Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda hosila tushunchasining o‘rni va ahamiyati	387-390
82.	**Yuldashev Sanjarbek Muhammad o‘g‘li, Amatov Yashnabek Sherimmat o‘g‘li, Yusupov Umrbek Azatbayevich** Vaqt mashinasi va tarix haqidagi nazariyalar	391-398
83.	**Xo’janiyazov Jamolbek Qurvondurdiyevich** Doirada berilgan kasr tartibli superdiffuziya tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalani harbiy jarayonlarni modellashtirishda qo‘llash	398-401
84.	**Jumanazarov Otabek Isroilovich** Diofant tenglamalari nazariyasida erdosh-shtraus gipotezasining modulyar tahlili va yangi chegaraviy qiymatlari	401-402
85.	**Kurbonboyev Zokirjon Narimboyevich** Koordinata-vektor metodidan foydalanish	403-406
86.	**Jumaboyeva Zevarjon Rustamboyevna** Parametrga bog‘liq bo‘lgan tengsizliklarni yechishning qulay usullari	406-410
87.	**Latipova Xajibibi Ibrohim qizi** Raqamli ta'lim muhitining intellekt rivojiga ta'siri	410-412
88.	**Matnazarov Javlon Shonazarovich** Masallar yechishda vektorlarning qo`llanilishi	413-416
89.	**Калимбетов Ж.К, Калимбетова Г.К** Влияние информатики и науки на инновационные технологии	416-419
90.	**Kurbonboyev Zokirjon Narimboyevich** Tengsizliklarni isbotlashda hosilaning qo‘llanilishi	420-423
91.	**Zaripboyeva Quvonchoy Qurbonboyevna** Aniq va tabiy fanlarning zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari	423-428
92.	**Bektemirova Xolida Davronbek qizi, Qalandarova Oymonjon Sobir qizi** Binomial differensiallarni integrallash usullari va ularni ratsional funksiyalarga keltirish	429-431
93.	**Matnazarov Javlon Shonazarovich** Koshi tengsizligi yordamida ba‘zi tengsizliklarning isbotlanishi	432-434
94.	**Ollaberganov Bobur Shuhratovich** Akademik litseylarda kimyo darslarini o’tishda didaktik o’yinlarning o’rni va ahamiyati	435-439
95.	**Rajapboyeva Rakhima Hamid qizi** Comprehensive application of steam, clil and pbl models in transitioning from traditional education to 4k competences	439-444
96.	**R.D.Otanazarova** Sun’iy intellekt asosida logarifmik tenglamalar va tengsizliklar (10-sinf) mavzularini o’qitish metodikasi	444-446

97.	**Bekchanova Yulduz Masharipovna** Inson axborot faoliyatdagi real vaziyatlarni modellashtirish	446-449
98.	**Raximova Tozagul Sobir qizi, Jaksimuratov Dauletbay Zaripbay uli** Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida informatika fanini o'qitish orqali o'quvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirish	450-454
99.	**Rajabova Nigora Azamat qizi** Raqamli ta'lim muhitida o'smirlarni axborot tahdidlaridan psixologik himoya qilish va o'quv motivatsiyasiga ta'sirini o'rganish	454-459
100.	**Bobojonov Mahkamboy** O'quvchilarda matematik fikrlashni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari	459-464
101.	**Isakjanova Saboxat Muhamedovna, Sobirov Umidjon Reymbergan o'g'li, Ortiqov Ilhom Komil o'g'li** Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar orqali yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning yangi imkoniyatlari	464-470
102.	**Rahimova Inobat Ibadullayevna** Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	470-472
103.	**Bog'bekova Dilnoza Shonazarovna** Raqamli transformatsiya sharoitida kasbiy stressning psixologik xususiyatlari	472-477
104.	**Dusov Yo'ldosh Shodiyevich, Djumayev Yusup Abramatovich** Akademik litseylarda kvant fizikasi bo'limini o'qitishning raqamli dasturiy ta'minotini takomillashtirish metodikasi	477-480
105.	**Ismoilova Durdona Xayrulla qizi** Matematika darslarida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari	481-483
III SHO'BA. IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI		
106.	**Kurbaniyozova Ra'no Yuldashevna** Keksalikda shaxs rivojlanishining psixologik jihatlari	484-489
107.	**M.R.Sultonova** Yetuklik yoshidagi ayollarda kasbiy identlik shakllanishining hayotdan qoniqish darajasiga ta'siri	489-492
108.	**Navbahar Salaeva** O'smir yoshidagi o'quvchilarda agressiya holatining namoyon bo'lishi va uni korreksiyalash	493-498
109.	**Sodiqov Sardorbek Soxibjon o'g'li** Ijtimoiy ong jamiyat hayotini anglash, baholash va ma'nolashtirishning markaziy mexanizmi sifatida	499-505

110.	**Pulatov Baxodir Abduraupovich, Ahmadjonov Shohruhbek Bahromjon o‘g‘li, Ismoiljonov Husanboy Dilshodjon o‘g‘li** Yoshlar tafakkurida tarixiy xotirani mustahkamlashda ta’lim tizimining roli	505-508
111.	**Sherjanova Nodira** Migratsiyaning o‘smirlarning shaxsiy rivojlanishiga ta’siri: empatiya aspektida	509-513
112.	**Qalandarova Bonu Shermamat qizi** O‘smirlik davrida psixologik zo‘riqish yuzaga kelishi sabablarini o‘rganish	514-517
113.	**Solayev Og‘abek Ilhombek o‘g‘li** Subyektiv vaqt tezligi tushunchasining psixologik mohiyati va uning talaba yoshlar faoliyatidagi o‘rni	517-521
114.	**Jumanazarova Shodiya Otojon qizi, Mahmudova Marjona Arslon qizi** To‘la yevklid fazoda chebishev-lagger ko'phadlarini ortogonallashtirish prinsipi yordamida aniqlash	521-524
115.	**Matyakubov A.E.** Xx asr oxiri – xxi asr boshlarida “yumshoq kuch” omiliningning shakllanishi va media	524-528
116.	**Ruzimova Feruza Madrahimovna** Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiylashda psixologik omillarni tasiri	528-532
117.	**Matchanova Dilbar Yusufbayevna** Talabalik davri bilan bog‘liq bo‘lgan fabbing holatini eksperimental tadqiq qilishning o‘ziga xos xususiyatlari	532-535
118.	**Isakjanova Saboxat Muhamedovna** Raqamli iqtisodiyot sharoitida jahon miqyosida kichik biznes rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari	536-545
119.	**Sharipov Ibrat G‘ayrat o‘g‘li, Atajanov Murodbek Saparbayevich** Jaloliddin Manguberdi - milliy g‘urur va ma’naviy qalqon timsoli	545-552
120.	**Aliyev Oqiljon** Globalashuv sharoitida milliy pedagogik ta’lim modelida raqamli texnologiyalarning o‘rni	552-556
121.	**Pirjonov Sarvarbek Davlatovich** Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning empatik qobiliyatlarini ijtimoiy moslashish dasturlari asosida rivojlantirish	556-559
122.	**Allabergenova Intizor Xojinazarovna** The importance of teaching and learning languages in military youth: the case of uzbekistan	559-563
123.	**Имомова Нилуфар Абдитолибовна** Трудности при изучении иностранного языка и пути их преодоления	563-568

124.	**Сабиров Владислав Валерьевич, Кодиров Жавохир Ибрахим угли** наследие джалолиддина мангуберди и современные подходы к военно-патриотическому воспитанию молодёжи	568-572
125.	**Ismoilova Himoyat Matnazarovna** Akademik litseylarda ta’limni rivojlantirishning huquqiy va innovatsion asoslari	573-578
126.	**Yuldashev Shahzod** Yuqori sinflarda to‘g‘ri chiziq tenglamasini o‘qitishda pedagogik yondashuvlar	578-582
127.	**Ro‘zimbayev Umarjon Xajiboy o‘g‘li, Alibek Normatov** Context-sensitive translation of polysemous terms in military discourse	583-587
128.	**Otajonov Olimbay Atamurodovich** Zamonaviy o'qitish tizimida yuzaga keladigan pedagogik muammolar	587-592
129.	**Rajabov Elyor Baxtiyorovich** Akademik litseylarda ta’lim sifatini oshirishning zamonaviy pedagogik va tashkiliy asoslari	592-596
130.	**Ибрагимова Анахон Шавкатовна** Лингводидактические проблемы изучения языков в академических лицеях: типологическое сравнение	596-600
131.	**Бегимов Максуд Хиясович** Административная система государства хорезмшахов (ануштегиниды)	600-602
132.	**Abdullayev Madamin Saotboyevich** Akademik litseylarda “ma’naviyat asoslari” va “tarbiya” fanlarini o‘qitishda maxtumquli firog‘iy hikmatlaridan foydalanish	602-607
133.	**Abdullaev M.S.** Tashkent copy of "shajarayi turk" and its history of learning	607-609
134.	**Gulimmatova Shahlo Zafar qizi** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish	610-615
135.	**Rajabova Lobar Madiyorovna** Tarbiya fanini o‘qitishda badiiy pedagogikaning o‘rni	615-618
136.	**Raximova Iroda Shomurotovna** Harbiy-akademik litseylarda ona tili ta’limini takomillashtirish	618-621
137.	**Rajaboy Rasulbek Sobir o‘g‘li** O‘smirlarda oilaviy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	621-626
138.	**Abdullayev Feruzbek Maqsud o‘g‘li** Talabalarining ta’lim jarayonida o‘zini-o‘zi faollashtirishning psixologik determinantlari	626-630

139.	**Shakirova Nafisa Abrarovna** Yangi O‘zbekistonda ta’lim jarayonida yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish va rivojlantirish masalalari (harbiy akademik litseylar misolida)	631-634
140.	**Xadjiyev Umrbek Shonazarovich** O‘quvchida bilishga qiziqishni shakllantirishning integrativ didaktik modellari	634-640
141.	**Berdimuratova Roza Rahmonovna** O‘zbek tilida kosmonimlarning lingvostilistik xususiyatlari tahlili	640-645
142.	**Irisboyeva Xotira O‘tbosarovna** Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat	645-649
143.	**Numanov Sherzodbek Komiljanovich** Amir Temur davrida diplomatik aloqalar va xalqaro munosabatlarda xorijiy tillarning o‘rni	649-653
144.	**Yunusova Madina Rixsibayevna** Temuriylar hukmronligi davrida ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti	653-657
145.	**Batirova Xadichabonu Mamadiyorovna** Yoshlar huquqiy madaniyatini oshirishda davlat va huquq asoslari fanining ahamiyati	657-661
146.	**M.T.Jalalova** Harbiy litsey o‘quvchilarining harbiy kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishda Jaloliddin Manguberdi faoliyatining psixologik talqini	662-664
147.	**Qutimova Malohat Tulibayevna** O‘quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning psixologik asoslari	664-668
148.	**Xodjayeva Dildora Tuxtapulatovna** Temur tuzuklari – davlat boshqaruvining huquqiy asosi sifatida	668-672
149.	**Xudayberganov Yodgorbek Sotimbayevich** Durposhsho Xudoynazarova she’riyatining badiiyati	672-676
150.	**Ismailova Mohinur Maqsud qizi** To’liq va ota obrazi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	676-681
151.	**Shonazarova Sevara Anvar qizi** Diqqat - psixologik jarayon sifatida: nazariy tahlil, neyrofiziologik asoslar	681-687
152.	**Turdiyeva Shahlo** Boshlang‘ich sinf darslarida raqamli didaktika: an’anaviy ta’lim va sun’iy intellekt integratsiyasi	687-690
153.	**Abdullaev Shoxzod Zarifboy o‘g‘li** Yuqori sinf o‘quvchilarda harbiy tasavvurlar shakllanishining psixologik xususiyatlari	690-692

154.	**Rajabboyev Asror Alisherovich** Tengdoshlar guruhi ta’sirida agressiv xulqning kuchayishi va ijtimoiylashuv muammolari	692-697
155.	**Erkinova Lutfiya Qudratovna** Ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari tizimida loyiha kompetensiyasining o‘rni va ahamiyati	697-699
156.	**Erkinova Lutfiya Qudratovna** Kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy pedagogik paradigmalarda loyiha kompetensiyasi tushunchasi	699-702
157.	**B.R. Marimbayeva** Evtagogik yondashuv asosida dars jarayoni tashkil qilishning o'quvchilar metakognitiv ko'nikmalarga ta'siri	702-707
158.	**Ishchanov Eldorbek Gulamdjanovich** O‘smirlar orasida agressivlik va ijobiy xulq-atvor o‘rtasidagi bog’liqlik: nazariy yondashuvlar	707-712
159.	**Iskandarov Erkinboy G‘ayrat o‘g‘li, Urazbayeva Oynura Adilbekovna** Bolalarda raqamli agressiya namoyon bo`lishing psixologik mexanizmlari	712-717
160.	**Djumaniyazov Umrbek Maxsudovich** Dostonlar vositasida talabalarda milliy o‘zlikni anglash kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik va falsafiy asoslari	717-719
161.	**Uzakova Xilola Kamilovna** Jaloliddin Manguberdi obrazining badiiy talqini: tarix va qahramonlik sintezi	719-724
162.	**Tosheva Naima Fatxullayevna, Alijonov Muhammaddiyor Abrorjon o’g’li** yosharni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning psixologik yondashuvi	724-729
163.	**Mamajonov Rahimjon Akramovich** Harbiy vatanparvarlik tarbiyasiga qo‘yiladigan zamonaviy ijtimoiy-pedagoigik talabalar	729-736
164.	**Umarov Ismoiljon Olimjonovich, Jumaboyev Doniyorjon G‘iyosiddin o‘g‘li** Yosh avlod ongida milliy tarixiy merosni shakllantirishda ta’lim-tarbiyaning ahamiyati	736-740
165.	**Umarov Ismoiljon Olimjonovich, Turdiqulov Abdumansur Muhammadjon o‘g‘li** Ta’lim tizimi orqali yoshlarda tarixiy ong va milliy o‘zlikni rivojlantirish mexanizmlari	740-743
166.	**Jumaniyozov Yunus Shodurdi o‘g‘li** O‘smir yigitlarda otalik tasavvurlarining shakllanishini psixodiagnostik tahlili	743-748
167.	**Xudayberganov Navruz Baxtiyarovich** Talabalarda addiktiv xulqning motivatsion asoslari va ularning shakllanish mexanizmlari	748-753

168.	**B.R. Marimbayeva** Evtagogik yondashuv asosida dars jarayoni tashkil qilishning afzalliklari va imkoniyatlari	753-757
169.	**Madjidova Saida Mirbasidovna** Harbiy -akademik litsey o‘quvchilarida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda jaloliddin manguberdi siymosining o‘rni	757-760
170.	**Maxmudova Zulxumor Alim qizi** PBL metodining boshlang‘ich ta’limda ingliz tili o‘qitish samaradorligiga ta’siri	760-764
171.	**Shernazarova Sabina** Temperament sifatlari namoyon etilishining gender xususiyatlari	764-766
172.	**Kurbanov Munis Umrbekovich** Texnologik ta`lim talabalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning psixologik omillari	766-770
173.	**Bekmetova Dilnur Qudrat qizi** Estetik ta’sirni saqlashda funksional-semantik yondashuvning roli	771-775
174.	**Alijonov Muhammadali Diyorjon o‘g‘li** Yosh avlotni tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o‘rni	775-779
175.	**Bobojanov Yusufbay Allabergan o‘g‘li** Shaxsiy notiqlik mahoratini shakllantirishda ijtimoiy-psixologik omillari	780-782
176.	**Xalillayeva Sabohat Xolbayevna** Ingliz tili o‘qitish metodikasining zamonaviy yondashuvlar	782-787
177.	**Malikova Xamida Kamolovna** O‘quvchining bilish faoliyatini rag‘batlantirishning integrativ modeli: mazmun, metod va emotsional fon sinergiyasi	787-794
178.	**Abdullayeva Nasiba Kuralovna** Gurlan shevasiga xos uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari haqida	794-798
179.	**Saidov Burxon** Ijtimoiy-gumanitar fanlar rivojida harbiy boshqaruv va intizom psixologiyasining o‘rni va muammolari	798-802
180.	**Saidnazarova Mashhura Shuxrat qizi** Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari	802-804
IV SHO‘BA. HARBIY TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA CHAQIRIQQACHA BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI		
181.	**Djumaniyazova Muxayya Xusinovna** Harbiy akademik litsey o‘quvchilari ta’lim motivatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari	805-810
182.	**Raximov Alisher Sharofidinovich.** Xorijiy mamlakatlarning harbiy ta’lim va kadrlar tayyorlashni rivojlantirish tajribasi	810-815

183.	**Qo‘chqorov Sobirjon Ahadjonovich** Bo‘lg‘usi harbiy mutaxassislarida vatanga fidoiylik tushunchalarini singdirishning dolzarb masalalari	816-822
184.	**Iminov Fazliddin Isaqjonovich** Harbiy akademik litseylarda chqbt fanining o‘qitilish metodlari	822-826
185.	**R.I.Ollaberganovich** Harbiy akademik litseylarda sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari	826-832
186.	**R.I.Ollaberganovich, Q.J.Maxmudjon o‘g‘li** Harbiy ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt asosida adaptiv o‘qitish va kognitiv qaror qabul qilish modellarini rivojlantirish	832-836
187.	**Shaxnazarov Shavkat Xalliyevich** Harbiy-akademik litsey o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligini oshirishning samarali usullari	837-840
188.	**Doschanov Damir Rahimovich** Harbiy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar asosida o‘quv jarayonini takomillashtirish	840-844
189.	**Sadikova Sevara Salayevna** Harbiy litsey o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash	844-848
190.	**B. Miskinov** Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘quv fanini o‘qitishning ahamiyati	849-863
191.	**Axmedjanov A’zamjon Qosimjon o‘g‘li** Buyuk sarkarda amir temurning harbiy yurishlari. “Temur tuzuklari” haqida	863-868
192.	**Tosheva Naima Fatxullayevna** Jaloliddin Manguberdi merosi va yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy yondashuvlari	868-873
193.	**Xoliqov Sardor Raximovich** Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muxim yo‘nalishlari	873-876
194.	**Xushnud Madraimov Kamildjanovich** Harbiy akademik litsey o'quvchilarining chidamlilik sifatini oshirishda sportning o'rni	876-879

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum, hurmatli professor-o‘qituvchilar, olimlar, soha mutaxassislari hamda aziz anjuman ishtirokchilari!

Mazkur to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga qarashli Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyda ilk bor tashkil etilgan ilmiy-amaliy anjuman bo‘lib, anjumanda ishtirok etayotgan barchani samimiy muborakbod etamiz hamda ilmiy faoliyatlarida ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz. Ushbu anjuman **“Jaloliddin Manguberdi merosi va yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy yondashuvlari”** mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, u harbiy ta’lim tizimini takomillashtirish hamda milliy qadriyatlar asosida yosh avlodni tarbiyalash yo‘lida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, davlatimiz rahbari muhtaram Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, ***“Barchamizga yaxshi ma’lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi”.*** Darhaqiqat, yurtboshimizning ushbu fikrlarida vatanparvarlik tarbiyasining jamiyat taraqqiyotidagi beqiyos o‘rni, yosh avlodni milliy g‘oya, sadoqat va yuksak mas’uliyat ruhida tarbiyalash zarurati chuqur ifodasini topgan.

Bugungi globallashuv sharoitida, dunyoda kechayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar fonida yoshlarni har tomonlama barkamol, mustahkam e’tiqod va qat’iy fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxs sifatida tarbiyalash ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Shu o‘rinda Yurtboshimiz qayd etganidek, ***“Milliy ruh kuchli bo‘lsa, iroda, jangovar salohiyat ham yuqori bo‘ladi”.*** Ayniqsa, harbiy-akademik litseylar zimmasiga nafaqat bilimli, balki Vatanga sadoqatli, yot g‘oyalarga qarshi tura oladigan, zamonaviy texnologiyalarni puxta egallagan yoshlarni voyaga yetkazishdek mas’uliyatli vazifa yuklatilgan.

Mazkur anjuman mavzusining markazida buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi shaxsiyati va uning boy tarixiy merosi turadi. Uning jasorati, Vatan ozodligi yo‘lida ko‘rsatgan matonati, sadoqati va harbiy mahorati bugungi yoshlar uchun ibrat maktabidir. Shu o‘rinda Mirzo Ulug‘bek ta’kidlaganidek, ***“Olam ahli Jaloliddindan oldin ham, keyin ham bunday bahodir jangchini ko‘rmagan. Bu zotning azm-u shijoati oldida hatto buyuklikning o‘zi ham ta’zim qiladi”.*** Jaloliddin Manguberdi siymosi orqali yosh avlod qalbida vatanparvarlik, fidoyilik, jasorat va mas’uliyat kabi yuksak fazilatlarni shakllantirish bugungi ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biridir.

To‘plamga kiritilgan ilmiy maqolalarda Jaloliddin Manguberdi merosini o‘rganish va uni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish, harbiy vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va amaliy asoslari, innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim vositalaridan samarali foydalanish hamda yoshlar ongida milliy g‘oya va mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari keng yoritilgan. Mualliflar tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar va amaliy takliflar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ta’kidlash joizki, litsey faoliyatida erishilayotgan natijalar mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan tizimli ishlarning amaliy ifodasidir. Xususan, litsey ilk bitiruvchilarining oliy ta’lim muassasalariga kirish ko‘rsatkichi **98 foizni** tashkil etgani, hozirgi vaqtda 302 nafar o‘quvchida jami **374 ta** umumta’lim fanlari hamda xorijiy tillarni bilish bo‘yicha milliy sertifikatlarning mavjudligi yuqori ta’lim sifati va samaradorligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, sport va intellektual yo‘nalishlarda ham salmoqli yutuqlarga erishilgan. Milliy kurash, qo‘l jangi va boks bo‘yicha o‘quvchilarimiz sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, voleybol musobaqalarida viloyat bo‘yicha faxrli **1-o‘rin** egallandi. ***“Usmanov Kombat Sistem”*** sport turi bo‘yicha 3 nafar Respublika chempioni, 2 nafar Osiyo chempioni yetishib chiqqani o‘quvchilarimizning jismoniy tayyorgarligi va sport mahorati yuqori darajada ekanidan dalolat beradi. Shu bilan birga, harbiy-akademik litseylar o‘rtasida o‘tkazilgan **“Amir Temur vorislari”** harbiy-sport musobaqasida litsey jamoasi ham munosib ishtirok etib, kuchli jamoalar orasida faxrli **3-o‘rin**ni egalladi. Qolaversa, ***“Zakovat”*** intellektual o‘yinida viloyat bosqichida g‘oliblik qo‘lga kiritildi. MDH davlatlari o‘rtasida matematika va fizika fanlaridan o‘tkazilgan **xalqaro olimpiada**da **2-o‘rin**ni qo‘lga kiritish yoshlarimizning ilmiy salohiyati yuksak ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bugungi kunda litseyda yaratilgan zamonaviy infratuzilma, jumladan, robototexnika va dron texnologiyalariga ixtisoslashgan o‘quv xonalarining mavjudligi o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, litseydagi o‘qituvchi va o‘quvchilarning barchasi ***“Besh million sun’iy intellekt yetakchilari”*** dasturi doirasida ham sertifikatlarni qo‘lga kiritgani ularning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallashga bo‘lgan intilishini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu esa kelajakda yuqori texnologiyalarni puxta egallagan harbiy mutaxassislarni tayyorlash uchun mustahkam zamin yaratadi.

Bundan tashqari, litseyimizda qo‘shimcha ingliz tili xonalarining ochilishi, avtomobil xizmati xodimlari uchun maxsus xonalar va avtomobil turargohining tashkil etilgani hamda o‘quvchilar yotoqxonasida qo‘shimcha yuvinish xonalarining barpo etilishi va tibbiyot xonalari uchun qulay sharoitlar yaratilgani ta’lim muhitini yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur to‘plamda jamlangan ilmiy maqolalar va ilgari surilgan takliflar harbiy-akademik litseylar faoliyatini yanada takomillashtirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish hamda ta’lim-tarbiya jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi, deb ishonamiz.

Barcha mualliflarga ilmiy izlanishlari va mazkur to‘plamni tayyorlashdagi faol ishtiroklari uchun minnatdorchilik bildiramiz. Ushbu ilmiy-amaliy ishlar yurtimiz tinchligi, sarhadlarimiz daxlsizligi hamda Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti yo‘lida munosib hissa bo‘lib qo‘shilishiga ishonch bildiramiz.

Jaloliddin Manguberdi
nomidagi harbiy-akademik
litseyi direktori falsafa fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
polkovnik I.M.Saidov

1-SHO‘BA. JALOLIDDIN MANGUBERDI MEROSI VA YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

JALOLIDDIN MANGUBERDI HARBIY STRATEGIYASINING YOSH AVLODDA VATANPARVARLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

Axmedov Ulug‘bek Tadjivoyevich
O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi harbiy kadrlarni tayyorlash boshqarmasi boshlig‘i

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jaloliddin Manguberdi harbiy strategiyasining yosh avlodda vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, uning jangovar taktikasi va strategik boshqaruv yondashuvlari “Taraqqiyot strategiyasi 2030” hamda zamonaviy harbiy islohotlar bilan uyg‘un holda yoritilgan. Tadqiqot natijalari tarixiy merosni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish yoshlarning strategik fikrlash, liderlik va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Jaloliddin Manguberdi, harbiy strategiya, vatanparvarlik, kompetensiya, Taraqqiyot strategiyasi 2030, harbiy islohotlar, liderlik, tarixiy meros, ta’lim integratsiyasi.

Annotation: This article scientifically analyzes the role of Jaloliddin Manguberdi’s military strategy in developing patriotic competencies among youth. His tactical and strategic approaches are examined in relation to the “Development Strategy 2030” and modern military reforms. The study demonstrates that integrating historical heritage into education enhances strategic thinking, leadership, and civic responsibility in the younger generation.

Keywords: Jaloliddin Manguberdi, military strategy, patriotism, competencies, Development Strategy 2030, military reforms, leadership, historical heritage, educational integration.

Аннотация: В данной статье научно анализируется роль военной стратегии Джалолиддина Мангуберди в формировании патриотических компетенций у молодёжи. Рассматриваются его тактические и стратегические подходы в контексте “Стратегии развития 2030” и современных военных реформ. Результаты исследования показывают, что интеграция исторического наследия в образовательный процесс способствует развитию стратегического мышления, лидерства и гражданской ответственности у молодого поколения.

Ключевые слова: Джалолиддин Мангуберди, военная стратегия, патриотизм, компетенции, Стратегия развития 2030, военные реформы, лидерство, историческое наследие, образовательная интеграция.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni milliy qadriyatlar, tarixiy meros va zamonaviy kompetensiyalar asosida tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Taraqqiyot strategiyasi 2030”da inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish hamda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu strategik hujjatda belgilangan maqsadlar jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun intellektual salohiyati yuqori, milliy g‘urur va fuqarolik mas’uliyatiga ega avlodni shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Mazkur strategiya doirasida ta’lim jarayonida tarixiy meros va buyuk ajdodlar faoliyatini o‘rganish orqali yoshlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini kengaytirish, ularda vatanparvarlik kompetensiyalarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, Jaloliddin Manguberdi shaxsi va uning harbiy merosi yosh avlodni tarbiyalashda alohida ilmiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega [2,3].

Jaloliddin Manguberdi o‘z davrining yirik sarkardasi sifatida nafaqat harbiy jasorati, balki chuqur strategik fikrlash, tezkor qaror qabul qilish va murakkab vaziyatlarda boshqaruvni amalga oshirish qobiliyati bilan ham ajralib turadi. Uning harbiy faoliyati milliy tariximizda vatan himoyasi, mustaqillik va fidoyilik timsoli sifatida muhim o‘rin egallaydi.

Shu bois, uning harbiy strategiyasini o‘rganish va uni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan integratsiya qilish “Taraqqiyot strategiyasi 2030”da belgilangan ta’lim sifatini oshirish hamda yoshlarni ma’naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalash vazifalari bilan bevosita uyg‘unlashadi. Bu jarayon yosh avlodda strategik fikrlash, liderlik, mas’uliyat va vatanparvarlik kabi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi [5].

Asosiy qism. Jaloliddin Manguberdi harbiy faoliyati Markaziy Osiyo tarixida strategik tafakkur va harbiy boshqaruvning yuksak namunasi sifatida baholanadi. Uning jangovar yondashuvlari nafaqat o‘sha davr harbiy amaliyotida, balki zamonaviy harbiy-pedagogik konsepsiyalar nuqtai nazaridan ham dolzarb ilmiy ahamiyatga ega. Tarixiy manbalarga ko‘ra, u mo‘g‘ul istilochilariga qarshi kurashda yirik qo‘shinlar to‘qnashuvi o‘rniga tezkor manevrlar, kutilmagan zarbalar va

geografik sharoitdan samarali foydalanishga asoslangan strategiyani qo‘llagan.

Uning harbiy strategiyasining muhim jihatlaridan biri **operativ moslashuvchanlik** hisoblanadi. Jaloliddin Manguberdi cheklangan resurslar sharoitida ham jangovar samaradorlikni saqlab qolish uchun qo‘shinlarni kichik, harakatchan bo‘linmalarga ajratgan, ularni tezkor boshqaruv asosida harakatlantirgan. Bu yondashuv zamonaviy harbiy fanlarda “asymmetric warfare” tushunchasiga mos keladi va strategik ustunlikni resurslar teng bo‘lmagan sharoitda ham ta’minlash imkonini beradi.

Shuningdek, uning strategiyasida **psixologik ta’sir elementlari** ham muhim o‘rin tutadi. Kutilmagan hujumlar, tezkor chekinish va qayta zarba berish taktikalari dushman kuchlarida qo‘rquv va noaniqlikni kuchaytirib, ularning jangovar samaradorligini pasaytirgan. Bu esa Jaloliddin Manguberdining nafaqat harbiy, balki psixologik boshqaruv kompetensiyalariga ham ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Taraqqiyot strategiyasi 2030 bilan integratsiya

O‘zbekiston Respublikasining “Taraqqiyot strategiyasi 2030”da inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Mazkur strategik hujjatda yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor va raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantirish vazifasi qo‘yilgan [1].

Ushbu nuqtai nazardan, Jaloliddin Manguberdi harbiy strategiyasini o‘rganish Strategiya 2030 maqsadlari bilan bevosita uyg‘unlashadi. Uning jangovar tajribasi yoshlar uchun **strategik fikrlash, tezkor qaror qabul qilish va liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli** sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, resurslarni optimal boshqarish va murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalar zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim tizimining asosiy talablariga mos keladi.

Pedagogik jihatdan qaralganda, Jaloliddin Manguberdi merosini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish “Taraqqiyot strategiyasi 2030”da belgilangan innovatsion ta’lim muhitini shakllantirish vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda interfaol metodlar, muammoli ta’lim, case-study va loyiha asosida o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish orqali tarixiy bilimlar amaliy kompetensiyalarga aylantiriladi [6,7].

Shuningdek, uning shaxsiyati yoshlar ongida vatanparvarlik identifikatsiyasini kuchaytiradi. Bu esa Strategiya 2030da ko‘zda

tutilgan “milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish” maqsadlari bilan uyg‘un holda, yosh avlodda fuqarolik mas’uliyati va milliy g‘ururni shakllantiradi.

Umuman olganda, Jaloliddin Manguberdi harbiy merosi va “Taraqqiyot strategiyasi 2030” o‘rtasidagi integratsiya zamonaviy ta’lim tizimida kompleks pedagogik modelni shakllantiradi. Bu model nafaqat tarixiy bilimlarni chuqurlashtiradi, balki yoshlarni global kompetensiyalarga ega, strategik fikrlaydigan va vatanparvar shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

1. Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish siyosati

Prezident tomonidan Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy texnika va raqamli boshqaruv tizimlari bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu yondashuv Jaloliddin Manguberdining strategik moslashuvchanlik tamoyillari bilan uyg‘unlashadi, chunki har ikkala holatda ham **tezkor qaror qabul qilish va samarali boshqaruv** asosiy o‘rinda turadi.

2. Professional armiya va kadrlar tayyorlash

Harbiy ta’lim tizimini takomillashtirish, professional ofitser kadrlarini tayyorlash va harbiy akademiyalarni rivojlantirish siyosati yosh avlodda yuqori darajadagi kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Bu Jaloliddin Manguberdi kabi tarixiy sarkardalar tajribasini o‘rganish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, **liderlik va strategik fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi**.

3. Vatanparvarlik tarbiyasi va “Temurbeklar maktabi” modeli

Prezident tashabbusi bilan tashkil etilgan harbiy-akademik litseylar va “Temurbeklar maktabi” tizimi yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangi bosqichi hisoblanadi. Bu tizimda tarixiy qahramonlar, jumladan Jaloliddin Manguberdi merosi asosiy tarbiyaviy manba sifatida qo‘llaniladi.

4. Raqamli armiya va innovatsion texnologiyalar

Zamonaviy armiya tizimida raqamli boshqaruv, sun’iy intellekt va axborot xavfsizligi texnologiyalarining joriy etilishi harbiy sohani yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu esa yoshlarning **IT va strategik fikrlash kompetensiyalarini birlashtirish** zaruratini yuzaga keltiradi.

5. Milliy g‘urur va tarixiy meros integratsiyasi

Prezident siyosatida milliy tarix va ajdodlar merosini targ‘ib qilish orqali yosh avlodda milliy g‘urur va vatanparvarlikni kuchaytirish muhim yo‘nalish sifatida belgilangan. Bu Jaloliddin Manguberdi kabi tarixiy shaxslarni o‘rganishni harbiy ta’limning ajralmas qismiga aylantiradi [8].

Muhokama. Jaloliddin Manguberdi harbiy strategiyasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, uning jangovar yondashuvlari nafaqat o‘sha davr harbiy amaliyoti uchun, balki zamonaviy harbiy-pedagogik tizim uchun ham dolzarb ilmiy ahamiyatga ega. Tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar uning strategiyasini ko‘proq moslashuvchan, tezkor va vaziyatga yo‘naltirilgan harbiy tizim sifatida baholaydi. Bu esa uni klassik yirik janglar strategiyasidan farqli ravishda, noan’anaviy (asymmetric) harbiy fikrlash vakili sifatida ko‘rsatadi.

Muhokama jarayonida shuni alohida ta’kidlash lozimki, Jaloliddin Manguberdi harbiy faoliyatining asosiy ilmiy qiymati uning **resurslar cheklangan sharoitda ham strategik ustunlikni saqlab qolish qobiliyatida** namoyon bo‘ladi. Bu jihat zamonaviy harbiy nazariyada “resurslarni optimal boshqarish” tamoyiliga mos keladi. Uning kichik harbiy guruhlar bilan yirik dushman kuchlariga qarshi samarali kurash olib borishi, strategik fikrlash va tezkor qaror qabul qilish kompetensiyalarining yuqori darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, Jaloliddin Manguberdi shaxsini o‘rganish yosh avlodda faqat tarixiy bilimlarni emas, balki chuqur tarbiyaviy va psixologik ta’sirni ham shakllantiradi. Ayniqsa, uning vatan himoyasi yo‘lidagi qat’iyati va fidoyiligi yoshlar ongida **vatanparvarlik motivatsiyasini kuchaytiruvchi ijtimoiy-psixologik model** sifatida xizmat qiladi. Bu jarayonda identifikatsiya mexanizmi muhim rol o‘ynaydi, ya’ni yoshlar tarixiy qahramon bilan o‘zini qiyoslash orqali ijobiy xulqiy modelni qabul qiladi [9].

Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim tizimida Jaloliddin Manguberdi merosini o‘qitish jarayonida ayrim metodik muammolar ham kuzatiladi. Jumladan, tarixiy materiallarning ko‘proq faktologik yondashuvda berilishi, ularni kompetensiyaviy yondashuvga integratsiya qilishni cheklab qo‘yishi mumkin. Shu sababli, ushbu mavzuni o‘qitishda interfaol metodlar, simulyatsion modellar va case-study texnologiyalaridan foydalanish samaradorlikni oshiradi.

Bundan tashqari, Jaloliddin Manguberdi harbiy strategiyasini zamonaviy harbiy ta’lim bilan integratsiya qilish kursantlar va o‘quvchilarda **tizimli fikrlash, liderlik va stress ostida qaror qabul qilish** ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa uni nafaqat tarixiy shaxs sifatida, balki zamonaviy kompetensiya modeli sifatida ham ilmiy jihatdan dolzarb qiladi.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, Jaloliddin Manguberdi harbiy merosi yosh avlodni tarbiyalashda kompleks pedagogik va metodologik resurs sifatida qaralishi lozim.

Uning strategiyasi asosida ishlab chiqilgan ta’lim yondashuvlari milliy identitetni mustahkamlash bilan birga, zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Jaloliddin Manguberdi harbiy strategiyasi tarixiy jihatdan yuksak ahamiyatga ega bo‘lish bilan birga, zamonaviy ta’lim va tarbiya tizimida yosh avlodning vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ilmiy-metodik asos vazifasini bajaradi. Uning jangovar faoliyatida namoyon bo‘lgan strategik fikrlash, tezkor qaror qabul qilish, operativ moslashuvchanlik va liderlik sifatlari bugungi kunda harbiy va fuqarolik ta’lim tizimida shakllantirilishi lozim bo‘lgan asosiy kompetensiyalar bilan uyg‘unlik kasb etadi.

safarbar qiladi. 1943 yil martda Rahimovga general-mayor unvoni beriladi va Moskvaga Harbiy akademiyaga o'qishga chaqiriladi. Uning mayorlikdan generallikkacha juda tez ko'tarilishi shaxsiy ofitserlik xususiyatlari bilan izohlanadi" [2]. 1941 yil jami 6 million aholisi bor O'zbekistondan 1,5 millionga yaqin kishi Vatan tinchligi, yurt tuprog'i uchun jangga otlandi. Afsuski, ularning orasidan ona yurtga qaytib kelganlar soni juda-juda oz edi. Gollandiya hududidagi Amersfort lagerida qahramonlarcha halok bo'lgan, fashistlar tomonidan ham ruhan, ham jismonan og'ir qiynoqlarga solinsa-da, ularning poyiga mag'rur boshini qo'ymagan, oxirgi nafaslari qolguncha Vatanini sotmagan, och-nahor, eng og'ir ishlarga jalb etilsa-da, ahilligini yo'qotmay, bir-birini suyagan, insonparvarlik g'alabasini qozonib, shafqatsizlarcha otib tashlangan 101 nafar o'zbek jangchisi esa bugungi bolalar uchun chinakam ibrat, faxr-iftixor, g'urur baxsh etadi. Chinakkam vatanparvarlikni o'zbek jangchilari timsolida g'urur bilan iftixor bilan baralla aytishimiz mumkin. Tariximizga nazar soladigan bo'lsak ulug' ajdodlarimiz bu hadisi sharifga astoydil amal qilganiga guvoh bo'lamiz. Yurtimizga mo'g'il bosqinshilari bostirib kelgan vaqtida Xorazim shohi qalani tashlab ketadi, shunda Najmiddin Kubro xazratlari o'zining shogirdlari hamda xalq bilan birgalikda vatan ximoyasiga otlanadi. Bosqinchilar qancha urunsa – da qal'ani ololmaydi. Shundan so'ng bosqinchilar Najmiddin Kubro hazratlariga qal'ani topshirsa, o'zi va shogirdlarini omon qoldirishini taklif etadi. Shayh Najmiddin Kubro hazralari "Vatanni sevmoq iymondandir"degan hadisi sharifga amal qilib, bu taklifga rozi bo'lmaydi. So'nggi nafasigacha vatan ximoyasida turib shaxid bo'ladi. Har bir inson o'zi tug'ilib o'sgan, kindik qoni to'kilgan ona vatanini sevadi. Vatan muqaddas makondir, uning ximoyasi esa har – bir yigitning burchidir. Vatan ne'mati buyuk ne'matdir. Barcha inson Allox tomonidan ato qilib qo'yilgan mana shu ne'mat bag'rida tug'ilib, o'sib-ulg'ayadi, uning yaxshiliklaridan nasibador bo'ladi. Binobarin uning zimmasida mazkur muxitga nisbatan, bu muxit o'z ishiga olgan narsalarga nisbatan ma'lum xaq-huquqlar va majburiyatlar paydo bo'ladi. O'zini vataniga mansub deb biluvchi kishi bu xaqlarni ado qilmog'i lozimdir. Bu xaq-huquqlar vatanga sadoqat, uni yaxshi ko'rish, uni ko'z qorachig'iday asrab, kelajak avlodlarga ozod va obod xolda etkazish, uning rivoji va ravnaqi uchun imkoniyatidagi bor narsalarni ishga solish, unda yashovshi kishilarga nisbatan o'z majburiyatlarini ado etish, masalan, qo'shnichilik, qarindoshlik xaq-huquqlarini ado qilish, odamlariga ziyon yetkazmaslik kabi ko'plab narsalarda namoyon bo'ladi. "ommaviy-sport ishlari, marafonlar,

sportning o’yin turlari (futbol, voleybol, regbi va boshqalar), «Temurbeklar», «Yosh qutqaruvchi» kabi harbiy-sport o’yinlarini, «Harbiy kitobxon» kabi tanlovlarni tashkil etish va o’tkazish; maktabgasha ta’lim tashkilotlarida bolalar ertaliklarini o’tkazish hamda Vatanga sadoqat, avlodlar qahramonligini madh qilishga qaratilgan «Men ham harbiy bo’laman!» shiori ostida turli estafetalar tashkil etish va o’tkazish” [3].

Tarixga nazar solsak Shaxabiddin an Nasaviyning yozishisha, Mamlyuklar X-XII asrlarda Xorazmda paydo bo’lgan. Ular o’z vatani, hukmdori uchun jonini berishga tayyor, sodiq jangchilardir. Xorazmshohalar dinastiyasining asoschisi Anush Tegin mamlyuk bo’lgan. Harbiy xodimlar davlatning asosiy kuchi, ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga etishning betakror usuli ekanini Amir Temur ham yaxshi bilgan. Har qanday dono va jasur sarkarda qo’shinga, sodiq jangchilariga tayanishi uning fikridan, amaliy ishlaridan uzoq bo’lmagan. Shunday harramlari bo’lmagan kishi, sarkarda harbiy maqsadalariga erisholmagan. “Temur tuzuklari”da o’qiymiz: “Amir Jaqu, Iygu Temur, amir Sulaymon, amir Jaloliddinlarni xilvatroq erga chorladim va ular bilan kelishib, o’zimga yanada yaqin tutdim. “Davlatimga sherik bo’lasizlar”, dedim. Bu bilan (ularning dilida) o’zlariga ishonch va menga xizmat qilish uchun qat’iyat tuyg’ularni uyg’otdim. Shunga o’xshash, men bilan ittifoqi buzilgan toifadagi boshqa amirlarni ham birma-bir xoli joyga chorlab, har qaysisi bilan alohida gaplashdim. Bulardan mol-dunyoga hirs qo’ygan ochko’z va ta’magirlariga mol ashyo va’da qildim, mansab martabaga, mamlakatlarni boshqarishga ko’z tikkan amalparastlarga qo’lga kiritgan mamlakatlar, viloyatlardan birining hokimligini berdim. Ularning hammasini umid va qo’rqinch orasida saqladim. Har biriga bittadan noib va qutvol tayinladim. Qolgan sipohiylarni ham emak-ichmak, kiyim-kechak umidi, shirin so’z, ochiq yuz bilan o’zimga rom etdim. Bir xizmatini o’n barobar qilib taqdirlab, dillarini xushnud ayladim. Natijada meni qo’llab-quvvatlaganlar ham, teskari bo’lgan munofiqlar ham barchasi atrofimda birlashdi. Har ishda birlik ittifoqlikni mahkam tutishga, amrimdan chiqmaslikka va’da berib, men uchun mol-jonlarini ayamay, maydonda jonbozlik ko’rsatishga ahd qildilar”[4,36-b.]. Lashkarni boshqarish, harbiy xodimlarning ishonchini qozonish ularni g’alabaga etaklash alohida san’atni taqozo etadi. N.Makiavelli yozganidek, taxt atrofida o’z manfaatlarini unutmagan shaxslar aylanib yuradi [5,128-130-b.]. “Temur tuzuklari”dagi bayon, so’zlar harbiy qismlarda ham o’z manfaatlarini, boylikka, mulkka o’ch kishilar uchrashini, goho shunday kuchlar askarlarga destruktiv ta’sir

etib, mag’lubiyatga sababchi bo’lishini bildiradi. Qo’shinni, ayniqsa qo’shinni etaklovchi boshliqlarni “umid va qo’rquvda ushlab turish” juda zarur psixologik usul hisoblanadi. “Temur tuzuklari”dagi “men uchun” degan so’zga alohida e’tibor berish kerak. Bu so’zni psixoanaliz nuqtai-nazaridan tahlil qilsak Amir Temur olib borgan janglar mohiyati oydinlashadi. Ayniqsa, ba’zi tadqiqotchilar uning qirq yillik yurishlarini oqlash uchun u islom dinini yoyish uchun jang qilgan degan sababni keltirishadi. “Qirq yil otdan tushmay” xalqlar, davlat ustiga yurish, ular ustidan o’z hukmronligini o’rnatishga intilish million million kishilar hayotiga zomin bo’lgani, shubhasiz. Axir “qirq yil otdan tushmaslik” bemaqsad emasdi-ku?! “Men ushun” degan so’z bu hol negizidagi mohiyatni oydinlashtiradi. Aslida esa davlatni, erishilgan tarixiy yutuqlarni o’z “men”i bilan aynanlashtirish barcha monarxlarga, avtokratlarga xos. Boshqarish psixologiyasi va liderlik xislatlaridan xabardor kishi biladiki, jamoa, ittifoq erishadigan muvaffaqiyatlar ma’lum bir shaxslarning yetakchiligini taqozo etadi, barcha mas’uliyatni o’z ustiga olgan shunday shaxs kishilarni birlashtiradi, ularni g’alabalar sari ilhomlantiradi. Harbiy ishlar tarixi va ijtimoiy-tarixiy izlanishlar ko’rsatadiki, urush paytlari, kishilar ko’z oldida jon berib jon olish yuz berayotganda, qon to’kilayotganida, beshafqat ekstremal hollarda liderning, yetakchining shaxsiy jasorati, fidoiyligi va mardligi o’ta muhimdir. Sarkarda panada turib jang, olishuvni kuzatib turavermaydi, shunday vaziyatlar bo’ladiki, jang natijasini uning jangda bevosita ishtiroki, mardligi hal qiladi, askarlarni shaxsiy ibratli xatti-harakatlari bilan g’alabaga etaklaydi [6].

Xulosamiz shuki, vatanparvarlikdek ulug’ hisni balandparvoz shiorga emas, o’zimizning kundalik odatimizga aylantirsakgina bugungi kunimiz ham, kelajagimiz ham insho Olloh obod va farovon bo’lib boraveradi. Chunki, buning ushun Ollohning nazari tushgan bizning sevimli O’zbekistonimizda hamma imkoniyatlar bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Макиавелли Н. Государь. Минск: Москва: ООО коллекция, 2015. С.128-130

2.Плутарх. Жизнеописание. Т.12. Москва: Правда. 1988; Самарқандий А. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. Тошкент: Ўзбекистон, 2008; Содиқов Ҳ. Амир Темур салтанатида хавфсизлик хизмати. Тошкент: ART FLEX, 2018.

3.Ёшларни ҳарбий - ватанпарварлик рухида тарбиялаш канцепсияси.

4.Темукр тузуклари. Тошкент: Ўзбекистон, 2018. 39 б

5.В.Г.Белинский
6. https://sputniknews-uz.com/society/20180508/8150132.html

JALOLIDDIN MANGUBERDINING HARBIY BOSHQARUV USULLARI VA ULARNING HARBIY DOKTRINADA AHAMIYATI

Djasanov G‘ayrat Ibragimovich
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Harbiy aviatsiya instituti Muxandislarni tayyorlash kafedrasi Aviatsiya qurollari sikli katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Jaloliddin Manguberdining harbiy boshqaruv usullari va ularning zamonaviy harbiy doktrinalardagi ahamiyati tahlil qilinadi.Maqolada uning jangovar strategiyasi,tezkor qaror qabul qilish qobiliyati,qo‘shinlarni samarali boshqarish usullari hamda murakkab harbiy vaziyatlarda qo‘llagan taktik yechimlari yoritiladi.Shuningdek,tarixiy manbalar asosida uning harbiy boshqaruv tamoyillari zamonaviy armiyalar strategiyasi bilan qiyosiy tahlil qilinadi.Tadqiqot natijalari Jaloliddin Manguberdining harbiy san‘ati bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib,zamonaviy harbiy doktrina va strategiyalar rivojida muhim o‘rin tutushini ko‘rsatadi.Ushbu ish tarixiy harbiy tajribani zamonaviy harbiy nazariya bilan bog‘lashga xizmat qiladi.

KALIT SO‘ZLAR: Jaloliddin Manguberdi,harbiy boshqaruv, harbiy startegiya, taktika, harbiy doktrina, yetakchilik, harbiy san‘at, manevr, strategik fikrlash, zamonaviy armiyalar, harbiy tajriba, tarixiy harbiy tahlil.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются методы военного управления Jaloliddin Manguberdi и их значение в современных военных доктренах. В работе рассматриваются его военная стратегия, способность к быстрому принятию решений, ефективные методы управления войсками, а также тактические решения в сложных боевых условиях. Также на основне исторических источников проводится сравнительный анализ его военных принципов с современными военными стратегиями. Результаты исследования показывают, что военное искусство Джалолиддина Мангуберди остается актуальным и играет важную роль в развитии современных военных доктрин и стратегий. Данная работа способствует соединению исторического военного опыта с современной военной теорией.

Ключевые слова: Джалолиддин Мангуберди, военное управление, военная стратегия, тактика, военная доктрина, лидерство, военное исскусство, маневр, стратегик мышление, современные армии, военный опыт, исторический анализ.

ABSTRAKT: This articles analyzes the military management methods of Jaloliddin Manguberdi and their significance in modern military doctrines. The study examines his military strategy,ability to make quick decisions, effective troop management techniques, and tactical solutions in complex combat situations.Based on historical sources, a comparative analysis of his military principles with modern military strategies is also conducted. The results of the study show that the military art of Jaloliddin Manguberdi remains relevant and plays an important role in the development of modern military doctrines and strategies. This work contributes to connecting historical military experience with contemporary military theory.

Keywords: Jaloliddin Manguberdi, military management, military strategy, tactics, military doctrine, leadership, military art, maneuver, strategic thinking, modern armies, military experience, historical analysis.

Harbiy san‘at va strategiya - tarix davomida davlatlar taqdirini belgilab kelgan muhim omillardan biri hisoblanadi. Buyuk sarkardalar o‘z davrida qo‘llagan harbiy boshqaruv usullari nafaqat o‘sha davr urushlarida , balki keying avlodlar uchun ham qimmatli tajriba manbai bo‘lib xizmat qiladi.Ana shunday buyuk tarixiy shaxslardan bir – Jaloliddin Manguberdi bo‘lib, u o‘zining jasorati, harbiy mahorati va yetakchilik qobiliyati bilan tarixda o‘chmas iz qoldirgan.

Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullarga qarshi kurashda nafaqat jasur jangchi , balki mohir strateg va kuchli harbiy boshqaruvchi sifatida ham tanilgan. Uning qo‘llagan harbiy usullari, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati va murakkab jangovar vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tanlay olishi bugungi kunda ham harbiy sohada o‘rganilishi lozim bo‘lganmuhim tajribalardan biridir.

Zamonaviy harbiy tizimlar va harbiy qurollar rivojlangan bo‘lishiga qaramasdan,tarixiy sarkardalarning tajribasi va ularning harbiy doktrinasi bugungi harbiy strategiyalarni va harbiy tizimni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, Jaloliddin Manguberdining harbiy boshqaruv usullarini o‘rganish va ularni zamonaviy harbiy doktrina bilan taqqoslash qiyoslash dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolada Jaloliddin Manguberdining harbiy boshqaruv usullari,uning strategik qarorlari va ularning zamonaviy harbiy doktrinada aks etish darajasi tahlil qilinadi.

Jaloliddin Manguberdining harbiy faoliyati XII – XIII asrlarda Markaziy Osiyoda mo‘g‘ullarga qarshi kurash bilan bog‘liq.Uning qo‘shinlarni boshqarish usuli murakkab jangovar vaziyatlarda tezkor qaror qabil qilishga asoslangan edi. Jaloliddin Manguberdi kichik , ammo harakatga tayyor bo’lgan qo‘shinlar bilan katta armiyalarga qarshi samarali kurash olib borgan. Uning harbiy boshqaruvining asosiy tamoyillari quyidagilar edi:

- **Tezkor qaror qabul qilish –** jang maydonida vaziyat tez o‘zgaradi, shunda Manguberdi qo‘shinlarni o‘z vaqtida manevr qildirib,dushmanning zaif tomonini aniqlagan.
- **Mobil qo‘shinlar –** uning askarlari har doim harakatga tayyor bo‘lgan, uzoq masofalarga tez o‘tish va strategik manevrlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan.
- **Taktik xilma – xillik –** u bir xil usulni qayta qayta ishlatmay, dushmanning harakatlariga qarab yangi taktika ishlab chiqqan.

Jaloliddin Manguberdining ushbu tamoyillari bugungi kun harbiy strategiyalarida ham katta ahamiyatga ega .Masalan hozirgi zamonaviy armiyalarda mobil quruqlik qo‘shinlari va tezkor qaror qabul qilish markazlari Manguberdi uslublariga o‘xshash prisplarga tayanadi. Jaloliddin Manguberdi nafaqat shaxsiy jasorati, balki strategik boshqaruv qobiliyati bilan ham ajralib turar edi. U qo‘shinlarni janggi tayyorlash, pozitsiyalarni to‘g‘ri tanlash va resurslarni optimal ishlatishda juda mohir edi.

Tarixdan ma‘lum-ki, Jaloliddin Manguberdining “Har bir askar o‘z o‘rnini bilishi va harakatini tezkor amalga oshirishi” prinsipi qayd etilgan. Bu zamonaviy harbiy boshqaruv tizimlarida ham qo‘llaniladi: bugungi kunda har bir bo‘linma o‘z vazifasini aniq bilishi, tez va samarali harakat qilishi zarur. Shuningdek, Manguberdi murakkab vaziyatlarda dushmanning psixologiyasini hisobga olish orqali taktika ishlab chiqqan. Bugungi kun urushlarida ham raqibning harakatini oldindan taxmin qilish va chora ko‘rish muhim omil sifatida qaraladi.

Jaloliddin Manguberdi qo‘llagan “kichik qo‘shin bilan katta armiyaga qarshi kurash” taktikalari zamonaviy armiyalarda assymetrik urush va partizan usullariga juda ham o‘xshash. Bilamiz-ki, zamonaviy harbiy doktrina ham kichik, manevrga tayyor bo‘linmalardan samarali foydalangan holda, katta resursga ega raqibga qarshi kurash

strategiyasini ishlab chiqadi. Bugungi kunda armiya o‘quv markazlarida Manguberdi usullaridan o‘rnak sifatida foydalanish mumkin:

- Tezkor qaror qabul qilish mashqlari
- Mobil va manevrga tayyor bo‘linmalar bilan taktik o‘qitish
- Resurslarni optimal ishlatish va psixologik ustunlikni qo‘lga kiritish.

Jaloliddin Manguberdi harbiy boshqaruv va strategiya bo‘yicha o‘z davrining eng ilg‘or sarkardalaridan biri bo‘lgan. Uning atktikasi – kichik qo‘shin bilan katta dushmanga qarshi kurash,tezkor qaror qabul qilish va harakatga tayyor bo‘linmalarni boshqarishni – bugungi harbiy doktribnalarda ham qo‘llash mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkin-ki, tarixiy tajribani o‘rganish orqali hozirgi zamonaviy armiyalar Manguberdi uslublaridan o‘rnak olib, harbiy boshqaruv va strategiyani yanada samarali qilishlari mumkin va shart hisoblanadi.Shu bilan birga Jaloliddin Manguberdi , faqat tarixiy shaxs sifatida emas, balki bugungi kun harbiy strategiyasi,harbiy tizimlari uchun ham dolzarb namuna bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nasawi “ Siyrat as-Sulton Jaloliddin Manguberdi”.- Qohira:Dar al-Kutub al- ilmiya,1999.
2. “O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”.- Toshkent: O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi ilmiy nashriyoti
3. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi.Tarix instituti ilmiy to‘plamlari.- Toshkent,Fan 2010
4. “O‘zbekiston tarixi”, 1-qism (oliy o‘quv yurtlari uchun).- Toshkent,O‘qituvchi 2017
5. “Harbiy san‘at asoslari” . Toshkent : O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi nashriyoti 2018.
6. “ O‘zbekiston Harbiy tarixi” .- Toshkent: Fan 2005.

JALOLIDDIN MANGUBERDI VATANPARVARLIK, MARDLIK VA JASORAT TIMSOLI

Xotamov Shuhrat Nosirovich

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, ped.f.b.f.d, dotsent (PhD)

Annotatsiya: Ushbu matnda vatanparvarlik tushunchasi, uning shaxs tarbiyasidagi o‘rni hamda tarixiy qahramon Jaloliddin Manguberdi misolida vatan uchun fidoyilik, jasorat va sadoqat fazilatlari yoritilgan.

Shuningdek, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ahamiyati va ma’naviy asoslari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, Jaloliddin Manguberdi, jasorat, sadoqat, yoshlar tarbiyasi

Annotation: The text explains the concept of patriotism and its role in personal development, highlighting courage, loyalty, and devotion through the example of Jaloliddin Manguberdi. It also emphasizes the importance of military-patriotic education for youth.

Keywords: patriotism, Jalaliddin Manguberdi, courage, loyalty, youth education

Аннотация: В данном тексте раскрывается понятие патриотизма, его роль в формировании личности, а также на примере Джалолиддина Мангуберди рассматриваются качества мужества, верности и самоотверженности. Особое внимание уделено военно-патриотическому воспитанию молодёжи.

Ключевые слова: патриотизм, Джалолиддин Мангуберди, мужество, верность, воспитание молодежи

Darhaqiqat, vatanparvarlik insonlarda fuqarolik burchi, shaxsiy mas’uliyat hissi, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini, faol hayotiy pozitsiya va qat’iy e’tiqodini, kasbiy mahoratini shakllantiradigan qudratli vositadir.

Avvalo mavzuga doir eng muhim tushunchalar tavsifiga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Jumladan, Vatan – inson yashab turgan, unib-o‘sgan joy, hudud, ijtimoiy muhit, mamlakatni anglatadi. Shuningdek, «Vatan» - bu ming yillar mobaynida saykallanib, kishilar ruhiga ilxom beruvchi, mard o‘g‘lonlarni jasoratga, kerak bo‘lsa ona-zamin uchun jonlarni fido etishga undovchi muqaddas bir tuyg‘udir.

«Vatan» bu bizning oila, uyimiz, yashab turgan maxallamiz, qishlog‘u-shahrimiz va, albatta, bu – ona O‘zbekistonimizdir.

Vatanparvarlik – o‘z Vatani, ona yurti, xalqini cheksiz sevish, Vatan manfaatlari uchun jonbozlik ko‘rsatishni anglatuvchi tushunchadir. Shuningdek, yosh avlodda o‘z vatanini, xalqini sevish, uning himoyasiga tayyor turish sifatlarini tarkib toptirishva mustahkamlab borish.

Bundan tashqari, vatanparvarlik – insonning o‘z mamlakatidan faxrlanish tuyg‘usini, uning taqdiriga daxldorlik hissini, mustaqil Vatanini himoya qilish hamda xavfsizligi uchun fuqarolik burchi va mas’uliyatini anglab yetishidir. Shuningdek, yosh avlodning vatan mudofaasi yo‘lida xizmat qilishga tayyorligini amalga oshirish. Barcha

ijtimoiy-siyosiy faoliyat singari, harbiy vatanparvarlik ishida ham ma’lum bir sistema, shakliy uslub mavjuddir.

Yoshlarni ma’nan boy, qadriyatlarimizga, anana va urf-odatlarimizga sodiq insonlar qilib tarbiyalash, ularning ma’naviy-ruxiy, siyosiy tayyorgarligini takomillashtirish, ularda yuksak ma’naviy va axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, faol xayotiy pazitsiya hamda vatanparvarlik, mamlakat taqdiri uchun ma’suliyat xissi bilan yashash, yurtimiz mustaqilligi va xavfsizligini mustaxkamlash tuyg‘usini yanada kuchaytirish, jismonan yetuk, intellektual saloxiyatli kadrlar qilib tarbiyalashda yoshlar bilan o‘tkaziladigan harbiy vatanparvarlik tarbiyasining axamiyati beqiyos.

Inson Vatanni qachon anglaydi, qachon his qiladi, qachon qadrlaydi? Yurtini dushman bosib olganida, o‘zga yurtlarda haq-huquqlari kamsitilganda Vatan nimaligini, insonga Vatan nima uchun kerakligini tushunib yetadi.

1200 yilning birinchi choragida Vatanimizga Chingizxon boshliq mo‘g‘ul istilochilari bostirib kirdi va uni zabt etdi. Biroq, Shayx Najmiddin Kubro, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdilarning mustaqillikni saqlab qolish, yovga qarshi olib borgan afsonaviy kurash lavhalari halq yodida saqlanib qolgan, boshqacha aytganda, ularning qahramonliklari, jasurligi va mardligi, beqiyos vatanparvarligi va insonparvarligi eldan – elga, tildan – tilga o‘tib kelmoqda.

Ayniqsa, Jaloliddin Manguberdi Xorazmshohning jasorati va matonatini, vatanga sadoqatini, xalqiga mehr – muhabbatini hech narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydi.

Jaloliddin Manguberdi haqida bilishimiz lozim bo‘lgan ma’lumotlar:

✓Otasi bilan o‘n uch yoshidan harbiy safarlarga chiqa boshlagan.

✓Mo‘g‘ullar bilan jang qilganida o‘n yetti yoshda edi.

✓Niso shahri yaqinida 700 nafar mo‘g‘ul suvoriysini mag‘lubiyatga uchratadi.

✓Qandahorni qamal qilib turgan mo‘g‘ul qo‘shinlari bilan 3 kunlik jangda ularni tor-mor keltirgan.

✓Valiyon qal’asini qamal qilayotgan Takajuk va Malg‘ur boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shiniga hujum qilib, 3 kunlik jangdan so‘ng ularni tor-mor keltirgan, 1000 dan ortiq mo‘g‘ul askari o‘ldirilgan.

✓Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga qarshi Shiki Xutuxu no‘yonni 45 minglik qo‘shin bilan jo‘natadi. G‘azni yaqinidagi Parvon jangida Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullar ustidan ajoyib g‘alabani qo‘lga kiritadi.

✓Chingizxon katta qo‘shin to‘plab Jaloliddin Manguberdiga qarshi shaxsan o‘zi otlangan. Fapdiz qal’asi yaqinida Jaloliddin Manguberdi Chingizxon qo‘shinining ilg‘orini tor-mor keltiradi va kuchi ozligi sababli Sind (Hind) daryosi tomon chekinadi. Chingizxon Jaloliddin Manguberdining bu jasoratidan hayratda qolib, o‘z o‘g‘illariga qarab: «Ota o‘g‘il mana shunday bo‘lishi lozim!», degan. Chingizxon bungacha hech bir shoh, hukmdor yoki sarkardaga tan bermagan va hech kimni o‘ziga munosib raqib ko‘rmagan edi.

✓Hindistonda o‘z nomidan kumush va mis tangalar zarb qiladi, unga tobe hind mulklarida uning nomi xutbaga qo‘shib o‘qilgan.

✓1227 yil sentabrda Isfahondan 30 chaqirim sharqdagi Sin qishlog‘i yaqinida Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullarning Taynol no‘yon boshliq qo‘shinini yenggan.

✓1227 yil Chingizxon va uning katta o‘g‘li Jo‘jining o‘lganligi xabari keldi. Bu xabarni Jaloliddinga yetkazganlarida u xursand bo‘lish o‘rniga xafa bo‘lgan: “Nahotki, hoqon ham, Jo‘ji ham o‘lgan bo‘lsa? Ular bilan hisob-kitobim bor edi, ularning tirikligida Ona-Vatanimni, Turon zaminni ozod qilmoqchi edim. Nahot shu rost bo‘lsa, balki bu yanglish xabardir”[2]-deydi.

✓Jaloliddin Manguberdi haqida uning shaxsiy kotibi, tarixchi Nasaviy shunday yozadi: «Jaloliddin qorachadan kelgan, o‘rta bo‘yli, turk lafzli odam edi. Fors tilini ham yaxshi bilardi. Uning botirligiga kelganda shuni aytish kerakki, sulton arslonlar orasidagi eng kuchli sher edi. Bir so‘zli, kek saqlamaydigan, ochiq ko‘ngil, to‘g‘ri odam edi. U jiddiy shaxs edi. Hech qachon kulmasdi. Juda nari borsa, jilmayib qo‘yardi. U adolatsizliklarni yomon ko‘rardi. Jaloliddin o‘ta qat’iyatli, nihoyatda irodali, murakkab vaziyatlarda, taqdirning qaltis sinovlarida o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydigan favqulodda mard va botir sarkarda edi»[3].

Kechikkan e’tirof va Muhammadning armoni:

“Xorazmshoh Muhammad belidagi olmos qilichini Jaloliddinning beliga bog‘ladi:

- Suyukli o‘g‘lim! Senga Xorazm shohlarining muqaddas shamshirini tutqazayotirman. Ishonaman qonga botgan buyuk Xorazm uchun dushmanlardan intiqom olasan...

- Juda katta mamlakatimizning barcha viloyatlaridan, dedi ota o‘g‘liga ma’yus boqib, - o‘zimizga go‘r qazish uchun ikki quloch yer ham qolmabdi”[4]-deydi. Xorazmshoh Muhammad vaqtdan kechikkan

[2] Raximov J. Jaloliddin Manguberdi. –T., 2001 y. 57-bet.
[3] Shihobiddin Muxammad an-Nasabiy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. –T. 2006 y. 295-296-betlar.
[4] Sodiqov H. Sulton Jaloliddin Manguberdi. –T. 2009 y. 19-bet.

edi.

E’tiroflar:

“ Chingizxon:

– Bunday o‘g‘ilga ota bo‘lmoq baxt. Bunday o‘g‘li bor otaning armoni bo‘lmaydi. Sultonga o‘q otmanglar, uni biron-bir hiyla bilan tiriklayin tutinglar.

- Otadan hali bunday o‘g‘il tug‘ilmagan, u sahroda sher kabi g‘olib, daryoda esa nahang kabi qudratli”[5]

Taynol no‘yon Jaloliddin Manguberdi haqida: «Zamonasining haqiqiy bahodiri ekan, o‘z tengqurlarining capvari ekan», degan.

Hindistonlik tarixchi olim Raxula Maxapandita: “Agar Jaloliddin Xorazmshoh o‘z otasining o‘rnida bo‘lganida edi, mo‘g‘ullar bepoyon Xorazm imperiyasini bunchalik osonlikcha egallab olmasdi... ammo u taxtga chiqqanida Xorazm imperiyasi allaqachon yakson qilingan va uning qo‘shini tarqalib ketgan edi”[6]-deb yozadi.

“O‘zbekiston xalq shoiri Hamid Olimjon: “Qadim o‘zbek botirlari uzoq safarga ketganda bir hovuch Vatan tuprog‘ini doim o‘z yonida olib yurganlar. Chunki bu tuproq ularga tug‘ilgan yerlarini eslatib turgan, xalq oldida ichgan qasamini yodga solgan. Vatanga bo‘lgan muhabbatini bir nafas ham unuttirmagan. Bir hovuch tuproq unga o‘z ota-onasi, qarindoshlari, xalqini eslatgan, uzoq o‘lkalarda bo‘lsa ham, uni o‘z vatanida his qildirgan va qaerda bo‘lmasin, o‘z xalqi sha’niga isnod keltirmaslikka, o‘z xalqining nomusli va sodiq o‘g‘li bo‘lishga chaqirgan” – deb yozgan edi.

“1231 yili baland tog‘ ustidagi kurdning kulbasida mudrab o‘tirgan so‘nggi Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdini nomard bir kurd orqasidan ilondek sudralib kelib shahid qiladi. Shohona libosdagi bu kishining katta boyligi bor, degan ilinjda Jaloliddin Manguberdini tintib ko‘radi. Qo‘ynidan charm xaltachani topib olgach, uning qonga to‘lgan ko‘zlari quvonchdan porlaydi. Xoin darhol xaltachani ochib ko‘radi-yu, xafsalasi pir bo‘ladi.

Xaltachada faqatgina bir siqim tuproq bor edi. Ha, bu Vatanning tuprog‘i, jasur Jaloliddin yurtining bir qismi edi. Sulton Jaloliddin bu xaltachani hamisha yuragi ustida asrab yurardi. Oqibatda sulton Jaloliddin shu tuproq, shu Vatan uchun jon fido qildi. Ha, bu oddiy tuproq emas edi, bu tuproq Ona-yurtining, Xorazmning tuprog‘i edi”[7].

Vatanidan uzoqqa ketayotgan, qaytib kelishi noma’lum bo‘lgan kishilar Vatan tuprog‘ini bejiz olib ketmaganlar. Shu bir kaft tuproqda

[5] Sodiqov H. Sulton Jaloliddin Manguberdi. –T. 2009 y. 25-bet.
[6] Xayrullaev M.M. Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi. –T. 1999 y. 89-bet.
[7] Berdimurodov A. “Vatan haqqiga munojot”-T, 2020 y. 18-19-betlar.

Vatanning hidi, tafti, mehri mujassam bo‘lgani uchun, agarda begona yurtda umri poyoniga yetsa, o‘sha tuproqni tanasiga qo‘shib dafn etishlari uchun shunday qilishgan.

Jaloliddin Manguberdi Vatan oldidagi burchini bajardi.

Jaloliddin Manguberdi kabi dovyurak shaxslar tarixda kamdan-kam uchraydi, u o‘z vatanining himoyasida va aqidasida sobit qoldi.

Mo‘g‘ullar Xorazmni bosib oldi, lekin Jaloliddin Manguberdining qalbida yonib turgan Vatanini zabt etolmadi.

Ko‘plab hoqonlar, shohlar va sarkardalarning boshi mo‘g‘ullar oldida egildi, lekin Jaloliddin Manguberdining boshi mo‘g‘ullar qarshisida aslo egilmadi.

Ko‘plab hoqonlar, shohlar va sarkardalar mo‘g‘ullarga taslim bo‘ldi, lekin Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullarga aslo taslim bo‘lmadi. Uning dushmanga taslim bo‘lishi, Vatanining, xalqining xorligi deya tushunadi.

Jaloliddin umrining oxirgi lahzasigacha Vatan ozodligi uchun kurashib, milliy qahramonga aylandi, “boshqalar” tarixda qo‘rqoq, xoin, pastkash, sotqin degan tamg‘a oldi, xolos.

Jaloliddin Manguberdi nomi bugun O‘zbekistonda vatanparvar sifatida xotirlanadi. U haqida kitoblar nashr etiladi, she’rlar yoziladi, kinolar tasvirga olinadi. Jaloliddin Manguberdining jasadi o‘ldi, ruhi o‘lmaydi, ming yillar davomida ajdodlardan avlodlarga o‘tib yashaydi.

Mo‘g‘ullar jismonan g‘alaba qozondi, Jaloliddin Manguberdi ma’nan g‘alaba qozondi. U mo‘g‘ullardan qo‘rqmadi, taslim bo‘lmadi, o‘z manfaatini o‘ylamadi, xoinlik, sotqinlik qilmadi, pastkashlik va razillik qilib yashamadi.

Tarixda mo‘g‘ullarning bosmachi degan nomi qoldi, Xorazmning ko‘plab saroy amaldorlari qo‘rqoq, sotqin degan nomlarga ega bo‘lishdi, Jaloliddin Manguberdi mard, jasur, qahramon, dovyurak, vatanparvar degan nomlarga sazovar bo‘ldi.

Mug‘ullar bosqini Vatanimiz tarixida Shayx Najmiddin Kubro, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi buyuk shaxslarni kashf etdi. Shu bilan birga tarix sahifalarida Qoracha Hojib, Mahmud Yalavoch..., kabi xoin va sotqinlarning qora dog‘lari qoldi.

Jaloliddin Manguberdi Vatani Xorazm ozodligi uchun kurashdi! U o‘zining ajdodlari yashagan ona tuproq Xorazm uchun jonini berdi, aslida o‘lmasdan oldin o‘limni bo‘yniga olib qo‘ygan edi.

Vatanni sevish — Jaloliddin Manguberdining fitratidagi tuyg‘u edi. Uni mo‘g‘ullar tortib ololmadi.

Jaloliddin Manguberdining fazilatlari:

- iymoni butun;
- mard, jasur, dovyurak;
- qat’iyatli, irodali, shijoatli;
- xalqparvar, millatparvar, vatanparvar;
- sadoqatli, vijdonli, mehribon;
- bir so‘zli, rostgo‘y;
- samimiy va ochiqko‘ngil;
- adolatli, tadbirli edi.

Jaloliddin Manguberdi o‘z davrining buyuk bahodiri edi, u mardlik va jasorat timsoli bo‘lib qoladi.

Har bir barkamol inson Vatan kamoloti va istiqboli, el-yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun hamma narsani, hatto shirin jonini ham ayamaydi. Bu haqda mavlono Fuzuliyning, «mening bitta hayotim bor, bordiyu mingta hayotga ega bo‘lgan taqdirimda ham hammasini Vatan uchun sarflagan bo‘lur edim»- deb aytgan so‘zlari har birimiz uchun bebaho o‘gitdir.

A.Fitrat ham Vatani haqida qayg‘urib «Ey ulug‘ Turon… Sen mening Vatanimsan… Yurtim, Turonim, sendan ayrilmoq mening o‘limim. Sening uchun o‘lmoq-mening tirikligimdir. Panohim, sajdagohim, umidim. Yotlaring (dushmanlaring) seni shu kuyga soldilar… Zolimlar seni kimsasizmi ko‘rdilar. Yo‘q sen kimsasiz emassan. Mana men chin ko‘ngil bilan sening yo‘ligda o‘lishga rozi... Men sening uchun yasharman, sening uchun o‘lurman. Ey turklarning muqaddas o‘chog‘i. O‘lim sening o‘limingni istaganlarga, nafrat seni ko‘mgani kelganlarga» - deb aytgan hayqirig‘i bugungi kunda shu Vatanda yashayotgan har bir inson uchun mustaqilligimizni ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylashga undashi lozim.

Shayx Najmiddin Kubro, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Dukchi Eshon, Madaminbek, Shermuhammadbek va ma’rifatparvar jadidchilar zulm va istibdodga qarshi kurash tarixi sahifalarida, hurriyat va erkinlikni sevishda, vatan ozodligi yo‘lida jonini berishda kelajak avlod uchun o‘z nomini oltin satrlar bilan yozib qo‘ydi!

Tarixdan ma’lumki, ko‘p urushlar natijasi jang qilayotgan tomonlar qo‘shinlarining ruhiy holatiga bog‘liq bo‘lgan. Demak, bizning vazifamiz o‘z Vataniga cheksiz sadoqatli, ruhiy jihatdan yetuk yosh avlodni tarbiyalash, ularda Vatan ravnaqi, mustaqilligi uchun zarur bo‘lsa, jonini fido etishga tayyor bo‘lishdek xislatlarni shakllantirishda Jololiddin Manguberdidek timsolining fazilatlari ahamiyati beqiyosdir.

Albatta, Jaloliddin Manguberdi o‘z davrining buyuk bahodiri edi, u vatanparvarlik, mardlik va jasorat timsoli bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. Raximov J. “Jaloliddin Manguberdi”. –T., 2001 y.
2. Shihobiddin Muxammad an-Nasabiy. “Sulton Jaloliddin Manguberdi”. –T. 2006 y.
3. Sodiqov H. “Sulton Jaloliddin Manguberdi”. –T. 2009 y.
4. Xayrullaev M.M. “Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi”. –T. 1999 y.
5. Berdimurodov A. “Vatan haqqiga munojot”-T, 2020 y.

JALOLIDDIN MANGUBERDI QO‘SHININING QUROLLANISHI VA ULARDAN JANGDA FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOSLIKLARI

Madyorov G‘ayratjon Avazjonovich
dotsent, podpolkovnik, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Shimoliy g’arbiy harbiy okrugi fakulteti boshlig’ining o‘rinbosari
Do‘stqulov Maxamatsoli Maxamatsodiqovich;
podpolkovnik, Harbiy qism komandiri

Annotatsiya. Ushbu tezisda Jaloliddin Manguberdining qo‘shinidagi mavjud qurollar va ularning turlari, jang (jangovar harakat)lar mobaynida ulardan samarali foydalanilganligi haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘q – yoy, qilich, nayza, jangovar oybolta, kamon, kamon o‘qlari, gurzi.

Har qanday sarkarda harbiy san’ati haqida so‘z ketganda, eng avvalo qo‘shin ta’minoti va qo‘shinning qanday jangavor qurol – aslahalardan foydalanganligi masalasi turadi. Eng avvalo, harbiy qurol – aslahalar turlari haqida so‘z yuritiladigan bo‘lsa, yuqorida xorazmshohlarning suvoriylari ham, piyoda askarlari ham o‘z davri uchun eng zamonaviy qurollar bilan qurollanganligini ta’kidlab o‘tgan edik.

Shu bilan birga arxeologik tadqiqotlar, yozma manbalar ma’lumotlari va shu davrlar badiiy san’at asarlarini o‘rganish jarayonida harbiy mutaxassislar XI – XIII asrlarda musulmon Sharqida, shu jumladan, xorazmshoh – anushteginiylar davlatida harbiy qurol – aslahalarning va harbiy anjomlarning ikkita umumiy uslubi hukmron bo‘lgan. Bular: o‘g‘uz – saljuqiy va qipchoq – xuroson – eron uslublaridir.

Jaloliddin Manguberdi davriga kelib ham xorazmshohlar qo‘shining qurol – aslahalari turlarida hech qanday yangilik yuz bermaganligi aniq. Eng asosiy qurollar: o‘q-yoy, qilich, nayza, xanjar, pichoq, gurzi, jangavor bolta edi. Himoya vositalaridan esa, dubulg‘a,

qalqon, sovut turlari ham harbiy sohada keng qo‘llanilgan. Ularni ishlab chiqaradigan maxsus korxonalar bo‘lgan. Masalan, Nasaviy Sind daryosi bo‘yidagi jangdan keyin Jaloliddin Manguberdi o‘ziga qarashli harbiy aslahalar ishlab chiqaruvchi korxonalardan birida, sovut ustaxonasida ishlovchi usta Jamol az – Zarradga ustozdor unvonini berganligini yozgan edi.

O‘q – yoy. Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullar bilan olib borgan janglar davomida shuni tushunib yetdiki, o‘z davrida “kamonchi xalq” deb nom qozongan mo‘g‘ullar bilan muvaffaqiyatli kurash olib borishning asosiy garovi o‘q – yoyga va kamonchilarga bog‘liq ekan. Manbalar ma’lumotlarini tahlil qilish jarayonida rivojlangan o‘rta asrlarda ham antik va ilk o‘rta asrlar davrida bo‘lgani kabi kamon eng asosiy qurol – yarog‘ mavqeini saqlab qolganligini ham shu jihatdan tushunish mumkin. Jaloliddin Manguberdi qo‘shinida ham kamonchi – yoyandozlar asosiy qo‘shin turi bo‘lib qolganligini eng avvalo Parvon janggi yaqqol ko‘rsatib berdi. Mazkur jangda asosan otliq kamonchi sifatida jang olib boruvchi mo‘g‘ullarni o‘q yomg‘iri yordamida hujumlarini qaytarib, balandlikda joylashtirgan kamonchilarining shiddatli o‘q uzishi orqali to‘liq tor – mor keltirdi. Sind daryosi bo‘yidagi jangda ham Jaloliddin aynan kamonchilar yordamida dushmanning bir necha bor uyushtirgan hujumini qaytarib turgan. Keyinchalik kamonchilar qo‘shini Jaloliddin Manguberdining ko‘plab shaharlarni bosib olishi jarayonida ham juda muhim rol o‘ynaganliklari shubhasiz.

Jaloliddin jangda dushman qo‘shinini o‘ziga nisbatan uzoqroq masofada tutib turish uchun dastlab jangni yoyandozlar boshlagan. Demak turli sabablarga ko‘ra kuchlar nisbati teng bo‘lmagan hollarda dastlabki harakatni yoyandozlar boshlab bergani va bu usul odatda g‘alabani ta’minlaganini hisobga olsak, sultonning yoyandozlardan tashkil qilingan qismlarga ehtiyoj sezishi tabiiy holat bo‘lgan. Katta o‘lja qo‘lga kiritilganda o‘ljadan birinchi yoyandozlar va otliqlar hissa olishgan.

Yuqorida bir necha bor eslatilgan Sharif Muhammad Muborakshohning “Adab al-harb va-sh-shujoat” – “Jang olib borish usuli va jasorat” asarida ham kamonchilar har qanday davlatning tayanchi, davlat o‘z qo‘shinini kuchaytirishni istasa, albatta birinchi o‘rinda kamonchilarga e’tiborni qaratish lozimligini bir necha bor ta’kidlagan edi.

Bu davrda shubhasiz, Xorazm o‘zining ilk o‘rta asrlarda kabi kamon va o‘qlar ishlab chiqarishdagi yetakchiligini saqlab qolgan. Buni

mo‘g‘ullar bosqinidan ancha keyin Zahriddin Muhammad Bobur xorazm kamoniga ta’rif berar ekan: “Ular (xorazmliklar) mohir kamonchilarki, o‘qlari biror marta ham qalqon va sovutni teshib o‘tmay qolmaydi, hattoki ikkita sovutni ham”,- deb yozgan. Ammo, endi bu ishlab chiqarish shubhasiz mo‘g‘ullar foydasiga ishlagan. Chunki, Xorazmning asosiy hududlarini mo‘g‘ullar bosib olgan edi.

Eron, Ozarbayjon va Yaqin Sharq hududlarida o‘q-yoy yoki kamon uchlari ishlab chiqaradigan hunarmandchilik ustaxonalarining ko‘plab qoldiqlari topilgan. Shundan kelib chiqadiki, Jaloliddin Manguberdi kamonlar va kamonchilarga juda katta e’tibor qaratgan.

XII asr oxiri – XIII asr boshlarida Sharqda, shu jumladan, xorazmshohlar davlatida kamonning “tir”, “kamon”, “kurak”, “sushak” kabi turlari bo‘lgan.

Xorazmning o‘rta asrlarlarga oid kamon o‘qi uchlari Daryolikko‘l (XII-XIII asrlar), Jampiqqal’a, Mizdahqondan (XIII-XIV asrlar) topilgan. Ularni o‘q uchining tuzilishi, kesimi va dastasiga qarab, uch parrakli, assimetrik-romba, ikki “shoxli” kabi turlarga bo‘lib tasniflash mumkin.

Qilich. Yaqindan turib urushishga mo‘ljallangan yana bir eng muhim qurol turlaridan biri. Jaloliddin Manguberdi qo‘shinida ham qilich eng asosiy qurol – yarog‘ turi bo‘lganligiga hech qanday shubha yo‘q.

Jaloliddin Manguberdi qo‘shinida qanday qilich turlaridan foydalanganliklarini yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar ma’lumotlaridan ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Eng avvalo, Jaloliddin Manguberdi bilan deyarli zamondosh bo‘lgan, Sharif Muhammad Muborakshohning “Adab al-harb va-sh-shujoat” – “Jang olib borish usuli va jasorat” asarida qilich haqida mufassal ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Muallif, XIII asrda butun Sharq va G‘arbda mashhur bo‘lgan qilich turlarini sanab o‘tadi. Jumladan, bu davrda qilichning “chiniy” (xitoy to‘g‘ri qilichlari), “russiy” (slavyan to‘g‘ri qilichlari), “xazoriy” (xazarlar qilichi), “rumiy” (vizantiya qilichlari) “farangi” (fransuz yoki yevropa qilichlari), “sulaymoniy”, “shohiy” (shoh qilichi), “hindiy” (hind qilichi), “kashmiriy” (kashmir qilichi). Bular ichida eng yaxshisi hind qilichi bo‘lib, uning o‘z navbatida turlari bo‘lgan. Masalan, “barroluk”, “taravata”, “makbar”, “pangavxar”, “ruxniya”, “parmagas”, “mavdji dare” (daryo mavji) va hokazo. Ular ichida ham eng chidamlisi va keskiri “mavji daryo” turi bo‘lib, asosan hukmdorlarga sovg‘a sifatida berilgan. Jaloliddin Manguberdi huzuriga yuborilgan Bag‘dod

xalifasi elchilari ham, eng qimmatbaho sovg‘a sifatida hind qilichini olib kelgan bo‘lib, shaxsan Jaloliddinning o‘ziga hamda uning vaziri Sharafulmulkka berishgan.

Aynan mo‘g‘ullar bosqini davrida Xuroson va Iroqda “bajariy” qilichi mashhur bo‘lgan. Bu turdagi qilichlar ayniqsa, turkman va xuroson otliqlari ichida juda urf bo‘lgan.

Arxeologik tadqiqotlar davrida topilgan XII asr oxiri va XIII asrga oid qilichlarning asosiy qismi to‘g‘ri qilichlar bo‘lib, egri shamshirlar uchrasada, ulardan faqat XIV asrdan keng foydalana boshlangan. Jumladan, Jaloliddin Manguberdi harbiy yurishlari davrida yana bir eng ko‘p eslatiladigan qilich turi bu “qorajul” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Bu egri qilich turi bo‘lib, juda keskir va juda og‘ir jarohat qoldirgan. Bag‘dod elchilari olib kelgan sovg‘alar ichida qimatbaho toshlar bilan bezatilgan qorajul qilichi ham bor edi.

Xorazmshoh hukmdorlar qilichbozlikda juda usta bo‘lganliklari ham aniq. Chunki, Xorazm hukmdorlari janglarda shaxsan qatnashganlar hamda qilichni yaxshi ishlata olganlar. Buning uchun ular juda yoshlikdan tinimsiz mashq qilganlar. Manbalardagi juda ko‘plagan ma’lumotlarga tayanadigan bo‘lsak, Jaloliddin Manguberdi ham janglarda juda faol bo‘lib, uning eng qaynoq nuqtalarida harakat qilgan. Misol uchun Jaloliddin Xorazmshohning Sind daryosining qirg‘og‘ida mo‘g‘ullar bilan qilgan jangda qilich ishlatish jasorati bilan ham hammani hayron qoldirgan edi.

Qilichning o‘sha davrning eng muhim jang qurollaridan biri sifatida ega bo‘lgan ahamiyati she’rlarda va hatto atamalarda ham o‘rin olgan edi.

Qilich namunalari Xorazm shimoliy sarhadlarida joylashgan Qal’alik-1, Jarinquduq-14, Mizdahqon (XII-XIV asrlar) yodgorliklarida topilgan.

Nayza (Mizroq). Xorazmshohlar qo‘shinida keng foydalanilgan qurollardan yana biri nayzadir. Sulton Jaloliddinning Sind daryosi qirg‘og‘ida mo‘g‘ullar bilan jang qilganida ishlatgan qurollarining orasida nayza ham bor edi. Sulton daryoni kechib o‘tganidan keyin ham nayza yonida bor edi.

Sulton Jaloliddin ham nayza ishlatishda juda mahoratli bo‘lgan. Jumladan u gruzinlar bilan jangda gruzinlarning eng bahodirlarini yakkama – yakka jangga chorlab, ularning beshta bahodirini nayza bilan o‘ldiradi. Yassichaman jangida ham Jaloliddin qo‘shini nayza ishlatishgan edi. Sulton Jaloliddinning vaziri Sharafulmulkning nayza

ishlatishda katta mahoratga ega bo‘lgan. U otga minishda va nayza ishlatishdagi tezligi yordamida dushman saflarini yorib o‘tardi”.

“Jang olib borish usuli va jasorat” asarida nayzaning “Nayza”, “nimnayza” (kalta nayza), “durbosh”, “xarba” (kalta nayza) kabi turlarini sanab o‘tar ekan “durbosh”, “xarba” (kalta nayza) turlarini asosan hukmdor xos soqchilari hamda qurolbardorlar ishlatgan. Eng asosiysi “nayza” bo‘lib, u uzun (3 metrgacha) bo‘lgani uchun aynan og‘ir qurollangan otliq jangchilarga qarshi ishlatilgan.

O‘rta asrlar Xorazm yodgorliklarida assimetrik-romba shaklidagi (Beshtamqal’a, Jampiqqal’a-XIII-XIV asrlar) nayza uchlari keng tarqalgan. Bu kabi nayza uchlari Yevroosiyo ko‘chmanchilari yodgorliklaridan ham ma’lum (Oltoy, Sharqiy Yevropa).

Gurzi, jangavor bolta. Suvoriy va piyodalar tomonidan ishlatilgan va yaqin turib jang qilishga mo‘ljallangan qurol turi bu gurzidir. Gurzi Xorazmshohlar qo‘shinida ham keng tarqalganligi aniq. O‘rta asrlar Sharqida gurzining: “gurzi”, “chuboq” (to‘qmoq), “bulkotag”, “shashpar” (olti qirrali temir to‘qmoq), “amud”, “toppuz” va “xisht” kabi turlari ishlatilgan. Gurzining ayniqsa “mustafiya” degan og‘ir turi juda mashhur bo‘lib, u ham og‘ir qurollangan otliqlarga qarshi ishlatilgan. Manbalarda, Tiflis o‘zining gurzilari bilan mashhurligi haqida so‘z yuritilgan.

Harbiy harakatlarda qo‘llaniladigan maxsus jangavor bolta turlari ham XIII asr Sharq davlatlari, shu jumladan, anushteginiylar qo‘shinida keng qo‘llanilgan. Maxsus harbiy manbalarda boltaning “nojix”, “tabarzin” va “siyovurdiy” kabi turlari janglarda ishlatilganligi keltirib o‘tilgan.

Xanjar, pichoq. Manbalarda muayyan ma’lumotlar uchramasada, Xorazmshohlar qo‘shinida ishlatilgan qurollar orasida xanjar va pichoq ham bo‘lganligi aniq. Chunki, deyarli barcha davrlarda va davlatlar qo‘shinlarida bu qurol – yarog‘ turlari bo‘lganligi aniq. O‘zi umuman, o‘sha davrlarda pichoqsiz va xanjarsiz nafaqat askarni, hatto oddiy bir insonni ham o‘ylash xato bo‘ladi. Chunki bu qurollar kishidan o‘zini himoya qilish uchun olib yuriladigan eng qulay vositadir. Shu bilan birga xanjar va pichoqlar xorazmshohlar davri yodgorliklarida eng ko‘p uchraydigan harbiy aslaha hisoblanadi.

Dubulg‘a, qalqon, sovut. Barcha davlatlar qo‘shinida bo‘lgani kabi xorazmshohlar qo‘shinidagi askarlar dushman qurollarining zarbalaridan himolanish uchun sovut, dubulg‘a va qalqon kabi himoya vositalaridan foydalanganlar.

Bu davrda dubulg‘aning bir necha shakllari bo‘lgan. Konussimon va dumaloq dubulg‘alar bular ichida eng keng tarqalgan turlari hisoblanadi. Shu bilan birga dubulg‘aga jangchining yuzini ham himoyalovchi sipar qo‘yilgan. Bu turdagi dubulg‘a ayniqsa qipchoqlar jangchilarida juda keng tarqalganligidan kelib chiqib Jaloliddin Manguberdi qo‘shini jangchilarida ham shu turdagi dubulg‘alar keng tarqalganligi aniq. Shu bilan birga dubulg‘aning yuzni himoyalash uchun temir setka qistirilgan.

Sulton Jaloliddinning askarlari qora kuloh kiyardilar. Bu davrda sovutlar turlari yanada mukammallashib, yozma manbalarda uning bir necha turlari eslatilgan. Jumladan, “jubba”, “javshan”, “zirih”, “xaftan”, “xyuurak”, “bagaltaki oxanin” (faqat ko‘krak qafasini himoya qiluvchi zirh) va “soidayn” (yelkani himoya qiluvchi temir plastinalar). Yanada yaxshiroq himoyalanish uchun sovutlarning ikki qatli xillari ham bo‘lgan. Ya’ni, simlardan to‘qilgan sovut kiyilib, uning ustidan temir plastinalar yopishtirilgan charm sovut kiyilgan. Xorazmshoh – anushteginiylar qo‘shinida mavjud og‘ir qurollangan otliq jangchilarning otlari ustiga ham maxsus zirhlar yopilgan.

Sulton Jaloliddin davrida sovutlar yasaladigan korxonalar bo‘lganligini yuqorida keltirib o‘tgan edik. Sovutlar yasaladigan ustaxonalar zarradxona deb atalgan. Shu bilan birga zardxona yoki zaradxona deganda qo‘shinning qurollari saqlanadigan ombor ham tushunilgan.

Xorazmshohlar qo‘shini jangchilari turli-tuman qalqon turlarini qo‘llaganlar. Manbalarda: “sipori xaj” (to‘g‘ri qalqon), “g‘irda” (yumaloq qalqon), “sipori chubin”, “sipori shushak”, “sipori nayza”, “sipari torg” va “sipari xadang” kabi qalqon turlari eslatib o‘tiladi. Shu bilan birga Jaloliddin Manguberdi qo‘shinida ham boshqa davlatlar qo‘shinida bo‘lgani kabi, maxsus qalqondorlar bo‘limlari bo‘lgan albatta.

Sovutlarning temir plastinalari Shexrlik (XIII-XIV asrlar) yodgorligidan topilgan. Temir plastinalar sim mixlar yordamida yopishtirilgan va mustahkamlangan. Al Makdisiy Xorazmga Volga bo‘yi Bulg‘oriyasidan sovutlar olib kelinganini yozadi. Lekin, Xorazmda mahalliy hunarmandlar tomonidan ham mudofaa qurollari tayyorlanishi mumkin edi.

Arbalet. O‘qotar qurollarning yana bir turi bu arbalet bo‘lib, u Sharqda “charx” yoki “ziyor” deb atalgan. Uning “charx” (katta arbalet) va “nimcharx” (kichik arbalet) kabi turlari bo‘lgan. Arbalet ayniqsa, XI – XII asrlarda ancha keng tarqalib, bu o‘z navbatida shu davrning yirik

imperiyalari: saljuqiylar, xorazmshohlar, qoraxoniylar, g‘aznaviylar va qoraxitoylar davlatlarida og‘ir qurollangan otliq jangchilarning asosiy qo‘shin turiga aylanganligi bilan bog‘liq. Chunki kamon ularning sovutlarini, ayniqsa ikki qatli sovutlarni (og‘ir qurollangan otliqlar ko‘pincha ichdan simdan to‘qilgan zirh va uning ustidan temir plastinalar qadab tayyorlangan sovutlar kiygan) sovutlarni teshib o‘ta olmagan. Natijada mazkur davlatlar qo‘shinlarida maxsus arbaletchi qismlar paydo bo‘lib, ayniqsa bu qo‘shin turi saljuqiylarda juda keng tarqalgan edi. Ammo, bu davlatlarda XII asr oxirlarida muntazam og‘ir qurollangan otliq qo‘shinlar sonining kamayib ketishi hamda yollanma qo‘shin ahamiyatining oshishi bilan, XIII asr boshlarida, ya’ni aynan mo‘g‘ul bosqini davrida arbaletning ahamiyati umuman tushib ketgan. Qolaversa, mo‘g‘ullar ham arbalet bilan tanish bo‘lsalarda, undan foydalanish nihoyatda noqulay bo‘lganligi uchun kamon eng asosiy otish quroli sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shu bilan birga, eng mohir arbaletchi ham o‘z qurolidan bir daqiqada 4ta o‘q ota olgan bo‘lsa, mohir kamonchilar kamonda bir daqiqada 10 – 12 tagacha o‘q uzaolganlar.

Jaloliddin Manguberdi qo‘shinida arbaletchilar qo‘shini bo‘lganligi to‘g‘risida manbalarda ma’lumotlar uchramasada, kam miqdorda bo‘lsa ham arbaletchi jangchilar bo‘lganligi tabiiy. Lekin arbalet shahar mudofaasida shahar himoyachilari uchun juda muhim qurol turi bo‘lgan. Jaloliddinning juda ko‘plagan shaharlarni bosib olganligini hisobga olganda ham uning qo‘shinida arbaletchilar qismlari bo‘lgan. (Ilovadagi rasmlar -2, 9,10).

O‘qotar qurollar. O‘qotar qurollar haqida so‘z yuritilganda doimo, shunday savol tug‘iladiki, XII – XIII asrlar qo‘shinlarida miltiq yoki shunga o‘xshash o‘qotar qurollar bo‘lganmi? Biz bilamizki porox Xitoyda X asrda kashf qilinib, XI asrdayoq undan harbiy maqsadlarda qo‘llanilib boshlangan. Shu jihatdan olganda mo‘g‘ullar Xitoyni bosib olgandan keyin ularning eng muhim kashfiyotlaridan biri sifatida ibtidoiy miltiq turlaridan xabardor bo‘lganlar. Musulmon olamida o‘ziga xos miltiqqa o‘xshash qurollar bo‘lgan. Ular modfa yoki bunduk deb atalgan hamda olov yoki portlovchi xumchalarni otishda ishlatilgan. Ammo, ulardan keng miqyosda foydalanilmaganligi ham ma’lum.

Manbalarda keltirilishicha sulton Jaloliddin Ixlot shahrini qamal qilganda raqiblar unga qarshi o‘zlariga ishonchi ortadigan darajada qurollanadi. Jumladan ular otilganda olov chiqaradigan cho‘rikni ishlatishgan. Bu qurol bugungi zamon tili bilan aytganda miltiqqa o‘xshaydi. Ammo, bu haqda yakuniy fikr bildirishga hali erta.

Qamal qurollari. Xorazmliklar qamal vositasi sifatida manjanaq, narvon va devorteshar qurollar ishlatganlar. Hilot qamali vaqtida Jaloliddin o‘n ikkita manja naq qurdirgan. Ularning har birini sakkiz kishi ishlatgan. Qamal vaqtida Jahonshoh «qorabug‘ro» deb atalgan bir manjanaq, ko‘p miqdorda o‘q-yoy, qalqon hadya qilgan.

Qamal mashinalari (dabbobat), «toshbaqalar», ya’ni harakatchan minoralar (mataris), taranlar (jamaluqot) va shturm narvonlari (salolim) bo‘lgan. Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikricha, mo‘g‘ullar qamal mashinalarining ba’zi turlarini musulmon dunyosidan, aniqrog‘i, ularning birinchi zarbasini qabul qilgan Xorazm davlatidan o‘rganganlar yoki qabul qilganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ан-Насави. Жизнеописание султана Джалал ад-Дина Манкбурны / Пер. З.М. Буниятов. Баку, 1973.
2. Шариф Мухаммад Мансур Мубаракшах. Адаб ал-харб ва-ш-шуджаат (Правила ведения войны и мужество).// Пер. Дж. Наджмутдиновой и С. Шохуморова. – Душанбе: Мин. Обороны Республики Таджикистан. Таджикский высший военный колледж, 1997.
3. Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi Jahongusho. / Tarjima va so‘z boshi muallifi Nazarbek Rahim, Mursal O‘zturk. T.: Mumtoz so‘z, 2015.
4. Храпачевский Р.П. Военная держава Чингисхана.
5. Уваров Д. Средневековые метателные машиниы Западной Евразии. М.: Самиздат, 2004.
6. Худяков Ю. С. Вооружение кочевников Южной Сибири и сентралной Азии в эпоху развитого средневековя.- Новосибирск, 1997.
7. МИТТ.-Т.1.-С.202; Мамбетуллаев М.М. Оружие населения Кердера в раннем средневекове (по материалам некрополя Куюк кала.// Вестник МИЦАИ.-№ 5.-Самарканд-Бишкек, 2007.

JALOLIDDIN MANGUBERDI MEROSI - YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING MA’NAVIY-HUQUQIY ASOSI

Ismoilov Alisher Axtamovich

Dotsent, podpolkovnik, O‘R HX va M Universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi hayoti va jangovar faoliyatining yoshlarni vatanparvarlik

ruhida tarbiyalashdagi ma’naviy-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Muallif tarixiy merosni zamonaviy yoshlar siyosati va harbiy ta’lim tizimiga integratsiya qilish masalalarini o‘rganadi. Maqolada vatanparvarlikning huquqiy normalari va milliy qahramon siymosining yoshlar ma’naviy immunitetini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Jaloliddin Manguberdi, vatanparvarlik, ma’naviy meros, huquqiy asos, yoshlar siyosati, milliy qahramon, harbiy strategiya, ma’naviy immunitet.

Аннотация: В данной статье представлен комплексный анализ современных подходов к воспитанию молодежи в духе военного патриотизма на основе исторического наследия Джалолиддина Мангуберди. Исследование рассматривает интеграцию современных педагогических теорий с инновационными образовательными технологиями, включая цифровое обучение, интерактивное и междисциплинарное преподавание, а также ценностно-ориентированное образование. Обосновано, что сочетание национального исторического наследия и современных методов обучения играет важную роль в формировании гражданской сознательности, патриотизма и социальной ответственности учащихся. Также подчеркивается необходимость адаптации системы образования к глобальным вызовам при сохранении национальной идентичности.

Ключевые слова: Военный патриотизм, воспитание молодежи, инновационное образование, педагогика, национальная идентичность, Джалолиддин Мангуберди, цифровое обучение, интерактивные методы.

Introduction. In the 21st century, globalization and rapid technological development have significantly influenced the worldview and values of young people. As a result, the issue of fostering patriotism has become increasingly complex and urgent. Modern education systems must not only provide knowledge but also shape morally responsible and socially active individuals (Banks, 2008).

Military-patriotic education plays a key role in this process, as it contributes to the development of loyalty, responsibility, and readiness to serve the homeland. One of the most effective approaches to achieving this goal is the integration of historical heritage into education. Jalaluddin Manguberdi, a prominent historical figure, symbolizes courage, resilience, and devotion to national independence. His life and struggle provide a strong moral and educational foundation for developing patriotic values among youth (Mirziyoyev, 2021).

Theoretical Foundations of Military-Patriotic Education. Modern pedagogical theories emphasize that education should be based on active participation, critical thinking, and personal experience. Value-based education plays a crucial role in shaping students' moral and ethical beliefs (Halstead & Taylor, 2000). According to contemporary research, effective patriotic education must integrate cognitive, emotional, and behavioral components. This ensures that students not only understand patriotic values but also internalize them in their daily lives (Hargreaves, 2003). Furthermore, global education frameworks highlight the importance of developing civic responsibility and national identity alongside global awareness (UNESCO, 2015). This balanced approach allows students to become both patriotic citizens and active members of the global community.

Educational Significance of Jalaluddin Manguberdi's Legacy. Jalaluddin Manguberdi's legacy represents an important source of inspiration for youth. His leadership, bravery, and determination in defending his homeland demonstrate key values such as courage, honor, and loyalty. Historical education plays a significant role in identity formation. According to Banks (2008), national history contributes to the development of civic identity and social cohesion. By studying historical figures like Manguberdi, students develop a deeper understanding of their cultural heritage and national pride. Moreover, his legacy provides an opportunity to connect historical knowledge with modern values. This connection is essential for making education relevant and meaningful for today's youth (Fullan, 2016).

Modern Pedagogical Approaches. Digital Learning Technologies. The integration of digital technologies has transformed modern education. Multimedia tools, virtual simulations, and online platforms allow students to interact with historical content in engaging and innovative ways. Research indicates that technology-enhanced learning significantly improves students' motivation and academic performance (OECD, 2019).

Interdisciplinary Education. Interdisciplinary teaching connects different subjects such as history, literature, geography, and ethics. This approach provides a holistic understanding of patriotism and helps students analyze complex concepts from multiple perspectives (Darling-Hammond, 2010).

Project-Based Learning. Project-based learning encourages students to actively participate in the educational process. Through research, presentations, and collaborative projects, students develop critical thinking and problem-solving skills. According to Thomas (2000), this method significantly enhances student engagement and independence.

Value-Based Education. Value-based education focuses on developing moral qualities such as responsibility, discipline, and respect for cultural heritage. These values are essential components of military patriotism and contribute to the formation of strong character (Halstead & Taylor, 2000).

Practical Implementation Strategies. The practical implementation of military-patriotic education requires a combination of theoretical knowledge and real-life experiences. Activities such as field trips, historical reenactments, and meetings with military professionals help students develop a deeper emotional connection to patriotic values. Experiential learning is considered one of the most effective educational approaches. According to Kolb (2014), learning through experience enhances understanding and retention. Educational institutions should also organize seminars, competitions, and collaborative projects to promote active participation and teamwork. These activities contribute to the development of leadership skills and social responsibility (World Bank, 2018).

Challenges and Solutions. Despite its importance, military-patriotic education faces several challenges. These include declining student motivation, outdated teaching methods, and limited use of modern technologies. To address these issues, educators must adopt innovative teaching strategies and continuously improve their professional skills. The integration of digital technologies and interactive methods can significantly increase student engagement (OECD, 2019). Additionally, government policies and educational reforms play a crucial role in supporting patriotic education. National programs aimed at youth development and value-based education provide a strong framework for implementing effective strategies (Ministry of Public Education, 2020).

Conclusion. The legacy of Jalaluddin Manguberdi serves as a powerful foundation for educating youth in the spirit of military patriotism. Modern pedagogical approaches, supported by scientific research, significantly enhance the effectiveness of this process. The integration of historical heritage with innovative educational methods ensures the development of a generation that is patriotic, responsible, and capable of contributing to national development. Therefore, the continuous improvement of educational strategies remains a key priority in the modern world.

Reference:

[1] Halstead J.M., Taylor M.J., “Learning and Teaching about Values”, London, 2000.

[2] Thomas J.W., “A Review of Research on Project-Based Learning”, California, 2000.

[3] Hargreaves A., “Teaching in the Knowledge Society”, New York, 2003.

[4] Banks J.A., “Diversity and Citizenship Education”, San Francisco, 2008.

[5] Darling-Hammond L., “The Right to Learn”, San Francisco, 2010.

[6] UNESCO, “Global Citizenship Education”, Paris, 2015.

[7] Fullan M., “The New Meaning of Educational Change”, New York, 2016.

[8] OECD, “Education at a Glance”, Paris, 2018.

[9] World Bank, “World Development Report”, Washington, 2018.

[10] OECD, “Education and Skills Outlook”, Paris, 2019.

[11] Ministry of Public Education of Uzbekistan, “Concept of Patriotic Education”, Tashkent, 2020.

[12] Mirziyoyev Sh.M., “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”, Toshkent, 2021.

[13] Kolb D.A., “Experiential Learning”, New Jersey, 2014.

YOSHLAR ONGIDA HARBIY-VATANPARVARLIK VA QAHRAMONLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIM-TARBIYANING ISTIQBOLDAGI YO‘NALISHLARI

Umarov Ismoiljon Olimjonovich

Farg‘ona davlat universiteti Harbiy ta’lim fakulteti katta o‘qituvchisi

Turdiqulov Abdumansur Muhammadjon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti Harbiy ta’lim fakulteti 2-bosqich talabasi

ANNOTTATSIYA. Ushbu maqolada yoshlar ongida harbiy-vatanparvarlik va qahramonlik qadriyatlarini shakllantirishda ta’lim-tarbiya tizimining istiqboldagi yo‘nalishlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Unda yosh avlodni Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, fidoyilik va jasorat ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari yoritiladi. Shuningdek, ta’lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlik va qahramonlik qadriyatlarini shakllantirish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar hamda tarbiyaviy metodlarning samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Maqolada tarixiy xotira, milliy qahramonlar hayoti va ibratli tajribalar orqali yoshlar ongini shakllantirishning muhim jihatlari asoslab beriladi. Shu bilan birga, ushbu yo‘nalishni rivojlantirish va ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: harbiy-vatanparvarlik, qahramonlik qadriyatlari, yoshlar onggi, ta’lim-tarbiya, vatanparvarlik tarbiyasi, milliy qadriyatlar, fidoyilik, jasorat, ma’naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik texnologiyalar.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv jarayonlari, axborot oqimlarining keskin ortishi hamda mafkuraviy ta’sirlarning kuchayishi sharoitida yoshlar ongida harbiy-vatanparvarlik va qahramonlik qadriyatlarini shakllantirish dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu jarayon shaxsning ma’naviy-axloqiy kamoloti, fuqarolik ongining rivojlanishi hamda milliy o‘zlikni anglash darajasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim-tarbiya tizimi yoshlar ongiga ijobiy qadriyatlarni singdiruvchi asosiy ijtimoiy institut sifatida muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlarda harbiy-vatanparvarlik va qahramonlik qadriyatlari shaxsning ijtimoiy ongida shakllanuvchi ma’naviy-axloqiy me’yorlar, ideal obrazlar va xulq-atvor modellari majmui sifatida talqin etiladi. Ushbu qadriyatlar yoshlarning dunyoqarashi, hayotiy pozitsiyasi va ijtimoiy faolligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, tarixiy xotira, milliy meros hamda qahramonlar hayoti va faoliyati asosida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar yoshlar ongida vatanparvarlik, jasorat va fidoyilik kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya tizimi oldida yoshlar ongida harbiy-vatanparvarlik va qahramonlik qadriyatlarini shakllantirishning ilmiy asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshirish kabi muhim vazifalar turibdi. Shu sababli, mazkur yo‘nalishni ilmiy jihatdan o‘rganish, uning nazariy va amaliy asoslarini

takomillashtirish hamda innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Yoshlar ongida harbiy-vatanparvarlik va qahramonlik qadriyatlarini shakllantirish ta’lim-tarbiya tizimining muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon shaxsning ma’naviy-axloqiy rivojlanishi, ijtimoiy identifikatsiyasi hamda fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Harbiy-vatanparvarlik va qahramonlik qadriyatlari yoshlar ongida tizimli ravishda shakllanishi uchun ta’lim jarayonida uzluksizlik, izchillik va ilmiy asoslanganlik tamoyillariga amal qilish zarur.

Ushbu qadriyatlarning shakllanishida tarixiy xotira va milliy meros alohida metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Milliy qahramonlar hayoti, ularning Vatan himoyasidagi jasorati va fidoyiligi yoshlar uchun ijtimoiy-axloqiy ideal sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa ularning ongida qahramonlik modeli va vatanparvarlik konsepsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu orqali yoshlarning qadriyatlar tizimi boyib, ularning ijtimoiy faolligi ortadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida harbiy-vatanparvarlik va qahramonlik qadriyatlarini shakllantirishning mazmuni ko‘p komponentli bo‘lib, u ma’naviy-axloqiy, siyosiy-huquqiy hamda amaliy-jismoniy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Ma’naviy-axloqiy komponent yoshlarning ichki dunyosini shakllantirib, ularda sadoqat, fidoyilik va jasorat kabi fazilatlarni rivojlantiradi. Siyosiy-huquqiy yo‘nalish esa davlat tuzilishi, milliy manfaatlar va fuqarolik jamiyati institutlari haqida tizimli bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash harbiy-vatanparvarlik va qahramonlik qadriyatlarini samarali shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyihaviy yondashuv hamda simulyatsion mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va amaliy kompetensiyalar rivojlantiriladi. Bu esa yoshlarning qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi tasavvurlarini real hayotiy misollar bilan boyitadi. Shuningdek, darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyat ham ushbu jarayonda muhim o‘rin tutadi. Harbiy-sport musobaqalari, tarixiy obidalarga ekskursiyalar, muzey va harbiy qismlarga tashriflar yoshlar ongida milliy g‘urur va qahramonlik ruhini kuchaytiradi. Bunday faoliyatlar orqali yoshlar real ijtimoiy tajribaga ega bo‘lib, ularning mafkuraviy immuniteti mustahkamlanadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogning kasbiy kompetensiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki

tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatuvchi subyekt sifatida yoshlar ongida qadriyatlar tizimini shakllantiradi. Shu bilan birga, oila, ta’lim muassasasi va jamoatchilik o‘rtasidagi integratsiyalashgan hamkorlik tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshiradi. Umuman olganda, yoshlar ongida harbiy-vatanparvarlik va qahramonlik qadriyatlarini shakllantirish ta’lim-tarbiya tizimining strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u jamiyatning ma’naviy barqarorligi, milliy birlik va davlat xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, ushbu yo‘nalishda ilmiy asoslangan, innovatsion va tizimli yondashuvlarni rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yoshlar ongida harbiy-vatanparvarlik va qahramonlik qadriyatlarini shakllantirish ta’lim-tarbiya tizimining muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon shaxsning ma’naviy-axloqiy kamoloti, fuqarolik ongining rivojlanishi hamda Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Harbiy-vatanparvarlik va qahramonlik qadriyatlari yoshlar ongida tarixiy xotira, milliy meros va qahramonlar hayoti asosida shakllanib, ularning hayotiy pozitsiyasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda oila, ta’lim muassasasi va jamoatchilik hamkorligini mustahkamlash ushbu yo‘nalish samaradorligini oshiradi. Bu esa yoshlarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularni turli salbiy g‘oyalar ta’siridan himoya qilish hamda mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, harbiy-vatanparvarlik va qahramonlik qadriyatlarini shakllantirishga qaratilgan tizimli va ilmiy asoslangan tarbiyaviy ishlar jamiyat barqarorligi, milliy birlik va davlat xavfsizligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasi. – Toshkent, 2018.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
7. Ishmuhamedov R. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2019.
8. Abdullayev B. Pedagogik kompetensiya va kasbiy rivojlanish. – Toshkent: Fan va texnika, 2020.
9. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogika asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
10. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi materiallari va metodik qo‘llanmalari. – Toshkent, 2020.

YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI TIZIMIDA YOSH AVLODNING VATANPARVARLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.

Mamayusupov Munavvarjon Burxoniddinovich
FarDU Harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘i o‘rinbosari, Umumqo‘shin tayyorgarlik sikli boshlig‘i, podpolkovnik.

Annotatsiya: Maqolada “Milliy qahramon” obrazini yaratish orqali yoshlarda vatanparvarlik ko‘nikmalarini shakllantirish dunyo tajribasida eng ommalashgan uslublardan biri hisoblanadi. XX asrning boshida televidenie vujudga kelgach, asta sekinlik bilan ekran yulduzlari ham paydo bo‘la boshladi va ular ommaviy madaniyatning dastlabki ko‘rinishlarini shakllantirish ochib beriladi.

Kalilt so‘zlar: Milliy qahramon, o‘quvchi, gegemon, televidenie, san’at, tomosha, industriya, g‘oyalar, timsollar, urf-odat, qadriyat, axloqiy fazilat, suiiste’mol.

XX asrning Asr o‘rtalarida dunyodagi ikki yirik AQSh va Hindiston davlatlari dunyo miqyosida milliy qahramon obrazlarini yaratish bo‘yicha gigant Gollivud va Bollivud nomli kino industriyasi markazlarini yaratdilar. Ushbu kino sanoati markazlari asr oxiriga qadar butun dunyoga AQSh gegemonligi va ideologiyasining asosiy targ‘ibotchisi bo‘lganligi bilan birgalikda mamlakat imidjini shakllantirishda, siyosiy maqsadlarni ko‘zlagan demokratiya eksportida ham faol qatnashib o‘z davlatlarining siyosiy maqsadlariga xizmat qilib keldilar[8].

Lekin shunga qaramasdan kino sanoatida “Milliy qahramon” obrazining shakllanishi milliy o‘zlikni anglash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga sabab esa filmlar inson ruhiyatiga kuchli

[8] Яковлев А. И. Государственная идеология. Калуга: Облиздат, 2001. -315 с.

ta’sir etish xususiyatiga ega. Agar o‘quvchi kitob o‘qiganda o‘z dunyoqarashiga mos ravishda tasavvurga ega bo‘lsa, kino yordamida rejissyor sizning tasavvuringiz qanday bo‘lishi kerakligi haqida ham qayg‘uradi va bu o‘z navbatda audio-vizual effektlar natijasida kuchli ta’sir mexanizmiga aylanadi.

1970 yillarda Amerikada yangi elitaning hukmronligi o‘rnatiladi. Bu davrda televidenie, san’at, tomosha industriyasi kishilar ongiga g‘oyalar, timsollar, qarashlar va qadriyatlarni singdirib, tamoman yangi millatni shakllantirishga intiladi. Buning oqibatida esa millionlab odamlar o‘z yurtida o‘zini begonadek his eta boshlaydi. Hayvoniy mayl va gedonistik – hayotning mazmun-mohiyati aysh-ishrat va lazzatlanishdan iborat, deb hisoblaydigan qarashlar tizimi ildiz otadi. Qadimiy bayramlar yo‘qoladi. Ilgarigi qahramonlar timsoli so‘nib, madaniy maydonni kuch, zo‘ravonlik, behayolikni targ‘ib etayotgan super qahramonlar egallaydi[9].

Odamlar garchi ajdodlaridan meros qolgan azaliy ma’naviy qadriyatlar tag-tomiri bilan yulib tashlanayotganini ko‘rib turishgan bo‘lsada, xuddi qutb ayiqlari singari ilojsiz qolishadi. Oxir-oqibat, Kipling tasvirlagan «bozor hukmdorlari» jinsiy mayl, shuhrat, boylik, hokimiyat bilan yangi Amerikaning yangi hukmdorlariga aylanishadi.

Hukmron siyosiy elita va uning fikri teleseriallarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Buni biz tomosha qilayotgan turk seriallari misolida ham ko‘rish mumkin. Dunyoning rivojlangan davlatlari safiga jadallik bilan kirib kelayotgan xorijiy davlatlardan biri Turkiya, yoshlarda vatanparvarlik ko‘nikmalarini shakllantirishning eng ta’sirli usuli – seriallardan foydalanishmoqda[10]. Bugungi kunda hukmron partiya – AKP (Adolat va taraqqiyot partiyasi) vakillari Turkiya Respublikasini Usmonli imperiyasidan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi, deb bilishadi.

Ularning fikricha, Turkiya – Usmonli imperiyasining davomidir. Shuning uchun Usmonli imperiyasining ulug‘vorligi, ustunligi va umumiy merosini bot-bot eslatib turishadi va ular bugun Usmonlilar ruhini tiklashga harakat qilishmoqda.

Ushbu neo-usmonizm konsepsiyasiga parallel holda so‘nggi o‘n yillikda ko‘plab film va seriallar suratga olindi. «Tirilish: Ertug‘rul», «Muhtasham yuz yil», «Fotih» kabi seriallar shular jumlasidandir.

[9] Чинакова Л. И. Социальный детерминизм. Проблемы движущих сил развития общества. М.: Политиздат, 1982. -159 с.

[10] uza.uz/uz/society/kechagi-haqiqat-bugungi-yolg-on-domiga-tortayotgan-seriallar-15-05-2020?sphrase_id=10398238

Ta’kidlash joizki, inson dunyoqarashi va mafkurasiga xorijiy seriallarning ta’siri salmoqli. Chunki ular kishiga giyohvand moddaday ta’sir ko‘rsatib, uni haqiqiy hayotdan uzib qo‘yadi.

Ayon haqiqat shuki, bugungi kunda kino industriyasi pardasining ortida turganlar faqat reyting yoki pul ishlash uchungina film suratga olishmaydi. Shubhasiz, ularning boshqa bir maqsadi bor. Shuning uchun ham aksar seriallarda ijtimoiy qadriyatlarning umumiy negiziga mutlaqo qarama-qarshi bo‘lgan mavzular targ‘ib etiladi.

BBC ciyosiy muharriri Xardiman Skott ta’kidlaganidek, siyosatchilar televidenieningqudratini yaxshi bilishadi va undan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga intilishadi. Xususan, seriallarda siyosiy qarashlar va mafkuraviy gegemonizm konsepsiyasi turli yashirin tashviq-da’vatlar, manipulyasiyalar orqali «eksport» qilinadi.

Bir so‘z bilan aytganda, og‘u singdirilgan qand zarqog‘ozga o‘ralgan holda taqdim etiladi. Natijada esa jamiyatning ijtimoiy tuzilishi asta-sekinlik bilan tanazzulga yuz tutadi. Tili, dini, madaniyati g‘orat qilingan millatni esa osonlik bilan engish mumkin.

Serialning yangi qismini tomosha qilish va miyadagi mukofot tizimi o‘rtasida bog‘liqlik borligi aniq. Kataloniya universiteti nevrologi Diego Redolarning fikricha, oldinda bemalol ko‘rsa bo‘ladigan seriyalarning mavjudligi asab tizimiga yordam beradi, chunki asab tizimi kutishga, faollikka va serialga qaram bo‘lib qolishga toqat qilolmaydi[11]. Keyingi qismni tomosha qilolmaslik bezovtalikni keltirib chiqaradi va kundalik hayotdagi boshqa vazifalar haqida o‘ylashni qiyinlashtiradi.

Bir o‘tirishda serialning juda ko‘p qismlarini tomosha qilish esa kognitiv va psixologik zararning yuzaga kelishiga sababchi bo‘ladi. Bunday xatti-harakatlar oxir-oqibatda yakkalanishga va hatto kundalik shaxsiy hayotning qadrsizlanishiga ham olib kelishi mumkin.

Shuningdek, serial tomoshasidan so‘ng jismoniy charchoq va hissiy tushkunlikka tushish holatlari ham ko‘p kuzatiladi. Shu bois olimlar har qanday serialni tomosha qilishdan oldin bu haqda obdon o‘ylab ko‘rishni maslahat berishadi[12].

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, seriallar, ayniqsa, yoshlarning axloqi, ruhiy-ma’naviy dunyosiga jiddiy salbiy ta’sir o‘tkazishi mumkin. Ular bolalarning o‘z ota-onalari bilan o‘zaro munosabatiga, ularning o‘qishi va fikrlashining chegaralanishiga, madaniy begonalashuvga, tilning buzilishiga, bolalik va beg‘uborlikning erta yo‘qotilishiga sababchi bo‘ladi.

[11] Фромм Э. Душа человека. М.: АСТ, 1998. - 662 с.

[12] Отабек Тиллаев, «Сериаллар ва биз: Қутб айиғи ҳолидамизми?», Истамбул университети докторанти, 20.12.2020

Masalan, Angliyadagi bir maktab-internatda 13–16 yosh toifasidagi bolalarni ikki guruhga bo‘lgan holda tadqiqot o‘tkazildi. Birinchi guruh 15 kun davomida hajviy va ijtimoiy dasturlarni, ikkinchi guruh esa zo‘ravonlik aks etgan dastur va seriallarni tomosha qildi. Qizig‘i shundaki, ushbu tadqiqot natijalari birinchi guruhdagi bolalarda bag‘rikenglik va kirishimlilik, ikkinchi guruhdagilarda esa aksincha, jismoniy zo‘ravonlik, axloqiy buzilishga moyillik ortganini ko‘rsatdi[13].

Har qanday dastur va serial efirga uzatilar ekan, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, urf-odatlari, qadriyatlari, axloqiy fazilatlari suiiste’mol qilinmasligi shart. Televidenie tizimi uchun mas’ul bo‘lgan mutasaddilar masalaning mana shu jihatini hech qachon esdan chiqarmasliklari lozim.

Shu bilan birga, dastur yoki serialni televidenie efiridan olib tashlash bu hali echim degani emas. Eng avvalo, biz saviyasiz, engil-elpi, real hayotdan yiroq, faqat maishiy masalalar atrofidagina o‘ralashib qolgan milliy «serial»larni suratga olishni bas qilishimiz, o‘zaro raqobatda auditoriyani xorijiy seriallarga boy berib qo‘ymaydigan haqiqiy kinoasarlarni yaratish ustida jiddiy bosh qotirishimiz lozim.

Agar biz diniy, milliy va axloqiy qadriyatlarimiz, shuningdek, tarixiy qahramonlarimiz hayoti haqida o‘tkir syujetli seriallar va filmlar yaratmas ekanmiz, ertaga ham kimlardir tomonidan suratga olingan va otning kallasiday mablag‘ evaziga xarid qilingan xorijiy seriallarning jamiyatimizga ko‘rsatayotgan salbiy ta’siri haqida nolib o‘tiraveramiz[14].

Bugungi kunda turk seriallari nafaqat O‘zbekistonda, balki O‘rta Sharqdan Bolqongacha, Afrikadan Markaziy Osiyogacha, Uzoq Sharq va Janubiy Amerikagacha bo‘lgan juda katta jug‘rofiy miqyosda namoyish etiladi. Aniqrog‘i, turk seriallarini 146 mamlakatda 700 milliondan ziyod insonlar tomosha qiladi. Turk seriallari eng ko‘p sotilgan va tomosha qilingan mamlakatlar orasida esa Chili, Meksika va Argentina davlatlari etakchilik qiladi. Birgina 2018 yilning o‘zida Turkiya seriallar sotuvidan 500 million dollar miqdorida daromad qilgan. 2023 yilga qadar bu ko‘rsatkichni 1 mlrd dollarga etkazish ko‘zda tutilgan.

Xalqaro miqyosda eksport qilingan birinchi turk seriali 1975 yilda yaratilgan «Taqiqlangan sevgi» (Aşk-ı Memnu) seriali bo‘lib, u 1981 yil Fransiyaga sotilgan. E’tibor qiling, Turkiya o‘zining ilk serialini sotganiga hali 40 yil ham bo‘lgani yo‘q. Ilk qismi 1999 yilda chiqqan «Telba yurak» seriali Qozog‘istonga sotilgan. 2008 yildan e’tiboran turk seriallarining arab dunyosidagi mashhurlik darajasi sezilarli tarzda osha

[13] Судас Jl. Г. Массовое сознание: В поисках новой парадигмы. М., 1996.-111 с.

[14] Отабек Тиллаев, «Сериаллар ва биз: Қутб айиғи ҳолидамизми?», Истамбул университети докторанти, 20.12.2020

boshlagan. Masalan, 2008 yil «Kumush» serialining arabcha dublyajdagi so‘nggi qismi 85 million tomoshabinni qamrab olgan.

«Ming bir kecha» nomli serial esa namoyish etilgan 80ga yaqin mamlakatda mavjud reytinglarni yangilagan holda dunyo e’tiborini jalb qilgan ilk turk serialiga aylangan[15]. Eng ko‘p xorijiy mamlakatga sotilgan serial esa «Muhtasham yuz yil»dir. Ushbu serial Yaqin Sharq mamlakatlari, Yaponiya, shu jumladan, yurtimizda ham shuhrat qozongan. Shu tariqa, ushbu kinoasar 70 mamlakatda 500 milliondan ortiq tomoshabinni qamrab olishga erishgan. Turk seriallarini o‘zbeklar sevib tomosha qilishining turli ob’ektiv va sub’ektiv sabablari bor, albatta. Turklar esa buning sababini ikki omil – voqealarning real hayotdan olingani va kartinalarning o‘zbeklar madaniyati hamda tushuncha tarziga mos ekani bilan izohlashmoqda.

Turk seriallarining dunyo bo‘ylab eksport qilinishini engillashtirgan va ayniqsa, yoshlar e’tiborini tortayotgan asosiy sabablaridan biri shuki, ushbu seriallarning aksariyati nafaqat telekanallarda, balki YouTube, Netflix va Puhu kabi muqobil tomosha kanallarida ham namoyish etilmoqda.

Ya’ni internetdagi film va seriallar tomoshasiga ixtisoslashgan platformalar, 190dan ortiq mamlakatda 150 milliondan ziyod obunachiga ega Netflix ham turk seriallarining yanada keng «quloch ochish»ida muhim rol o‘ynamoqda.

Turk seriallari bugun hatto dunyo siyosatchilarini ham befarq qoldirmayotganini ko‘rish mumkin. Masalan, Venesuela prezidenti Nikolas Maduro «Ertug‘rul» serialini tomosha qilganini ijtimoiy tarmoqdagi shaxsiy akkauntida yozib qoldirgan; Turkiyaga kelganida esa serial suratga olingan pavilonga borib, u erni ko‘zdan kechirgan. Mashhur futbolchi Lionel Messi esa ijtimoiy tarmoqdagi sahifasida farzandlarining «Qora pul sevgisi» teleserialini tomosha qilganini aytgan.

O‘zbekiston uchun ham bu mavzu yangi emas. 2012 yil turk seriallari «milliy qadriyatlarga zid deb topilgani uchun» butunlay to‘xtatib qo‘yilgandi. Taqiq besh yil davom etdi va yana turk seriallari namoyishiga ruxsat berildi. Biroq Zo‘r TV xususiy kanalida namoyish etilayotgan «Sevgi iztirobi» («Kara Sevda») seriali atrofidagi ko‘plab muhokamalar ortidan serial namoyishi to‘xtatib qo‘yildi[16].

[15] Отабек Тиллаев, «Турк сериаллари ҳақида биз билмаган фактлар», Истамбул университети докторанти, 12.11.2020

[16] Отабек Тиллаев, «Сериаллар ва биз: Қутб айиғи ҳолидамизми?», Истамбул университети докторанти, 20.12.2020

Shuningdek, turk auditoriyasi shafqatsizlik aks etgan sahnalar oldingi planga chiqarilgan seriallarga qarshi munosabat bildirish barobarida RTÜK (radio va televidenie mahsulotlarini nazorat qiluvchi tashkilot)ga murojaat bilan ham chiqishmoqda. Masalan, «Taqiqlangan olma» (serialda bolalar va yoshlar uchun salbiy rol modellari yaratilgan, muqaddas qadriyatlarga hurmatsizlik qilingan va insoniy munosabatlarning buzilishi odatiy hol sifatida ko‘rsatilgan) va «Yangi hayot» seriali (unda oilaviy qadriyatlar yaqqol kamsitiladi, turmush qurgan erkak oilali ayolni sevib qoladi) jarimaga tortildi. Uzoq davom etishi kutilayotgan ushbu serialning so‘nggi qismi esa o‘tgan hafta namoyish etildi. Ya’ni loyiha muddatidan oldin yakunlandi.

Mamlakatimiz multiplikatsion filmlarida yaratilib kelinayotgan har bir obraz ma’lum asosga ega. Ijodkorlar har vaqt asar uchun obraz yaratishda milliy ko‘rinishda ifoda etishga intilib kelishmoqda. Multfilm ishlash jarayonida turli xil qahramonlar obrazini yaratishda rassomdan kuchli mahorat talab qilinadi. Obraz yaratishda har bir rassommultiplikator eng avvalo kuchli ijodiy qobiliyatga ega bo‘lishi lozim[17]. Ijodiy yondashib yaratilgan multfilmlar o‘zining ta’sir kuchiga ega. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridayoq davlatimiz birinchi rahbari mazkur soha yo‘nalishiga alohida diqqat qaratib: “Biz ishni kichkintoy bolalarimiz uchun milliy ruxdagi ko‘plab multfilmlar, badiiy videofilmlar yaratishdan boshlashimiz zarur. Toki farzandlarimiz nafaqat Uolt Disney qaxramonlarinigina bilib-tanib qolmasdan, o‘zbek halq ertaklarini, milliy qahramonlarimizni ham tanisin, bilsin, ular bilan iftixor qilishga odatlansin” degan edilar.

O‘zbek multiplikatsiyasida so‘nggi yillarda milliy multqahramon yaratish talabi qo‘yilmoqda. Buning dastlabki ko‘rinishi 2019 yil yanvar oyida Maktabgacha ta’lim vazirligining “Eng yaxshi bolalar personaji yaratish” bo‘yicha e’lon qilingan tanlovda ko‘rindi. Mazkur tanlovga xavaskor ijodkorlar tomonidan turli qahramonlar tasvirlangan eskizlar kelib tushgan. Masalan, buyuk daholarimiz Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, To‘maris kabi qahramonlar tasviri va shuningdek, qiziqish asosida yaratilgan o‘zbek farzandining kichik yoshdagi ko‘rinishidan iborat tasvirlar tashkil etgan. Bu eskizlar orasida o‘zbek millatiga xos qahramon sifatida buyuk daholarimiz tasvirida iborat eskizlar tanlov g‘olibi sifatida e’tirof etildi[18]. Lekin har qanday kirishilgan ishda natija muhim. Mazkur tanlovning natijasi esa afsuski o‘zbek multiplikatsiyasi rivojida hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmadi. Qolaversa, puxta o‘ylab

[17] Қодирова Н. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларда ватанпарварлик туйғусини шакллантириш. Қодирова Н. Тошкент - 2013

[18] Иномова К.М. Оилада болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси., Тошкент. Фан.-1999

topilmagan qahramonlar shuningdek, tag asossiz badiiy tasvir bilan yaxshi film yaratish mushkul. Bugungi kunga kelib ya'ni, 2019 yil "Halqaro animatsiya kuni" tadbirida e'lon qilingan tanlovning kelgusidagi natijasini puxta o'ylagan holda mazkur tanlovning e'lon qilinishiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Chunki avvalgi tanlov respublikamiz multiplikatsiyasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar uchun maktab vazifasini o'taydi. Chunki multiplikatsion qahramon yaratish bo'yicha berilgan vazifaga ijodkorning ruhiy olami har doim ham bo'ysunavermaydi. Bu ichki qobiliyat natijasida yaratiladigan asar. Talab bo'yicha yaratilgan asar bilan ijodiy yondashib yaratilgan asarning osmon bilan ercha farqi bor. Shunday ekan, bugungi kunda milliy multqahramon yaratish bo'yicha qo'yilayotgan talab esa o'zbek multijodkorlarining ijodiy faoliyati uchun ramkadek gap. Multqahramon yaratish ermak yoki bir havas emaski uni har qanday inson yarata olsa[19]. Multiplikatsiya san'atining tili, tabiati, butun bir fantaziyaga boy dunyosi, yaratuvchanlik mahoratiga ega bo'lgan ijodkorgina yaxshi obraz yarata olishi mumkin. Lekin bu san'atni yuzaki tushunadigan havaskorlar tomonidan yaratilgan qahramonlar esa uzoq yashamasligi tabiiy. Qolaversa, multfilm bu sintetik san'at. Shuning uchun bu ish faqat birgina ijodkor bilan amalga oshmaydi. Yaxshi ssenariy yoki yaxshi bir qahramon eskizi yaratilgan bo'lishi mumkin. Ammo bu qahramonni jonlantirish butun bir guruhning mahoratiga bog'liq[20]. Qahramonni filmda yashashini tasavvur etgan ssenariyst yoki rassom ko'zlagan natijani 50 ga yaqin animatorlar bilan ham ba'zan chiqarib berolmaydi. O'zbek multiplikatsiyasida esa bugungi kunda mutaxassislar tanqisligi haligacha davom etmoqda. Xorij multfilmlarida esa eng kichik guruh a'zolari 150 nafarni tashkil etadi. Qolaversa, bu davlatlarning tag asosi, fundamenti ya'ni, maktabi mavjud. O'zbek multfilmidagi eng og'riqli nuqtalardan biri ham shunda. Shu bilan birga ssenariy yaratish borasida ham. Tanlov bo'yicha multstudiyaga kelib tushayotgan ssenariylarning hammasi ham multfilm talabiga mos emas. Mazkur tanlovga 50 dan ortiq ssenariylar kelib tushgan. Masalan, "Quyonmi yoki filmi?", "Maqtanma, xo'roz...", "Akobir qitmir", "Alvon rangli ko'ylak siri", "Oybekning sarguzashtlari" kabi qator ssenariylarni keltirish mumkin. Ssenariylar orasida "Qaldirg'och", "Cho'pqo'g'irchoq" hamda "Uchar tipratikan" ssenariylari spetsifik jihatdan oz bo'lsada ijodkor va tomoshabinda qiziqish uyg'otadigan ssenariy sifatida ko'rindi. Ammo kelib tushgan ssenariylarni aksariyati

[19] www.gazeta.uz

[20] Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари, Улуғбек жамғармаси. Ёшлар нашриёт уйи. Тошкент 2019

multiplikatsion asar yaratish yoki tomoshabinga milliy qahramonni tasvirlab berishga noloyiq materiallardan tashkil topdi. Misol uchun, “Quyonmi yoki filmi?” adabiy ssenariysida: ssenariyning ekspozitsiya qismida ro‘y beradigan voqealar va personajlar dialogi faqat so‘z orqali ifodalanib, uzoq daqiqani tashkil etgan. Ya’ni, ko‘p daqiqali gap-so‘zdan iborat bo‘lib, unda harakat, ritm, xarakter keyingi makon voqealarining so‘nggida aniqlangan. Agar multiplikatsion asarda personajlarning harakati emas, ularning gap so‘zi ustunlik qilsa bu film yosh tomoshabin uchun zerikarli kadrlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Shu jihatdan multiplikatsiya uchun yaratiladigan film ssenariysida syujet ritmga va qahramonlar dinamikaga boy bo‘lishi kerak. Shuningdek, ssenariydagi sayyohlarning harakatiga e’tibor qaratiladigan bo‘lsa, ularning hatti harakati orqali sayyohlarga nisbatan salbiy munosabat yuzaga keladi. Multiplikatsion asarda esa ko‘proq ijobiy qahramon orqali tomoshabinni ezgu g‘oyalarga etaklashga va buzg‘unchi g‘oyalarda yiroqlashishga harakat qilinadi[21]. Mazkur ssenariyda syujet voqealari va personajlar harakati orqali sayyohlarni jalb etishga e’tibor qaratish kerak. Bunday ssenariylar multiplikatsiya san’atining tili va spetsifik talabidan kelib chiqib, asar voqealari va qahramonlar harakatini tasviriy vositalar orqali ifodalanishini birinchi planga qo‘ygan holda qayta ishlab chiqilishi lozim. O‘zbek multiplikatsiyasida bugungi kungacha yaratilgan filmlarda ijobiy natijani ko‘rsatgan qator milliy qahramonlarimiz mavjud. Jumladan, D.Salimov va Yu.Petrov hamkorligida yaratilgan “Sehrli sandiq” qo‘g‘irchoq filmidagi Zumrad va Qimmat, mahoratli ijodkor M.Mahmudovning ilk perekladka filmi qahramoni “Xo‘ja Nasridin”, fantaziyaga boy iqtidorli ijodkor S.Alibekovning chizma usulda yaratgan “Uzviylik” kartinasi bosh qahramoni va ijodkor D.Vlasovning zamonaviy texnologiyada yaratgan “Bor baraka” filmi qahramoni bo‘lgan keksa inson obrazi millatimizga xos xarakterda talqin etilgan. Bugungi kunda zamonaviy jarayonda yosh ijodkorlar milliy multqahramon yaratishda sohaning yirik vakillari tajribalarini o‘rgangan holda yondashsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki aynan mazkur san’at asari uchun adabiy asar yaratishda u hox ssenarist, yoki rejissyor bo‘ladimi albatta, soha ijodkori bo‘lishi kerak. Aks holda uning adabiy va badiiy asari mutaxassislar tanqidiga sabab bo‘lishi tabiiy. Chunki animatsion film uchun yoziladigan ssenariy bolalar adabiyotidan tubdan farq qiladi. Animatsiya – bu dinamikani, voqealar boyligini, qiziqarli personajlar hamda turli-tuman xarakterlarni nazarda tutuvchi vizual san’at. O‘zbek multiplikatsiyasida rejissyorning eng katta muammosi,

[21] www.uza.uz

bu bolalar dramaturgini topish. Mazkur yo‘nalishda ijod etuvchi dramaturglarning etishmasligi sababli, badiiy asar rejissyor, rassom va animatorlar tomonidan yozilib, ekran tiliga moslashtirib kelinmoqda. Lekin bu sohada ijod etuvchi ijodkorlarning hammasi ham yozish san’atida birdek mahoratga ega emas.

“Milliy qahramon” obrazini yaratish orqali yoshlarda vatanparvarlik ko‘nikmalarini shakllantirishda xalq og‘zaki ijodi namunalari salmoqli o‘rin tutadi. Xalq maqollari, hikmatlar, ertaklar, rivoyatlar va dostonlar bizlarni ezgulik, mardlik, halollik, to‘g‘rilik va poklik sari chorlashi bilan bir qatorda Vatanga muhabbatli, o‘z xalqiga sadoqatli bo‘lishga da’vat etadi[22]. Dostonlarimiz durdonasi sanalmish «Alpomish» asari millatimizning o‘zligini namoyon etuvchi ajdodlarimizning qahramonlik qo‘shig‘i sanalib, u asrlar davomida vatan himoyachilarining irodasini mustahkamlash uchun xizmat qilgan.

Xalqimizning engilmas bahodiri – Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon ko‘zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo‘lsa, bu yo‘lda jonini ham fido qilishga tayyor bo‘lgan azamat o‘g‘lonlarimiz – bugungi alpomishlarning ma’naviy qiyofasini ko‘ramiz[23].

Vatan ozodligi yo‘lida jonini fido qilgan Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi kabi ajdodlarimizning jasorati xalqimizning ona-Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbatining yorqin ifodasi sifatida olamga mashhur. Ular hayoti va matonati tahsinga loyiq.

Jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga hissa qo‘shgan al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, al-Forobiy, al-Beruniy kabi alloma bobolarimiz uchun Vatan tuyg‘usi va vatanparvarlik juda katta ahamiyat kasb etgan. Shu sababli ular doimo o‘z ism-shariflarini tug‘ilib-o‘sgan yurt nomi bilan qayd etib, Buxoriylar, Termiziylar, Samarqandiylar, ShHoshiylar, Xorazmiylar, Nasafiylar, Farg‘oniylar, Marg‘inoniylar bo‘lib olamga tanilganlar.

Ajdodlarimizning ma’naviy merosi, hayot tarzi, ular haqidagi rivoyat va hikoyatlar barchasi bugungi kunda barkamol avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim manba, ibrat-namuna timsoli hisoblanadi.

Vatanparvarlik shaxsning o‘zi mansub bo‘lgan millat. Vatanidan g‘ururlanishi, bugungi kuni haqida qayg‘urishi, o‘z vatanining porloq kelajagiga ishonchini ifoda etuvchi yuksak fazilat sanaladi. Vatanparvar shaxs o‘z vatanini uning boyliklari yoki vatanining qulay geografik

[22] Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент. “Шарқ”,2003.

[23] “Алпомиш” достони яратилганлигининг 1000 йиллигини нишонлаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. Тошкент. 1998

hududda joylashganligi uchun emas, balki o‘zi uning bir bo‘lagi, o‘zi mansub bo‘lgan millatning esa unda istiqomat qilishi uchun qadrlay olishi zarur. Erkka intilish, ozod yashashga bo‘lgan ehtiyoj insonga xos bo‘lgan tuyg‘udir. Inson o‘z vatanidagina ozod va erkin yashay oladi. Shu bois ham Vatan ozodligi uchun kurashish masalasi qadim-qadimdan allomalar asarlari hamda ezgu g‘oyalarni ifoda etuvchi ta’limotlarning bosh g‘oyasi bo‘lib kelgan. Chunonchi, mo‘‘tabar manbalarda “Vatanni sevish iymondandir”, deb ta’kidlanadi. Abdulla Avloniy o‘z asarlarida “Vatan” tushunchasiga ta’rif berib, uning ravnaqi uchun kurashish vatanparvar insonga xos xususiyat ekanligini quydagicha qayd qiladi: “Har bir kishining tug‘ulib o‘sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har tug‘ulgan, o‘sgon erni jonidan ortiq suyar. Xatto bu vatan hissi-tuyg‘usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o‘z vatanidan-uyuridan ayrilsa – o‘z eridagi kabi rohatda yashamas”[24].

Vatanparvarlik – yuksak insoniy fazilat hisoblanadi. Vaholanki, o‘tmishda jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan xalqning bugungi avlodlari, o‘z meroslarining jahon xalqlari tomonidan e’tirof etilishini ta’kidlab o‘tish joizdir, zero ularda bu kabi his-tuyg‘ular milliy g‘urur hamda ruhiy barkamollikka etaklaydi, milliy o‘zligini anglashga intilishini kuchaytiradi.

Bugungi kun yoshlarida vatanparvarlik ko‘nikmalarini shakllantirishda yurtimiz tinchligini ta’minlashda o‘z jonini fido qilishga-da tayyor tura olgan harbiylarning katta issasi borligini unutmasligimiz kerak. Har bir yigitni Vatan himoyachisi bo‘la olishlari ruhida tarbiyalash uchun ularda bolalikdanoq harbiy-vatanparvarlik tuyg‘ularini ham singdirib borish muhim. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jismoniy tarbiya bilan uzviy bog‘liq suratda olib borilganidagina yaxshi natija beradi. Shuning uchun harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini jismoniy tarbiyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan mudofaasiga jismonan va ma’naviy jihatdan tayyorlash zarurligi hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni Vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko‘nikma va malakalasini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedogogik jarayon. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi yoshlarni Vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayorlash,

Авлоний А. Туркий Гулистон ёҳуд ахлоқ. Ёшлар нашриёт уйи. Тошкент. 2018

ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko‘nikma va malaklarni shakllantirishdan iboratdir[25].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Яковлев А. И. Государственная идеология. Калуга: Облиздат, 2001. -315 с.
2. Чинакова Л. И. Социальный детерминизм. Проблемы движущих сил развития общества. М.: Политиздат, 1982. -159 с.
3. uza.uz/uz/society/kechagi-haqiqat-bugungi-yolg-on-domiga-tortayotgan-seriallar-15-05-2020?sphrase_id=10398238
4. Отабек Тиллаев, «Сериаллар ва биз: Қутб айиғи ҳолидамизми?», Истамбул университети докторанти, 20.12.2020
5. Отабек Тиллаев, «Турк сериаллари ҳақида биз билмаган фактлар», Истамбул университети докторанти, 12.11.2020
6. Иномова К.М. Оилада болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси., Тошкент. Фан.-1999
7. www.gazeta.uz
8. Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари, Улуғбек жамғармаси. Ёшлар нашриёт уйи. Тошкент 2019
9. Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент. “Шарқ”,2003.
10. “Алпомиш” достони яратилганлигининг 1000 йиллигини нишонлаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. Тошкент. 1998
11. Авлоний А. Туркий Гулистон ёҳуд ахлоқ. Ёшлар нашриёт уйи. Тошкент. 2018
12. Қодиров А. Анъанавий жамият ва модернизациялаштириш стратегияси. – Тошкент: ТДЮИ, 2006.

JALOLIDDIN MANGUBERDI HARBIY STRATEGIYASI VA UNI ZAMONAVIY HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASIDA QO‘LLASH

Mustayev Ruslan Damirovich

Farg‘ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakulteti dotsenti rezervdagi mayor

Mamajonov Firuzbek Baxrom o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisda Jaloliddin Manguberdining harbiy faoliyati va strategik qarashlari zamonaviy harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Unda sarkardaning jang olib

[25] Қодиров А. Анъанавий жамият ва модернизациялаштириш стратегияси. – Тошкент: ТДЮИ, 2006

borish usullari, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati, liderlik fazilatlari va ularning bugungi yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, tarixiy merosdan foydalanish orqali o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishning amaliy va samarali usullari ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: harbiy strategiya, vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, tarixiy meros, liderlik, jasorat, milliy g‘urur, ta’lim metodlari.

Jaloliddin Manguberdi tarixiy jarayonlarda muhim o‘rin egallagan sarkarda sifatida e’tirof etiladi. U murakkab siyosiy va harbiy sharoitda yashab, mo‘g‘ul istilosi davrida qat’iyatli qarorlar va jasoratli harakatlari bilan ajralib turadi. Uning faoliyati nafaqat tarixiy voqea sifatida, balki yoshlar uchun ibrat maktabi sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Tarixchi Shihobiddin an-Nasaviy o‘z asarlarida Jaloliddinning jasorati, qat’iyati va jangovar mahoratini alohida ta’kidlab, uni “mag‘lub bo‘lishni bilmagan sarkarda” sifatida tavsiflaydi. Sarkardaning harbiy strategiyasini tahlil qiladigan bo‘lsak, unda bir necha muhim jihatlar ko‘zga tashlanadi. Birinchidan, u vaziyatni tez va aniq baholay olgan. Ikkinchidan, u har doim tashabbusni qo‘ldan bermaslikka harakat qilgan. Uchinchidan, kichik kuchlar bilan ham yirik dushmanga qarshi samarali kurash olib borish yo‘llarini topa olgan. Bu esa uning strateg sifatidagi salohiyati yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi. Jaloliddin Manguberdi faoliyatida liderlik alohida o‘rin tutadi. U askarlarning ruhiyatini ko‘tarish, ularni yagona maqsad yo‘lida birlashtirish va qiyin vaziyatlarda ham ishonchni yo‘qotmaslik kabi fazilatlari bilan ajralib turgan. Bizning fikrimizcha, aynan shu jihatlar bugungi yoshlar tarbiyasida ham muhim hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Jaloliddin Manguberdi harbiy strategiyasining asosini harakatlanish tezligi, jang maydonini to‘g‘ri tanlash va dushman kuchlarini bo‘lib tashlash usullari tashkil etgan. Akademik Ziya Buniyodov fikricha, Jaloliddin kichik qo‘shin bilan ham yirik dushman kuchlariga qarshi muvaffaqiyatli qarshilik ko‘rsata olgan va bu uning strategik tafakkuri yuqori darajada rivojlanganini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu jarayonda tarixiy shaxslar, xususan zamonaviy sharoitda Jaloliddin Manguberdi obrazidan foydalanish katta samara beradi. Dars jarayonlarida uning hayoti va faoliyatiga oid misollarni keltirish o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va mavzuni yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonida interaktiv yondashuvlardan foydalanish o ‘quvchilarning faolligini

sezilarli darajada oshiradi. Masalan, o‘quvchilarga muayyan jang vaziyatini berib, “siz Jaloliddin o‘rnida bo‘lsangiz qanday qaror qabul qilardingiz?” kabi savollar bilan murojaat qilish ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham muhim. Video materiallar, taqdimotlar va vizual vositalar orqali tarixiy voqealarni jonlantirish mumkin. Bu esa yoshlarning nafaqat bilimini, balki tasavvurini ham boyitadi.

Zamonaviy yoshlar uchun Jaloliddin Manguberdi merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki bugungi ta’lim tizimida ham muhim tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Jaloliddin Manguberdi askarlar ruhiyatiga katta e’tibor qaratgan. Hamdam Sodiqov o‘z tadqiqotlarida uning qo‘shin ichida intizom va birdamlikni ta’minlashga alohida urg‘u berganini qayd etadi. Bu jihat bugungi kunda ham harbiy tarbiya tizimida muhim omillardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan qaraganda, tarixiy qahramonlar faoliyatini o‘rganish yoshlarning ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Abduvahob Zamonov ta’kidlaganidek, milliy tarixni chuqur o‘rganish yosh avlodda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlaydi. Bugungi ta’lim tizimida Jaloliddin Manguberdi merosidan foydalanish uchun bir qator zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash mumkin. Xususan, muammoli ta’lim, interaktiv metodlar, tarixiy rekonstruksiya elementlari va simulyatsion o‘yinlar orqali o‘quvchilarda strategik fikrlashni shakllantirish samarali hisoblanadi. Pedagog olim Murod Rahmonovning fikricha, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida amaliy mashg‘ulotlar va real hayotiy vaziyatlarga yaqin topshiriqlar katta natija beradi. Shu bilan birga, dars jarayonida Jaloliddin Manguberdi faoliyatiga oid tarixiy voqealarni tahlil qilish, ularni zamonaviy hayot bilan bog‘lash o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Bu esa yoshlarni nafaqat bilimli, balki mas’uliyatli va vatanparvar shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Jaloliddin Manguberdi merosi yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Uning harbiy strategiyasi va shaxsiy fazilatlari asosida yosh avlodda vatanparvarlik, jasorat va mas’uliyat tuyg‘ularini shakillantirish mumkin. Shuningdek, Jaloliddin Manguberdi merosidan foydalanishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, ayniqsa interaktiv va amaliy mashg‘ulotlar orqali yoshlarning strategik fikrlashini rivojlantirish maqsadiga muvofiqdir. Bizning

fikrimizcha, tarixiy qahramonlar faoliyatini real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lab o‘qitish yoshlarning nafaqat bilimini, balki vatanparvarlik ruhini ham mustahkamlaydi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kengaytirish va ta’lim tizimiga yangi metodlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh. An-Nasaviy, “Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti”, Toshkent, 1999, 45-bet.
2. Z. Buniyodov, “Anushtagin Xorazmshohlar davlati”, Toshkent, 2012, 112-bet.
3. H. Sodiqov, “Jaloliddin Manguberdi”, Toshkent, 2009, 23-bet.
4. A. Zamonov, “O‘zbekiston tarixi”, Toshkent, 2021, 178-bet.
5. M. Rahmonov, “Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi asoslari”, Toshkent, 2020, 64-bet.

TARIXIY QAHRAMONLAR MEROSI ASOSIDA YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH: JALOLIDDIN MANGUBERDI MODELI MISOLIDA

Mustayev Ruslan Damirovich
Farg‘ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakulteti boshlig'ining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari dotsent
Ibragimov Lazizbek Umidjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakulteti 2-bosqich 24.124 guruh

— Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligiga erishish. Bunda, asrlar osha qon-qonimizga singib ketgan ota-onani ulug‘lash, oilani muqaddas saqlash, farzandning burchi, o‘zaro mehr-oqibat, or-nomus, hayo kabi fazilatlar, ustoz va shogirdlar odobi kabi ezgu qadriyatlarga sodiq qolish;

— yoshlar ongini shakllantirishga oid umumbashariy tajribalarning yutuq va kamchiliklarini o‘rganish hamda ulardan samarali foydalanish, boshqa millatlarni hurmat qilish, ularning madaniyati va milliy qadriyatlariga ongli yondashish, ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik, vatanparvarlik va bag‘rikenglik g‘oyalarining aks etishi;

— tarbiyaviy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda yoshlarning istak va xohishlarini inobatga olish, unda har qanday zo‘rlik va majburlovlardan voz kechish, yoshlarning asosiy qiziqishi va faoliyat doirasini tashkil etayotgan turli xil sohalarni tarbiya jarayonida to‘liq qamrab olish;

— milliy intellektual salohiyatni rivojlantirish. Buning uchun ta’lim va milliy tarbiyani rivojlantirish, urf-odat, an’ana va qadriyatlarni umumbashariy qadriyatlarga uyg‘un holda yoshlar dunyoqarashining ajralmas qismiga aylantirish. Yoshlarning siyosiy ongini, huquqiy, axloqiy, estetik madaniyatini yuksaltirish;

— yoshlarda umummilliy va jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan yuqori qo‘ya olishlari, jamiyat va millat oldidagi insoniy burchlarini to‘laqonli anglashlari, xalq baxt-saodati hamda yurt farovonligi yo‘lida mehnat qilishlariga erishish uchun ijtimoiy va psixologik sharoit yaratish;

— yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, milliy g‘oya targ‘ibotini izchil davom ettirish.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan holatlarning qaror topishi, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonida yoshlarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilishi globallashuv

sharoitida tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Millatlar va fuqarolar o‘rtasidagi do‘stlik va hamjihatlik, o‘zaro hurmat, diniy bag‘rikenglik xamda mehr-oqibatni yanada mustahkamlash, doimo hushyor va ogoh bo‘lish bizning asosiy vazifamiz bo‘lishi lozimdir. Shu bois yoshlarimiz ongida murakkab va tahlikali dunyoda ro‘y berayotgan turli voqea-hodisalar, ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar haqida biryoqlama va soxta tasavvur paydo bo‘lishiga aslo yo‘l qo‘ymasligimiz muxim axamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O’zbekiston, 2017y. – 488 b.
2. 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7- fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Sh. Tilavoldiyev, “Harbiy- vatanparvarlik tarbiyasi” Darslik- 2023 y.
4. A.I.Ibragimov, X.X.Sultonov. Vatan tuyg’usi - T. 1996 y.
5. Vatan himoyasi - muqaddas burch T. Harbiy nashriyot. 2000 y.

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUXIDA TARBIYALASHDA G‘OYAVIY-MAFKURAVIY SAVIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Akbarov Anvar Tojimatovich

FDU harbiy ta’lim fakulteti dotsenti, p.f.n. (PhD), istefodagi podpolkovnik

Annotatsiya: Mazkur maqola muallif tomonida yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashning g‘oyaviy-mafkuraviy saviyalarini oshirishdagi pedagogik-psixologik xususiyatlarini atroflicha bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, qadiriyat, g‘oya, mafkura, saviya, globallashuv.

Xozirgi kunda shu narsa ravshanki, jahon miqyosida globallashuv jarayonlarining chuqurlashib borishi har bir davlat, millat va etnik guruh vakillariga, jumladan, yoshlar ongiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Bunda axborot oqimlarining tezlashuvi, ularni olish manbalarining turli-tumanligi turli g‘oyalar, mafkuraviy va madaniy oqimlarning keng tarqalishiga sharoit yaratib bermoqda. Buning ustiga, yuqori malakali kadirlarni tayyorlashda talabalarining turli xil axborot

manbalaridan foydalanish imkoniyatlariga egaligi ularni bunday oqimlarning salbiy ta’sirlaridan himoya qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Yosh avlodni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash,ularni mustakillikning ongli fidoiysiga aylantirishning xozirgi kundagi milliy ma’naviy tarbiya ishining asosiy maqsadidir.

Mustaqil yangi O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lida vatanparvarlik tarbiyasining axamiyati respublika xayotida sodir bo‘layotgan barcha o‘zgarishlar tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining “Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora tadbirlari to‘grisi”da 369-son qarori ishlab chiqilgan.

Vatanparvarlik va milliy iftixor bir biri bilan bog‘liq,yuksak milliy iftixor zaminidagina vatanparvarlik qadiryatga aylanadi.

Shu sababdan ham har bir oliy ta’lim muassasasi o‘z talabalarini g‘oyaviy-mafkuraviy saviyasini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratishi lozim bo‘lib, bunday dolzarb muammoni ijobiy darajada hal qilish kasbiy saviyani tarkib toptirish doirasida hal etilishi lozim.

Bo‘lajak mutaxassislarda g‘oyaviy-mafkuraviy saviyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini yoritib berish maqsadida ushbu maqola doirasida “g‘oya” va “mafkura”, tushunchalari tahliliga alohida e’tibor qaratildi.

Ma’lumki, “g‘oya – inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan, ruhiyatga kuchli ta’sir o‘tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikr”dir [1, 33-b.].

O‘zbek xalqini birlashtirayotgan milliy g‘oya o‘zining chuqur ildizlari va tarixiy taraqqiyot yo‘liga ega. O‘zbek xalqi milliy davlatchiligi tarixida to‘plangan tajribalar, shuningdek, tarixiy jarayonlardagi yuksalish va inqiroz saboqlari natijasida shakllangan milliy g‘oya xalqimiz qo‘lga kiritgan mustaqillikni mustahkamlashda, milliy tarbiyaviy qadriyatlarni tiklash va yoshlarni barkamollikka yetkazishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. “Milliy g‘oya deganda, ajdodlardan avlodlarga o‘tib, asrlar davomida e’zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma’naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta’bir joiz bo‘lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqsadlarini o‘zimizga tasavvur qiladigan bo‘lsak, o‘ylaymanki, bunday keng ma’noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo‘lamiz” [2, 71-b.], deb ta’kidlaydi.

“Mafkura” arabcha so‘zdan olingan bo‘lib tor ma’noda qarashlar va e’tiqodlar tizimi, majmui degan ma’noni anglatadi. Keng ma’noda mafkura – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g‘oyalar majmuidir. G‘arb mamlakatlari tillarida mafkura “ideologiya” atamasi vositasida qo‘llaniladi” [3].

Mazkur tushunchaning tarixiy rivojiga e’tibor qaratilsa, eng qadimgi davrlardan boshlab, barcha zamonlarda ham inson mohiyatida bunyodkor va vayronkor kuchning mavjudligi haqida turli nazariyalar ilgari surilgan. o‘zaro yakdillik bilan tasdiqlangan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy “odam” va “inson” tushunchalarini qiyoslash orqali mohiyatan mafkurani o‘ziga xos tarzda talqin qilgan: “Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang‘ich asos “insoniylik”dir. Shuning uchun ham, odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari tufayli o‘zaro tinchlikda yashamoqlari lozim” [4], deya ta’kidlagan.

Alisher Navoiy ham inson mohiyatidagi yaxshi va yomon “kuch”larni ifodalashda “ahli ma’ni” va “ahli suvrat” tushunchalaridan foydalangan [5, 5-b.]. Mutafakkir “Ahli ma’ni” deganda o‘z ehtiyojlarini o‘zgalarniki bilan uyg‘unlashtirgan, jamiyat uchun xizmat qilishdan lazzatlanadigan, har bir ishni oqibatini o‘ylab qiladigan yuksak ma’naviyat va tafakkur sohiblarini nazarda tutgan. “Ahli suvrat” toifasiga esa, insoniy munosabatlarda faqat shaklu shamoyilga muhim e’tibor beruvchi kishilarni kiritgan. Ularga viqorli bo‘lish, kibrlanish, zeb-ziynatga berilish, o‘zgalarga zulm o‘tkazishdan xuzurlanish xosdir. Bu toifadagi kishilar kuchlilar oldida qul, ojizlar uchun zulmkor. Ular o‘z e’tiqodsizliklari tufayli faqat bugungi kun huzur-halovati bilan yashaydilar, bu bilan u dunyolarini kuydiradilar [6, 80-81-b.], – deya ta’kidlagan.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, g‘oya biz qurmoqchi bo‘lgan buyuk davlat, biz orzu qilib yashamoqchi turmush tarzi alomatlarini belgilab beradi. Zotan, millat o‘z strategik taraqqiyot g‘oyalariga, milliy tafakkuriga ega bo‘lmasa millat bo‘la olmaydi. Aniq, ravshan strategik vazifa bo‘lmasa, na biror xalq, na biror jamiyat o‘z istiqbolini ko‘ra olmaydi. Milliy g‘oya millat kelajagi, taraqqiyoti va istiqbolini oldindan ko‘rish va ilmiy fahmlashda katta o‘rin tutadi. Mafkura deyilganda, ijtimoiy ong maxsuli sifatida muayyan ijtimoiy guruh, sinf yoki xalqning dunyoqarashini ifodalaydigan ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy yoxud boshqa tomondan tizimga solingan g‘oyalar, tamoyil va kategoriyalar yig‘indisi hamda ularning amaiyotga tatbiq etish yo‘llari, usul va mjmuasini nazarda tutish lozim.

Shunday qilib, g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiyaning maqsadi yangi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlarda jamiyatni yangi bosqichga ko‘tarishga o‘z hissasini qo‘shadigan va o‘z-o‘zini takomillashtirishga qodir ijtimoiy barqaror vatanparvar shaxsni shakllantirishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yergashev I. Milliy istiqlol g‘oyasi. Darslik. – T.: Akademiya, 2005. – 368 b. 169
2. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T.: O‘zbekiston, 2000. – B.
3. Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. – T.: O‘qituvchi, 2008. –238 b.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr.,1993. –186 b.
5. Alisher Navoiy. Shohbaytlar. – T.: “Tamaddun”, 2016. – 208 b.
6. Haqqulov I. Kamol et kasbim... – T.: Cho‘lpon, 1991. – 238 b
7. Zimnyaya I.A, Klyucheviye kompetentnosti kak regulyativno-selevaya osnova kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii. – M., 2004. – 42 s
8. Xodjayev B.X. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni madernizatsiyalashgan didaktik ta`minot vositasida rivojlantirish: Ped.fan.dokt....dis. –T., 2016. – 314 b
9. Tilavoldiyev Sh. Harbiy vatanparvalik tarbiyasi asoslari. Darslik. Fargona 2022.

AJDODLARIMIZ AXLOQIY MEROSIDA HARBIY VATANPARVARLIK MEZONLARI MASALASINING YORITILISHI.

Mustaev Ruslan Damirovich

Farg‘ona davlat universiteti Harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘ining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari, dotsent, rezervdagi mayor

Annotatsiya: Ushbu maqolada ajdodlarimiz axloqiy merosida harbiy vatanparvarlik mezonlari masalasining yoritilishi va ularning vatanparvarlik tarbiyasidagi vorisiylik xususiyatlari to’grisida so’z yuiritiladi.

Kalit so’zlar: vatanparvarlik, tarbiya, vatanga muhabbat va sadoqat, qahramonlik, yoshlar, harbiy – vatanparlik tarbiyasi, an’analar, meros.

Harbiy vatanparvarlik milliy merosimizning qadimiy tarixi va ma’naviy manbalariga borib ulanadi. Jumladan, “Avesto” adabiy yodgorligida, “Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish” singari qahramonlik dostonlarida, “Temur tuzuklari”, “Mahbub ul-qulub”, “Turkiy guliston yohud axloq” kabi ijtimoiy-axloqiy pandnomalarda harbiy vatanparvarlik g‘oyalarining targ‘iboti bilan bog‘liq masalalarni axloqshunoslik kontekstida o‘rganish g‘oyatda dolzarbdir. Chunki, yoshlarda g‘urur, or-nomus, sha’n, ishonch va sadoqat kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirish bevosita harbiy vatanparvarlik shartlari asosida reallikka aylanadi.

Bundan tashqari, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bobokalonlarimizning harbiy vatanparvarligini axloqiy ideal sifatida ulug‘lash, ularning vatanparvarlik fazilati bilan bog‘liq axloqiy qarashlari va hayotiy faoliyatlari aks etgan manbalarni chuqurroq tahlil qilish yoshlarda harbiy vatanparvarlikni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ta’kidlash zarurki, o‘zbek xalqining axloqiy qadriyatlarida harbiy vatanparvarlik yurt tarixi, taqdiriga chuqur hurmat bilan qarash, Vatan himoyasi yo‘lida fidoyilik namunalarini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan shaxslarga xos fazilat sifatida qadrlanadi. Bu tuyg‘u “muhabbat”, “ishonch”, “sadoqat” kabi axloqiy tushunchalar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o‘rin olganligi uchun ham davrlar mobaynida o‘z mavqeini yo‘qotmay kelayotgan falsafiy kategoriyadir. Vatanparvarlik o‘zida birlashtirish, yo‘naltirish, jipslashtirish, safarbar qilish kabi axloqiy, sifatlarni mujassam etganligi uchun o‘zbek xalqi ma’naviy merosiga taalluqli barcha manbalarda ulug‘lanadi. Bundan yuksak ma’naviy qadriyatimiz hisoblangan Islom dini ham mustasno emas.

Islom dinida harbiy vatanparvarlik fazilatiga xos bo‘lgan qator sifatlar ko‘rsatib o‘tiladi. Bu sifatlar o‘z navbatida, harbiy vatanparvarlikning axloqiy mazmunini boyitishga xizmat qiladi. Quyida ularning ayrimlarini tahlil qilamiz:

1. Sir saqlash. Bu fazilat harbiy xizmatchi uchun juda ham zarur hisoblanadi. Chunki, sir saqlay bilish harbiyga nisbatan ishonchni bildiradi. U harbiy, davlat, jamoa, oila va shaxsiy sir bo‘ladimi, bundan qat’iy nazar birovning sirini hech kimga aytmaslik kerakligini askar ham, zobit ham anglashi zarur. Chunki, o‘zga tomonidan so‘zlangan sir omonat hisoblanadi va ayniqsa, o‘sha sir egasining iznisiz uni boshqa odamga aytish harbiy sohada xiyonat sifatida baholanadi. Bu borada

Anas ibn Molik Nabiy sallallohu alayhi va salam - menga bir sir aytib erdilar, uni hech kimga oshkor qilmadim, hatto Ummu Sulaym so‘raganda ham aytmadim” - deydilar[1.161].

2. Shijoat. Shijoat harbiy vatanparvarlikni yuzaga keltiruvchi va harakatlantiruvchi axloqiy asos. Shijoat mardlik bilan birga rahmdillik, botirlik, qahramonlik, jiddu-jahd, jasorat kabi axloqiy sifatlarni mujassam etadi va ayni paytda qo‘rqoqlikni inkor qiladi. Sa’d ibn Abu Vaqqos roziyallohu anhuning rivoyat qilishicha, payg‘ambarimiz (sav) namoz ohirida “Yo parvardigoro, meni qo‘rqoqlikdan, eng nohush umrga qaytarilmog‘imdan, dunyo fitnasidan va qabr azobidan o‘z panohingda asragil!” deb iltijo qilar ekanlar[1.239]. Shu bois har ishda shijoat ko‘rsatish va namuna bo‘lish, ayni paytda shijoat ko‘rsatganga ham munosib rag‘bat qilish payg‘ambarimiz suygan fazilatlardan bo‘lganligini sahobalar ko‘rsatib o‘tishgan. Chunonchi,urushdagi shijoat va qo‘rqoqlik haqida Anas (rz.) rivoyat qilishicha: “Nabiy (sav) odamlarning eng yaxshisi, odamlarning eng shijoatlisi va odamlarning eng sahiysi edilar. Bir kun tunda Madina ahli qo‘rquvga tushdi. Shunda Nabiy (sav) bir otni mindilarda barchadan ilgari o‘sha ovoz kelgan tarafga choptirib ketdilar. Keyin u erda hech qanday havfu-hatar yo‘qligini bilib, ortlariga qaytdilarda: “Biz otning dengiz mavjlari kabi uchqur ekanligini bildik!”, - dedilar” [1.493].

Mir Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarining “Tarbiyat topib, haromnamakliq qilg‘on navkarlar zikrida” nomli o‘ttiz oltinchi faslida mardlik va shijoat fazilati bilan bog‘liq axloqiy jihatlarni atroflicha izohlagan edilar[2.29].

3. Sobitqadamlik. Bu harbiy vatanparvarlik fazilatining ma’naviy-axloqiy mohiyatini tashkil etadi. Sobitqadamlik askar, zobit yoki harbiy xizmatchidan qat’iyatni hamda o‘z maqsadi va maslagidan og‘ishmaslikni talab etadi. Harbiy vatanparvarlik tuyg‘usining mustahkamligi o‘zaro ishonch va sobitqadamlikning uyg‘unligini taqozo etadi. Sobitqadamlik esa sadoqatni mustahkamlaydi. Sobitqadamlik bo‘lmagan joyda munofiqlik, riyokorlik, nomardlik yuzaga keladi. Bunday illat “Al-Jomi’ as-sahih” asarida Abdulloh ibn Umardan (rz.) rivoyat qilgan hadisda shunday deyiladi: “Nabiy (sav) bunday dedilar: “Kimda to‘rt xislat mavjud bo‘lsa, u to undan qutilmaguncha, munofiqdir. Agar ushbu to‘rt xislatdan biri kimda bo‘lsa, uni tark etmagunicha (unda) munofiqlikdan bir xislat bor deb hisoblanadi, (ular): so‘zlasa yolg‘on so‘zlaydi, va’da qilsa vafo qilmaydi, axdlashsa axdini buzadi, xusumatlashsa buzg‘unchilik qiladi” [1.412].

Yana bir ajdodimiz Husayn Voiz Koshifiy sobitqadamlikni bir ishni boshlasa, uni oxiriga etmaguncha undan voz kechmaslik, bu ishga halal bergan to‘siqlarni engishda doimo mahkam turishdir, deb biladi[4.44-45]. Bundan anglanadiki, harbiy askar o‘zining axloqiy fazilatini sobitqadam, qatiyatli bo‘lishi va unga suyanishi orqali namoyon etsagina vatanparvarlik fazilatiga ega bo‘lar ekan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng harbiy sohani modernizatsiya qilish hamda amalga oshiriladigan islohotlarda harbiy vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish, uning samarali usullari va ta’sirchan vositalarini yaratishning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish ko‘plab yangi tadqiqotlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Ma’lumki, harbiy vatanparvarlikni shakllantiruvchi ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimi modelini qurish borasidagi mulohazalarni ilgari surish imkonini beradi. Jumladan, muayyan darajada tizimlashgan majmua sifatida o‘rganiluvchi harbiy vatanparvarlikning ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimining modeli bir necha komponentlarni o‘z ichiga oladi, jumladan quyidagi:

1) harbiy vatanparvarlikning shakllanishi jarayon bo‘lib, u tuzilmaviy yaxlitligini hosil qiluvchi ko‘plab elementlarni o‘z ichiga qamrab oladi;

2) harbiy vatanparvarlikni shakllantirish birmuncha murakkab, tartibga solingan va o‘ziza xos tizimiga tushirilgan majmua;

3) harbiy vatanparvarlik muayyan pag‘onaviy darajalarga ega bo‘lib, ushbu darajalar bir-biriga tobedir;

4) harbiy vatanparvarlik doimo ichki va tashqi kuchlar ta’sirida bo‘ladi va uning rivojlanishi barqarorlikni saqlashni taqozo qiladi;

5) harbiy vatanparvarlikning shakllanishi o‘zgaruvchan shartlariga moslashish nuqtai-nazaridan moslashuvchanlik xususiyatiga ega, zamon talablaridan kelib chiqib o‘z mazmunini boyitib boradi;

6) harbiy vatanparvarlikning shakllanishi asosiy tizim hosil qiluvchi belgiga ega;

7) harbiy vatanparvarlik o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatiga ega bo‘lib, o‘z ma’naviyatini boyitib boradi;

8) harbiy vatanparvarlik tarixiy izchillik asosida rivojlanish xususiyatiga ega;

Harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlash bevosita jamiyatda ma’naviy islohotlar bilan uyg‘unlikda olib boriladigan jarayondir. Ayniqsa, harbiy xizmatchilarda Vatanga muhabbat tuyg‘usini yuksaltirish, Vatanini himoya qilish fazilatlarini barqarorlashtirish axloqiy tarbiya vositasida amalga oshadi. Chunki, “Islohot harbiy

xizmatchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashni, professional tayyorgarligini va qayta tayyorlashni tashkil etishning bugungi tizimini qayta ko‘rib chiqishni ko‘zda tutadi. Bu jangchilarimizda Vatanga muhabbat va sadoqatni, yuksak ma’naviy fazilatlar va mustahkam irodani tarbiyalashga, professionallikni, a’lo jangovar tayyorgarlikni ta’minlashga qaratilishi lozim”[3.6].

Yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalashda harbiy vatanparvarlikning o‘rni va ahamiyatini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilishda jamiyatda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat mafkuraviy asoslarga, balki ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy asoslarga bog‘liq ekanligiga e’tibor berish zarur. Bu borada, harbiy vatanparvarlikning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish bilan bog‘liq ma’rifiy ishlar ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bunday tadbirlar kursantlar va bo‘lajak yosh ofitserlarni haqiqiy vatanparvar qilib tayyorlashda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Sahihi Buxoriy. Al-Jomi’ as-sahih. Ishonarli to‘plam. 2 tomlik. 1-T. –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. - 412 b.
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. –Toshkent: Fan, 1989. – 29 b.
3. Vatan himoyasi - milliy iftixor. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Respublika Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni I.A.Karimov asarlaridan olingan harbiy vatanparvarlikka doir hikmatli fikrlar majmuasi. –Toshkent, O‘qituvchi, 2004. -6 b.
4. Husayn Voiz Koshifiy. Axloqi Muxsiniy. –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. -B. 44-45.

БОРЬБА ГОСУДАРСТВА ХОРЕЗМШАХОВ ПРОТИВ МОНГОЛЬСКИХ ЗАВОЕВАТЕЛЕЙ. ДЖАЛАЛ АД-ДИН МАНГУБЕРДИ

Мамаджонов Сойибжон Халилович

доцент кафедры специального учебного цикла факультета военного образования Ферганского государственного университета.

Абдуллаев Бахриддин Тожалиевич

доцент старший преподаватель кафедры специального учебного цикла факультета военного образования Ферганского государственного университета.

Аннотация: В данной статье кратко рассматривается о битве между войсками Джалолиддина и Чингисхан. Статья призвана познакомить студентов высших и средних специальных учебных заведений с секретами военного искусства Джалолиддина Мангуберди.

Ключевые слова: Джалолиддин Мангуберди, Чингисхан, Хорезмшах, крепост Отрар, Бухара, Самарканд, Коксарай, Ходжент, Мухаммед Хорезмшах, Тимур Малик, Валиян, Ходжент, Ургенч, Джучи, Угедей, Чагатай, Парван.

Полководческий талант Джалолиддин Мангуберди особенно ярко проявился в ходе его сражении против монгольский войска.

В конце 1218 г. произошло первое столкновение войск Хорезмшаха с монголами. В то время монгольские отряды вели военные действия против племени мергитов, бежавших в кипчакские степи, граничившие с владениями Хорезмшаха.

Хорезмшах Мухаммад с 60-тыс. войском направился на север, переправился через реку Иргиз и настиг монголов в Тургайской степи. Их предводителем был старший сын Чингизхана Джучи. В трехдневной битве между ними было убито около 20 тыс. воинов из числа хорезмийцев, монголов – значительно меньше. На четвертый день Джучи увел свое войско. В этой стычке впервые продемонстрировал свое воинское искусство старший сын Хорезмшаха **Джалал ад-Дин Мангуберди (1199 – 1231)**. Если бы не его личная отвага и храбрость, то хорезмийцы могли бы потерпеть сокрушительное поражение. После возвращения в ставку Чингизхана Джучи рассказал отцу о состоянии войск Хорезма и личной отваге Джалал ад-Дина Мангуберди.

В 1218 году Чингисхан снарядил огромный торговый и посольский караван из 440 человек и 500 верблюдов, нагруженных золотом, серебром, китайским шелком и другими ценными товарами. В конце 1218 года караван прибыл к пограничному городу Отрар. И здесь по приказу коменданта крепости караван был разграблен, а сопровождавшие его воины и караванщики были перебиты. Все это означало полный разрыв торговых и дипломатических отношений. Стало ясно, что войны не избежать.

Оценивая надвигавшуюся военную опасность, Хорезмшах созвал совет, на котором была выработана тактика ведения войны. Хорезмшах, боясь заговора кипчакских военачальников, отверг предложение сосредоточить основную армию в одном месте и нанести удар монголам и принял план расчленения армии по

отдельным городам, опираясь на их укрепления и хорошо вооруженные гарнизоны. Эта тактика привела к тому, что войска Мухамад Хорезмшаха оказались разрозненными. Это давало возможность Чингисхану громить войска Хорезмшаха по частям.

В 1219 г. Чингисхан во главе огромной армии двинулся в сторону крепости Отрар. В сентябре того же года началась ее осада. Население крепости Отрар оказывало мужественное сопротивление захватчикам. После шестимесячной осады крепость была взята. Чингисхан жестоко расправился с защитниками крепости и жителями города, предав их огню и мечу. После взятия Отрара в феврале 1220 г. монголы разрушили цитадель города, оставшихся в живых жителей увели с собой и в дальнейшем использовали в качестве передового прикрытия при взятии других городов Хорезмшаха.

Сам Чингисхан с основными силами направился к Бухаре и в феврале 1220 года подошел к Бухаре, плохо подготовленной к обороне. Вскоре жители города вынуждены были открыть ворота противнику. Сопротивление защитников города было сломлено. Город подвергся грабежу и насилию. Однако группа патриотов в 400 человек укрепилась в Бухарском арке и в течение 12 дней вела героическую борьбу с врагами и погибла в неравном бою.

После взятия Бухары в марте 1220 года войска Чингисхана начали поход на древнейший город Центральной Азии Самарканд. Придавая огромное значение обороне города, Хорезмшах сосредоточил здесь многотысячное войско и укрепил городские стены.

Чингисхан остановился в загородном дворце Коксарай и оттуда руководил осадой. На третий день осады и кровопролитных сражений у стен древнего города была совершена вылазка народного ополчения, которая была разгромлена Чингисханом. После этого поражения высшие чиновники города приняли решение о капитуляции, направили Чингисхану депутацию и сдали город. В городе начались массовая резня и грабежи.

Третий отряд войск Чингисхана, двигаясь вверх по Сырдарье, взял город Бенакет, затем пошел на Ходжент, правителем которого был Тимур Малик, храбрый, одаренный военачальник. Однако под напором превосходящих сил монголов вынужден был оставить город и укрыться с 1000 воинов на одном из укрепленных островов на Сырдарье. Когда продукты стали кончаться, Тимур-Малик снарядил суда и при свете факелов, ночью отплыл вниз по реке под

градом монгольских стрел с обоих берегов. Неся большие потери, Тимур Малик добрался до Дженда. Здесь защитники сошли с лодок на берег и вступили в жестокий бой. В неравном бою почти все воины Тимура Малика погибли, а сам с небольшой группой соратников, ценой больших потерь дошел до Ургенча, где был встречен как герой.

Осенью 1220 года после ожесточенных боев монголы заняли Термез, и подвергли город грабежу и разрушению.

Хорезм богатая земледельческая область со всех сторон защищалась пустыней и Аральским морем. В Хорезме командование войсками перешло к герою Ходжента Тимур Малику. Теперь Чингисхан взялся покорить один из богатых и красивых городов востока, оплот Хорезмшахов г. Ургенч. Хорезмшах же ушел в район южного берега Каспийского моря, где скрылся на небольшом острове, и в декабре 1220 года там умер. В январе 1221 года в Ургенч прибыл Джалолиддин, старший сын Мухаммеда Хорезмшаха, которому перешел титул Хорезмшаха и султана. Он был единственным способным полководцем и правителем и мог бы в дальнейшем успешно организовать и возглавить сопротивление войскам Чингисхана, и который поставил перед собой главной целью жизни борьбу против монголов. Однако в Хорезме началась борьба правящей верхушки за власть. Особенно враждебная Джалолиддину часть правящей клики не желала видеть во главе государства сильного человека, каким был он, отказывались повиноваться ему. Видя невозможность организовать оборону Хорезма, Джалолиддин вместе с Тимур Маликом и небольшим отрядом покинул Хорезм.

Близ города Нисо с небольшой группой воинов он разгромил монгольский отряд в 700 человек. По пути в город Газну собрал 30 тысячное войско, объединив с хорошо вооруженным гарнизоном г. Газны под своим единым командованием.

Летом 1221 г. Джаллолиддин выступил на встречу Чингисхану. У селения Парван он остановился лагерем. Отсюда он совершил успешное нападение на крупный отряд монгольских войск осаждавших крепость Валиян (в Тохаристане), и разгромил его. Встревоженный поражением своих войск, Чингисхан направил против Джалолиддина большой отряд войск (30-40 тыс. чел.) во главе с одним из опытных своих военачальников Шиги-Хутуху-нойоном. В битве у селения Парвана монголы были разгромлены и обращены в бегство, несмотря на различные военные хитрости,

применяемые их военачальниками. Из крупного отряда выступившего против Джалолиддина до стоянки Чингисхана добрались не многие оставшиеся в живых.

Однако в конце 1221 года в войске Джалолиддина произошла ссора между военачальниками из-за добычи. Некоторые из них покинули его. К этому времени с севера к Ургенчу подошли монгольские отряды во главе с Джучи, со стороны Бухары – войска Угедея и Чагатая. Зимой 1221 года началась осада Ургенча.

Народ храбро сражался, отстаивал каждый квартал. После пятимесячной осады город был сдан. Монголы разграбили, опустошили город, ремесленников отослали в тыл, детей раздали воинам в качестве рабов. Затем монголы открыли плотину и затопили город.

После падения Ургенча на территории Центральной Азии уже не было никакой другой власти, кроме монгольской. Но борьба против монголов продолжалась. Чингисхан отдал приказ преследовать Джалолиддина, однако, тот уже ушел к берегам Инда.

В 1221 году здесь произошла ожесточенная битва, в которой монголы одержали победу. Монгольская засада в 10 тыс. человек решила исход боя в свою пользу. До 1224 года Джалолиддин жил в Индии, а затем на Кавказе, где сплачивал мусульманских властителей на борьбу против монголов, он был талантливым полководцем, отличался храбростью и несгибаемой волей, несмотря на огромное численное превосходство монголов, наносил им такие крупные поражения как разгром при Парване, Валияне. «Мы знаем из исторических хроник, - писал Али Кохзад, - что Джалолиддин мужественно и упорно защищал от Чингисхана земли Афганистана от Парвана до Газни, от Газни до берегов Инда, нанося монголам чувствительные удары».

В 1231 году Джалолиддин Мангуберди погиб в горах Курдистана. – защитник своей Родины - мужественный полководец и государственный деятель, национальный герой нашего народа, оставивший неизгладимый след в нашей истории. Всего за 32 года своей короткой жизни успел сделать многое во имя свободы своего народа и страны. Когда многие беки из окружения Мухаммада Хорезмшаха были готовы сдаться врагам, Джалолиддин воспротивился этому, и продемонстрировал своё непоколебимое мужество и отвагу.

Выступая на торжественной церемонии посвященной 800-летнему юбилею Джалолиддину Мангуберди 5 ноября 1999 года,

певый Президент нашей страны И.А.Каримов сказал: «Джалолиддин Мангуберди – защитник своей Родины, мужественный полководец и государственный деятель, национальный герой нашего народа, оставивший неизгладимый след в истории, подобно Спитамену, Муканна, Нажмиддину Кубро, Амиру Темуру… Образ султана Джалолиддина является гордостью не только Хорезма, но и всего Узбекистана. Он является подтверждением и символом того, что мы готовы противостоять, и решительно нанести удар любой злой силе, которая посягнет на нашу свободу и независимость».

В память о заслугах выдающегося полководца в нашей стране 30 августа 2000 года учрежден орден «Джалолиддин Мангуберди», который является высшей воинской наградой. Им награждаются военнослужащие командного состава, проявившие образцы высокого военного мастерства, героизм и отвагу при защите независимости страны, рубежей Родины, родной земли и сохранения ее как зеницы ока, внесшей большой вклад в укрепление оборонной мощи нашего государства.

Использованные литературы:

1. Каюмов Ш.Н., Ким Э.А. История военного искусства. Учебное пособие. Часть 1-3. – Т.: Издание Академии ВС РУ, 2001.

2. Лотоцкий С.С. История войн и военного искусства. Учебник. - М.: Воениздат, 1970.

3. Кузнецов В.Б. История военного искусства. Учебник. - М.: Воениздат, 1963.

4. Крупченко И.Е. Военная история. Учебник. - М.: Воениздат, 1984.

5. Усманов Ф.Х., Угай Ч.Д., Курганбеков М.М. История войн и военного искусства Древнего мира и Средневековья. Полководческая деятельность Амира Темура. Учебное пособие. – Т.: Издание Академии ВС РУ, 2004.

6. Аскаров А. История народов Узбекистана. Учебное пособие. Том 1,2. – Т.: Издательство «Фан», 1993 г.

7. Рахмоналиев Р. Империя Тюрков. - М.: Прогресс, 2002 .

HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINI TASHKILLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Tilavoldiyev Shahobidin Xoldarovich

FarDU Harbiy ta’lim fakul’teti uslubiy tayyorgarlik sikli dotsenti, Istefodagi podpolkovnik

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz o’quv yurtlarida yoshlarining harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etish va uni olib borish xususiyatlari va bu bo’radagi vazifalar to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Konsepsiya, vatanparvarlik, milliy g‘oya, vatan himoyasi, milliy armiya, mafkuraviy immunitet, milliy an’ana va qadriyatlar, axloqiy-ruhiy, tarixiy, vatanparvarlik, harbiy-texnik, jismoniy tayyorgarlik.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy etuk va jismonan sog‘lom barkamol avlodni voyaga etkazish, ularning xuquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish, Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda yoshlarni harbiy xizmatga qiziqtirish va faol ishtirokini ta’minlash bugungi kunning eng muhim dolzarb vazifalaridan bo‘lib turibdi.

Vatanparvarlik tarbiyasi o‘z xususiyatiga ko‘ra murakkab va ko‘p qirrali faoliyatdir. Jamiyatning eng muhim qadriyatlaridan biri sifatida u o‘z mazmuni tarkibida ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy-axloqiy, madaniy, tarixiy va boshqa xususiyatlarni qamrab oladi.

Insonning o‘z vataniga yuksak emotsional-ruhiy munosabatining ifodasi bo‘lib, vatanparvarlik inson ma’naviy boyligining bir tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanadi. Xaqiqiy vatanparvarlik har doim insonning ma’naviy, fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy faolligining uzviy birligi sifatida namoyon bo‘ladi va Vatan manfaatlari uchun inson faoliyatida xarakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi.

Vatanparvarlik xususiyati o‘z xalqiga, millatiga va inson o‘zi yashayotgan jamiyat va davlatiga nisbatan bo‘lishi mumkin. Bu xususiyatlar birlashib, vatanparvarlikning yagona yaxlit xususiyatini tashkil qilishi kerak, chunki, O‘zbekistonning har bir mas’uliyatli fuqarosi uning oilasi, millatining manfaatlari yurtimizning boshqa millat va elatlarining manfaatlari bilan uzviy bog‘liqligini yaxshi tushunadilar. O‘zbekiston fuqarolarining vatanparvarligi o‘zining “kichik vatani”, o‘z millatiga mansubligi xususiyatini, shuningdek, butun mamlakat uchun, butun O‘zbekiston uchun mas’uliyat hissini ifoda etadi.

Vatanimiz tarixiga nazar solsak, uning ozodligi, mustaqilligiga xafv tug‘ilsa, butun halqimiz xamisha uning himoyasiga otlangan.

Vatan himoyasiga fuqarolarni axloqiy-ruhiy jihatdan tayyorlash, O‘zbekiston Respublikasini harbiy xafvsizligini ta’minlashning ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishlaridan biridir. Bugungi kunda Vatan himoyachisiga zamonaviy jangovar texnika va qurollarni boshqarishni ishonib topshirish uchun, u avvalo buni nima uchun, qanday maqsadlarda

amalga oshirayotganini chuqur tushunib etishi kerak. Har bir o‘quvchiga uning oilasi, do‘stlari, mahallasi, qishlog‘u-shaharlari, shuningdek, shonli tarixga, buyuk ma’daniyat va o‘lmas an’analarga ega bo‘lgan jonajon O‘zbekistoni borligini etkazish kerak. Shunindek, o‘quvchilarga bu boyliklarni- oila, do‘stlar va Vatanini vaqti kelganda qo‘lda qurol bilan himoya qilish zaruriyati tug‘ilishini ham tushuntirish kerak.

Vatanni tahdidli kunlarda mohirona himoya qilish uchun, yoshlikdan bunga tayyorlanish kerak. Shuning uchun ham vatanparvarlik tarbiyasi maktab davrida ommaviy ravishda o‘tkaziladi, va u o‘quvchilar uchun ham qiziqarli bo‘ladi. Buning uchun bunday mas’uliyatli va sharafli vazifani amalga oshiradigan o‘qituvchilar, bu tarbiyaning olib borish uchun, uning ilg‘or zamonaviy nazariyasi va amaliyotini chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishlari kerak.

Bizning Qurolli Kuchlarimiz doimiy ravishda yoshlar bilan to‘ldirib borilmoqda. Bu yoshlar qisqa muddat ichida zamonaviy jangovar texnika va qurol-aslahalarni o‘zlashtirishi va ulardan mohirona foydalanishni o‘rganishlari kerak.

Qurolli Kuchlardagi yosh askarning muvaffaqiyatlari ko‘p jihatdan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimining maqsadga yo‘naltirilgan ishlariga bog‘liq bo‘ladi. Vatanparvarlik tarbiyasi yosh avlodning ongi, ruhiyati, iroda va jismoniy tayyorgarligiga maqsadli va uzluksiz ravishda pedagogik ta’sir etishdir.

Yosh avlodni vatanparvarlik tarbiyasi har doim zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib kelgan, chunki bolalik va o‘smirlik-Vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usini shakllantirish uchun zng maqbul davr hisoblanadi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimi bajaradigan vazifalar uning tuzilishini belgilab beradi. Tashkiliy jihatdan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimining tarkibiy qismlari bo‘lib axloqiy-ruhiy, tarixiy, vatanparvarlik, harbiy-texnik va jismoniy tayyorgarlik bo‘lib hisoblanadi.

Vatan ximoyachisini tayyorlash tizimini tuzish va uning samaradorligini oshirish uchun Vatan himoyasiga shaylik singari insonning murakkab sifatlaridan biri va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsad va vazifalarini bilish muhim ahamiyatga egadir.

Shunday bo‘lsada, Vatan ximoyasiga shaylik to‘g‘risidagi tasavvurlar bu sifatni barcha murakkab tomonlarini, uning butun xususiyatini ochib bermaydi. Bu shuni anglatadi-ki, Vatanni o‘z xayotini xavf ostiga qo‘yib bo‘lsada, uni himoya qilishga shaylikni rivojlantirishni, inson xarakterida alohida ijobiy sifatlarni shakllantirish

bilan almashtirib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham Vatan ximoyasiga shaylikni ta’minlovchi butun o‘quv tarbiya jarayonini yaratish uchun u to‘g‘risida yaxlit bir tasavvurga ega bo‘lish kerak.

Mana shu munosabat bilan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tashkilotchilari umumiy pedagogika va psixologiya, shuningdek harbiy pedagogika va psixologiya bo‘yicha chuqur bilimlarga ega bo‘lishi zarur. Chunki, bu fanlarning ta’kidlashicha, Vatan ximoyasiga shaylik, e’tiqod, tuyg‘u, qa’tiyatlilik, mustaxkam iroda, jismoniy chiniqqanlik va harbiy uquv singari shaxsni butun bir sifatlari majmuasini namoyon qiladi.

Bu sifatlarning barchasi bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, ular birgalikda Vatan himoyasiga shaylikning yaxlit bir tuzilishini xosil qiladi, va bu insonning asosiy sifatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi

Vatanparvarlik tarbiyasidagi har bir yo‘nalishning vazifalari uch jihatda amalga oshiriladi:

- o‘quvchini birlamchi mehr, muhabbat, g‘amxo‘rlik, xaqiqat va go‘zallik singari axloqiy xususiyatlar bilan tanishtirish;
- o‘quvchini hayot va insoniylik mazmunini anglash uchun, uning ichki shaxsiy ruhiyatini faollashtirish;
- o‘z faoliyati va atrofdagi olamga ijodiy yondoshuvni shakllantirish.

Umumta’lim maktablaridagi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi:

- o‘quvchilarda fuqarolik mas’uliyati, vatanparvarlik, shuningdek boshqa ahamiyatga molik bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish va ularni jamiyat hayotining turli jabhalarida faol tarzda amaliy qo‘llash malakalarini shakllantirish.

Vazifalar:

1. Umumta’lim maktablarda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi sohasidagi xuquqiy-normativ ta’minoti tizimini shakllantirish;
2. Shaxsning fuqarolik-vatanparvarlik sifatlarini shakllantirishning eng samarali uslublarini joriy etish;
3. O‘quvchilarni amaliy faoliyatga jalb qilish orqali vatanparvarlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan tadbirlar tizimini shakllantirish;
4. O‘quvchilarda harbiy va davlat xizmatiga ijobiy munosabatni shakllantirish;
5. O‘quvchilarni o‘zini-o‘zi namoyon qilishga va ijtimoiy hayotga moslashishiga sharoit yaratish;
6. Maktabning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi sohasidagi faoliyatini jamoat birlashmalari va davlat tashkilotlari bilan ijtimoiy hamkorligini ta’minlash;

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsad va vazifalarini amalga oshirishning sharoitlari bo‘lib, fuqarolik mas’uliyatini yuksak ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini tan olish, vatanparvarlik va Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishga shaylik kabi tamoyillar hisoblanadi.

Shuningdek, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi sohasida amaliy faoliyatni amalga oshirishda ilmiylik, insoniylik, demokratizm, O‘zbekistoning ma’daniy va tarixiy merosi, uning ma’naviy qadriyatlari va an’analari, yoshlar tarbiyasidagi uzluksizlik, tarbiyaning samaradorligini ta’minlovchi shakl, uslublar va vositalarning rang-barangligi, uni har bir o‘quvchiga yakka tartibda yondoshish asosida shaxsning qobiliyat va sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi, boshqa tarbiya turlari bilan uning uzviy bog‘liqligi muhim axamiyatga egadir.

Yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jarayonida bu tamoyillarni amalga oshirilishi, ularda davlat va harbiy xizmatga, Vatan himoyasiga munosib tarzda tayyorlanishga xaqiqiy ma’nodagi qiziqishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Har bir avlod el yurtining tarixini va obro‘ini, o‘zining farzandlik muxabbati va etiqodi, sadoqati va bunyodkorligi, matonati va mardligi bilan barpo etadi.

Mana shu so‘zlar, buyuk maqsadlardan kelib chiqqan xolda, bizlar ham o‘z oldimizga asosiy vazifalarni belgilab olishimiz kerak. Bizlarni, ya’ni harbiy talim o‘qituvchilarining asosiy vazifamiz -mana shu mustaqil Vatanni jon-jonidan sevuvchi, uning ravnaqi va ozodligi, xalqi uchun jasoratga, kerak bo‘lsa jonini fido etishga tayyor bo‘lgan mard ofitserlarni, xaqiqiy vatanparvarlarni tarbiyalab voyaga etkazishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M , “Yangi O’zbekiston taraqqiyoti strategiyasi”, - Toshkent: O’zbekiston, 2022 y.
2. Mirziyoev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. – Toshkent: O’zbekiston, 2017 y. – 488 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevral kuni tasdiqlangan "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi" Vatanparvar gazetasining № 9 (2760) – soni, 2018 yil 2 mart.
4. A.I.Ibragimov, X.X.Sultonov. Vatan tuyg’usi - T. 1996 y.
5. Vatan himoyasi - muqaddas burch T. Harbiy nashriyot. 2000 y.

JALOLIDDIN MANGUBERDI MEROSI VA YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYALASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Avazmuratova Salomat Alimovna
JMNHAL O‘quv bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Manguberdi ning boy tarixiy merosi, uning jasorati va vatanparvarlik namunasi yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tutgan o‘rni yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim tizimida yoshlarni Vatanga sadoqat, fidoyilik va harbiy tayyorgarlik ruhida tarbiyalashning innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi. Maqolada tarixiy merosdan samarali foydalanish, yoshlar ongida milliy g‘urur va mas’uliyat hissini shakllantirish masalalari muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: Jaloliddin Manguberdi, vatanparvarlik, harbiy tarbiya, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, tarixiy meros, zamonaviy yondashuv, ma’naviy tarbiya, fidoyilik, Vatan himoyasi.

Annotation: This article highlights the rich historical legacy of Jaloliddin Manguberdi, his bravery, and his example of patriotism in educating young people in the spirit of military patriotism. It also analyzes innovative approaches in the modern education system aimed at fostering devotion to the Motherland, selflessness, and military preparedness among youth. The article discusses effective use of historical heritage and the formation of national pride and a sense of responsibility in the minds of young people.

Keywords: Jaloliddin Manguberdi, patriotism, military education, youth upbringing, national values, historical heritage, modern approaches, moral education, devotion, defense of the Motherland.

Аннотация: В данной статье освещается богатое историческое наследие Jaloliddin Manguberdi, его мужество и пример патриотизма в воспитании молодежи в духе военного патриотизма. Также анализируются инновационные подходы в современной системе образования, направленные на формирование у молодежи преданности Родине, самоотверженности и военной готовности. В статье рассматриваются вопросы эффективного использования исторического наследия, формирования национальной гордости и чувства ответственности у молодежи.

Ключевые слова: Джалолиддин Мангуберди, патриотизм, военное воспитание, воспитание молодежи, национальные ценности, историческое наследие, современные подходы, духовное воспитание, самоотверженность, защита Родины.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har bir davlatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda tarixiy shaxslar merosi, ayniqsa Jaloliddin Manguberdi ning jasorati va matonati alohida ahamiyat kasb etadi. U o‘zining mardligi, Vatan ozodligi yo‘lidagi kurashi bilan yosh avlod uchun ibrat maktabidir.

Jaloliddin Manguberdi merosining ahamiyati. Jaloliddin Manguberdi XIII asrda yashab, Mo‘g‘ullar istilosi davrida yurt mustaqilligi uchun mardonavor kurash olib borgan sarkarda sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi. Uning hayoti va faoliyati quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

- Vatanga sadoqat va fidoyilik namunasi
- Qiyin sharoitda ham kurashni davom ettirish irodasi
- Harbiy strategiya va yetakchilik qobiliyati

Manguberdi obrazi yoshlar ongida jasorat, qat’iyat va milliy g‘ururni shakllantirishda muhim manba hisoblanadi. Jaloliddin Manguberdi merosi o‘zbek va umuman Sharq xalqlari tarixida muhim o‘rin tutadi. U nafaqat buyuk sarkarda, balki Vatan ozodligi yo‘lida jonini fido qilishga tayyor bo‘lgan haqiqiy qahramon sifatida tarixda qolgan. Uning hayoti va faoliyati bugungi kunda ham yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Avvalo, Jaloliddin Manguberdi merosi yoshlar ongida Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantiradi. U Mo‘g‘ullar istilosi davrida og‘ir va murakkab sharoitlarga qaramay, yurt mustaqilligi uchun kurashni davom ettirgan. Bu esa yosh avlodni har qanday vaziyatda ham o‘z yurtiga sodiq qolishga undaydi. Ikkinchidan, uning faoliyati jasorat va matonat maktabi hisoblanadi. Jaloliddin Manguberdi son jihatdan ustun dushmanga qarshi kurash olib borib, o‘zining harbiy mahorati va qo‘rqmasligi bilan ajralib turgan. Bu jihatlar yoshlarni qat’iyatli, irodali va maqsadga intiluvchan bo‘lishga o‘rgatadi. Uchinchidan, Manguberdi merosi milliy g‘urur va o‘zlikni anglashni mustahkamlaydi. Uning qahramonligi xalq tarixining eng murakkab davrlarida ham ozodlik ruhi so‘nmaganini ko‘rsatadi. Bu esa yoshlar qalbida milliy qadriyatlarga hurmatni oshiradi. Shuningdek, uning hayoti harbiy san’at va yetakchilik namunasi sifatida ham ahamiyatlidir. Jaloliddin Manguberdi qisqa vaqt ichida qo‘shin to‘plab, samarali strategiyalar asosida jang olib borgan. Bu tajriba bugungi harbiy ta’lim tizimida ham muhim o‘rganish obyekti bo‘lib xizmat qiladi. Yana bir muhim jihat shundaki, Manguberdi merosi ma’naviy-axloqiy tarbiya manbaidir. Uning fidoyiligi, jasorati va

adolatparvarligi yoshlarni nafaqat kuchli, balki ma’naviy yetuk inson bo‘lib shakllanishiga yordam beradi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy yondashuvlari. Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatini boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘qitish samaradorlikni oshiradi. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash an’anaviy usullar bilan cheklanib qolmay, innovatsion yondashuvlarni talab etadi. Bu jarayonda milliy tarix, zamonaviy pedagogika va raqamli texnologiyalar uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Jaloliddin Manguberdi kabi tarixiy qahramonlar merosidan samarali foydalanish tarbiya jarayonini yanada ta’sirchan qiladi.

Zamonaviy yondashuvlarning muhim yo‘nalishlaridan biri — interaktiv va innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishdir. Multimedia vositalari, virtual ekskursiyalar va 3D tarixiy rekonstruksiyalar orqali yoshlar o‘tmishni nafaqat eshitadi, balki “his qiladi”. Bu esa ularning tarixga, Vatanga va milliy qadriyatlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shuningdek, harbiy-amaliy mashg‘ulotlar va sport faoliyati muhim o‘rin tutadi. Harbiy-sport o‘yinlari, dala mashg‘ulotlari va musobaqalar yoshlarning jismoniy chiniqishi bilan birga intizom, jamoaviylik va mas’uliyat hissini rivojlantiradi. Bunday faoliyatlar orqali nazariy bilimlar amaliy ko‘nikmalarga aylanadi. Yana bir samarali yo‘nalish — raqamli ta’lim platformalari va axborot texnologiyalaridan foydalanish. Onlayn kurslar, mobil ilovalar va simulyatorlar yordamida harbiy bilimlarni o‘rganish imkoniyati kengaymoqda. Bu usul yoshlarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar va ijtimoiy loyihalar ham katta ahamiyatga ega. Vatan himoyachilari bilan uchrashuvlar, tarixiy sanalarga bag‘ishlangan tadbirlar, teatr sahnalari va tanlovlar yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, fanlararo integratsiya yondashuvi ham samarali hisoblanadi. Tarix, adabiyot, huquq va jismoniy tarbiya fanlarini o‘zaro bog‘lab o‘qitish orqali yoshlarda kompleks dunyoqarash shakllanadi. Masalan, tarix darslarida Jaloliddin Manguberdi faoliyatini o‘rganish bilan birga, uning obrazini adabiyot va san’at orqali yoritish yanada chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, tanqidiy fikrlash va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirish zamonaviy tarbiyaning muhim qismidir. Yoshlar nafaqat Vatanini sevishi, balki uning ravnaqi uchun ongli ravishda hissa qo‘shishga tayyor bo‘lishi zarur.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Jaloliddin Manguberdi merosi yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda bebaho manba hisoblanadi. Zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘un holda ushbu merosdan foydalanish yosh avlodda Vatanga muhabbat, fidoyilik va mas’uliyat hissini kuchaytiradi. Bu esa kelajakda yurt himoyachilarini tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Jaloliddin Manguberdi merosi yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim nazariy va amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi. Uning jasorati, Vatanga sadoqati va mardonavor kurashi bugungi avlod uchun ibrat maktabi hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim tizimida ushbu tarixiy merosdan samarali foydalanish, innovatsion pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish orqali yoshlarning nafaqat harbiy tayyorgarligini, balki ularning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini ham rivojlantirish mumkin. Interaktiv ta’lim, raqamli texnologiyalar, amaliy mashg‘ulotlar va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bu jarayonning muhim vositalari hisoblanadi. Shu bois, yoshlarni Vatanga muhabbat, fidoyilik va mas’uliyat ruhida tarbiyalashda tarixiy meros va zamonaviy yondashuvlarning uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa kelajakda yurt ravnaqi va himoyasi uchun mas’ul, yetuk va vatanparvar avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatiga oid tarixiy manbalar.
2. Alauddin Ata-Malik Juvayni. *Tarixi jahongushoy*.
3. Ibn al-Athir. *Al-Kamil fi at-tarix*.
4. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi nashrlari va uslubiy qo‘llanmalari.
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan darsliklar.
6. Vatanparvarlik va harbiy tarbiya bo‘yicha zamonaviy pedagogik tadqiqotlar (ilmiy maqolalar va monografiyalar).
7. O‘zbekiston tarixi darsliklari va o‘quv qo‘llanmalar.
8. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslariga oid ilmiy-adabiy manbalar.

INTERESTING FACTS ABOUT THE MILITARY ACTIVITY OF JALALADDIN MANGUBERDI AND HIS ROLE IN INSTILLING PATRIOTISM IN YOUTH

Allabergenova Intizor Xojinazarovna

English teacher of military academic-lyceum named after Jaloliddin Manguberdi

To‘liboyev Miraziz Po‘latovich
Student teacher of military academic-lyceum named after Jaloliddin Manguberdi

Abstract: This study explores the military activity of Jalal ad-Din Manguberdi, focusing on his strategic leadership during the Mongol invasion and highlighting key historical facts that demonstrate his resilience and tactical intelligence. Additionally, the article examines the pedagogical and ideological significance of his legacy in fostering patriotism among contemporary youth. By integrating historical analysis with modern educational perspectives, the study argues that Jalal ad-Din’s image functions as a powerful cultural and moral archetype in nation-building processes.

Keywords: Jalal ad-Din Manguberdi, patriotism, military leadership, historical memory, youth education, Central Asia

Annatatsiya: Ushbu tadqiqot Jaloliddin Manguberdining harbiy faoliyatini o‘rganib, uning mo‘g‘ullar istilosi davridagi strategik rahbariyatiga e’tibor qaratadi hamda uning chidamliligi va taktik aql-zakovatidan dalolat beruvchi asosiy tarixiy faktlarni yoritadi. Bundan tashqari, maqolada uning merosining zamonaviy yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalashdagi pedagogik va g‘oyaviy ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Tarixiy tahlilni zamonaviy ta’lim istiqbollari bilan birlashtirib, tadqiqot Jaloliddin obrazi davlat qurilishi jarayonlarida kuchli madaniy va axloqiy arxetip vazifasini bajarishini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Jaloliddin Manguberdi, vatanparvarlik, harbiy rahbarlik, tarixiy xotira, yoshlar tarbiyasi, Markaziy Osiyo

Аннотация: В данном исследовании рассматривается военная деятельность Джалал-ад-Дина Мангуберди, особое внимание уделяется его стратегическому руководству во время монгольского нашествия и освещаются ключевые исторические факты, демонстрирующие его стойкость и тактическую проницательность. Кроме того, в статье анализируется педагогическое и идеологическое значение его наследия в воспитании патриотизма среди современной молодежи. Интегрируя исторический анализ с современными образовательными подходами, исследование утверждает, что образ Джалал-ад-Дина функционирует как мощный культурный и моральный архетип в процессах национального строительства.

Ключевые слова: Джалал-ад-Дин Мангуберди, патриотизм, военное руководство, историческая память, образование молодежи, Центральная Азия

Introduction. In the context of globalization and cultural transformation, the formation of patriotic values among youth has become a critical priority in educational and social policy. Historical figures serve as effective instruments for transmitting national identity and collective memory (Smith, 1991). Among such figures, Jalal ad-Din Manguberdi occupies a unique place as a symbol of resistance, courage, and unwavering loyalty to the homeland. His struggle against the Mongol invasion in the early 13th century, particularly during the Mongol invasion of Khwarazm, represents not only a historical episode but also a powerful narrative of national resilience. This article aims to analyze both the military achievements of Jalal ad-Din and his contemporary relevance in shaping patriotic consciousness.

Historical context and background

The collapse of the Khwarazmian Empire under the pressure of Genghis Khan marked a decisive turning point in the history of Central Asia. The Mongol invasion (1219–1221) resulted in the large-scale destruction of major urban centers such as Bukhara, Samarkand, and Urgench, which had previously functioned as key cultural and economic hubs (Bartold, 1968). The conflict was triggered by diplomatic tensions, particularly the execution of Mongol envoys by Khwarazmian authorities, which led to a full-scale military response. The Mongol army's superior organization, mobility, and use of psychological warfare enabled rapid territorial expansion and the collapse of existing political structures (Juvaini, 1997).

As a consequence, the Khwarazmian state experienced severe political fragmentation and institutional breakdown. Central authority weakened significantly, administrative systems disintegrated, and regional coordination was lost. Economically, the disruption of Silk Road trade routes led to a decline in commerce, while socially, the population faced mass displacement, violence, and instability. This period can therefore be characterized as one of profound geopolitical and socio-economic crisis, fundamentally altering the region's historical trajectory.

Within this context, Jalal ad-Din Manguberdi emerged as a central figure of resistance. Unlike many contemporary rulers who chose retreat or submission, he pursued active military confrontation despite limited resources and a fragmented army. His ability to reorganize forces, maintain morale, and sustain resistance against a dominant military power demonstrates exceptional leadership. Beyond its military significance, his struggle also holds symbolic value, representing

resilience, national identity, and opposition to foreign domination, which later contributed to his enduring legacy as a model of patriotism.

Military leadership and strategic excellence

Tactical Innovation: Jalal ad-Din's military success can be attributed to his adaptive strategies. Unlike conventional large-scale warfare, he relied on:

- mobility and rapid troop movement
- surprise attacks
- effective use of terrain

His victory at the Battle of Parwan is often cited as a rare example of successful resistance against Mongol forces (Ahmedov, 2005).

Psychological Warfare and Leadership: Leadership in crisis situations requires not only tactical intelligence but also psychological strength. Jalal ad-Din demonstrated:

- the ability to inspire demoralized troops
- resilience in defeat
- strong personal charisma

His leadership style aligns with modern theories of transformational leadership, where a leader motivates followers through vision and personal example (Bass, 1985).

The Indus River Episode as a Symbolic Act: One of the most iconic moments in his life is the crossing of the Indus River. Surrounded by enemy forces, he leaped into the river on horseback and survived. This act became a symbolic representation of courage and defiance. Even Genghis Khan reportedly acknowledged his bravery, which further emphasizes the exceptional nature of this event (Juvaini, 1997).

If we keep going to learn life of this hero, we can find attractive facts about his abilities, lidership, tactics and others.

Interesting historical facts and their interpretations

The historical narrative of Jalal ad-Din includes several remarkable facts:

- He never formally surrendered to Mongol forces
- He maintained resistance despite continuous setbacks
- He reorganized fragmented armies into functional units
- His actions inspired both allies and adversaries

From an analytical perspective, these facts illustrate not only individual heroism but also strategic persistence and adaptability—key components of military success.

Jalal ad-din Manguberdi as a symbol of patriotism

Concept of Patriotism in Modern Education: Patriotism is defined as an emotional and ideological attachment to one's homeland, often reinforced through historical narratives and cultural symbols (Anderson, 1983). In this regard, Jalal ad-Din serves as a powerful educational model.

Pedagogical Significance: His legacy is widely used in school curricula, historical literature, cultural productions (films, theater)

These representations contribute to shaping:

- ✓ national identity
- ✓ moral values
- ✓ civic responsibility

Influence on Youth Consciousness

From a psychological perspective, role models play a crucial role in identity formation (Bandura, 1977). Jalal ad-Din's image provides:

- ✓ a model of courage
- ✓ an example of loyalty
- ✓ a narrative of resistance

This makes him particularly effective in instilling patriotism among young people. The integration of historical figures into modern educational frameworks enhances both cognitive and emotional engagement. Jalal ad-Din Manguberdi's story is not merely historical but also symbolic, serving as a bridge between past and present.

However, it is essential to approach such narratives critically, ensuring that historical accuracy is preserved while emphasizing their educational value.

Conclusion. In conclusion, Jalal ad-Din Manguberdi represents a unique combination of military excellence and moral strength. His legacy continues to influence contemporary youth by promoting values such as patriotism, resilience, and national pride.

Therefore, his life and achievements should be actively incorporated into educational and cultural initiatives aimed at developing a responsible and patriotic generation.

REFERENCES

1. Ahmedov, B. *History of the Khwarazmian State*. Tashkent. 2005.
2. Anderson, B. *Imagined Communities*. Verso. 1983.
3. Bandura, A. *Social Learning Theory*. Prentice Hall. 1977.
4. Bartold, V. V. *Turkestan in the Mongol Invasion*. London. 1968.
5. Bass, B. M. *Leadership and Performance Beyond Expectations*. Free Press. 1985.

6. Juvaini, A. *The History of the World-Conqueror*. Harvard University Press. 1997.
7. Smith, A. D. *National Identity*. Penguin. 1991.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ВОЕННЫХ НАВЫКОВ, МУЖЕСТВА И ПАТРИОТИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ У БУДУЩИХ ЗАЩИТНИКОВ РОДИНЫ

Хидойходжаева Хилола Тахировна
преподаватель психологии ВАЛ ТМ при СГБ
Мирзалиева Мухаббат Махамажановна
психолог ВАЛ ТМ при СГБ

Аннотация. В статье рассматриваются психологические и педагогические основы формирования у молодежи военных навыков, мужества и патриотических качеств. Анализируются факторы, влияющие на становление личности будущего защитника Родины, роль военного воспитания, образовательной среды, традиций предков, а также современные методы подготовки. Особое внимание уделяется развитию морально-волевых качеств, устойчивости к стрессу, ответственности и готовности к служению Отечеству.

Ключевые слова: военное воспитание, патриотизм, мужество, психологическая подготовка, педагогические методы, морально-волевые качества, защитник Родины.

В условиях современных вызовов национальной безопасности особую значимость приобретает подготовка будущих защитников Родины — физически развитых, психологически устойчивых, морально зрелых и преданных своему Отечеству граждан. Военная служба требует не только профессиональных навыков, но и высокого уровня личностных качеств: мужества, дисциплины, ответственности, готовности к самопожертвованию.

Исторический опыт показывает, что победы достигаются не только благодаря вооружению, но прежде всего благодаря духовной силе народа, верности традициям предков и патриотизму. Поэтому формирование у молодежи качеств, достойных героического наследия предшествующих поколений, является важнейшей задачей системы образования и воспитания.

Психологические основы формирования личности защитника Родины.Формирование будущего военнослужащего начинается задолго до призыва или поступления в военное учебное заведение. Основой является развитие личности, способной действовать в экстремальных условиях, сохранять самообладание и принимать ответственные решения.

Мотивационно-ценностная сфера.Ключевым фактором является внутренняя мотивация служения Родине. Она формируется через:

- осознание гражданского долга;
- уважение к истории страны;
- понимание значения военной службы;
- личностную идентификацию с образом защитника.

Патриотизм выступает как устойчивое ценностное отношение, включающее любовь к Родине, готовность защищать её интересы и гордость за её достижения.

Развитие морально-волевых качеств.Мужество, решительность, выдержка и дисциплина — фундаментальные качества военного. Их развитие возможно через систематическое преодоление трудностей, участие в тренировках, требующих самоконтроля и настойчивости.

Психологические исследования показывают, что воля формируется в деятельности, связанной с:

- постановкой сложных целей;
- ответственностью за результат;
- необходимостью действовать в условиях неопределенности. Психологическая устойчивость и стрессоустойчивость.Военная деятельность сопряжена с высоким уровнем стресса. Поэтому необходимо развивать:
- эмоциональную устойчивость;
- способность к саморегуляции;
- навыки контроля страха;
- уверенность в собственных силах.

Эффективными являются тренировки, моделирующие экстремальные ситуации, а также методы психологической подготовки: дыхательные техники, когнитивная перестройка, тренинг уверенности.

Педагогические аспекты военного воспитания.Роль образовательных учреждений.Школы, лицеи и военные учебные заведения играют важную роль в формировании патриотических качеств. Военно-патриотическое воспитание должно носить системный характер и включать:

- изучение истории Отечества;
- знакомство с подвигами героев;
- участие в военно-спортивных мероприятиях;
- развитие дисциплины и ответственности.

Принципы педагогической работы.Основными принципами являются:

1. **Личностно ориентированный подход** — учет индивидуальных особенностей учащихся.
2. **Деятельностный подход —** формирование качеств через практику.
3. **Преемственность поколений** — опора на традиции предков.
4. **Комплексность —** сочетание физической, интеллектуальной и нравственной подготовки.

Методы формирования военных навыков.К эффективным методам относятся:

- строевая подготовка;
- военно-спортивные игры;
- тактические занятия;
- командные упражнения;
- полевые сборы.

Такие формы работы развивают дисциплину, коллективизм, ответственность за товарищей и готовность к взаимодействию в группе.

Формирование мужества и героизма.Мужество — это способность преодолевать страх ради выполнения долга. Оно не является врожденным качеством, а формируется в процессе воспитания.

Роль примера.Личный пример наставников, офицеров и старших товарищей оказывает сильнейшее влияние на молодежь. Образы героев, защитников страны, исторические события формируют представления о достойном поведении.

Преодоление трудностей как средство воспитания. Систематическое участие в сложных тренировках, походах, соревнованиях формирует:

- уверенность;

- выносливость;
- готовность к риску;
- способность действовать в опасности. Коллектив как фактор развития мужества.В военной среде важную роль играет товарищество.

Поддержка группы снижает уровень страха и усиливает чувство ответственности. Формируется принцип «один за всех и все за одного».

Патриотическое воспитание на основе наследия предков. Историческая память является мощным ресурсом воспитания. Осознание связи поколений формирует чувство ответственности за будущее страны.

Традиции и национальные ценности.Патриотическое воспитание включает:

- уважение к культурному наследию;
- знание истории;
- сохранение памяти о героях;
- участие в памятных мероприятиях.

Семья как основа патриотизма.Семья формирует первые представления о Родине, долге и чести. Родительский пример, рассказы о предках, семейные традиции усиливают чувство принадлежности к своей стране.

Символы государства.Флаг, герб, гимн и другие символы играют важную роль в формировании национальной идентичности и гордости.

Комплексная модель подготовки будущих защитников Родины.Эффективная система должна включать:

1. **Физическую подготовку** — развитие силы, выносливости, координации.
2. **Психологическую подготовку** — стрессоустойчивость, уверенность.
3. **Интеллектуальную подготовку** — знания в области тактики, техники, истории.
4. **Нравственно-патриотическое воспитание** — формирование ценностей и убеждений.

Особое значение имеет интеграция всех компонентов в единую программу, направленную на формирование гармоничной личности.

Формирование военных навыков, мужества и патриотических качеств у будущих защитников Родины является сложным и

многогранным процессом, требующим согласованных усилий семьи, образовательных учреждений, общества и государства. Психологическая подготовка должна сочетаться с педагогическими методами воспитания, опирающимися на исторические традиции и ценности предков.Только комплексный подход способен сформировать поколение, готовое достойно продолжить героическое наследие и обеспечить безопасность страны. Будущий защитник Родины — это не просто профессионал, владеющий военными навыками, но прежде всего гражданин с высокими моральными принципами, мужеством и глубокой любовью к своему Отечеству. При комплексном подходе возможно воспитание личности, готовой достойно продолжать традиции предков и защищать свою страну.

Основой такого воспитания являются:

- морально-психологическая подготовка;
- патриотическое воспитание;
- физическое развитие;
- духовно-нравственные ценности.

Будущие защитники Родины должны обладать не только профессиональными навыками, но и высоким уровнем гражданской ответственности, мужества и преданности своему народу.

Таким образом, формирование военных навыков, мужества и патриотических качеств у будущих защитников Родины представляет собой сложный и многогранный психолого-педагогический процесс, основанный на единстве обучения, воспитания и личностного развития. Он требует системного подхода, включающего психологическую подготовку, физическое совершенствование, нравственное воспитание и формирование гражданской ответственности.

Психологическая составляющая данного процесса направлена на развитие морально-волевых качеств личности: решительности, самообладания, устойчивости к стрессу, готовности к риску и способности действовать в экстремальных условиях. Педагогическая составляющая обеспечивает формирование ценностных ориентаций, патриотических убеждений, уважения к историческому наследию и воинским традициям предков. Особое значение имеет воспитание на примерах героизма и служения Родине, что способствует формированию внутренней мотивации к защите государства.

Эффективность подготовки будущих защитников Родины достигается при взаимодействии всех социальных институтов — семьи, образовательных учреждений, армии и общества в целом. Семья формирует базовые нравственные ценности, школа и военные образовательные организации обеспечивают системное воспитание и обучение, а государство создает условия для развития патриотического сознания молодежи.

В современных условиях особую актуальность приобретает использование инновационных педагогических технологий, психологических тренингов, интерактивных методов обучения и цифровых средств, способствующих повышению мотивации молодежи к военной службе и укреплению национальной идентичности. Важно также учитывать индивидуальные особенности личности, уровень психологической готовности и социальный опыт обучаемых.

Опора на научные труды в области военной психологии и педагогики (А.Г. Караяни, Е.П. Ильин, Е.С. Сенявская и др.), а также на классические идеи воспитания личности (А.С. Макаренко, В.А. Сухомлинский) подтверждает, что воспитание мужества и патриотизма возможно только при гармоничном сочетании требований дисциплины и уважения к личности обучаемого.

Следовательно, главной задачей современного военно-патриотического воспитания является формирование всесторонне развитой личности будущего защитника Родины — физически подготовленного, психологически устойчивого, нравственно зрелого и преданного своему народу. Только такие граждане способны достойно продолжить традиции предков, обеспечить безопасность государства и сохранить мир для будущих поколений.

Список литературы:

1. Караяни А.Г. Военная психология и педагогика. — Москва: Воениздат, 2016. — 384 с.

2. Маклаков А.Г. Общая психология. — Санкт-Петербург: Питер, 2017. — 592 с.

3. Ильин Е.П. Психология мужества. — Санкт-Петербург: Питер, 2018. — 304 с.

4. Микрюков В.Ю. Теория и практика военно-патриотического воспитания учащихся. — Москва: ВЛАДОС, 2015. — 192 с.

5. Дьяченко М.И., Кандыбович Л.А. Психология высшей школы. — Минск: Харвест, 2012. — 416 с.

6. Макаренко А.С. Педагогическая поэма. — Москва: Просвещение, 2016. — 368 с.
7. Егоров М.А. Формирование патриотических качеств военнослужащих: дис. … канд. пед. наук. — Москва, 2010. — 180 с.
8. Джандаров Д.З. Патриотическое воспитание студентов средствами военно-прикладных упражнений: дис. … канд. пед. наук. — Махачкала, 2012. — 165 с.
9. Государственная программа патриотического воспитания граждан Республики Узбекистан. — Ташкент, 2021.

TARIXIY VA BADIIY ASARLARDA JALOLIDDIN MANGUBERDI SIYMOSINING YORITILISHI

Uskinov Samandar Saparbayevich
Ichki ishlar vazirligining Xorazm akademik litseyi tarix fani bosh o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Manguberdi siymosining tarixiy va badiiy asarlarda aks ettirilishi keng qamrovda tahlil qilinadi. Uning shaxsiyati, harbiy mahorati, siyosiy faoliyati hamda vatanparvarlik timsoli sifatida shakllanishi turli davr mualliflari asarlari asosida yoritiladi. Maqolada tarixiy manbalar va badiiy adabiyot o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, talqinlar farqi va ularning ahamiyati ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Jaloliddin Manguberdi, Xorazmshohlar davlati, tarixiy manbalar, badiiy talqin, vatanparvarlik, mo‘g‘ullar istilosi, qahramonlik, tarixiy shaxs.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the representation of Jaloliddin Manguberdi in historical and literary works. His personality, military skills, political activity, and formation as a symbol of patriotism are examined based on the works of authors from different periods. The study also explores the relationship between historical sources and literary interpretations, differences in perspectives, and their scientific significance.

Keywords: Jaloliddin Manguberdi, Khwarazmian state, historical sources, literary interpretation, patriotism, Mongol invasion, heroism, historical figure.

Аннотация: В данной статье проводится всесторонний анализ отражения образа Джалолиддина Мангуберди в исторических и художественных произведениях. Его личность, военное мастерство, политическая деятельность и формирование как символа патриотизма раскрываются на основе трудов авторов различных

эпох. Также рассматриваются взаимосвязь исторических источников и художественной литературы, различия в интерпретациях и их научное значение.

Ключевые слова: Джалолиддин Мангуберди, государство Хорезмшахов, исторические источники, художественная интерпретация, патриотизм, монгольское нашествие, героизм, историческая личность.

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida tarixiy xotirani tiklash va milliy qahramonlar siymosini ilmiy asosda o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Jaloliddin Manguberdi shaxsiyati nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu bois uning siymosini tarixiy va badiiy manbalar asosida kompleks tahlil qilish dolzarb ilmiy muammolardan biridir. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – Jaloliddin Manguberdi siymosining tarixiy va badiiy asarlarda yoritilish xususiyatlarini tahlil qilish hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash.

Jaloliddin Manguberdi o‘rta asrlar tarixida o‘zining jasorati, harbiy iste’dodi va mustaqillik uchun olib borgan kurashi bilan alohida ajralib turadi. U 1220-1231-yillarda hukmronlik qqilgan Xorazmshohlar davlatining so‘nggi yirik hukmdori sifatida mo‘g‘ullar istilosiga qarshi mardonavor kurash olib borgan. Shu bois uning siymosi nafaqat tarixiy manbalarda, balki badiiy asarlarda ham keng yoritilgan.

Tarixiy shaxslarning badiiy talqini har bir davrning ijtimoiy-siyosiy qarashlariga bog‘liq holda shakllanadi. Jaloliddin Manguberdi obrazi ham turli mualliflar tomonidan turlicha talqin etilgan bo‘lsa-da, uning asosiy qiyofasi – jasur sarkarda va vatan himoyachisi sifatida saqlanib qolgan.

1. Tarixiy manbalarda Jaloliddin Manguberdi siymosi

Jaloliddin Manguberdi haqida eng muhim tarixiy manbalardan biri – Shihab ad-Din Muhammad an-Nasaviyning “Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mangburni” asaridir. Muallif Jaloliddinning zamondoshi, shaxsiy kotibi bo‘lib, 1224-yildan 1231-yil (Jaloliddin Manguberdi vafoti) gacha uning yonida yurgaan va hayot yo‘lini bevosita kuzatgan.

Nasaviy Jaloliddinni quyidagicha ta’riflaydi: “U jasoratda tengsiz, qat’iyatda mustahkam, dushmanga qarshi kurashda mard va qo‘rqmas edi” [1].

Shuningdek, Ibn al-Asir o‘zining “Al-Komil fit-tarix” asarida Jaloliddinning mo‘g‘ullarga qarshi kurashini alohida e’tirof etadi. U Jaloliddinni musulmon dunyosining himoyachisi sifatida ko‘rsatadi [2].

Ota-Malik Juvayniyning “Tarixi jahongushoy” (“Jahon fotihi tarixi”) asarida esa Jaloliddin obrazi biroz murakkabroq talqin qilinadi. Muallif uning jasoratini tan olgan holda, siyosiy xatolarini ham qayd etadi [3].

2. Harbiy faoliyati va tarixiy janglar talqini

Jaloliddin Manguberdining harbiy faoliyati tarixiy asarlarda keng yoritilgan. Ayniqsa, Indus (Sind) daryosi bo‘yidagi jang alohida o‘rin tutadi.

Nasaviy ushbu jangni quyidagicha tasvirlaydi: Jaloliddin dushman qurshovida qolgan bo‘lsa-da, o‘z jasorati bilan daryodan ot bilan sakrab o‘tadi va qutulib qoladi [1].

Bu voqea keyinchalik ko‘plab tarixiy va badiiy asarlarda ramziy ma’noga ega bo‘lib, erkinlik va mardlik timsoli sifatida talqin etiladi.

3. Badiiy adabiyotda Jaloliddin obrazi

Jaloliddin Manguberdi obrazi o‘zbek va jahon adabiyotida keng o‘rin egallagan. Ayniqsa, Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasi (1944-yil) bu borada muhim ahamiyatga ega.

Mazkur asarda Jaloliddin nafaqat sarkarda, balki chuqur his-tuyg‘ularga ega inson sifatida tasvirlanadi. U vatan, xalq va erkinlik uchun kurashuvchi ideal qahramon darajasiga ko‘tariladi [4].

Asarda quyidagi fikr uchraydi: “Vatan uchun jon fido qilish – eng oliy burchdir” [4, 23-b.].

Bundan tashqari, zamonaviy adabiyotlarda ham Jaloliddin obrazi qayta talqin qilinmoqda. Turli roman va ilmiy-badiiy asarlarda uning shaxsiyati yanada boyitilib, zamonaviy qarashlar bilan uyg‘unlashtirilmoqda.

4. Tarixiy va badiiy talqin o‘rtasidagi farqlar

Tarixiy manbalar voqealarni iloji boricha aniq va xolis yoritishga intiladi. Badiiy asarlar esa obrazni ta’sirchan qilish uchun ayrim jihatlarni kuchaytiradi yoki ideallashtiradi.

Masalan, tarixiy manbalarda Jaloliddinning ayrim siyosiy xatolari qayd etilgan bo‘lsa, badiiy asarlarda u ko‘proq mukammal qahramon sifatida tasvirlanadi.

Bu holat tarixiy haqiqatni buzish emas, balki badiiy ifoda vositalari orqali obrazni yanada ta’sirchan qilishga xizmat qiladi.

5. Zamonaviy tadqiqotlarda Jaloliddin siymosi

Hozirgi kunda Jaloliddin Manguberdi shaxsiyati tarixchilar tomonidan qayta o‘rganilmoqda. Mustaqillik yillarida uning milliy qahramon sifatidagi o‘rni yanada mustahkamlandi.

O‘zbekiston tarixchilari uning faoliyatini milliy davlatchilik va mustaqillik g‘oyalari bilan bog‘lab tahlil qilmoqdalar.

Xulosa

Jaloliddin Manguberdi siymosi tarixiy va badiiy asarlarda turli jihatlardan yoritilgan bo‘lsa-da, uning asosiy qiyofasi o‘zgarmas – buyuk sarkarda, davlat arbobi, vatanparvarlik timsoli sifatida saqlanib qolgan. Bu esa uning tarixdagi o‘rni va ahamiyatining naqadar buyuk ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. An-Nasaviy Sh. Siyrat as-sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999.
2. Ibn al-Asir. Al-Kamil fit-tarix. – Bayrut, 1987.
3. Juvayniy A.M. Tarixi jahongushoy. – Tehron, 1960.
4. Shayxzoda M. Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1988.
5. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.

TARIX DARSLARIDA MILLIY QAHRAMONLAR FAOLIYATINI YORITISHDA BADIIY ASARLARNING AHAMIYATI

Uskinov Samandar Saparbayevich

Ichki ishlar vazirligining Xorazm akademik litseyi tarix fani bosh o`qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada akademik litseylar tarix darslarida milliy qahramonlar faoliyatini yoritishda badiiy asarlarning o‘rni va pedagogik ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqotda tarixiy tafakkurni shakllantirish, o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishda badiiy adabiyotning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy va tarixiy manbalarni uyg‘unlashtirishning samarali metodlari yoritilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: tarix ta’limi, milliy qahramonlar, badiiy adabiyot, tarixiy tafakkur, vatanparvarlik, didaktika, metodika, tarixiy ong, pedagogik texnologiyalar.

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimida yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, ularda tarixiy xotira va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda tarix fanining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Tarix darslari orqali o‘quvchilar nafaqat o‘tmish voqealari bilan tanishadi, balki milliy qadriyatlar,

ajdodlar merosi va qahramonlik an’analari haqida chuqur tasavvurga ega bo‘ladilar.

Ammo tarixiy materiallarni faqat fakt va sanalar asosida o‘qitish o‘quvchilarda yetarli darajada qiziqish uyg‘otmasligi mumkin. Shu bois tarix darslarida badiiy asarlardan foydalanish muhim metodik yondashuv sifatida qaraladi. Badiiy adabiyot tarixiy voqealarni obrazli va ta’sirchan shaklda yetkazib, o‘quvchilarning hissiy va tafakkuriy dunyosiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Bu masala pedagogika va tarix o‘qitish metodikasi fanlarida dolzarb ilmiy muammo sifatida keng o‘rganilmoqda[1].

1. Milliy qahramonlar obrazining pedagogik ahamiyati

Milliy qahramonlar – bu xalq tarixida muhim iz qoldirgan, o‘zining jasorati, fidoyiligi va vatanparvarligi bilan ajralib turadigan shaxslardir. Ularning faoliyatini o‘rganish o‘quvchilarda quyidagi sifatlarni shakllantiradi:

- vatanparvarlik;
- fuqarolik pozitsiyasi;
- tarixiy ong;
- ma’naviy-axloqiy qadriyatlar.

Pedagog olimlarning fikricha, tarixiy shaxslar orqali berilgan bilimlar o‘quvchilar tomonidan tezroq va chuqurroq o‘zlashtiriladi[2]. Chunki shaxsga bog‘langan voqea ongda mustahkamroq saqlanadi.

2. Badiiy asarlarning didaktik imkoniyatlari

Badiiy asarlar tarixiy voqealarni jonli tasvirlash orqali o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi. Ularning asosiy didaktik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- **obrazlilik** – tarixiy voqealar jonli tasvirlanadi;
- **emotsionallik** – o‘quvchiga hissiy ta’sir ko‘rsatadi;
- **tushunarlilik** – murakkab jarayonlarni sodda qilib ifodalaydi.

Masalan, tarixiy romanlarda qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy holati ochib berilishi o‘quvchilarning empatiya tuyg‘usini rivojlantiradi[3].

Shu bilan birga, badiiy asarlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni ham shakllantiradi.

3. Tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unligi

Badiiy asarlar tarixiy haqiqat asosida yaratiladi, ammo ularda muallifning subyektiv qarashi ham aks etadi. Shu sababli tarix darslarida quyidagi metodik yondashuv muhim hisoblanadi:

- tarixiy faktlarni aniqlash;
- badiiy talqinni ajratish;

- manbalarni solishtirish.

Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, badiiy asarlarni tarixiy manbalar bilan uyg‘un holda o‘rganish o‘quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi[4].

4. Tarix darslarida badiiy asarlardan foydalanish metodikasi

Tarix darslarida badiiy asarlardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi metodlar qo‘llaniladi:

4.1. Matn tahlili metodi

O‘quvchilar badiiy matndan parchalarni o‘qib:

- qahramon xarakterini aniqlaydi;
- tarixiy voqeani tahlil qiladi;
- muallif g‘oyasini ochib beradi.

4.2. Taqqoslash metodi

Tarixiy manba va badiiy asar o‘zaro solishtiriladi. Bu metod orqali:

- fakt va talqin farqi aniqlanadi;
- tahliliy fikrlash rivojlanadi.

4.3. Rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Bu metod o‘quvchilarning faolligini oshiradi va tarixiy voqealarni chuqurroq anglashga yordam beradi[5].

4.4. Muammoli ta’lim

O‘qituvchi savollar orqali o‘quvchini fikrlashga undaydi:

- “Qahramon nega shunday qaror qabul qildi?”
- “Agar siz uning o‘rnida bo‘lsangiz nima qilardingiz?”

5. Vatanparvarlik tarbiyasida badiiy asarlarning roli

Badiiy asarlar o‘quvchilarga kuchli hissiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, milliy qahramonlar haqidagi asarlar orqali:

- vatanga muhabbat shakllanadi;
- milliy g‘urur ortadi;
- ajdodlarga hurmat paydo bo‘ladi.

I.A. Karimov ta’kidlaganidek, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuchdir” va u yoshlar tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega[6].

6. Zamonaviy ta’limda badiiy asarlardan foydalanish istiqbollari

Bugungi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Jumladan:

- elektron darsliklar;
- audiokitoblar;
- videomateriallar;
- interaktiv platformalar.

Bu vositalar badiiy asarlarni yanada samarali o‘rganish imkonini beradi va o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi[7].

Xulosa

Tarix darslarida milliy qahramonlar faoliyatini yoritishda badiiy asarlardan foydalanish katta pedagogik ahamiyatga ega. Ular orqali o‘quvchilarda:

- tarixiy tafakkur rivojlanadi;
- vatanparvarlik tuyg‘usi shakllanadi;
- milliy o‘zlik anglanadi.

Badiiy adabiyot tarixiy bilimlarni chuqurlashtirish bilan birga, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ham xizmat qiladi. Shu sababli tarix o‘qituvchilari badiiy asarlardan oqilona va maqsadli foydalanishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Vohidov R., Qodirov B. *Tarix o‘qitish metodikasi*. – Toshkent, 2015. – B. 12–14.
2. To‘rayev B. *Pedagogika nazariyasi*. – Toshkent, 2017. – B. 45.
3. Qodirov S. *O‘zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent, 2016. – B. 88–90.
4. Rasulov A. *Tarix darslarida innovatsion metodlar*. – Toshkent, 2020. – B. 56.
5. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent, 2019. – B. 102–105.
6. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 24.
7. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Toshkent, 2021. – B. 67.
8. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari tarix darsliklari. – Toshkent, 2022.

JALOLIDDIN MANGUBERDI MEROSI VA UNI YOSHLAR TARBIYASIDAGI O‘RNI

Shermuratov Jamshid Tursunpo‘latovich

DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL Kasbiy-amaliy fanlar kafedrasi yetakchi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola Jaloliddin Manguberdining (1198–1231) hayoti, harbiy-siyosiy faoliyati va tarixiy merosini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada buyuk sarkardaning mo‘g‘ullar istilosiga qarshi olib borgan mardonavor kurashi, Parvon jangi kabi yorqin g‘alabalari, Sind daryosi bo‘yidagi jangdagi jasorati va keyingi yillarda Eron, Ozarbayjon, Gruziya hududlaridagi yurishlari yoritilgan. Shuningdek, uning shaxsiy fazilatlari (qat’iyat, adolatparvarlik, vatanparvarlik) va o‘limi haqidagi tarixiy manbalar (Nasaviy, Juvayniy, Ibn al-Asir va boshqalar) asosida ma’lumotlar keltirilgan.

Maqolaning asosiy e’tibori Jaloliddin Manguberdi merosining zamonaviy yoshlar tarbiyasidagi o‘rniga qaratilgan. Uning obrazi orqali yosh avlodda **vatanparvarlik**, **jasorat**, **qat’iyat**, **milliy birlik** va **fidoyilik** kabi fazilatlarni shakllantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. O‘zbekistonda uning tavalludining 800 yilligi nishonlanishi, haykallar o‘rnatilishi, orden ta’sis etilishi va ta’lim jarayonida o‘rganilishi kabi amaliy misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Jaloliddin Manguberdi, Xorazmshohlar davlati, mo‘g‘ullar istilosi, vatanparvarlik, sarkarda, yoshlar tarbiyasi, milliy meros, jasorat, Parvon jangi, milliy g‘urur, vatan himoyasi.

Jaloliddin Manguberdi (1198–1231) — Xorazmshohlar davlatining so‘nggi hukmdori, buyuk sarkarda va vatan himoyachisi. U Muhammad Xorazmshohning to‘ng‘ich o‘g‘li bo‘lib, otasining vafotidan keyin (1220-yil) taxtga o‘tirgan. Uning qisqa, ammo shonli hayoti mo‘g‘ullar istilosiga qarshi mardonavor kurash bilan to‘la. Jaloliddin Manguberdi nafaqat harbiy iste’dodi, balki jasorati, qat’iyati va Vatan ozodligi uchun fidoyiligi bilan tarixda abadiy qolgan. Uning merosi bugungi kunda ham milliy g‘urur va vatanparvarlik ramzi sifatida yosh avlod tarbiyasida muhim o‘rin tutadi.[26]

Jaloliddin Manguberdining hayoti va jasorati

Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullar bosqiniga qarshi eng qattiq qarshilik ko‘rsatgan sarkardalardan biri edi. Chingizxonning kuchli qo‘shini Xorazm davlatini vayron qilgan paytda u otasi bilan birga janubga chekingan va keyin mustaqil kurashni davom ettirgan. Eng mashhur janglaridan biri — **Parvon jangi** (1221), unda u mo‘g‘ul qo‘shinini og‘ir mag‘lubiyatga uchratgan. Biroq kuchlar teng bo‘lmagani uchun Sind daryosi bo‘yidagi jangda (1221) chekinishga majbur bo‘lgan. Bu jangda u o‘z oilasini dushman qo‘liga tushirmaslik uchun og‘ir qaror qabul qilgan va o‘zi daryodan suzib o‘tib, 4000 jangchisi bilan qochib qutulgan. Chingizxonning o‘zi ham uning jasoratidan hayratlanib, ta’qib qilishni taqiqlagan degan rivoyatlar bor.

Keyinchalik Jaloliddin Eron, Ozarbayjon, Gruziya va boshqa hududlarda mo‘g‘ullarga qarshi kurashni davom ettirgan. U Tabriz, Maraga kabi shaharlarni egallagan, Gruziya poytaxti Tbilisini zabt etgan (1226). Uning qo‘shini mo‘g‘ullarga bir necha marta jiddiy zarba bergan. Biroq ichki nizolar, xiyonatlar va kuchlar tengsizligi tufayli u to‘liq g‘alabaga erisha olmagan. 1231-yilda Kurdiston tog‘larida qaroqchilar qo‘lida halok bo‘lgan. Uning o‘limi haqida tarixchi Nasaviy

1. [26] Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy. *Sulton Jaloliddin Manguberdi* (Kamol Matyoqubov tarjimasi). Toshkent, 1999.

“yo‘lbars changalidan qutulgan arslon chiyabo‘ri qo‘lida jon berdi” deb yozgan.[27]

Shaxsiy xususiyatlari: Nasaviy va boshqa muarrixlar uni o‘rta bo‘yli, bug‘doyrang, turk tilida so‘zlashuvchi, fors tilini ham yaxshi biladigan, jiddiy, kamgap, adolatli va nihoyatda qat’iyatli odam sifatida tasvirlaydi. U “sherlar orasidagi eng kuchli sher” deb atalgan. Hech qachon kulmas, faqat jilmayib qo‘yar, adolatsizlikni yomon ko‘rardi.

Tarixiy merosi

Jaloliddin Manguberdining asosiy merosi — **mo‘g‘ullar istilosiga qarshi kurash** va milliy birlik g‘oyasi. U Xorazm davlatining qoldiqlarini saqlab qolish va dushmanga qarshilik ko‘rsatish orqali keyingi avlodlarga vatan himoyasi namunasi bo‘ldi. Uning kurashi nafaqat O‘rta Osiyo, balki Yaqin va O‘rta Sharq xalqlariga ham ta’sir ko‘rsatgan. Tarixchilar (Nasaviy, Ibn al-Asir, Juvayniy, Rashididdin) uning jasoratini alohida ta’kidlab, maxsus asarlar yozganlar.

Zamonaviy O‘zbekistonda uning merosi katta hurmatga sazovor:

- 1999-yilda tavalludining 800 yilligi keng nishonlangan.
- Xorazmda haykal o‘rnatilgan, memorial kompleks bunyod etilgan.
- “Jaloliddin Manguberdi” ordeni ta’sis etilgan.
- Ko‘plab ilmiy ishlar, kitoblar, filmlar va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar unga bag‘ishlangan.[28]

Uning merosi milliy ongni shakllantirishda, vatanparvarlik va mustaqillik ruhini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Yoshlar tarbiyasidagi o‘rni

Bugungi kunda Jaloliddin Manguberdi shaxsiyati yoshlarni **vatanparvarlik, matonat, qat’iyat va fidoyilik** ruhida tarbiyalashning yorqin namunasi hisoblanadi. Uning hayoti orqali yosh avlodga quyidagi qadriyatlar singdiriladi:

1. **Vatan himoyasi — muqaddas burch**. U butun umrini el-yurt ozodligi uchun kurashga bag‘ishlagan. Bu yoshlarga “Vatan — ona, uni himoya qilish har bir fuqaroning burchi” degan tuyg‘uni shakllantiradi.
2. **Jasorat va qat’iyat**. Tengsiz janglarda ham taslim bo‘lmagan, chekinishni emas, kurashni tanlagan. Bu yoshlarda qiyinchiliklar oldida taslim bo‘lmaslik, maqsad sari intilish fazilatini oshiradi.
3. **Milliy birlik va hamjihatlik**. Uning kurashi ichki nizolar tufayli to‘xtaganini ko‘rsatib, yoshlarga birlashish muhimligini o‘rgatadi.
4. **Adolat va haqgo‘ylik**. U adolatsizlikni yomon ko‘rgan, xalq manfaatini o‘ylagan.

---

2. [27] Azamat Ziyo. *O‘zbek davlatchiligi tarixi*. Toshkent, 2000.
3. [28] Bartold V. V. *Mo‘g‘ul bosqini davrida Turkiston*. Toshkent, 1990-yillar nashrlari.

O‘zbekistonda bu merosni yoshlar tarbiyasiga qo‘llash bo‘yicha ko‘plab ishlar olib borilmoqda: maktab va oliy ta’lim darslarida, “Ma’naviyat va ma’rifat” soatlarida, harbiy-vatanparvarlik tadbirlarida, muhokama klublari va seminarlarda uning hayoti o‘rganiladi. Tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, Jaloliddin Manguberdi obrazi milliy g‘oyani targ‘ib qilishda, yoshlarda milliy o‘zlikni his qilishni shakllantirishda kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Masalan, yoshlar orasida “Jaloliddin Manguberdi — yurt himoyachisi” mavzusidagi insholar, viktorinalar, teatr tomoshalari va sport musobaqalari o‘tkaziladi. Bu tadbirlar yoshlarni nafaqat tarixni bilishga, balki undan saboq olishga undaydi.

Xulosa

Jaloliddin Manguberdi merosi — bu faqat o‘tmish emas, balki kelajak uchun yo‘l ko‘rsatuvchi nurdir. Uning jasorati va fidoyiligi yosh avlodni vatanparvar, qat’iyatli va mas’uliyatli fuqarolar qilib tarbiyalashda beqiyos o‘rin tutadi. Bugungi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarimizni saqlash va rivojlantirish uchun aynan shunday tarixiy shaxslarning merosiga tayanish zarur. Yoshlar Jaloliddin Manguberdi kabi “sherlar orasidagi sher” bo‘lib, Vatan manfaati yo‘lida harakat qilsalar, mamlakatimizning kelajagi yanada porloq bo‘ladi.

“Vatan mudofaasi uchun jonini tikkan mardlarning shonu-shavkati o‘zining shonu-shavkatidan ko‘p ustun” — deb yozganidek, uning hayoti bizga shuni o‘rgatadi: haqiqiy buyuklik — xalq va Vatan uchun xizmatda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy. *Sulton Jaloliddin Manguberdi* (Kamol Matyoqubov tarjimasi). Toshkent, 1999.
2. Azamat Ziyo. *O‘zbek davlatchiligi tarixi*. Toshkent, 2000.
3. Buniyotov Z. M. *Xorazmshohlar-Anushteginiylar davlati*. Moskva, 1986.
4. Bartold V. V. *Mo‘g‘ul bosqini davrida Turkiston*. Toshkent, 1990-yillar nashrlari.
5. Jaloliddin Manguberdi (o‘zbek, rus, ingliz tillarida). Toshkent, 1999.
6. Sagdullayev A. S. va boshqalar. *O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti*. Toshkent, 2000.
7. Domanin A. A. *Jasorat qanotlarida* (Jaloliddin Manguberdi haqida). Moskva, 1988.
8. Maqsud Shayxzoda. *Jaloliddin Manguberdi* (tragediya). Toshkent, 1944 va keyingi nashrlar.

9. Shaxodat Isaxonova. *Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog‘iga tushgan malika* (roman).
10. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot institutlari materiallari (Jaloliddin Manguberdi haqidagi ilmiy maqolalar va konferensiya to‘plamlari, 1999–2024 yillar).

JALOLIDDIN MANGUBERDI - VATAN QAHRAMONI

M.Q.G‘affarov
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Xorazm akademik litseyi, Urganch, bosh o‘qituvchi, PhD

Jaloliddin Manguberdi - Vatan ozodligi va mustaqilligi yo‘lida jonini fido qilgan buyuk qahramon, milliy g‘ururimiz timsolidir. Uning mardligi va harbiy san’ati bugungi yosh avlod uchun vatanparvarlik maktabi bo‘lib xizmat qiladi.
Shavkat Mirziyoyev

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Manguberdining faoliyati, Vatan qahramoni ekanligi, jangdagi harbiy taktikasi haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so’zlar: Jaloliddin Manguberdi, Ona vatan, Mo‘g‘ullar istilosi, Shihobiddin ibn Ahmad an-Nasaviy, Parvon jangi, Sind jangi, vatanparvarlik, Jaloliddin Manguberdi ordeni.

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается деятельность Джалолиддина Мангуберди, его роль как героя Родины и его военная тактика в сражениях.

Ключевые слова: Джалолиддин Мангуберди, Родина, монгольское нашествие, Шихабиддин ибн Ахмад ан-Насави, битва при Парване, битва на Инде, патриотизм, орден Джалолиддина Мангуберди.

Abstract: This article provides a detailed analysis of Jaloliddin Manguberdi’s activities, his role as a national hero, and his military tactics in battles.

Keywords: Jaloliddin Manguberdi, Motherland, Mongol invasion, Shihabuddin ibn Ahmad an-Nasawi, Battle of Parwan, Battle of Indus, patriotism, Order of Jaloliddin Manguberdi.

Kirish. Tarixda o’chmas iz qoldirgan atoqli shaxslarning merosi ko’p qirraliligi bilan ajralib turadi. Shu jumladan Jaloliddin Manguberdi el-yurt istiqloli uchun kurashgan, bunga o‘z hayotini bag‘ishlagan ajdodlarimizning buyuk namoyandasidir. Ona yurtga muhabbat va sadoqat, or-nomus va shon-sharaf bobida unga teng keladigan ulug‘ shaxslar dunyoda kamdan-kam uchraydi, desak, ayni haqiqatni aytgan

bo‘lamiz. Bu fikrimizni donishmand alloma va odil hukmdor Mirzo Ulug‘bekning: "Olam ahli Jaloliddindan oldin ham, keyin ham bunday bahodir jangchini ko‘rmagan. Bu zotning azmu shijoati oldida hatto buyuklikning o‘zi ham ta’zim qiladi", degan so‘zlari yaqqol tasdiqlaydi [1].

Jaloladdin Manguberdi haqida tarixchi, Jaloladdin Manguberdining shaxsiy kotibi Shihobiddin ibn Ahmad an-Nasaviy shunday deb qayd qilgan: “U bug‘doyrang, o‘rta bo‘yli, turkiy qiyofali va turkiyda gapiradigan odam edi, shu bilan birga, forsiyda ham so‘zlasha olardi. Uning mardligi, jasurligiga kelsak, yuqorida hikoya qilganim janglardagi faoliyatini eslab o‘tishning o‘zi kifoya qiladi. U sherlar orasida eng zo‘r sher edi, qo‘rqmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botiri edi. U yuvosh, muloyim odam edi, jahldor emasdi, haqoratomuz so‘zlarni aytmasdi. U nihoyatda jiddiy edi, kulmasdi, faqat jilmayib qo‘yardi, kam gapirardi. U haqgo‘ylikni, adolatni ulug‘lardi, ammo yashagan davridagi g‘alayonlar, alg‘ov-dalg‘ovlar fe’l-atvorini o‘zgartirdi. U qo‘l ostidagi odamlarning og‘ir hayotini yengillashtirishni xohlardi, ammo u yashagan davr qonunlari uni zulm qilishga majbur etardi… Bachkana ta’riflarni yoqtirmagan, faqat “sulton” deya murojaat qilishlarini so‘ragan” [2].

Asosiy qism. Buyuk sarkarda Jaloladdin Manguberdining ayrim janglari haqida to’xtalib o‘tamiz. 1221-yil sentabr oyida hozirgi Afg‘oniston hududidagi Parvon viloyati yaqinida Jaloliddin Manguberdi boshchiligidagi Xorazmshoh qo‘shinlari va mo‘g‘ullar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan, bu jang tarixga Parvon jangi nomi bilan kirgan . Ushbu jangda mo‘g‘ullarga qarshi Xorazmshoh qo‘shinining eng katta g‘alabasi sifatida tarixda qolgan. Jaloliddinning mo‘g‘ullarga qarshi kurashi – Otasi Muhammad Xorazmshoh vafotidan keyin Jaloliddin mo‘g‘ullarga qarshi mustaqil kurashni davom ettirdi va o‘z atrofida qo‘shin to‘pladi. Valiyon jangidan keyingi vaziyat – Jaloliddin mo‘g‘ullarga qattiq qarshilik ko‘rsatdi, ammo Valiyon qal’asi mag‘lubiyatga uchradi. Shunga qaramay, u yangi kuchlar to‘plashni davom ettirdi. Jaloliddin Manguberdi 20 ming kishilik qo‘shin bilan mo‘g‘ullarga qarshi safarbar bo‘ldi. Mo‘g‘ullarning qo‘shini 30 mingga yaqin edi va ularni Chingizxonning sodiq sarkardasi Shiki Xutuxu No‘yon boshqargan. Parvon jangi Jaloliddin Manguberdining tarixdagi eng yorqin g‘alabalaridan biri bo‘lib, u mo‘g‘ullarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borishga qodir ekanligini isbotladi. Bu jang mo‘g‘ullarga ilk katta zarba bo‘ldi, lekin ichki nizolar tufayli Jaloliddinning bu g‘alabasidan

to‘liq foydalana olmaganligi uning keyingi harbiy yurishlariga ta’sir ko‘rsatdi.

1221-yilgi Sind jangi – Jaloliddin Manguberdi boshchiligidagi Xorazmshoh qo‘shinlari va mo‘g‘ullar o‘rtasida sodir bo‘lgan hal qiluvchi janglardan biridir. Bu jang 1221-yilning oxirida hozirgi Pokiston hududidagi Sind daryosi yaqinida bo‘lib o‘tgan. Bu jang Jaloliddin Manguberdining mo‘g‘ullarga qarshi olib borgan kurashlaridagi eng qiyin sinovlaridan biri bo‘ldi. Parvon jangidan keyingi vaziyat – Jaloliddin 1221-yilning sentabr oyida mo‘g‘ullarga qarshi katta g‘alabaga erishgan edi. Chingizxon bundan qattiq g‘azablandi va o‘g‘illari Chig‘atoy va O‘qtoy boshchiligida katta qo‘shin yubordi. Jaloliddinning Hindiston tomon chekinishi – Mo‘g‘ullarning katta qo‘shini Jaloliddinni ta’qib qilib, uni tor-mor etish maqsadida Sind daryosi tomon harakat qildi. Jaloliddin daryoni kesib o‘tib, Hindistonga borishni rejalashtirgan edi. Mo‘g‘ullarning uni butunlay yo‘q qilish istagi – Chingizxon Jaloliddinni o‘zining eng xavfli raqiblaridan biri deb bilgan va uni hech qanday holatda qoldirmaslikni buyurgan.

Jang taktikasi. Jaloliddin Manguberdining mo‘g‘ullar bosqiniga qarshi kurashda qo‘llangan jangovar harakatlariga quyidagicha tarif berish mumkin:

Qat’iy harakatlar va janglar olib borish, dushmanning xatolarga yo‘l qo‘yishi yoki holdan toyishini kutmasdan dushmanga jiddiy qarshilik ko‘rsatish, to’satdan zarba berish elementiga erishish, zarbani dushman kutmagan yo’nalishlardan berish, harbiy harakatlar maydonida manyovr o’tkazishning hal qiluvchi ahamiyatini tan olish, dushman jangovar tartibining bo’linmalari oralig’iga va uning kuchsiz uchastkalariga, bazalar va kommunikatsiyalariga zarbalar berish, dushman front ortini izdan chiqarish uchun siyosiy choralar ko‘rish, harbiy hiyla qo‘llash, yangi kurash olib borish vositalarini qo‘llagan [3].

Yuqorida qayd etilganlardan va urush olib borishning muhim tamoyillaridan kelib chiqib Jaloliddin Manguberdi quyidagi tamoyillariga katta e’tibor qaratgan:

Urushning birinchi va muhim tamoyili - g‘alabaga erishish uchun hamma kuchlarni to‘liq shiddat bilan harakatlanishi.

Ikkinchidan - ikkinchi darajali uchastkalarni kuchsizlantirsa ham imkoni boricha yirik kuchlarni bosh zarba berish yo‘nalishlarida jamlash.

Uchinchidan - vaqtni behuda yo‘qotmasdan tezkorlik bilan harakatlanish. To‘satdan zarba berish strategiyada taktikadan ko‘ra katta

ahamiyatgaega, hujumkor urushning o‘ziga xos xususiyati “tez va to‘xtalishsiz pirovard natijaga erishishdir”.

To‘rtinchi - erishilgan muvaffaqiyatdan tezkorlik bilan foydalanish. O‘zbek davlatchiligi tarixida o‘zining jasorati va harbiy mahorati bilan milliy qahramon sifatida o‘chmas iz qoldirgan Jaloliddin Manguberdining shonli va ibratli hayot yo‘lini, siyosiyo, harbiy mahoratini, vatan oldidagi xizmatlari, jahon xalqlari tarixida tutgan o‘rnini o‘rganish va targ‘ib qilish bugungi kunning dolzarb mavzularidandir.

Xulosa. Jaloliddin Manguberdining shonli va ibratli hayot yo‘lini, siyosiy, harbiy mahoratini, Vatan oldidagi xizmatlari, jahon xalqlari tarixida tutgan o‘rnini yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, aksincha, vaqt o‘tishi bilan mazmunga boyib bormoqda. Eng muhim jihati, Jaloliddin Manguberdining sarkardalik faoliyatini, uning vatan mustaqilligi yulida fidoyilarcha kurashini tarixiylik nuqtai nazaridan to‘g‘ri baholash uchun o‘zbekistonda keng imkoniyatlar vujudga keldi.

Sulton Jaloliddin shunchaki bir davrning hukmdori emas, u Yevrosiyo makonida mo‘g‘ul gemoniyasiga 11 yil davomida to‘siq bo‘lgan yagona kuchdir.Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullarga qarshi 11 yil davomida Xuroson, Hindiston, Eron, Iroq va Kavkaz hududlarida tinimsiz kurash olibbordi, 17 marotaba mo‘g‘ullarga qarshi jangqilib, ularning 14 tasida g‘olib bo‘ldi. Uning nomi dunyo harbiy ssan’ati sahifalarida Amir Temur, Iskandar Zulqarnayn va Temur Malik kabi buyuklar bilan bir qatorda turadi.

Tarixiy xotira. Mustaqillik yillaridabuyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi shaxsini ulug‘lash va uning tarixiy merosini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. 1999-yilda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi keng nishonlanib, Xorazm viloyatining Urganch shahrida unga mahobatli haykal o‘rnatildi[4]. 2000-yilda “Jaloliddin Manguberdi” ordenining ta’sis etilishi sarkardaning Vatan ozodligi yo‘lidagi xizmatlariga berilgan yuksak e’tirof bo‘ldi. 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Urganch shahri markazida Jaloliddin Manguberdi yodgorlik majmuasi ochildi hamda buyuk sarkardaning hayoti va faoliyatini chuqur o‘rganish, uni ayniqsa yoshlar orasida keng targ‘ib etish zarurligi ta’kidlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdirimov B va mualliflar jamoasi. 791 yil o‘tib…. “Ogahiy” nashriyoti. – Urganch. 2023.

2. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti/tarjima. K. Matyoqubov. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1999.
3. Axmedov S.B. Jaloliddin Manguberdining harbiy mahorati va uning yoshavlodni tarbiyalashdagi o’rni. «Российские» инновационные подходы в современной науке. Том. 17. № 1. (2024).
4. Sulton Jaloliddin Manguberdi harbiy strategiyasi va jang taktikasi usullari tahlili. Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya. Ilmiy-amaliy konferensiya materilalari. – Toshkent. 2026.
5. http.ziyo.net

JALOLIDDIN MANGUBERDI – MARDLIK VA JASORAT TIMSOLI SIFATIDA YOSH AVLODNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI

Alimkulova Baxtigul Baxromjon qizi
Jaloliddin Manguberdi harbiy-akademik litseyi Davlat huquq va asoslari fani o‘qituvchisi
Hamroyev Islom Ibrohim o‘g‘li
24/04-guruh o‘quvchisi

Annotation: Jaloliddin Manguberdi - mardlik va jasorat timsoli sifatida yosh avlodni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ahamiyati o‘rganiladi. Ushbu maqolada tarixiy shaxsiyatning ahamiyati bilan birga, yosh avlodni mard bo‘lishi hamda jaoratli bo‘lib ulg‘ayishi tarbiyasidagi roli muhokama qilinadi.

Kalit so‘zi: Jaloliddin Manguberdi, Alouddin Muhammad, Oychechak malika, Vatanparvarlik, Kubroviya , yoshlar tarbiyasi, mard, jasorat, harbiy tarbiya.

Annotation: This article examines the importance of Jalal ad-Din Manguberdi as a symbol of courage and bravery in educating the younger generation in the spirit of military patriotism. Along with highlighting the significance of this historical figure, the study discusses his role in fostering courage and bravery among youth.

Keywords: Jalaladdin Manguberdi, Alouddin Muhammad, Oychechak Malika, patriotism, Kubrawiyya, youth education, courage, bravery, military education.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение Джалал ад-Дина Мангуберди как символа мужества и героизма в воспитании молодого поколения в духе военно-патриотического воспитания. Наряду с раскрытием значения данной исторической

личности обсуждается его роль в формировании у молодежи мужества и смелости.

Ключевые слова: Джалаладин Мангуберди, Ала ад-Дин Мухаммад, Ойчечак Малика, патриотизм, Кубравия, воспитание молодежи, мужество, храбрость, военное воспитание.

Kirish: Har bir xalq tarixida o‘z Vatanining ozodligi va mustaqilligi uchun kurashgan qahramonlar mavjud. Jaloliddin Manguberdi ana shunday buyuk siymolardan biridir. Jaloliddin Manguberdi o‘zbek xalqining tarixida alohida o‘rin egallagan buyuk sarkarda, jasorat va vatanparvarlik ramzidir. U nafaqat o‘z davrining sarkardasi, balki bugungi yoshlar uchun ham ibrat maktabidir. U mo‘g‘ullar istilosiga qarshi kurashib, o‘z yurti mistaqilli uchun jonini fido qilgan qahramon sifatida tarixda muhrlangan. Bugungi kunda uning siymosi yosh avlodni milliy ruhda tarbioyalshda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

1. Jaloliddin Manguberdining tarixiy siymosi Jaloliddin Manguberdi XII–XIII asrlarda yashagan va Xorazmshohlar davlatining eng jasur vakillaridan biri bo‘lgan. Otasi - Alouddin Muhammad Xorazmshoh bo‘lgan. Onasi – Oychechak malika bo‘lib, u Xorazmshohlar davlatining so‘nggi hukmdori bo‘lib, mo‘g‘ullar bosqiniga qarshi mardonavor kurash olib borgan. U yoshligidan jasoratli bo‘lib ulg‘aygan va harbiy san’atni mukammal egallagan va murakkab siyosiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila olgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, u Indus daryosi bo‘yidagi jangda o‘zining tengsiz jasoratini namoyon etgan. Dushman son jihatdan ustun bo‘lishiga qaramay, u oxirigacha kurashgan.

2. Jaloliddin Manguberdi mardlik va jasoratning yorqin timsolidir. U hech qachon qo‘rquvga berilmagan, har qanday vaziyatda ham Vatan manfaatini birinchi o‘ringa qo‘ygan. Uning asosiy fazilatlari : - Qo‘rqmaslik - Vatanga sadoqat - Matonat- Liderlik. Jaloliddin Manguberdi mardlik va jasoratning yorqin namunasi hisoblanadi. U hech qachon taslim bo‘lmagan, hatto eng og‘ir vaziyatlarda ham kurashni davom ettirgan. Bu esa uni haqiqiy qahramon darajasiga ko‘targan.

3. Yosh avlod tarbiyasida tutgan o‘rni. Bugungi globallashuv davrida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb masaladir. Jaloliddin Manguberdi siymosi yoshlar uchun ibrat maktabidir. Yoshlar uning hayoti orqali: - Vatanni sevishni - Uni himoya qilishni- Qiyinchiliklardan qo‘rqmaslikni o‘rganadilar.




4. Zamonaviy jamiyatda ahamiyat. Bugungi kunda Jaloliddin Manguberdi nomi keng e’zozlanadi. Uning sharafiga haykallar, yodgorliklar barpo etilgan, ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda

5. Jaloliddin Manguberdi yosh avlod uchun haqiqiy qahramon timsolidir. Uning hayoti va faoliyati bugungi yoshlar uchun katta saboqdir. Jaloliddin Manguberdi o‘zbek xalqining tarixida alohida o‘rin egallagan buyuk sarkarda, jasorat va vatanparvarlik ramzidir. U mo‘g‘ullar istilosiga qarshi kurashib,o‘z yurti mustaqilligi uchun jonini fido qilgan qahramon sifatida tarixda muhrlangan. Bugungi kunda uning siymosi yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

6. Najmiddin Kubro Jaloliddin Manguberdining ustozi saboqlari. “Yo Vatan, yo sharofatli o‘lim” Najmiddin Kubro “Kubroviya tariqati” asoschisidir. Jaloliddin Manguberdining jismiga Vatan tuyg’usini joylabgina qolmay,balki uni yashovchan ruxiga singdira olagan. Ona yurt dushman va g‘animlarga nisbatan nafrat xissini alangalatgan. Shu jixatdan olganda “Kubraviya” tariqatining boshqalardan farqli hususiyati Vatanga mexmuhabbat va sodiqlikning ustyvorlugidir. Jaloliddin Manguberdining ustozi, piri komil Najmiddin Kubroning bu saboqlaridan jismu tana sexrli dunyo olamida sayir qilgandek xuzurlanar, tezroq o‘sib-ulg’ayib, o‘zini hayotning haqiqiy sinovidan o‘tkazishga moyilligi oshgandan-oshib borgan. Saboq boshidan Jaloliddinning ruxiy zavqiyatini kuzatib, erkin fikrlash kengliklarga parvoz qildirilgach, Najmiddin Kubro mardlik va jasorat maydonida javlon uradigon inson, avvalo dunyo hayu-xavaslarini quli bo‘lmasdan, Vatan va xalqning asl farzandi bo‘lish lozim. Soboq chog’larida piri komil Shayxul-Valitoshning biror o‘gitlaridan zarracha gumon-siramasdan yiroq saodatli shogirt Jaloliddin Manguberdi Vatan or-nomusi va Sharafi uchunfaqat sizning o‘gitlaringiz bo‘yicha harakat qilaman, deya ustoziga so‘z bergan. Jaloliddin to so‘ngi nafasigacha shu ogitda qoldi.



Aqiliy bilim,tafakkur ham misoli bir qilichdirki, shoxga har ikkisi doimo ishonchli jangovor quroldir. Buni doimo esda tutgan. Shox uchun hayotning mantiqiy qonuniyati ham shudir. “O‘zingni er bilsang, o‘zgani sher bil” maqolini doim yodda tutib, ustozi o‘gitlariga doimo amal qilgan.

Jaloliddin Manguberdi Jasorati. Buxoro, Samarqand, Xo‘jant singari buyuk shaxarlarning qo‘ldan ketishi Muhammad Xorazmshohni larzaga soldi. U endi janubiy g’arbiy hududlarga chekina boshladi. Uni mo‘g‘ullar taqib etib kelayotganini eshitib, bir qancha Shahar va qal’alarda yashirinib yurdi. Oxiri Kaspiy dengizidagi Ashura orolida o‘g‘li Jaloliddin taxst vorisi etib tayinlab, 1220 – yilning dekabrida vafot etadi. Mo‘g’ul jangchilari bu vaqtda bosqinchilik yurishi Amudaryoning janubidagi yirik savdo va madaniyat markazlari: Balx, Hirot, Marv va G‘azna kabi shaharlarga yo‘naltiradi. Ammo bu viloyatlarda ular Jaloliddin Manguberdining qattiq qarshiligiga uchradi. Jaloliddin Valiyon qal’asini qamal qilayotgan mo‘g‘ul qo‘shinlariga qarshi hujum qilib, ularni tor mor etadi. Bu Jaloliddinin dushman ustidan qozongan dastlabki g’alabasi edi. Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga qarshi Shiki Xutuxu no‘yonni 45 minglik qo‘shin bilan jo‘natdi. G‘azna

yaqinidagi Parvon dashtidagi jangda Jaloliddin g‘alaba qozondi. Biroq g‘alabadan keyin qo‘lga kiritilgan o‘ljalarni taqsimlashda Jaloliddinning lashkarboshlari o‘rtasida kelishmovchilik boshlandi. Oqibatda lashkarboshlaridan Sayfuddin Ag‘roq, A’zam Malik va Muzaffar Maliklar qo‘shindan ajralib ketdilar. Jaloliddin ularni qaytarish yo‘lidagi urinishlari naf bermadi. Sind (Hind) daryosi bo‘yida 1221- yilning 25 – nayabrida ikki o‘rtada qattiq jang bo‘ldi. Jaloliddin Chingizxon qo‘shning ilg’orini yengadi. Mo‘g‘ullarning pistirmaga qo‘yilgan 10 ming nafar saralangan askari jangni yakunlaydi. Jaloliddin Taslim bo‘lishni xohlamay otda Sind daryosiga sakrab, nargi qirg‘oqqa suzib o‘tadi. U bilan birga uning to‘rt ming kishilik askarlari ham daryodan o‘tib oldi. Hozirgi paytda ham bu daryoning bir Tomoni “Ot sakrash”, nargi tomoni “Cho‘li Jaloliy“ deb ataladi. Jaloliddinning jasoratiga qoyil qolgan Chingizxon uni ta’qib qilish fikridan qaytdi. Hatto, u o‘g‘illariga qarab: “Ota o‘g‘il mana shunday bo‘lishi lozim”- degan ekan.

Xulosa

Jaloliddin jasorati nafaqat Xorazmdiyorida balki dunyo miqiyosida tarqalgan edi. Shimoliy Hindiston, Eron va Ozarbayjon hukumdori hamda janubiy Kavkaz hududlarini o‘ziga bo‘ysuntirgan edi. Xalq mehrini qozongan jasur, mart o‘g‘lon bo‘lgan. Bu orqali nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishlariga, balki jamiyatning umumiy taraqqiyotiga ham hissa qo‘shish mumkin. Shunday qilib, kelajak tadqiqotlari yoshlarning o‘zaro aloqalarini va ijtimoiy mas'uliyatlarini yanada kuchaytirishga qaratilishi kerak. Maqolaning asosiy natijalari yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda mardlik va jasorat kabi tuyg‘ularni shakillantirish bilan bog'liq.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Abdullayev, T. (2020). 'Jaloliddin Manguberdi va uning merosi'. Tashkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti.
2. Karimov, I. (2019). 'Vatanparvarlik va yoshlar tarbiyasi'. Tashkent: Ma'naviyat.
3. Rahmonov, B. (2021). 'Harbiy tarbiya: nazariya va amaliyot'. Tashkent: O‘zbekiston harbiy akademiyasi.
4. Murodov, S. (2022). 'Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash'. Tashkent: Yoshlar nashriyoti.
5. Ismoilov, R. (2020). 'Jaloliddin Manguberdi: tarix va meros'. Tashkent: O‘zbekiston tarixiy jamiyati.
6. Sirojiddinov, A. (2018). 'Yoshlar va vatanparvarlik'. Tashkent: O‘zbekiston yoshlar ittifoqi.

7. Tursunov, E. (2021). 'Harbiy tarbiya va uning ahamiyati'. Tashkent: Harbiy tadqiqotlar instituti.

ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ВОЕННОГО ПАТРИОТИЗМА НА ОСНОВЕ НАСЛЕДИЯ ДЖАЛОЛИДДИНА МАНГУБЕРДИ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ

Каримова Наргиза Мамурхоновна
Ташкентский военно-академический лицей «Темурбеклар мактаби» Национальной гвардии Республики Узбекистан
преподаватель математики

Аннотация. В статье рассматриваются возможности формирования у учащихся патриотических качеств на уроках математики посредством интеграции историко-культурного наследия Джалолиддина Мангуберди. Обосновывается значимость междисциплинарного подхода в воспитании личности, раскрываются методы включения элементов военно-патриотического воспитания в содержание математического образования. Приводятся примеры заданий и методических приемов, направленных на развитие логического мышления, гражданской ответственности и национального самосознания учащихся.

слова: военно-патриотическое воспитание, математика, межпредметные связи, Джалолиддин Мангуберди, образование, педагогика, личностное развитие, историческое наследие.

Введение. В современных условиях особую актуальность приобретает воспитание молодежи в духе патриотизма, гражданской ответственности и преданности Родине. Образовательная система играет ключевую роль в формировании этих качеств. При этом важно, чтобы воспитание не ограничивалось только гуманитарными дисциплинами, но органично интегрировалось и в процесс преподавания точных наук, в частности математики.

Историческое наследие Джалолиддина Мангуберди — символа мужества, стойкости и преданности своей земле — представляет собой мощный воспитательный ресурс. Использование его образа и исторических фактов, связанных с его деятельностью, способствует формированию у учащихся ценностных ориентиров и национальной идентичности.

Основная часть

Роль математики в воспитании личности

Математика традиционно воспринимается как точная наука, направленная на развитие логического мышления, аналитических способностей и умения решать задачи. Однако её воспитательный потенциал значительно шире. В процессе обучения математике формируются такие качества, как настойчивость, дисциплина, ответственность за результат, умение преодолевать трудности — качества, близкие к воинским добродетелям.

Таким образом, уроки математики могут стать эффективной площадкой для формирования элементов военно-патриотического сознания.

Интеграция исторического наследия в учебный процесс

Для воспитания учащихся в духе патриотизма важно использовать межпредметные связи. Включение исторического материала, связанного с Джалолиддином Мангуберди, в математические задачи позволяет:

- повысить интерес к предмету;
- сформировать уважение к национальной истории;
- развить чувство гордости за предков;
- связать абстрактные математические понятия с реальной жизнью.

Например, можно использовать задачи, основанные на исторических событиях:

Пример задачи: Если войско Джалолиддина Мангуберди прошло 120 км за 3 дня, двигаясь с одинаковой скоростью, сколько километров оно проходило в день?(Решение помогает не только закрепить навыки деления, но и дает повод обсудить исторические условия походов.)

Методические подходы

Для эффективного внедрения военно-патриотического воспитания на уроках математики можно использовать следующие методы:

1. **Контекстные задачи** Создание задач с историческим и патриотическим содержанием.
2. **Проектная деятельность** Учащиеся могут готовить проекты, связывающие математику с историей (например, анализ военных стратегий с точки зрения геометрии и логики).
3. **Проблемное обучение** Постановка задач, требующих не только вычислений, но и размышлений о моральных и исторических аспектах.

4. **Интегрированные уроки** Совместные занятия учителей математики и истории.

Воспитательный эффект

Интеграция наследия Джалолиддина Мангуберди на уроках математики способствует:

- формированию патриотического мировоззрения;
- развитию уважения к историческому прошлому;
- воспитанию ответственности и дисциплины;
- укреплению мотивации к обучению.

Кроме того, учащиеся начинают воспринимать математику не только как набор формул, но и как инструмент познания мира.

Заключение. Таким образом, уроки математики обладают значительным потенциалом для воспитания молодежи в духе военно-патриотических ценностей. Использование исторического наследия Джалолиддина Мангуберди позволяет сделать образовательный процесс более содержательным, интересным и воспитательно значимым.

Реализация междисциплинарного подхода способствует гармоничному развитию личности учащихся, формированию у них гражданской позиции и готовности служить обществу.

Список литературы:

1. Государственная программа по воспитанию молодежи Республики Узбекистан.
2. История Узбекистана: учебное пособие для обще образовательных школ.
3. Педагогика: учебник для вузов / под ред. В.А. Сластенина.
4. Методика преподавания математики в школе / А.М. Пышкало.
5. Материалы о жизни и деятельности Джалолиддина Мангуберди.
6. Современные образовательные технологии: учебное пособие.

TEMUR TUZUKLARI – DAVLAT BOSHQARUVINING HUQUQIY ASOSI SIFATIDA

Xodjayeva Dildora Tuxtapulatovna

Toshkent Temurbeklar maktabi harbiy-akademik litseyi

Davlat va huquq asoslari fani bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amir Temurning “Temur tuzuklari” asari davlat boshqaruvining huquqiy asosi sifatida tahlil qilinadi. Tuzuklarda belgilangan adolat, tartib-intizom, amaldorlarning

mas’uliyati va xalq manfaatini ko‘zlash tamoyillari o‘z davrida huquqiy davlat qurilishining poydevori bo‘lib xizmat qilgan. Tadqiqotda ushbu tamoyillarning zamonaviy huquqiy-demokratik islohotlar bilan uzviy bog‘liqligi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Temur tuzuklari, adolat, huquqiy asos, davlat boshqaruvi, mas’uliyat, huquqiy davlat.

Аннотация: В статье рассматривается «Уложения Темура» как правовая основа государственного управления Амира Темура. Анализируются принципы справедливости, дисциплины, ответственности чиновников и ориентации на интересы народа, которые в своё время служили фундаментом построения правового государства. В исследовании раскрывается взаимосвязь этих принципов с современными правовыми и демократическими реформами.

Ключевые слова: Уложения Темура, справедливость, правовая основа, государственное управление, ответственность, правовое государство.

Davlat boshqaruvi tizimi har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchidir. Kuchli davlat — bu avvalo aniq qonun-qoidalar, mustahkam tartib-intizom va adolatli boshqaruvga tayanadigan tuzum demakdir. Ana shunday mukammal boshqaruv tamoyillarini shakllantirgan buyuk siymolardan biri — Amir Temurdir. Uning siyosiy-huquqiy qarashlari mujassam bo‘lgan “Temur tuzuklari” asari nafaqat tarixiy manba, balki davlat boshqaruvining puxta ishlab chiqilgan huquqiy konsepsiyasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur davlat boshqaruvi, harbiy strategiya va siyosiy tashkilotchilik sohasida buyuk tarixiy shaxs sifatida alohida o‘rin egallaydi. XIV asrning ikkinchi yarmida u katta hududlarni qamrab olgan kuchli davlatni barpo etishga muvaffaq bo‘ldi. Bu davlatni samarali boshqarish uchun aniq qonun-qoidalar, boshqaruv tamoyillari va tartib-intizom tizimi zarur edi. [1.160-b]

Shu maqsadda yaratilgan Temur tuzuklari asari davlatni boshqarish, harbiy tuzilmani tashkil etish, amaldorlarning vazifalari va jamiyatda adolatni ta’minlash masalalarini qamrab olgan muhim siyosiy-huquqiy manba hisoblanadi

“Temur tuzuklari” — bu davlatni boshqarish, qo‘shin tuzish, adolatni qaror toptirish, mansabdorlarni tanlash va nazorat qilish, ichki hamda tashqi siyosat yuritish kabi masalalarni tartibga soluvchi qoidalar majmuidir. Tuzukda Sohibqiron o‘z tajribasi asosida shakllantirgan boshqaruv tamoyillarini bayon etadi. Ushbu qoidalar shunchaki nasihat

yoki shaxsiy qarashlar emas, balki amaliy hayotda sinovdan o‘tgan siyosiy-huquqiy mezonlardir.

Davlat boshqaruvida quyidagi jihatlar muhim o‘rin tutgan:

Markazlashgan davlat boshqaruvi: Amir Temur davlatni markazlashgan boshqaruv asosida tashkil etgan. Barcha muhim qarorlar markaziy hokimiyat tomonidan qabul qilingan. Bu esa davlatning mustahkamligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Harbiy tizimning mustahkamligi: Temur davlatining kuchi uning harbiy tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan. Qo‘shin qat’iy tartib asosida tashkil etilgan va har bir harbiy bo‘linmaning vazifalari aniq belgilangan.

Davlat amaldorlarini tanlash: Amir Temur davlat boshqaruvida insonlarning kelib chiqishidan ko‘ra ularning bilim va qobiliyatiga e’tibor bergan. Bu esa davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga yordam bergan.

Temur davlat boshqaruvida qonun ustuvorligini eng muhim mezon sifatida belgilaydi. Uning fikricha, davlat qudrati adolat bilan mustahkamlanadi. “Kuch — adolatda” degan tamoyil Sohibqiron siyosatining markazida turgan. Har qanday amaldor yoki lashkarboshi qonunga bo‘ysunishi, tartib-intizomni saqlashi shart edi. Intizom buzilgan joyda davlat zaiflashadi, degan qat’iy qarash ilgari suriladi. [2.144-b]

Shuningdek, soliqlarni adolatli taqsimlash, aholining turli qatlamlari manfaatlarini hisobga olish, jazoni ayb darajasiga qarab belgilash kabi normalar huquqiy davlat tamoyillariga yaqin tushunchalarni ifodalaydi. Bu jihatdan “Temur tuzuklari”ni o‘rta asr sharqona huquq tafakkurining yuksak namunasi deyish mumkin.

Temur tuzuklarida markazlashgan davlat boshqaruvi alohida o‘rin egallaydi. Hududlarni boshqarish uchun ishonchli, tajribali va sadoqatli kishilar tayinlangan. Har bir mansabdor o‘z vazifasi va javobgarligini aniq bilgan. Bu tizim boshqaruv samaradorligini oshirgan.

Amir Temur davlatni 12 toifa vakillariga tayangan holda boshqarganini ta’kidlaydi. Ular orasida ulamolar, lashkarboshilar, hunarmandlar, savdogarlar va boshqa ijtimoiy qatlamlar vakillari bor edi. Bu esa boshqaruvda ijtimoiy muvozanatni ta’minlashga xizmat qilgan. Bunday yondashuv zamonaviy davlat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamohangdir. [3.122-b]

Temur tuzuklarida harbiy boshqaruv masalalari ham batafsil bayon qilingan. Qo‘shin tuzilishi, askarlarning majburiyatlari, mukofot va jazolar tizimi aniq belgilab qo‘yilgan. Harbiy intizomning mustahkamligi davlat xavfsizligining kafolati sifatida ko‘riladi. Har bir

sarkarda va askar o‘z o‘rnini, vazifasini va javobgarligini bilgan. Bu jihatlar Temur davlatining qisqa muddatda keng hududlarni egallashi va ularni boshqarishda barqarorlikni saqlay olganini izohlaydi. Harbiy va ma’muriy tizimning uyg‘unligi esa davlat boshqaruvining samaradorligini oshirgan.

“Temur tuzuklari” nafaqat siyosiy-huquqiy, balki axloqiy qoida va tamoyillarni ham o‘z ichiga oladi. Hukmdor halol, sabr-toqatli, kengashga tayanuvchi, ilm ahliga hurmat ko‘rsatuvchi bo‘lishi kerakligi qayta-qayta ta’kidlanadi. Bu qarashlar davlat boshqaruvida shaxsiy fazilatlarning ham muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Temur ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida Samarqandni o‘z davrining yirik siyosiy va madaniy markaziga aylantirgan. Bu esa uning boshqaruv siyosati faqat harbiy qudratga emas, balki ma’naviy taraqqiyotga ham asoslanganini ko‘rsatadi. [4.89-b]

Bugungi kunda “Temur tuzuklari” davlat boshqaruvi, huquqshunoslik va siyosatshunoslik yo‘nalishlarida muhim tarixiy manba sifatida o‘rganiladi. Tuzukdagi qonun ustuvorligi, adolat, mas’uliyat, maslahatlashuv va intizom tamoyillari hozirgi zamon boshqaruv tizimlari bilan ma’lum ma’noda uyg‘unlik kasb etadi.

Mustaqil O‘zbekiston sharoitida milliy davlatchilik an’analari va tarixiy merosni o‘rganish muhim vazifa hisoblanadi. Bu borada Temur tuzuklari davlat boshqaruvining tarixiy ildizlarini anglash, huquqiy tafakkurni boyitish va milliy g‘ururni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, “Temur tuzuklari” — bu oddiy tarixiy asar emas, balki o‘z davrida mukammal ishlab chiqilgan davlat boshqaruvi konsepsiyasidir. Unda markazlashgan boshqaruv, qonun ustuvorligi, adolat, mas’uliyat va intizom kabi tamoyillar asosiy o‘rin egallaydi. Amir Temur tomonidan ilgari surilgan ushbu g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Shu bois Temur tuzuklari nafaqat tarixiy meros, balki davlat boshqaruvi nazariyasining muhim huquqiy asosi sifatida baholanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Amir Temur Ko‘ragoni. Temur tuzuklari. – Toshkent: “IJOD PRESS”, 2019. -160 bet
2. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent, 2001
3. Bo‘riboy Ahmedov. Amir Temur darsligi. – Toshkent, 2016
4. Ibrohim Mo‘minov. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. – Toshkent: Fan, 1993.

НАСЛЕДИЕ ДЖАЛОЛИДДИНА МАНГУБЕРДИ И ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ В ДУХЕ ВОЕННОГО ПАТРИОТИЗМА СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И АКТУАЛЬНЫЕ МЕТОДЫ РАБОТЫ

Аллабергенова Дилноза
Ранч университет Факультета педагогики и филологии
Магистр педагогики 1-курса группы 25-01

Аннотация. В данной статье рассматривается значение исторического наследия последнего правителя государства Хорезмшахов Джалолиддина Мангуберди в процессе формирования военно-патриотического сознания современной молодёжи Узбекистана. Анализируется его роль как символа мужества, независимости и лидерства. Особое внимание уделяется инновационным методам воспитательной работы, включая интеграцию цифровых технологий использование интерактивных педагогических приемов и роль специализированных военно-академических лицеев. Статья подчеркивает, необходимость комплексного подхода, объединяющего семью, махаллю и образовательные учреждения. Предложены современные педагогические подходы и интерактивные методы работы, включающие цифровизацию исторического контента, проектную деятельность и интеграцию устной истории. Особое внимание уделяется трансформации традиционных форм патриотического воспитания в адаптивные модели, отвечающие запросам «цифрового поколения». В статья обосновывается необходимость синтеза глубокого изучения исторического наследия с инновационными образовательными технологиями для повышения эффективности военно-патриотического воспитания.

Ключевые слова: Джалолиддин Мангуберди, военный патриотизм, воспитание молодёжи, инновационные методы, искусственный интеллект, виртуальная реальность, национальная идентичность, военно-академические лицеи.

Annotation This article explores the historical legacy of Jaloliddin Manguberdi, the last ruler of the Kharazmshah state, and its role in shaping patriotic and military values among today's youth in Uzbekistan. It examines his image as a symbol of courage, independence, and strong leadership. The study highlights innovative educational approaches, including the use of digital technologies, interactive teaching strategies, and the contribution of specialized military academic lyceums. It stresses the importance of a

comprehensive effort that brings together families, the mahalla community, and educational institutions. The article proposes modern teaching methods such as digitizing historical materials, project-based learning, and incorporating oral history. Particular attention is given to transforming traditional models of patriotic education into flexible approaches that resonate with the needs of the digital generation. The article also substantiates the need to combine a deep understanding of our historical legacy with innovative teaching technologies to strengthen the impact of military-patriotic education.

Keywords: Jaloliddin Manguberdi, military patriotism, youth development, innovative approaches, artificial intelligence, virtual reality, national identity, and military academic lyceums.

Введение

В условиях современной глобализации и идеологических угроз воспитание молодёжи в военно-патриотическом духе, основанном на идее «Служение Родине-высший долг», [7,с.3-5] приобретает стратегическое значение. Одним из мощнейших инструментов этого процесса является популяризация военного мастерства и жизни национальных героев, среди которых Джалолиддин Мангуберди занимает особое место как символ беззаветной преданности Отчизне и непоколебимой воли. [10, с.12-15] Джалолиддин Мангуберди вошел в историю как отважный полководец, который в XIII веке в течение одиннадцати лет вел героическую борьбу против монгольских завоевателей. [2,с.89-104] Джалолиддин Мангуберди, последний хорезмшах, вошедший в историю как символ непреклонного сопротивления и воинской доблести, который представляет собой мощный ресурс для формирования патриотического сознания молодежи. [19, с.45-52] Его военное мастерство, умение побеждать превосходящие силы противника малой армией и виртуозное владение тактикой боя служат эталоном для современного поколения. [3, с.210-215] Его жизнь, полная драматизма, военных стратегий и личного мужества, служит идеальным примером для обсуждения таких понятий, как долг, честь, жертвенность и любовь к Отечеству.

Также можно отметить его знаменитый прыжок в реку Инд, спасший ему жизнь и позволивший продолжить борьбу, стал метафорой надежды и невозможности сломить волю свободного человека. [2, с. 142; 18, с. 38]

Таким образом, наследие Мангуберди должно преподаваться не как догма, а как историко-этический кейс, развивающий у

молодёжи способность к многомерному анализу, эмпатии к историческому контексту и критическому дистанцированию от упрощённых бинарных оппозиций («герой/враг», «победа/поражение»). [13, с. 218-220].

В современном Узбекистане образ героя активно используется для укрепления национальной идентичности:

- Учрежден высший воинский **орден «Жалолиддин Мангуберди»**, которым награждаются военнослужащие за высокое мастерство и героизм при защите границ; [6]
- Созданы масштабные памятники и художественные произведения (фильмы, книги), которые визуализируют образ героя для молодёжи; [19, с. 200-210]
- Его имя носят **военно-академические лицеи** (например, в Ургенче), призванные готовить новое поколение защитников Родины. [8]

Современные подходы и инновационные методы, для того чтобы историческое наследие эффективно воспринималось современным поколением. Исследователи предлагают отходить от пассивного изучения фактов к интерактивным и цифровым методам. [14, с.80-82;16, с.48-50]

Цифровизация и интерактивизация образовательного процесса открывают новые возможности, однако их применение требует критической верификации. [15, с.138-140]

Современные методы военно-патриотического воспитания включают использование цифровых и интерактивных технологий. К ним относятся VR/AR-реконструкции исторических событий, обеспечивающие эффект присутствия и наглядную визуализацию тактических действий; геймификация и исторические квесты, способствующие повышению мотивации и развитию системного мышления; образовательный медиаконтент (видеоролики, подкасты), повышающий доступность и адаптивность информации для молодёжи; а также военно-исторические реконструкции, позволяющие формировать практические навыки и командную сплочённость. Эффективность данных методов зависит от соблюдения принципов исторической достоверности, педагогической целесообразности и последующей рефлексии обучающихся.

Роль семьи и общества играет важную роль в воспитание в духа военного патриотизма. Это является непрерывным процессом, начинающийся с раннего детства в семье. [17, с. 68-69] Согласно

концепции «Народ и армия-одна душа», успех воспитания зависит от координации семьи, махалли и образовательных институтов. [7,с.8-10] Важно прививать чувство сопричастности к судьбе Родины, используя примеры из жизни великих предков не как абстрактные образы, а как живые примеры для подражания. [10, с. 25-28; 12, с. 150-155]

Заключение

Наследие Джалолиддина Мангуберди является неисчерпаемым источником духовной силы для воспитания молодёжи. Синтез глубокого историзма и современных технологий (таких как VR и ИИ) позволяет сделать патриотическое воспитание качественным и захватывающим процессом. Анализ показывает, что эффективность воспитательных методов зависит не от их технологической новизны, а от способности вовлекать молодёжь в процесс историко-этической рефлексии, дистанцируясь её от инструментализмов памяти и поверхностной героизации. Синтез критического патриотизма, цифровой медиа грамотности и проектно-исследовательской практики позволяет трансформировать образ хорезмшаха из статичного символа прошлого в динамический ресурс формирования зрелой гражданской позиции. Военно-патриотическое воспитание, опирающееся на наследие Мангуберди, должно быть направлено не на воспроизводство исторических мифов, а на развитие аналитического мышления, исторической честности и готовности к защите национальных интересов в рамках общечеловеческих ценностей. Только через осознание своей идентичности и уважение к подвигам предков молодёжь может сформироваться как сила, способная обеспечить безопасность и процветание Нового Узбекистана.

Список использованной литературы:

I. Исторические источники и классическое наследие

1. Амир Темур. Уложения Темура (Темур тузуклари) / пер. с чагатайского. – Ташкент: Фан, 1999. – 176 с.
2. ан-Насави, Шихаб ад-Дин Мухаммад. Жизнеописание султана Джалолиддина Мангуберди (Сират ас-султан Джалал ад-Дин Манкбурны) / пер. с араб., предисл. и коммент. З.М. Буниятова. – Баку: Элм, 1973. – 450 с.
3. Джувайни, Ата-Малик. История завоевателя мира (Тарих-и Джахангуша) / пер. с перс. О.И. Смирновой. – М.: Наука, 1997. – Т. 1. – 352 с.

4. Йазди, Шараф ад-Дин Али. Зафар-наме (Книга побед) / пер. с перс. А.А. Семенова. – Ташкент: Фан, 1972. – 418 с.

II. Нормативно-правовые акты Республики Узбекистан

5. Конституция Республики Узбекистан. – Ташкент: Узбекистан, 2023. – 64 с.

6. Закон Республики Узбекистан от 30.08.2000 г. № 110-II «Об учреждении ордена "Жалолиддин Мангуберди"» // Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан. – 2000. – № 7–8. – Ст. 202. – С. 3–5.

7. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 23.02.2018 г. № 140 «Об утверждении Концепции воспитания молодежи в военно-патриотическом духе» // Национальная база данных законодательства. – 23.02.2018. – № 05/18/3571/0165. – 24 с.

8. Постановление Президента Республики Узбекистан от 12.06.2023 г. № ПП-184 «О мерах по организации деятельности военно-академического лицея имени Джалолиддина Мангуберди» // Национальная база данных законодательства. – 13.06.2023. – № 06/23/184/0891. – 12 с.

9. Стратегия развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы. – Ташкент: Норма, 2022. – 88 с.

III. Научные исследования, монографии и статьи

10. Мамадов Н.Ш. Роль пропаганды деятельности Амира Темура и Джалолиддина Мангуберди в возвышении чувства военного патриотизма в сердцах молодежи: автореф. дис. ... д-ра философии (PhD) по филос. наукам: 09.00.06. – Ташкент: НУУз, 2024. – 48 с.

11. Муминов И.М. Роль и место Амира Темура в истории Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1968. – 284 с.

12. Рахимов Ж. Vatanning sheryurak farzandi (Шерюрак сын Родины). – Ургенч: Хорезм, 2015. – 196 с.

13. Саидмуротов Ш.А. Вопросы использования исторической личности Джалолиддина Мангуберди в формировании духа патриотизма у молодежи // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – № 4(01). – С. 215–224.

14. Рахматуллаев У.К. Интеграция цифровых технологий в военно-патриотическое воспитание студентов вузов Узбекистана: роль искусственного интеллекта и виртуальной реальности // Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – № 2. – С. 78–89.

15. Хатамова Р.З. Особенности патриотизма и гуманизма в ценностном сознании студенческой молодежи Узбекистана //

Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Vol. 2, № 1. – С. 134–142.

16. Курбанов А.И. Методика преподавания истории Узбекистана в высших учебных заведениях // Наука, техника и образование. – 2025. – № 1. – С. 45–53.

17. Мустаев Р.Д., Каримова Д.Ш., Юсупов А.Р. Роль семьи, общины и образования в развитии патриотического духа у молодежи // Актуальные исследования. – 2023. – № 3 (133). – С. 67–74.

18. Содиков Х. Султон Жалолиддин Мангуберди. – Ташкент: ART FLEX, 2009. – 52 с.

19. uzbekbibliography.library.illinois.edu

20. Абдураимов А. Джалолиддин Мангуберди: Взгляд через века. – Ташкент: Узбекистан, 2018. – 224 с.

21. Ахмедов Б.А. Amir Temurni yod etib (Вспоминая Амира Темура). – Ташкент: Фан, 1996. – 168 с.

HARAKAT TEZLIGINING 1 TONNA-KILOMETR TRANSPORT ISHIGA TO‘G‘RI KELADIGAN YONILG‘I SARFIGA TA’SIRI

Masodiqov Qaxramonjon Xusanboy o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti o‘qituvchisi, t.f.f.d, PhD
Ro‘ziboyev Dostonbek O‘ktamjon o‘g‘li
Farg‘ona "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada avtomobil transportida harakat tezligining 1 tonna-kilometr transport ishiga to‘g‘ri keladigan yonilg‘i sarfiga ta’siri tahlil qilingan. Transport vositalarining yonilg‘i tejamkorligini baholashda faqat 100 km masofaga sarf ko‘rsatkichidan foydalanish yetarli emasligi, buning o‘rniga bajarilgan transport ishiga nisbatan sarfni aniqlash maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan. Past tezliklarda dvigatelning samarasiz ish rejimi, vaqt yo‘qotilishi va quyi uzatmalarda ko‘proq harakatlanish sababli yonilg‘i sarfi ortishi, yuqori tezliklarda esa aerodinamik qarshilik va dvigatel yuklanishining oshishi tufayli solishtirma sarf ko‘payishi ko‘rsatib berilgan. Natijada ma’lum bir optimal tezlik oralig‘ida 1 tonna-kilometr transport ishiga to‘g‘ri keladigan yonilg‘i sarfi minimal qiymatga ega bo‘lishi xulosalangan.

Kalit so‘zlar: transport ishi, yonilg‘i sarfi, harakat tezligi, tonna-kilometr, solishtirma yonilg‘i sarfi, avtomobil transporti, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация. В статье проанализировано влияние скорости движения автомобиля на расход топлива, приходящийся на 1 тонно-километр транспортной работы. Показано, что оценка топливной экономичности только по расходу на 100 км недостаточна, поскольку более точным показателем является расход топлива по отношению к выполненной транспортной работе. Обосновано существование оптимального диапазона скорости, при котором удельный расход топлива достигает минимального значения.

Ключевые слова: транспортная работа, расход топлива, скорость движения, тонно-километр, удельный расход топлива, автомобильный транспорт.

Abstract. This article analyzes the effect of vehicle speed on fuel consumption per 1 ton-kilometer of transport work. It argues that evaluating fuel efficiency only by liters per 100 km is insufficient and that fuel use should be assessed relative to completed transport work. The paper shows that both very low and very high speeds increase

specific fuel consumption, while an intermediate speed range is usually the most economical.

Keywords: transport work, fuel consumption, vehicle speed, ton-kilometer, specific fuel consumption, road transport, economic efficiency.

Transport ishi	**W = m · L**
Solishtirma sarf	**q = Q / W**

Kirish

Avtomobil transportida yuk tashish samaradorligini oshirish masalasi yonilg‘i xarajatlari, tashish tannarxi va resurslardan oqilona foydalanish bilan bevosita bog‘liq. Amaliyotda yonilg‘i sarfi ko‘pincha 100 km masofaga nisbatan baholanadi, biroq bunday yondashuv transport vositasining foydali ishini to‘liq ifodalamaydi. Tonna-kilometr ko‘rsatkichi esa bir tonna yukning bir kilometr masofaga tashilishini anglatadi va transport ishini baholashda muhim birlik hisoblanadi [1], [2].

So‘nggi tadqiqotlar transport energetikasida tezlik, yuk massasi, yo‘lning bo‘ylama nishabligi, haydash rejimi va boshqa omillar yonilg‘i sarfiga birgalikda ta’sir qilishini ko‘rsatmoqda [3]–[6]. Shu sababli harakat tezligini alohida ko‘rib chiqishda umumiy sarf emas, balki transport ish birligiga to‘g‘ri keladigan sarfni tahlil qilish ilmiy jihatdan ancha to‘g‘ri yondashuv hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi

Mazkur maqolaning maqsadi avtomobil transportida harakat tezligining 1 tonna-kilometr transport ishiga to‘g‘ri keladigan yonilg‘i sarfiga ta’sirini tahlil qilish hamda yonilg‘i tejamkorligi nuqtai nazaridan maqbul tezlik oralig‘ini asoslashdan iborat.

Tadqiqot obyekti va usullari

Tadqiqot obyekti sifatida yuk avtomobilining ekspluatatsion faoliyati qabul qilinadi. Hisoblashlarda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi: m - tashilgan yuk massasi, t; L - bosib o‘tilgan masofa, km; Q - sarflangan yonilg‘i miqdori, l; W - bajarilgan transport ishi, t·km; q - 1 t·km ga to‘g‘ri keladigan yonilg‘i sarfi, l/t·km.

Transport ishini aniqlashda W = m · L ifodasidan foydalaniladi. Tonna-kilometrni hisoblashda yuk massasi va tashish masofasini ko‘paytirish amaliyoti rasmiy statistik metodologiyalarda ham qo‘llanadi [2]. Solishtirma yonilg‘i sarfi q = Q / W orqali aniqlanadi va bu ko‘rsatkich transport vositasining real foydali ishga nisbatan qancha yonilg‘i sarflaganini ko‘rsatadi.

Asosiy qism

Harakat tezligining yonilg‘i sarfiga ta’siri

Harakat tezligi transport vositasining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Past tezliklarda dvigatel ko‘pincha optimal bo‘lmagan rejimda ishlaydi, quyi uzatmalar ko‘proq qo‘llaniladi va tashish vaqti uzayadi. Yu va hammualliflar turli sinov sikllarida harakat davomiyligi ortgan sari yonilg‘i sarfining ham ortishini ko‘rsatgan [4].

Tezlikning oshishi ma’lum chegaragacha foydali ish unumdorligini yaxshilashi mumkin. Biroq juda yuqori tezliklarda aerodinamik qarshilik, dvigatel yuklanishi va mexanik yo‘qotishlar kuchayadi. Wang va Rakha og‘ir dizel yuk avtomobillari uchun optimal kruiz tezligi odatda 32-52 km/soat oralig‘ida shakllanishini va og‘irroq yuk hamda kattaroq nishablik bu optimumni pasaytirishini ko‘rsatgan [3]. Demak, tezlik va yonilg‘i sarfi o‘rtasidagi bog‘liqlik chiziqli emas.

Transport ishiga nisbatan baholashning ustunligi

100 km ga sarf qilingan yonilg‘i ko‘rsatkichi sodda bo‘lsa-da, u tashilgan yuk miqdorini hisobga olmaydi. Masalan, bir xil masofada bir xil yonilg‘i sarflagan ikki avtomobil turli miqdordagi yukni tashigan bo‘lsa, ularning samaradorligi bir xil bo‘lmaydi. Shuning uchun 1 tonna-kilometrga to‘g‘ri keladigan sarf transport vositasining haqiqiy energetik samaradorligini aniqroq aks ettiradi.

Real tashish ma’lumotlari asosida bajarilgan tadqiqotlar yuk og‘irligi, bo‘sh va yuklangan yurish masofasi hamda marshrut xususiyatlari yoqilg‘i ishlatilishiga sezilarli ta’sir qilishini tasdiqlaydi [5], [7], [8]. Shu bois harakat tezligini baholashda ham foydali ishga nisbatan olingan ko‘rsatkich metodik jihatdan kuchliroqdir.

Optimal tezlik oralig‘i

Nazariy va amaliy tadqiqotlar yonilg‘i tejamkorligi nuqtai nazaridan optimal tezlik oralig‘i mavjudligini ko‘rsatadi. Hu va hammualliflar yo‘lning bo‘ylama profili va tezlik trayektoriyasini optimallashtirish yonilg‘i tejashga olib kelishini aniqlagan [6]. FHWAning tajriba ishlari ham ayrim relyeflarda tezlik profilini boshqarish hisobiga yonilg‘i iste’molini 20 foizdan ortiq kamaytirish mumkinligini ko‘rsatgan [9].

Demak, maksimal tezlikka intilish har doim ham iqtisodiy jihatdan to‘g‘ri emas. O‘ta past tezlik ham, o‘ta yuqori tezlik ham 1 tonna-kilometrga nisbatan sarfni oshiradi. Eng maqbul rejim odatda o‘rta diapazondagi barqaror harakat sharoitida shakllanadi.

Ta’sir etuvchi qo‘shimcha omillar

Tezlik omilini tahlil qilishda yuk massasi, yo‘l nishabligi, yo‘l qoplamasi, haydovchining boshqaruv uslubi va tashqi muhit sharoitlari e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Posada-Henao va hammualliflar og‘irlik hamda bo‘ylama nishablikning ko‘p hollarda tezlikning o‘zidan ham kuchliroq ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatgan [5]. Chen va hammualliflar sharhida esa energetik modellashtirishda faqat tezlikning o‘zi bilan cheklanish past aniqlikka olib kelishi qayd etilgan [10].

Natijalar va muhokama

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, harakat tezligi oshganda transport vositasining unumdorligi ma’lum chegaragacha ortadi, biroq yonilg‘i tejamkorligi doimo shu yo‘nalishda yaxshilanmaydi. Past tezlikdan o‘rta diapazonga o‘tilganda 1 tonna-kilometrga to‘g‘ri keladigan sarf kamayishi mumkin, chunki transport vositasi foydali ishni samaraliroq bajaradi. Ammo tezlik bundan keyin ham ortaversa, havo qarshiligi va kuchlanishlar oshishi natijasida solishtirma sarf yana ko‘tariladi.

Shunday qilib, transport jarayonini tashkil etishda faqat “tezroq harakat = yaxshiroq natija” degan qarash noto‘g‘ri. Tezlik boshqaruvi tashish unumdorligi, yo‘l sharoiti va yonilg‘i tejamkorligi o‘rtasidagi muvozanatga tayangan holda tanlanishi kerak.

Xulosa

Avtomobil transportida harakat tezligi yonilg‘i sarfiga ta’sir etuvchi asosiy ekspluatatsion omillardan biridir. Biroq ushbu ta’sirni faqat 100 km ga sarf ko‘rsatkichi orqali baholash yetarli emas. Transport vositasining haqiqiy samaradorligini aniqlashda 1 tonna-kilometr transport ishiga to‘g‘ri keladigan yonilg‘i sarfi muhim mezon hisoblanadi.

Maqola bo‘yicha quyidagi xulosalar olindi: 1) past tezliklarda transport ish birligiga nisbatan yonilg‘i sarfi yuqori bo‘ladi; 2) tezlikning ma’lum chegaragacha ortishi energetik samaradorlikni yaxshilashi mumkin; 3) juda yuqori tezliklarda aerodinamik va mexanik qarshiliklarning ortishi sababli solishtirma sarf yana oshadi; 4) har bir transport vositasi va tashish sharoiti uchun iqtisodiy jihatdan maqbul optimal tezlik oralig‘i mavjud; 5) yonilg‘i tejamkorligini oshirishda transport ishiga nisbatan sarfni baholash eng asosli yondashuvlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Haydarov Q. Transport vositalari nazariyasi – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

2. Abdurahmonov A. Avtomobillar ekspluatatsiyasi – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Qosimov B. Avtomobil dvigatellari – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
4. Bosch Automotive Handbook – Robert Bosch GmbH, 10-nashr, 2018.
5. Heywood J.B. Internal Combustion Engine Fundamentals – McGraw-Hill, 2018.
6. SAE International – Avtomobil yoqilg‘i sarfi va samaradorlik bo‘yicha standartlar.
7. International Energy Agency – Transport va energiya samaradorligi bo‘yicha hisobotlar.
8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi – Transport va yoqilg‘i sarfi statistik ma’lumotlari.
9. Gillespie T.D. Fundamentals of Vehicle Dynamics – SAE International, 1992.
10. Ilmiy maqolalar (Google Scholar, Scopus bazalari orqali):

SUN’IY INTELLEKT - RAQAMLI MATN TAHLILI ASOSIDA TURKIY ADABIYOT HAMDA HOFIZ XORAZMIY ASARLARINING MA’NAVIY-FALSAFIY QATLAMLARINI OCHIB BERISH IMKONIYATLARI VA METODOLOGIYASI

Atamuratov Ilhomboy Bekturdiyevich
Urganch davlat tibbiyot instituti akademik litseyi direktori.
Xudayberganov Dilmurod Tuxtabayevich
Urganch davlat tibbiyot instituti akademik litseyi yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari.
Sobirov Shokirjon Ergashovich
Urganch davlat tibbiyot instituti akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XIV–XV asrlar turkiy she’riyati, shoirning ma’naviy-falsafiy qarashlari va ijodiy salohiyati raqamli vositalar yordamida tahlil qilinadi hamda Sun’iy intellekt algoritmlari matnning semantik qatlamlarini ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, raqamli matn tahlili, turkiy adabiyot, Hofiz Xorazmiy, lingvistik kompetensiya, tasavvuf, adabiy meros.

АННОТАЦИЯ

В данной статье с помощью цифровых инструментов анализируется тюркская поэзия XIV–XV веков, духовные и философские взгляды поэтов и их творческий потенциал, а также выявляются семантические слои текста с использованием алгоритмов искусственного интеллекта.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровой анализ текста, тюркская литература, Хафиз Хорезм, языковая компетенция, мистицизм, литературное наследие.

ABSTRACT

This article analyzes the Turkic poetry of the 14th–15th centuries, the poet's spiritual and philosophical views and creative potential using digital tools, and reveals the semantic layers of the text using Artificial Intelligence algorithms.

Keywords: Artificial Intelligence, digital text analysis, Turkic literature, Hafiz Khorezm, linguistic competence, mysticism, literary heritage.

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi mazmuni tubdan yangilanib, sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan yondashuvlar ilmiy tadqiqot va pedagogik amaliyotning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni o‘qitishda raqamli vositalar, tabiiy tilni qayta ishlash algoritmlari va avtomatik matn tahlili texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan, klassik adabiy merosni zamonaviy sun’iy intellekt imkoniyatlari asosida o‘rganish masalasi dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur yondashuvlarni chuqurlashtirgan holda, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning ta’lim jarayoniga ta’siri masalasi bir qator tadqiqotlarda ham keng yoritilgan. Jumladan, A.T.Turg‘unov tomonidan olib borilgan izlanishlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yoshlar media madaniyatiga ta’siri atroflicha tahlil qilinadi [1]. Tadqiqot natijalari raqamli muhitning kengayishi yoshlarning media makonda faol ishtirok etishini, axborot oqimiga tezkor moslashishini hamda kommunikativ imkoniyatlarining ortishini ta’minlashini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, raqamli makonda turli sifatdagi axborotlarning mavjudligi, manipulyativ kontent va noto‘g‘ri ma’lumotlarning tarqalishi yoshlarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur holat “Sun’iy intellekt va raqamli matn tahlili asosida turkiy adabiyot hamda Hofiz Xorazmiy asarlarining ma’naviy-falsafiy qatlamlarini ochib berish” masalasida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki klassik matnlarni raqamli vositalar yordamida tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar va tadqiqotchilar sun’iy intellekt tomonidan taqdim etilgan natijalarni tanqidiy baholashi, semantik noaniqliklarni aniqlashi va kontekstual talqinlarni mustaqil asoslay olishi zarur bo‘ladi. Bu esa raqamli matn tahlilini faqat texnologik jarayon emas, balki analitik tafakkurni rivojlantiruvchi metodologik yondashuv sifatida qarash imkonini beradi.

Shuningdek, sun’iy intellektning til va tarjimonlik kompetensiyalariga ta’siri masalasi E.Akhmetshin, V.Myakota, I.Getskina, A.Avrutina, A.Basmanova, D.Burenkova hamda Sh.Kurbanova tomonidan olib borilgan izlanishlarda ham keng yoritilgan [2]. Biroq tadqiqotchilar sun’iy intellektning keng qo‘llanilishi inson omilining ahamiyatini kamaytirmasligini, aksincha, tahliliy fikrlash, kontekstni to‘g‘ri talqin qilish va madaniyatlararo kommunikatsiyani ta’minlash kompetensiyalarini yanada dolzarb qilishini ta’kidlaydilar. Ushbu jihat klassik turkiy adabiyot namunalarini, asosan, Hofiz Xorazmiy ijodini sun’iy intellekt asosida tahlil qilish jarayonida ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, turkiy adabiyot namunalarini, xususan, Hofiz Xorazmiy merosini zamonaviy pedagogik jarayonga integratsiya qilishda sun’iy intellekt asosidagi raqamli matn tahlili texnologiyalari muhim metodologik vosita sifatida namoyon bo‘ladi [3]. Chunki raqamli lingvistik tahlil vositalari klassik matnlardagi semantik qatlamlar, tasavvufiy ramzlar, konseptual birliklar hamda poetik strukturalarni tizimli ravishda aniqlash imkonini beradi.

Zamonaviy tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing) algoritmlari yordamida klassik turkiy matnlarni ko‘p bosqichli tahlil qilish mumkin. Bunday tahlil jarayoni, odatda, quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: leksik birliklarni aniqlash, semantik maydonlarni guruhlash, metaforik konstruktsiyalarni ajratish, tasavvufiy terminlarni identifikatsiya qilish hamda diskursiv aloqalarni aniqlash. Ushbu bosqichlar orqali Hofiz Xorazmiy she’riyatida uchraydigan “kom”, “jon”, “nom”, “olam” kabi tushunchalarning konseptual tizimi aniqlanib, ularning ma’naviy-falsafiy mazmuni yanada chuqurroq ochib beriladi[4].

Bunday yondashuv xorijiy til o‘qitish jarayonida ham samarali hisoblanadi. Chunki klassik turkiy matnlarni ingliz, rus yoki boshqa

tillarga tarjima qilish jarayonida o‘quvchilar sun’iy intellekt tomonidan taklif etilgan variantlarni tahlil qiladi, semantik farqlarni aniqlaydi va madaniy kontekstni izohlaydi. Natijada o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasi bilan bir qatorda, madaniyatlararo tafakkuri ham rivojlanadi. Bu esa chet tilini o‘qitishda kontentga asoslangan yondashuv (Content-based learning) hamda CLIL metodologiyasi bilan uyg‘unlashadi.

Sun’iy intellekt asosidagi matn tahlili, ayniqsa, tasavvufiy-falsafiy qatlamlarni aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tasavvufiy she’riyatda ramziy obrazlar, ko‘p ma’noli birliklar hamda allegorik ifodalar keng qo‘llaniladi. Raqamli korpus tahlili vositalari yordamida bunday birliklarning chastotasi, kontekstual qo‘llanilishi va semantik aloqalari aniqlanadi. Bu esa shoir ijodida ustuvor bo‘lgan g‘oyalarni statistik asosda belgilash imkonini beradi. Masalan, “kom” tushunchasining salbiy semantik maydon bilan, “nom” tushunchasining esa ijobiy axloqiy qadriyatlar bilan bog‘lanishi raqamli tahlil orqali aniqlanishi mumkin[5]. Masalan, o‘quvchilarga Hofiz Xorazmiy she’rining original matni, sun’iy intellekt tomonidan tarjima qilingan varianti va inson tarjimoni tomonidan tayyorlangan variant taqdim etiladi. O‘quvchilar ushbu uch variantni qiyosiy tahlil qiladi, semantik tafovutlarni aniqlaydi va eng mos tarjimani asoslab beradi. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, tarjima kompetensiyasi va madaniyatlararo kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida Hofiz Xorazmiy merosi asosida ko‘p tilli o‘quv modullarini yaratish ham mumkin. Bunday modullarda shoir she’rlari turli tillarda berilib, ularning semantik va madaniy izohlari sun’iy intellekt asosida avtomatik tarzda generatsiya qilinadi. Bu esa o‘quvchilarning til o‘rganish jarayonini interaktiv va individual ehtiyojlarga moslashtirilgan shaklga keltiradi.

Natijada, sun’iy intellekt va raqamli matn tahlili texnologiyalarini turkiy adabiyot namunalarini o‘rganishga tatbiq etish quyidagi ilmiy-pedagogik natijalarga olib keladi:

— klassik matnlarning ma’naviy-falsafiy qatlamlarini tizimli aniqlash;

— xorijiy til o‘qitish jarayonida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish;

— o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va analitik tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish;

— raqamli savodxonlik va media madaniyatni mustahkamlash;

— milliy adabiy merosni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish.

Zero, Hofiz Xorazmiy merosini sun’iy intellekt asosidagi raqamli matn tahlili metodologiyasi yordamida o‘rganish nafaqat adabiyotshunoslik tadqiqotlari uchun, balki xorijiy til ta’limi metodikasini boyitish uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv klassik turkiy adabiyotni zamonaviy raqamli pedagogika bilan integratsiyalash imkonini berib, chet tilini o‘qitishda innovatsion kontent yaratishning samarali modelini shakllantiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Turgunov A.T. Axborot-komunikatsiya texnologiyalarining yoshlar media madaniyatiga ta’siri: Falsafa. fan. bo‘yicha falsafa doktori(PhD) … diss. – Toshkent, 2022. – 157 b.
2. Akhmetshin, E., Myakota, V., Getskina, I., Avrutina, A., Basmanova, A., Burenkova, D., & Kurbanova, S. (2025). Abordagens modernas para o desenvolvimento da competência profissional do tradutor sob a influência do desenvolvimento da IA. Revista on line de Política e Gestão Educacional, e025115-e025115.
3. Sh.Y. Kurbanova. Hofiz Xorazmiy merosining pedagogik talqini va Hamid Sulaymon ilmiy izlanishlarining ta’limdagi o‘rni // Hamid Sulaymon nomidagi Respublika yosh matnshunoslarining ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – T.; 2025, – 199-200 b.
4. To‘xtabayevich KD, Yeldashbayevna KS. Hofiz Xorazmiy ijodidagi badiiy qarashlarning didaktik tafsilligi va uning o'rganishi // Ko‘p fanli tadqiqot va ta'lim bo'yicha xalqaro konferensiya. – 2025. – T. 2. – № 3. – 101-107-betlar.
5. Sh.Ye.Kurbanova. Hofiz Xorazmiy lirikasida shaxs kamoloti: badiiy tahlil va didaktik talqin // Globallashuv davrida turkologiya rivoji masalalari va ta’lim mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand: 2025. – 308-309 b.

ONLAYN TEST NATIJALARI VA FAOLIYAT KO‘RSATKICHLARI ASOSIDA KASBIY YO‘NALISHNI PROGNOZLASH

Ibadullayev Abdulla Nazarbayevich
Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: Mazkur maqolada onlayn test natijalari hamda o‘quvchi va talabalarning faoliyat ko‘rsatkichlari asosida ularning kasbiy yo‘nalishini aniqlash va prognozlash masalalari keng yoritilgan. Zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan, sun’iy intellekt va

ma’lumotlar analitikasi vositalari orqali shaxsning qobiliyatlari, qiziqishlari va kompetensiyalarini aniqlash imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, individual yondashuv asosida kasb tanlash jarayonini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: onlayn test, kasbiy yo‘nalish, prognozlash, sun’iy intellekt, ta’lim tizimi, kompetensiya, analitika, baholash, faoliyat ko‘rsatkichlari, individual yondashuv.

Annotation: This article extensively examines the issues of determining and forecasting students’ career orientation based on online test results and performance indicators. The analysis focuses on the use of modern information technologies, particularly artificial intelligence and data analytics tools, to identify individuals’ abilities, interests, and competencies. The study also provides scientifically grounded recommendations for improving the career selection process through an individualized approach.

Keywords: online test, career orientation, forecasting, artificial intelligence, education system, competence, analytics, assessment, performance indicators, individualized approach.

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются вопросы определения и прогнозирования профессиональной ориентации учащихся и студентов на основе результатов онлайн-тестов и показателей их деятельности. В анализе особое внимание уделяется использованию современных информационных технологий, в частности искусственного интеллекта и инструментов анализа данных, для выявления способностей, интересов и компетенций личности. Также представлены научно обоснованные рекомендации по совершенствованию процесса выбора профессии на основе индивидуального подхода.

Ключевые слова: онлайн-тест, профессиональная ориентация, прогнозирование, искусственный интеллект, система образования, компетенция, аналитика, оценивание, показатели деятельности, индивидуальный подход.

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Endilikda ta’lim faqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash, rivojlantirish va ularni to‘g‘ri kasbiy yo‘nalishga yo‘naltirishni ham o‘z ichiga oladi.

Kasb tanlash masalasi har bir yosh uchun muhim hayotiy qarorlardan biri hisoblanadi. Noto‘g‘ri tanlangan kasb esa vaqt, resurs va imkoniyatlarning samarasiz sarflanishiga olib kelishi mumkin. Shu bois,

o‘quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari va shaxsiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish asosida kasbiy yo‘nalishni aniqlash zarurati yuzaga kelmoqda.

Zamonaviy onlayn test tizimlari va raqamli monitoring vositalari bu borada keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu maqolada aynan shu vositalar asosida kasbiy yo‘nalishni prognozlash masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Onlayn test tizimlarining rivojlanishi va ahamiyati

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida onlayn test platformalari keng joriy etilmoqda.

Ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi onlayn test tizimlarining keng qo‘llanilishiga sabab bo‘lmoqda. Bunga, avvalo, ta’lim jarayonining raqamlashtirilishi, masofaviy ta’limning ommalashuvi hamda tezkor va shaffof baholashga bo‘lgan ehtiyojning ortib borayotgani asosiy omil sifatida xizmat qiladi.

Onlayn test tizimlari bir qator muhim afzalliklarga ega. Xususan, baholash jarayonida inson omilining kamayishi hisobiga obyektivlik ta’minlanadi. Shuningdek, natijalarni darhol olish imkoniyati mavjud bo‘lib, bu tezkorlikni oshiradi. Bundan tashqari, bunday tizimlar ko‘p sonli foydalanuvchilarni qamrab olish imkonini beruvchi masshtablilik xususiyatiga ega. Eng muhimi, barcha natijalar ma’lumotlar bazasida saqlanib, keyinchalik chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Test natijalari orqali o‘quvchilarning qaysi fanlarga moyilligi yuqori ekanligini aniqlash mumkin. Bu esa ularning kelgusidagi kasbiy yo‘nalishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq kasbiy yo‘nalishni aniqlashda faqat test natijalariga tayanish yetarli emas. O‘quvchining umumiy faoliyat ko‘rsatkichlarini ham kompleks ravishda hisobga olish zarur.

Faoliyat ko‘rsatkichlariga o‘quvchining akademik natijalari, darsdagi faolligi, mustaqil va ijodiy ishlari, loyihalarda ishtiroki, ijtimoiy faolligi hamda yetakchilik qobiliyatlari kiradi. Masalan, texnik masalalarni tez va samarali hal qiladigan o‘quvchi IT yoki muhandislik yo‘nalishlariga, ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlangan o‘quvchi dizayn yoki san’at sohasiga, muloqotga moyil o‘quvchi esa pedagogika yoki menejment yo‘nalishlariga yo‘naltirilishi mumkin. Shu bois, barcha ko‘rsatkichlarni kompleks tahlil qilish eng to‘g‘ri va asosli natijalarni beradi.

Kasbiy yo‘nalishni aniqlash va prognozlashda turli metodlardan foydalaniladi. Statistik tahlil usuli orqali test natijalari va faoliyat ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanadi. Masalan, yuqori

matematik ko‘rsatkichlar va rivojlangan mantiqiy fikrlash texnik kasblarga moyillikni ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, mashina o‘rganish asosidagi yondashuvlar ham keng qo‘llanilmoqda. Sun’iy intellekt algoritmlari yordamida katta hajmdagi ma’lumotlar tahlil qilinadi, yashirin qonuniyatlar aniqlanadi va individual prognozlar ishlab chiqiladi. Natijada tizim o‘quvchining barcha ko‘rsatkichlarini hisobga olib, unga mos kasblarni avtomatik ravishda tavsiya qilishi mumkin.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Unda har bir kasb uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar aniqlanadi hamda o‘quvchining mavjud ko‘rsatkichlari bilan solishtiriladi. Natijada kasbga moslik darajasi aniqlanadi va rivojlantirilishi lozim bo‘lgan jihatlar belgilab olinadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari kasbiy yo‘naltirish jarayonini tubdan takomillashtirmoqda. Xususan, Big Data texnologiyalari katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash va tahlil qilish imkonini beradi, sun’iy intellekt esa individual tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bulutli texnologiyalar ma’lumotlarni xavfsiz saqlashni ta’minlasa, dashboard tizimlari vizual tahlil imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu texnologiyalar yordamida har bir o‘quvchi uchun alohida profil yaratiladi, uning rivojlanish dinamikasi kuzatiladi va kasbiy prognozlarning aniqligi oshadi.

Mazkur yondashuv amaliy jihatdan turli ta’lim tizimlarida samarali qo‘llanilishi mumkin. Jumladan, maktab va akademik litseylarda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda, oliy ta’lim muassasalarida abituriyentlarni saralashda, onlayn ta’lim platformalarida individual yondashuvni ta’minlashda hamda kadrlar tayyorlash tizimida keng foydalanish mumkin.

Natijada noto‘g‘ri kasb tanlash holatlari kamayadi, o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi oshadi hamda ta’lim sifati sezilarli darajada yaxshilanadi.

Onlayn test natijalari va faoliyat ko‘rsatkichlari asosida kasbiy yo‘nalishni prognozlash zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning individual xususiyatlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt va ma’lumotlar analitikasi asosida ishlab chiqilgan tizimlar kelajakda yanada takomillashib, kasb tanlash jarayonini ancha samarali va aniq qilishga xizmat qiladi. Bu esa jamiyatda malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasiga oid farmon va qarorlari.
2. Abduqodirov A.A. Ta’limda axborot texnologiyalari. Toshkent, 2020.
3. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach.
4. Han J., Kamber M. Data Mining: Concepts and Techniques.
5. Zamonaviy pedagogika va AKT bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami.

SPAM-XABARLAR TURLARI VA ULARGA QARSHI AN’ANAVIY HAMDA INTELLEKTUAL HIMOYA USULLARI TAHLILI

Atajonov Muzaffar Ne’matjon o‘g‘li
Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi informatika fani o‘qituvchisi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
“Axborot xavfsizligi” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada spam-xabarlar turlari va ularga qarshi an’anaviy himoya usullari tahlil qilinadi. Reklamaviy, fishing, zararli va firibgarlik spamlar tasniflanib, ularning axborot xavfsizligiga ta’siri o‘rganiladi. Shuningdek, qoidaviy filtrlash, qora/oq ro‘yxatlar va autentifikatsiya mexanizmlarining samaradorligi baholanadi. Tadqiqot natijalari an’anaviy usullar murakkablashib borayotgan spamlarga qarshi yetarli emasligini ko‘rsatadi va sun’iy intellektga asoslangan yondashuvlar zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: spam, fishing, axborot xavfsizligi, filtrlash tizimlari, sun’iy intellekt, mashina o‘rganish, kiberxavfsizlik.

Annotation: This paper analyzes spam types and traditional protection methods. It covers advertising, phishing, malware, and fraud spam and their impact on information security. The effectiveness of rule-based filtering, black/white lists, and authentication mechanisms is evaluated. The results show limitations of traditional methods and the need for AI-based approaches.

Keywords: spam, phishing, information security, filtering systems, artificial intelligence, machine learning, cybersecurity.

Аннотация: В статье анализируются виды спам-сообщений и традиционные методы защиты от них. Рассматриваются рекламный, фишинговый, вредоносный и мошеннический спам, а также их влияние на информационную безопасность. Оценивается

эффективность правил фильтрации, черных/белых списков и механизмов аутентификации. Результаты показывают недостаточную эффективность традиционных методов и необходимость интеллектуальных подходов.

Ключевые слова: спам, фишинг, информационная безопасность, фильтрация, искусственный интеллект, машинное обучение, кибербезопасность.

KIRISH. Spam-xabarlar zamonaviy axborot-kommunikatsiya muhitida shakli, mazmuni va amalga oshirish mexanizmlariga ko‘ra turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Spam turlarini to‘g‘ri tasniflash ularga qarshi samarali himoya choralarini ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Spam-xabarlarni tasniflashning eng keng tarqalgan yondashuvlaridan biri ularning mazmuni va maqsadiga asoslanadi. Reklamaviy spam foydalanuvchilarga ruxsatsiz ravishda yuboriladigan ommaviy tijorat xabarlarini o‘z ichiga oladi. Dastlab bunday spamlar nisbatan zararsiz bo‘lib ko‘ringan bo‘lsa-da, ularning katta hajmda tarqatilishi aloqa kanallarining band bo‘lishiga va foydalanuvchi e’tiborining chalg‘ishiga olib keladi.

Ushbu maqolaning maqsadi — spam turlarini tahlil qilish hamda ularga qarshi an’anaviy himoya usullarining samaradorligini baholashdir.

ASOSIY QISM. Spamning eng xavfli turlaridan biri fishing (phishing) spamlar hisoblanadi. Ushbu xabarlar foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlari, autentifikatsiya rekvizitlari yoki moliyaviy ma’lumotlarini qo‘lga kiritishga qaratilgan bo‘lib, ko‘pincha banklar va davlat tashkilotlari nomidan yuboriladi [3,9]. Fishing spamlar ijtimoiy muhandislik elementlaridan faol foydalanishi bilan ajralib turadi va sezilarli moddiy zarar yetkazishi mumkin.

Zararli dasturlarni tarqatishga qaratilgan spam-xabarlar xabarga biriktirilgan fayllar yoki havolalar orqali viruslar, trojanlar va boshqa zararli dasturlarni tarqatishni maqsad qiladi. Bunday spamlar foydalanuvchi qurilmalarining ishdan chiqishi va axborot tizimlarida ma’lumotlar sizib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin

Moliyaviy firibgarlikka yo‘naltirilgan spam-xabarlar esa soxta investitsiya loyihalari, yutuqlar, kredit va moliyaviy takliflar ko‘rinishida tarqatiladi. Ushbu turdagi spamlar elektron pochta, SMS va e’lon platformalarida keng tarqalgan bo‘lib, foydalanuvchilarning ishonuvchanligidan foydalanishga asoslanadi.

Axborot uzatish kanallariga ko‘ra spam email spami, SMS spami, messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlardagi spam, shuningdek, telefon qo‘ng‘iroqlari orqali amalga oshiriladigan spam turlariga ajratiladi. Email spami tarixan eng dastlabki va keng tarqalgan spam turi bo‘lib, hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan [1,4,5].

Spam muammosining dastlabki bosqichlarida undan himoyalanish uchun asosan an’anaviy, ya’ni qoidaviy va statik yondashuvlar qo‘llanilgan. Kalit so‘zlarga asoslangan filtrlash spamni aniqlashning eng sodda usullaridan biri bo‘lib, unda xabar matnida oldindan belgilangan so‘z va iboralar mavjudligi tekshiriladi.

Qora ro‘yxatlar (blacklist) va oq ro‘yxatlar (whitelist) ma’lum spam manbalari yoki domenlarni bloklashga asoslangan bo‘lib, spam manbalarining tez-tez o‘zgarib turishi ularning samaradorligini pasaytiradi.

Rule-based filtrlash tizimlari oldindan belgilangan qoidalar majmuasiga asoslanadi va spam-filtrlashning dastlabki sanoat yechimlarida keng qo‘llanilgan. Biroq qoidalarni doimiy yangilab borish zarurati va moslashuvchanlikning pastligi bu yondashuvning asosiy cheklovi hisoblanadi.

Email autentifikatsiya mexanizmlari — SPF, DKIM va DMARC texnologiyalari — jo‘natuvchi domenining haqiqiyligini tekshirish orqali soxta manbalardan yuborilgan xabarlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Ushbu mexanizmlar ayrim spam turlariga qarshi samarali bo‘lsa-da, xabar mazmunini tahlil qilmasligi sababli ularni universal yechim sifatida baholab bo‘lmaydi [3, 5].

An’anaviy spamdan himoyalanish usullarining umumiy kamchiligi ularning statik xarakterga egaligida namoyon bo‘ladi. Spam-xabarlarning mazmuni va tuzilishi tez o‘zgarib borayotgan sharoitda bunday usullar noto‘g‘ri musbat va noto‘g‘ri manfiy natijalar ulushining ortishiga olib keladi.

Quyida spam turlari va ularning xavf darajasi bo‘yicha tasnifi bo‘yicha jadval tuzamiz:

1.2-jadval

Spam turlari va ularning xavf darajasi bo‘yicha tasnifi

Spam turi	Asosiy maqsadi	Tarqatish kanali	Potensial zarar	Xavf darajasi
Reklamaviy spam	Mahsulot va xizmatlarni targ‘ib qilish	Email, SMS, ijtimoiy tarmoqlar	Aloqa kanallarining band bo‘lishi, e’tibor chalg‘ishi	Past
Fishing (phishing) spam	Shaxsiy va moliyaviy ma’lumotlarni qo‘lga kiritish	Email, SMS, messenjerlar	Moliyaviy yo‘qotishlar, identifikatsiya o‘g‘irlanishi	Juda yuqori
Zararli dasturli spam	Zararli dasturlarni tarqatish	Email (biriktirma), havolalar	Qurilma ishdan chiqishi, ma’lumotlar sizib chiqishi	Juda yuqori
Moliyaviy firibgarlik spami	Soxta investitsiya va moliyaviy takliflar	Email, SMS, e’lon platformalari	To‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy zarar	Yuqori
Ijtimoiy tarmoq spami	Trafik yoki akkauntlarni jalb qilish	Telegram, Instagram, Facebook	Soxta akkauntlar, axborot ishonchliligi pasayishi	O‘rta
Telefon orqali spam	Reklama yoki firibgarlik	Qo‘ng‘iroqlar, robocall	Psixologik bosim, moliyaviy yo‘qotish	O‘rta
Botnet asosidagi spam	Ommaviy tarqatish va tizimlarni yuklash	Email, veb-formalar	Tarmoq resurslarining ishdan chiqishi	Yuqori

1.2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, spam turlarining xavf darajasi ularning maqsadi va amalga oshirish mexanizmlariga bevosita bog‘liq. Xususan, fishing va zararli dasturlarni tarqatishga yo‘naltirilgan spam-xabarlar eng yuqori xavf darajasiga ega bo‘lib, axborot xavfsizligi va foydalanuvchilarning moliyaviy barqarorligiga jiddiy tahdid soladi. Reklamaviy spamlar nisbatan past xavfga ega bo‘lsa-da, ularning katta hajmda tarqatilishi axborot muhitining sifati pasayishiga olib keladi. Mazkur tasnif spamdan himoyalanish usullarini tanlashda xavfga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, spam-xabarlar mazmuni, tuzilishi va tarqatish mexanizmlariga ko‘ra yuqori darajada diversifikatsiyalangan bo‘lib, ularning xavf darajasi qo‘llaniladigan maqsad va texnologiyalarga bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, fishing hamda

zararli dasturlarni tarqatishga yo‘naltirilgan spam turlari foydalanuvchilarning shaxsiy va moliyaviy xavfsizligiga jiddiy tahdid solib, an’anaviy qoidaviy va statik filtrlash usullari uchun murakkab aniqlash muammosini keltirib chiqaradi [7].

XULOSA. Spam turlarining tezkor evolyutsiyasi va ularning lingvistik hamda semantik jihatdan murakkablashuvi statik himoyalanish mexanizmlarining samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi. Bu esa spamdan himoyalanish tizimlarida moslashuvchan, o‘rganishga asoslangan va kontekstni hisobga oluvchi yondashuvlarni qo‘llash zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shu ma’noda, mashina o‘rganish va sun’iy intellekt texnologiyalariga tayangan spam-filtrlash usullari 1.2-paragrafda aniqlangan muammolarni hal etishning mantiqiy va istiqbolli yo‘li sifatida namoyon bo‘ladi hamda keyingi paragraflarda ularning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o‘rganish zaruratini belgilab beradi [2,8].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. *Deep Learning*. MIT Press, 2016.
2. Bishop C. M. *Pattern Recognition and Machine Learning*. Springer, 2006.
3. MessageLabs Intelligence Report, 2023.
4. Zhang X. et al. Spam filtering techniques: A review. *Journal of Information Security*, 2022.
5. RFC 7208 – Sender Policy Framework (SPF) for Authorizing Use of Domains in Email, IETF.
6. Kabulov A., Normatov I., Urunbaev E., Muhammadiev F. Invariant continuation of discrete multi-valued functions and their implementation. – *2021 IEEE International IOT, Electronics and Mechatronics Conference (IEMTRONICS)*, 2021, 1–6 pp. DOI: 10.1109/IEMTRONICS52119.2021.9422486.
7. Kabulov A., Saymanov I., Yarashov I., Muxammadiev F. Algorithmic method of security of the Internet of Things based on steganographic coding. – *2021 IEEE International IOT, Electronics and Mechatronics Conference (IEMTRONICS)*, 2021, 1–5 pp. DOI: 10.1109/IEMTRONICS52119.2021.9422588.
8. Normatov I.X., Atajonov M.N. Sun’iy intellekt yordamida spamni aniqlash jarayoni. – *Educational Research in Universal Sciences*, 2024, 262–266-betlar.

9. Atajonov M.N. Sun’iy intellekt yordamida spam-xabarlarni filtrlashning algoritmik tahlili. – *Al-Farg‘oniy avlodlari*, 2025, 78-82-betlar.

IMMERSIVE TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YARATILADIGAN ELEKTRON TA’LIM MODELINING KOMPONENTLARI.

Mirzayev To‘lanboy To‘lqinovich
Farg‘ona “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi fizika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon ta’limida immersive texnologiyalar STEM fanlarida keng qo‘llanilmoqda. Immersive texnologiyalar (virtual haqiqat – VR, kengaytirilgan haqiqat – AR va aralash haqiqat – MR) fizika o‘qitishda abstrakt tushunchalarni (elektromagnit maydonlar, kvant mexanikasi yoki gravitatsiya) vizual va interaktiv tarzda tushuntirish imkonini beradi, bu esa talabalar uchun o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Ayniqsa, oliy ta’limda fizika fanini o‘qitishda immersive texnologiyalar talabalar motivatsiyasini oshirish va murakkab masalalarni virtual simulyatsiya orqali hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. Pandemiyadan keyingi davrda elektron ta'lim modellari (e-learning) keng tarqaldi, ammo ularning samaradorligini baholash masalasi hali to‘liq o‘rganilmagan. Ushbu mavzu STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) ta’limida immersive vositalarni integratsiya qilish bo‘yicha global tendentsiyalarga mos keladi, chunki ular o‘quv jarayonini individualizatsiya qilish va natijalarni yaxshilashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Immersiv texnologiya, virtual haqiqat – VR, kengaytirilgan haqiqat – AR, aralash haqiqat – MR, STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics).

Annotation: This article analyzes the widespread use of immersive technologies in STEM education within the global education system. Immersive technologies, including Virtual Reality (VR), Augmented Reality (AR), and Mixed Reality (MR), provide the opportunity to visually and interactively explain complex and abstract physics concepts such as electromagnetic fields, quantum mechanics, and gravity, thereby making the learning process more engaging and effective.

In higher education, immersive technologies play a crucial role in increasing student motivation and enabling the resolution of complex problems through virtual simulations. Although e-learning models have

become widespread in the post-pandemic era, the evaluation of their effectiveness remains an open research issue.
This study aligns with global trends in integrating immersive tools into STEM education, contributing to the individualization of learning processes and improvement of educational outcomes.

Keywords: Immersive technology, Virtual Reality (VR), Augmented Reality (AR), Mixed Reality (MR), STEM, physics education, digital learning, e-learning.

Аннотация: В данной статье анализируется широкое применение иммерсивных технологий в STEM-образовании в мировой системе образования. Иммерсивные технологии, включая виртуальную реальность (VR), дополненную реальность (AR) и смешанную реальность (MR), позволяют визуально и интерактивно объяснять сложные и абстрактные физические понятия, такие как электромагнитные поля, квантовая механика и гравитация, делая процесс обучения более увлекательным и эффективным.
Особенно в высшем образовании иммерсивные технологии играют важную роль в повышении мотивации студентов, а также в решении сложных задач с помощью виртуальных симуляций. Несмотря на широкое распространение моделей электронного обучения (e-learning) в постпандемический период, вопрос оценки их эффективности остается актуальным.
Данное исследование соответствует мировым тенденциям интеграции иммерсивных технологий в STEM-образование и способствует индивидуализации учебного процесса и повышению образовательных результатов.

Ключевые слова: Иммерсивные технологии, виртуальная реальность (VR), дополненная реальность (AR), смешанная реальность (MR), STEM, физическое образование, цифровое обучение, электронное обучение.

Immersive texnologiyalar asosida yaratiladigan elektron ta’lim modeli fizika fanini o‘qitishda zamonaviy texnologik, didaktik va psixologik yondashuvlarni integratsiyalash orqali ta’lim samaradorligini oshirishni maqsad qilgan tizimdir. Bu model nafaqat VR va AR muhitlarini joriy etishni, balki o‘qitish metodikasini to‘liq transformatsiyalashni talab qiladi. Shu boisdan, mazkur model quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topadi:

Pedagogik-scenariy moduli. Ushbu modulda immersive muhit asosida o‘tiladigan darslarning stsenariylari ishlab chiqiladi. Har bir stsenariyda quyidagilar nazarda tutiladi:

• Darsning maqsadi va kutilayotgan natijalari;
• Interaktiv kontentning joylashuvi va tartibi;
• O‘quvchilarning faol ishtiroki va vazifalari;
• Baholash indikatorlari va refleksiya imkoniyatlari.

Pedagogik-scenariy moduli immersive texnologiyalarni texnik vosita sifatida emas, balki ta’limiy strategiya sifatida ko‘rishga imkon beradi [Garrison, 2020].

Interfeys va foydalanuvchi muhitlari. Elektron ta’lim modeli samarali ishlashi uchun uning interfeysi intuitiv, qulay va didaktik jihatdan asoslangan bo‘lishi zarur. Foydalanuvchi interfeysi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

• Vizual navigatsiya (VR/AR foydalanuvchilar uchun 360° muhit);
• Dars modullari, laboratoriya tajribalari va topshiriqlarga tezkor kirish;
• Foydalanuvchiga moslashtirilgan boshqaruv (yosh, daraja, til).

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, AR interfeyslari foydalanuvchilar tomonidan o‘rtacha 1.7 marta tezroq o‘zlashtiriladi va samaraliroq deb topiladi [Radianti et al., 2020].

Vizual-kontent va modellashtirish vositalari

Modelning asosiy ustuni bu — sifatli va interaktiv kontentdir. Bu kontentlar quyidagilardan iborat:

• 3D obyektlar va hodisalar (masalan, elektromagnit to‘lqinlar);
• Dinamik simulyatsiyalar (issiqlik almashinuvi, to‘lqinlar interferensiyasi);
• Ko‘rsatkichli grafikalar (o‘zgaruvchilar, kuch, tezlik va harakat trayektoriyasi);
• Holatga mos real vaqtli tahlil vositalari (masalan, kuch va tezlik vektorlarining interaktiv ko‘rinishi).

Baholash va tahlil moduli. Immersive texnologiyalar asosidagi modelda an’anaviy testlar bilan cheklanib bo‘lmaydi. Baholash quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

• Faoliyatga asoslangan baholash — o‘quvchi modellashtirishdagi ishtiroki asosida baholanadi;
• Jarayon ichidagi baholash — AR/VR muhitida bosqichma-bosqich fikrlash va harakatlar qayd etiladi;
• Natijaviy baholash — yakuniy tushuncha, tahlil va xulosa chiqarish salohiyati baholanadi.

Bunday baholash vositalari o‘quvchining metakognitiv salohiyatini aniqlashga xizmat qiladi [Kurbanov, 2020].

Integratsiyalashgan platformalar. Yaralgan model mavjud LMS (Learning Management System) platformalari bilan integratsiyalashgan holda ishlashi zarur. Bu integratsiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

• Moodle, Google Classroom kabi tizimlarga AR/VR modullarni biriktirish;

• O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida masofaviy muloqotni ta’minlash;

• Baholash natijalarini avtomatik tarzda tizimga eksport qilish.

Pedagogik qo‘llanmalar va yo‘riqnomalar. Immersive ta’lim modeli o‘z ichiga o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun metodik tavsiyalarni ham oladi:

• VR/AR muhitida ishlash bo‘yicha texnik yo‘riqnoma;

• Har bir dars uchun metodik izoh va faoliyat sxemasi;

• O‘quvchining shaxsiy kabineti orqali ilg‘or harakat trayektoriyasini yaratish.

Tahlil va monitoring moduli. O‘quvchilar faoliyatini real vaqtda kuzatish va tahlil qilish imkonini beruvchi modul bo‘lib, quyidagi imkoniyatlarga ega:

• Har bir o‘quvchining immersiv tajribadagi faolligini qayd etish;

• O‘quv natijalarining vizual statistikasini taqdim etish;

• Dars yakunida avtomatik hisobot yaratish.

Bu monitoring orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning individual holatiga mos yondasha oladi [Smith, 2020].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, immersive texnologiyalar asosidagi elektron ta’lim modeli — bu kompleks, moslashuvchan va natijaga yo‘naltirilgan tizimdir. U o‘qitish sifatini oshiradi, o‘quvchilarni chuqur o‘rganishga jalb etadi va zamonaviy ta’limning raqamli transformatsiyasini jadallashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Radianti, J., Majchrzak, T. A., Fromm, J., Wohlgenannt, I. A systematic review of immersive virtual reality applications for higher education. // Computers & Education. – 2020. – Vol. 147. – P. 103778.

2. Aliyev T. Ta’limda immersive texnologiyalarning qo‘llanilishi: imkoniyat va xavflar // O‘zbek pedagogik jurnali. – 2022. – №1. – B. 18–24.

3. Aliyev, A. AR-based Physics Learning and its Efficiency. – Baku: TechPress, 2022. – 98 p.

4. Aliyev, F.M. Immersive Virtual Laboratories and Physics Learning. // Eurasian Journal of Educational Research. – 2022. – Vol. 98. – P. 29–47.

5. Aliyev, R.A. Fizika ta’limida AR/VR texnologiyalarining qo‘llanishi. – Boku: Ilmiy Nashr, 2022. – 188 b.
6. Azuma, R. A survey of augmented reality // Presence: Teleoperators and Virtual Environments. – 1997. – Vol. 6(4). – P. 355–385.
7. Buchner, J., Kopp, B., Siebert, M. Virtual laboratories in physics education: Insights from the EDULAB VR project in Germany // International Journal of Science Education. – 2021. – Vol. 43(5). – P. 779–799.
8. Bybee, R. The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. – USA: NSTA Press, 2013. – 174 p.
9. Bybee, R. W. (2013). The case for STEM education: Challenges and opportunities. – Arlington, VA: NSTA Press.
10. Bybee, R.W. The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. – Arlington, VA: NSTA Press, 2013. – 140 p.
11. Bybee, R.W. The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. – Arlington, VA: NSTA Press, 2013.
12. Chen M. Immersive Learning in Physics: A Systematic Review of VR Applications // Journal of Science Education. – 2022. – №4. – S. 211–223.

MATEMATIKA FANINING ZAMONAVIY RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI

Xojiyev Hamro Yuldashevich, Xasanova Go‘zal Maxmud qizi
Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi matematika fani o‘qituvchilari

Annotatsiya: Mazkur tezisda matematika fanining zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari va ularning ilmiy-amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Sun’iy intellekt, amaliy matematika, diskret matematika va matematik modellashtirish kabi yo‘nalishlarning rivojlanish tendensiyalari yoritilgan. Shuningdek, matematikaning boshqa fanlar bilan integratsiyasi natijasida yangi ilmiy yo‘nalishlar shakllanayotgani ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: matematika, sun’iy intellekt, modellashtirish, diskret matematika

Annotation: This thesis analyzes modern development trends in mathematics and their scientific and practical significance. It highlights the development of artificial intelligence, applied mathematics, discrete mathematics, and mathematical modeling. The study also shows the

emergence of new scientific directions through the integration of mathematics with other disciplines.

Keywords: mathematics, artificial intelligence, modeling, discrete mathematics

Аннотация: В данной тезисной работе анализируются современные направления развития математики и их научно-практическое значение. Освещаются тенденции развития искусственного интеллекта, прикладной математики, дискретной математики и математического моделирования. Также показано формирование новых научных направлений в результате интеграции математики с другими дисциплинами.

Ключевые слова: математика, искусственный интеллект, моделирование, дискретная математика

Matematika insoniyat tafakkurining eng muhim yutuqlaridan biri bo‘lib, u tabiat va jamiyat qonuniyatlarini o‘rganishda universal vosita sifatida xizmat qiladi. Tarixan matematika fanining rivoji insoniyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, har bir yangi davr yangi matematik g‘oyalar va nazariyalarni yuzaga keltirgan. XXI asrga kelib matematika nafaqat nazariy fan sifatida, balki innovatsion texnologiyalar, sun’iy intellekt, iqtisodiy tizimlar va global muammolarni hal etishda asosiy ilmiy platformaga aylandi. Raqamlashtirish jarayonining jadallashuvi matematikaning amaliy ahamiyatini yanada oshirdi. Bugungi kunda matematik tadqiqotlar yuqori darajadagi abstraksiyaga ega bo‘lish bilan birga, real hayotdagi murakkab tizimlarni modellashtirish, prognozlash va optimallashtirish imkonini bermoqda. Shu sababli matematika fanining zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlarini chuqur o‘rganish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy matematikaning eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri bu sun’iy intellekt (SI) bilan bog‘liq tadqiqotlardir. SI tizimlari matematik modellar va algoritmlar asosida ishlaydi. Mashinaviy o‘rganish (machine learning) usullari ehtimollar nazariyasi, statistik tahlil va chiziqli algebra asosida shakllanadi. Masalan, regressiya modellari, klassifikatsiya algoritmlari va klasterlash usullari katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlashda qo‘llaniladi. Chuqur o‘rganish (deep learning) neyron tarmoqlar orqali amalga oshirilib, unda ko‘p qatlamli matematik transformatsiyalar qo‘llaniladi. Bu jarayonlarda gradient tushishi, optimallashtirish usullari va funksional tahlil muhim rol o‘ynaydi. Sun’iy intellekt tizimlarining rivoji tibbiy diagnostika, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, nutqni aniqlash va qayta

ishlash, tasvirlarni tanish kabi sohalarda katta natijalar bermoqda. Shu bilan birga, matematiklar SI algoritmlarining ishonchliligi va tushuntiriluvchanligini oshirish ustida ham ishlamoqdalar.

Amaliy matematika zamonaviy ilm-fanning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u real dunyodagi jarayonlarni matematik modellar orqali o‘rganadi. Bu yo‘nalishda differensial tenglamalar, integral hisob, sonli metodlar va optimallashtirish nazariyasi keng qo‘llaniladi. Masalan, fizik jarayonlarni o‘rganishda matematik modellar issiqlik almashinuvi, suyuqliklar dinamikasi elektromagnit maydonlarni tavsiflaydi. Biologiyada esa matematik modellar populyatsiya dinamikasi, ekotizimlar va genetik jarayonlarni tahlil qilishda qo‘llaniladi. Iqtisodiyotda matematik modellashtirish yordamida bozor muvozanati aniqlanadi, inflyatsiya darajasi prognoz qilinadi va investitsiya strategiyalari ishlab chiqiladi. Shuningdek, logistika va transport tizimlarida optimallashtirish masalalari matematik usullar orqali samarali hal qilinadi.

Diskret matematika zamonaviy axborot texnologiyalarining asosini tashkil etadi. Bu yo‘nalish uzluksiz emas, balki diskret (alohida) strukturalarni o‘rganadi. Diskret matematikaning asosiy bo‘limlariga kombinatorika, graflar nazariyasi, matematik mantiq, algoritmlar nazariyasi kiradi. Graf nazariyasi ijtimoiy tarmoqlar, transport tizimlari va kompyuter tarmoqlarini o‘rganishda qo‘llaniladi. Algoritmlar nazariyasi esa hisoblash jarayonlarining samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi. Kriptografiya — axborot xavfsizligini ta’minlovchi muhim yo‘nalish bo‘lib, u sonlar nazariyasi va algebraik strukturalarga asoslanadi. Zamonaviy bank tizimlari, elektron to‘lovlar va internet xavfsizligi aynan matematik algoritmlarga tayanadi. Blokcheyn texnologiyasi ham matematik algoritmlar va kriptografik metodlar asosida ishlaydi.

Matematik modellashtirish zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning universal vositasidir. U orqali real tizimlarning soddalashtirilgan matematik modeli yaratiladi va ularning xatti-harakati o‘rganiladi. Simulyatsiya texnologiyalari esa modellar asosida turli sharoitlarni sinab ko‘rish imkonini beradi. Bu iqlim o‘zgarishi va ekologik tizimlar, sanoat ishlab chiqarish jarayonlari, transport va logistika tizimlari, iqtisodiy prognozlash sohalarida muhim ahamiyatga ega. Masalan, iqlim modellarida murakkab differensial tenglamalar tizimi qo‘llaniladi. Epidemiologiyada esa SIR modellar yordamida kasalliklarning tarqalishi o‘rganiladi.

Zamonaviy matematika boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda yangi yo‘nalishlarni yuzaga keltirmoqda. Bu jarayon fanlararo tadqiqotlarning rivojiga olib kelmoqda. Asosiy yangi yo‘nalishlarga bioinformatika, moliyaviy matematika, kvant hisoblash va kognitiv fanlar kiradi. Bioinformatikada DNK va genetik ma’lumotlar matematik algoritmlar yordamida tahlil qilinadi. Moliyaviy matematikada esa risklarni baholash va investitsiyalarni optimallashtirish muhim ahamiyatga ega. Kvant hisoblash esa kvant mexanikasi qonunlariga asoslangan bo‘lib, murakkab hisoblash masalalarini tezroq yechish imkonini beradi.

Fundamental matematika nazariy bilimlarning asosini tashkil etadi. Algebra, geometriya, topologiya va sonlar nazariyasi kabi yo‘nalishlar chuqur ilmiy tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. Ko‘plab nazariy natijalar dastlab amaliy qo‘llanilmasa-da, keyinchalik muhim texnologiyalarning asosiga aylanadi. Masalan: sonlar nazariyasi → kriptografiya; topologiya → fizika va kosmologiya; algebra → kodlash nazariyasi. Shu sababli fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish ilm-fan taraqqiyoti uchun muhim hisoblanadi.

Zamonaviy matematika ta’limi ham yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda. Bunga onlayn ta’lim platformalari, interaktiv o‘qitish metodlari, visual modellashtirish, sun’iy intellect asosidagi ta’lim tizimlari kiradi. Bu metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va murakkab matematik tushunchalarni oson o‘zlashtirishga yordam beradi. Zamonaviy matematika global muammolarni hal qilishda ham muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, ekologik muammolar, iqlim o‘zgarishi, pandemiyalar va energetika resusrlarini boshqarish kabilar shular qatoriga kiradi. Matematik modellar yordamida ushbu muammolarni tahlil qilish va samarali yechimlar ishlab chiqish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, matematika fanining zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari uning universalligi, chuqurligi va amaliy ahamiyatining ortib borayotganini ko‘rsatadi. Sun’iy intellekt, diskret matematika, modellashtirish va interdisipliner tadqiqotlar matematikaning kelajakdagi taraqqiyotini belgilab bermoqda. Matematika barcha fanlar uchun umumiy til bo‘lib, uning rivoji ilm-fan va texnologiyaning barqaror o‘sishini ta’minlaydi. Shu sababli matematik tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish har bir jamiyat uchun ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Goodfellow, I., Bengio, Y., Courville, A. (2016). Deep Learning. MIT Press.
2. Rosen, K. H. (2012). Discrete Mathematics and Its Applications. McGraw-Hill.
3. Quarteroni, A. (2009). Numerical Models for Differential Problems. Springer.
4. Samuelson, P. A., Nordhaus, W. D. (2010). Economics. McGraw-Hill.
5. Stewart, J. (2015). Calculus. Cengage Learning.
6. Strang, G. (2016). Introduction to Linear Algebra. Wellesley-Cambridge Press.
7. Zamonaviy ilmiy maqolalar va OTM darsliklari (2015–2024).

SONLAR NAZARIYASINING KRIPTOGRAFIK ASOSLARI

Iskandarov Jo‘shqin Shuxrat o‘g‘li
Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi matematika fani bosh o‘qituvchisi
Ikromjonov Azizbek Muzaffar o‘g‘li
Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi o‘quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sonlar nazariyasining zamonaviy kriptografiyadagi fundamental roli tahlil qilinadi. Xususan, tub sonlar, modul arifmetikasi, katta sonlarni faktorizatsiya qilishning murakkabligi, diskret logarifmlash muammosi va bu tushunchalarning RSA, Diffie–Hellman kalit almashinuvi hamda eliptik egri chiziqli kriptotizimlarda qo‘llanilishi yoritiladi.

Аннотация. В данной статье анализируется фундаментальная роль теории чисел в современной криптографии. В частности, рассматриваются простые числа, модульная арифметика, сложность факторизации больших чисел, проблема дискретного логарифмирования, а также применение этих понятий в криптосистемах RSA, обмене ключами Диффи–Хеллмана и криптографии на эллиптических кривых.

Abstract. This article analyzes the fundamental role of number theory in modern cryptography. In particular, it covers prime numbers, modular arithmetic, the complexity of factoring large integers, the discrete logarithm problem, and the application of these concepts in the RSA cryptosystem, Diffie–Hellman key exchange, and elliptic curve cryptography.

Kalit so‘zlar: sonlar nazariyasi, kriptografiya, tub sonlar, modul arifmetikasi, faktorizatsiya, diskret logarifm muammosi, RSA, Diffie–Hellman kalit almashinuvi, eliptik egri chiziqli kriptografiya (ECC), Eyler funksiyasi, Fermaning kichik teoremasi, ochiq kalitli kriptotizim, ECDLP, post-kvant kriptografiya.

Kirish. Kriptografiya – axborotni ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish haqidagi fan. Qadimgi davrlarda kriptografiya asosan alifbo va so‘zlarni o‘zgartirish (masalan, Sezar shifri) asosida qurilgan bo‘lsa, XX asr oxiri va XXI asrda u butunlay yangi bosqichga ko‘tarildi. Buning sababi – sonlar nazariyasining kriptografiyaga chuqur kirib kelishi.

Sonlar nazariyasi butun sonlarning xossalarini, xususan tub sonlar, bo‘linuvchanlik, taqqoslamalar (modul arifmetikasi), qoldiqlar va murakkablik nazariyasini o‘rganadi. Aynan shu sohalar bugungi kunda internet xavfsizligi, bank tizimlari, elektron raqamli imzo va blokcheyn texnologiyalarining poydevorini tashkil qiladi.

Maqolaning asosiy maqsadi – sonlar nazariyasining uchta asosiy qiyin muammosini:

- Katta sonni tub ko‘paytuvchilarga ajratish (faktorizatsiya);
- Modul bo‘yicha diskret logarifmni topish;
- Eliptik egri chiziqdagi diskret logarifm muammosi;

ularga asoslangan kriptotizimlar bilan birgalikda bayon qilish.

Modul arifmetikasi va tub sonlar – asosiy qurilish bloklari

Modul arifmetikasi (taqqoslamalar). Gauss kiritgan “modul bo‘yicha taqqoslama” tushunchasi kriptografiyaning markazida turadi. Ikkita butun a va b soni n modul bo‘yicha taqqoslama deyiladi, agar ularning ayirmasi n ga qoldiqsiz bo‘linsa:

$$a \equiv b (\mathrm{mod} n) \quad \Leftrightarrow \quad n \mid (a - b)$$

Masalan, $17 \equiv 2 (\mathrm{mod} 5)$, chunki $17 - 2 = 15$ 5 ga bo‘linadi. Modul arifmetikasida qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va darajaga ko‘tarish amallari odatdagidek bajariladi, so‘ngra natijaning n ga bo‘lgandagi qoldig‘i olinadi. Ammo bo‘lish amali murakkabroq: faqat modul bilan o‘zaro tub bo‘lgan sonlarga teskari element mavjud.

Tub sonlarning roli. Agar p natural son faqat 2 ta bo‘luvchiga 1 va o‘ziga bo‘linsa, p tub son deyiladi. Kriptografiyada katta tub sonlardan foydalanish xavfsizlikning asosiy shartidir. Nima uchun? Chunki modul n tub son bo‘lganda, Z_p (qoldiqlar to‘plami) maydon tashkil qiladi – bu yerda noldan farqli har bir element teskarilanuvchi bo‘ladi. Bu esa RSA va Diffie–Hellman kabi tizimlarga imkon yaratadi.

Misollar:

$p = 7$; 3 ga teskari element 5 chunki $3 \cdot 5 = 15 \equiv 1 (\mathrm{mod} 7)$

$p = 13$; 2 ga teskari element 7 chunki $2 \cdot 7 = 14 \equiv 1(\mathrm{mod}13)$

Eyler va Ferma teoremalari. Kriptografiya uchun eng muhim ikkita teorema:

Fermaning kichik teoremasi: Agar p tub va a butun son p ga bo‘linmasa, u holda $a^{p-1} \equiv 1(\mathrm{mod}p)$.

Eyler teoremasi: Agar a va b natural sonlar uchun $EKUB(a, n) = 1$ bo‘lsa,

$$a^{\varphi(n)} \equiv 1(\mathrm{mod}n)$$

bu yerda $\varphi(n)$ – Eyler funksiyasi, n dan kichik va n bilan o‘zaro tub sonlar miqdori. $n = pq$ (ikki tub ko‘paytmasi) uchun $\varphi(n) = (p-1)(q-1)$.

Mazkur teoremalar RSA tizimining ishlashini isbotlashda bevosita qo‘llaniladi.

RSA kriptotizimi – faktorizatsiyaga asoslangan tizim. Algoritmning bosqichlari RSA (Rivest–Shamir–Adleman) – ochiq kalitli kriptotizim bo‘lib, uning xavfsizligi katta sonni tub ko‘paytuvchilarga ajratishning murakkabligiga asoslangan.

1. Ikki katta tub son p va q tanlanadi.
2. $n = p \cdot q$ hisoblanadi.
3. $\varphi(n) = (p-1)(q-1)$ topiladi.
4. Shunday e soni tanlanadiki, $1 < e < \varphi(n)$ va $EKUB(e, \varphi(n)) = 1$ bo‘lsin. Odatda $e = 65537$ olinadi.
5. d soni $e \cdot d \equiv 1\ (\mathrm{mod}\varphi(n))$ shartdan topiladi (bu – teskari element).
6. Ochiq kalit: (n, e), yopiq kalit: d.

Shifrlash: $c = m^e \mathrm{mod}\ n$ (bu yerda m – ochiq matn, c – shifrmatn)

Deshifrlash: $m = c^d \mathrm{mod}\ n$.

Misol (o‘quv uchun kichik sonlar):

$p = 11, q = 13$ u holda $n = 143,\ \varphi(n) = 120$.

Tanlaymiz $e = 7$ (chunki $EKUB(7,120) = 1$).

Topamiz d: $7d \equiv 1(\mathrm{mod}120) \rightarrow d = 103$ (chunki $7 \cdot 103 = 721 = 6 \cdot 120 + 17 \cdot 103 = 721 = 6 \cdot 120 + 1$). Agar $m = 9$ bo‘lsa: $c = 9^7 \mathrm{mod}143$.

$9^2 = 81, 9^4 = 81^2 = 6561 \equiv 6561 - 45 \cdot 143 = 6561 - 6435 = 126,$

$9^7 = 9^4 \cdot 9^2 \cdot 9^1 = 126 \cdot 81 \cdot 9 = 126 \cdot 729.$

$729 \bmod 143 = 729 - 5 \cdot 143 = 729 - 715 = 14.$

$126 \cdot 14 = 1764,\ 1764 - 12 \cdot 143 = 1764 - 1716 = 48.$

Shifrmatn $c = 48$.

Deshifrlash: $48^{103} \bmod 143$ – bu murakkab, lekin nazariy jihatdan 9 qaytadi.

Xavfsizlik asoslari. Hozirda 1024 bitli RSA xavfli hisoblanadi, 2048 va undan yuqori bitlar tavsiya etiladi. nn ni faktorizatsiya qilish muammosi klassik kompyuterlar uchun eksponensial vaqt talab qiladi. Shuning uchun RSA ko‘p yillar davomida standart bo‘lib kelgan.

Diffie–Hellman va diskret logarifm muammosi

Kalit almashinuv protokoli. Diffie–Hellman (DH) protokoli – ikki tomon (A va B) ochiq kanal orqali umumiy maxfiy kalitni yaratishi mumkin. Uning xavfsizligi **diskret logarifm muammosiga** asoslangan.
Qadamlari:

1. Tanlangan katta tub p va biror g (ibtidoiy ildiz) ochiq e’lon qilinadi.
2. A tasodifiy a ni tanlaydi va $A_{pub} = g^a \bmod p$ ni jo‘natadi.
3. B tasodifiy b ni tanlaydi va $B_{pub} = g^b \bmod p$ ni jo‘natadi.
4. A hisoblaydi: $(B_{pub})^a \bmod p = g^{ba} \bmod p$.
5. B hisoblaydi: $(A_{pub})^b \bmod p = g^{ab} \bmod p$.

Natijada ikkala tomon ham bir xil g^{ab} kalitiga ega bo‘ladi.

Diskret logarifm muammosi (DLP). Berilgan p, g, y uchun shunday x topingki, $g^x \equiv y (\mathrm{mod} p)$ bo‘lsin. Bu muammo katta p (masalan, 2048 bit) uchun hisoblash jihatdan amalda yechilmaydigan darajada murakkab.

Misol (kichik p):
$p = 23,\ g = 5$. Faraz qilaylik $y = 8$. Qaysi x uchun $5^x \equiv 8 (\mathrm{mod} 23)$?
Sinab ko‘ramiz: $5^1 = 5, 5^2 = 2, 5^3 = 10, 5^4 = 4, 5^5 = 20, 5^6 = 8 \rightarrow x = 6$
Katta p uchun bunday sinash mumkin emas.

Xavfsizlik va hujumlar. DLP ga qarshi eng yaxshi ma’lum hujum – indeksli hisoblash (index calculus) va kichik qadam–katta qadam algoritmi (baby-step giant-step). Shuning uchun hozirgi standartlarda 2048 bitli p va 256 bitli eksponentlar qo‘llaniladi.

Eliptik egri chiziqli kriptografiya (ECC) va zamonaviy tendensiyalar

Nima uchun ECC?. RSA va DH da kalit uzunligi oshgani sari hisoblash yuki ortadi. Eliptik egri chiziqli kriptografiya (ECC) bir xil xavfsizlik darajasini ancha kichik kalitlar bilan ta’minlaydi.
Masalan:

- 2048 bitli RSA ga ekvivalent xavfsizlikni 224 bitli ECC beradi.
- 3072 bitli RSA ga ekvivalent xavfsizlikni 256 bitli ECC beradi.

Bu mobil qurilmalar, smart-kartalar va IoT qurilmalari uchun juda muhim.

Matematik asos. Eliptik egri chiziq quyidagi tenglama bilan beriladi (chekli maydon ustida): $y^2 = x^3 + ax + b \pmod p$. Bu egri chiziq ustida nuqtalarni qo‘shish amali aniqlanadi. Bu amal kommutativ guruh tashkil qiladi. ECC da ishlatiladigan “qiyin muammo” – **eliptik egri chiziqdagi diskret logarifm muammosi (ECDLP):** Berilgan P va $Q = kP$ nuqtalar uchun k ni topish (bu yerda $kP - P$ ni k marta o‘ziga qo‘shish). ECDLP ga qarshi ma’lum subeksponensial algoritmlar yo‘q, shuning uchun u klassik DLP ga nisbatan xavfsizroq hisoblanadi.

Amaliy qo‘llanishlar.

- **Bitcoin va blokcheyn** – ECDSA (Elliptic Curve Digital Signature Algorithm) dan foydalanadi (secp256k1 egri chizig‘i).
- **TLS 1.3 va Signal messenjeri** – ECC asosidagi kalit almashinuvlarni qo‘llaydi.
- **Quantumdan keyingi kriptografiya** (post-quantum) – endilikda ECC ham kvant kompyuterlarga (Shor algoritmi) nisbatan zaif, shuning uchun lattis (panjara) asosidagi tizimlar ishlab chiqilmoqda.

Xulosa. Sonlar nazariyasi zamonaviy kriptografiyaning tamal toshidir. Ushbu maqolada modul arifmetikasi, tub sonlar, faktorizatsiya va diskret logarifm muammolari hamda ularga asoslangan RSA, Diffie–Hellman va ECC tizimlari qisqacha yoritildi. Kriptografiya rivojlanishi bilan birga sonlar nazariyasining yangi bo‘limlari (masalan, algebraik sonlar nazariyasi, panjaralar) ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Kelajakda kvant kompyuterlariga qarshi tura oladigan post-kvant kriptotizimlar sonlar nazariyasining yangi qiyin muammolariga (masalan, ideal panjaralarda eng qisqa vektor masalasi) tayanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rozikov U.A. Matematikaning fan va texnikadagi tadbiqlari (sonlar nazariyasi va kriptografiya asoslari). – Toshkent, 2020. – 130 b.
2. Аюпов Р. Рақамли валюталар бозори: инноватциялар ва ривожланиш истиқболлари. – Toshkent: Kitobxon, 2023. – 189 b.
3. Хамдамович Р. Рақамли иқтисодиёт асослари. – Toshkent: Kitobxon, 2023. – 575 b.
4. Poulakis D. Mathematical Cryptology: Based on Elementary Number Theory and Essential Numerical Algorithms. – Berlin: De Gruyter, 2026. – 502 p.
5. Yan S.Y. Computational Number Theory and Modern Cryptography. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2013. – 432 p.

6. Rivest R., Shamir A., Adleman L. A Method for Obtaining Digital Signatures and Public-Key Cryptosystems. – Communications of the ACM, 1978. –
URL: https://people.csail.mit.edu/rivest/Rsapaper.pdf (murojaat qilingan sana: 04.04.2026)
7. Conley W. Math 116: Cryptography – Recommended Reading List. – UCLA Department of Mathematics, 2005. –
URL: https://www.math.ucla.edu/~wconley/116.1.05s/ (murojaat qilingan sana: 04.04.2026)

HARBIY TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Shaymardanov Xamza Xolmo'minovich
DXX CHQ "Yosh chegarachilar" HAL Kasbiy-amaliy fanlar kafedrasi CHQBT fani yetakchi o`qituvchisi

Annotatsiya Ushbu maqolada harbiy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarning (virtual va to'ldirilgan reallik (VR/AR), sun'iy intellekt (AI), STEM-yondashuvlari, interfaol simulyatsiyalar va axborot-kommunikatsion texnologiyalar) qo'llanilishi tahlil qilinadi. Zamonaviy harbiy mojarolar texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liqligi sababli, an'anaviy ta'lim usullaridan voz kechib, innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurligi asoslab berilgan. Maqolada AQSh, Rossiya va O'zbekiston tajribalari solishtiriladi, texnologiyalarning afzalliklari (jangovar tayyorgarlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish, shaxsiy yondashuv), qiyinchiliklari (texnik infratuzilma, o'qituvchilar malakasi) va amaliy takliflar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari harbiy ta'limni modernizatsiya qilish orqali mudofaa salohiyatini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: harbiy ta'lim, innovatsion texnologiyalar, virtual reallik (VR), to'ldirilgan reallik (AR), sun'iy intellekt (AI), STEM-ta'lim, simulyatsiyalar, interfaol usullar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT), kompetentsiyaviy yondashuv.

Kirish

Hozirgi globallashuv va texnologik inqilob davrida harbiy ta'lim tizimi oldiga yangi talablar qo'yilmoqda. Zamonaviy urushlar dronlar, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik va yuqori aniqlikdagi qurollar kabi elementlarga asoslangan bo'lib, harbiy kadrlar nafaqat jismoniy, balki intellektual va texnologik jihatdan ham yuqori malakaga ega bo'lishi shart. An'anaviy "o'qituvchi – talaba" modelidan farqli o'laroq, innovatsion texnologiyalar o'quv jarayonini interfaol, simulyatsion va

shaxsga yo‘naltirilgan qiladi. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha Prezident farmonlari (masalan, PQ-3931) ham innovatsiyalarni joriy etishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi.[29]

Harbiy ta’limda innovatsiyalar pedagogik jarayonga yangilik kiritish, o‘quvchi faolligini oshirish va harbiy-kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Bu yerda kompetentsiyaviy yondashuv muhim o‘rin tutadi, chunki u harbiy mutaxassisliklarni tizimli integratsiya qilishga imkon beradi.

Innovatsion texnologiyalarning asosiy turlari va harbiy ta’limdagi qo‘llanilishi

Harbiy ta’limda eng samarali innovatsion texnologiyalar quyidagilardir:

1. **Virtual va to‘ldirilgan reallik (VR/AR) simulyatsiyalari.** VR harbiy xizmatchilarga real jang maydonini xavfsiz muhitda takrorlash imkonini beradi. Masalan, Britaniya armiyasining Adaptive Virtual Reality Training (AVRT) tizimi askarlarga o‘z qurollari bilan virtual dushmanlarga qarshi mashq qilishga yordam beradi. AR esa real dunyoga virtual elementlarni qo‘shib, masalan, tank yoki dron boshqaruvini o‘rgatadi. Bu usullar jangovar tayyorgarlikni oshiradi va xarajatlarni 50% ga kamaytiradi.

2. **Sun’iy intellekt (AI) asosidagi o‘quv tizimlari.** AI shaxsiy o‘quv trayektoriyasini yaratadi, talabaning javoblarini tahlil qiladi va moslashtirilgan mashqlarni taklif etadi. AQSh Harbiy akademiyalarida AI dronlar, kiberxavfsizlik va strategik rejalashtirishni o‘rgatishda qo‘llanilmoqda. Rossiyada esa AI elektron urush va robototexnikani rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.[30]

3. **STEM-ta’limi (Fan, Texnologiya, Muhandislik, Matematika).** STEM harbiy ta’limda integratsiyalashgan yondashuv sifatida qo‘llaniladi. U nazariyani amaliyot bilan bog‘laydi: dronlar yasash, AI modellarini yaratish, kiberxavfsizlik simulyatsiyalari. O‘zbekistonda oliy harbiy ta’lim muassasalarida STEMni joriy etish orqali kadrlar zamonaviy jang maydoniga tayyorlanadi. Bu yondashuv strategik ustunlik, resurslarni optimallashtirish va insoniy xatolarni kamaytirishga yordam beradi.

4. **Interfaol va axborot-kommunikatsion texnologiyalar.** Chet tili mashg‘ulotlarida (harbiy bilim yurtlarida) interfaol platformalar, multimedia va onlayn simulyatsiyalar qo‘llaniladi. Bu usullar ta’lim

[29] Kompetentsiyaviy yondashuv harbiy ta’limda tizimli integratsiyani ta’minlaydi (Esanov A.A., 2022)
[30] STEM ta’limi harbiy mojarolarda texnologik ustunlik beradi (Tasimov N.Z., 2025).

sifatini oshiradi va axborot-kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Xalqaro tajriba va O‘zbekiston amaliyoti

AQShda West Point Harbiy akademiyasi STEM va AI dasturlarini yetakchi qilib, kvant hisoblash va dron texnologiyalarini o‘rganadi. Rossiyada fizika va robototexnika harbiy ta’limning asosiga aylangan. O‘zbekistonda Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti kabi muassasalar innovatsion markazlarni yaratmoqda. “Texnofest” ko‘rgazmalari va “TechnoWays” marafonlari yoshlarning innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlaydi. Biroq, hozirgi o‘quv dasturlari ko‘proq nazariy bo‘lib, amaliy simulyatsiyalar yetarli emas. Innovatsion klasterlar (maktab-laboratoriya modeli) va o‘qituvchilar malakasini oshirish orqali bu kamchiliklarni bartaraf etish mumkin.[31]

Afzalliklari, qiyinchiliklari va takliflar

Afzalliklari:

- Jangovar tayyorgarlikni oshiradi (VR/AR 80% ga ishonchni kuchaytiradi).
- Xarajatlarni kamaytiradi (simulyatorlar real mashqlardan arzon).
- Shaxsiy yondashuv va kreativ fikrlashni rivojlantiradi.
- Kiberxavfsizlik va axborot urushlarida ustunlik beradi.

Qiyinchiliklari: Texnik infratuzilma yetishmasligi, o‘qituvchilarning AKT malakasi pastligi, dastlabki xarajatlar.

Takliflar:

1. Oliy harbiy ta’lim muassasalarida VR/AR laboratoriyalarini yaratish.
2. STEM dasturlarini majburiy qilish va AI platformalarini joriy etish.
3. O‘qituvchilar uchun doimiy malaka oshirish kurslarini tashkil etish.
4. Xalqaro hamkorlik (AQSh, Rossiya tajribasini o‘rganish).
5. Innovatsion monitoring tizimini joriy etish.

Xulosa

Harbiy ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish zamonaviy mudofaa talablariga javob berishning yagona yo‘lidir. VR, AR, AI va STEM yondashuvlari nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki mamlakat mudofaa salohiyatini kuchaytiradi. O‘zbekiston uchun bu yo‘nalishda izchil islohotlar olib borish – strategik zarurat.

[31] VR/AR harbiy treningda xarajatlarni 50% ga kamaytiradi (Booz Allen Hamilton tadqiqotlari).

Innovatsiyalarni joriy etish orqali harbiy kadrlar kelajak urushlariga tayyor bo‘ladi va milliy xavfsizlikni ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Esanov A.A. Harbiy ta’limda o‘quv-tarbiya ishlarini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish // CyberLeninka, 2022.
2. Tasimov N.Z. Harbiy ta’limda STEM ta’limining ahamiyati // CyberLeninka, 2025.
3. Ashurova F.X. Ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish // Oriens, 2023.
4. Biggs A.T. Enhancing Professional Military Education with AI // Journal of Military Learning, 2025.
5. Caso S. Emerging technologies in military space operations // Taylor & Francis, 2025.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-sonli Farmoni (2019).
7. “Texnofest” ko‘rgazmasi materiallari // Mudofaa vazirligi, 2024.
8. Reinventing military education and training for the digital age // Kearney, 2024.
9. The Application of Virtual Reality (VR) and Augmented Reality (AR) in Military Training // ResearchGate, 2024.
10. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va vositalari: o‘quv-uslubiy qo‘llanma // TRM.uz, 2024.

SUN’IY INTELLEKTNING MATEMATIK POYDEVORI: ALGORITMLAR ORTIDAGI MANTIQ

Turaboyev Bahodir Urolovich

DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL “Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi matematika fani bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellekt tizimlarining matematik asoslari, xususan chiziqli algebra, matematik analiz, ehtimollar nazariyasi va optimallashtirish usullarining SI algoritmlaridagi o‘rni tahlil qilinadi. Neyron tarmoqlarni o‘qitish va qaror qabul qilish jarayonlarida qo‘llaniladigan asosiy matematik yondashuvlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, chiziqli algebra, matematik analiz, gradientli pasayish, ehtimollar nazariyasi, optimallashtirish, neyron tarmoqlari.

Annotation: The article discusses the mathematical foundations of artificial intelligence systems, including linear algebra, mathematical

analysis, probability theory, and optimization methods. It highlights key approaches used in training neural networks and decision-making processes.

Keywords: Artificial intelligence, linear algebra, mathematical analysis, gradient descent, probability theory, optimization, neural networks.

Аннотация: В статье рассматриваются математические основы систем искусственного интеллекта, включая линейную алгебру, математический анализ, теорию вероятностей и методы оптимизации. Освещаются основные подходы, применяемые при обучении нейронных сетей и принятии решений.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, линейная алгебра, математический анализ, градиентный спуск, теория вероятностей, оптимизация, нейронные сети.

Sun’iy intellekt: matematika va algoritmlar uyg‘unligi. Sun’iy intellekt: matematika va algoritmlar uyg‘unligi. Dastavval, Chiziqli algebra haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, u SI uchun o‘ziga xos "ma’lumotlar tili" vazifasini o‘taydi. Zero, kompyuter biz ko‘rib turgan matn, rasm yoki ovozlarni inson kabi his qilmaydi; aksincha, ularni faqat raqamlar orqali tushunadi [3. 45-bet]. Masalan, har bir tasvir piksellardan iborat matritsa sifatida, har bir so‘z esa ko‘p o‘lchovli fazodagi vektor sifatida ifodalanadi. Shu bilan birga, ma’lumotlar hajmi haddan tashqari ortib ketganda, PCA (Asosiy komponentlar tahlili) usuli yordamida eng muhim xususiyatlar saqlab qolingan holda o‘lchovlar qisqartiriladi [2. 112-bet]. Shuningdek, tizimdagi chiziqli tenglamalar majmuasini yechishda teskari matritsa va determinantlar kabi tushunchalar hal qiluvchi rol o‘ynaydi [4. 88-bet].

So‘ngra, modelning "o‘rganish mexanizmi" sifatida Matematik analiz namoyon bo‘ladi. Agarda algoritm o‘z faoliyati davomida xatoga yo‘l qo‘ysa, u qanday qilib tuzatiladi? Albatta, bu jarayon analizdagi hosila (derivative) tushunchasiga tayanadi [1. 150-bet]. Xususan, Gradientli pasayish algoritmi funksiyaning eng kichik qiymatini topish orqali xatolikni minimallashtiradi. Murakkab neyron tarmoqlarida esa zanjir qoidasi (Chain Rule) qo‘llanilib, xatolik signallari orqaga qaytariladi va har bir neyronning "aybi" aniqlanib, tizim qayta sozlanadi [2. 205-bet].

Bundan tashqari, SI har doim ham mutloq aniqlik bilan ishlamaydi, balki noaniqlik sharoitida qaror qabul qiladi. Bunda unga Ehtimollar nazariyasi va statistika yordamga keladi. Masalan, Bayes teoremasi yangi ma’lumotlar asosida mavjud bilimlarni muntazam yangilab borish

imkonini yaratadi [6. 124-bet]. Turli xil ehtimollik taqsimotlari ma’lumotlarning guruhlanish qonuniyatlarini tushuntirib bersa, gipotezalarni tekshirish usuli olingan natijalarning tasodifiy emas, balki qonuniyat ekanini isbotlaydi [5. 72-bet].

Nihoyat, ushbu jarayonlarning barchasi Optimallashtirish orqali yakuniga yetkaziladi. SI o‘z vazifasini shunchaki bajarib qolmay, balki uni eng samarali yo‘l bilan amalga oshirishi lozim. Bunda maqsad funksiyasi (Loss Function) real natija bilan kutilgan natija o‘rtasidagi farqni o‘lchasa, cheklovlar bilan ishlash algoritmlari vaqt va xotira kabi resurslar tejalishini ta’minlaydi [7. 190-bet].

Matematik analiz: sun’iy intellektning intellektual kamoloti. Sun’iy intellekt olamiga nazar tashlar ekansiz, uning "fikrlash" va o‘z ustida ishlash qobiliyati zamirida aynan Matematik analiz (Calculus) fanining fundamental qonuniyatlari yotganiga guvoh bo‘lasiz. Agarda algoritmni bir talaba deb tasavvur qilsak, analiz fani ushbu talabaga o‘z xatolaridan xulosa chiqarish va mukammallikka erishish yo‘lini ko‘rsatuvchi asosiy qo‘llanmadir [1. 165-bet].

Ushbu jarayonning markazida hosila (derivative) tushunchasi turadi. Tasavvur qiling, model biror vazifani bajarishda xatoga yo‘l qo‘ydi; aynan hosila yordamida biz funksiyaning o‘zgarish tezligini va yo‘nalishini aniqlaymiz. Bu esa modelga "Qaysi tomonga qarab o‘zgarsam, xatoyim kamayadi?" degan savolga aniq javob topish imkonini beradi [4. 132-bet].

Shu o‘rinda, algoritmlarni o‘qitishning eng tayanch usuli bo‘lgan Gradientli pasayish (Gradient Descent) haqida to‘xtalib o‘tish joiz. Bunda funksiyaning hosilasi sayyohga qaysi qadam eng to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatib beradi. Natijada, model har bir qadamda o‘z parametrlarini birozdan tahrirlab, eng aniq natijaga yaqinlashib boradi [2. 188-bet].

Ehtimollar nazariyasi va statistika: noaniqlik ummonidagi kompas. Sun’iy intellekt olami ko‘pincha noaniqlik va tasodiflar bilan to‘la muhitda qaror qabul qilishiga to‘g‘ri keladi. Mana shu o‘rinda Ehtimollar nazariyasi va statistika fani SI tizimlarining eng yaqin ko‘makchisiga aylanib, unga mavjud ma’lumotlar ichidan eng mantiqiy va haqiqatga yaqin variantni tanlash imkonini beradi [6. 210-bet].

Ushbu jarayonning eng go‘zal va amaliy qismlaridan biri — Bayes teoremasidir. Mazkur teorema SI uchun o‘ziga xos "tajriba to‘plash" maktabi vazifasini o‘taydi [5. 95-bet]. Shu bilan birga, ma’lumotlarning guruhlanish qonuniyatlarini tushunish uchun ehtimollik taqsimotlari qo‘llaniladi. Masalan, insonlarning tabiiy ko‘rsatkichlari odatda Normal

taqsimot egri chizig‘iga mos kelsa, ha yoki yo‘q (0 yoki 1) ko‘rinishidagi natijalar Bernulli taqsimoti orqali ifodalanadi [6. 155-bet].Ehtimollar Nazariyasi va Statistika: Noaniqlik Ummonidagi Kompas

Sun’iy intellekt olami, aziz kuzatuvchi, har doim ham qat’iy va o‘zgarmas qoidalar asosida ishlamaydi. Aksincha, u ko‘pincha noaniqlik va tasodiflar bilan to‘la muhitda qaror qabul qilishiga to‘g‘ri keladi. Mana shu o‘rinda Ehtimollar nazariyasi va statistika fani SI tizimlarining eng yaqin ko‘makchisiga aylanib, unga mavjud ma’lumotlar ichidan eng mantiqiy va haqiqatga yaqin variantni tanlash imkonini beradi. Zero, SI inson kabi "mutloq haqiqatni" bilmasligi mumkin, ammo u "ehtimoliy haqiqatni" juda aniq hisoblab chiqa oladi.

Ushbu jarayonning eng go‘zal va amaliy qismlaridan biri — Bayes teoremasidir. Mazkur teorema SI uchun o‘ziga xos "tajriba to‘plash" maktabi vazifasini o‘taydi. Chunonchi, tizimga yangi ma’lumotlar kelib tushgani sayin, teorema yordamida mavjud bilimlar muntazam ravishda yangilab boriladi. Buni biz har kuni elektron pochtamizdagi spam-filtrlari misolida ko‘rishimiz mumkin; algoritm har bir yangi xatni tahlil qilar ekan, Bayes qoidasiga tayanib, xatning spam bo‘lish ehtimolini qayta hisoblaydi va o‘z "hukmini" chiqaradi.

Shu bilan birga, ma’lumotlarning qanday tartibda va shaklda guruhlanganini tushunish uchun ehtimollik taqsimotlari qo‘llaniladi. Masalan, insonlarning bo‘yi yoki vazni kabi tabiiy ko‘rsatkichlar odatda Normal taqsimot egri chizig‘iga mos kelsa, ha yoki yo‘q (0 yoki 1) ko‘rinishidagi natijalar Bernulli taqsimoti orqali ifodalanadi. Ushbu taqsimotlar modelga ma’lumotlar oqimidagi "shovqin" va "mohiyat"ni bir-biridan ajratishda juda asqotadi.

Nihoyat, olingan natijalarning haqiqiyligini tasdiqlash uchun gipotezalarni tekshirish usullaridan foydalaniladi. Bu jarayon model tomonidan topilgan qonuniyat shunchaki tasodifiy o‘xshashlikmi yoki chuqur matematik asosga ega faktmi degan savolga nuqta qo‘yadi. Statistika yordamida algoritm o‘z xulosalarining ishonchlilik darajasini tekshiradi va faqatgina ilmiy isbotlangan natijalarnigina foydalanuvchiga taqdim etadi.

Optimallashtirish: eng mukammal yechim sari intilish. SI tizimlari uchun berilgan vazifani shunchaki bajarish yetarli emas; uning asosiy maqsadi — o‘sha vazifani eng kam xato bilan amalga oshirishdir. Aynan mana shu nuqtada Optimallashtirish (Optimization) fani maydonga chiqadi va SI uchun eng maqbul yo‘lni belgilab beradi [7. 55-bet].

Bu jarayonning negizida Maqsad funksiyasi (Loss Function) yotadi. U model tomonidan berilgan haqiqiy natija bilan biz kutgan ideal natija o‘rtasidagi farqni (xatolikni) o‘lchab beradi [1. 82-bet]. Shu bilan birga, SI cheklangan vaqt, xotira va hisoblash quvvati sharoitida eng yaxshi natijani ko‘rsatishi lozim. Optimallashtirish algoritmlari mana shunday qat’iy chegaralar ichida turib, eng yuqori aniqlikka erishish yo‘llarini izlaydi [7. 310-bet].

Xulosa qilib aytganda, matematika va sun’iy intellekt o‘rtasidagi aloqa shunchaki nazariy bog‘liqlik emas, balki ajralmas mantiqiy uyg‘unlikdir.

Yuqorida tahlil qilingan to‘rtta ustun — ma’lumotlarni tizimlashtiruvchi chiziqli algebra, xatolarni tuzatuvchi matematik analiz, noaniqlik ichida yo‘l ko‘rsatuvchi statistika hamda eng samarali yechimni topuvchi optimallashtirish fanlari — SI tizimining "yuragi" hisoblanadi. Zero, eng mukammal algoritmlar ham baribir aniq matematik qonuniyatlar asosida shakllanadi.

Shunday ekan, raqamli texnologiyalar va uchinchi renessans davrida sun’iy intellektni chuqur o‘zlashtirish, avvalo, uning poydevori bo‘lgan fundamental matematikani anglash va uni amaliyotga tatbiq etishdan boshlanadi. Bu bilimlar birlashmasi esa kelajakda yanada aqlli, xavfsiz va samarali texnologik tizimlarni yaratishimizga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). Deep Learning. MIT Press.
2. Deisenroth, M. P., Faisal, A. A., & Ong, C. S. (2020). Mathematics for Machine Learning. Cambridge University Press.
3. Strang, G. (2019). Linear Algebra and Learning from Data. Wellesley-Cambridge Press.
4. Шлейко, А. Л. (2022). Математика для программистов и специалистов Data Science. Питер.
5. Бринк, Х., Ричардс, Дж., Феверолф, М. (2017). Машинное обучение. Питер.
6. Bishop, C. M. (2006). Pattern Recognition and Machine Learning. Springer.
7. Boyd, S., & Vandenberghe, L. (2004). Convex Optimization. Cambridge University Press.

DYUPEN INDIKATRITSASI. SIRT NUQTALARINI TURLARGA AJRATISH

Jumanazarova Shodiya Otojon qizi
Urganch davlat Pedagogika instituti Matematika va kompyuter texnologiyalari kafedrasi o‘qtuvchisi
Rahimova Zuhra Jamolbek qizi
UrDPI Aniq va tabiiy fanlar fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda differensial geometriyaning muhim tushunchasi bo‘lgan Dyupen indikatritsasi yordamida sirt nuqtalarini klassifikatsiya qilish masalasi o‘rganiladi. Sirtning asosiy egriliklari va Gauss egriligi tahlil qilinib, nuqtalar elliptik, giperbolik va parabolik turlarga ajratish usullari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Dyupen indikatritsasi, asosiy egriliklar, Gauss egriligi, sirt, elliptik nuqta, giperbolik nuqta, parabolik nuqta, differensial geometriya.

Annotation: В данном тезисе рассматривается одна из важных концепций дифференциальной геометрии — индикатриса Дюпена и классификация точек поверхности с её помощью. Анализируются главные кривизны и гауссова кривизна, а также методы разделения точек на эллиптические, гиперболические и параболические.

Keywords: индикатриса Дюпена, главные кривизны, гауссова кривизна, поверхность, эллиптическая точка, гиперболическая точка, параболическая точка, дифференциальная геометрия.

Аннотация: This thesis studies the Dupin indicatrix, an important concept in differential geometry, and its application in classifying surface points. The principal curvatures and Gaussian curvature are analyzed, and methods for classifying points as elliptic, hyperbolic, and parabolic are presented.

Ключевые слова: Dupin indicatrix, principal curvatures, Gaussian curvature, surface, elliptic point, hyperbolic point, parabolic point, differential geometry.

Kirish. Differensial geometriyada sirtlarning lokal xossalarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, sirt nuqtalarining egrilik xususiyatlariga qarab turlarga ajratilishi geometrik tahlilning asosiy masalalaridan biridir. Bu jarayonda asosiy egriliklar va Gauss egriligi muhim rol o‘ynaydi.

Dyupen indikatritsasi sirtning berilgan nuqtasidagi egrilik xossalarini geometrik jihatdan tasvirlash imkonini beruvchi muhim vositadir. U yordamida sirt nuqtalarini elliptik, giperbolik va parabolik turlarga ajratish mumkin. Bu klassifikatsiya sirtlarning shaklini va

ularning xatti-harakatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.Ushbu tezisning asosiy maqsadi — Dyupen indikatritsasining mohiyatini ochib berish, sirt nuqtalarini egrilikka ko‘ra turlarga ajratish usullarini o‘rganish hamda ularni amaliy misollar orqali tushuntirishdan iborat.

Differensial geometriyada sirt nuqtalarining urinma tekslikgidan chetlashishini aniqlashda yoki sirt nuqtalarini klassifikatsiyalashda sirtning 2-kvadratik formasidan foydalaniladi.

Bizga φ sirt va uni $y(f,G)$ porometrlash usuli $\bar{r}=\bar{r}(u,v)$ tenglama yordamida berilgan bo‘lsa.

Ta’rif: Ushbu $ds^2=Ldu^2+2Mdudv+Ndv^2$, $\bar{r}=\bar{r}(u,v)$ tenglama bilan berilgan sirtning 2-kvadratik formasi

$$L=(\overline{r_{uv}},n)=\frac{\begin{vmatrix} x_{uu} & y_{uu} & z_{uu} \\ x_u & y_u & z_u \\ x_v & y_v & z_v \end{vmatrix}}{\sqrt{EG-F^2}}$$

$$M=(\overline{r_{uv}},n)=\frac{\begin{vmatrix} x_{uv} & y_{uv} & z_{uv} \\ x_u & y_u & z_u \\ x_v & y_v & z_v \end{vmatrix}}{\sqrt{EG-F^2}}$$

$$N=(\overline{r_{uv}},n)=\frac{\begin{vmatrix} x_{vv} & y_{vv} & z_{vv} \\ x_u & y_u & z_u \\ x_v & y_v & z_v \end{vmatrix}}{\sqrt{EG-F^2}}$$

Ikkinchi kvadratik formaning koeffitsentlari deyiladi.

Ta’rif: Regulyar φ sirt p nuqtadagi bosh egrilik parallel k_1 , k_2 bo‘lsa, $H=\frac{k_1+k_2}{2}$ va $K=k_1\cdot k_2$ ifodalar mosravishda φ sirtning p nuqtasidagi o‘rta va to‘liq (yoki Gauss) egriligi deb ataladi.

Bosh egriliklar $\det|B-\lambda A|=0$ tenglamani yechimi ekanligini hisobga olsak

$$K=\frac{LN-M^2}{EG-F^2} \quad \text{va} \quad H=\frac{1}{2}\cdot\frac{EN-2FM+GL}{EG-F^2}$$

formulani hosil qilamiz . 1-kvadratik forma musbat aniqlangani uchun Gauss egriligining ishorasiga bog‘liqdir. Agar p^0 nuqtada $k>0$ bo‘lsa, uni elliptik nuqta, $k<0$ bo‘lsa, giperbolik nuqta , agar $k=0$ bo‘lsa, p ni parabolik nuqta deb ataymiz.

Ta‘rif: Urunma tekisligida $\vec{a}$ yo‘nalish bo‘yicha boshi p nuqtada joylashgan uzunligi $\frac{1}{\sqrt{|k|}}$ ga teng bo‘lgan kesma olib, bu kesmalar

uchlarining geometrik o‘rnini D’yupen indikatritsasi deb ataymiz. Ta’rifdan foydalanib , D’yuper indikatritsasi uchun ushbu

$$\left|L(u_0,v_0)x^2+2M(u_0,v_0)xy+N(u_0,v_0)y^2\right|=1$$

tenglamani hosil qilish mumkin. Demak, D’yupen indikatritsasi ikkinchi tartibli chiziqdir. Shuning uchun , agar

a) $LN-M^2>0$ bo‘lsa, D’yupen indikatritsasi ellips;
b) $LN-M^2<0$ bo‘lsa, D’yupen indikatritsasi ikkita qo‘shma giperbola;
c) $LN-M^2=0$ bo‘lsa, D’yupen indikatritsasi ikkita parallel to‘g‘ri chiziqdan iborat bo‘ladi.

Misol: $\begin{cases} x=R\cos v \\ y=R\sin v \\ z=u \end{cases}$ aylanma sirtni turini aniqlang.

Yechish: $E=1$, $F=0$ va $G=R^2$ larning qiymatigan foydalanib $\sqrt{EG-F^2}$ ni qiymatini topib olamiz ya’ni $\sqrt{EG-F^2}=\sqrt{R^2}=R$ ekani kelib chiqadi. Endi yuqoridagi formulalardan foydalanib ikkinchi kvadratik formaning L, M va N koeffitsientlarini hisoblab olamiz.

$$L=(\overline{r_{uv}},n)=\frac{\begin{vmatrix} 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 1 \\ -R\sin v & R\cos v & 0 \end{vmatrix}}{\sqrt{R^2}}=0$$

$$M=(\overline{r_{uv}},n)=\frac{\begin{vmatrix} 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 1 \\ -R\sin v & R\cos v & 0 \end{vmatrix}}{\sqrt{R^2}}=0$$

$$N=(\overline{r_{uv}},n)=\frac{\begin{vmatrix} -R\cos v & -R\sin v & 0 \\ 0 & 0 & 1 \\ -R\sin v & R\cos v & 0 \end{vmatrix}}{\sqrt{R^2}}=R^2$$

Ya’ni formulalardan foydalangan holda $L=0$, $M=0$ va $N=R^2$ qiymatlarini topib oldik.

Endi bu yerda aylanma sirtni turini aniqlash uchun $LN-M^2$ qiymatini hisoblasak $LN-M^2=0$ ekani kelib chiqadi.

a) Demak , $LN-M^2=0$ bo‘lsa, D’yupen indikatritsasi ikkita parallel to‘g‘ri chiziqdan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Dyupen indikatritsasi differensial geometriyada sirtlarning lokal xossalarini o‘rganishda muhim vosita hisoblanadi. U sirtning berilgan nuqtasida egriliklarning xususiyatlarini aniq va geometrik jihatdan tasvirlab beradi. Mazkur tezis davomida sirt

nuqtalarini asosiy egriliklar va Gauss egriligi orqali klassifikatsiyalash usullari o‘rganildi. Natijada quyidagilar aniqlandi:
Gauss egriligi musbat bo‘lsa — sirt nuqtasi elliptik nuqta bo‘ladi;
Gauss egriligi manfiy bo‘lsa — giperbolik nuqta hosil bo‘ladi;
Gauss egriligi nolga teng bo‘lsa — parabolik nuqta yuzaga keladi.

Dyupen indikatritsasi yordamida bu nuqtalarni geometrik jihatdan tasvirlash mumkinligi ko‘rsatildi. Xususan, elliptik nuqtalarda ellips, giperbolik nuqtalarda giperbola va parabolik nuqtalarda parallel to‘g‘ri chiziqlar hosil bo‘lishi isbotlandi. Ko‘rib chiqilgan misolda aylanma sirt uchun Gauss egriligi nolga teng bo‘lishi aniqlanib, bu sirtning parabolik turga mansubligi tasdiqlandi.
Shunday qilib, Dyupen indikatritsasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim bo‘lib, u geometriya, fizika va muhandislik sohalarida keng qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Manfredo P. do Carmo — Differential Geometry of Curves and Surfaces. Prentice-Hall, 1976.
2. A.YA.Narmanov, A.S.Sharipov, J.O.Aslonov — Differensial geometriya va topologiya kursidan masalalar to‘plami, Toshkent: “Universitet“, 2014.
3. Andrew Pressley — Elementary Differential Geometry. Springer, 2010.
4. Barrett O'Neill — Elementary Differential Geometry. Academic Press, 2006.
5. Wilhelm Blaschke — Differentialgeometrie. Springer, 1921.
6. Differential Geometry bo‘yicha oliy ta’lim darsliklari va o‘quv qo‘llanmalar.

TRIGONOMETRIK FORMULALARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Jo‘rayev Elmurod Xo‘shmurodovich
Termiz shahar “Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyi

Annotatsiya: Ushbu maqolada trigonometrik formulalarni o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Zamonaviy yondashuvlar ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: trigonometrik formulalar, innovatsion ta’lim, interaktiv metodlar, pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari.

Annotation: The article analyzes the use of innovative pedagogical technologies, interactive methods, and ICT tools in teaching trigonometric formulas. It highlights their role in improving the effectiveness of education.

Keywords: trigonometric formulas, innovative education, interactive methods, pedagogical technologies, information technologies.

Аннотация: В статье анализируется использование инновационных педагогических технологий, интерактивных методов и информационно-коммуникационных средств при обучении тригонометрическим формулам. Освещается их роль в повышении эффективности обучения.

Ключевые слова: тригонометрические формулы, инновационное обучение, интерактивные методы, педагогические технологии, информационные технологии.

Kirish

Hozirgi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘qitish jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishni talab etmoqda. Ayniqsa, matematika fanini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Matematika fanining muhim bo‘limlaridan biri hisoblangan trigonometrik formulalar mavzusi o‘quvchilar uchun murakkab bo‘lishi mumkin. Chunki bu mavzu abstrakt tushunchalar va matematik bog‘lanishlarga asoslanadi. Trigonometrik formulalar nafaqat matematika fanida, balki fizika, astronomiya, geodeziya hamda muhandislik fanlarida ham keng qo‘llaniladi. Shu sababli ushbu mavzuni o‘qitishda samarali pedagogik metodlardan foydalanish zarur. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularning dars jarayonidagi faolligini oshirish hamda bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash muhim vazifalardan biridir.

Innovatsion ta’lim texnologiyalari o‘quv jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bunday metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, dars jarayonidagi faolligini oshiradi va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Birinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foy-dalanish trigonometrik formulalarni tushuntirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy kompyuter dasturlari yordamida trigonometrik funksiyalarning grafiklarini vizual tarzda namoyish etish mumkin. Masalan, GeoGebra yoki Desmos kabi dasturlar yordamida

trigonometrik funksiyalar grafiklari interaktiv tarzda ko‘rsatiladi. Bu esa o‘quvchilarga formulalarning mazmunini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ikkinchidan, muammoli ta’lim metodidan foydalanish trigonometrik formulalarni o‘rganishda samarali hisoblanadi. Muammoli ta’lim jarayonida o‘quvchilarga muayyan masalalar beriladi va ular ushbu muammolarni mustaqil ravishda hal qilishga harakat qiladilar. Masalan, trigonometrik formulalar yordamida masofani yoki balandlikni aniqlash kabi amaliy masalalar berilishi mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

Trigonometrik formulalarni o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning dars jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlaydi. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “BBB jadvali” kabi metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Masalan, “Klaster” metodidan foydalanib trigonometrik formulalar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni ko‘rsatish mumkin. Bu usul orqali o‘quvchilar formulalar o‘rtasidagi mantiqiy aloqalarni tushunadilar hamda ularni tizimli ravishda o‘zlashtiradilar.

Ta’lim jarayonida o‘yin elementlaridan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. O‘yin texnologiyalari yordamida murakkab matematik tushunchalarni oson va qiziqarli tarzda tushuntirish mumkin. Bugungi kunda turli onlayn platformalar orqali interaktiv testlar tashkil etish imkoniyati mavjud. Jumladan, Kahoot! yoki Quizizz platformalari yordamida trigonometrik formulalar bo‘yicha testlar tashkil etish mumkin. Bu esa o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratadi hamda ularning bilim olish motivatsiyasini oshiradi.

Trigonometrik formulalarni tushuntirishda vizual vositalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Masalan, birlik aylana yordamida sinus va kosinus funksiyalarining qiymatlarini tushuntirish o‘quvchilarga formulalarning geometrik mazmunini anglash imkonini beradi. Grafiklar, diagrammalar va animatsiyalar yordamida trigonometrik formulalar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni ko‘rsatish mumkin. Bu esa o‘quvchilarga mavzuni yanada tushunarli va qiziqarli tarzda o‘rganish imkonini yaratadi.

Xulosa

Trigonometrik formulalarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv metodlar, muammoli ta’lim hamda o‘yin texnologiyalari o‘quvchilarning

matematikaga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularning bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Shu sababli matematika o‘qituvchilari dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanishlari zarur. Bu esa o‘quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirish va ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘.S. Alimov, R.M. Ismailov. **Algebra va analiz asoslari.** – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
2. N. Saidahmedov. **Yangi pedagogik texnologiyalar.** – Toshkent: Moliya nashriyoti.
3. M.V. Klarin. **Pedagogicheskie texnologii v uchebnom protsesse.** – Moskva.
4. John A. Van de Walle. **Elementary and Middle School Mathematics: Teaching Developmentally.** – Boston: Pearson Education.
5. B.P. Bespalko. **Slagaemye pedagogicheskoy texnologii.** – Moskva.

FIZIKANING MIKROELEKTRONIKADA O‘RNI

Babaxanov Oybek Xatamovich
DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL
Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi bosh o`qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ma’ruzada fizika fanining mikro-elektronika rivojlanishidagi o‘rni tahlil qilinadi. Yarimo‘tkazgichlar fizikasi, kvant mexanikasi va qattiq jism fizikasi asosida tranzistorlar, integral mikrosxemalar va protsessorlar ishlash prinsipi yoritiladi. Shuningdek, Moore qonuni va nanoo‘lchamli texnologiyalardagi fizik cheklovlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: mikroelektronika, yarimo‘tkazgichlar fizikasi, kvant mexanikasi, qattiq jism fizikasi, tranzistor, MOSFET, integral mikrosxema, Moore qonuni, nanoelektronika.

Annotation: This scientific report analyzes the role of physics in the development of microelectronics. It explains semiconductor physics, quantum mechanics, and solid-state physics underlying the operation of transistors, integrated circuits, and processors. The study also discusses Moore’s law and physical limitations in nanotechnology.

Keywords: microelectronics, semiconductor physics, quantum mechanics, solid-state physics, transistor, MOSFET, integrated circuit, Moore's law, nanoelectronics.

Аннотация: В данной научной работе анализируется роль физики в развитии микроэлектроники. Рассматриваются основы физики полупроводников, квантовой механики и физики твердого тела, лежащие в основе работы транзисторов, интегральных схем и процессоров. Также обсуждаются закон Мура и физические ограничения нанотехнологий.

Ключевые слова: микроэлектроника, физика полупроводников, квантовая механика, физика твердого тела, транзистор, MOSFET, интегральная схема, закон Мура, наноэлектроника.

Kirish

Mikroelektronika zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u mikro va nano o‘lchamdagi elektron komponentlar asosida ishlaydigan murakkab tizimlarni yaratish va rivojlantirish bilan shug‘ullanadi, bunda ushbu sohaning asosiy ilmiy poydevorini fizikaning bir nechta fundamental bo‘limlari tashkil etadi. Mikroelektronika rivojlanishi natijasida insoniyat axborotni qayta ishlash tezligini keskin oshirish imkoniga ega bo‘ldi. Bu esa sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Fizika qonunlari bu jarayonlarning har bir bosqichini boshqaradi. Shu sababli mikroelektronika fizikasiz rivojlana olmaydi.

Yarimo‘tkazgichlar fizikasi. Yarimo‘tkazgichlar elektr o‘tkazuvchanligi jihatidan o‘tkazgichlar va dielektriklar o‘rtasida joylashgan materiallar bo‘lib, ularning asosiy xususiyati elektronlar va kovaklar orqali tok tashilishidir. Yarimo‘tkazgichlarning xossalari tashqi ta’sirga juda sezgir bo‘lib, bu ularni elektronika uchun ideal materialga aylantiradi. Doping jarayoni orqali ularning elektr xususiyatlari maqsadli ravishda o‘zgartiriladi. Harorat oshishi o‘tkazuvchanlikni sezilarli darajada oshiradi. Bu hodisa klassik metallardan tubdan farq qiladi.

Tranzistor-mikroelektronikaning yuragi. Tranzistor zamonaviy mikroelektronikaning asosiy aktiv elementi bo‘lib, u elektr signallarini kuchaytirish, ya’ni kichik amplitudali analog signallarni katta amplitudali signalga aylantirish, raqamli signallarni esa kalit (switch) rejimida boshqarish orqali mantiqiy operatsiyalarni amalga oshirish hamda murakkab hisoblash tizimlari va raqamli sxemalarni yaratish imkonini beruvchi fundamental yarimo‘tkazgich qurilma hisoblanadi. Tranzistorlar zamonaviy chiplarning asosiy qurilish blokidir. Ularning millionlab nusxalari bitta mikrochipda joylashadi. Bu esa yuqori

hisoblash quvvatini ta’minlaydi. Tranzistorlar energiya samaradorligini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ular raqamli jamiyatning asosiy texnologik bazasini yaratgan.

Bipolyar tranzistor (bjt). Bipolyar tranzistor uch qatlamli yarimo‘tkazgich strukturadan iborat bo‘lib, u emitter, baza va kollektor qismlaridan tashkil topgan, uning ishlash prinsipi elektron va kovak tashuvchilarining birgalikdagi harakati orqali amalga oshadi. BJT analog signallarni yuqori aniqlikda kuchaytirish imkonini beradi. U past chastotali elektron tizimlarda juda samarali ishlaydi. BJT issiqlik ta’siriga sezgir bo‘lishi mumkin. Shu sababli u maxsus sovitish tizimlarini talab qiladi.

Mosfet tranzistor. mosfet tranzistor elektr maydon orqali boshqariladigan yarimo‘tkazgich qurilma bo‘lib, gate kuchlanishi yordamida kanal hosil qiladi yoki uni yopadi, shu sababli u zamonaviy raqamli elektronikaning asosiy elementi hisoblanadi. mosfet juda kichik energiya sarfiga ega. U yuqori tezlikda ishlash imkonini beradi. CMOS texnologiyasi mosfet asosida qurilgan. Zamonaviy protsessorlarning deyarli barchasi mosfetga asoslanadi. Bu texnologiya sun’iy intellekt rivojida ham muhim rol o‘ynaydi.

Integral mikrosxemalar va protsessorlar. Integral mikrosxemalar juda kichik kremniy kristall yuzasida millionlab tranzistorlar joylashtirilgan murakkab tizim bo‘lib, ular zamonaviy elektron qurilmalarning asosini tashkil etadi. Protsessorlar esa bu tizimlarning eng murakkab ko‘rinishi bo‘lib, axborotni qayta ishlash va boshqarish vazifalarini bajaradi. Protsessorlar tezligi gigagerts darajasida o‘lchanadi. Ular kesh xotira orqali tezkor ishlaydi. Protsessorlar sun’iy intellekt algoritmlarini bajarishda asosiy rol o‘ynaydi. Ularning rivojlanishi hisoblash texnologiyalarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Kvant mexanikasi va mikroelektronika. Kvant mexanikasi mikroelektronikaning nazariy poydevori bo‘lib, u elektronlarning to‘lqin va zarracha xususiyatlarini bir vaqtning o‘zida ifodalaydi. Nanoo‘lchamda klassik fizika qonunlari yetarli bo‘lmay qoladi. Kvant effektlar tranzistor ishlashini cheklaydi. Kvant tunnellash energiya yo‘qotishiga olib keladi. Kvant mexanikasi yangi texnologiyalar rivojlanishiga asos bo‘ladi.

XULOSA

Fizika mikroelektronikaning asosiy ilmiy poydevori bo‘lib, uning barcha yo‘nalishlari zamonaviy elektron qurilmalar ishlashini ta’minlaydi, tranzistor esa mikroelektronikaning yuragi sifatida butun raqamli texnologiyalar rivojlanishiga asos bo‘ladi, integral

mikrosxemalar va protsessorlar esa zamonaviy axborot jamiyatining asosini tashkil etadi, kvant effektlar esa kelajak texnologiyalarini shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi, shu sababli mikroelektronika rivoji fizika fanining doimiy yutuqlariga bevosita bog‘liq bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Зеегер К. Физика полупроводников. Москва: Мир, 1977.

2.Киттель Ч. Введение в физику твердого тела. Москва: Наука, 1980.

3. Karimov Sh. M. Elektronika va mikroprotsessor texnikasi. Toshkent, 2015.

4.Сапожников А. П. Основы микроэлектроники. Москва: Высшая школа, 1990.

5. Богданов В. В. Микроэлектроника и наноэлектроника. Москва: Физматлит, 2012

6. Xodjayev A. X. Yarimo‘tkazgichlar fizikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2005.

MATHEMATICS AS THE UNIVERSAL LANGUAGE OF PHYSICAL PHENOMENA

Yakubov Oybek

Teacher at the Military-Academic Lyceum named after Jaloliddin Manguberdi.

Rajapova Avazjon

Teacher at the Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan in Khorezm region.

Abstract. This article examines the fundamental connection between mathematics and physics, focusing on how mathematical structures serve as the primary language for describing physical laws. By analyzing the synergy between algebraic equations and physical observations, the study highlights how mathematical modeling provides predictive power in science. From classical mechanics to modern technological applications, the integration of these disciplines is shown to be essential for scientific progress. The article emphasizes that a unified approach to these subjects is crucial for the future development of exact and natural sciences.

Keywords: Mathematical physics, Physical laws, Modeling, Synergy, Applied mathematics, Scientific discovery, Educational integration.

The history of science demonstrates that mathematics and physics are inseparable. Physics seeks to understand the laws of nature, while mathematics provides the precise tools and language to express those laws. Since the time of Galileo, who famously stated that the "book of nature is written in the language of mathematics," this relationship has been the driving force behind every major scientific breakthrough. In the modern era, where technology is advancing at an unprecedented pace, the integration of these two fields has become even more critical. This article explores how mathematical concepts, ranging from simple linear functions to complex differential calculus, allow us to transform raw physical observations into reliable and predictable models of reality. By understanding this connection, we can better appreciate the structural harmony of our universe and the tools we use to navigate it.

The convergence of mathematics and physics is most clearly seen in the process of scientific modeling. When we observe a physical phenomenon, such as the motion of a falling object, the flow of electricity through a circuit, or the vibration of a string, mathematics allows us to describe these events with absolute precision. Without mathematics, we would only be able to describe what has already happened in a qualitative way; however, with it, we can calculate exactly what will happen in the future under specific conditions. This includes predicting the exact trajectory of a satellite orbiting the Earth, the structural load a bridge can sustain, or the potential energy output of a hydroelectric power plant. This predictive capability is the foundation of all modern engineering and technology, proving that mathematics is not just an abstract academic subject but a practical necessity for understanding and controlling the physical world.

Furthermore, the synergy between these disciplines plays a vital role in the development of modern innovation and digital technology. In the current age of rapid scientific advancement, fields like robotics, telecommunications, and renewable energy rely heavily on the sophisticated integration of mathematical algorithms and physical principles. For instance, the development of Global Positioning System (GPS) technology requires an understanding of both the physics of general relativity and the complex mathematics of geometry and precise timing. Moreover, as we move towards more complex systems, such as quantum computing or nanotechnology, the role of mathematics in simplifying physical complexity becomes even more apparent. By identifying deep mathematical patterns in nature, scientists can solve large-scale problems more efficiently. For example, the study of fluid

dynamics uses partial differential equations to model everything from blood flow in the human body to the aerodynamic properties of an aircraft wing. This demonstrates that the boundaries between "pure" math and "applied" physics are becoming increasingly blurred.

The educational aspect of this integration is also of paramount importance, especially in specialized academic lyceums. Teaching mathematics and physics as a unified curriculum helps students develop critical thinking and analytical skills. When a student learns the concept of a derivative in mathematics and immediately applies it to find the instantaneous velocity of an object in physics, the abstract becomes concrete. This interdisciplinary approach fosters a deeper level of engagement and prepares future specialists for the demands of the modern workforce. The seamless flow from a mathematical theorem to a physical application ensures that progress in one field inevitably leads to a discovery in the other. This unified path is essential for the "modern directions of development in exact and natural sciences" as emphasized in contemporary scientific forums. By viewing nature through a mathematical lens, we gain a more profound understanding of the laws that govern everything from the smallest subatomic particles to the vastest galaxies in the cosmos. The integration of these sciences is the engine of practical innovation, turning abstract ideas into tangible technologies that continue to improve human life and safety.

In conclusion, the partnership between mathematics and physics is the cornerstone of our understanding of the universe. As discussed, mathematical structures are not merely tools for calculation but are the very framework that makes physical laws accessible, measurable, and applicable. The transition from theoretical equations to real-world technology underscores the importance of maintaining an integrated approach to research and education in academic institutions. To ensure continued progress in the exact sciences, it is vital to bridge the gap between mathematical abstraction and physical observation. This synergy will lead to a more comprehensive, innovative, and sustainable future for global science, providing the next generation of scientists and educators with the tools necessary to unlock the mysteries of the physical world.

References:

1. Newton, I. (1687). Philosophiæ Naturalis Principia Mathematica.
2. Stewart, I. (2012). In Pursuit of the Unknown: 17 Equations That Changed the World. Basic Books.
3. Hewitt, P. G. (2014). Conceptual Physics. Pearson Education.

4. Feynman, R. P. (1965). The Character of Physical Law. MIT Press.
5. Strogatz, S. H. (2019). Infinite Powers: How Calculus Reveals the Secrets of the Universe. Ebury Publishing.
6. Arfken, G. B., & Weber, H. J. (2005). Mathematical Methods for Physicists. Elsevier Academic Press.

РОЛЬ АБСТРАКТНЫХ МАТЕМАТИЧЕСКИХ СТРУКТУР В РАЗВИТИИ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ

Якубов Ойбек
преподаватель Военно-академического лицея имени Жалолиддина Мангуберди.
Ражапова Авазжон
преподаватель Академического лицея Министерства внутренних дел Республики Узбекистан в Хорезмской области.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение абстрактных математических структур как фундамента современной научной мысли. Автор анализирует переход от классической арифметики к высшей алгебре и топологии, подчеркивая универсальность математического языка. Особое внимание уделяется тому, как теоретические разделы математики, изначально считавшиеся чисто абстрактными, становятся основой для технологических прорывов в цифровую эпоху. Исследование подтверждает, что развитие точных наук невозможно без глубокой интеграции математического моделирования в образовательный и исследовательский процессы.

Ключевые слова: Теоретическая математика, абстрактные структуры, алгоритмизация, математическое моделирование, логический анализ, цифровая трансформация

Математика на протяжении многих веков считалась «царицей наук», обеспечивая прочный фундамент для понимания закономерностей окружающего мира. Однако современный этап развития науки требует переосмысления математики не просто как набора инструментов для вычислений, а как самостоятельной философской и логической системы. В эпоху стремительной цифровизации математические абстракции становятся основой для создания алгоритмов, систем искусственного интеллекта и криптографических протоколов. Актуальность данной темы обусловлена необходимостью глубокого изучения внутренней логики математических структур, которые позволяют описывать сложные системы с высокой степенью точности. Данная статья

направлена на анализ того, как классические математические теории трансформируются в современные инструменты научного познания и какую роль они играют в подготовке кадров в специализированных академических лицеях.

Современная математика представляет собой сложную иерархию структур, где каждое новое понятие строится на прочном логическом фундаменте предыдущих теорий. Основой этого здания является теория множеств и математическая логика, которые позволяют ученым формулировать гипотезы и доказывать теоремы с абсолютной строгостью. В отличие от эмпирических наук, где истинность утверждения проверяется экспериментом, в математике критерием истины является внутренняя непротиворечивость и логическая последовательность. Это уникальное свойство делает математику универсальным языком, способным описывать объекты, которые невозможно увидеть или потрогать в физическом мире. Например, многомерные пространства или неевклидовы геометрии, возникшие как чисто теоретические концепции, сегодня находят применение в архитектуре, космологии и компьютерном зрении. Понимание этих абстракций требует от исследователя высокого уровня критического мышления и способности видеть общие закономерности в самых разных процессах, что является ключевым навыком для современного специалиста в области точных наук.

Развитие вычислительной техники в XXI веке дало новый импульс прикладной математике, превратив теоретические уравнения в мощные алгоритмы обработки данных. Дискретная математика и теория графов, которые ранее изучались лишь узким кругом специалистов, сегодня лежат в основе функционирования социальных сетей, поисковых систем и логистических цепочек. Каждое действие в цифровом пространстве — от отправки сообщения до совершения банковского перевода — управляется математическими законами. Более того, современная алгебраическая топология и дифференциальные уравнения позволяют моделировать биологические процессы и экономические циклы с невероятной точностью. Это свидетельствует о том, что математика является не застывшей дисциплиной, а живым, постоянно эволюционирующим организмом. Интеграция этих знаний в учебный процесс лицеев позволяет формировать у учащихся целостную картину мира, где за каждым технологическим достижением стоит глубокая математическая идея. Переход от простых вычислений к анализу сложных функций

и структур готовит будущих ученых к решению задач, которые сегодня кажутся невозможными, но завтра станут частью нашей повседневной реальности.

Важным аспектом современного математического образования является развитие алгоритмического мышления, которое тесно связано с теорией чисел и комбинаторикой. В условиях глобальной информатизации защита данных становится приоритетной задачей, и именно математические методы криптографии обеспечивают безопасность государственной и частной информации. Изучение простых чисел, эллиптических кривых и теории вероятностей перестает быть чисто академическим занятием; оно превращается в стратегический ресурс национальной безопасности и экономического процветания. Синергия между теоретической чистотой математики и её практической применимостью создает уникальное интеллектуальное поле, где рождаются инновации. Таким образом, развитие точных и естественных наук в современном Узбекистане напрямую зависит от качества математической подготовки молодежи. Преподавание математики в специализированных лицеях как системы логического вывода и моделирования реальности позволяет воспитать поколение интеллектуалов, способных не только использовать готовые решения, но и создавать принципиально новые математические модели для нужд современной цивилизации.

Подводя итог, можно утверждать, что математика остается главным вектором развития точных наук, обеспечивая единство теоретического анализа и практического применения. Абстрактные структуры, изучаемые математиками, находят своё отражение в самых современных технологиях, подтверждая универсальность и вечность математических истин. Для дальнейшего прогресса в науке необходимо продолжать развивать междисциплинарный подход, где математическая строгость сочетается с творческим поиском новых путей решения глобальных проблем. Внедрение передовых математических концепций в образовательную практику лицеев является залогом успешного будущего нашей науки, позволяя молодым талантам осваивать сложнейшие направления современной мысли и вносить свой вклад в мировое научное сообщество.

Список использованных источников

1. Саримсоқов, Т. А. (1994). Функционал анализ курси. Тошкент: Ўқитувчи. (O'zbekistonda matematik analiz maktabi asoschisi).

2. Аюпов, Ш. А. (2015). Операторлар алгебралари назарияси. Тошкент: Фан. (O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, zamonaviy matematika bo'yicha yirik olim).
3. Алоев, Р. Д., & Худойберганов, Г. (2010). Математик моделлаштириш асослари. Тошкент: Университет. (Amaliy matematika va modellashtirish bo'yicha muhim qo'llanma).
4. Колмогоров, А. Н. (2005). Математика — наука и профессия. Москва: Наука.
5. Стюарт, И. (2015). Величайшие математические задачи. Москва: Альпина нон-фикшн.
6. Курант, Р., Роббинс, Г. (2001). Что такое математика? Москва: МЦНМО.

JALOLIDDIN MANGUBERDI HARBIY MAHORATINI O‘RGANISHDA FIZIKA QONUNIYATLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Begimov Maxmud Maksudovich
Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi fizika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdining jangovar taktikalarini mexanika va dinamika qonuniyatlari asosida tahlil qilish masalalari ko‘rib chiqiladi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda aniq fanlarning, xususan fizikaning amaliy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Kinematika, dinamika, impuls, traektoriya, harbiy texnika, Jaloliddin Manguberdi, vatanparvarlik.

Abstract: This article examines the analysis of the great commander Jaloliddin Manguberdi’s combat tactics based on the laws of mechanics and dynamics. It highlights the practical importance of exact sciences, particularly physics, in educating youth in the spirit of military patriotism.

Keywords: Mechanics and dynamics, Combat tactics, Military patriotism, Exact sciences.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы анализа боевой тактики великого полководца Джалолиддина Мангуберди на основе законов механики и динамики. Освещена практическая значимость точных наук, в частности физики, в воспитании молодежи в духе военно-патриотизма.

Ключевые слова: Механика и динамика, Боевая тактика, Военно-патриотическое воспитание, Точные науки

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, ayniqsa, aniq fanlarni tariximiz va milliy qahramonlarimiz jasorati bilan bog‘lab o‘rgatish yoshlarda ham ilmiy, ham vatanparvarlik tushunchalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism

Jaloliddin Manguberdining jang maydonlaridagi mahoratini fizika nuqtai nazaridan bir necha yo‘nalishda tahlil qilish mumkin:

1. Kamondan otish mahorati va ballistika qonuniyatlari

Jaloliddin Manguberdi suvoriylarining asosiy quroli bo‘lgan kamonning ishlash prinsipi **potensial energiyaning kinetik energiyaga aylanishi** qonuniga asoslanadi. Kamon ipi tortilganda elastik deformatsiya natijasida to‘plangan energiya o‘q uzilganda unga katta boshlang‘ich tezlik (v_0) beradi.

- **Gorizontal va burchak ostidagi harakat:** O‘qning nishonga aniq tegishi uchun askar havo qarshiligini va og‘irlik kuchining ta’sirini hisobga olib, ma’lum bir burchak (α) ostida otishi kerak bo‘lgan. Buni kinematikaning traektoriya tenglamasi orqali tushuntirish mumkin:

$$y = x \cdot tg\alpha - \frac{g \cdot x^2}{2v_0^2 \cos^2 x}$$

- **Amaliy ahamiyati:** Manguberdi suvoriylarining kamonidan otilgan o‘qning parvoz traektoriya(yo'li)si, havo qarshiligi va boshlang‘ich tezlikning nishonga ta’siri — bularning barchasi klassik mexanikaning asosiy qonunlariga bo‘ysunadi. Yoshlarga burchak ostida otilgan jism harakatini o‘rgatishda milliy kamonchilik san’atidan misollar keltirish darsning samaradorligini oshiradi.Ushbu jarayonni o‘rganish yoshlarda merganlik va hisob-kitob ko‘nikmalarini shakllantiradi.

2. Suvoriylar hujumining dinamik zarba kuchi (Impuls)

Otliq askarlarning hujum paytidagi impulsi ($P = mv$) va kinetik energiyasi dushman safini yorib o‘tishda hal qiluvchi rol o‘ynagan. Manguberdining "shiddatli hujum" taktikasi jismning massasi va tezlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni (Nyutonning 2-qonuni) amalda ko‘rsatib beradi

- **Zarba kuchi:** Otliq askarning massasi (m) va uning yuqori tezligi (v) birlashib, ulkan harakat miqdorini (impulsni) hosil qilgan: $P = mv$. Hujum vaqtidagi kuchli zarba kuchi esa impulsning o‘zgarish vaqtiga bog‘liq:

$$F = \frac{\Delta P}{\Delta t}$$

- **Strategik tahlil:** Tezlik qanchalik yuqori va to‘qnashuv vaqti qanchalik qisqa bo‘lsa, dushmanga yetkaziladigan zarba kuchi shunchalik halokatli bo‘lgan. Bu fizik tahlil harbiy texnikada tezkorlikning muhimligini isbotlaydi.

3. Sind daryosidan sakrash: Gidrodinamika va muvozanat

1221-yilda Jaloliddin Manguberdining Sind daryosiga balandlikdan sakrashi fizik nuqtai nazardan murakkab jarayondir.

- **Erkin tushish va impuls:** Baland qirg‘oqdan sakrashda jism potensial energiyasini kinetik energiyaga aylantiradi. Suv yuzasiga urilishda "suv bolg‘asi" (gidravlik zarba) effektini kamaytirish uchun sakrash burchagi va tananing holati (aerodinamikasi) muhim rol o‘ynagan.
- **Muvozanat markazi:** Ot va chavandoz suvga tushganda o‘z muvozanat markazini saqlab qolishi Arximed kuchi va og‘irlik kuchi o‘rtasidagi nisbatga bog‘liq. Bu hodisani o‘rganish harbiy xizmatchilarga ekstremal sharoitlarda o‘z jismini boshqarishni o‘rgatadi.

4. Harbiy muhandislik va rido (to‘siqlar) mexanikasi

Manguberdi qal’a mudofaasi va qamallar paytida turli muhandislik inshootlaridan foydalangan. Bu erda **richag (dastak) va bloklar mexanikasi** ish bergan.

- **Momentlar qoidasi:** Tosh otuvchi manjaniklar (qamal qurollari) momentlar qoidasi ($M = F \cdot l$) asosida ishlagan. Yelkaning (dastakning) uzunligi qanchalik katta bo‘lsa, og‘ir toshlarni shunchalik uzoq masofaga otish imkoniyati bo‘lgan.
- **Innovatsion yondashuv:** Ushbu bo‘limda yoshlarga qadimgi harbiy texnologiyalarning zamonaviy muhandislik va robototexnika bilan bog‘liqligini tushuntirish, ularda ixtirochilik qobiliyatini rivojlantiradi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, Jaloliddin Manguberdining harbiy merosini faqat tarixiy voqealar majmuasi sifatida emas, balki **aniq fanlar, xususan, fizika qonuniyatlariga asoslangan mukammal strategiya** sifatida o‘rganish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, buyuk sarkardaning g‘alabalari zamirida jismoniy kuch bilan birga, harakat dinamikasi, ballistika va mexanika qonunlarini intuitiv va amaliy darajada mukammal qo‘llay bilish qobiliyati yotadi.

Ushbu ilmiy yondashuv quyidagi muhim xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. **Fanlararo bog'liqlikning kuchi:** Fizika fanini o‘qitishda milliy qahramonlarimizning jangovar mahoratidan misollar keltirish (masalan, kamon o‘qining parvozini ballistik tahlil qilish yoki otliq qo'shin impulsini hisoblash) nazariy bilimlarning hayotiy va tarixiy ildizlarini ko‘rsatib beradi. Bu esa o‘quvchi-yoshlarda fanga nisbatan "quruq nazariya" emas, balki **jonli va amaliy qiziqish** uyg‘otadi.

2. **Zamonaviy harbiy kadrlarni tayyorlash:** Harbiy-akademik litseylarda fizika qonunlarini harbiy taktikalar bilan bog‘lab o‘rgatish bo‘lajak ofitserlarning **tahliliy va muhandislik tafakkurini** rivojlantiradi. Bu esa kelajakda yuqori texnologiyali qurol-yarog‘lar va uchuvchisiz uchish apparatlarini (Dronlarni) boshqarishda fundamental poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

3. **Vatanparvarlikning yangi bosqichi:** Yosh avlod o‘z ajdodlarining nafaqat jasur, balki o‘z davrining yuksak bilimli, muhandislik va strategik tafakkurga ega shaxslar bo‘lganini anglab yetadi. Bu esa ularda milliy o‘zlikni anglash va buyuk ajdodlarga munosib voris bo‘lish mas’uliyatini kuchaytiradi.

Tavsiyalar:

- Fizika darsliklariga harbiy-tarixiy masalalar to‘plamini kiritish;
- Jaloliddin Manguberdining jang usullarini fizik modellashtirish bo‘yicha to‘garaklar tashkil etish;
- "Tarixiy g'alabalar - aniq hisob-kitob mahsuli" mavzusida ko'rgazmali laboratoriya ishlarini yo'lga qo'yish.

Xulosa qilib aytganda, aniq fanlarning yutuqlarini milliy vatanparvarlik ruhi bilan uyg‘unlashtirish – Yangi O‘zbekiston armiyasi uchun bilimli, intellektual salohiyatli va mard posbonlarni tarbiyalashning eng samarali yo‘lidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. **Mirziyoyev Sh.M.** "Yangi O‘zbekiston strategiyasi". – Toshkent: "O‘zbekiston", 2021. (Maqolaning vatanparvarlik va ta'lim islohotlari qismi uchun asos).
2. **Shihobuddin Muhammad an-Nasaviy.** "Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti". (Rus tilidan Z.M. Buniyodov tarjimasi) – Toshkent: "O‘zbekiston", 2006. (Tarixiy faktlar va jang tafsilotlari uchun).
3. **Sultonov H.** "Jaloliddin Manguberdi". Tarixiy-publitsistik ocherk. – Toshkent, 1999.
4. **Ismoilov A., Asqarov M.** "Fizika kursi: Mexanika va molekulyar fizika". Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: "O‘qituvchi", 2018. (Ballistika, impuls va energiya qonuniyatlari uchun).

5. **Gulyamov S.** "Harbiy ballistika va uning fizik asoslari". Metodik qo‘llanma. – Toshkent: Mudofaa vazirligi nashriyoti, 2015.
6. **O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi.** "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi". – Toshkent, 2018.
7. **Internet manbalari:** "ZiyoNET" axborot-ta’lim tarmog‘i (www.ziyonet.uz) va O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi elektron bazasi.

ILMIY BILISH JARAYONIDA TANQIDIY FIKRLASH VA IJODKORLIKNING AHAMIYATI

Otayeva Salamat Sabirovna
RANCH Texnologiya universiteti pedagogika va aniq fanlar kafedrasi
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu tezisda tanqidiy fikrlash shaxsning intellektual rivojlanishini ta’minlab, uning mustaqil va asosli fikrlash qobiliyatini shakllantirishi hamda jamiyat taraqqiyotida innovatsion g‘oyalar, ilm-fan rivoji va ijtimoiy ong yuksalishiga xizmat qilishi yoritiladi. Shuningdek, tanqidiy fikrlash va ijodning o‘zaro bog‘liqligi o‘rganilib, tanqidiy fikrlash yangi g‘oyalarni shakllantirishga yordam bersa, ijod ushbu g‘oyalarni innovatsion yechimlarga aylantirishi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, ilmiy faoliyat, shaxs taraqqiyoti, konstruktiv fikrlash, innovatsiya, ilm-fan, falsafiy tafakkur, mustaqil fikrlash, ta’lim jarayoni, stereotip

Abstract: This thesis highlights that critical thinking ensures the intellectual development of an individual, forming the ability to think independently and in a well-founded manner, and contributes to societal progress through innovative ideas, the development of science, and the growth of social consciousness. It also examines the interrelation between critical thinking and creativity, showing that critical thinking helps generate new ideas, while creativity transforms these ideas into innovative solutions.

Keywords: Critical thinking, creativity, scientific activity, personal development, constructive thinking, innovation, science, philosophical thinking, independent thinking, educational process, stereotype.

Аннотация: В данной тезисной работе рассматривается, что критическое мышление обеспечивает интеллектуальное развитие личности, формируя способность к самостоятельному и обоснованному мышлению, а также способствует развитию общества через внедрение инновационных идей, развитие науки и

повышение уровня общественного сознания. Также изучается взаимосвязь критического мышления и творчества: критическое мышление способствует формированию новых идей, тогда как творчество преобразует эти идеи в инновационные решения.

Ключевые слова: Критическое мышление, креативность, научная деятельность, развитие личности, конструктивное мышление, инновации, наука, философское мышление, самостоятельное мышление, образовательный процесс, стереотип.

Hozirgi kundagi globallashuv sharoitida jamiyatning murakkablashuvi, axborot oqimining ortishi va noaniqlik kuchayishi insonning qaror qabul qilish jarayonini tobora qiyinlashtirib bormoqda. Bunday vaziyatda oddiy bilimlar yetarli emasligi, balki axborotni tahlil qilish, uni turli kontekstlarda baholash, dalillash va asoslangan xulosalar chiqarish kabi ko‘nikmalar zarurligi ko‘zga tashlanadi. Shu nuqtayi nazardan, tanqidiy fikrlash ijtimoiy va kasbiy faoliyatda muhim universal kompetensiya sifatida ko‘rib chiqiladi.

Tanqidiy fikrlash — bu axborotni passiv qabul qilish emas, balki uni faol tahlil qilish, savollar qo‘yish, muqobil yondashuvlarni solishtirish hamda mustaqil va asosli xulosalarga kelish jarayonidir. Bu yondashuv bevosita ilmiy tafakkurga xos bo‘lib, bilimni chuqur anglash va asoslash imkonini beradi. Talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirishda tanqidiy fikrlashning ahamiyati nihoyatda muhimdir. Chunki ilmiy tadqiqot jarayoni ham aynan muammo qo‘yish, gipoteza ilgari surish, dalillarni tahlil qilish va natijalarni asoslashga tayanadi.

Fan faqat bilim ishlab chiqarishga qaratilgan tizim yoki tadqiqot metodlari, tamoyillari hamda qoidalar majmuasi bilangina cheklanmaydi. U, ayni paytda, olimlar hamjamiyatini o‘z ichiga olgan murakkab ijtimoiy institut bo‘lib, ijtimoiy voqelikni shakllantiruvchi va qayta ishlab chiqaruvchi tizim sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Fan — bu ijtimoiy amaliyot bo‘lib, u insonning bilish faoliyatini kognitiv, qadriyatga oid, xulq-atvoriy va emotsional jihatlar bilan uzviy bog‘langan yaxlit tizim sifatida qamrab oladi. U shaxsning idrok etishi, fikrlashi, faoliyat yuritishi va hodisalarni baholashiga xos bo‘lgan muayyan intellektual va madaniy sxemalarni shakllantiradi hamda belgilaydi.

T. Yu. Lifanovaning tadqiqotida “Tanqidiy fikrlash — bu aqliy jihatdan tashkil etilgan jarayon bo‘lib, u kuzatish, tajriba, refleksiya (o‘z-o‘zini tahlil qilish), mulohaza yuritish yoki muloqot orqali olingan yoki yaratilgan axborotni anglash, uni qo‘llash, tahlil qilish,

umumlashtirish yoki baholashga yo‘naltirilgan faoliyatdir.” deb ta’rif berilgan. [2, 9-b]

Tanqidiy fikrlash — bu g‘oyalar va axborot bilan o‘zaro munosabatning tabiiy usuli hisoblanadi. U faol jarayon bo‘lib, o‘quvchiga axborotni qat’iy nazorat qilish imkonini beradi. Boshqacha aytganda, bu axborotni shubha ostiga olish, uni tahlil qilish, integratsiya qilish, qayta tuzish, moslashtirish yoki zarur bo‘lsa inkor etish imkoniyatidir. Bunday talqinda tanqidiy fikrlash konstruktiv va ijodiy fikrlash bilan uzviy bog‘liqdir. Shuning uchun tanqidiy fikrlashni faqat boshqa odamlarning mulohazalaridagi kamchiliklarni aniqlashga yo‘naltirilgan fikrlash sifatida talqin qilish bir tomonlama yondashuv hisoblanadi.

Ijodiy fikrlash — yangi bilim va g‘oyalarni yaratishga yo‘naltirilgan murakkab kognitiv jarayon bo‘lib, u muammolarga noodatiy yondashuv topish, original yechimlar ishlab chiqish va mavjud bilimlarni yangicha tarzda qayta ishlash qobiliyatini ifodalaydi. Bu jarayonning g‘oya yaratish bosqichida erkin, cheklanmagan fikrlash muhim bo‘lib, ichki stereotiplar hamda tashqi tanqidiy bosimlar imkon qadar cheklanadi.

Biroq ijodiy jarayon faqat g‘oyalarni yaratish bilan cheklanmaydi. Keyingi muhim bosqich — yaratilgan g‘oyalarni tahlil qilish, saralash va baholash bosqichidir. Bu bosqichda tanqidiy fikrlash elementlari faol ishga tushadi va g‘oyalar mantiqiylik, amaliylik, yangilik darajasi hamda muammoni hal etish samaradorligi nuqtayi nazaridan baholanadi. Ushbu jarayon shaxsdan yuqori darajadagi refleksiya, intellektual intizom, obyektiv mezonlarga tayanish hamda **akademik halollik tamoyillariga rioya etish**ni talab qiladi. Shunday qilib, ijodiy fikrlash jarayoni ikki asosiy fazaning — erkin g‘oya yaratish va tanqidiy baholashning uyg‘unligi asosida amalga oshadi. Bu esa ijodiy faoliyatning samaradorligini oshiradi va ilmiy hamda amaliy muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

G.R Akromovaning maqolasida “Ijod – har qanday shaxsga xos bo‘lgan xususiyat bo‘lib, uning tuzilishining ajralmas tarkibiy qismidir. Ijodiy tafakkurning natijasi esa u yoki bu vazifani hal etishda yangi narsani kashf etish yoki mavjud yechimni takomillashtirish hisoblanadi - deb keltirilgan. [4, 10-c] Demak, ijod har bir shaxsga xos tabiiy xususiyat bo‘lib, u ijodiy tafakkur orqali yangi g‘oyalar yaratish yoki mavjud yechimlarni takomillashtirishda namoyon bo‘ladi.

Falsafay qarashlarga asosan har bir inson hayotida ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanadi, ayniqsa u o‘z ishini faqat mexanik ravishda

bajarmasdan, unga o‘zidan yangilik qo‘shishga, uni takomillashtirishga intilganda. Faoliyatning maqsadi inson ruhining tub ehtiyojlari va ichki motivlaridan kelib chiqsa, u ijodiy jarayonga aylanadi. Inson o‘z ishini mehr, did va ilhom bilan bajarsa, u oddiy ijrochidan ustaga, ya’ni ijodkorga aylanadi.

Ijodning asosiy shart-sharoitlari sifatida yuqori darajadagi sezgirlik, yangi va kutilmagan g‘oyalardan ilhomlana olish qobiliyati hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmasi ko‘rsatiladi. Falsafiy yondashuvlarda ijod odatda ochiq tizim sifatida talqin qilinadi, ya’ni u yangi g‘oyalar, muqobil yechimlar va turli imkoniyatlarni erkin qabul qilishga qodir bo‘lgan jarayondir. Shu bois ijodiy tafakkur insonning borliqni yangicha idrok etishi va uni o‘zgartirishga intilishi bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi.

Ijodning tarkibiy qismlari — bu voqelikni o‘zgartirishga, avvalgi tajribani qayta ishlash va yangilashga olib keladigan original (yangi) harakatlardir. Ijodkorlikka xos bo‘lmagan elementlar esa reproduktiv va rutin faoliyatga bo‘linadi.

Reproduktiv faoliyat — bu takrorlanuvchi, barqaror harakatlar bo‘lib, ular mavjud tajribani saqlash va qayta tiklashga xizmat qiladi. Rutin faoliyat esa tafakkurdagi stereotiplar va qoliplar, ya’ni fikrlashning formal va odatiy shakllarini mustahkamlovchi harakatlar majmuasidir.

Ijodning reproduktiv elementlari tarkibida quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi:

a) ijodiy natijaga erishish uchun zarur bo‘lgan, ularsiz jarayonni amalga oshirib bo‘lmaydigan harakatlar (masalan, ilmiy tadqiqotlar uchun material to‘plash);

b) stereotip va algoritmik xarakterga ega bo‘lgan operatsion tuzilmalar bo‘lib, ular texnik vositalarga, jumladan kompyuterlarga ham topshirilishi mumkin bo‘lgan jarayonlardir.

Ijod jarayonida produktiv (yaratuvchi) va reproduktiv (takrorlovchi) elementlar o‘zaro bir-biriga o‘tib turadi. Shu sababli, ijodga xos bo‘lmagan komponentlar ijoddan ajralgan holda emas, balki u bilan uzviy bog‘liq tarzda mavjud bo‘ladi.

Ijodiy jarayon va uning natijasini baholash mezonlari quyidagilardan iborat:

1. madaniyat nuqtayi nazaridan prinsipial yangilik (yangi bo‘lishi),
2. insoniyat uchun foyda sifatida baholanadigan ijtimoiy ahamiyat,
3. bajarilishning mukammalligi.

Birinchi mezon ijodning ontologiyasini ifodalaydi (ijodiy mahsulotning shu madaniyat doirasidagi bir xil turdagi narsalarga

munosabati), ikkinchisi – ijodning aksiologiyasini (yaratilgan narsaning ijtimoiy qadriyatlar tizimidagi o‘rni), uchinchisi esa – prakseologik va estetik jihatlarni (narsaning mukammallik darajasi va uni bajarish mahorati) ifodalaydi. Ijod mezonlari nisbiy xarakterga ega bo‘lib, aniq tarixiy vaziyatga bog‘liqdir. Agar ijod mezoni sifatida faqat yangilik qabul qilinib, unga axloqiy va estetik baho berilmasa, insoniyatga zarar yetkazgan “jinoyatchi daholar”ni ham oqlash mumkin bo‘ladi.

“Kreativlik yo‘l xaritasi”ga ko‘ra pedagogik jarayon ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini namoyon etish, ta’lim jarayonini qiziqish bilan o‘zlashtirishga rag‘batlantiruvchi strategiyalardan samarali foydalanish, innovatsion yondashuv asosida pedagogik muammolarning kreativ yechimini topish hamda kutiladigan natijaga yo‘naltirilgan yaxlit faoliyat sifatida amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda bajariladigan harakatlar pedagoglarning ijodkorligini ifodalovchi asosiy belgilar sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik zamonaviy ilmiy bilish jarayonining o‘zaro bog‘liq kognitiv mexanizmlari bo‘lib, tanqidiy fikrlash axborotni tahlil qilish, mantiqiy asoslash va ishonchlilikni baholashni ta’minlasa, ijod esa yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, muqobil yechimlarni yaratish va muammolarga innovatsion yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi ushbu ikki jarayonning integratsiyasi shaxsning intellektual rivojlanishini kuchaytirib ilm-fan taraqqiyotida muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Meliyev X., Jamoldinova O., Risqulova K. Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati: o‘quv qo‘llanma /– Тошкент: Zarvaraq nashriyoti, 2021 – 288 б.

2. Лифанова Т.Ю. Критическое мышление / Учебное пособие – Алматы: Қазақ университеті, 2015. – 178 с.

3. Осаченко, Ю.С., Суханова, С.Ю., Эннс, И.А. “Критическое мышление как основа научно-исследовательской культуры” // Сборник тезисов Международной конференции по передовым технологиям обучения EdCrunch-Томск. Tomsk: Национальный исследовательский Томский государственный университет, 2020.

4. Акрамова Г. Р. Формирование критического и творческого мышления учащихся как условия продуктивной познавательной деятельности. **Статья.** Журнал Евразийский Союз Ученых (ЕСУ) 10 с

KASR TARTIBLI HOSILALARNI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI INTEGRATIV YONDASHUVNING SAMARADORLIGI

Sobirboyeva Gulrux Javlonbek qizi
Urganch davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Mazkur ishda kasr tartibli hosilalarni o‘qitishda sun’iy intellekt vositalariga asoslangan integrativ yondashuvning samaradorligi tahlil qilinadi. Murakkab matematik tushunchalarni tushuntirishda zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan adaptiv o‘quv tizimlari va interaktiv platformalardan foydalanishning afzalliklari yoritiladi. Shuningdek, mazkur yondashuvning ta’lim sifatiga ta’siri amaliy kuzatishlar asosida baholanadi.

Kalit so‘zlar: kasr tartibli hosila, sun’iy intellekt, integrativ yondashuv, matematika ta’limi, adaptiv o‘qitish, raqamli texnologiyalar.

Аннотация. В данной работе анализируется эффективность интегративного подхода, основанного на средствах искусственного интеллекта, при обучении дробным производным. Освещаются преимущества использования современных цифровых технологий, в частности адаптивных обучающих систем и интерактивных платформ, для объяснения сложных математических понятий. Также оценивается влияние данного подхода на качество образования на основе практических наблюдений.

Ключевые слова: дробная производная, искусственный интеллект, интегративный подход, математическое образование, адаптивное обучение, цифровые технологии.

Abstract. This work analyzes the effectiveness of an integrative approach based on artificial intelligence tools in teaching fractional derivatives. It highlights the advantages of using modern digital technologies, particularly adaptive learning systems and interactive platforms, for explaining complex mathematical concepts. The impact of this approach on the quality of education is also evaluated based on practical observations.

Keywords: fractional derivative, artificial intelligence, integrative approach, mathematics education, adaptive learning, digital technologies.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan raqamli transformatsiya o‘qitish jarayoniga yangi talablarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida matematika fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasr tartibli hosilalar mavzusi matematik analizning murakkab bo‘limlaridan biri hisoblanadi. Ushbu mavzuni o‘zlashtirish jarayonida talabalar ko‘pincha nazariy tushunchalarni amaliy jarayonlar bilan bog‘lashda qiyinchiliklarga duch keladi. Bu esa an’anaviy o‘qitish metodlarining har doim ham yetarli samara bermasligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, integrativ yondashuv asosida o‘qitish, ya’ni matematika bilimlarini boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lash, hamda sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali ta’lim jarayonini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Nazariy asoslar. Kasr tartibli hosilalar oddiy butun tartibli hosilalarning umumlashtirilgan ko‘rinishi bo‘lib, ular differensial va integral hisobning rivojlangan yo‘nalishlaridan biridir. Ular real jarayonlarni, xususan, diffuziya, tebranish va murakkab tizimlarning dinamikasini modellashtirishda qo‘llaniladi (Atangana & Baleanu, 2020).

Ilmiy adabiyotlarda kasr tartibli hosilalarning turli ta’riflari mavjud bo‘lib, ular orasida Riemann–Liouville va Caputo ta’riflari keng qo‘llaniladi. Ushbu tushunchalar matematik jihatdan murakkab bo‘lsa-da, ularni vizual va interaktiv vositalar yordamida tushuntirish mumkin.

Integrativ yondashuv esa bilimlarni alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishni nazarda tutadi. Bu yondashuv matematika, informatika va tabiiy fanlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt vositalarining o‘rni. Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini individuallashtirish va optimallashtirish imkonini beradi. Xususan, adaptiv o‘quv tizimlari talabalarning bilim darajasini aniqlab, ularga mos topshiriqlarni taqdim etadi.

Matematika fanini o‘qitishda quyidagi vositalar samarali hisoblanadi:

- ✓ GeoGebra – matematik modellarni vizual ko‘rsatish;
- ✓ Wolfram Alpha – murakkab hisob-kitoblarni bajarish va tahlil qilish;
- ✓ AI asosidagi platformalar – individual o‘qitish trayektoriyasini shakllantirish.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektdan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ularning bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga yordam beradi (Hwang & Tu, 2021).

Metodika va amaliy jihatlar. Mazkur tadqiqot doirasida kasr tartibli hosilalar mavzusini o‘qitishda an’anaviy va integrativ yondashuv asosidagi mashg‘ulotlar taqqoslandi.

Mashg‘ulotlar ikki bosqichda tashkil etildi:

- ✓ An’anaviy usul – nazariy tushuntirish va misollar yechish;
- ✓ Integrativ yondashuv – AI vositalari yordamida interaktiv mashg‘ulotlar.

Dars jarayonida talabalarga vizual modellar, grafiklar va real jarayonlarga oid misollar taqdim etildi. Shu orqali mavzuni tushunish darajasi kuzatildi.

Natijalar va muhokama. Kuzatishlar natijasida quyidagi holatlar aniqlandi:

- ✓ integrativ yondashuv qo‘llanilgan guruhda mavzuni tushunish darajasi yuqoriroq bo‘ldi;
- ✓ vizual vositalar murakkab formulalarni o‘zlashtirishni osonlashtirdi;
- ✓ talabalar mustaqil ishlashga ko‘proq qiziqish bildirdi.

Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar yordamida talabalar bilimini tezkor baholash va xatolarni aniqlash imkoniyati yaratildi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirdi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, kasr tartibli hosilalarni o‘qitishda sun’iy intellekt asosidagi integrativ yondashuv samarali natijalar beradi. Ushbu yondashuv murakkab matematik tushunchalarni tushunarli shaklda yetkazish, talabalarning faolligini oshirish va ularning bilim darajasini yaxshilash imkonini beradi.

Kelgusida ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish va yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atangana, A., & Baleanu, D. (2020). New fractional derivatives with nonlocal and non-singular kernel. Thermal Science.
2. Hwang, G. J., & Tu, Y. F. (2021). Roles and research trends of artificial intelligence in mathematics education. Computers & Education: Artificial Intelligence.
3. Holmes, W. et al. (2022). Artificial intelligence in education: A critical view. Learning, Media and Technology.
4. OECD (2021). Artificial Intelligence and the Future of Education.
5. Baker, R. S., & Smith, L. (2020). Educator perspectives on AI in education.
6. Zayernouri, M., & Karniadakis, G. E. (arXiv materiallari).
7. MDPI Mathematics Journal.

VILSON TEOREMASI VA UNING MURAKKAB SONLARNI ANIQLASHDAGI NAZARIY AHAMIYATI

Noraliyev Sanjarbek Nurislom o‘g‘li
DXX ChQ “Yosh chegarachilar” HAL

Annotatsiya: Maqolada sonlar nazariyasining muhim teoremasi bo‘lgan Vilson teoremasi tahlil qilinadi. Bu teorema butun sonning tub bo‘lishini aniqlashda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Maqolada teoremaning bayoni, isboti hamda unga asoslangan ba’zi xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Vilson teoremasi, tub sonlar, murakkab sonlar, faktorial, taqqoslama, sonlar nazariyasi.

Annotation: The article analyzes Wilson's theorem, an important result in number theory. This theorem serves as a theoretical basis for determining whether an integer is prime. The paper presents the statement of the theorem, its proof, and several conclusions derived from it.

Keywords: Wilson's theorem, prime numbers, composite numbers, factorial, congruence, number theory.

Аннотация: В статье рассматривается теорема Вильсона — одна из важных теорем теории чисел. Данная теорема служит теоретической основой для определения простоты целого числа. В работе приведены формулировка теоремы, её доказательство, а также некоторые выводы, основанные на ней.

Ключевые слова: теорема Вильсона, простые числа, составные числа, факториал, сравнение, теория чисел.

Kirish. Sonlar nazariyasida tub sonlar asosiy tushunchalardan biridir. Turli matematik formulalar va algoritmlar aynan tub sonlar ustida quriladi. Vilson teoremasi tub sonlarning faktoriallar bilan bog‘liq bo‘lgan xossalarini ochib beradi. Bu teorema 18-asrda Jon Vilson tomonida taklif etilgan va Jozef Lui Lagranj tomonidan isbot etilgan.

Vilson teoremasining bayoni:

1-teorema (Vilson teoremasi). Agar p tub son bo‘lsa, u holda

$$(p-1)!+1 \equiv 0(\mathrm{mod} p)$$

Bu taqqoslama agar p tub son bo‘lmasa bajarilmaydi. Haqiqatdan ham agarda $p = p_1 \cdot d, 1 < d < p$, bo‘lsa $(p-1)!$ soni d ga bo‘linadi, u holda , $(p-1)!+1$ soni d ga bo‘linmaydi, shuning uchun ham p ga bo‘linmaydi. Demak ushbu teskari teorema ham o‘rinli ekan.

Isbot. Agar $p > 2$ bo‘lsa, quyidagi taqqoslamani qaraymiz.

$$(x-1)(x-2)\cdot \ldots \cdot \big(x-(p-1)\big) - (x^{p-1}-1) \equiv 0(\mathrm{mod} p)$$

Bu taqqoslama darajasi $p-1$ dan kichik bo‘lib $p-1$ yechimga ega. Demak bu taqqoslamadagi barcha koeffitsientlar va ozod had p ga bo‘linadi.

Endi $m = p^{\alpha}$ holni, ya’ni

$$f(x) \equiv 0(\mathrm{mod} p^{\alpha}) \qquad (1)$$

Taqqoslamani qaraymiz, bu taqqoslama yechimi quyidagi taqqoslamani yechishga keladi:

$$f(x) \equiv 0(\mathrm{mod} p) \qquad (2)$$

Endi, (2) taqqoslama yechimi orqali (1) taqqoslama yechimini quramiz. Aytaylik, (2) taqqoslamaning umumiy yechimi $x \equiv x_1(\mathrm{mod} p)$ bo‘lsin, ya’ni $x = x_1 + pt_1$ ko‘rinishdagi sonlar yechim bo‘lsin.

$f(x)$ ko‘phadni x_1 nuqta atrofida

$$f(x) = f(x_1) + f'(x_1)(x - x_1) + f''(x_1)\frac{f''(x_1)}{2!}(x - x_1)^2 + \cdots + \frac{f^{(n)}(x_1)}{n!}(x - x_1)^2$$

ko‘rinishdagi Teylor qatoriga yoyib, ushbu $f(x_1 + pt_1) \equiv 0(\mathrm{mod} p^2)$ taqqoslamani qarasak, quyidagi shaklga keladi

$$f(x_1) + p \cdot t_1 \cdot f'(x_1) \equiv 0(\mathrm{mod} p^2)$$

ya’ni

$$\frac{f(x_1)}{p} + t_1 \cdot f'(x_1) \equiv 0(\mathrm{mod} p)$$

taqqoslamaga ega bo‘lamiz.

$t_1 \equiv t'(\mathrm{mod} p)$ uning yechimi bo‘lsin. U holda

$$x = x_1 + p \cdot t_1 = x_1 + p \cdot t' + p^2 t_2 = x_2 + p^2 \cdot t_2$$

Ushbu sonlarni $f(x) \equiv 0(\mathrm{mod} p^3)$ ga qo‘yib, $f(x)$ ko‘phadni x_2 nuqta atrofida Teylor qatoriga yoyilmasidan foydalansak,

$$f(x_2) + p^2 \cdot t_2 \cdot f'(x_2) \equiv 0(\mathrm{mod} p^3)$$

ya’ni

$$\frac{f(x_2)}{p^2} + t_2 \cdot f'(x_2) \equiv 0(\mathrm{mod} p)$$

taqqoslamaga ega bo‘lamiz.

$x_2 = x_1 + p \cdot t'$ ekanligidan $f'(x_2) \equiv f'(x_1)(\mathrm{mod} p)$ kelib chiqadi.

Bu jarayonni p^{α} gacha davom ettirib (2) taqqoslamaning $f'(x_1)$ soni p ga bo‘linmaydigan x_1 yechimi orqali (1) taqqoslamaning $x = x_{\alpha} + p^{\alpha} \cdot t_{\alpha}$ yechimni hosil qilamiz.

2-teorema. Agar butun musbat p soni uchun

$$(p-1)! + 1 \equiv 0(\mathrm{mod} p)$$

taqqoslama o‘rinli bo‘lsa, p tub son bo‘ladi.

Shunday qilib Vilson teoremasini tub sonlarni aniqlash kriteriyasi deb qabul qilish mumkin, lekin $(p-1)!+1$ soni katta p lar uchun amaliyotda qo‘llash noqulay.

1-misol. 100! ni 101 ga bo‘lgandagi qoldiqni toping?

Yechish. Vilson teoremasiga ko‘ra:

$$(100)!+1 \equiv 0(\mathrm{mod}101)$$
$$100! \equiv 100(\mathrm{mod}101)$$

Demak qoldiq 100 ga teng.

2-misol. Vilson teoremasidan foydalanib p soni $p=4n+1$ ko‘rinishdagi tub son bo‘lganda $(2n)!$ sonining $x^2 \equiv -1(\mathrm{mod}p)$ taqqoslamani qanoatlantirishini isbotlang.

Yechish: $p=4n+1$ tub son bo‘lsin. U holda Vilson teoremasiga asosan:

$$(p-1)! \equiv -1(\mathrm{mod}p) \rightarrow (4n)! \equiv -1(\mathrm{mod}p).$$

bu yerda

$$1\cdot 2\cdot 3\cdot \cdots \cdot\cdot\cdot\cdot 2n\cdot(2n+1)(2n+2)\cdot\cdots\cdot(4n-1)\cdot 4n =$$
$$2n!\,(p-2n)(p-2n+1)\cdots(p-2)(p-1) =$$
$$2n!\,[(-1)(-2)\cdots(-2n)+pt]\,\mathrm{mod}p \equiv (-1)^{2n}\big((2n)!\big)^2(\mathrm{mod}p) \equiv$$
$$\big((2n)!\big)^2(\mathrm{mod}p)$$

bo‘lgani uchun

$$\big((2n)!\big)^2 \equiv -1(\mathrm{mod}p)$$

Xulosa. Vilson teoremasi sonlar nazariyasidagi eng qiziqarli va muhim teoremalar sirasiga kiradi. U tub sonlar haqidagi chuqur xossalarni ochib beradi va bu xossalar matematikada chuqur nazariy asos yaratadi. Garchi amaliy hisoblashlar uchun unchalik samarali bo‘lmasa-da, uning nazariy kuchi va tarixiy ahamiyati katta.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I. Allakov. “Sonlar nazariyasidan misol va masalalar”. Surxon-“Nashr” 2020-yil.
2. Ayyupov Sh.A. Omirov V.A. Xudoyberdiyev A.X. Xaydarov A. N. Algebra va sonlar nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “O‘zMU”,2020
3. Hardy, G.H, Wright, E.M (2008). An Introduction to the Theory and Its Applications.
4. Ireland, K. Rosen, M (1990). A Classical Introduction to Modern Number Theory.

O‘QUVCHILARGA KVADRAT FUNKSIYANI O‘RGATISH METODIKASI

Dilmurod Shomurodovich Abrayev
DXX Chegara qo‘shinlari “Yosh chegarachilar” HAL,

Annotatsiya: Ushbu maqolada kvadrat funksiya, uning umumiy ko‘rinishi, grafikasi va xossalari tahlil qilinadi. Kvadrat funksiyasi o‘zining grafikasi, teoremalar va amaliy qo‘llanilishi bilan muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, kvadrat funksiyasining qo‘llanilishi, fanlararo bog’liqligi tushuntiriladi.

Kalit so‘zlar: kvadrat funksiya, kvadrat tenglama, koeffitsiyent, funksiyaning nollari, simmetriya o‘qi, parabolaning grafigi, parabola uchi koordinatalari, parabolaning o‘sishi va kamayish oraliqlari, to‘g’ri chiziq, diskriminant.

Annotation: The article analyzes the quadratic function, its general form, graph, and main properties. It highlights the importance of the quadratic function through its graph, theorems, and practical applications, as well as its interdisciplinary connections.

Keywords: quadratic function, quadratic equation, coefficient, zeros of a function, axis of symmetry, parabola graph, vertex coordinates, intervals of increase and decrease, straight line, discriminant.

Аннотация: В статье рассматривается квадратичная функция, её общий вид, график и основные свойства. Подчеркивается значение квадратичной функции через её график, теоремы и практические применения, а также её междисциплинарные связи.

Ключевые слова: квадратичная функция, квадратное уравнение, коэффициент, нули функции, ось симметрии, график параболы, координаты вершины, промежутки возрастания и убывания, прямая линия, дискриминант.

Kvadrat funksiya matematikada muhim o‘rin tutadi va uning o‘rganilishi ko‘plab sohalarda, jumladan, geometriya, ayniqsa, fizikada kinematika va optikada parabolik shakllar va harakatlar tahlil qilinadi. Masalan, o‘q otish yoki tashqi kuch ta’sirida harakat qilayotgan ob’ektlarning yo‘nalishlari parabola shaklida bo‘ladi. Iqtisodiyotda esa, ishlab chiqarish va xarajatlarni optimallashtirish uchun kvadrat funksiyalar ishlatiladi. Kvadrat funksiya to‘g‘risida tushunchasi ko‘p sonli amaliy masalalarni hal qilishda yordam beradi. Uning asosiy xususiyati, grafikasi parabolaning shaklini hosil qilishidir. Kvadrat funksiyasining o‘rganilishida o‘quvchilar o‘zlarining fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirib, o‘z Vataniga nisbatan mas’uliyatni his

qilishadi. Misol uchun, tarixiy obidalar va shaharlar o‘rtasidagi masofalarni hisoblashda kvadrat funksiyasini qo‘llash, ularga o‘z Vatanining go‘zalligini va uning madaniyatini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

O‘rta arslarda yashab o‘tgan vatandoshimiz, buyuk faylasuf Al-Farobiy ("Ikkinchi o‘qituvchi") Aristotelning tasavvurlarini o‘rganib, o‘zining o‘tkir zehni va boy tafakkuriga tayanib mantiq va matematika sohalaridagi ko‘plab ilmiy ishlanmalarni yaratgan. Uning matematikada geometriya va mantiqqa oid izlanishlari, ayniqsa, algebraik funksiyalar va ularning geometrik tasvirlari haqidagi tushunchalarga zamin yaratgan. Kvadrat funksiyasining grafigidagi parabolaning xossalarini tushunish uchun uning geometriyadagi ishlari muhim ahamiyatga ega. Ya’ni, bir so‘z bilan aytganda, Al-Farobiy kvadrat funksiya haqidagi matematik bilimlarni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan.

Ta’rif: Kvadrat funksiya deb quyidagi ko‘rinishdagi ifodaga aytiladi:

$$f(x) = ax^2 + bx + c, \quad (a \neq 0)\,. \qquad (1)$$

Bu yerda:

a – bosh koeffitsiyent, b – ikkinchi koeffitsiyent, c – ozod had, $a \neq 0$, aks holda funksiya to‘g‘ri chiziq bo‘ladi.

(1) Kvadrat funksiyaning grafigi - parabola deyiladi.

Agar $a > 0$ bo‘lsa, parabola shoxlari yuqoriga qarab ochiladi, ya’ni $x\epsilon(-\infty; x_0)$ da kamayuvchi, $x\epsilon(x_0; \infty)$ da o‘suvchi bo‘ladi.

Agar $a < 0$ bo‘lsa, parabola shoxlari pastga qarab ochiladi, ya’ni $x\epsilon(-\infty; x_0)$ da o‘suvchi, $x\epsilon(x_0; \infty)$ da kamayuvchi bo‘ladi.

Kvadrat funksiyaning grafigini chizib o‘rganishimiz uchun uning shoxlari qaysi tomonga ochilganligi (a – bosh koeffitsiyentning ishorasi), simmetriya o‘qi $(x = x_0)$, parabola uchi koordinatalari $(x_0; y_0)$, nollari $(x_1 va\, x_2)$ va Oy o‘qini kesib o‘tish nuqtasi (c – ozod had) ni aniqlashimiz kerak.

Parabolaning uchi koordinatasi va simmetriya o‘qi uning xossalarini belgilaydi. Parabola uchi koordinatalari quyidagicha hisoblanadi:

$$x_0 = -\frac{b}{2a}, \quad y_0 = f(x_0) \qquad (2)$$

Bu yerda x_0 tepa - parabola tepasining x-koordinatasi. Parabolaning y_0-koordinatasini esa quyidagicha topish mumkin:

$$y_0 = f(x_0) = ax_0{}^2 + bx_0 + c$$

Shu tarzda, parabola uning $x = x_0$ bo‘lgan Oy o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziqdan iborat simmetriya o‘qiga simmetrik bo‘ladi.

Kvadrat funksiyaning nollarini ya'ni 0x o'qini kesib o'tish nuqtasini aniqlash uchun uni "0" ga tenglab kvadrat tenglama shakliga keltirib ildizlarini topib olamiz:

$$ax^2 + bx + c = 0 \quad (3)$$

(3) Kvadrat tenglamaning ildizlari quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$x_{1,2} = \frac{-b \pm \sqrt{D}}{2a} \quad (4)$$

D – diskriminat, $D = b^2 - 4ac$.

Agar $D > 0$ bo'lsa, tenglamaning ikkita haqiqiy ildizi mavjud.

Agar $D = 0$ bo'lsa, tenglamaning bitta ikki karrali ildizi mavjud.

Agar $D < 0$ bo'lsa, tenglama haqiqiy ildizlarga ega bo'lmaydi.

Kvadrat funksiya analitik ko'rinishda berilgan bo'lsa odatda c – ozod had berilgan bo'ladi, aks holda uni aniqlashimiz kerak. Chunki u grafikning qaysi choraklarda yotishiga bevosita aloqador.

Agar b yoki c koeffitsiyentlardan birortasi "0" ga teng bo'lsa grafikni chizishimiz yanada osonroq kechadi.

Masalan: 1) $f(x) = ax^2 + bx = ax(x + \frac{b}{a})$ bo'lsa nollarini hisoblash qulayroq: 0 va $-\frac{b}{a}$; koordinatalar boshidan o'tuvchi ($c = 0$).

2) $f(x) = ax^2 + c$, $f(x) = x^2$ funksiya grafigini a marta vertikal cho'zib c birlik yuqoriga ko'tarish kifoya.

Masala: $f(x) = 2x^2 - 4x - 6$ funksiyani tekshiring.

Avvalo koeffitsiyentlari $a = 2$, $b = -4$, $c = -6$ ekanligini aniqlab olamiz.

$a > 0$ demak shoxlari yuqoriga ochilgan, $(0; -6)$ dan o'tuvchi parabola.

$x_0 = -\frac{b}{2a} = -\frac{-4}{2*2} = 1$, $y_0 = f(x_0) = 2 * 1^2 - 4 * 1 - 6 = -8$, simmetriya o'qi $x = 1$ to'g'ri chiziq, parabola uch koordinatalari $(1; -8)$, $x\epsilon(-\infty; 1)$ da kamayuvchi, $x\epsilon(1; \infty)$ da o'suvchi ekan.

$D = b^2 - 4ac = (-4)^2 - 4 * 2 * (-6) = 64$ va (4) dan:

$x_{1,2} = \frac{-(-4) \pm \sqrt{64}}{2*2} = \frac{4 \pm 8}{4} = 1 \pm 2$, nollari: $x_1 = -1$ va $x_2 = 3$. Demak, $(-1; 0)$ va $(3; 0)$ nuqtalarda 0x o'qini kesib o'tadi.

(Ushbu ma'lumotlar orqali parabolani chizishingiz mumkin.)

Xulosa: Kvadrat funksiya matematikada muhim va keng qo'llaniladigan mavzu hisoblanadi. Kvadrat funksiyalarining tenglamalari va ularning ildizlarini topish nafaqat matematikada, balki kundalik hayotda ham keng qo'llaniladi. Masalan, kvadrat funksiyasi yordamida yer yuzasidagi ob'ektlar o'rtasidagi masofa, vaqti-vaqti bilan

o‘zgarmas kuchlar ta’siri ostida to‘liq aylanayotgan ob’ektning holati tahlil qilinadi. Kvadrat funksiyasining to‘g‘ri tushunilishi va qo‘llanilishi turli ilmiy va amaliy masalalarni hal qilishda yordam beradi. Kvadrat funksiyasi va uning xossalari haqida yanada chuqurroq o‘rganish, bu sohadagi bilimlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Alimov, Sh.A. Xolmuhammedov, O.R. Mirzaahmedov, M.A.** (2019). 9-sinf Algebra, darslik. 7-23-betlar. Toshkent.

2. **Zaitov, A. Hamrayeva, R. Abdiyev, B.** (2022). 10-sinf Algebra va analiz asoslari, darslik. 6-8-betlar. Toshkent.

3. **Abduhamidov, A.U. Nasimov, H.A. Nosirov, U.M. Husanov, J.H.** (2014). Algebra va matematik analiz asoslari. Akademik litseylar uchun darslik. 312-313-betlar. Toshkent.

BA’ZI ELEMENTAR FUNKSIYALARNING KASR TARTIBLI HOSILALARI

J. R. Xo‘jaqulov [1], D. Sh. Abrayev [2], X. A. Abdimurodova [3]

[1,3]Termiz davlat universiteti, [2]DXX Chegara qo‘shinlari “Yosh chegarachilar” HAL.

Annotatsiya: Ushbu ishda elementar funksiyalar — darajali, eksponensial, trigonometrik va logarifmik funksiyalarning kasr tartibli hosilalarini hisoblash usullari tahlil qilinadi. Kaputo ma’nosidagi hosila ta’riflari asosida formulalar keltiriladi. Shuningdek, Eyler funksiyalari yordamida ifodalanadigan umumiy ko‘rinishlar va ularning amaliy qo‘llanilishi yoritiladi.

Kalit so‘zlar:kasr tartibli hosila, Kaputo hosilasi, Eyler funksiyalari, elementar funksiyalar.

Аннотация: В данной работе анализируются методы вычисления дробных производных элементарных функций: степенных, экспоненциальных, тригонометрических и логарифмических. Формулы получены на основе определения производной Капуто. Также рассматриваются обобщённые представления с использованием функций Эйлера и их практическое применение.

Ключевые слова:дробная производная, производная Капуто, функции Эйлера, элементарные функции.

Annotation: This paper analyzes methods for computing fractional derivatives of elementary functions, including power, exponential, trigonometric, and logarithmic functions. The formulas are

derived based on the definition of the Caputo fractional derivative. General representations expressed via Euler functions and their practical applications are also discussed.

Keywords:fractional derivative, Caputo derivative, Euler functions, elementary functions.

1-ta'rif. Ushbu

$$\mathrm{B}(a,b)=\int_0^1 x^{a-1}(1-x)^{b-1}\,dx, \quad (a>0,\ b>0). \qquad (1.1)$$

$$\Gamma(a)=\int_0^{+\infty} x^{a-1}e^{-x}dx \qquad (1.2)$$

munosabatlar bilan aniqlangan parametrga bog'liq xosmas integrallar mos ravishda Eylerning I va II tur integrallari (beta va gamma funksiyalari) deyiladi.

Eylerning I va II tur integrallari orasida quyidagi bog'lanish mavjud:

$$\mathrm{B}(a,b)=\frac{\Gamma(a)\Gamma(b)}{\Gamma(a+b)}, \qquad a>0,\ b>0 \qquad (1.3)$$

2**-ta'rif.** Quyidagi

$${}_C D_{at}^{\alpha} f(t) := \frac{1}{\Gamma(n-\alpha)}\int_a^t \frac{f^{(n)}(\tau)}{t-\tau}^{\alpha-n+1} d\tau, \ \ t>a \qquad (1.4)$$

munosabat bilan aniqlangan operator Kaputo kasr tartibli hosilasi deyiladi [1], bu yerda $n\in\mathbb{N}$ va $n-1<\alpha<n$.

3-ta'rif. Quyidagi

$$E_{\alpha,\beta}(z)=\sum_{n=0}^{\infty}\frac{z^n}{\Gamma(\alpha n+\beta)} \qquad (1.5)$$

funksiya ikki parametrli Mittag-Leffler funksiyasi deb ataladi, bu yerda $\alpha>0$, $\beta\in\mathbb{C}$ va $z\in\mathbb{C}$, agar $\alpha=1,\ \beta=1$ bo'lsa ushbu funksiya $E_{1,1}(z)=e^z$ ko'rinishda bo'ladi [3].

Funksiyaning kasr tartibli hosilalarini hisoblash

1-misol. $f(t)=t^2$ funksiyaning Kaputo ma'nosidagi $\alpha(0<\alpha<1)$-tartibli hosilasini hisoblang.

Yechish.

$${}_C D_{0t}^{\alpha} f(t)=\frac{1}{\Gamma(1-\alpha)}\int_0^t \frac{f'(\tau)}{(t-\tau)^{\alpha}}d\tau$$

$${}_C D_{0t}^{\alpha} t^p=\frac{1}{\Gamma(1-\alpha)}\int_0^t \frac{2\tau}{(t-\tau)^{\alpha}}d\tau=\frac{2}{\Gamma(1-\alpha)}\int_0^t \tau(t-\tau)^{-\alpha}d\tau=\frac{2}{\Gamma(1-\alpha)}I,$$

bu yerda I integralni hisoblash uchun

$$t-\tau=st,\ d\tau=-tds,\ \tau=0,\ s=1,\ \tau=t,\ \ s=0$$

ko'rinishdagi almashtirishni bajarib, (1.1) formuladan foydalansak,

$$I=\int_0^1 (st)^{-\alpha}(t-st)tds = t^{2-\alpha}\int_0^1 s^{-\alpha}(1-s)ds =$$
$$= t^{2-\alpha}\int_0^1 s^{(1-\alpha)-1}(1-s)^{2-1}ds = t^{2-\alpha}B(1-\alpha,2)$$

tenglikka ega bo‘lamiz. Bundan tashqari (1.3) munosabatni hisobga olsak,

$${}_C D_{0t}^{\alpha} t^p = \frac{2}{\Gamma(1-\alpha)}\cdot t^{2-\alpha}B(1-\alpha,2) = \frac{2t^{p-\alpha}}{\Gamma(1-\alpha)}\cdot\frac{\Gamma(2)\Gamma(1-\alpha)}{\Gamma(3-\alpha)} = \frac{2\Gamma(2)}{\Gamma(3-\alpha)}t^{2-\alpha}.$$

Demak, quyidagi natijaga ega bo‘lamiz:

$${}_C D_{0t}^{\alpha} t^2 = \frac{2t^{2-\alpha}}{\Gamma(3-\alpha)}.$$

2-misol. $f(t)=e^t-t$ funksiyaning $\alpha(1<\alpha<2)$- tartibli Kaputo ma’nosidagi hosilasi hisoblansin.

Yechish. (2.1) formulaga asosan

$${}_C D_{0t}^{\alpha}\left(e^t-t\right) = \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)}\int_0^t \frac{e^{\tau}-1}{(t-\tau)^{\alpha}}d\tau = \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)}\left[\int_0^t \frac{e^{\tau}}{(t-\tau)^{\alpha}}d\tau - \int_0^t \frac{1}{(t-\tau)^{\alpha}}d\tau\right]$$

bu yerda $f(t)=e^t$ funksiyani Makloren qatoriga yoyib, integrallasak quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lamiz:

$${}_C D_{0t}^{\alpha} e^{mt} = \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)}\int_0^t \frac{e^{\tau}}{(t-\tau)^{\alpha}}d\tau = \frac{-1}{\Gamma(1-\alpha)}\int_0^t \frac{1}{(t-\tau)^{\alpha}}\left[1+\tau+\frac{\tau^2}{2!}+...+\frac{\tau^k}{k!}+...\right]d\tau =$$
$$= \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)}\int_0^t \frac{1}{(t-\tau)^{\alpha}}d\tau + \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)}\int_0^t \frac{\tau}{(t-\tau)^{\alpha}}d\tau + ... + \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)}\int_0^t \frac{\tau^k}{k!(t-\tau)^{\alpha}}d\tau.$$

Qulaylik uchun quyidagi $I_1=\int_0^t (t-\tau)^{-\alpha}\tau^k d\tau$ va $I_2=\int_0^t (t-\tau)^{-\alpha}d\tau$ integralni alohida hisoblaymiz:

Maktab matematika kursida o‘quvchilar bilimini, ularning fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun ularga fan bo‘yicha turli usuldagi misollarni topib yechish bo‘yicha yo‘nalish berish kerak. Masalan, sinfda iqtidorli o‘quvchilarga faqat darslikdagi bilim va masalalar kamlik qiladi. Parametrga bog‘liq misollar bunday o‘quvchilar uchun yordamchi bo‘la oladi. Parametrga bog‘liq bo‘lgan masalalarni yechish usuli u yoki bu sinfga qarashli ekanligini aniqlash yetarlicha murakkab masaladir, chunki qo‘yilgan har bir masala o‘zicha alohida standart bo‘lmagan masala hisoblanadi.

1. Parametrga bog‘liq masalalarni yechish usulari, funksiya va formulalar mohiyatini ochish;

2. Aniq misollarni yechishda keng va xilma-xil usullarni qo‘llashni o‘quvchilarga har tamonloma namoyish qilish;
3. Har xil usullarni qo‘llash bilan murakkab parametrga bog‘liq bo‘lgan masalalarni yechishni o‘quvchilarga o‘rgatish va ularda ko‘nikma hosil qilish.


Parametrga bog‘liq tenglama va tengsizliklar o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytiradi. Masalaga o‘zgacha yondoshuv va fikrlash bilan qarashga yo‘l ochib beradi. Quyida parametrga bog‘liq tengsizliklar va ularni yechish usullari keltirilgan

$$1)\begin{cases} a \le -8, \\ |2x - a| \le -x - 4 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} a \le -8, \\ 2x - a \le -x - 4, \\ 2x - a \ge x + 4 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} a \le -8, \\ x \le \frac{a-4}{3}, \\ x \ge a + 4. \end{cases}$$

Bundan kelib chiqadiki yechimlar to‘plami 1 kesmani faqat $\frac{a-4}{3} - (a + 4) = 1,$

bo’lganda tashkil etadi. Bundan $a = -\frac{19}{2}$ ekani kelib chiqadi.

1- hol: kesma chiziqlar bilan chegaralangan $a = 3x + 2$ (chapdan) va $a = 3x + 4$ chiziq bilan (o‘ngdan).



a parametrning mos qiymatlarini topamiz: $a = 3x + 2 = x + 1 - 2$ bundan $x = -\frac{3}{2}$ va $a = -\frac{5}{2}$.

2- hol: kesma $a = x - 4$ (chapdan) va $a = 3x + 4$ (o‘ngdan) chiziqlar bilan chegaralangan a parametrning mos keluvchi qiymatlarini topamiz $a = x - 4 = 3(x + 1)+4$ bundan $x = -\frac{11}{2}$ va $a = -\frac{19}{2}$.

Javob: $a = -\frac{5}{2}$ va $a = -\frac{19}{2}$.


1. Tengsizlikning hamma yechimlari to’plami kesma tashkil qiluvchi a parametrning hamma qiymatlarini toping: $\sqrt{3 - x} + |x - a| \leq 2$ [2. 127 b.]

Yechim. Tengsizlikni quyagicha yozib olamiz $\sqrt{3 - x} \leq 2 - |x - a|$

O‘ng va chap tamondagi funksiyalar grafigini chizamiz.

$y = \sqrt{3 - x}$ funksiya grafigi yuqori yarim tekislikdagi yarim paraboladan iborat $y = 2 - |x - a|$ funksiya grafgi a parametrni o‘ng va chapga siljitish orqali o‘zgartiramiz.

Chizma



$a = a_{urunma}$ bo‘lganda yechim yana bitta kesmaga aylanadi.

Agar $a_{urunma} < a < 5$ bo‘lsa, yechim kesma bo‘lib qolaveradi, $a = 5$ bo‘lganda o‘zgaruvchining aniqlanish sohasi ixtiyoriy qiymatlarida tengstzlik grafigi moduli yechim sohasi pastki nuqtalarida joylashgan bo‘ladi va tengsizlik yechimga emas.

a_{urunma} qiymatini hosila orqali izlaymiz, x_0 urinish nuqtasida uning burchak koeffitsiyenti bo‘lsin, bundan

$$f'(x) = -\frac{1}{2\sqrt{3 - x}}$$

ni topamiz yoki

$$-\frac{1}{2\sqrt{3 - x_0}} = -1 \Leftrightarrow 3 - x_0 = \frac{1}{4} \Leftrightarrow x_0 = \frac{11}{4}$$

Eslatma. Urinish nuqtasini hosila yordamisiz ham topish mumkun. Haqiqatan, parabola urunma bilan yagona urinish nuqtasiga ega shuning uchun parabola $y = \sqrt{3 - x}$ funksiya grafigi bo‘lib, $y = 2 - (x - a)$ to‘g‘ri chiziq $y = 2 - |x - a|$ funksiyaning o‘ng nuridan iborat va

yagona umumiy nuqtaga ega. Bu nuqta absissasi quyidagi tenglama orqali topiladi.

$$\sqrt{3-x} = 2-(x-a_{urin.}) \Rightarrow 3-x = (2-x+a_{urin.})^2$$
$$\Rightarrow x^2-(2a_{urin.}+3)x+({a_{urin.}}^2+4a_{urin.}+1)=0.$$

Bu tenglama uning diskremenanti

$D=(2a+3)^2-4(a^2+4a+1)=-4a+5$

nolga teng bo‘lganda yagona ildizga ega va $a=\frac{5}{4}$.

Bu topilgan arametrning qiymati

$x^2-\frac{11}{2}x+\frac{121}{16}=0,\ (x-\frac{11}{4})^2=0,$

tenglamaga mos keladi. Bundan urinish nuqtasi absissasini topish mumkin

$x_0=\frac{11}{4}$.

Tenglamani kvadratga ko‘targanda chet ildizlar paydo bo‘lishi mumkin. Topilgan $a_{urin.}$ va x_0 qiymatlarini tenglamaga qo‘yib,

$$\sqrt{3-\frac{11}{4}} = 2-\left(\frac{11}{4}-\frac{5}{4}\right) \Leftrightarrow \frac{1}{2}=2-\frac{6}{4} \Leftrightarrow \frac{1}{2}=\frac{1}{2}.$$

Topilgan qiymat tenglamani qanoatlantiradi, demak bu qiymat yagona urinish nuqta absissasi bo‘ladi.

Yechim 2. Bu tengsizlikni boshqacha ham yechish mumkin.

$t=\sqrt{3-x}$, deb almashtirish olamiz, u vaqtda berilgan tengsizlik $t\geq 0$ bo‘lganda

$$t+|3-t^2-a|\leq 2 \Leftrightarrow |3-t^2-a|\leq 2-t \Leftrightarrow$$
$$\begin{cases} 3-t^2-a\leq 2-t, \\ 3-t^2-a\geq -2+t \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} a\geq -t^2+t+1, \\ a\leq -t^2-t+5 \end{cases}$$

ko‘rinishga keladi. Olingan tengsizlikni yechish uchun intervallar usulini qo‘llash mumkin.

Adabiyotlar

1. Agaxanov N.Kh., Kuptsov L.P., Nesterenko Yu.V., Reznichenko S.V., Slinko .M. (1997) Matematicheskiye olimpiadi dlya shkolnikov [Mathematical Olympiads for pupils]. Moscow: Prosveshcheniye.

2. N.Rahimov.(2020) Matematikadan nostandart masalalar. I qism. Samarqand: SamDChTI.

3. Vasilev N.B., Gutenmaher V.L., Rabbot J.P., Toom A.L. (1981) Zaochnyye matematicheskiye olimpiady [Correspondence Mathematical Olympiads]. Moscow: Nauka.

4. Gal'perin G.A., Tolpygo A.K. (1996) Moskovskiye matematicheskiye olimpiady [Moscow Mathematical Olympiads]. Moscow: Prosveshcheniye.

5. Tohirov A., Mo‘minov G‘. Matematikadan olimpiada masalalari [Olympiad problems in mathematics]. Tashkent: O‘qituvchi.
6. Alixonov S. Matematika O‘qitish metodikasi.-Toshkent: O‘qituvchi 1992.
7. Aleksandrov P.S. Matematika kak nauka //Izvestiya, 1958.

RAQAMLI TA'LIM MUHITINING INTELLEKT RIVOJIGA TA'SIRI

Latipova Xajibibi Ibrohim qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda raqamli ta'lim muhitining o'quvchilar va talabalarning kognitiv qobiliyatlari hamda intellektual rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Raqamli vositalar mantiqiy-matematik, fazoviy, ijtimoiy intellekt turlarini rivojlantirishda muhim imkon yaratishi bilan birga, noto'g'ri foydalanish natijasida diqqat markazlashish qobiliyatining pasayishi, chuqur tahliliy fikrlashning zaiflanishi va raqamli qaramlik kabi salbiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkinligi ko'rsatiladi. Tadqiqot muvozanatli va ongli ravishda raqamli ta'lim muhitini joriy etish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, intellekt rivojlanishi, kognitiv qobiliyatlar, elektron ta'lim resurslari, kritik fikrlash, onlayn ta'lim platformalari.

Kirish

XXI asr axborot texnologiyalari asri sifatida ta'lim tizimiga tubdan o'zgarishlar olib kirmoqda. Masofaviy ta'lim, onlayn kurslar, interaktiv darsliklar va sun'iy intellektga asoslangan o'quv dasturlari zamonaviy pedagogik amaliyotning ajralmas qismiga aylandi. YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2023 yillarda global ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar qo'llanilishi ikki baravar oshdi. Shu bilan birga, ularning o'quvchilarning intellektual rivojiga ko'rsatadigan ta'siri haqida ko'plab ilmiy munozaralar davom etmoqda.

Intellekt rivojlanishi deganda insonning bilim olish, muammolarni hal qilish, mantiqiy fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarining tako-millashuvi tushuniladi. Howard Gardner ko'p tomonlama intellekt nazariyasi, Robert Sternberg triarkik modeli va Lev Vygotskiyning proksimal rivojlanish zonasi tushunchasi raqamli ta'lim muhitini tadqiq qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu tezisning maqsadi – raqamli ta'lim vositalarining intellektual rivojlanishga ijobiy va salbiy ta'sirini nazariy jihatdan tahlil etish hamda muvozanatli yondashuvlar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Asosiy qism

Raqamli ta'limning intellekt rivojiga ijobiy ta'siri

Raqamli ta'lim muhiti intellektual rivojlanishning turli jihatlarini qo'llab-quvvatlaydi:

• Mantiqiy-matematik intellekt: Scratch, Khan Academy, Brilliant.org kabi interaktiv platformalar algoritmik fikrlash va muammolarni tizimli hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi;

• Fazoviy-vizual intellekt: virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari murakkab tushunchalarni ko'rgazmali o'rganishga imkon beradi;

• Ijtimoiy intellekt: onlayn hamkorlik loyihalari madaniyatlararo muloqot va jamoa ishi ko'nikmalarini rivojlantiradi;

• Individual ta'lim: sun'iy intellektga asoslangan adaptiv tizimlar har bir o'quvchining o'rganish sur'ati va imkoniyatiga mos ta'limni ta'minlaydi;

• Kreativlik: raqamli vositalar orqali video, animatsiya, podkast yaratish ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi;

• Axborot savodxonligi: manbaларni tanqidiy baholash va tekshirish ko'nikmalari shakllanadi.

Raqamli ta'limning potentsial xavflari

Nicholas Carr (2010) ta'kidlaganidek, internetdan haddan tashqari foydalanish chuqur konsentratsiya va tanqidiy fikrlash qobiliyatini susaytirishi mumkin. Asosiy xavflar quyidagilardan iborat:

• Diqqat markazlashish qobiliyatining pasayishi: doimiy bildirishnomalar va chalg'ituvchi elementlar diqqatni tarqatadi;

• Yuzaki o'qish: raqamli matnlarni skanerlab o'qish odati chuqur tahliliy fikrlashni zaiflashtiradi;

• Xotira zaiflashuvi (Google Effect): ma'lumotga doim kirish imkoniyati uni eslab qolish zaruriyatini kamaytiradi;

• Raqamli qaramlik: ortiqcha ekran vaqti uyqu, ko'z va ijtimoiy muloqotga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

• Raqamli tengsizlik: barcha o'quvchilar zamonaviy resurslarga teng kirish imkoniyatiga ega emas.

Tadqiqot ma'lumotlari shuni tasdiqlaydi: raqamli ta'lim o'z-o'zidan samarali emas – uning natijasi kontekst, qo'llanilish usuli va pedagogik strategiyaga bog'liq. Raqamli va an'anaviy usullarni muvozanatli birlashtirgan gibrid model eng yuqori natijani beradi.

Xulosa

Raqamli ta'lim muhiti to'g'ri yo'naltirilganda intellektual rivojlanish uchun kuchli vositaga aylanadi. Biroq uning muvaffaqiyati strategik rejalashtirish, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va mas'uliyatli foydalanishga bog'liq. Muvazanatli gibrid yondashuv – raqamli va an'anaviy ta'limning kuchli tomonlarini birlashtirib – zamonaviy o'quvchilarning kognitiv va intellektual rivojlanishini ta'minlashning eng samarali yo'lidir.

Amaliy tavsiyalar: o'qituvchilarni raqamli savodxonlik bo'yicha tayyorlash; ekran vaqtini tartibga solish; adaptiv sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish; barcha o'quvchilar uchun raqamli resurslarga teng kirish imkoniyatini ta'minlash; raqamli ta'limning intellekt rivojiga ta'sirini empirik usullar bilan muntazam monitoring qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Carr N. (2010). The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains. New York: W.W. Norton & Company.
2. Gardner H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books.
3. Mayer R.E. (2020). Multimedia Learning (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
4. OECD (2021). 21st-Century Readers: Developing Literacy Skills in a Digital World. Paris: OECD Publishing.
5. Piaget J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. New York: International Universities Press.
6. Sparrow B., Liu J., Wegner D.M. (2011). Google Effects on Memory. Science, 333(6043), 776–778.
7. Sternberg R.J. (1985). Beyond IQ: A Triarchic Theory of Human Intelligence. Cambridge: Cambridge University Press.
8. UNESCO (2023). Technology in Education: A Tool on Whose Terms? Paris: UNESCO Publishing.
9. Vygotsky L.S. (1978). Mind in Society. Cambridge: Harvard University Press.
10. Zheng B. et al. (2016). Learning in One-to-One Laptop Environments: A Meta-Analysis. Review of Educational Research, 86(4), 1052–1084.

MASALLAR YECHISHDA VEKTORLARNING QO`LLANILISHI

Matnazarov Javlon Shonazarovich
Temurbeklar maktabi matematika fani o`qituvchisi

Annotsatsiya: Bu maqolada vektorlar yordamida muhim masalalarni oson isbotlash yo`llari yoritib berilgan

Kalit so'zlar : vektor , tenglama α, β ,γ burchaklar, o`xshash, aylana radiusi, kollinear

O`quvchilarga bilim berishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati to'g'risida so'z borganda o'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil inson qilib tarbiyalashda jonbozlik ko'rsatadigan o'qituvchilarga e'tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda, ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish diqqatimiz markazida bo'lishi darkorligini ta'kidlash o'rinlidir.
Hozirgi kunda jahon tajribasidan ko'rinib turibdiki, ta'lim jarayoniga o'qitishning yangi, zamonaviy usul va vositalarini qo`llash o`quvchilar bilimini oshirishda yaxshi samara beradi.

Maqolada yoritilgan mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, vektorlar tushunchasi matematikaning ko'p sohalarida, geometriyada, mexanika masalalarini yechishda qo'llaniladi. Maqoladan maktab o'quvchilari, abituriyentlar, akademik litsey o`quvchilari geometrik masalalarni yechishda bilimlarini mustahkamlashda foydalanishlari mumkin. Vektor tushunchasi uzunlik va yo'nalishiga ega bo'lgan barcha kattaliklarda qo'llaniladi. Masalan: fizikada kuch, tezlik,tezlanish va hokazo. Vektor nafaqat o'lchov birligiga yo'nalishga ega bo'lgan kattaliklardir.

Geometrik masalalarni yechishda va teoremalarni isbotlashda vektorlardan keng foydalaniladi va bu metod masalaning javobini oson topish imkoniyatini berdi. Gaplarimizning isboti sifatida quyida ba`zi masalalarni vektorlar yordamida ishlashni keltirib o`tamiz.

1-masala. Tenglamaniyeching:

$x-2y+2z+\sqrt{18(x^2+y^2+z^2+36)}-18=0$.

Yechish. $\vec{a}(x;y;z;6)$ va $\vec{b}(1;-2;2;-3)$ vektorlarorasidagiburchakkosinusi:

$$\cos\alpha=\frac{x-2y+2z-18}{\sqrt{x^2+y^2+z^2+36}\cdot\sqrt{1+4+4+9}}=$$

$$=\frac{x-2y+2z-18}{\sqrt{18(x^2+y^2+z^2+36)}}$$

gateng . Agar $\cos\alpha=-1$ bo'lsa, oxirgimunosabatdan

$x-2y+2z-18=-\sqrt{18(x^2+y^2+z^2+36)}$


y'ani

$x-2y+2z+\sqrt{18(x^2+y^2+z^2+36)}-18=0$

yuqoridagitenglamahosilbo'ladi .Bu esa $\bar{a}$ va $\bar{b}$ vektorlarningqarama-qarshiyo'nalganliginiyokiularningkollinearliginibildiradi. Bundanesa

$\frac{x}{1}=\frac{y}{-2}=\frac{z}{2}=\frac{6}{-3}\Rightarrow x=-2,\ y=4,\ z=-4.$

2-masala. α, β, γ uchburchakningburchaklaribo'lsa, $\cos\alpha+\cos\beta+\cos\gamma\le\frac{3}{2}$ niisbotlang.



Yechish: O nuqta ABC uchburchakkaichkichizilganaylanamarkazibo'lib, OA_1, OB_1 va OC_1 kesmalarichkichizilganaylanaradiuslari. $\overrightarrow{OA_1}+\overrightarrow{OB_1}+\overrightarrow{OC_1}$ yig'indibirorvektorniifodalaydivauninguzunligimanfiyemas. Ya'ni

$\left|\overrightarrow{OA_1}+\overrightarrow{OB_1}+\overrightarrow{OC_1}\right|\ge 0,\quad (\overrightarrow{OA_1}+\overrightarrow{OB_1}+\overrightarrow{OC_1})^2\ge 0$

$\overrightarrow{OA_1}^2+\overrightarrow{OB_1}^2+\overrightarrow{OC_1}^2+2\overrightarrow{OA_1}\cdot\overrightarrow{OB_1}+2\overrightarrow{OA_1}\cdot\overrightarrow{OC_1}+2\overrightarrow{OB_1}\cdot\overrightarrow{OC_1}\ge 0,$

AB_1OC_1 to'rtburchakda $\angle AB_1O=\angle OC_1A=90°$, $\angle B_1AC_1=\alpha$, u holda

$\angle B_1OC_1=\overrightarrow{OB_1}\,\widehat{}\,\overrightarrow{OC_1}=180°-\alpha$, huddishungao'xshash, $\overrightarrow{OA}\,\widehat{}\,\overrightarrow{OB}=180°-\gamma$,

$\overrightarrow{OA_1}\,\widehat{}\,\overrightarrow{OC_1}=180°-\beta$ va $\left|\overrightarrow{OA_1}\right|=\left|\overrightarrow{OB_1}\right|=\left|\overrightarrow{OC_1}\right|=r$ ekanligidan:

$r^2+r^2+r^2+2\cdot r\cdot r\cdot\cos(180°-\gamma)+2\cdot r\cdot r\cdot\cos(180°-\beta)+2\cdot r\cdot r\cdot\cos(180°-\alpha)\ge 0,$

$3r^2-2r^2(\cos\gamma+\cos\beta+\cos\alpha)\ge 0,$

$2r^2(\cos\gamma+\cos\beta+\cos\alpha)\le 3r^2$

tengsizlikningharikkalatomonini $2r^2$ gabo'lsak

$\cos\gamma+\cos\beta+\cos\alpha\le\frac{3}{2}$

munosabathosilbo'ladi.


3-masala. α, β, γ uchburchakningburchaklaribo'lsa,

$\sin^2\alpha+\sin^2\beta+\sin^2\gamma\le\frac{9}{4}$

niisbotlang.

Yechish: O nuqta ABC uchburchakkatashqichizilganaylanamarkazi. $\overrightarrow{OA}+\overrightarrow{OB}+\overrightarrow{OC}$ birorvektorbo'lib, uninguzunligimanfiyemas, ya'ni

$\left|\overrightarrow{OA}+\overrightarrow{OB}+\overrightarrow{OC}\right|\ge 0,$



$\overrightarrow{OA}^2+\overrightarrow{OB}^2+\overrightarrow{OC}^2+2\cdot\overrightarrow{OA}\cdot\overrightarrow{OB}+2\cdot\overrightarrow{OA}\cdot\overrightarrow{OC}+2\cdot\overrightarrow{OB}\cdot\overrightarrow{OC}\geq 0$

$|\overrightarrow{OA}|=|\overrightarrow{OB}|=|\overrightarrow{OC}|=R$, $\angle AOB$ markaziyburchakekanligidan $\angle AOB=2\angle ACB$, ya'ni

$\overrightarrow{OA}\,\hat{}\,\overrightarrow{OB}=2\gamma$, $\overrightarrow{OA}\,\hat{}\,\overrightarrow{OC}=2\beta$, $\overrightarrow{OB}\,\hat{}\,\overrightarrow{OC}=2\alpha$.

$R^2+R^2+R^2+2\cdot R\cdot R\cdot\cos\gamma+2\cdot R\cdot R\cdot\cos 2\beta+2\cdot R\cdot R\cdot\cos 2\alpha\geq 0$,

$3R^2+2R^2(\cos 2\alpha+\cos 2\beta+\cos 2\gamma)\geq 0$,


R^2 gabo'lib, $\cos 2\alpha=1-2\sin^2\alpha$, $\cos 2\beta=1-2\sin^2\beta$, $\cos 2\gamma=1-2\sin^2\gamma$ danfoydalansak,

$3+2(1-2\sin^2\alpha+1-2\sin^2\beta+1-2\sin^2\gamma)\geq 0$,

$9-4(\sin^2\alpha+\sin^2\beta+\sin^2\gamma)\geq 0$

bundanesa $\sin^2\alpha+\sin^2\beta+\sin^2\gamma\leq\frac{9}{4}$ hosilbo'ladi.

4-masala. Uchlari $A(5;1;-11)$, $B(0;-2;7)$, $C(3;-3;0)$ va $D(-1;3;-2)$ nuqtalardabo'lgan $ABCD$ piramidaninghajmini toping.




Yechish. $\overrightarrow{AB}$, $\overrightarrow{AC}$, $\overrightarrow{AD}$ vektorlarni B va C nuqtalardan $\overrightarrow{AD}$ gatengvektorlarqo'yib, $ABCDEF$ prizmanihosilqilib, uni $ABMCDENF$ parallelepipedgato'ldirsak, $\overrightarrow{AB}$, $\overrightarrow{AC}$ va $\overrightarrow{AD}$ vektorlarshuparallelepipedningbiruchidanchiquvchivektorlarbo'ladi. Ma'lumki, parallelepipedningbiruchidanchiquvchi 3 ta vektoraralashko'paytmasining moduli shuparallelepipedninghajmidaniborat.

$\overrightarrow{AB}(-5;-3;18)$, $\overrightarrow{AC}(-2;-4;11)$, $\overrightarrow{AD}(-6;2;9)$

$$\begin{vmatrix}-5 & -3 & 18\\ -2 & -4 & 11\\ -6 & 2 & 9\end{vmatrix}=180+198-72-$$

$-432+110-54=-70$.



$V_{\text{parallelepiped}} = |-70| = 70$.

$ABCD$ piramidaninghajmi $ABMCDENF$ parallelepiped hajmining $\frac{1}{6}$ qismiekanligidan

$V_{ABCD} = \frac{1}{6} \cdot V_{ABMCDENF} = \frac{1}{6} \cdot 70 = 11\frac{2}{3}$.

Foydalanilganadabiyotlar

1. N.Norjigitov, A.X.Nuraliyev “MATEMATIKADAN OLIMPIADA MASALALARI” maktab, akademiklitseyvaOliyo‘quvyurtlarining III bosqichtalabalariuchunqo‘llanma

2. F.Klein Элементарная математика с точки зрения высшей II. 1987.

ВЛИЯНИЕ ИНФОРМАТИКИ И НАУКИ НА ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Калимбетов Ж.К

Преподаватель Нукусского военно-академического лицея «Темурбеклар мактаби» при МВД Республики Узбекистан

Калимбетова Г.К

Преподаватель Нукусского государственной технического университета

Аннотация. В данной статье исследуется влияние информатики и науки об информационных технологиях на процесс внедрения научных инноваций в практику. Основной целью работы является выявление роли информационных технологий в оптимизации процесса инновационного развития и формулирование практических рекомендаций по улучшению данного процесса.

Ключевые слова. Информатика, научные инновации, технологии, наука.

Введение. Современное общество находится в постоянном поиске новых путей развития и совершенствования. Ключевым двигателем этого процесса является наука, особенно в контексте научно-инновационных технологий. Внедрение новых научных разработок и инноваций в повседневную практику требует эффективных инструментов и подходов. В этом контексте информатика и наука об информационных технологиях играют ключевую роль, обеспечивая не только техническую базу для

реализации инноваций, но и методологическую основу для их эффективного внедрения.

Однако, несмотря на значительные успехи в области информационных технологий, процесс внедрения научно-инновационных разработок в практику часто сталкивается с различными препятствиями и вызовами. Понимание роли информатики и науки об информационных технологиях в этом контексте становится ключевым для разработки эффективных стратегий и методов, способствующих успешному внедрению инноваций.

Цель данной статьи состоит в анализе роли и значения информатики и науки об информационных технологиях в процессе внедрения научно-инновационных технологий в практику. В рамках исследования будут рассмотрены основные проблемы и вызовы, с которыми сталкиваются ученые, инженеры и представители промышленности при внедрении инноваций, а также предложены рекомендации для их преодоления. [1], [2]

Данное исследование является актуальным, поскольку его результаты могут помочь не только улучшить понимание процесса внедрения инноваций, но и способствовать развитию эффективных стратегий в области науки и технологий.

Методология. Для достижения цели исследования, которая заключалась в изучении влияния информатики и науки об информационных технологиях на внедрение научных и инновационных разработок в практику, был выбран комплексный методологический подход.

В начале проводился анализ существующих исследований и литературы по данной теме. Рассматривались основные тенденции и проблемы, связанные с ролью информатики в этом процессе.

Для дополнительной иллюстрации исследования собирались и анализировались статистические данные о текущем состоянии научно-инновационных технологий и информационных технологий. Особое внимание уделялось анализу успешных и неудачных примеров внедрения научных инноваций, где использовались информационные технологии. [2], [3]

Наконец, на основе собранных данных и анализа были выработаны рекомендации и выводы о том, как можно улучшить процесс внедрения научно-инновационных технологий с помощью информатики и науки об информационных технологиях.

Результаты. После проведения всестороннего анализа, который включал обзор литературы, экспертные интервью, анализ статистических данных и изучение конкретных примеров, был сделан ряд важных выводов.

Прежде всего, было установлено, что информатика и наука об информационных технологиях играли достаточно весомую роль в процессе внедрения научно-инновационных технологий. Они не только обеспечили техническую основу для внедрения инноваций, но и сыграли важную роль в методологическом аспекте этого процесса.

Были выявлены основные проблемы, с которыми сталкивались специалисты при внедрении новых технологий. Среди них были сложности с интеграцией новых разработок в существующие процессы, дефицит квалифицированных кадров и ограниченность ресурсов.

На основе собранных данных были сформулированы рекомендации для улучшения процесса внедрения научно-инновационных технологий. Среди предложенных мер было укрепление сотрудничества между научным сообществом и промышленностью, расширение образовательных программ в области информационных технологий и исследований, а также увеличение инвестиций в научные разработки.

Обсуждение. В ходе обсуждения ключевых аспектов и проблем, выявленных в ходе исследования, стало очевидно, что информатика и наука об информационных технологиях имели важное место в процессе внедрения научно-инновационных технологий. Однако было замечено, что успешное внедрение этих технологий часто сталкивалось с различными препятствиями, такими как ограниченные ресурсы и нехватка квалифицированных кадров. В контексте обсуждения акцент был сделан на возможных стратегиях для преодоления этих проблем и создания благоприятной среды для внедрения инноваций.

Дополнительно была отмечена важность дальнейшего сотрудничества между учеными, инженерами и представителями промышленности в области научно-инновационных технологий. Государственная поддержка также была обсуждена как ключевой фактор в развитии этой области. [4]

Наконец, в ходе обсуждения был рассмотрен вопрос о том, какие дополнительные исследования и инициативы могут быть предприняты для улучшения процесса внедрения научно-

инновационных технологий. Это включало в себя разработку новых методов и подходов, а также исследование потенциальных рисков и преимуществ внедрения новых технологий.

Заключение. В заключении можно сделать вывод о важной и значимой роли информатики и науки об информационных технологиях в процессе внедрения научно-инновационных технологий в практику. Эти области не только обеспечили техническую базу для реализации инноваций, но и играли ключевую роль в организации процесса их внедрения. В ходе исследования были выявлены проблемы, такие как сложности с интеграцией новых технологий и нехватка квалифицированных кадров. Однако, дальнейшее сотрудничество между учеными и представителями промышленности, а также активная государственная поддержка могли способствовать решению этих проблем и улучшению процесса внедрения инноваций. Рекомендации, выдвинутые в исследовании, направлены на укрепление сотрудничества и увеличение инвестиций в эту область, что в конечном итоге могло сделать процесс внедрения научно-инновационных технологий более эффективным и успешным.

Список использованной литературы

1. Tureniyazova A. I., Sprishevskiy K. V. On the possibilities of using artificial intelligence in higher education. International Scientific Conference "Information technologies and management in higher education and sciences". Part 3. - Ferghana, November 28, 2022 – P.213-217 https://doi.org/10.30525/978-9934-26-277-7-234

2. Sprishevskiy K. V., Tureniyazova A.I. Analysis of possibilities and prospects for development of cloud computing. Journal "Science and education in Karakalpakstan". #4/2, 2022. P.147-149.

3. Смирнова, А. И., & Козлов, В. П. (2019). Информационные технологии и научные инновации: кейс-стади из биотехнологической отрасли. Журнал технологических инноваций, 5(1), 78-91.

4. Григорьев, О. А., & Соколов, К. К. (2017). Влияние информационных технологий на инновационную деятельность: доказательства из мета-анализа. Исследования информационных систем, 28(4), 789-806.

TENGSIZLIKLARNI ISBOTLASHDA HOSILANING QO‘LLANILISHI

Kurbonboyev Zokirjon Narimboyevich
Toshkent “Temurbeklar maktabi” HAL o‘qituvchisi

Annotasiya: Biz bilamizki matematikada isbotlashga doir masalalar o‘quvchidan chuqur bilim va malakani talab qiladi. Hosiladan matematikaning turli bo’limlarida keng foydalaniladi, biroq tengsizliklarni isbotlashda foydalanish bu noananaviy metod hisoblanadi. Bu maqolada hosiladan tengasizliklarni isbotlashda ham foydalanish mumkinligi aniq misol yordamida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Tengsizlik, isbot, funksiya, hosila, induksiya, o‘rta arifmetik, o‘rta geometrik, Gyol’der tengsizligi, Koshi – Bunyakovskiy tengsizligi, .

M a s a l a . Ixtiyoriy a, b, c, d musbat sonlar uchun

$$\left(\frac{a+b}{c+d}\right)^{a+b} \le \left(\frac{a}{c}\right)^{c} \cdot \left(\frac{b}{d}\right)^{b} \qquad (1)$$

tengsizlikni isbotlang.

Yechish.

$$f(t) = (1+t)^{a} \cdot \left(1+\frac{1}{t}\right)^{b} = \frac{(1+t)^{a+b}}{t^{b}}, \quad t>0$$

uzluksiz funksiyani qaraylik.

$f(t)$ ning hosilasi:

$$f'(t) = \frac{(a+b)(1+t)^{a+b-1}\cdot t^{b} - b\cdot t^{b-1}\cdot(1+t)^{a+b}}{t^{2b}} =$$

$$= \frac{(1+t)^{a+b-1}\cdot a\cdot\left(t-\frac{b}{a}\right)}{t^{b+1}}.$$

Bundan quyidagicha hulosa qilamiz,

$$t>\frac{b}{a} \text{ da } f'(t)>0;$$

$$t=\frac{b}{a} \text{ da } f'(t)=0;$$

$$0<t<\frac{b}{a} \text{ da } f'(t)<0.$$

Bularga ko‘ra $f(t)$ funksiya $t=\frac{b}{a}$ nuqtada $t\in(0;\infty)$ da o‘zining eng kichik qiymatini oladi, ya’ni

$$f\left(\frac{b}{a}\right) \le f(t), \quad t>0 \qquad (2)$$

bu joyda tenglik $t=\frac{b}{a}$ dagina bajariladi. (2) munosabatda $t=\frac{d}{c}$ ni qo‘ysak

$$\left(1+\frac{d}{c}\right)^a \cdot \left(1+\frac{c}{d}\right)^b \ge \left(1+\frac{b}{a}\right)^a \left(1+\frac{a}{b}\right)^b$$

hosil bo‘ladi. Bundan

$$\frac{(c+d)^{a+b}}{c^a \cdot d^b} \ge \frac{(a+b)^{a+b}}{a^a \cdot b^b}$$

$$\left(\frac{a+b}{c+d}\right)^{a+b} \le \left(\frac{a}{c}\right)^a \cdot \left(\frac{b}{d}\right)^b$$

isbotlashni talab qilingan (1) tengsizlik hosil bo‘ladi.

Eslatma. (1) tengsizlikdan uning natijasi sifatida ba’zi klassik tengsizliklarni hosil qilishimiz mumkin:

Haqiqatdan ham (1) tengsizlikni

$$\left(\frac{x_1+x_2}{y_1+y_2}\right)^{x_1+x_2} \le \left(\frac{x_1}{y_1}\right)^{x_1} \cdot \left(\frac{x_2}{y_2}\right)^{x_2}$$

ko‘rinishda yozib x_2 ni x_2+x_3 bilan y_2 ni y_2+y_3 bilan almashtirsak

$$\left(\frac{x_1+x_2+x_3}{y_1+y_2+y_3}\right)^{x_1+x_2+x_3} \le \left(\frac{x_1}{y_1}\right) \cdot \left(\frac{x_2+x_3}{y_2+y_3}\right)^{x_2+x_3} \le \left(\frac{x_1}{y_1}\right)^{x_1} \left(\frac{x_2}{y_2}\right)^{x_2} \left(\frac{x_3}{y_3}\right)^{x_3}$$

ga ega bo‘lamiz. Bundan matematik induksiyani qo‘llab ixtiyoriy musbat x_1, x_2, …, x_n va y_1, y_2, …, y_n sonlari uchun quyidagi tengsizlik o‘rinli bo‘lishini ko‘rsatish qiyin emas.

$$\left(\frac{x_1+x_2+...+x_n}{y_1+y_2+...+y_n}\right)^{x_1+x_2+...+x_n} \le \left(\frac{x_1}{y_1}\right)^{x_1} \cdot \left(\frac{x_2}{y_2}\right)^{x_2} \cdot ... \cdot \left(\frac{x_n}{y_n}\right)^{x_n}. \qquad (3)$$

(3) tengsizlikda tenglik faqat $\frac{x_1}{y_1}=\frac{x_2}{y_2}=...=\frac{x_n}{y_n}$ dagina bajariladi. (3) tengsizlikda $x_i=p_i$ va $y_i=p_i \cdot a_i$ $(i=1,2,...,n)$ larni keltirib qo‘ysak

$$a_1^{p_1} a_2^{p_2} ... a_n^{p_n} \le \left(\frac{p_1a_1+p_2a_2+...+p_na_n}{p_1+p_2+...+p_n}\right)^{p_1+p_2+...+p_n} \qquad (4)$$

tengsizlik hosil bo‘ladi. Agar (4) tengsizlikda $p_1=p_2=...=p_n=1$ bo’lsa a_1, a_2, … , a_n sonlarning o’rta arifmetigi bilan o‘rta geometrigi orasidagi tengsizlikni olamiz

$$a_1 \cdot a_2 \cdot ... \cdot a_n \le \left(\frac{a_1+a_2+...+a_n}{n}\right)^n \qquad (5).$$

Agar (4) tengsizlikda p_i larni $p_1 + p_2 + ... + p_n = 1$ qilib tanlasak

$$a_1^{p_1} a_2^{p_2} ... a_n^{p_n} \le p_1 a_1 + p_2 a_2 + ... + p_n a_n \qquad (6)$$

tengsizlikni hosil qilamiz.

(4), (5), (6) tengsizliklarning barchasida tenglikka faqat $a_1 = a_2 = ... = a_n$ dagina erishiladi. (6) tengsizlikdan

$$a_1^{\alpha} b_1^{\beta} + a_2^{\alpha} b_2^{\beta} + ... + a_n^{\alpha} b_n^{\beta} \le (a_1 + a_2 + ... + a_n)^{\alpha} (b_1 + b_2 + ... + b_n)^{\beta} \qquad (7)$$

bunda $\alpha > 0$, $\beta > 0$ va $\alpha + \beta = 1$. Haqiqatdan ham (6) ga ko‘ra

$$\frac{a_1^{\alpha} b_1^{\beta} + a_2^{\alpha} b_2^{\beta} + ... + a_n^{\alpha} b_n^{\beta}}{(a_1 + a_2 + ... + a_n)^{\alpha} (b_1 + b_2 + ... + b_n)^{\beta}} =$$

$$= \left(\frac{a_1}{a_1 + a_2 + ... + a_n} \right)^{\alpha} \left(\frac{b_1}{b_1 + b_2 + ... + b_n} \right)^{\beta} + ... +$$

$$+ \left(\frac{a_n}{a_1 + a_2 + ... + a_n} \right)^{\alpha} \left(\frac{b_n}{b_1 + b_2 + ... + b_n} \right)^{\beta} \le$$

$$\le \alpha \cdot \frac{a_1}{a_1 + a_2 + ... + a_n} + \beta \cdot \frac{b_1}{b_1 + b_2 + ... + b_n} + ... +$$

$$+ \alpha \cdot \frac{a_n}{a_1 + a_2 + ... + a_n} + \beta \cdot \frac{b_n}{b_1 + b_2 + ... + b_n} = \alpha + \beta = 1.$$

$\alpha = \frac{1}{p}$, $\beta = \frac{1}{q}$, $a_i = x_i^p$ va $b_i = y_i^q$ $(i = 1,2, ..., n)$ deb (7) tengsizlikka keltirib qo‘ysak Gyol’der tengsizligi hosil bo‘ladi.

$$x_1 y_1 + x_2 y_2 + ... + x_n y_n \le (x_1^p + x_2^p + ... + x_n^p)^{\frac{1}{p}} (y_1^q + y_2^q + ... + y_n^q)^{\frac{1}{q}}. \qquad (8)$$

(8) tengsizlikda $p = q = 2$ holida Koshi – Bunyakovskiy tengsizligi hosil bo‘ladi.

$$(x_1 y_1 + x_2 y_2 + ... + x_n y_n)^2 \le (x_1^2 + x_2^2 + ... + x_n^2)(y_1^2 + y_2^2 + ... + y_n^2). \qquad (9)$$

(8) va (9) tengsizliklarda tenglik faqat $\frac{x_1}{y_1} = \frac{x_2}{y_2} = ... = \frac{x_n}{y_n}$ dagina bajariladi.

Agar (9) tengsizlikda $y_i = 1$, $(i = 1,2,..., n)$ bo‘lsa $x_1, x_2, ..., x_n$ n ta no’manfiy sonlar o‘rta kvadratigi bilan o‘rata arifmetigi orasidagi munosabat hosil bo‘ladi.

$$(x_1 + x_2 + ... + x_n)^2 \le (x_1^2 + x_2^2 + ... + x_n^2) \cdot n$$

bu tengsizlikning har ikkala tomoni n^2 ga bo‘lsak

$$\left(\frac{x_1 + x_2 + ... + x_n}{n} \right)^2 \le \frac{x_1^2 + x_2^2 + ... + x_n^2}{n}$$

ya’ni

$$\sqrt{\frac{x_1^2 + x_2^2 + ... + x_n^2}{n}} \geq \frac{x_1 + x_2 + ... + x_n}{n} \qquad (10)$$

bunda tengsizlik faqat $x_1 = x_2 = ... = x_n$ dagina bajariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вавилов В.В., Мелников И.И., Олехник С.Н., Пасиченко П.И Задачи по математике. Начала анализа. Москва «Наука», 1990
2. Azlarov. T., Mansurov. X., Matematik analiz. T.: «O‘zbekiston», 1,2 qism: 1994.-416-b.

ANIQ VA TABIY FANLARNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI

Zaripboyeva Quvonchoy Qurbonboyevna
Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi Biologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada aniq va tabiiy fanlarning zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari, ularning ilm-fan va texnologiya taraqqiyotidagi o‘rni, shuningdek, global muammolarni hal etishdagi ahamiyati yoritiladi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, biotexnologiya, ekologiya va energetika sohalaridagi yangiliklar tahlil qilinadi. Shuningdek, fanlararo integratsiya va innovatsion yondashuvlarning kuchayib borayotgani asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: aniq fanlar, tabiiy fanlar, sun’iy intellekt, biotexnologiya, nanotexnologiya, ekologiya, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, fanlararo integratsiya, barqaror rivojlanish

Kirish

Bugungi kunda ilm-fan jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, aniq va tabiiy fanlar zamonaviy texnologiyalarni yaratishda, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda hamda insoniyat oldida turgan global muammolarni hal etishda muhim rol o‘ynamoqda. Fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida yangi ilmiy yo‘nalishlar paydo bo‘lib, mavjud bilimlar yanada chuqurlashmoqda. Aniq fanlar (matematika, fizika, informatika) hamda tabiiy fanlar (biologiya, kimyo, geografiya) o‘zaro integratsiyalashgan holda rivojlanmoqda. Bu esa ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini oshirib, yangi innovatsion yechimlarni yuzaga keltirmoqda.

Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, deyarli barcha sohalarga kirib bordi. Ayniqsa, sun’iy intellekt tizimlari

ma’lumotlarni tahlil qilish, prognozlash va avtomatlashtirish jarayonlarida keng qo‘llanilmoqda. Mashinali o‘rganish va neyron tarmoqlar yordamida murakkab masalalarni hal qilish imkoniyati kengaydi. Sun’iy intellekt tibbiyotda kasalliklarni erta aniqlash, sanoatda ishlab chiqarishni optimallashtirish, ta’limda esa individual o‘qitish tizimlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt zamonaviy ilm-fan va jamiyat taraqqiyotining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ular iqtisodiyot, tibbiyot, ta’lim, sanoat va boshqa ko‘plab sohalarda tub o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Axborotlarni tezkor qayta ishlash, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish hamda avtomatlashtirilgan tizimlarni yaratish imkoniyati aynan shu yo‘nalishlar rivoji bilan chambarchas bog‘liq. Raqamli texnologiyalar deganda axborotni raqamli ko‘rinishda yaratish, saqlash, uzatish va qayta ishlash jarayonlarini ta’minlovchi vositalar tushuniladi. Internet, bulutli hisoblash (cloud computing), katta ma’lumotlar (big data), blokcheyn kabi texnologiyalar zamonaviy raqamli infratuzilmaning asosini tashkil etadi. Ushbu texnologiyalar nafaqat ma’lumot almashishni tezlashtiradi, balki qaror qabul qilish jarayonlarini ham sezilarli darajada optimallashtiradi. Sun’iy intellekt esa inson tafakkuriga xos bo‘lgan o‘rganish, mantiqiy fikrlash, muammo yechish kabi jarayonlarni kompyuter tizimlari orqali amalga oshirishni anglatadi. Mashinali o‘rganish (machine learning), chuqur o‘rganish (deep learning) va neyron tarmoqlar sun’iy intellektning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar yordamida tizimlar o‘z tajribasiga asoslanib mustaqil ravishda takomillashib boradi. Bugungi kunda sun’iy intellekt tibbiyot sohasida kasalliklarni erta aniqlash, diagnostika aniqligini oshirish va shaxsiylashtirilgan davolash usullarini ishlab chiqishda keng qo‘llanilmoqda. Masalan, tibbiy tasvirlarni tahlil qilish orqali saraton kasalligini dastlabki bosqichda aniqlash imkoniyati yaratilgan. Bu esa inson hayotini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega. Sanoat sohasida esa raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda mahsulot sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. “Aqlli fabrikalar” konsepsiyasi doirasida robotlashtirilgan tizimlar inson ishtirokini minimal darajaga tushirib, yuqori aniqlik va tezlik bilan ishlash imkonini bermoqda. Ta’lim tizimida ham ushbu texnologiyalar muhim o‘rin tutmoqda. Onlayn ta’lim platformalari, adaptiv o‘qitish tizimlari va virtual laboratoriyalar talabalarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qulay qilmoqda. Sun’iy intellekt asosida yaratilgan tizimlar

har bir o‘quvchining bilim darajasini tahlil qilib, individual o‘quv dasturlarini shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning rivojlanishi ayrim muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi, kiberxavfsizlik tahdidlari, ish o‘rinlarining qisqarishi hamda texnologiyalarning axloqiy jihatlari dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli ushbu sohani rivojlantirish bilan birga uning huquqiy va etik asoslarini mustahkamlash zarur.

Biotexnologiya va gen muhandisligi

Tabiiy fanlarning eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri bu biotexnologiya hisoblanadi. Gen muhandisligi orqali o‘simlik va hayvonlarning yangi navlari yaratilmoqda, dori vositalari ishlab chiqilmoqda. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va kasalliklarni davolash imkoniyatlarini kengaytiradi.

CRISPR kabi gen tahrirlash texnologiyalari biologiya fanida inqilobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Bu usullar orqali irsiy kasalliklarni davolash istiqbollari ochilmoqda. Biotexnologiya tirik organizmlar va biologik jarayonlardan foydalanib foydali mahsulotlar yaratish bilan shug‘ullanadi. U tibbiyot, qishloq xo‘jaligi va sanoatda keng qo‘llanilib, dori vositalari ishlab chiqarish, hosildorlikni oshirish va ekologik muammolarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Gen muhandisligi esa organizm genetik materialini o‘zgartirish orqali yangi xususiyatlarga ega turlar yaratishni o‘rganadi. Ushbu yo‘nalish yordamida kasalliklarga chidamli o‘simliklar, samarali dori vositalari va irsiy kasalliklarni davolash usullari ishlab chiqilmoqda.

Nanotexnologiya

Nanotexnologiya moddalarning atom va molekula darajasida o‘rganilishi va boshqarilishi bilan bog‘liq. Ushbu yo‘nalish yangi materiallar yaratish, elektronika, tibbiyot va energetika sohalarida keng qo‘llanilmoqda.

Masalan, nanozarrachalar yordamida dori vositalarini aniq yetkazib berish yoki yuqori samarali quyosh panellarini ishlab chiqish mumkin. Bu esa energiya tejamkorligini oshirishga xizmat qiladi. Nano-texnologiya moddalarning atom va molekula darajasida o‘rganilishi hamda boshqarilishi bilan shug‘ullanuvchi zamonaviy ilmiy yo‘nalishdir. Bu texnologiya yordamida o‘lchami juda kichik bo‘lgan (nanometr darajasidagi) materiallar yaratiladi va ularning noyob fizik hamda kimyoviy xususiyatlaridan foydalaniladi. Nanotexnologiya

tibbiyotda dori vositalarini aniq yetkazib berish, kasalliklarni erta aniqlashda; sanoatda esa mustahkam va yengil materiallar ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi. Shuningdek, energetika sohasida yuqori samarali quyosh panellari va energiya tejovchi qurilmalarni yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Ekologiya va barqaror rivojlanish

Global iqlim o‘zgarishi, atrof-muhit ifloslanishi va tabiiy resurslarning kamayishi ekologiya fanining ahamiyatini yanada oshirdi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol, gid-roenergetika)dan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari va “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Ekologiya atrof-muhit va tirik organizmlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganadi. Hozirgi kunda iqlim o‘zgarishi, havo va suv ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi kabi muammolar ekologiyaning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Barqaror rivojlanish esa iqtisodiy o‘sish bilan birga atrof-muhitni asrash va kelajak avlodlar manfaatlarini ta’minlashni nazarda tutadi. Bu yo‘nalishda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va “yashil texnologiyalar”ni joriy etish muhim hisoblanadi. Ekologiya — tirik organizmlar va ularni o‘rab turgan atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganadigan fan. Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, suv va havo ifloslanishi kabi muammolar ekologik muvozanatga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Barqaror rivojlanish esa hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish bilan birga kelajak avlodlar manfaatlarini ham hisobga olishni anglatadi. Bu konsepsiya iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy farovonlik va ekologik muhofaza o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga qaratilgan.

Amaliy jihatdan barqaror rivojlanishga erishish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, tabiiy resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish muhim hisoblanadi.

Fanlararo integratsiya

Zamonaviy ilm-fanning muhim xususiyatlaridan biri bu fanlararo integratsiyaning kuchayishidir. Fizika va biologiya, kimyo va informatika kabi fanlar o‘zaro uyg‘unlashib, yangi ilmiy yo‘nalishlarni yuzaga keltirmoqda (masalan, bioinformatika, kvant informatika). Bu integratsiya ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini oshirib, murakkab muammolarni kompleks yondashuv asosida hal qilish imkonini beradi.

Fanlararo integratsiya — turli fan sohalarining o‘zaro bog‘lanishi va hamkorlikda rivojlanishini anglatadi. Zamonaviy ilm-fanda murakkab muammolarni hal qilish uchun birgina fan doirasidagi bilimlar yetarli bo‘lmay, bir nechta fanlarning uyg‘unlashuvi talab etiladi. Masalan, biologiya va informatika integratsiyasi natijasida bioinformatika, fizika va informatika uyg‘unligida esa kvant texnologiyalari kabi yangi yo‘nalishlar shakllanmoqda. Bu esa ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini oshirib, innovatsion yechimlar yaratishga imkon beradi. Fanlararo integratsiya ta’lim tizimida ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, talabalarda keng qamrovli fikrlash, muammolarga kompleks yondashish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Muhokama

Aniq va tabiiy fanlarning zamonaviy rivojlanishi insoniyat hayotini tubdan o‘zgartirmoqda. Biroq bu jarayon bilan birga yangi muammolar ham yuzaga kelmoqda. Masalan, sun’iy intellektning etik jihatlari, gen muhandisligining xavfsizligi, ekologik muammolar shular jumlasidandir. Shu bois ilmiy rivojlanish bilan bir qatorda uning ijtimoiy va axloqiy jihatlarini ham hisobga olish zarur. Fan va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhim vazifa hisoblanadi. Aniq va tabiiy fanlarning zamonaviy rivojlanishi jamiyat taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, biotexnologiya va boshqa ilg‘or yo‘nalishlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, inson hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bu jarayonlar yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda muayyan muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, sun’iy intellekt va avtomatlashtirish natijasida ayrim kasblarning yo‘qolishi, kiberxavfsizlik tahdidlari va shaxsiy ma’lumotlar himoyasi masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Biotexnologiya va gen muhandisligi sohasida esa etik me’yorlarga rioya qilish, inson genetikasi bilan bog‘liq tajribalarning xavfsizligini ta’minlash muhimdir. Shuningdek, ekologik muammolar ham ilm-fan rivojiga bevosita bog‘liq. Sanoat va texnologiyalarning jadal rivoji atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, shu sababli barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilish zarur. Umuman olganda, zamonaviy fan yutuqlaridan samarali foydalanish uchun ularni to‘g‘ri boshqarish, huquqiy va axloqiy asoslarni mustahkamlash hamda inson manfaatlarini ustuvor qo‘yish muhim hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, aniq va tabiiy fanlar zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy drayveri bo‘lib xizmat qilmoqda. Raqamli texnologiyalar, biotexnologiya, nanotexnologiya va ekologiya

yo‘nalishlaridagi yutuqlar insoniyat farovonligini oshirishga qaratilgan. Kelajakda fanlararo integratsiya va innovatsion yondashuvlar yanada rivojlanib, yangi ilmiy kashfiyotlarga zamin yaratadi. Shu sababli ilm-fanni rivojlantirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish va zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish dolzarb vazifalardan biridir. Shu bilan birga, fanlararo integratsiya ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini oshirib, murakkab muammolarni kompleks yondashuv asosida hal qilish imkonini bermoqda. Bu esa yangi ilmiy kashfiyotlar va innovatsion texnologiyalar yaratilishiga zamin yaratadi. Kelajakda ushbu yo‘nalishlarning yanada rivojlanishi insoniyat oldida turgan global muammolar — iqlim o‘zgarishi, resurslar tanqisligi, sog‘liqni saqlash va oziq-ovqat xavfsizligi kabi masalalarni hal etishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli ilm-fanni rivojlantirish, zamonaviy bilimlarni amaliyotga joriy etish hamda yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, aniq va tabiiy fanlarning uyg‘un rivoji nafaqat texnologik taraqqiyotni, balki jamiyatning barqaror, xavfsiz va farovon kelajagini ta’minlashning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. **Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch**. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. **Yangi O‘zbekiston strategiyasi**. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. Russell S., Norvig P. **Artificial Intelligence: A Modern Approach**. – Pearson, 2021.
4. Brown T.A. **Genomes**. – Garland Science, 2018.
5. Rogers B., Adams J. **Nanotechnology: Understanding Small Systems**. – CRC Press, 2020.
6. United Nations. **Sustainable Development Goals Report**. – New York, 2023.
7. OECD. **Digital Economy Outlook**. – Paris, 2022.
8. Smith J. **Introduction to Biotechnology**. – Cambridge University Press, 2019.
9. Wilson E.O. **The Future of Life**. – Vintage Books, 2003.
10. Zamonaviy ilmiy maqolalar va internet manbalari.

BINOMIAL DIFFERENSIALLARNI INTEGRALLASH USULLARI VA ULARNI RATSIONAL FUNKSIYALARGA KELTIRISH

Bektemirova Xolida Davronbek qizi
Urganch davlat Pedagogika instituti Matematika va kompyuter texnologiyalari
kafedrasi o‘qtuvchi-stajyori
Qalandarova Oymonjon Sobir qizi
UrDPI Aniq va tabiiy fanlar fakulteti 1-kurs talabasi

Abstract. This thesis studies the methods of integrating binomial differentials and their reduction to rational functions. The general form of binomial differentials, the conditions for their integrability, and simplification techniques using appropriate substitutions are presented. Three main cases that allow such integrals to be reduced to rational functions are discussed, and the methods are illustrated through an example. These approaches significantly simplify the process of integration and are widely used in mathematical analysis.

Аннотация. В данной работе рассматриваются методы интегрирования биномиальных дифференциалов и их приведение к рациональным функциям. Излагаются общий вид биномиальных дифференциалов, условия их интегрируемости, а также методы упрощения с помощью соответствующих замен. Рассматриваются три основных случая, позволяющих свести такие интегралы к рациональным функциям, и приводится пример их применения. Данные методы существенно упрощают процесс интегрирования и широко используются в математическом анализе.

Annotatsiya. Ushbu tezisda binomial differensiallarni integrallash masalasi va ularni ratsional funksiyalarga keltirish usullari o‘rganiladi. Binomial differensiallarning umumiy ko‘rinishi, ularni integrallash shartlari hamda mos almashtirishlar yordamida soddalashtirish usullari bayon etiladi. Uchta asosiy hol orqali bunday integrallarni ratsional funksiyalarga keltirish yo‘llari ko‘rsatilib, amaliy misol orqali tushuntiriladi.

Kalit so‘zlar: binomial differensial, ratsional funksiya, integral, almashtirish, kasr ko‘rsatkich, integrallash usullari.

Kirish.

Matematik analizda ayrim murakkab ko‘rinishdagi integrallarni hisoblashda ularni sodda ko‘rinishga keltirish muhim ahamiyatga ega. Xususan, binomial differensiallar sinfiga kiruvchi integrallarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisoblash qiyin bo‘lishi mumkin. Shu sababli, ularni

maxsus almashtirishlar yordamida ratsional funksiyalarga keltirish usullari ishlab chiqilgan. Bu usullar integrallash jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi.

Ta'rif: Ushbu

$$x^m(ax^n+b)^p\,dx$$

ifoda binomial differensial deb ataladi.

Bu yerda a,b - haqiqiy sonlar, m,n,p lar esa ratsional sonlar bo'lib, $a\neq 0$, $b\neq 0$, $m\neq 0$, $n\neq 0$, $p\neq 0$.

Ushbu

$$\int x^m(ax^n+b)^p\,dx$$

o'rinishdagi integrallar quyidagi uch holda ratsional funksiyalarni integrallashga keltiriladi:

1) Agar p - butun son bo'lsa, $x=t^N$ almashtirish bajariladi, bu yerda N, m va n kasrlarining umumiy maxrajidir.

2) Agar $\frac{m+1}{n}$ butun son bo'lsa, $ax^n+b=t^s$ almashtirish bajariladi, bu yerda s p kasrining maxrajidir.

3) Agar $\frac{m+1}{n}+p$ .butun son bo'lsa, $a+bx^{-n}=t^s$ almashtirish bajariladi, bu yerda ham s p kasrining maxrajidir.

Misol: Iintegralni hisoblang $\int x^2\sqrt[3]{(x+1)^2}\,dx.$

Yechish: Bu misolni yechish uchun uni avval Binomial differensial shaklga o'tkazamiz, bunda:

$$\sqrt[3]{(x+1)^2}=(x+1)^{2/3}.$$

Shuning uchun integral quyidagi ko'rinishga o'tadi:

$$\int x^2(x+1)^{2/3}\,dx.$$

Bu yerda: $m=2,\quad a=1,\quad b=1,\quad n=1,\quad p=\frac{2}{3}.$ Endi bu ifoda qaysi shartga mos kelishini tekshiramiz.

Bu misolda p butun emas, demak birinchi almashtirish bu misolga mos kelmaydi . Endi ikkinchi almashtirishni tekshiramiz: $\frac{m+1}{n}=\frac{2+1}{1}=3$

$\frac{m+1}{n}$ butun son chiqdi, demak bu integralni hisoblashda $a+bx^n=t^s$ almashtirishdan foydalanamiz.

Bu yerda s - p kasrining maxraji. $p=\frac{2}{3}\ \Rightarrow$ maxraj $s=3$. U holda almashtirish quyidagicha bo'ladi.

$$1+x=t^3\quad\Rightarrow\quad x=t^3-1.$$

$dx=3t^2\,dt.$

$$x^2=(t^3-1)^2=t^6-2t^3+1,$$

$$(x+1)^{2/3} = (t^3)^{2/3} = t^2.$$

Bu almashtirishni integralga qo‘llasak, integrallash uchun qulay ifoda hosil bo‘ladi.

$$\int x^2 (x+1)^{2/3} dx = \int (t^6 - 2t^3 + 1) \cdot t^2 \cdot 3t^2 dt.$$
$$= 3\int (t^6 - 2t^3 + 1) t^4 dt.$$
$$= 3\int (t^{10} - 2t^7 + t^4) dt. \}$$

Endi yangi o‘zgaruvchi bo‘yicha integrallashi bajaramiz:

$$3\int (t^{10} - 2t^7 + t^4) dt = 3\left(\frac{t^{11}}{11} - 2 \cdot \frac{t^8}{8} + \frac{t^5}{5} \right) + C =$$
$$= \frac{3t^{11}}{11} - \frac{3t^8}{4} + \frac{3t^5}{5} + C.$$

Hosil bo‘lgan ifodani eski o‘zgaruvchiga qaytamiz.

$t = \sqrt[3]{x+1}$ ekanligidan:

$$t^{11} = (x+1)^{11/3}, \quad t^8 = (x+1)^{8/3}, \quad t^5 = (x+1)^{5/3}.$$

Asosiy natija quyidagicha:

$$\int x^2 \sqrt[3]{(x+1)^2}\, dx = \frac{3}{11}(x+1)^{11/3} - \frac{3}{4}(x+1)^{8/3} + \frac{3}{5}(x+1)^{5/3} + C.$$

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, binomial differensiallarni integrallashda ularni ratsional funksiyalarga keltirish muhim ahamiyatga ega.Uchta asosiy hol mavjud bo‘lib, har biri ma’lum shartlar bajarilganda qo‘llaniladi. To‘g‘ri almashtirish tanlash orqali murakkab integralni sodda integralga keltirish mumkin.

Bu usullar matematik analizda keng qo‘llanilib, amaliy masalalarni yechishda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azlarov T.A., Mansurov H. Matematik analiz. 1 va 2-qismlar. T., «O‘qituvchi», 1986, 1989.
2. Sa’dullayev A., Mansurov H., Xudoyberganov G., Vorisov A., G‘ulomov R. Matematik analiz kursidan misol va masalalar to‘plami, 1 va 2-qismlar. T., «O‘zbekiston», 1993, 1995.
3. Фихтенгольц Г.М. Курс дифференциального и интегрального исчисления, Т. 1-3, М. «Физ-матгиз», 1962.
4. Tuychiev T.T., Djumaboyev D.X. Matematik analiz fanidan 1 va 2-kurs talabalari uchun laboratoriya ishlari. T., «Universitet», 2003.

KOSHI TENGSIZLIGI YORDAMIDA BA‘ZI TENGSIZLIKLARNING ISBOTLANISHI

Matnazarov Javlon Shonazarovich
Temurbeklar maktabi matematika fani o`qituvchisi

Annotsatsiya: Bu maqolada ba’zi tengizliklarni Koshi tengsizligi yordamida isbotlash bayon qilingan

Kalit so’zlar : Koshi tengsizligi, o‘rta arifmetik, o‘rta kvadratik, isbot, tenglik

Davlat ta`lim standartlari doirasida o`quv jarayoniga zamonaviy talablar oshdi, zamonaviy voqeliklar o`quv jarayoniga yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Axborot texnologiyalarining yuqori o`sishi ta`lim jarayonining “obyekti” ning o`zi o`qqituvchi va o`quvchi orasidagi munosabatlarning bir bosqichga ko`tarilishiga olib keladi, ya`ni “subyekt” emas, balki “subyekt-subyekt” munosabatlari mavjud obyekt munosabatlari avvalgidek. O`quvchi nafaqat o`qituvchi tomonidan unga ta`sir qilish obyekti, balki pedagogik o`zaro ta`sirning to`la huquqli subyektiga aylanadi.

Ma`lumki, matematik nutq umumiy nutqning tarkibiy qismidir. Boshqa fanlar qatori matematik nutq ham o`quvchi nutqini rivojlantirib, uni so`z zaxirasini oshirib borishda muhim o`rin egallaydi. Matematika darslarida mantiqiy fikrlashni o`stirishda matematik nutq muhim omil bo`lib xizmat qiladi. Chunki turmushda va hayotda bo`ladigan jarayonlarni matematik madelini tuzish uchun bu jarayon tilda aytib tasavvur qila olish kerak. Shu bois matematika darslarida oquvchilarni mantiqiy tasavvurini rivojlantirish usullarini o‘rganiladi.

Mamlakatimizning kelajagi, uning istiqboli, birinchi navbatda yoshlar tarbiyasiga, ularni sog`lom qilib o`stirishga, milliy g`oya, milliy mafkura va o`z vataniga sadoqatlik ruhida tarbiyalashga bog`liq bo`lib, bu murakkab faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish mustaqil mamlakatning eng dolzarb vazifalaridan biri ekanligi hech kimga sir emas. Shu boisdan ham bugungi kunda yoshlarning ta’lim-tarbiyasi mustaqil O’zbekistonning davlat siyosatida ustivor ahamiyat kasb etmoqda.[2. 10-11-bet]

Ta’lim jarayonida mustaqil fikrlaydigan, ijodiy qobilyatga ega, o‘z fikrlarini erkin ifodalab bera oladigan yoshlarni tarbiyalash dolzarb masalalardan biridir. Shu maqsadda matematika fanini o‘qitishda tengsizliklarni isbotlash mantiqiy fikrlash, tahlil qila olish, ijodkorlik kabi xislatlarni rivojlantiradi.

1. $|x|<1$, $|y|<1$ bo‘lsa, tengsizlikni isbotlang. [3. 30-31-bet]

$\frac{1}{1-x^2}+\frac{1}{1-y^2}\geq\frac{1}{1-xy}$

Koshi tengsizligiga ko‘ra

$\frac{1}{1-x^2}+\frac{1}{1-x^2}\geq 2\cdot\frac{1}{\sqrt{1-x^2}}\cdot\frac{1}{\sqrt{1-y^2}}=\frac{2}{\sqrt{(1-x^2)(1-y^2)}}=\frac{2}{\sqrt{1-y^2-x^2+x^2y^2}}=$

$\frac{2}{\sqrt{1-2xy+x^2y^2-(x^2-2xy+y^2)}}=\frac{2}{\sqrt{(1-XY)^2-(X-Y)^2}}\geq\frac{2}{\sqrt{(1-XY)^2}}=\frac{2}{1-XY}$

2. x,y>0, [3. 30-31-bet]

$$\frac{x}{x^2+y^2}+\frac{y}{y^2+x^2}\leq\frac{1}{xy}$$

$x^4+y^2\geq 2x^2y,\ y^4+x^2\geq 2xy^2\Rightarrow$

$$\frac{x}{x^2+y^2}\leq\frac{x}{2x^2y}=\frac{1}{2xy}$$

$$+$$

$$\frac{y}{y^4+x^2}\leq\frac{y}{2xy^2}=\frac{1}{2xy}$$

$$\frac{x}{x^2+y^2}+\frac{y}{y^4+x^2}\leq\frac{1}{2xy}+\frac{1}{2xy}=\frac{2}{2xy}=\frac{1}{xy}$$

3. a,b,c,d≥0, a+b+c+d=4, [3. 30-31-bet]

(ab+cd)·(ac+bd)·(ad+bc)≤8.

$(a+b+c+d)^2=16$,

$a^2+b^2+c^2+d^2+2ab+2ac+2ad+2bc+2bd+2cd=16$,

Koshi tengsizligiga ko‘ra:

$$+\begin{cases}a^2+b^2\geq 2ab\\ c^2+d^2\geq 2cd\\ a^2+c^2\geq 2ac\\ b^2+d^2\geq 2bd\\ b^2+c^2\geq 2bc\\ a^2+d^2\geq 2ad\end{cases}$$

$3(a^2+b^2+c^2+d^2)\geq 2ab+2ac+2ad+2bc+2bd+2cd$,

$3(a^2+b^2+c^2+d^2 2ab+2ac+2ad+2bc+2bd+2cd)\geq$

$\geq 8ab+8ac+8ad+8bc+8bd+8cd$,

$8((ab+cd)+(ac+bd)+(ad+bc))\leq 3\cdot 16$.

$(ab+cd)+(ac+bd)+(ad+bc)\leq 6$

$6\leq(ab+cd)+(ac+bd)+(ad+bc)\geq$

$3\sqrt[3]{(ab+cd)+(ac+bd)+(ad+bc)}$

$\sqrt[3]{(ab+cd)+(ac+bd)+(ad+bc}$ ≤2 (ab+cd)+(ac+bd)+(ad+bc)≤8

4. x,y ∈[0;1], $\frac{1}{\sqrt{1+x^2}}+\frac{1}{\sqrt{1+y^2}}\leq\frac{2}{\sqrt{1+xy}}$ ni isbotlang.

Isboti. Tengsizlikni har ikki tomonini kvadratga oshirsak $\frac{1}{1+x^2}+\frac{2}{\sqrt{1+x^2}\cdot\sqrt{1+y^2}}+\frac{1}{\sqrt{1+y^2}}\leq\frac{4}{1+xy}$ hosil bo‘ladi. Oldin $\frac{1}{1+x^2}+\frac{1}{1+y^2}\leq\frac{2}{1+xy}$ ni isbotlaylik .

$(1+y^2+1+x^2)(1+xy)\leq 2(1+x^2)(1+y^2)$

$2+2xy+y^2+xy^3+x^2+x^3y\leq 2+2x^2y^2+2x^2+2y^2$

$x^2+y^2+2x^2y^2-xy(x^2+y^2)-2xy\geq 0,$

$(x-y)^2-xy(x-y)\geq 0,$

$(x-y)^2(1-xy)\geq 0.$

Endi Koshi tengsizligidan foydalansak,

$\frac{2}{\sqrt{1+x^2}}+\frac{1}{1+x^2}+\frac{1}{1+y^2}\leq 2(\frac{1}{1+x^2}+\frac{1}{1+y^2})\leq\frac{4}{1+xy}.$

5. a,b,c > 0, $a+b+c=3$ bo‘lsa $a^2+b^2+c^2+ab+bc+ca\geq 6$ ni isbotlang.

$\frac{a+b+c}{3}\leq\sqrt{\frac{a^2+b^2+c^2}{3}}$ o‘rta arifmetik va o‘rta kvadratiklar orasidagi munosabatga ko‘ra

$\frac{a^2+b^2+c^2}{3}\geq 1,\ a^2+b^2+c^2\geq 3$

Oxirgi tenglikni har ikki tarafiga 9 ni qo‘shamiz va $9=(a+b+c)^2$ ekanidan

$$a^2+b^2+c^2+(a+b+c)^2\geq 12$$

$$2a^2+2b^2+2c^2+2ab+2bc+2ca\geq 12$$

2 ga bo‘lsak

$$a^2+b^2+c^2+ab+bc+ca\geq 6$$

Xulosa

Ushbu maqoladan aniq fanlar yo‘nalishidagi akademik litseylarning matematika ta’limi jarayonida, matematikaga qiziquvchi o‘quvchilarga sinfdan tashqari ishlarni tashkillashtirishda, matematika fanidan olimpiadalarga tayorlanish jarayonida foydalanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta'lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 9-son, 225-modda.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 11-12-son, 295-modda.
3. И.В.Яковлев. Доказательство неравенств.
4. Ю. П. Соловьёв. Неравенства. МЦНМО, 2005.
5. Samin Riasat. Basics of Olympiad Inequalities. 2008.

AKADEMIK LITSEYLARDA KIMYO DARSLARINI O'TISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Ollaberganov Bobur Shuhratovich
Xorazm viloyati Urganch davlat pedagogika instituti akademik litseyi oliy toifali kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada didaktik o'yinlar turlari va masqadlari, didaktiv o'yin texnalogiyalari amalga oshiriladigan ayrim noa'anaviy dars shakllari haqida ma'lumot berilgan. Kimyo darsiga bo'lgan qiziqishini rivojlatrirish, bilim va ko'nikmalarni shakllantirish ta'lim jarayonining dolzarb vazifalaridan biri ekanligiga alohida e'tibor berilgan.

Аннотация

В данной статье представлена информация о видах и целях дидактических игр, а также о некоторых нетрадиционных формах уроков, в которых реализуются технологии дидактических игр. Особое внимание уделено тому, что развитие интереса к урокам химии, а также формирование знаний и навыков является одной из актуальных задач образовательного процесса.

Abstract

This article provides information about the types and purposes of didactic games, as well as some non-traditional lesson formats in which didactic game technologies are implemented. Special attention is given to the fact that developing interest in chemistry lessons, as well as forming knowledge and skills, is one of the актуальных задач образовательного процесса.

Kalit so'zlar: Tuz,gologen,vodorod,alyuminiy,oltingugurt,pirit,tellur.

Ключевые слова: соль, галоген, водород, алюминий, сера, пирит, теллур

Keywords: salt, halogen, hydrogen, aluminum, sulfur, pyrite, tellurium



Kimyoni o’qishda didaktik o’yinlar

Didaktik o`yinlarning turlari va ularni olib borishga doir talablar.

Didaktik o`yinlarning asosiy turlari

1.Intellektual (aqliy) 2.Harakatli 3.Aralash o`yinlardan iborat.

Bu o`yinlar ishtirokchilarda aqliy – jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko`nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta’lim tarbiya jarayonida asosan o`quvchlarda ta’lim olish motivlarini ularning turli yo`nalishdagi qobilyat va qiziqishlarini oshiradigan biror kasbga moyilliklarini ko`rsatadigan didaktik o`yinlardan foydalaniladi.

Didaktik o`yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo`nalishlar bo`yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o`yinlardan foydalaniladi va alohida o`ringa ega bo`lib bormoqda. Umumiy o`yinlar nazariyasiga ko`ra mavjud barcha o`yin turlarini tasniflashda ularni funksional mavzuli konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o`yinlarga ishlatiladi. Bularning orasida didaktik o`yinlar ta’lim – tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini borishi bilan alohida o`ringa ega.

Kimyo darslarida qo’llaniladigan didaktik o’yinlar

“Kim topqir” o’yini

Bu o’yinda o’qituvchi 3 ta element nomini bir marta aytadi. Talaba esa kartochkalardan elementlar belgisini topib, ko’rsatishi kerak. Masalan, temir, kumush, kremniy – Fe, Ag, Cu

Elementlarning valentligini o’rganishda ham kartochkalardan foydalanish mumkin. Ko’rsatilgan elemantning valentligi, metall yoki metallmasligi aytiladi.

“Kim chaqqon” o’yini

Bu o’yinda murakkab moddaning nisbiy molekulyar massasi tez hisoblab topilishi lozim. Masalan, CaO, CO_2, H_3PO_4

O’yin davomida bu moddalarning valentligi, nomi, tuzilish formulasi ham yoziladi

“Har qadamda element” o’yini

Elementning o’zbekcha yoki lotincha nomi aytiladi.Bunda bir element nomi 2 marta takrorlanmasligi kerak. Eng ko’r element aytgan talaba g’olib hisoblanadi.

“Ortiqchasini top” o’yini

Proektordagi har xil sinfga oid formulalardan noto’g’ri yozilgan yoki boshqa sinfga mansub bo’lgan modda topiladi. Masalan:

$NaOH$, KOH, $Ca(OH)_2$, Al_2O_3, $Cr(OH)_3$ yoki

$Zn(OH)_2$, H_2PO_4, $BaCl_2$, N_2O_5

“Kim ko’p yozadi?” o’yini

O’qituvchi kimyoga oid biror so’z aytadi, talabalar esa shu nomni tashkil qilgan harflar bo’yicha kimyoga oid atama va so’zlardan yozadi. Kim ko’p va to’g’ri yoza olsa, g’olib bo’ladi. Masalan: xlor so’zi yoziladi, 4 ta talaba doskaga chiqadi


X	L	O	R
xrom	lantan	oksid	radiy
xitin	litiy	osmiy	rux

va hokazo

“So`z tuzish” o`yini

Nuqtalar o`rniga mos keladigan so`zni topib yozing. (Topshirirq shakli kompyuter xotirasiga yuklangan bo`ladi. O`quvchilar juft bo`lib kompyuterlar oldiga o`tirib, klaviaturalar yordamida nuqtalar o`rniga kerakli harflarni teradilar. Javoblar alohida faylda turadi.)

1. “Vod…rod”. Qizlarning eng yaxshi fazilatlaridan biri orqali hosil bo`luvchi kimyoviy element. **(Vodorod)**
2. “T…tan”. Odamlarning vafodor do`stini qo`shish orqali hosil bo`ladigan kimyoviy element. **(Titan)**
3. “Alyum…niy”. Qushlarning uyasi yordamida hosil bo`luvchi kimyoviy element nomi. **(Alyuminiy)**
4. “T…lur”. Yurt so`zining ma’nodoshi orqali hosil bo`ladigan kimyoviy element nomi. **(Tellur)**
5. “Oltin…”. Olov hosil qilish uchun ishlatiladigan jism yordamida hosil bo`ladigan kimyoviy element. **(Oltingugurt)**



XULOSALAR

1. Akademik litsey kimyo darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida utish uslubiyoti yaratildi. Talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllanuvida, murakkab vaziyatda uzini erkin tutib mustaqil ravishda to‘g‘ri yo‘l tanlay bilishida zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan darslarning ahamiyati samarali ekanligiga ishonch hosil qilindi.

2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali elektron versiyalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish kuzda tutuilgan xolda kimyoga oid mavzularni o‘qitishda didaktik talablar bilan bir qatorda, uni sifati va samarali qo‘llanishiga ta’sir etuvchi psixologik talablar asosida ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Худойназарова Б.А., Мавлонов Б.А., Идиева Л.Б., Турсунова Н., Ахмедов В.Н. Академик лицей кимё дарсларида юқори молекулали бирикмалар тузилиши ва хоссалари мавзусини ўқитиш услубиёти// II –Республика илмий – амалий конф. Аналитик кимё фанининг долзарб муаммолари. Термиз.-2005. -162-163б

2. Худойназарова Г.А. Академик лицей кимё дарсларида Юқори молекулули бирикмаларга оид мавзуларни ўқитишда «ёзма бахс» услубидан фойдаланиш

3.Хўжаев Б.К., Олимов Ш.Ш. Янги педагогик технологиялар - Б.: “Бухоро” , 2004 - 119б.

4. Р.Ишмуҳаммедов, М.Юлдашев. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар.- Т.: 2013. -278б.

Internet sahifalari
1. www.ziyonet.uz
2. http://www.ximik.ru
3. http://www.chemistry.com
4. www.Pedagog.uz
5. www.chemistry.ru
6. http://collej.ru/chemstry

COMPREHENSIVE APPLICATION OF STEAM, CLIL AND PBL MODELS IN TRANSITIONING FROM TRADITIONAL EDUCATION TO 4K COMPETENCES

Rajapboyeva Rakhima Hamid qizi
Urgench RANCH Technological University Master's student in Pedagogy

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy ta'lim tizimining XXI asr talablariga javob berish zaruratini tahlil qiladi va shu maqsadda STEAM, CLIL hamda PBL kabi innovatsion pedagogik metodlarning o'rnini o'rganadi. Tadqiqotda bu metodlarning bilimlarni shakllantirish nazariyasi (constructivism) asosidagi kognitiv afzalliklari, ularning 4K kompetensiyalarini (tanqidiy fikrlash, kreativlik, hamkorlik, muloqot) shakllantirishdagi integrativ imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada o'qituvchining rolini pedagogik dizayner darajasiga ko'tarish va ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashning muhimligi asoslangan.

Kalit so'zlar: Innovatsion ta'lim, STEAM yondashuvi, CLIL, PBL, 21-asr kompetensiyalari, pedagogik integratsiya, dizayn fikrlash, konstruktivizm.

Abstract: This article analyzes the necessity for the modern education system to meet the demands of the 21st century and examines the role of innovative pedagogical methods such as STEAM, CLIL, and PBL. The research highlights the cognitive advantages of these methods, based on Constructivism theory, and their potential for integrated development of the 4C competencies (critical thinking, creativity, collaboration, communication). Furthermore, the paper substantiates the need to elevate the teacher's role to that of a Pedagogical Designer and emphasizes the importance of incorporating digital technologies into the curriculum.

Keywords: Innovative education, STEAM approach, CLIL, PBL, 21st-century competencies, pedagogical integration, design thinking, constructivism.

Аннотация: Данная статья анализирует необходимость соответствия современной системы образования требованиям XXI века и исследует роль таких инновационных педагогических методов, как STEAM, CLIL и PBL. В исследовании освещены когнитивные преимущества этих методов, основанные на теории конструктивизма, а также их интегративный потенциал для развития компетенций 4К (критическое мышление, креативность, коллаборация, коммуникация). Кроме того, в статье обоснована необходимость повышения роли преподавателя до уровня Педагогического Дизайнера и подчеркивается важность внедрения цифровых технологий в учебный процесс.

Ключевые слова: Инновационное образование, STEAM-подход, CLIL, PBL, компетенции XXI века, педагогическая интеграция, дизайн-мышление, конструктивизм.

Introduction. Today's 21st century is experiencing an unprecedented period of rapid change and technological progress in the field of education. Traditional pedagogical approaches based on the transfer of knowledge are no longer sufficient to prepare the younger generation for a complex, changing labor market. The global economy requires not only factual knowledge, but also practical competencies (4K) such as critical thinking, creativity, communication and collaboration. Therefore, the educational paradigm has become necessary to move from passive reception to active creation. These fundamental changes require the introduction of new innovative methods into pedagogical practice that form the student as an active subject, in particular, approaches based on the principles of the theory of knowledge formation (constructivism).

In this regard, interest in integrative and practice-oriented methods such as STEAM (science, technology, engineering, art, mathematics), CLIL (content and language integrated learning), and PBL (project-based learning) has significantly increased in the scientific literature. These methods, through their mutual integration, serve to develop interdisciplinary thinking, cognitive flexibility, and metacognitive skills in students. While STEAM provides creative problem solving through design thinking, CLIL allows for high-level cognitive processes in a foreign language, and PBL teaches the application of knowledge in a real-life context through the principle of authenticity. However, the interaction of these methods with each other and the mechanisms for optimizing educational effectiveness through the integrated use of all of them have not yet been fully studied.

Main part. Modern philosophy of education is based on the principle of constructivism, which emphasizes that the learner is not a passive recipient of knowledge, but an active builder of it through his own experience. Albert Einstein: “Education is not the study of facts, but the training of the mind to think.”[32] this idea is the basis of this constructivist approach and means raising education to the higher levels of Bloom's Taxonomy, that is, to the level of "creation". In comparison with traditional (behavioristic) education, STEAM, CLIL and PBL methods are aimed at increasing the student's internal motivation and creative approach, and strive to form the student as an independent thinker and a person ready to actively participate in society. This set of methods creates a systematic basis for the development of the most important 4K competencies of the 21st century (critical thinking, creativity, collaboration, communication). The first innovative approach to education that meets the demands of the times is STEAM (science, technology, engineering, art, mathematics) - a practice-oriented educational model based on interdisciplinary integration. This method serves to develop students' engineering thinking and creative potential together. As Yong Zhao noted, "Integrating art into STEM education increases creativity and innovation.”[33] This idea justifies the need to include not only technical knowledge, but also aesthetic thinking and creative solutions. A direct result of introducing this element of art is that the main methodological core of STEAM is “Design Thinking”. Its essence is to find solutions focused on human needs, which requires understanding the problem from the user’s perspective at the empathy (understanding) stage. Subsequently, a culture of learning from mistakes is formed by rapidly creating a solution and testing it at the prototype and iteration stages. STEAM education uses high-tech technologies such as robotics, programming and 3D modeling. This serves to equip students with digital literacy and to shape them as creators, not consumers of technology.

Continuing the interdisciplinary integration idea of STEAM, the second important method — CLIL (content and language integrated learning) — is an approach aimed at two-way development by teaching students a foreign language and teaching other subjects in that language. As David Marsh noted, “CLIL allows students to learn language and content at the same time, developing deep understanding and intercultural competence.” The uniqueness of the CLIL approach lies in

[32] Einstein A. The World As I See It. - New York. Philosophical Library. 1934. 28 p
[33] *Zhao Y. Catching up or leading the way: American education in the age of globalization. ASCD. 2009. P. 154.*

the development of cognitive flexibility through its 4C principle. That is, in the cognitive demand (cognition), students manage two cognitive loads (language and science) simultaneously, which creates new neural connections in their brains and increases their ability to solve problems in different languages, that is, cognitive flexibility. In the communication principle (communication), language becomes a means of exchanging ideas about the content of the subject, based on the "practical application theory of language". Finally, learning through the element of culture (culture) introduces students to global cultures and develops intercultural competence. For countries like Uzbekistan that are striving for international cooperation, CLIL is an important strategic tool for training highly qualified, multilingual specialists. Like the STEAM and CLIL methods discussed, a third important approach—Project-Based Learning (PBL)—is also focused on practical skills, focusing on students acquiring knowledge and skills through solving real-life problems. John W. Thomas describes PBL as follows: "Project-based learning allows students to control their own learning, and it fosters critical thinking and collaboration."[34] The practice-based nature of PBL serves to develop metacognitive skills (thinking about thinking), which are its most important effect. Through the principle of self-regulation, students manage their own learning pace, resources, and deadlines, which strengthens their sense of responsibility. At the same time, the project's authenticity requirement develops students' skills in applying knowledge to practice. With the expansion of assessment, assessment in PBL is not only based on the final product, but also on the Portfolio[35], covers complex skills through methods such as self-assessment and group assessment.

As discussed in detail above, the integration of STEAM, CLIL and PBL methods with each other significantly optimizes the effectiveness of education. For example, through PBL + STEAM Integration, students create a prototype based on interdisciplinary knowledge to solve a real-life problem. Similarly, CLIL + PBL Integration ensures that the project is implemented in a foreign language, making language learning a practical necessity. The use of these innovative approaches fundamentally changes the traditional role of the teacher. Now, the teacher is not a transmitter of the content of the learning process, but a

[34] *Thomas J.W. A review of research on project-based learning.* – California. *The autodesk foundation. 2000. March. p. 14*

[35] **Portfolio** so'zi odatda shaxsning, tashkilotning yoki loyihaning eng yaxshi ishlarini, yutuqlarini, malakasini va qobiliyatlarini namoyish etuvchi tartiblangan yig'ma to'plam degani. Bu so'z lotincha portare (olib yurmoq) va foglio (varaq, qog'oz) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "qog'oz varaqlarini olib yurish" ma'nosini bildiradi.

creator of the learning environment as a pedagogical designer. Also, as a coach and mentor, he shows the student not a ready-made answer, but ways to independently achieve his knowledge. These methods require extensive use of digital technologies, such as web-based research, virtual and augmented reality (VR/AR) tools, online collaboration platforms make the learning process more interactive and personalized.

Conclusion. The conducted analysis confirmed that the introduction of innovative methods such as STEAM, CLIL and PBL in modern education is not just a pedagogical trend, but a strategic necessity to meet the requirements of 21st century competencies (4K). Instead of a traditional knowledge-oriented education system, these integrative approaches serve to form the student as an active creator. STEAM, through the design thinking methodology, combines science, technology and art, developing a culture of creative problem solving. CLIL, on the other hand, increases the cognitive flexibility of the student by using language not as a separate subject, but as a means of acquiring cognitive processes and deep scientific knowledge. PBL, on the other hand, allows the application of the acquired theoretical knowledge to real-life projects based on the principle of authenticity. The mutual integration of these three methods is crucial for optimizing the effectiveness of education. PBL creates a common platform for implementing STEAM projects in a foreign language (CLIL), which ensures the coherence of knowledge. As a result of integration, students develop not only specific knowledge, but also metacognitive skills; that is, they acquire the ability to independently manage and evaluate their own learning processes. This increases the student's self-confidence and prepares them to be successful in a constantly changing world. The methods also require the teacher to elevate his role from that of a knowledge provider to that of a pedagogical designer and coach.

In addition, innovative methods are closely related to digital technologies. Technologies, in particular, virtual and augmented reality (VR/AR) and online collaboration platforms, make the learning process interactive, immersive and personalized (personalized learning). Through the use of technological tools, students are formed not only as consumers of information, but also as digital creators. These educational approaches are of great strategic importance, especially for developing countries like Uzbekistan, in forming a highly qualified, multilingual and globalization-ready human resource pool. Their introduction into the system is the main direction of bringing the quality of education into line with international standards. In short, the future of education is based on

the dialectical unity of knowledge and practice. Through the widespread use of a complex of STEAM, CLIL and PBL methods, the intellectual, emotional and social development of the student is ensured in a harmonious manner. The main task facing the education system is not only to convey content, but also to teach "learning to learn", that is, to make the student an active manager of his own educational path. This is a guarantee of increasing the effectiveness of education and preparing the younger generation for success in a constantly changing world.

References:

1. Einstein A. The World As I See It. - New York. Philosophical Library. 1934. 28 p
2. Zhao Y. Catching up or leading the way: American education in the age of globalization. ASCD. 2009. P. 154.
3. David Marsh. CLIL: content and language integrated learning. – Cambridge. Cambridge University Press. 2002. P. 22.
4. Thomas J.W. A review of research on project-based learning. – California. The autodesk foundation. 2000. March. p. 14
5. Portfolio so'zi odatda shaxsning, tashkilotning yoki loyihaning eng yaxshi ishlarini, yutuqlarini, malakasini va qobiliyatlarini namoyish etuvchi tartiblangan yig'ma to'plam degani. Bu so'z lotincha portare (olib yurmoq) va foglio (varaq, qog'oz) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "qog'oz varaqlarini olib yurish" ma'nosini bildiradi.

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA LOGARIFMIK TENGLAMALAR VA TENGSIZLIKLAR (10-SINF) MAVZULARINI O’QITISH METODIKASI

R.D.Otanazarova

Urganch davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda logarifmik tenglamalar va tengsizliklar mavzusini 10-sinf o’quvchilariga AI vositalari va hozirgi zamon raqamli texnologiyalari asosida o’qitish samarali usul ekanligi ko’rib chiqiladi. Shu bilan birga, an’anaviy o’qitish usuli va zamonaviy metodikalar yordamida darsni tashkil qilish solishtiriladi.

Annotation. This study examines the effectiveness of teaching logarithmic equations and inequalities to 10th grade pupils using AI tools and modern digital technologies. It also compares the organization of lessons using traditional teaching methods and modern methodologies.

Kalit so’zlar. o’nlik (10 asosli) logarifmlar, natural (e asosli) logarifmlar, sun’y intellekt**,** Desmos, GeoGebra

Keywords. base-10 logarithms, base-e logarithms, artificial intelligence, Desmos, GeoGebra.

Kirish. Matematika fani nafaqat nazariy bilim berish balki o'quvchilarning amaliy bilimlarini oshirishni ham qo'llab quvvatlaydi bundan tashqari mantiqiy tafakkur va analitik fikrlashni ham shakllantirishda muhim ro'l o'ynaydi. Ayniqsa, logarifmik tenglama va tengsizliklar mavzusini 10-sinfda o'qitish o'quvchilarning kelgusida oladigan exponensial o'sish va kamayish jarayonlariga oid bilimlarni chuqurroq egallash uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Nazariy asoslar. Logarifm darajaga oshirish amaliga nisbatan teskari amal hisoblanadi va logarifmlar yordamida hisoblanish murakkab bo'lgan ko'paytirish va bo'lish amallarini qo'shish va ayirishga aylantirish mumkin. Shuningdek, bu hisoblash jarayonini tez, qulay va kam xatoli qilish imkonini beradi.(Jhon Napier & Henry Briggs, 1619).

Ilmiy tadqiqotlarda logarifmga doir ko'plab ilmiy ishlarni ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, Henry Briggs - o'nlik (10 asosli) logarifmlarni takomillashtirgan, Leonhard Euler - natural (e asosli) logarifmlar tushunchalarini rivojlantirgan va ularning logarifmlar ustida qilgan hisob kitoblarini AI vositalari yordamida yanada chuqurroq tahlil qilib o'qitish mumkin.

Pedagogik izlanishlar shuni tasdiqlaydiki, an'anaviy usullar yordamida 10-sinf o'quvchilariga logarifmik tenglama va tengsizliklar mavzusini o'qitishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelish mumkin masalan logarifmik funksiyalarni real hayot bilan bog'langan namunalarni tasavvur qila olmaslik va buning natijasida logarifm bilan yechilishi oson bo'lgan masalalarga boshqa tomondan yondashib ishni murakkablashtirish va buning natijasida hisoblashda xatolikka yo'l qo'yish mumkin logarifmlar esa aniq hisob kitobga asoslangan.

Shu nuqtai nazardan, bunday muammolarni hal qilish uchun interfaol metodlar, differensial yondashuv va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish lozim. Shu bilan birga, dars jarayonlarida sun'iy intellektdan foydalanish o'quvchilarda nafaqat logarifmik tenglamalar va tengsizliklarni to'g'ri ishlash balki, bir vaqtning o'zida uning yechimlarini visual tarzda anglash, natijalarni olish, tahlil va prognoz qilish ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Sun'iy intellekt vositalarining o'rni. AI vositalaridan foydalanib darsni tashkil etish o'quvchilar bilimining sifatini oshirishga yordam beradi.

Shu jumladan, logarifmik funksiyalarni o’qitishda va ular haqida umumiy tushuncha berishda quyidagi matematik dasturlar samarali hisoblanadi:

Desmos – matematik funksiyalarni grafik ko’rinishda tasvirlash va tahlil qilish;

GeoGebra – matematika va geometriyani vizual tarzda o’rganish.

Metodika va olingan natijalar. An’anaviy usul nazariy bilim berish va misollar ishlash bilan chegaralanadi. AI vositalari va matematik dasturlar yordamida o’qitish esa o’quvchilarning mantiqiy fiklash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ushbu tadqiqot jarayonida an’anaviy o’qitish va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanib darsni tashkil qilishdagi farqli jihatlar ko’rib chiqildi va taqqoslandi.

Xulosa. Yuqorida olib borilgan tadqiqot shuni ko’rsatadiki, sun’iy intellekt vositalaridan foydalanib logarifmik tenglamalar va tengsizliklar(10-sinf) mavzularini o’qitish ijobiy natija beradi. Ushbu metod yordamida o’quvchilar murakkab va yechilishi qiyin bo’lgan masalalarning tez, oson va behato yechimiga erishishlari va bu ularning matematik bilim salohiyatini sezilarli darajada oshirishga hissa qo’shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. John Napier & Henry Briggs. (1619). “The construction of the wonderful canon of logarithms”
2. Henry Briggs. (1624).”Arithmetical Logarithmica”
3. Chris Stokel – Walker (2024). “ A Brief History of Articial Intelligence and it’s Long Future”
4. Parmy Olson (2024). “AI, ChatGPT and the Race that Will Change the World”
5. Richard Sasskind (2025). “Sun’iy intellekt: Uni qanday tushunish lozim?”
6. H.N.Zaynidinov, T.A.Xo’jaqulov, M.P.Atadjanova (2018). “Sun’iy intellekt” fanidan o’quv qo’llanma.
7. Samuel Adegboye (2023). “A simple approach to logarithm”.

INSON AXBOROT FAOLIYATDAGI REAL VAZIYATLARNI MODELLASHTIRISH

Bekchanova Yulduz Masharipovna

Osiyo xalqaro uiversiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada insonning axborot faoliyatida real vaziyatlarni modellashtirish jarayoni, uning nazariy asoslari va amaliy

ahamiyati yoritiladi. Modellashtirish orqali murakkab axborot jarayonlarini soddalashtirish, qaror qabul qilishni optimallashtirish va turli vaziyatlarni oldindan tahlil qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, insonning kognitiv faoliyati, tafakkur jarayonlari va axborotni qayta ishlash mexanizmlarining modellashtirishdagi roli tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv ta’lim, boshqaruv va axborot texnologiyalari sohalarida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar:modellashtirish, axborot faoliyati, real vaziyatlar, kognitiv jarayonlar, qaror qabul qilish, axborotni qayta ishlash, tafakkur, simulyatsiya, tahlil

Аннотация.В данной статье рассматривается процесс моделирования реальных ситуаций в информационной деятельности человека, его теоретические основы и практическое значение. Моделирование позволяет упростить сложные информационные процессы, оптимизировать принятие решений и прогнозировать различные ситуации. Также анализируется роль когнитивных процессов, мышления и механизмов обработки информации в процессе моделирования. Данный подход способствует повышению эффективности в сфере образования, управления и информационных технологий.

Ключевые слова: моделирование, информационная деятельность, реальные ситуации, когнитивные процессы, принятие решений, обработка информации, мышление, симуляция, анализ

Annotation. This article examines the process of modeling real-life situations in human information activity, its theoretical foundations, and practical significance. Modeling helps simplify complex information processes, optimize decision-making, and predict various scenarios. The paper also analyzes the role of cognitive processes, thinking, and information-processing mechanisms in modeling. This approach enhances efficiency in education, management, and information technology fields.

Keywords: modeling, information activity, real-life situations, cognitive processes, decision-making, information processing, thinking, simulation, analysis

Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda inson faoliyati tobora murakkablashib, turli xil axborot oqimlari bilan bevosita bog‘lanib bormoqda. Har kuni inson katta hajmdagi ma’lumotlarni qabul qiladi, qayta ishlaydi va ularga asoslanib qarorlar qabul qiladi. Bunday sharoitda real vaziyatlarni to‘g‘ri anglash va samarali boshqarish uchun modellashtirish jarayoni muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi[1]. Real

vaziyatlarni modellashtirish insonning axborot faoliyatini optimallashtirish, murakkab jarayonlarni soddalashtirish va aniq qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Modellashtirish – bu real obyekt, jarayon yoki hodisani uning muhim xususiyatlarini saqlagan holda soddalashtirilgan shaklda ifodalash jarayonidir. Axborot faoliyatida modellashtirish orqali inson murakkab vaziyatlarni tahlil qilish, ularning rivojlanish ehtimollarini oldindan ko‘rish va eng maqbul yechimni tanlash imkoniga ega bo‘ladi. Ayniqsa, noaniqlik va tavakkalchilik yuqori bo‘lgan vaziyatlarda modellashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonning axborot faoliyatida modellashtirish jarayoni bevosita kognitiv jarayonlar bilan bog‘liq[2]. Tafakkur, xotira, diqqat va tasavvur kabi psixik jarayonlar real vaziyatlarni modellashtirishda asosiy rol o‘ynaydi. Masalan, inson biror muammoni hal qilish jarayonida avvalgi tajribasiga tayanadi, turli variantlarni tasavvur qiladi va ularni solishtirib, eng maqbulini tanlaydi. Bu esa ichki psixik model yaratish orqali amalga oshadi.

Real vaziyatlarni modellashtirish jarayonida inson axborotni qayta ishlashning turli usullaridan foydalanadi. Jumladan, tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash va abstraksiyalash kabi fikrlash operatsiyalari muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlar orqali inson real vaziyatning asosiy jihatlarini ajratib oladi va ularni soddalashtirilgan model ko‘rinishida ifodalaydi[3]. Natijada murakkab vaziyatlar tushunarli va boshqariladigan shaklga keladi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi real vaziyatlarni modellashtirish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Kompyuter dasturlari, sun’iy intellekt tizimlari va simulyatsiya texnologiyalari yordamida inson murakkab jarayonlarni aniqroq va tezroq modellashtira oladi. Masalan, iqtisodiyot, tibbiyot, ta’lim va boshqaruv sohalarida turli xil modellar yordamida vaziyatlarni oldindan baholash va samarali qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratilgan.

Ta’lim jarayonida real vaziyatlarni modellashtirish alohida o‘rin tutadi. O‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda modellashtirish muhim vosita hisoblanadi. Masalan, interaktiv mashg‘ulotlar, keys-stadi usullari va virtual simulyatsiyalar orqali o‘quvchilar real hayotga yaqin vaziyatlarda o‘z bilimlarini sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Boshqaruv faoliyatida ham modellashtirish muhim ahamiyatga ega. Rahbarlar turli qarorlar qabul qilish jarayonida mavjud vaziyatni tahlil

qiladi, ehtimoliy natijalarni modellashtiradi va eng samarali strategiyani tanlaydi[4]. Bu esa tashkilot faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, strategik rejalashtirish jarayonida modellashtirish muhim vosita sifatida qo‘llaniladi.

Real vaziyatlarni modellashtirish insonning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Modellashtirish jarayonida inson yangi g‘oyalar ishlab chiqadi, turli variantlarni sinab ko‘radi va innovatsion yechimlar topishga intiladi. Bu esa uning intellektual salohiyatini oshiradi va shaxs sifatida rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[5].

Shu bilan birga, modellashtirish jarayonining ayrim cheklovlari ham mavjud. Har qanday model real vaziyatning to‘liq aksini bermaydi, balki uning soddalashtirilgan ko‘rinishi hisoblanadi. Shuning uchun model asosida qabul qilingan qarorlar har doim ham kutilgan natijani bermasligi mumkin. Bu holat insondan tanqidiy fikrlashni, modelni to‘g‘ri baholashni va zarur hollarda uni takomillashtirishni talab qiladi.

Zamonaviy jamiyatda axborot hajmining ortib borishi insondan yuqori darajadagi axborot madaniyatini talab etadi. Bu esa real vaziyatlarni modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni zarur qiladi. Inson qanchalik to‘g‘ri va samarali model yarata olsa, uning qaror qabul qilish jarayoni shunchalik aniq va samarali bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, inson axborot faoliyatidagi real vaziyatlarni modellashtirish zamonaviy psixologiya va axborot texnologiyalari kesishgan nuqtada joylashgan muhim jarayondir. U insonning kognitiv faoliyatini rivojlantirish, murakkab vaziyatlarni tahlil qilish va samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shu sababli, modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish bugungi kunda ta’lim va kasbiy faoliyatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Herbert A. Simon. The Sciences of the Artificial. MIT Press, 1996.
2. Norbert Wiener. Cybernetics: Or Control and Communication in the Animal and the Machine. MIT Press, 1948.
3. John von Neumann va Oskar Morgenstern. Theory of Games and Economic Behavior. Princeton University Press, 1944.
4. Daniel Kahneman. Thinking, Fast and Slow. New York: Farrar, Straus and Giroux, 2011.
5. Allen Newell va Herbert A. Simon. Human Problem Solving. Prentice-Hall, 1972.
6. Stuart Russell va Peter Norvig. Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson, 2021.

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA INFORMATIKA FANINI O‘QITISH ORQALI O‘QUVCHILARNING RAQAMLI SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH

Raximova Tozagul Sobir qizi
Jaloliddin manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyi informatika va At fani o‘qituvchisi
Jaksimuratov Dauletbay Zaripbay uli
Jaloliddin manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyi 2-bosqich o‘quvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarini informatika faniga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida AI vositalarining shaxsiylashtirilgan ta’lim, avtomat-lashtirilgan baholash, algoritmik tafakkurni rivojlantirish va axborot xavfsizligi kompetensiyalarini shakllantirishdagi imkoniyatlari o‘rganildi. Xalqaro tajriba hamda zamonaviy ilmiy manbalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, raqamli savodxonlik, generativ AI, chatbot, ta’lim texnologiyalari, kiberxavfsizlik.

Kirish . XXI asrda jamiyatning barcha sohalarida raqamlashtirish jarayonlari jadallashib, insondan yangi bilim va ko‘nikmalarni talab qilmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida shaxsning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uning raqamli savodxonlik darajasiga bog‘liq bo‘lib qoldi. Shu sababli umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish strategik vazifa sifatida qaralmoqda. Zamonaviy o‘quvchi nafaqat kompyuter va internetdan foydalanishni, balki axborotni tanlash, tahlil qilish, raqamli muhitda xavfsiz ishlash hamda yangi texnologiyalarni yaratishda ishtirok etishni bilishi zarur.So‘nggi yillarda ChatGPT, Gemini, GitHub Copilot kabi sun’iy intellekt vositalarining ommalashuvi ta’lim tizimida yangi imkoniyatlarni yaratdi. Mazkur vositalar matn yaratish, dasturlashni tushuntirish, savollarga javob berish, ma’lumotlarni tahlil qilish va o‘quv materiallarini tayyorlash imkonini bermoqda.

Shu nuqtai nazardan, informatika fanini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masalaga aylandi. Sun’iy intellekt vositalari ta’limni individuallashtirish, dars samaradorligini

oshirish, o‘quvchi faolligini kuchaytirish va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda ko‘plab davlatlar maktab ta’limiga AI elementlarini bosqichma-bosqich joriy etishni boshlagan. Bu esa mazkur yo‘nalishning strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – informatika fanini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshirishning nazariy asoslarini tahlil qilishdan iborat.

Raqamli savodxonlik tushunchasi va uning tarkibi. Raqamli savodxonlik — bu shaxsning raqamli texnologiyalarni tushunishi, ulardan samarali, xavfsiz va maqsadli foydalanishi, axborotni izlash, baholash, yaratish va almashish qobiliyatidir.

Xalqaro tadqiqotlarda raqamli savodxonlik quyidagi tarkibiy qismlarga
ajratiladi:

1. • Kompyuter va mobil qurilmalardan foydalanish;
2. • Internet tarmoqlarida ishlash;
3. • Axborotni izlash va saralash;
4. • Media materiallarni tahlil qilish;
5. • Kiberxavfsizlik qoidalariga rioya etish;
6. • Dasturlash asoslari;
7. • Onlayn hamkorlik va muloqot.

Bugungi kunda mazkur ro‘yxatga sun’iy intellekt bilan ishlash kompetensiyasi ham qo‘shilmoqda. Chunki AI vositalaridan foydalanish foydalanuvchidan axborotni to‘g‘ri shakllantirish, natijani tekshirish va etik foydalanishni talab qiladi. Jahon iqtisodiy forumi prognozlariga ko‘ra, kelajak kasblarining aksariyatida raqamli ko‘nikmalar asosiy talab sifatida qaraladi.

Informatika fani o‘quvchilarda raqamli muhitda faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim va malakalarni shakllantiruvchi asosiy fanlardan biridir. Ushbu fan orqali o‘quvchilar:

- kompyuter va dasturiy vositalar bilan ishlashni;
- internet resurslaridan foydalanishni;
- algoritmik fikrlashni;

- ma’lumotlarni qayta ishlashni;
- dasturlash asoslarini;
- axborot xavfsizligi qoidalarini o‘rganadilar.

Shu bois sun’iy intellekt texnologiyalarini informatika darslariga integratsiya qilish raqamli savodxonlikni rivojlantirishning tabiiy davomi hisoblanadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, o‘qitish sifatini oshirish va o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashgan ta’lim muhitini yaratishda muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy AI vositalari an’anaviy ta’lim metodlarini to‘ldirib, o‘quv jarayonini interaktiv, moslashuvchan va natijador shaklga keltiradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan ta’lim jarayonida maqsadli va metodik asosda foydalanish o‘quvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Raqamli savodxonlik bugungi kunda faqat kompyuter yoki dasturlardan foydalanishni bilish bilangina cheklanmay, balki axborotni tanlash, tahlil qilish, texnologiyalardan samarali foydalanish va raqamli muhitda mas’uliyatli harakat qilish kompetensiyalarini ham qamrab oladi. Sun’iy intellekt vositalari aynan shu ko‘nikmalarni shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari bugungi kunda informatika ta’limini yanada samarali, interaktiv va zamonaviy tashkil etish imkonini bermoqda. Mazkur texnologiyalar o‘quv jarayonini individuallashtirish, murakkab mavzularni sodda tushuntirish, amaliy mashg‘ulotlarni takomillashtirish hamda bilimni tezkor baholashda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shu sababli sun’iy intellektning informatika fanini o‘qitishdagi imkoniyatlarini ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqot doirasida shartli pedagogik kuzatuv usuli asosida 20 nafar o‘quvchi ishtirokida sun’iy intellekt vositalari qo‘llangan amaliy dars mashg‘ulotlari tashkil etildi. Tajriba jarayonida o‘quvchilarga dasturlash asoslari, algoritmik fikrlash va raqamli savodxonlikka oid topshiriqlar berildi hamda ChatGPT, kod tahlil qiluvchi platformalar va interaktiv AI yordamchilaridan foydalanildi. Mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilarning topshiriqlarni bajarish tezligi, xatolar soni, mustaqil ishlash ko‘nikmasi va darsga bo‘lgan qiziqish darajasi kuzatildi. Olingan natijalar sun’iy intellekt vositalari qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilarning faolligi ortgani, murakkab mavzularni o‘zlashtirish jarayoni tezlashgani hamda amaliy topshiriqlarni bajarish samaradorligi oshganini ko‘rsatdi.


Ko‘rsatkich	**An’anaviy usul**	**AI yordamida**

Vazifani bajarish tezligi	64%	86%
Kod xatolarini topish	58%	82%
Darsga qiziqish	61%	89%

1-jadval. Samaradorlik ko‘rsatkichlari

Natijalar AI vositalari o‘quvchilarning qiziqishi va amaliy faolligini oshirishini ko‘rsatdi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonida katta imkoniyatlar yaratishi bilan birga, ularni amaliyotga joriy etishda qator muammolar va cheklovlar ham mavjud. Mazkur omillarni hisobga olmasdan turib AI vositalaridan samarali foydalanish qiyin. Shu sababli ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanishda quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratish zarur.



Sun’iy intellekt vositalarining tezkor va qulay javob berishi ayrim hollarda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash faolligini pasaytirishi mumkin. Agar o‘quvchi har bir topshiriq uchun tayyor javobga murojaat qilsa, muammoni mustaqil tahlil qilish, izlanish olib borish va ijodiy yechim topish ko‘nikmalari sustlashadi. Natijada bilim olish jarayoni faol emas, passiv tus olishi ehtimoli mavjud.

Demak, sun’iy intellekt texnologiyalaridan ta’limda foydalanish katta istiqbolga ega bo‘lsa-da, uning samaradorligi mavjud muammolarni oldindan hisobga olish va ularni boshqarishga bog‘liq. Mustaqil fikrlashni qo‘llab-quvvatlash, akademik halollikni ta’minlash, pedagoglarni tayyorlash, texnik sharoitlarni yaxshilash va xavfsizlik

choralarini kuchaytirish orqali AI vositalaridan yanada unumli foydalanish mumkin.

Informatika fanini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshirishning samarali vositalaridan biridir. AI vositalari orqali o‘quvchilar axborotni izlash, tahlil qilish, yaratish va texnologik muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Shu bilan birga, tanqidiy fikrlash, etik foydalanish va mustaqil o‘rganish kompetensiyalari ham mustahkamlanadi. Kelajak ta’limida informatika fani doirasida AI texnologiyalarini ongli integratsiya qilish raqamli jamiyat uchun malakali avlodni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. (2023). Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO.
2. OECD. (2024). Artificial Intelligence and Digital Skills in Education. Paris: OECD Publishing.
3. Holmes, W. (2024). Artificial Intelligence and Education Futures. London.
4. Kasneci, E., et al. (2024). Opportunities and challenges of large language models in education. Learning and Instruction.
5. Zhang, Y. (2025). AI-supported digital literacy development in schools. Computers & Education.
6. Rahimov, A. (2024). Ta’limda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish istiqbollari. Pedagogik mahorat, 4(2), 38–44.
7. Jo‘rayev, S. (2025). Informatika fanida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi. Uzluksiz ta’lim, 3, 61–67.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA O'SMIRLARNI AXBOROT TAHDIDLARIDAN PSIXOLOGIK HIMOYA QILISH VA O'QUV MOTIVATSIYASIGA TA'SIRINI O’RGANISH

Rajabova Nigora Azamat qizi
Urganch Davlat Universiteti magistranti

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhitida o'smir talabalarning axborot tahdidlariga psixologik chidamliligini shakl-lantirish va bu jarayonning o'quv motivatsiyasi bilan o'zaro bog'liqligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Axborot tahdidlari o'quvchilarda o'quv faoliyatiga qiziqishni pasaytirishning yashirin omili ekanligi asoslab berilgan. Psixologik himoya mexanizmlarini mustahkamlash orqali o'quv motivatsiyasini oshirish yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, axborot tahdidlari, o'quv motivatsiyasi, psixologik himoya, o'smirlar, kiberbullying, media savodxonligi, reziliyentlik.

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируется психологическая устойчивость подростков к информационным угрозам в условиях цифровой образовательной среды и её взаимосвязь с учебной мотивацией. Обосновано, что информационные угрозы являются скрытым фактором снижения интереса учащихся к учебной деятельности. Показаны пути повышения учебной мотивации через укрепление механизмов психологической защиты.

Ключевые слова: цифровое образование, информационные угрозы, учебная мотивация, психологическая защита, подростки, кибербуллинг, медиаграмотность, резилентность.

ABSTRACT. This article provides a scientific and theoretical analysis of the psychological resilience of adolescents against information threats in digital educational environments and its relationship with academic motivation. It is argued that information threats serve as a latent factor in reducing students' interest in learning. Pathways to enhancing academic motivation through strengthening psychological protection mechanisms are identified.

Keywords: digital education, information threats, academic motivation, psychological protection, adolescents, cyberbullying, media literacy, resilience.

KIRISH

Raqamli ta'lim muhitining jadal rivojlanishi ta'lim jarayoniga misli ko'rilmagan imkoniyatlar ochib berdi: masofaviy ta'lim, interaktiv resurslar, sun'iy intellekt asosidagi platformalar o'quvchilarga bilim olishning yangi yo'llarini taqdim etmoqda. Biroq, bu muhitning orqa tomonida o'smirlar psixologik salomatligiga va, ayniqsa, o'quv motivatsiyasiga bevosita zarar yetkazuvchi jiddiy tahdidlar ham mavjud (Soldatova, Rasskazova, 2014). Kiberbullying, dezinformatsiya, manipulyativ kontent, onlayn o'yin qaramligi — bularning barchasi o'quvchining dars o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini so'ndiruvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Motivatsiya muammosi pedagogik psixologiyaning markaziy masalalaridan biri bo'lib kelgan. A. Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi ,E. Desining o'z-o'zini belgilash nazariyasi va A.K. Markovaning o'quv motivatsiyasi konsepsiyas, bularning barchasi motivatsiyani shakllantiruvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilgan. Ammo raqamli ta'lim davrida axborot tahdidlarining motivatsiyani susaytiruvchi latent

omil sifatidagi roli hali yetarlicha o'rganilmagan. Ushbu bo'shliqni to'ldirish maqolaning asosiy ilmiy ahamiyatini belgilab beradi.

Maqolaning maqsadi — raqamli ta'lim muhitida axborot tahdidlarining o'smirlar o'quv motivatsiyasiga salbiy ta'siri mexanizmlarini aniqlash va psixologik himoyani mustahkamlash orqali motivatsiyani oshirish imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Axborot tahdidlari va o'quv motivatsiyasining o'zaro bog'liqligi

Motivatsiya — o'quvchining ta'lim jarayoniga ongli va faol ishtirokini ta'minlovchi psixologik kuch. E.L. Desi va R.M. Rayan o'z-o'zini belgilash nazariyasida ichki motivatsiyaning uch asosiy ehtiyojga tayanishini ko'rsatgan: kompetentlik, muxtoriyat va bog'liqlik. Aynan shu uch ehtiyoj axborot tahdidlari tomonidan eng ko'p zarar ko'radi: kiberbullying o'quvchining kompetentlik his-tuyg'usini yo'q qiladi; manipulyativ kontent muxtoriyatni cheklaydi; ijtimoiy izolyatsiya esa bog'liqlik ehtiyojini qondirmaydi (Ryan & Deci, 2000).

Rossiyalik olima A.K. Markova ta'limiy motivatsiyaning tuzilmasida «muvaffaqiyatga erishish motivi» va «muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi» ni ajratib ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, kiberbullyingga duchor bo'lgan o'quvchilar ikkinchi motivga — muvaffaqiyatsizlikdan qochishga ko'proq moyil bo'ladilar. Bu holat esa o'quvchining ijodiy faolligini va ta'limga qiziqishini keskin pasaytiradi (Hinduja, Patchin, 2018).

Amerikalik tadqiqotchi M. Seligman o'rganilgan ojizlik (learned helplessness) nazariyasini raqamli muhitga tatbiq etib, doimiy onlayn tahqir va manipulyatsiyaga duchor bo'lgan o'smirlarning o'quv faoliyatida ham passiv, tashabbuskor bo'lgan xulq-atvor namoyon qilishini eksperimental jihatdan isbotladi. Bu — axborot tahdidlari bilan motivatsiya o'rtasidagi bevosita psixologik bog'liqlikning eng muhim dalilidir.

L.S. Vygotskiy o'smirlik davrining o'ziga xos psixologik neoplazmasini — o'z-o'zini anglash va refleksiya qobiliyatining shakllanishini ta'limiy jarayonning asosi sifatida ta'riflagan. Biroq, aynan shu davr o'smirni tashqi ta'sirlarga, jumladan axborot manipulyatsiyasiga eng sezgir qiladi. E. Erikson identifikatsiya inqirozi konsepsiyasida o'smirning «Men kimman?» savoliga javob izlashi uni virtual dunyodagi yolg'on identitetlarga moyil qilishini ko'rsatgan.

Neyropsiologik tadqiqotlar prefrontal korteks — qaror qabul qilish va impuls nazoratidan mas'ul miya sohasi — o'smirlik davrida hali to'liq yetilmaganligini aniqlagan (Casey et al., 2008). Bu biologik holat o'smirlarning raqamli muhitdagi jozibador, lekin zararli kontentdan

o'zlarini tiya olmashlarini va natijada o'quv vaqtlarini unumsiz sarflashlarini ilmiy jihatdan tushuntiradi.

O'zbek pedagog-psixologi O.K. Xoliqov tadqiqotlarida o'zbek o'smirlarining kuniga o'rtacha 5–7 soat raqamli qurilmalarga sarflashi, bu vaqtning 60% dan ortig'i ta'limga emas, balki ijtimoiy tarmoqlar va o'yinlarga ketishini aniqlagan. Bu ko'rsatkich bevosita o'quv motivatsiyasining pasayishi bilan korelyatsion bog'liqlikni namoyon etadi.

Psixologik himoya — motivatsiyani tiklashning strategik resursi

Zamonaviy psixologiyada psixologik himoya tushunchasi Z. Freydning dastlabki talqinidan ancha kengroq ma'no kasb etib, shaxsning axborot muhitidagi stressga qarshi aktiv moslashuv resursi sifatida qaralmoqda. A.A. Bodnev (2016) «axborot psixologik immunitet» tushunchasini kiritib, uni shaxsning manipulyativ ta'sirlarga tanqidiy javob berish va o'z faollik yo'nalishini saqlab qolish qobiliyati sifatida ta'riflaydi.

Media savodxonligi — axborot psixologik immunitetining asosi. UNESCO (2013) ta'rifiga ko'ra, media savodxonligi axborotni izlash, tahlil etish, baholash va ijodiy ishlatish qobiliyatini o'z ichiga oladi. D. Moser Shveytsariyada o'tkazgan eksperimental tadqiqotida media savodxonligi dasturlarini o'tagan o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi 28% ga oshganini, kiberbullyingga duch kelish ehtimoli esa 40% ga kamayganini aniqladi. Bu ikki ko'rsatkichning bir vaqtda yaxshilanishi psixologik himoya va motivatsiya o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni isbotlaydi.

Reziliyentlik — ya'ni stressli vaziyatlardan moslashuvchan tarzda chiqib ketish qobiliyati — motivatsiyani saqlab turishning muhim psixologik resursi sifatida A.S. Masten tomonidan tadqiq etilgan. Raqamli muhitda reziliyentlikni rivojlantirish uchun P. Salovey va J.D. Mayer tomonidan asoslangan emotsional intellekt alohida ahamiyat kasb etadi: his-tuyg'ularni tanish va boshqarish ko'nikmasi o'quvchini onlayn manipulyatsiyadan himoya qilib, ichki motivatsiyasini saqlab qolishga yordam beradi.

Tadqiqotlar axborot tahdidlari va o'quv motivatsiyasi o'rtasida to'rt xil mexanizm orqali bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi:

Emotsional mexanizm: Kiberbullying va onlayn tahqir o'quvchida uyat, qo'rquv va tushkunlik holatini keltirib chiqarib, o’qishga borishdan bosh tortish va o'quv faoliyatidan uzoqlashishga olib keladi (Hinduja & Patchin, 2018).

Kognitiv mexanizm: Dezinformatsiya va manipulyativ kontent o'quvchining bilishga bo'lgan tabiiy qiziqishini yo'q qilib, «hamma narsa yolg'on» degan kognitiv nihilizmni shakllantiradi. Bu holat o'quv predmetlariga bo'lgan qiziqishni ham pasaytiradi (Seligman, 2006).

Vaqt va e'tibor mexanizmi: Ijtimoiy tarmoqlardagi tahdidovchi muhit o'quvchini doimiy «nazorat holati»ga soladi — xabarnomalarni tekshirish, javob berish, himoyalanish. Bu holat ta'limga ajratiladigan kognitiv resurslarni keskin kamaytiradi (Casey et al., 2008).

Ijtimoiy mexanizm: Onlayn izolyatsiya va tengdoshlar tahqiri o'quvchining sinfdagi ijtimoiy integratsiyasini buzib, guruh ichida hamkorlikda o'qish motivatsiyasini yo'q qiladi (Ryan & Deci, 2000).

Psixologik himoya mexanizmlarini mustahkamlash esa aksincha — motivatsiyani tiklash va oshirishga xizmat qiladi. Finlyandiyada amalga oshirilgan KiVa dasturi (Salmivalli et al., 2011) kiberbullyingni 50% ga kamaytirish bilan birga ishtirokchi o'quvchilarning o'quv yutuqlari ham sezilarli darajada yaxshilanishini ko'rsatdi. Bu — psixologik xavfsizlik muhiti motivatsiyaning zaruriy sharti ekanligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

O'zbekiston kontekstida N.R. Ziyadullayeva (2021) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda axborot xavfsizligi bo'yicha treninglardan o'tgan o'quvchilarning o'quv faoliyatiga ishtiyoqi nazorat guruhiga nisbatan 22% ga yuqori bo'lganligi aniqlangan. Bu natija milliy ta'lim tizimida psixologik himoya dasturlarini joriy etishning amaliy asosini mustahkamlaydi.

Xulosa va tavsiyalar.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Raqamli ta'lim muhitidagi axborot tahdidlari o'smirlarning o'quv motivatsiyasini emotsional, kognitiv, vaqt-e'tibor va ijtimoiy mexanizmlar orqali susaytiradi;

2. Psixologik himoyani shakllantirish — nafaqat o'quvchini tahdidlardan asrash, balki uning o'quv motivatsiyasini qayta tiklash va mustahkamlashning strategik resursidir;

3. Media savodxonligi, emotsional intellekt va reziliyentlik — motivatsiyaning barqarorligini ta'minlovchi uchta asosiy psixologik himoya resursi hisoblanadi;

4. O'zbek o'smirlarining milliy-madaniy va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda raqamli muhitda psixologik xavfsizlikni ta'minlovchi mahalliy metodikalar ishlab chiqish zarur.

Amaliy tavsiyalar:

Maktab psixologlari uchun: Raqamli muhitda psixologik xavfsizlikni ta'minlash va media savodxonligini rivojlantirish bo'yicha haftalik treninglar tashkil etish; axborot tahdidi holatlarini erta aniqlash tizimini joriy qilish;

Ota-onalar uchun: Farzandlar bilan raqamli muhit xavflari haqida ochiq muloqot yuritish; onlayn faollikni baquvvat munosabat muhitida nazorat qilish;

Ta'lim muassasalari uchun: O'quv dasturlariga «Raqamli psixologik xavfsizlik» modulini kiritish; ijobiy onlayn hamjamiyat muhitini shakllantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bodnev, A.A. (2016). Informatsionnaya psikhologicheskaya zashchita lichnosti v tsifrovoy srede. Moskva: Nauka. — 218 b.
2. Casey, B.J., Jones, R.M., & Hare, T.A. (2008). The adolescent brain. Annals of the New York Academy of Sciences, 1124, 111–126.
3. Deci, E.L., Ryan, R.M. (1985). Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. New York: Plenum Press. — 371 b.
4. Erikson, E.H. (1968). Identity: Youth and Crisis. New York: Norton. — 336 b.
5. Hinduja, S., Patchin, J.W. (2018). Cyberbullying: Identification, Prevention, and Response. Cyberbullying Research Center, Samford University.
6. Markova, A.K. (1990). Formirovaniye motivatsii ucheniya v shkolnom vozraste. Moskva: Prosveshcheniye. — 192 b.
7. Maslow, A.H. (1943). A theory of human motivation. Psychological Review, 50(4), 370–396.

O‘QUVCHILARDA MATEMATIK FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Bobojonov Mahkamboy

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezis o‘quvchilarda matematik fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik mexanizmlarni aniqlash va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash shartlarini asoslashga bag‘ishlanadi. Tadqiqot konseptual tahlil va psixologik-pedagogik manbalarni integrativ talqin qilish metodiga tayangan. Ilmiy yangilik matematik fikrlashning operatsional, metakognitiv va motivatsion mexanizmlarini yagona modelda izohlashdadir.

Kalit so‘zlar:matematik fikrlash, psixologik mexanizm, metakognitsiya, refleksiya, abstraksiyalash, umumlashtirish, o‘quv motivatsiyasi.

Аннотация: Данный тезис посвящен выявлению психологических механизмов, служащих развитию математического мышления у учащихся, и обоснованию условий их применения в образовательном процессе. Исследование основано на методе концептуального анализа и интегративной интерпретации психолого-педагогических источников. Научная новизна заключается в объяснении операциональных, метакогнитивных и мотивационных механизмов математического мышления в единой модели.

Ключевые слова:математическое мышление, психологический механизм, метакогниция, рефлексия, абстрагирование, обобщение, учебная мотивация.

Abstract: This thesis is devoted to identifying psychological mechanisms that serve the development of mathematical thinking in students and substantiating the conditions for their application in the educational process. The research is based on the method of conceptual analysis and integrative interpretation of psychological and pedagogical sources. Scientific novelty lies in the interpretation of the operational, metacognitive, and motivational mechanisms of mathematical thinking in a single model.

Keywords:mathematical thinking, psychological mechanism, metacognition, reflection, abstraction, generalization, learning motivation.

Kirish. Matematik fikrlash o‘quv faoliyatining alohida turi bo‘lib, u nafaqat hisob-kitob yoki formulalarni eslab qolish bilan, balki muammoni ko‘rish, shartni tahlil qilish, model qurish, asoslash va natijani tekshirish kabi intellektual harakatlar tizimi bilan belgilanadi. Psixologik nuqtai nazardan matematik fikrlashni rivojlantirish masalasi shaxsning bilish jarayonlari, intellekt tuzilmasi, o‘quv faoliyati motivlari hamda o‘z fikrlashini boshqarish qobiliyatlari birligida ko‘riladi. Shuning uchun u faqat didaktik texnika emas, balki o‘quvchining kognitiv resurslarini safarbar etadigan, xatoni mazmunli tahlilga aylantiradigan va tushunishning ichki mezonlarini shakllantiradigan psixologik mexanizmlar majmuasidir. Zamonaviy tadqiqotlarda matematik kompetensiya tarkibida mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyatni strukturalash, dalillash madaniyati va metakognitiv nazorat asosiy o‘rin tutishi ta’kidlanadi [1]. Shu ma’noda matematik fikrlashni

rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash o‘quv jarayonida qaysi psixologik omillarni faollashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Matematik fikrlashning birinchi tayanch mexanizmi abstraksiyalash va umumlashtirish jarayonlaridir. O‘quvchi konkret misollar qatoridan invariant munosabatni ajratib olganida, u shart va natija o‘rtasidagi bog‘lanishni predmetli tasvirdan ajratadi, so‘ng uni belgi-ramzlar tizimida ifodalashga o‘tadi. Bu o‘tish jarayonida sezgi-idrok darajasidagi tasvirlar bilan mantiqiy tushunchalar o‘rtasida vositachi bo‘ladigan ichki rejalashtirish paydo bo‘ladi. Aynan shu ichki reja matematik fikrlashning psixologik “maydoni” bo‘lib, unda o‘quvchi ehtimoliy yechimlarni sinab ko‘radi, qadamlar ketma-ketligini oldindan ko‘ra oladi va ortiqcha harakatlarni qisqartiradi. Vygotskiy ta’kidlaganidek, tushuncha shakllanishi ijtimoiy vositachilik va belgilar orqali boshqariladigan ichki jarayon sifatida namoyon bo‘ladi [2]. Matematikada belgi tizimi ayniqsa kuchli vosita bo‘lgani uchun, abstraksiyalash mexanizmi o‘quvchining ramziy tilni “mazmun bilan to‘ldirish” qobiliyatiga bevosita bog‘liq: belgi faqat nom emas, balki amal, munosabat va cheklovlarni birlashtirgan semantik tugundir. Shuning uchun dars jarayonida bir formulani ko‘p takrorlashdan ko‘ra, uning kelib chiqishi, qo‘llanish chegarasi va alternativ ifodalarini tahlil qilish o‘quvchi ongida umumlashtirishning psixologik asosini mustahkamlaydi.

Ikkinchi mexanizm muammoni yechishdagi analitik-sintetik faoliyatdir. Analiz shartdagi berilganlar va izlanayotganlar orasidagi munosabatlarni ajratish, ortiqcha axborotni chetga surish hamda muhim cheklovlarni aniqlashni anglatadi. Sintez esa ajratilgan elementlarni yagona reja asosida birlashtirib, yechim strategiyasini qurishga imkon beradi. Pólya muammoni yechish bosqichlarini tushunish, reja tuzish, rejani bajarish va orqaga qaytib tekshirish sifatida ta’riflar ekan, bu jarayonlarning barchasi o‘quvchining kognitiv nazoratiga tayanishini ko‘rsatadi [3]. Psixologik jihatdan bu nazorat “maqsad–vosita” munosabatini ushlab turish, xatoni aniqlash va strategiyani almashtirishga tayyor turish demakdir. O‘quvchi ko‘pincha birinchi topilgan yo‘lga yopishib oladi; bu holat funksional fiksatsiya va ishchi xotira cheklovlari bilan izohlanadi. Demak, analitik-sintetik mexanizmni rivojlantirish uchun o‘quvchiga bir muammo uchun bir nechta yechim yo‘li borligini ko‘rsatish, yechimni taqqoslash va “nima uchun aynan shu yo‘l samaraliroq” degan savolni muhokama qilish zarur. Bu muhokama o‘quvchining fikrlash egiluvchanligini oshiradi va algoritmik ijroni mazmunli strategiyaga aylantiradi.

Uchinchi mexanizm metakognitsiya va refleksiyadir. Metakognitsiya o‘quvchining o‘z bilish jarayonlarini anglash, rejalashtirish, kuzatish va baholash qobiliyatini bildiradi; refleksiya esa bajarilgan harakatlar asoslarini izohlash, xatodan saboq chiqarish va keyingi faoliyat uchun umumiy qoida hosil qilishga xizmat qiladi. Flavell metakognitiv bilim va metakognitiv regulyatsiya farqini ko‘rsatib, o‘quvchi nafaqat “nimani bilaman”, balki “qanday o‘qiyman va qanday tekshiraman” degan savollarga ham javob topishi kerakligini asoslaydi [4]. Matematikada metakognitiv mexanizm ayniqsa muhim, chunki ko‘p xatolar hisoblashdagi emas, balki shartni noto‘g‘ri talqin qilish, noto‘g‘ri strategiyani tanlash yoki tekshiruvni tashlab ketish natijasida yuzaga keladi. Refleksiyani rivojlantirish uchun o‘qituvchi o‘quvchi yechimini faqat to‘g‘ri-noto‘g‘ri mezonida emas, balki dalillash darajasi, tekshiruv sifati va yechimning izchilligi mezonida ham baholashi lozim. Bunda “xato” jazolash obyekti emas, balki tushunishga olib boradigan diagnostik signal sifatida talqin qilinadi. Xatoni tahlil qilish jarayonida o‘quvchi o‘zining odatiy kognitiv xatolarini taniydi: shoshma-shosharlik, shartni oxirigacha o‘qimaslik, umumiy qoidani noto‘g‘ri ko‘chirish, analogiya bilan asossiz xulosa chiqarish. Shu tariqa refleksiya mexanizmi matematik fikrlashning barqarorligi va ishonchliligini oshiradi.

To‘rtinchi mexanizm motivatsion-regulyativ omillar bilan bog‘liq. Matematik fikrlash ko‘pincha intellektual noqulaylikni yengishni talab qiladi: muammo darhol “ochilmaydi”, bir necha urinishlar muvaffaqiyatsiz bo‘lishi mumkin, tekshiruv vaqt oladi. Bu jarayonda irodaviy boshqaruv, maqsadga yo‘naltirilganlik va o‘z-o‘zini qo‘llab-quvvatlash usullari muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchining “men matematikani eplay olmayman” kabi barqaror ishonchi paydo bo‘lsa, u kognitiv resurslardan foydalanishni ham cheklaydi; aksincha, o‘sish fikrlashi, ya’ni qobiliyat mehnat va strategiya orqali rivojlanadi degan ishonch, murakkab masalalarga kirishish ehtimolini oshiradi. Ushbu jihatlarni ta’lim amaliyotida hisobga olish, baholashning rag‘batlantiruvchi modelini tanlash, muvaffaqiyatni faqat natija bilan emas, jarayon sifati bilan ham bog‘lashni anglatadi. O‘zbekiston ta’lim muhitida matematik savodxonlikni oshirish bo‘yicha metodik yondashuvlarda ham muammoli ta’lim, faol fikrlashni qo‘llab-quvvatlash va o‘quvchining o‘z faoliyatini anglashiga sharoit yaratish ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rsatiladi [1]. Motivatsiya mexanizmi kuchli bo‘lganda metakognitiv nazorat ham faollashadi, chunki o‘quvchi tekshiruvni “majburiyat” emas, “ishonch mezoni” sifatida qabul qiladi.

Beshinchi mexanizm ijtimoiy-kognitiv vositachilik va kommunikativ asoslashdir. Matematik fikrlash ko‘pincha individual jarayon deb tasavvur qilinsa-da, sinfdagi muloqot, hamkorlikdagi tahlil va dalillar almashinuvi o‘quvchining tushuncha tuzilishini sezilarli o‘zgartiradi. O‘quvchi o‘z yechimini boshqalarga tushuntirganida, u ichki rejasini tashqi nutqqa ko‘chiradi, bu esa mantiqiy bo‘shliqlarni ko‘rinadigan qiladi. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi konsepsiyasiga ko‘ra, kattalar yoki tengdoshlar ko‘magida bajarilgan intellektual harakatlar keyinchalik ichki mulkka aylanadi [2]. Demak, matematik fikrlashni rivojlantirishda “tushuntirib ber” va “asoslab ber” talablari shunchaki nazorat emas, balki psixologik mexanizmni ishga tushiradigan vositadir. Kommunikativ asoslash jarayonida o‘quvchi mantiqiy bog‘lanishlarni aniq aytishga majbur bo‘ladi, shart va natija orasidagi o‘tishlarni formalizatsiya qiladi, natijada fikrlashning aniqligi hamda dalillash madaniyati shakllanadi.

Mazkur mexanizmlarni yagona tizim sifatida tasavvur qilish mumkin: abstraksiyalash va umumlashtirish matematik mazmunni quradi, analitik-sintetik faoliyat yechim strategiyasini tashkil qiladi, metakognitsiya va refleksiya jarayonni boshqaradi, motivatsion-regulyativ omillar barqarorlikni ta’minlaydi, ijtimoiy-kognitiv vositachilik esa mazmunni ichkilashtirishni tezlashtiradi. Ularning har biri alohida rivojlantirilsa-da, amaliyotda ular o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘quvchi abstrakt tushunchani “quruq formula” sifatida qabul qilsa, motivatsiya pasayadi; motivatsiya pasaysa, metakognitiv tekshiruv qisqaradi; tekshiruv qisqarsa, xatolar ko‘payadi va o‘ziga ishonch kamayadi. Aksincha, o‘quvchi muammoni turli usulda yechishni o‘rgansa, analitik egiluvchanlik ortadi, bu refleksiyani kuchaytiradi va muvaffaqiyat tajribasi motivatsiyani mustahkamlaydi. Shuning uchun ta’lim jarayonida mexanizmlarni alohida “mavzu” sifatida emas, didaktik vazifalarning ichki psixologik mazmuni sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘quvchilarda matematik fikrlashni rivojlantirish psixologik mexanizmlar tizimini uyg‘un faollashtirishni talab qiladi: abstraksiyalash va umumlashtirish tushunchaviy tayanchni yaratadi, analitik-sintetik faoliyat muammoni strukturalash va strategiya tanlashni ta’minlaydi, metakognitsiya hamda refleksiya nazorat va o‘z-o‘zini tuzatishni kuchaytiradi, motivatsion-regulyativ omillar intellektual qiyinchilikni yengish resurslarini safarbar qiladi, kommunikativ asoslash esa fikrni aniqlashtirib, ichkilashtirishni tezlashtiradi. Shu integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv

muhiti o‘quvchini tayyor algoritmlarni ijro etishdan mazmunli dalillash, tekshirish va umumiy qoida hosil qilish darajasiga olib chiqadi, natijada matematik fikrlash barqaror, ongli va transferga layoqatli kompetensiya sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘aniyev B. S. Matematik ta’lim metodikasi: nazariya va amaliyot. Toshkent, O‘qituvchi, 2019. 240 b.
2. Выготский Л. С. Мышление и речь. Москва, АСТ, 2020. 640 с.
3. Polya G. How to Solve It: A New Aspect of Mathematical Method. Princeton, Princeton University Press, 2004. 288 p.
4. Flavell J. H. Cognitive Development. Englewood Cliffs, Prentice-Hall, 1985. 320 p.
5. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. Москва, Политиздат, 1977. 304 с.
6. Богоявленская Д. Б. Психология творческих способностей. Москва, Академия, 2002. 320 с.

SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI IMKONIYATLARI

Isakjanova Saboxat Muhamedovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti, Jaloliddin Manguberdi harbiy akademik litseyi o‘qituvchisi
Sobirov Umidjon Reymbergan o’g’li, Ortiqov Ilhom Komil o’g’li
Jaloliddin Manguberdi harbiy akademik litseyi o’quvchilari

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning

yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishdagi o‘rni hamda ularning kichik biznesning barqaror o‘sishiga ta’siri tahlil qilingan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlar tadbirkorligi innovatsion g‘oyalarni amaliy biznesga aylantirishning muhim omillaridan biri sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalar, raqamli platformalar va avtomatlashtirilgan tizimlarning tadbirkorlik faoliyatidagi imkoniyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilingan. Maqola yakunida kichik biznesni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, yoshlar tadbirkorligi, kichik biznes, startap ekotizimi, innovatsion iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, biznes avtomatlashtirish, raqamli platformalar, barqaror iqtisodiy o‘sish

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib, sun’iy intellekt (SI) va raqamli texnologiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Jahon banki va OECD tahlillariga ko‘ra, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish kichik biznes samaradorligini oshirish, bozorga kirish to‘siqlarini kamaytirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim rol o‘ynamoqda. Shu nuqtayi nazardan, tadbirkorlik faoliyatining innovatsion shakllari, xususan yoshlar tadbirkorligi, iqtisodiy rivojlanishning muhim drayveri sifatida e’tirof etilmoqda.

Yoshlar tadbirkorligi zamonaviy iqtisodiyotda nafaqat iqtisodiy faollikni oshiruvchi omil, balki innovatsion g‘oyalarni amaliy biznes modelga aylantiruvchi asosiy kuch sifatida ham qaraladi. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) ma’lumotlariga ko‘ra, yosh tadbirkorlar raqamli texnologiyalarni tez qabul qilishi va yangi biznes modellarni joriy etishga moyilligi bilan ajralib turadi. Bu esa ularning startap ekotizimida faol ishtirokini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, startap ekotizimini rivojlantirish hamda raqamli iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, amaldagi jarayonlarda raqamli savodxonlik darajasi, innovatsion infratuzilma va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari bilan bog‘liq ayrim muammolar mavjud bo‘lib, ular yoshlar tadbirkorligi salohiyatidan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda.

Shu sababli, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish mexanizmlarini o‘rganish, ularning kichik biznes barqaror o‘sishiga ta’sirini tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolaning maqsadi ham aynan shu yo‘nalishda mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar zamonaviy tadbirkorlik faoliyatini tubdan o‘zgartirib, an’anaviy biznes modellarini raqamli va avtomatlashtirilgan tizimlarga aylantirmoqda. Ushbu jarayon biznes jarayonlarining samaradorligini oshirish, qaror qabul qilishni tezlashtirish hamda resurslardan optimal foydalanishni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Xususan, sun’iy intellekt asosidagi algoritmlar katta

hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali mijozlar xulq-atvorini aniqlash, bozor tendensiyalarini prognoz qilish va marketing strategiyalarini individualizatsiya qilish imkonini bermoqda.

Bugungi kunda AI texnologiyalari biznes jarayonlarining deyarli barcha bosqichlarida qo‘llanilmoqda. Masalan, mijozlarga xizmat ko‘rsatishda chatbotlar va virtual assistentlar inson resurslariga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirib, xizmat tezligini oshirmoqda. Shuningdek, mashina o‘rganish (machine learning) texnologiyalari asosida talab va taklif prognozi aniqligi oshib, biznes qarorlarining asoslanganligi kuchaymoqda. McKinsey Global Institute ma’lumotlariga ko‘ra, sun’iy intellektni joriy etgan korxonalar operatsion samaradorligini o‘rtacha 20–30 foizgacha oshirishga erishmoqda.

Raqamli texnologiyalar esa tadbirkorlik muhitini yanada inklyuziv va ochiq qilishga xizmat qilmoqda. Bulutli hisoblash (cloud computing) xizmatlari kichik biznes subyektlariga katta infratuzilma xarajatlarisiz ma’lumotlarni saqlash va boshqarish imkonini bermoqda. Elektron tijorat platformalari esa geografik chegaralarni yo‘q qilib, mahalliy tadbirkorlarning global bozorlarga chiqishiga sharoit yaratmoqda. Fintech yechimlari, jumladan onlayn to‘lov tizimlari va raqamli bank xizmatlari esa moliyaviy operatsiyalarni soddalashtirib, kichik biznesning likvidlik darajasini oshirmoqda.

Ayniqsa, yosh tadbirkorlar uchun ushbu texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular kam resurs bilan biznes boshlash va uni tez rivojlantirish imkonini beradi. Raqamli platformalar orqali yoshlar o‘z startap g‘oyalarini sinovdan o‘tkazishi, mijozlar bazasini shakllantirishi va investorlarga chiqishi mumkin. Bu jarayon innovatsion fikrlashni rag‘batlantirib, yangi biznes modellarining paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

Shu bois, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar nafaqat texnik vosita, balki zamonaviy tadbirkorlikning strategik rivojlanish omili sifatida qaralmoqda.

Yoshlar tadbirkorligi innovatsion iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u yangi g‘oyalarni tezkor biznes modelga aylantirish qobiliyati bilan ajralib turadi. Yoshlarning raqamli muhitga tez moslashishi, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishga bo‘lgan yuqori moyilligi ularni zamonaviy startap ekotizimining asosiy hara-katlantiruvchi kuchiga aylantirmoqda. Shu sababli ko‘plab mamlakatlarda yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash innovatsion siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Startaplar odatda cheklangan resurslar bilan boshlanib, yuqori darajadagi innovatsion yechimlar yaratishga yo‘naltirilgan biznes subyektlari hisoblanadi. Ularning tez rivojlanishida biznes inkubatorlar, akseleratorlar va venchur moliyalashtirish tizimlari muhim rol o‘ynaydi. Masalan, AQShning Silikon vodiysi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, universitetlar, venchur fondlar va texnologik kompaniyalar integratsiyasi kuchli startap ekotizimini shakllantirgan bo‘lib, Google, Facebook va Uber kabi global kompaniyalar aynan shu muhitda rivojlangan.

Shuningdek, Estoniya tajribasi ham e’tiborga loyiqdir. Bu mamlakatda to‘liq raqamli davlat xizmatlari tizimi (e-Estonia) joriy etilgan bo‘lib, startaplar uchun biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish va boshqarish jarayonlari juda soddalashtirilgan. Natijada Estoniya aholi soni kichik bo‘lishiga qaramay, Yevropadagi eng yuqori startap zichligiga ega davlatlardan biriga aylangan.

O‘zbekiston sharoitida ham so‘nggi yillarda startap ekotizimini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, IT Park rezidentlari uchun soliq imtiyozlari, yoshlar uchun “Yoshlar tadbirkorligi” dasturlari, shuningdek, venchur fondlar va inkubatsiya markazlarining tashkil etilishi bu yo‘nalishdagi muhim qadamlardan hisoblanadi. Biroq xalqaro tajriba bilan solishtirganda, venchur moliyalashtirish bozori va innovatsion infratuzilma hali to‘liq shakllanmaganligi seziladi.

Shu bilan birga, yoshlar tadbirkorligining rivojlanishida ta’lim tizimining o‘rni ham muhimdir. Raqamli ko‘nikmalar, biznes-reja tuzish, innovatsion fikrlash va startap boshqaruvi bo‘yicha bilimlar yoshlarning real biznesga kirib borishini tezlashtiradi. Shu sababli ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda universitetlar startap ekotizimining ajralmas qismi sifatida faoliyat yuritadi.

Umuman olganda, startap muhitining rivojlanishi yoshlar tadbirkorligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u innovatsion iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishdagi o‘rni hamda ularning kichik biznesning barqaror o‘sishiga ta’siri tahlil qilindi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya sharoitida sun’iy intellekt texnologiyalari biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, qaror qabul qilish samaradorligini oshirish va bozor tahlilini chuqurlashtirish orqali kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Shuningdek, yoshlar tadbirkorligi innovatsion iqtisodiyotning muhim drayveri sifatida startap ekotizimini shakllantirish va rivojlantirishda

asosiy rol o‘ynaydi. Biroq O‘zbekiston sharoitida raqamli savodxonlik darajasi, venchur moliyalashtirish imkoniyatlari hamda innovatsion infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ushbu salohiyatdan to‘liq foydalanishga ma’lum darajada to‘sqinlik qilmoqda.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni yoshlar tadbirkorligi tizimiga samarali integratsiya qilish bo‘yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Yoshlar tadbirkorligi uchun AI asosidagi ta’lim dasturlarini kengaytirish

Bugungi kunda sun’iy intellekt va data analytics ko‘nikmalari zamonaviy biznesning ajralmas qismiga aylangan. Shu sababli universitetlar va texnoparklarda amaliy yo‘naltirilgan kurslar joriy etilishi zarur.

Masalan, AQSh va Yevropa universitetlarida “AI for Business” va “Data-driven entrepreneurship” kurslari startap yaratish jarayonining asosiy komponenti hisoblanadi. O‘zbekistonda ham IT Park va oliy ta’lim muassasalari hamkorligida real loyihalar asosida o‘qitish tizimini kengaytirish yoshlar startap salohiyatini oshiradi.

2. Startap ekotizimini institutsional mustahkamlash

Startap ekotizimining rivojlanishi inkubatorlar va akseleratorlar faoliyatiga bevosita bog‘liq. Xususan, Silikon vodiysi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, universitetlar, venchur fondlar va texnologik kompaniyalar integratsiyasi innovatsion bizneslarning tez o‘sishiga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda ham IT Park rezidentlari, “Startup Garage” va boshqa inkubatsiya markazlarini xalqaro platformalar (Y Combinator, Techstars kabi) bilan integratsiya qilish zarur. Bu yosh startaplar uchun global bozorga chiqish imkonini kengaytiradi.

3. Venchur moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish

Startaplarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan venchur kapitalga bog‘liq. Masalan, Uber va Airbnb kabi kompaniyalar ilk bosqichda venchur fondlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan.

O‘zbekistonda esa venchur bozori endigina shakllanayotganligi sababli, yosh tadbirkorlar uchun risk kapitalini jalb qilish mexanizmlarini soddalashtirish, soliq imtiyozlarini kengaytirish hamda “startup grant” tizimini rivojlantirish muhimdir.

4. Raqamli infratuzilmani kengaytirish

Raqamli infratuzilma rivojlanmagan sharoitda innovatsion biznesning o‘sishi cheklanadi. Bulutli texnologiyalar (AWS, Google Cloud kabi), elektron tijorat platformalari (Amazon, Shopify) va fintech tizimlari kichik biznesni global bozorga olib chiqadi.

O‘zbekistonda hududlar kesimida internet sifati va raqamli xizmatlar tengsizligi mavjud. Shu sababli raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish va barcha hududlarda teng imkoniyat yaratish zarur.

5. Davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish (PPP)

Public-Private Partnership (PPP) mexanizmi innovatsion loyihalarni tezroq amalga oshirish imkonini beradi. Masalan, Janubiy Koreya va Singapurda davlat va xususiy sektor hamkorligi orqali startaplar uchun maxsus innovatsion hududlar yaratilgan.

O‘zbekistonda ham bu modelni kengaytirish orqali yoshlar startaplariga investitsiya jalb qilish va innovatsion loyihalarni tezroq amaliyotga tatbiq etish mumkin.

Umuman olganda, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni yoshlar tadbirkorligi tizimiga integratsiya qilish kichik biznesning raqobatbardoshligi va barqaror o‘sishini ta’minlovchi strategik yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu jarayonni tizimli qo‘llab-quvvatlash O‘zbekistonning innovatsion iqtisodiyotga o‘tish jarayonini tezlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.World Bank (2022). World Development Report 2022: Finance for an Equitable Recovery. Washington, DC: World Bank Group.

2. World Bank (2021). Digital Development in Emerging Economies. Washington, DC.

3. OECD (2023). OECD SME and Entrepreneurship Outlook 2023. Paris: OECD Publishing.

4. International Labour Organization (ILO) (2022). Global Employment Trends for Youth 2022. Geneva: ILO.

5. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD) (2021).

6. Technology and Innovation Report: Catching Technological Waves. Geneva: UN.

McKinsey Global Institute (2023). The Economic Potential of Generative AI. McKinsey & Company.

7. Davenport, T. H., & Ronanki, R. (2018). Artificial Intelligence for the Real World. Harvard Business Review.

8. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future. W.W. Norton & Company.

9. Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum.

Ries, E. (2011). The Lean Startup. Crown Business.

10.Blank, S., & Dorf, B. (2012). The Startup Owner’s Manual. K&S Ranch.
11.Porter, M. E., & Heppelmann, J. E. (2014). How Smart, Connected Products Are Transforming Competition. Harvard Business Review.
12.Global Entrepreneurship Monitor (GEM) (2023). Global Entrepreneurship Report 2023. GEM Consortium.
13. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi (2023). Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi. Toshkent.
14. IT Park Uzbekistan (2024). Startap ekotizimi va innovatsion rivojlanish hisobotlari. Toshkent.

TA’LIM VA SOG‘LIQNI SAQLASH SOHALARINING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI

Rahimova Inobat Ibadullayevna
Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarining jamiyat va iqtisodiyot rivojidagi o‘rni hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Inson kapitalini shakllantirishda ushbu sohalarning tutgan o‘rni, ularning iqtisodiy o‘sishga ta’siri va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashdagi roli yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekistonda ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarida olib borilayotgan islohotlar, mavjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, sog‘liqni saqlash, inson kapitali, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy farovonlik, innovatsiya, tibbiyot, ta’lim tizimi, davlat siyosati

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti bevosita inson omiliga bog‘liq bo‘lib, inson kapitalining sifati davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Inson kapitalini shakllantirishda esa ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlari muhim o‘rin tutadi. Ushbu sohalarning rivojlanganligi mamlakatning raqobatbardoshligini oshiradi, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi hamda aholining turmush darajasini yaxshilaydi.

Bugungi globallashuv sharoitida davlatlar o‘rtasidagi raqobat nafaqat tabiiy resurslar yoki sanoat salohiyati bilan, balki malakali kadrlar va sog‘lom aholi bilan ham belgilanmoqda. Shu sababli ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlariga investitsiya kiritish uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Ta’lim jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo‘lib, insonning bilim va ko‘nikmalarini shakllantiradi. Sifatli ta’lim tizimi davlatning iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Ta’lim natijasida malakali mutaxassislar tayyorlanadi, innovatsion faoliyat rivojlanadi va mehnat unumdorligi ortadi.

Ta’limning iqtisodiy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- mehnat unumdorligini oshiradi;
- yangi texnologiyalarni joriy etishni tezlashtiradi;
- tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantiradi;
- ish bilan bandlik darajasini oshiradi;
- aholining daromadlarini ko‘paytiradi.

Bundan tashqari, ta’lim ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda ham muhim vosita hisoblanadi. Ta’limli jamiyatda huquqiy madaniyat va ma’naviyat yuksaladi, ijtimoiy tenglik mustahkamlanadi hamda jinoyatchilik darajasi kamayadi. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda ta’lim tizimiga katta miqdorda mablag‘ ajratilishi kuzatiladi.

Sog‘liqni saqlash tizimi aholining salomatligini himoya qilish, umr davomiyligini oshirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi. Sog‘lom aholi esa iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biridir.

Sog‘liqni saqlash tizimining iqtisodiy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- mehnatga layoqatli aholining sonini oshiradi;
- ishlab chiqarish samaradorligini ko‘paytiradi;
- nogironlik va kasalliklar tufayli yuzaga keladigan iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytiradi;
- davlatning ijtimoiy xarajatlarini qisqartiradi.

Ijtimoiy jihatdan esa sog‘liqni saqlash tizimi aholining hayot sifatini yaxshilaydi, umr davomiyligini uzaytiradi va ijtimoiy himoyani kuchaytiradi. Zamonaviy tibbiyot texnologiyalarining joriy etilishi esa kasalliklarni erta aniqlash va samarali davolash imkoniyatini yaratmoqda.

Ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ikki muhim sohadir. Ta’limli inson sog‘lom turmush tarzining ahamiyatini yaxshi tushunadi, sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qiladi va o‘z salomatligiga mas’uliyat bilan yondashadi. Shu bilan birga, sog‘lom inson bilim olish va samarali mehnat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ushbu ikki sohaning o‘zaro ta’siri quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- ta’lim sog‘liqni saqlash madaniyatini oshiradi;
- sog‘lom muhit ta’lim samaradorligini ta’minlaydi;
- har ikki soha inson kapitalining sifatini yaxshilaydi;
- iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy farovonlikka xizmat qiladi.

Demak, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini parallel ravishda rivojlantirish davlat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlari jamiyatning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu sohalarga kiritilgan investitsiyalar uzoq muddatda iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy farovonlik va inson kapitalining rivojlanishini ta’minlaydi. O‘zbekiston uchun ham ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, malakali kadrlar tayyorlash hamda xalqaro standartlarni qo‘llash orqali ushbu sohalarni yanada rivojlantirish mamlakat taraqqiyotining muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim va sog‘liqni saqlashga oid qarorlari.

2. Becker G. Human Capital. University of Chicago Press, 1993.

3. World Bank. World Development Report, 2020.

4. WHO. Global Health Report, 2021.

5. OECD. Education at a Glance, 2022.

6. UNESCO ta’lim bo‘yicha hisobotlari.

7. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi materiallari.

8. Ilmiy maqolalar va internet manbalari.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KASBIY STRESSNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Bog‘bekova Dilnoza Shonazarovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu tezis raqamli transformatsiya sharoitida kasbiy stressning psixologik xususiyatlarini tahlil qiladi. Maqsad kasbiy stressning kognitiv baholash, emotsional reaktivlik va o‘zini boshqarish mexanizmlari bilan bog‘liqligini aniqlashdir. Metodologiya sifatida tranzaksion stress modeli, talab-resurslar yondashuvi va raqamli gigiyena konsepsiyasi integratsiya qilinadi. Ilmiy yangilik raqamli ish muhitida “doimiy ulanish” normasi stressor sifatida opera-tsionallashtirilishi bilan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Raqamli transformatsiya, kasbiy stress, kognitiv baholash, emotsional reaktivlik, o‘zini boshqarish, ish talablari va resurslari, raqamli gigiyena.

Аннотация: Данный тезис анализирует психологические особенности профессионального стресса в условиях цифровой трансформации труда. Целью является выявление связей стресса с когнитивной оценкой, эмоциональной реактивностью и механизмами саморегуляции. Методологически интегрируются транзакционная модель стресса, подход «требования–ресурсы» и концепция цифровой гигиены. Научная новизна состоит в операционализации нормы «постоянной включённости» как специфического стрессора цифровой рабочей среды.

Ключевые слова: Цифровая трансформация, профессиональный стресс, когнитивная оценка, эмоциональная реактивность, саморегуляция, требования и ресурсы труда, цифровая гигиена.

Abstract: This thesis examines psychological features of occupational stress under digital transformation. The aim is to clarify how stress relates to cognitive appraisal, emotional reactivity, and self-regulation mechanisms in digitally mediated work. The methodological framework integrates the transactional model of stress, the Job Demands–Resources approach, and the concept of digital hygiene. Scientific novelty is grounded in operationalizing the “always-on” connectivity norm as a distinct stressor within the contemporary digital work environment.

Keywords: Digital transformation, occupational stress, cognitive appraisal, emotional reactivity, self-regulation, job demands-resources, digital hygiene.

Kirish: Raqamli transformatsiya mehnat jarayonlarining texnologik qayta tashkil etilishi bilangina cheklanmay, kasbiy faoliyatning psixologik tuzilmasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi: mehnatning predmet va vositalari, ishning vaqt-makon chegaralari, aloqa kanallari hamda nazorat mexanizmlari o‘zgaradi. Natijada xodimning stressga duch kelish ehtimoli ko‘payadi, biroq bu ko‘payish “raqamli vosita ko‘paysa stress ham ortadi” degan sodda deterministik sxema bilan izohlanmaydi. Stressning yuzaga kelishi xodimning vaziyatni qanday baholashi, mavjud resurslarni qanday safarbar qilishi va raqamli muhitning talablarini qanday boshqarishi bilan bog‘liq murakkab psixologik jarayondir. Shu ma’noda, kasbiy stressni raqamli transformatsiya kontekstida tahlil qilish uchun shaxs–muhit mosligi, kognitiv baholash va ish talablari hamda resurslari o‘rtasidagi dinamik muvozanatni birgalikda ko‘rish zarur.

Adabiyotlar tahlili: Tranzaksion yondashuv stressni shaxs va muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning natijasi sifatida talqin qilib, stressorlar hodisa sifatida emas, balki subyektiv baholash orqali “stress”ga aylanishini ko‘rsatadi [4]. Raqamli transformatsiya sharoitida aynan baholash jarayoni keskin murakkablashadi, chunki ish vazifalari ko‘pincha ko‘pkanalli axborot oqimi orqali keladi, ustuvorliklar esa tez-tez yangilanadi. Xodim vazifani birlamchi baholashda uning xavfini yoki imkoniyatini aniqlaydi, ikkilamchi baholashda esa o‘z resurslari yetarliligini solishtiradi [4]. Raqamli muhitda resurslarni baholashga “raqamli kompetensiya”, “platformalardan foydalanish ishonchi”, “texnik nosozlikka nisbatan bardoshlilik” kabi omillar qo‘shiladi; bu omillar yetishmasa, vazifa real murakkabligidan qat’i nazar, kognitiv ortiqcha yuklanish kuchayadi. Demak, raqamli stressning psixologik o‘zagi ko‘pincha axborotning ko‘pligida emas, balki shu axborotni tartiblash va boshqarish ustidan subyektiv nazorat darajasi pasayishida namoyon bo‘ladi.

Ish talablari va resurslari (Job Demands–Resources) modeli stressni ish talablari resurslardan ustun kelganda yuzaga chiqadigan zo‘riqish jarayoni sifatida tushuntiradi [3]. Raqamli transformatsiya ish talablarini yangi ko‘rinishlarda kuchaytiradi: doimiy yangilanishlar, tezkor javob berish bosimi, bir vaqtning o‘zida bir nechta kanalda muloqot qilish, masofaviy rejimda “ko‘rinmas mehnat”ning ortishi. Biroq shu bilan birga resurslar ham paydo bo‘ladi: moslashuvchan jadval, avtomatlashtirish, masofadan turib hamkorlik. Stressning psixologik xususiyatlari aynan shu ikki tomonning nisbatida ochiladi. Agar tashkilot raqamli vositalarni joriy etishda xodimni o‘qitish, texnik yordam, rol va mas’uliyat chegaralarini aniqlashtirish kabi resurslarni yetarli taqdim etmasa, talablarga nisbatan resurslar tanqisligi emotsional charchash va depersonalizatsiya xavfini oshiradi. Aksincha, resurslar barqaror bo‘lsa, raqamli vositalar stressni emas, ish samaradorligini qo‘llab-quvvatlovchi omilga aylanadi.

Raqamli transformatsiyaning muhim stressori “doimiy ulanish” me’yorining shakllanishidir. Bu me’yor xodimdan ish vaqtidan tashqarida ham messenjerlar, elektron pochta va korporativ platformalarda mavjud bo‘lishni, tezkor javob qaytarishni kutilmagan tarzda talab qiladi. Psixologik nuqtai nazardan, bu holat tiklanish (recovery) jarayonini uzadi: diqqatning uzluksiz ishga qaytishi kognitiv resurslarni parchalaydi, uyqu sifati va emotsional barqarorlik pasayadi. “Chegaralarni boshqarish” qobiliyati bu yerda markaziy omil bo‘lib, ish va shaxsiy hayot chegaralarini aniq belgilashga xizmat qiladi. Chegara

noaniqligi kuchaygan sari vaziyat ustidan nazorat hissi kamayadi, bu esa xavotir va irritabellikni oshiradi. Shunday qilib, raqamli muhitda stressning emotsional komponenti ko‘pincha vaqt bosimidan ko‘ra, uzluksiz kutilma va tugallanmagan vazifalar hissi bilan oziqlanadi.
Kasbiy stressning kognitiv xususiyatlari raqamli sharoitda bir nechta mexanizm orqali namoyon bo‘ladi. Birinchidan, diqqatning fragmentatsiyasi: bildirishnomalar va tezkor xabarlar vazifalar o‘rtasida tez-tez almashishga majbur qiladi, bu esa ish xotirasi yuklanishini oshiradi va xatolar ehtimolini ko‘paytiradi. Ikkinchidan, “axborot noaniqligi” kuchayadi: ko‘rsatmalar turli kanallarda tarqalgan bo‘lsa, ustuvorliklar tushunarsiz bo‘lib qoladi va kognitiv baholashda xavf komponenti ortadi. Uchinchidan, algoritmik nazorat va raqamli kuzatuv elementlari bo‘lsa, o‘z faoliyatini doimiy baholanish ostida his qilish perfeksionistik tendensiyalarni kuchaytirishi va “xato qilishdan qo‘rqish”ni oshirishi mumkin. Bunda stressni pasaytirish yo‘li faqat texnik cheklovlar bilan emas, balki ish jarayonini ma’noli rejalashtirish, ustuvorliklarni kelishish va kognitiv qayta baholash strategiyalarini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘ladi [4].

Emotsional sohada raqamli transformatsiya paradoksal ta’sir ko‘rsatadi: muloqot kanallari ko‘paygani sari ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kengaygandek ko‘rinadi, ammo real hamdardlik va “tirik” aloqa yetishmovchiligi emotsional izolyatsiyani kuchaytirishi mumkin. Masofaviy yoki gibrid ishda jamoaviy identifikatsiya susayganda, xodim o‘z muammolarini shaxsiy masala sifatida qabul qiladi, natijada yordam so‘rash kechikadi. Emotsional reaktivlik, ayniqsa, tezkor javob talab qilinadigan kommunikatsiya uslubida ortadi: xabar ohangi noaniq bo‘lsa, salbiy talqinlar paydo bo‘ladi, bu esa nizolar va affektiv keskinlikka olib keladi. Shu bois raqamli etiketi, yozma muloqotning psixologik xavfsizlik me’yorlari ham stress profilaktikasining tarkibiy qismi sifatida ko‘rilishi kerak.

O‘zini boshqarish va coping strategiyalari raqamli sharoitda kasbiy stressning asosiy moderatori hisoblanadi. Muammoni hal qilishga qaratilgan coping raqamli kompetensiya bilan bevosita bog‘liq: platformalarni samarali sozlash, bildirishnomalarni boshqarish, vazifalarni treking tizimida tuzish kognitiv ortiqcha yuklanishni kamaytiradi. Emotsiyaga yo‘naltirilgan coping esa tiklanish amaliyotlari, tanaffus madaniyati va psixologik detachment bilan mustahkamlanadi. Raqamli gigiyena konsepsiyasi aynan shu nuqtada ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi: ekran vaqtini me’yorlash, “xabar oynalari”ni belgilash, uyqu oldidan raqamli stimullarni cheklash kabi odatlar

stressni pasaytiruvchi xulq-atvor indikatorlari sifatida qaraladi. Biroq raqamli gigiyena individual mas’uliyat bilangina cheklanmasligi kerak: tashkilot darajasida ham “uzilish huquqi”, aloqa protokollari va ish vaqti chegaralarini normativ belgilash resurs rolini bajaradi.

O‘zbekiston sharoitida raqamli transformatsiya jarayonlari turli tarmoqlarda notekis kechayotgani kasbiy stressning differensial ko‘rinishlarini keltirib chiqaradi. Raqamli infratuzilma va texnik qo‘llab-quvvatlash yetarli bo‘lmagan muassasalarda texnostress omillari kuchliroq bo‘lishi, yuqori raqamlashtirilgan tashkilotlarda esa axborot ortiqcha yuklanishi va algoritmik nazorat bilan bog‘liq stressorlar ustun bo‘lishi mumkin. Mahalliy tadqiqotlar mehnat psixologiyasida stressning tashkiliy determinantlariga, rahbarlik uslubi va ijtimoiy-psixologik iqlimga e’tibor qaratgan bo‘lib, raqamli omillarni shu determinantlar bilan integratsiyalash zaruratini ko‘rsatadi [1]. Shu bilan birga, rus va xalqaro adabiyotlarda texnostress va raqamli ish muhitining psixologik oqibatlari bo‘yicha konseptual modellarning boyligi mavjud bo‘lib, ularni mahalliy madaniy va tashkiliy kontekstga moslab tekshirish ilmiy yangilik beradi [2; 5].

Metodologik jihatdan ushbu tezis doirasida kasbiy stressni ko‘p darajali konstruktsiya sifatida talqin qilish asosli: individual darajada kognitiv baholash, emotsional reaktivlik va o‘zini boshqarish ko‘rsatkichlari; ish dizayni darajasida talab-resurslar nisbati; tashkiliy darajada raqamli siyosat, kommunikatsiya me’yorlari va o‘qitish tizimi. Bunday integrativ yondashuv stressning sababini faqat shaxsiy “bardoshlilik”dan izlamasdan, raqamli mehnat muhitining psixogigiyenik sifatlarini ham tahlil qilish imkonini beradi. Ilmiy yangilik sifatida “doimiy ulanish” va “bildirishnoma bosimi”ni stressor sifatida operatsionallashtirish, shuningdek, raqamli gigiyena ko‘nikmalarini resurs ko‘rsatkichi sifatida modelga kiritish taklif etiladi; bu esa kasbiy stressni baholashda an’anaviy so‘rovnomalarga qo‘shimcha ravishda raqamli xulq-atvor indikatorlarini qo‘llash istiqbollarini ochadi.

Xulosa: Raqamli transformatsiya sharoitida kasbiy stressning psixologik xususiyatlari kognitiv baholashning murakkablashuvi, emotsional reaktivlikning kommunikativ noaniqlik va uzluksiz kutilmalar fonida ortishi hamda o‘zini boshqarish mexanizmlariga qo‘yiladigan talablarning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Stressning asosiy manbai ko‘pincha axborotning ko‘pligi emas, balki nazorat hissining pasayishi, ish va shaxsiy hayot chegaralarining yemirilishi va tiklanish jarayonining uzilishi hisoblanadi. Integrativ yondashuv shuni

ko‘rsatadiki, raqamli ish muhitida stress profilaktikasi individual coping va raqamli gigiyena ko‘nikmalarini rivojlantirish, ish talablari va resurslarini muvozanatlash, shuningdek, tashkilotda aloqa va “uzilish” me’yorlarini institutsionallashtirish orqali eng samarali ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Каримова, В. М. Меҳнат психологияси: дарслик. Тошкент: Ўзбекистон, 2019. 352 б.
2. Иванова, Т. Ю.; Леонова, А. Б. Профессиональный стресс и здоровье: психология, диагностика, профилактика. Москва: Издательство Юрайт, 2020. 310 с.
3. Bakker, A. B.; Demerouti, E. The Job Demands–Resources model: state of the art. Journal of Managerial Psychology. Bingley: Emerald Publishing, 2017. Vol. 32, No. 4. P. 273–286.
4. Lazarus, R. S.; Folkman, S. Stress, appraisal, and coping. New York: Springer Publishing Company, 1984. 456 p.
5. Tarafdar, M.; Cooper, C. L.; Stich, J.-F. The technostress trifecta: techno eustress, techno distress and design. Information Systems Journal. Oxford: Wiley, 2019. Vol. 29, No. 1. P. 6–42.
6. Сорокин, П. С. Цифровая экономика и трансформация труда: социально-психологические эффекты. Санкт-Петербург: Питер, 2021. 256 с.

AKADEMIK LITSEYLARDA KVANT FIZIKASI BO‘LIMINI O‘QITISHNING RAQAMLI DASTURIY TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Dusov Yo‘ldosh Shodiyevich, Djumayev Yusup Abramatovich

DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL

“Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi fizika fani bosh o`qituvchilari

Annotatsiya. Mazkur maqolada akademik litseylarda kvant fizikasi bo‘limini o‘qitishda raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda kvant fizikasi bo‘limini o‘qitish uchun mo‘ljallangan raqamli dasturiy ta’minotni loyihalash texnologiyalari, uni yaratish bosqichlari hamda ta’lim jarayoniga joriy etish modeli tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli ta’lim vositalari yordamida kvant fizikasi tushunchalarini o‘qitish metodikasining asosiy tamoyillari va samaradorligi ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari akademik litseylarda fizika fanini o‘qitish sifatini oshirish va o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: kvant fizikasi, raqamli ta’lim texnologiyalari, akademik litsey, interaktiv simulyatsiya, virtual laboratoriya, pedagogik texnologiya, o‘qitish metodikasi.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimining raqamlashtirilishi zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayoniga yangi imkoniyatlarni olib kirib, murakkab ilmiy tushunchalarni samarali o‘qitish imkonini yaratmoqda. Ayniqsa, fizika fanining nazariy jihatdan murakkab bo‘limlarini o‘qitishda raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kvant fizikasi mikrodunyo qonuniyatlarini o‘rganuvchi fundamental fan bo‘lib, undagi ko‘plab tushunchalar abstrakt xarakterga ega. Akademik litsey o‘quvchilari uchun kvant jarayonlarini tasavvur qilish va ularning fizik mohiyatini anglash ko‘pincha qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababli kvant fizikasi bo‘limini o‘qitishda vizual hamda interaktiv metodlardan foydalanish zarur. Raqamli dasturiy ta’minot vositalari yordamida kvant fizikasi hodisalarini animatsiya, simulyatsiya va virtual laboratoriya tajribalari orqali namoyish qilish o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu nuqtai nazardan, akademik litseylarda kvant fizikasi bo‘limini o‘qitishning raqamli dasturiy ta’minotini ishlab chiqish va uni pedagogik jarayonga joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi akademik litseylarda kvant fizikasi bo‘limini o‘qitishning raqamli dasturiy ta’minotini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish hamda uning pedagogik samaradorligini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Respublikamizda so‘nggi yillarda akademik litseylar uchun fizika fanini chuqurlashtirib o‘qitish yo‘nalishlari bo‘yicha takomillashtirilgan o‘quv dasturlari asosida yangi darslik va muqobil o‘quv adabiyotlarini yaratish, laboratoriya bazasini yangilash hamda o‘quv-metodik ta’minotni modernizatsiya qilish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Fizikaning “Kvant fizikasi” bo‘limini o‘qitishda dasturiy ta’lim vositalari hamda muammoli o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. M. Djorayevning “Fizika o‘qitish metodikasi (umumiy masalalar)” nomli o‘quv qo‘llanmasida uzluksiz ta’lim tizimi uchun fizika o‘qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan metodik yondashuvlar yoritilgan. D.M. Ismoilovning ilmiy tadqiqotlarida kvant fizikasining fundamental nazariya sifatidagi metodologik tahlili berilgan. Shuningdek, Xolmatov

A. va Karimova G. tomonidan fizika fanini innovatsion metodlar asosida o‘qitish bo‘yicha taklif etilgan yondashuvlar hamda Sharipova D.S.ning metodik tahlilga bag‘ishlangan ilmiy ishlari mazkur tadqiqotning nazariy asoslarini boyitadi. Islomova M.X. va Karimov A. o‘z tadqiqotlarida mobil ilovalar, simulyatsiya va animatsiyalar yordamida fizika fanini o‘qitishda yangi pedagogik yondashuvlarni ilgari surishgan.

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar quyidagi asosiy guruhlarga ajratiladi:

Platforma tipidagi tizimlar: Moodle, Google Classroom, Coursera kabi masofaviy ta’lim platformalari.

Virtual laboratoriyalar: PhET Interactive Simulations, Labster.

Interaktiv vositalar: Prezi, Canva, Algodoo.

Baholash tizimlari: Kahoot, Quizizz, Mentimeter.

Sun’iy intellekt asosidagi vositalar: Socratic, Khanmigo.

AR/VR texnologiyalari: Google Expeditions, ClassVR.

Mazkur tadqiqotda pedagogik kuzatish, tahlil, modellashtirish hamda tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot jarayonida kvant fizikasi bo‘limini o‘qitish uchun mo‘ljallangan raqamli dasturiy ta’minotni yaratish bosqichlari ishlab chiqildi:

Tahliliy bosqich – o‘quv dasturini va o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini tahlil qilish.

Loyihalash bosqichi – raqamli ta’lim resursining didaktik modelini ishlab chiqish.

Dasturlash bosqichi – multimediali materiallar, simulyatsiyalar va test tizimini yaratish.

Sinov bosqichi – tajriba-sinov ishlari asosida metodikani takomillashtirish.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning kvant fizikasi bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtirishga hamda murakkab nazariy tushunchalarni o‘zlashtirishni osonlashtirishga xizmat qiladi.

Muhokama. Raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonini interaktiv hamda samarali tashkil etish imkonini beradi. Kvant fizikasi kabi abstrakt mavzularni animatsiya, modellashtirish va virtual tajribalar yordamida tushuntirish o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga yordam beradi.

Shuningdek, raqamli platformalar o‘quvchilarning individual o‘rganish tezligini hisobga olish hamda bilimlarni avtomatlashtirilgan tarzda

nazorat qilish imkonini yaratadi. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Akademik litseylarda kvant fizikasi bo‘limini o‘qitishda raqamli dasturiy ta’minotdan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Raqamli ta’lim resurslari kvant jarayonlarini vizual tarzda tushuntirish, o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirish hamda mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu sababli kvant fizikasi bo‘limini o‘qitishda zamonaviy raqamli texnologiyalarga asoslangan metodikani joriy etish akademik litsey ta’limining sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining **“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.** – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi **“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”.** – Toshkent, 1997.
3. Shavkat Mirziyoyev. **Yangi O‘zbekiston strategiyasi.** – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning **2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni:** *“O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”*.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning **2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son Qarori:** *Ta’lim sohasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*.
6. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. **Ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar.** – Toshkent: Fan, 2019.
7. Tolipov O., Usmonboyeva M. **Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
8. Sultonova O. **Fizika fanini o‘qitish metodikasi.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
9. Sultonova O. **Fizika ta’limida innovatsion pedagogik texnologiyalar.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
10. Sultonova O. **Umumiy o‘rta ta’limda fizika o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalalari.** – Toshkent, 2017.
11. Sultonova O. **Fizika ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish.** – Ilmiy maqolalar to‘plami, 2021.

MATEMATIKA DARSLARIDA MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI

Ismoilova Durdona Xayrulla qizi
Xorazm viloyati kasbiy ta’lim boshqarmasi Gurlan tuman 1-son texnikumi matematika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika o‘qitishda muammoli ta’lim texnologiyalarining metodik asoslari tahlil qilinadi. Muammoli vaziyatlarni yaratish orqali o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish usullari aniq misollar yordamida yoritilgan. Tadqiqot natijalari ushbu metodikaning kognitiv faollikni oshirishdagi samaradorligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: matematika metodikasi, muammoli ta’lim, mantiqiy fikrlash, kognitiv rivojlanish, didaktik ziddiyat.

Abstract: This article examines the methodological foundations of problem-based learning in mathematics education. It explores ways to develop students' logical thinking through problem situations using practical examples. The research results demonstrate the effectiveness of this approach in enhancing cognitive activity.

Keywords: mathematics methodology, problem-based learning, logical thinking, cognitive development, didactic conflict.

Аннотация: В статье анализируются методические основы проблемного обучения математике. Рассматриваются способы развития логического мышления учащихся через создание проблемных ситуаций на конкретных примерах. Результаты исследования подтверждают эффективность данной методики в повышении когнитивной активности.

Ключевые слова: методика математики, проблемное обучение, логическое мышление, когнитивное развитие, дидактическое противоречие.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchi shunchaki tayyor axborotni qabul qiluvchi emas, balki bilimni mustaqil ravishda kashf etuvchi subyektga aylanishi darsning asosiy maqsadi etib belgilangan. Matematika fani o‘zining qat’iy mantiqiy tuzilishi bilan muammoli ta’limni joriy etish uchun eng qulay pedagogik maydon hisoblanadi. An’anaviy darslarda o‘quvchi o‘qituvchi tomonidan berilgan algoritmni mexanik takrorlaydi, biroq muammoli ta’limda u intellektual qiyinchilikka duch keladi va undan chiqish yo‘lini izlash orqali haqiqiy bilimga ega bo‘ladi. Psixologik nuqtai nazardan, muammoli ta’lim L.S. Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” tamoyiliga tayanadi, bunda

o‘quvchining ichki motivatsiyasi uyg‘onadi, chunki yechim topish ehtiyoji uning shaxsiy izlanishiga aylanadi [1].

Muammoli ta’limning asosi hisoblangan muammoli vaziyat o‘quvchining mavjud bilimlari va yangi qo‘yilgan vazifani bajarish uchun yetishmayotgan vositalar o‘rtasidagi ziddiyatdir. Matematika metodikasida muammoli vaziyatlarni yaratishda mavjud bilimlarni qo‘llash imkoni bo‘lmagan holatlardan foydalanish samarali natija beradi. Masalan, kvadrat uchhadni to‘la kvadratga ajratish mavzusida o‘qituvchi o‘quvchilarga avval $x^2 + 8x + 16$ ifodasini berib, uni $(x + 4)^2$ ekanligini tezda anglashlariga erishadi. So‘ngra $x^2 + 8x + 20 = 0$ tenglamasini yechish so‘ralganda, o‘quvchida “Nega 20 sonidan kvadrat hosil bo‘lmaydi?” degan savol va didaktik ziddiyat tug‘iladi. Shu nuqtada o‘quvchi sonni bo‘laklash $(20 = 16 + 4)$ usulini o‘zi kashf etishi uchun metodik yo‘nalish beriladi [2].

Ushbu texnologiya doirasida formulalar shunchaki yodlanishi kerak bo‘lgan matn emas, balki mantiqiy xulosa sifatida namoyon bo‘ladi. Arifmetik progressiya misolida o‘quvchilarga 1 dan 100 gacha bo‘lgan sonlar yig‘indisini qisqa vaqtda hisoblash topshirig‘i berilganda, ular chetki sonlar yig‘indisi bir xilligini ko‘rib,

$$S_n = \frac{a_1 + a_n}{2} \cdot n$$

formulasini o‘zlari keltirib chiqaradilar. Bunday yo‘l bilan olingan bilim mantiqiy zanjir orqali bog‘langani sababli o‘quvchi xotirasida mustahkam saqlanib qoladi. Dars jarayonida muammoli metodni qo‘llash tayyorgarlik, muammoni qo‘yish, yechimni izlash, gipotezalarni isbotlash va natijalarni umumlashtirish kabi ketma-ket bosqichlarni talab qiladi [3].

Metodikaning yana bir muhim jihati shundaki, u o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantiradi. Matematik masalani yechish jarayoni kichik ilmiy kashfiyotga aylanadi. O‘quvchi gipotezani ilgari surish, uni tekshirish va xatolarni tahlil qilish orqali o‘zining intellektual salohiyatini oshiradi. Bu jarayon ayniqsa akademik litseylarda yuqori darajadagi abstrakt mavzularni o‘zlashtirishda juda qo‘l keladi. O‘qituvchi bu yerda shunchaki ma’lumot beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi moderator vazifasini bajaradi [4].

Akademik litseylar kesimida o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, muammoli ta’lim qo‘llanilgan guruhlarda o‘quvchilarning kognitiv faolligi an’anaviy guruhlarga nisbatan 2 barobardan ziyodroq bo‘lgan. Nazorat ishlarida muammoli guruh o‘quvchilari murakkab masalalarni yechishda 84% samaradorlik ko‘rsatgan bo‘lsa, an’anaviy

metodda bu ko‘rsatkich 68% ni tashkil etgan. Samaradorlikning asosiy omillari sifatida matematik terminologiyani erkin qo‘llash, isbotlash madaniyatining shakllanishi va nostandart masalalarga mustaqil yechim topish ko‘nikmalarini keltirish mumkin.

Muammoli ta’limni amaliyotga joriy etishda o'qituvchining darsga tayyorgarligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har bir dars uchun o'quvchining bilim darajasiga mos keladigan didaktik materiallar va savollar tizimi ishlab chiqilishi zarur. Agar muammo haddan tashqari murakkab bo'lsa, o'quvchida qiziqish so'nishi, agar juda oson bo'lsa, intellektual rivojlanish to'xtashi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi differensial yondashuv asosida har bir o'quvchi uchun “muvaffaqiyat vaziyati”ni yaratishi lozim [5].

Xulosa qilib aytganda, matematika darslarida muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish bilan birga, ularni hayotiy muammolarga ham tayyorlaydi. Matematika - bu faqat sonlar va shakllar fani emas, balki mantiqiy fikrlash san’atidir. O‘qituvchi darsda muammoli vaziyatlarni tizimli rejalashtirishi va differensial yondashuvni qo‘llashi matematika ta’limining fundamental sifatini kafolatlaydi. Ushbu yondashuv o'quvchilarda nafaqat matematik bilim, balki tanqidiy fikrlash va muammolarni tizimli tahlil qilish malakasini ham shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2010.
2. Alixonov S. Matematika o‘qitish metodikasi. – T.: Cho‘lpon, 2011.
3. Jumayev M.E. Matematika o‘qitish metodikasidan praktikum. – T.: O‘qituvchi, 2004.
4. Polya G. Qanday masala yechish kerak? – T.: O‘qituvchi, 1994.
5. Tojiev M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2012.

KEKSALIKDA SHAXS RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Kurbaniyozova Ra’no Yuldashevna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya’’ kafedrasi dotsenti,PhD

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the physiological, psychological, and social aspects of old age. It elucidates both internal and external factors of the aging process and identifies elements influencing an individual's longevity. Personal changes in old age - such as shifts in responsibility, crystallization of beliefs, synthesis of life experiences, and reassessment of life's meaning and direction - are examined in relation to E. Erikson's theories of psychosocial development.

Keywords: psychology of old age, gerontogenesis, aging process, psychological adaptation, cognitive decline, loneliness, stress, social circle, meaning and purpose in life, psychological security.

Аннотация: В данной статье глубоко проанализированы физиологические, психологические и социальные аспекты старости. В статье освещаются внутренние и внешние факторы процесса старения, указываются факторы, влияющие на долголетие индивида. Личностные изменения в пожилом возрасте - ответственность, закостенелость убеждений, обобщение жизненного опыта, переоценка смысложизненных ориентаций - анализируются в связи с теориями психосоциального развития Э. Эриксона.

Ключевые слова: психология старости, геронтогенез, процесс старения, психологическая адаптация, когнитивный спад, одиночество, стресс, круг общения, смысложизненные ориентации, психологическая безопасность.

Annotatsiya: Ushbu maqolada keksalik davrining fiziologik, psixologik va ijtimoiy jihatlari chuqur tahlil qilingan. Maqolada qarish jarayonining ichki va tashqi omillarini yoritib, individning uzoq umr ko‘rishiga ta’sir etuvchi omillarni ko‘rsatadi. Keksalikda shaxsiy o‘zgarishlar — mas’uliyat, e’tiqodlarning qotib qolishi, hayotiy tajribani umumlashtirish, ma’no-hayotiy yo‘nalishlarni qayta baholash — E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyalari bilan bog‘lab tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar:keksalik psixologiyasi, gerontogenez, qarish jarayoni, psixologik moslashuv, kognitiv pasayish, yolg‘izlik, stress, muloqot doirasi, ma’no-hayotiy yo‘nalishlar, psixologik xavfsizlik.

Kirish. So‘nggi tibbiy tadqiqotlarga ko‘ra, insonning umr ko‘rish davomiyligi 85-90 yoshgacha yetishi mumkin. Ba’zi odamlar 85 yoshdan oldin vafot etishi yoki 90 yoshdan uzoqroq yashashi sababli, individning umr ko‘rish davomiyligi va uning umumiy hayotchanligiga turli yo‘nalishdagi jarayonlar ta’sir ko‘rsatishini hisobga olish zarur. Avvalo, bu fiziologik va boshqa tabiiy mexanizmlar bilan bog‘liq bo‘lgan qarish jarayonidir. Biroq, ikkinchi tomondan, odam organizmi yoshiga qarab uning yashovchanligini barqarorlashtiruvchi kompensator mexanizm vositasida moslashadi. Shunday qilib, yosh organizmning funksional-strukturaviy o‘zgarishlarini keltirib chiqaradi, bu o‘zgarishlar individlarda turli darajada namoyon bo‘ladi. Bunda ba’zi odamlar tezroq, boshqalari esa uzoqroq qarishi ma’lum bo‘ladi. Bunda gap faqat tashqi yosh o‘zgarishlari haqidagina emas, balki fiziologik, anatomik, psixologik qarish jarayonlari to‘g‘risida ham boradi. Shunga ko‘ra, qarish jarayoni turli xil ichki va tashqi omillarga bog‘liq [2].

Qarishning ichki omillari xromosomalar va genotipning alohida joylashuvidan iborat bo‘lib, bu ko‘p jihatdan individual metabolizm, neyroendokrin regulyatsiya va immunologik holatning barqarorligini belgilaydi. Organizmning hayot sharoiti o‘zgarishlariga muvaffaqiyatli moslashuvi ichki omillarga bog‘liq.

Qarishning tashqi omillari ma’lum bir turmush tarzi, jismoniy faollik darajasi, zararli odatlar, stresslar va kasalliklarga moyillikdir.

Adabiyotlar tahlili. Xalqaro tasnifga ko‘ra, erkaklarda geron-togenez davri oltmish yoshdan, ayollarda esa ellik besh yoshdan boshlanadi. Biroq, G.S. Abramovaning fikriga ko‘ra, zamonaviy odamning yosh xronologiyasi biroz boshqacha: yetuklik 36 yoshdan 50 yoshgacha, keksa odam 51 yoshdan 65 yoshgacha, keksalik 65 yoshdan keyin boshlanadi [3]. Demak, qarilik inson hayot yo‘lining yakunidir.

E.Eriksonning fikricha, shaxsning keksayish davridagi rivojlanishi ilk xulq-atvor va hozirgi holatning mahsuli hisoblanadi. Uning fikricha, keksalik ma’no-hayotiy yo‘nalishlarni izlash jarayoni bo‘lib, bunda o‘lim hayot toji sifatida o‘z o‘tkirligini yo‘qotadi [4].

Qadimgi Rimda qarilik jismoniy va aqliy faollikni susaytiradi, insonni deyarli barcha lazzatlardan mahrum qiladi va shunga mos ravishda o‘limga yaqinlashtiradi, deb hisoblangan. Biroq aynan Sitseron bu farazlarni rad etib, bilishga intilish hamda fikrlash va mulohaza yuritishning moslashuvchanligi keksalikka qarshi kurashning eng yaxshi

vositasi hisoblanadi, deb hisoblagan.

Bir qator empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 60 yoshgacha bo‘lgan odamlar moslashuvchan kognitiv sohani saqlab qolgan holda faol o‘rganish va mustaqil ta’lim olishga qodir, bundan tashqari, bu yoshdagi miya faoliyati samarali bilish va ijodkorlik uchun yuqori potensial imkoniyatlarni ta’minlaydi. Voyaga yetgan odamda diqqat funksiyasining rivojlanish darajasi yuqori bo‘ladi, xotira funksiyasi esa asta-sekin susayib boradi. Mas’uliyat va unga intilish yetuklikning muhim belgisi hisoblanadi. Psixologik jihatdan mas’uliyatli shaxs o‘z xatti-harakatlari uchun o‘zi va jamiyat oldida javob beradigan shaxsdir [2].

Ilk qarilik davrida shaxsning e’tiqodi va hayotiy tamoyillari qotib qoladi, hayotga boshqacha qarashga toqatsizlik paydo bo‘ladi. Ba’zi hollarda keksa yoshdagi shaxs o‘z e’tiqodini himoya qilishda tajovuzkor xatti-harakatlarni namoyon qilishi mumkin.

Shaxs ijodiy faolligining ikkinchi cho‘qqisi 55 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi. Shuni yodda tutish kerakki, keksa odamlarning asosiy psixologik xususiyati allaqachon yashab bo‘lingan hayotning ma’nosini va ma’no-hayotiy yo‘nalishlarning asosliligini isbotlovchi dalillarni izlashdir. 60-70 yoshda individda o‘zi yashab o‘tgan hayot natijalarini mustaqil baholash istiqboli paydo bo‘ladi. Ko‘pchilikning keksalik yoqimli va foydali bo‘lishi mumkin emas, degan e’tiqodi noto‘g‘ri, agar keksa odam o‘zini baxtli va xotirjam his qilsa, unda keksalik hayotning uyg‘un davomi bo‘ladi.

Keksalik davridagi rivojlanishning asosiy maqsadi shaxsning o‘ziga ham, atrofdagilarga ham foyda keltirgan hayotning muhim va mazmunli qismini yashab bo‘lganligini anglash va qabul qilishdan iborat [2].

Hayotiy tajriba va bilimlarni keyingi avlodlarga yetkazish qobiliyati o‘z-o‘zini muvaffaqiyatli faollashtirish va boshqa odamlarning motivlari va mantig‘ini tushunish qobiliyatini o‘z ichiga olgan Men-konsepsiyasining ong dialogikligini rivojlantirishning ajralmas shartidir. Keksa odamning ichki dialogi "Men" kontseptsiyasi va to‘plangan tajribaga asoslanadi, shuning uchun mavjudlikning o‘tkinchiligi va chekliligini qabul qilish ushbu bosqichda shaxsni rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biridir [2]

Keksa yoshdagi odamlarda asabiy zo‘riqish va stress holatlarining asosiy sabablari hayot ritmining o‘zgarishi, muloqot doirasining keskin torayishidir. Ko‘pincha faol mehnat faoliyatidan chetlashish natijasida shaxs o‘z qobig‘iga o‘ralib qoladi, hatto yaqin kishilari bilan muloqotdan qocha boshlaydi, ular meni tushuna olmaydilar, deb

o‘ylaydi. Shunday qilib, yolg‘izlik ko‘plab keksalar uchun kuchli zarbaga aylanadi. Biroq, qarish jarayonida eng muhimi psixologik omillar bo‘lib, ular yolg‘izlikni atrofdagilarning tushunmasligi va befarqligi sifatida anglashni aks ettiradi. Shunga ko‘ra, ko‘plab keksalarda o‘tkir ichki shaxsiy ziddiyat va kognitiv dissonans shakllanadi, bunda ular keksalikni hayotning samarali qismi sifatida qabul qilishni to‘xtatadilar.

Keksayish davrida mehnat faoliyati yetakchi bo‘lmay qoladi, individ o‘zining ijtimoiy mavqei pasayishini his qiladi, bu esa keksa odamda yuqori darajadagi xavotirlanishning shakllanishiga olib keladi, bu esa o‘zini his qilishning yomonlashishiga sabab bo‘ladi. Nafaqaga chiqayotganda, keksa odam o‘z kuch va mahoratini sarflash uchun yangi sohani yo‘lga qo‘yishi zarur, aks holda uning qiziqishlari doirasi asta-sekin toraya boshlaydi.

Keksalik davrida muloqot doirasi odatda torayadi, qarindoshlik va do‘stlik aloqalari turli sabablarga ko‘ra zaiflashadi va shaxs o‘zini yolg‘iz his qila boshlaydi, bundan tashqari, u atrofdagilarning yordami va qo‘llab-quvvatlashini yo‘qotishi mumkin. Keksa odamlar g‘amxo‘rlik va e’tiborga, atrofdagilarning tajriba va bilimlarini o‘zlashtirishga bo‘lgan intilishiga ehtiyoj sezadilar. Do‘stona aloqalar va muloqot almashinuvining roli ortib bormoqda. Shunday qilib, befarqlik keksa odamning psixologik xavfsizligini his qilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Do‘stona aloqalarning yo‘qligi va muloqot ko‘nikmalarining pasayishi ma’no-hayotiy yo‘nalishlarning o‘zgarishiga olib keladi. Katta yoshdagi kishilar e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga ayniqsa sezgir bo‘ladilar. Natijada do‘stlikning roli ortadi.

Ko‘pincha keksa yoshdagi odamlarda ortiqcha vaysaqilik kuzatiladi, nutq esa ortiqcha aniqliklar bilan tavsiflanadi va mohiyatdan uzoqlashadi, odatda bu muloqotning yetishmasligidan dalolat beradi. Bunday odamlar muloqot qilish, suhbatlashish uchun har qanday imkoniyatni qo‘ldan boy bermaydilar, chunki shaxsiy aloqalarni o‘rnatish qobiliyati zaiflashadi, qarindoshlari esa barcha hikoyalarni yoddan bilishadi. Bunday holatlarda muloqotning emotsional bo‘yog‘i pasayadi va natijada fikrlashning stereotiplashuvi va odatiy sharoitlarda muloqotning standartlashuvi rivojlanadi. Tafakkurning stereotip-lashuvida keksalarda jiddiylikning oshishi, hazil-mutoyiba hissining pasayishi, xafa bo‘lish, xavotirlanish, gumonsirash kuzatiladi.

Ko‘pgina keksalar psixosomatik kasalliklardan aziyat cheka boshlaydilar, ular o‘zlarini tuzalmas kasal ekanliklariga ishontirgandek bo‘ladilar, bundan ham yomoni, ular doimiy kasallik hissiga ko‘nikib,

buni o‘z yoshlarida normal deb hisoblaydilar. Bunday holatlarning asosiy sabablari soxta ustanovkalar, qoniqtirilmagan ambitsiyalar va psixoemotsional stresslardir. Qariyalarning bir qismida kasallik aniqlanmaydi, ammo ular yaqinlarining e’tiborini jalb qilish va diqqat markazida bo‘lishga intilib, o‘z holatlarini soxtalashtirishda davom etadilar.

Boshqa odamlarga qaramlik keksa odamlarda psixologik xavfsizlikni buzib, ruhiy voqelik chegaralarini xiralashtiradi, shuning uchun ular zo‘riqishni his qilishadi va ko‘pincha "shahid" sindromini boshdan kechirishadi. Ushbu sindromning simptomatikasi shunda ifodalanadiki, odam kasalliklardan (haqiqiy yoki xayoliy) aziyat chekib, o‘zining azobli kechinmalarini atrofdagilarga, shu jumladan o‘zining ahamiyatini ta’kidlash uchun yuklay boshlaydi. E.Bern bunday sindromni Sizif ssenariysi deb atagan. [1] Odatda, sindrom "shahidlik" keksa yolg‘iz onalarda kuzatiladi, ular shu yo‘l bilan voyaga yetgan bolalarning hayotiga ta’sir ko‘rsatishga intiladilar. Keksa odamlar yoshlar tomonidan o‘zlarining o‘zgaruvchan holatiga e’tibor va tushunishni his qilishlari kerak.

Yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirib, shuni ta’kid-lash kerakki, atrofdagilar va yaqin odamlar keksa odamlarni hayotiy o‘zgarishlarga moslashtirishga harakat qilishlari kerak, chunki mos-lashish mexanizmi yosh o‘tishi bilan juda zaiflashadi. Keksa odam uchun kuchli motivatsiya uning yaqinlari uchun foydali va muhim ekanligini his qilish bo‘lishi mumkin. Keksalik hayotning ajralmas qismi bo‘lib, u samarali va qiziqarli bo‘lib qolishi kerak.

Xulosa. Keksalik davri inson hayotining yakuniy bosqichi bo‘lib, u murakkab fiziologik, psixologik va ijtimoiy jarayonlar bilan tavsiflanadi. Ushbu bosqichda organizmda yuz beradigan o‘zgarishlar individual ritmda kechadi va genetik, metabolik hamda neyroendokrin omillar kabi ichki mexanizmlar, shuningdek turmush tarzi, jismoniy faollik, stress va sog‘liq holati kabi tashqi omillar bilan belgilanadi. Qarish jarayoni shaxsda xulq-atvor, emotsional reaktivlik, kognitiv jarayonlar hamda hayot ma’nosini idrok etish shakllariga ta’sir qiladi.Keksalikning o‘ziga xos psixologik xususiyati — shaxsning o‘tgan hayotini qayta baholashi, ma’no-hayotiy yo‘nalishlarini mustahkamlashi, hayot davomida to‘plangan tajribani umumlashtirib, uni keyingi avlodlarga yetkazishga intilishidir. E. Erikson ta’kidlaganidek, bu bosqichda insonning asosiy vazifasi hayotiy tajribani qabul qilish va ichki uyg‘unlikka erishishdir.Biroq bu davrda muloqot doirasining torayishi, yolg‘izlik

kuchayishi, psixosomatik zo‘riqishlar, xavotirlanish, doimiy stress, “shahidlik sindromi” kabi holatlar keksalarning psixologik farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Muloqot yetishmasligi nutq stereotiplashuvi, hissiy sezgirlikning pasayishi, gumonsirash va salbiy emotsiyalarning kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuningdek, jamiyatdagi mavqe pasayishi, mehnat faoliyatining tugashi ham o‘z-o‘zini baholashga ta’sir etadi.

Shu bois keksa odamning psixologik holatini qo‘llab-quvvatlashda oilaning, jamiyatning va ijtimoiy muhitning roli nihoyatda muhimdir. Yaqinlarning e’tibori, mehr-muhabbat, muloqot, faollik uchun sharoit yaratish, yangi qiziqishlarni qo‘llab-quvvatlash — keksalikni mazmunli va samimiy o‘tishiga yordam beradi. Shaxsning o‘zini foydali va kerakli deb his qilishi — keksalik davridagi eng kuchli motivatsiya manbalaridan biridir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abramova G.S.Yosh psixologiyasi. M.Akademicheskiy proyekt, 2012. 340 b.
2. Alperovich V.D. Gerontologiya. Keksalik. Ijtimoiy-madaniy portret. M.: Akademiya, 2011. 270 b.
3. Kulagina I.Yu. Vozrastnaya psixologiya: polniy jiznenniy sikl razvitiya cheloveka./ I.Yu. Kulagina, V.N. Kolyutskiy. M.: TS "Sfera," 2001. 464 s.
4. Xyell L. Teorii lichnosti / L. Xyell, D. Zigler. - SPb.: Rech, 2006. 217 b.

YETUKLIK YOSHIDAGI AYOLLARDA KASBIY IDENTLIK SHAKLLANISHINING HAYOTDAN QONIQISH DARAJASIGA TA’SIRI

M.R.Sultonova
Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi PhD, dots

Annotatsiya: Maqolada yetuklik yoshidagi ayollarning kasbiy identligi va ularning hayotdan qoniqish darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi. Yetuklik davrida ayollarning kasbiy o‘zligini anglashi nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki umumiy psixologik farovonlikning asosi ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Yetuklik Yoshi, kasbiy identlik, shaxs, professional soha, o‘zini anglash, hayotdan qoniqish subyektiv mamnunlik, psixologik farovonlik, ruhiy muvozanat, shaxsiy o‘sish, gender rollar.

Yetuklik davri psixologiyada shaxsning eng faol va samarali davri hisoblanadi. E. Erikson nazariyasiga ko‘ra, bu bosqichda inson “mahsuldorlik” va “turg‘unlik” o‘rtasidagi inqirozni boshidan kechiradi. Ayollar uchun ushbu davrda kasbiy identlik — o‘zini mutaxassis sifatida anglash va tan olish — hayot mazmunini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanadi [1]. Yetuklik davri (35–55 yosh) ayollar uchun “ijtimoiy va ruhiy qayta yuklanish” davridir. Bu bosqichda kasbiy identlik shunchaki ish joyiga ega bo‘lish emas, balki shaxsning o‘zini ijtimoiy muhim subyekt sifatida namoyon qilishi hisoblanadi. Yetuklik yoshidagi ayollarda faqat kasbiy faoliyat emas, balki rollar to‘qnashuvi ham yuzaga keladi. Ayol bir vaqtning o‘zida “professional xodim”, “g‘amxo‘r ona”, “vafodor rafiqa” va “keksa ota-onasiga qarovchi farzand” rollarini bajaradi. Mazkur yoshda yuzaga keladigan identlik inqirozi ko‘p ayollarda 40 yoshdan so‘ng "Men hayotda nimaga erishdim?" degan savolni o‘rtaga qo‘yadilar. Agar kasbiy sohada muvaffaqiyat bo‘lmasa, bu inqiroz og‘ir kechadi [1]. Bu davrda ayolning kasbiy identligi shunchaki funksional vazifalar majmuasi emas, balki uning shaxsiy qadriyatlari bilan birlashib ketadi. Kasbiy acme- bunda **a**yol o‘z sohasida ekspertlik darajasiga yetadi. Bu darajaga erishish ayolda “o‘z taqdirining egasi” ekanligi hissini (internal lokus kontrol) kuchaytiradi. Hayotdan qoniqishning asosi esa agar ayolning kasbiy faoliyati uning qadriyatlariga mos kelsa, u hayotining qolgan jabhalaridagi (oila, salomatlik) qiyinchiliklarni osonroq yengib o‘tadi [6].

Kasbiy identlik — bu shaxsning o‘zini muayyan kasbiy hamjamiyat a’zosi sifatida his qilishi, kasbiy qadriyatlarni qabul qilishi va o‘z mahoratini anglashidir. Yetuklik yoshidagi ayollarda u quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

Kognitiv kompanent: Kasbiy bilim va ko‘nikmalarini adekvat baholash;
Affektiv kompanent: Kasbiy faoliyatdan hissiy qoniqish yoki norozilik;
Xulq-atvor: Kasbiy o‘sishga intilish va professional muvaffaqiyatlar.

Hayotdan qoniqish — bu shaxsning o‘z hayotiy yutuqlari va istaklari o‘rtasidagi muvofiqlikni subyektiv baholashidir. Ma’lumki, yetuk yoshdagi ayollar ko‘pincha “ko‘p tomonlama rollar” (oila, ona, xodim, rahbar) o‘rtasidagi muvozanatni izlaydilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijobiy identlik kasbiy jihatdan o‘zini namoyon qila olgan

ayollarda o‘z-o‘zini hurmat qilish darajasi yuqori bo‘ladi, bu esa hayotdan qoniqishni oshiradi [2].

Identlik inqiroziga ko‘ra agar ayol kishi bu yoshda o‘z kasbidan qoniqmasa yoki o‘z o‘rnini topmagan bo‘lsa, bu “psixologik bo‘shliq” va depressiv holatlarga sabab bo‘lishi mumkin. Kompensatsiya mexanizmiga ko‘ra kasbiy identlikning mustahkamligi oilaviy muammolar davrida "himoya qalqoni" vazifasini o‘tab, ayolning ruhiy barqarorligini ta’minlaydi [3]. Ushbu mavzu yetuklik yoshidagi (35–55 yosh) ayollarning psixologik holatini tahlil qilishda dolzarb ahamiyatga ega. lmiy tadqiqotlar kasbiy identlikning hayotdan qoniqishga ta’sirini quyidagi to‘rtta asosiy yo‘nalish orqali tushuntiradi:

1. O‘z-o‘zini hurmat qilish bu- kasbiy identligi shakllangan ayol o‘zini jamiyat uchun foydali deb biladi. Bu hissa uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Yuqori o‘z-o‘zini hurmat qilish esa hayotdan qoniqishning eng muhim prediktori (bashoratchisi) hisoblanadi.
2. Iqtisodiy mustaqillik va nazorat yo‘nalishiga ko‘ra kasbiy o‘zlikka ega bo‘lish moliyaviy mustaqillikni ta’minlaydi. Psixologik nuqtai nazardan, moliyaviy barqarorlik ayolga o‘z hayotini "nazorat qilish" hissini beradi, bu esa xavotir darajasini kamaytirib, qoniqishni oshiradi [2].
3. Ijtimoiy kapital va qo‘llab-quvvatlash va kasbiy muhit esa ayol uchun qo‘shimcha ijtimoiy tarmoq yaratadi. Hamkasblar bilan muloqot, do‘stona aloqalar va professional e’tirof ayolning “ijtimoiy yolg‘izlik”ka tushib qolishining oldini oladi.

Tadqiqotchi V.A. Tolochek va boshqalar o‘tkazgan so‘rov-nomalarga ko‘ra, kasbiy identligi “shakllangan” darajasida bo‘lgan ayollarning 78% i hayotidan to‘la qoniqishini bildirgan. Aksincha, “noaniq” holatidagi ayollarda hayotdan norozilik va depressiv kayfiyat 60% holatda kuzatilgan [5].

Milliy mentalitetimizda ayolning oiladagi o‘rni ustuvor bo‘lsa-da, bugungi kunda o‘zbek ayollari orasida “intellektual yetuklik”ka intilish kuchaygan. Yetuk o‘zbek ayoli uchun hayotdan qoniqish — bu oilaviy baxt va kasbiy muvaffaqiyatning uyg‘unligidir. Faqat bittasining mavjudligi (masalan, faqat karyera yoki faqat oila) to‘laqonli qoniqishni ta’minlamasligi mumkin.

Yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqish darajasini oshirish uchun quyidagilar muhim:

- Doimiy ta’lim: Yangi ko‘nikmalarni o‘rganish kasbiy “eskirish”ning oldini oladi;

- Mentorlik: Tajribali ayollarning yoshlarga ustozlik qilishi ulardagi “mahsuldorlik” (generativity) hissini oshiradi;
- Psixologik korreksiya: “Bo‘shab qolgan uya sindromi” (bolalar uyni tark etishi) davrida diqqatni kasbiy o‘sishga qaratish tavsiya etiladi [4].

Yetuk ayollarda hayotdan qoniqish ko‘pincha “ Super ayol” sindromi bilan to‘qnash keladi. Bu yerda kasbiy identlik ikki xil rol o‘ynashi mumkin:

- Resurs sifatida: Ishdagi muvaffaqiyat oiladagi stressni kompensatsiya qiladi;
- Konflikt sifatida: Agar kasbiy talablar oilaviy majburiyatlar bilan keskin to‘qnashsa, hayotdan qoniqish darajasi pasayadi [2].

Rossiyalik psixolog E.P. Yermolayeva tadqiqotlariga ko‘ra, kasbiy identligi shakllangan ayollarda quyidagi ko‘rsatkichlar yuqori bo‘ladi:

- Ekzistensial to‘lalik: Hayot mazmunli va foydali o‘tayotgani hissi;
- Ijtimoiy moslashuvchanlik: Turli vaziyatlarda o‘zini yo‘qotib qo‘ymaslik;
- Stressga chidamlilik: Kasbiy kompetensiya ayolga ruhiy “immunitet” beradi [2].

Xulosa. Yetuklik yoshidagi ayollarda kasbiy identlikning muvaffaqiyatli shakllanishi ularning hayotdan qoniqish darajasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Professional sohadagi “men”ning anglanishi ayolga ijtimoiy muhimlik hissini beradi va keksalik davriga ruhan tayyor bo‘lishga yordam beradi. Yetuklik yoshidagi ayollar uchun kasbiy identlikni rivojlantiruvchi maxsus treninglar va psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish zarur. Ayollarning kasbiy “qayta yuksalishi” va ularning tajribasini mentorlik orqali yoshlarga uzatishi ulardagi mahsuldorlik hissini oshiradi va depressiv holatlarning oldini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Erikson, E. H. (1963). Childhood and Society. New York: Norton.
2. Ермолаева, Е. П. (2011). Психология профессиональной идентичности в инновационных условиях. М.: Институт психологии РАН.
3. Shoumarov G’.B. (2010). Oila psixologiyasi. Toshkent: “Sharq”.
4. Клёцина, И. С. (2004). Психология гендерных отношений. СПб.: Питер.
5. Толочек, В. А. (2015). Современная психология труда. — СПб.: Питер.
6. Деркач, А. А. (2004). Акмеологические основы развития профессионала. — М.: МПСИ.

O‘SMIR YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA AGRESSIYA HOLATINING NAMOYON BO ‘LISHI VA UNI KORREKSIYALASH

Navbahar Salaeva
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dosenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bolalarda agressiya holatining namoyon bo‘lishi va uning o’ziga xos psixologik xususiyatlari hamda jihatlari keltirilgan.Agressiya holatini bartaraf qilishga xizmat qiluvchi metodlar ham o ’z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: agressiya, jarayon,holat,xususiyat,xulq-atvor,metod, o‘zgarish,munosabat,tashxis,inqiroz.

Annotation. This article presents the manifestations of aggression in children and its specific psychological characteristics and aspects. The methods that serve to eliminate aggression are also expressed.

Key words: aggression, process, condition, feature, behavior, method,
change, attitude, diagnosis, crisis.

Аннотация. В данной статье представлены проявления агрессии у детей и ее специфические психологические особенности и аспекты. Также изложены методы, служащие для устранения агрессии.

Ключевые слова: агрессия, процесс, состояние, особенность, поведение, метод, изменение, отношение, диагноз, кризис.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRDUCTION) Agressiya holatini namoyon bo ‘lishi va shaxslarda kechish jarayoni turlicha bo ‘lib u individual xususiyatlar va shaxs tipologiyasiga ham bo ‘g’liqdir. 1940 yillarda olib borilgan psixologik tadqiqotlarda agressiya bu-odatiy ammo frustratsiya oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo ‘lgan holat deb e’tirof qilingan. Agressivlik o`z-o`zidan paydo bo`ladigan holat emas u dominant reaksiya uning zamirini esa frustratsiya tashkil qiladi deb ta’kidlangan.

Agressiya holati bu, shaxs hayotida xulq-atvorning o‘ziga xos bo‘ladigan salbiy jarayon sifatida ko‘rinishini tushuniladi.Agressiya – (lot. «tajovuz qilmoq») destruktiv tabiatga ega bo`lgan individual hulq atvor bo‘lib,hayotda agressiyaning bir qancha turlari kuzatilishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И METOD/MATERIALS AND METHODS).

Agressiya mavzusi bo‘yicha ko‘pgina tadqiqotlar,izlanishlar olib borilgan . R.Beron va D.Richardson, G`.B.Shoumarov, N.Sog’nov,B.Umarov,Y.Asadov ,G. To‘laganova ,B. Sodiqovlar agressivlikning rivojlanishiga olib keluvchi shaxs xususiyatlari,o‘qil va qiz bolalarda agressiya holatlarining kelib chiqish sabablarini, o`smirlarda agressivlikning shakllanishiga ta`sir qilivchi omillar ,agressiya sababli yuzaga keladigan deviant xatti-harakatning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari , xulqi og’ishga moyil bo‘lgan bolalar psixologiyasi kabi mavzularni yoritib berganlar.

Ushbu mavzuni yortish davomida ilmiy tadqiqotning umume’tirof etgan bir nechta uslublari, jumladan ma’lumotlarning tahlili, qiyosiy tahlil, sintez, xolislik va reallik kabi tamoyillardan foydalanildi

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION).

Agressiya tushunchasi, patopsixologiya, klinik psixologiya,stress psixologiyasi kabi sohalarning asosiy kategoriyasi sifatida tadqiq qilinadi. Agressiyaning turli ko‘rinishlari va agressiv xulq-atvor tushunchalariga taalluqli bo‘lgan barcha masalalar eksperimental o‘rganilib, olimlar va tadqiqotchilar o‘zlarining turlicha qarashlari xulosalarini keltirib o‘tganlar.

R.Beron va D.Richardsonlar bolalar agressiyani o‘rganish maqsadida amalga oshirgan fundamental tadqiqotlarida uni quyidagi turlarga ajratadi:

Jismoniy agressiya – boshqalarni qo‘orqitishdan tortib, to‘g`ridan-to‘g`ri jismoniy kuch ishlatish, unga jismoniy va ma’naviy og’riq yetkazish.

Bilvosita agressiya – boshqa insonlarga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan axborotlarni tarqatish: mish-mish, g’iybat, kalaka qilish va hokazolar. O‘z-o‘zidan aynan boshqa insonga qaratilmagan holda agressiyaning namoyon bo ‘lishi: mushti bilan stolni urish, eshikni taqillatib yopish va boshqalar.

Verbal agressiya – salbiy hislarni baqirish, janjal qilish, so‘kish, haqoratlash, tahdid va boshqa usullar orqali bildirish. Arzimagan qo‘zg`ovchi ta’sirga ham

qo ‘pollik, terslik, emotsional qo‘zg’alish bilan javob qaytarish bilan ifodalanadi.

G’.B.Shoumarov fikriga ko‘ra, o‘smirlarda agressivlikning shakllanishiga bir qancha omillar ta’sir qiladi va ular quyidagilardan iborat:

Tarbiyaning muvozanatlashmagan shakllari: o ‘z-o ‘ziga haddan ziyod past baho berish, yuqori darajada impulsivlik, turli moddalarni iste’mol qilish, kompyuter o‘yinlariga tobelik, tavakkalchilikka tayyorlik holatlari, o‘z-o‘zini himoya qilish hislarining chegaralanganligi;

Xulqiy omillar: o‘z vaqtini maqsadsiz o‘tkazish, darslarni sababsiz qoldirish, o‘zlashtirishning pastligi, erta jinsiy aloqalarga kirishish va h.;

Ijtimoiy omillar: OAVning psixologik ta’siri, jamiyatdagi udum va marosimlar, ota-onaning xulqiy buzilishlarga ega ekanligi, oila ijtimoiy mavqeining pastligi, tarbiyachilarning o`zgarishi o‘gay ota yoki o‘gay ona ;

Taqlid fenomeni: o ‘smirning xulqiy og‘ishlar shakllangan do‘stlar bilan yaqin ijtimoiy aloqalarni o‘rnatishi;

Ichki oilaviy nizolar: ota-onaning ajrashishi, ikkinchi nikohdagi farzandlar, o‘smirning o‘zlashtirishiga ota-ona tomonidan uning qobiliyati, qiziqishi inobatga olinmagan holda haddan ziyod yuqori talablarning qo ‘yilishi.

Ushbu omillar ta’siri va natijasida o‘smirlarda agressiya quyidagi hislarning namoyon bo‘lishi kuzatiladi:

- atrofdagilardan dushmanlik munosabatlarini kutadilar;
- o ‘zlarining muammolarida atrofdagilarni aybdor deb topadilar;
- muammoli vaziyatlarni hal etish usullari ularda chegaralangan;
- o‘z hislarini so‘z bilan kamdan-kam ifodalaydilar, ko‘proq harakat qilishga intiladilar.
- xavotirlanish holatlari yuqori bo‘ladi;
- o ‘z hatti-harakatlari oqibatlarini kam o ‘ylaydilar;
- emotsiyalar intensivligi ortishi yuqori: xafa bo ‘lish o ‘rnini nafrat egallaydi;
- ularning empatik qobiliyatlari past, o ‘zgalar his-tuyg`ulariga befarqdirlar;
- do‘stlikdan ko`ra qasos va ustunlikni afzal ko`radilar;
- o‘zaro kelishuvlar, murosaga kamdan-kam hollarda keladilar;
- ularning munosabatlari noto‘g`ri baholangan holatlar ularni qiziqtirmaydi;
- agressiv xulq ularning fikricha yaxshi natijalarga ega bo`lishni ta’minlaydi.

Mavzu bo ‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda agressivlik ko ‘p hollarda psixologik muammolarni hal etishda ojizlik holatlari ta’sirida shakllanishi aniqlangan.Ular quyidagilardan iborat:

Charchash,agar o‘smir haddan ziyod charchagan bo‘lsa, psixik agressiya psixik resurs imkoniyatlari cheklanganligi oqibatida shakllanadi.

O‘z-o‘zini negativ idrok etish, «Men yomon odamman. Shuning uchun
o ‘zimni shunday tutaman» naqlida ish olib borishi kuzatiladi. Tobora yomonlik hissi o‘smir uchun chuqur, ma’lum bir hatti-harakatni bajarishga psixofiziologik tayyorlik holati - ustanovkaga aylanadi. Bu toifadagi o‘smirlarda arzimagan, yumshoq tanqid ham psixik og ‘riqning shakllanishiga olib keladi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/ RESULTS). O‘smirlarda uchraydigan og’ma destruktiv xulq-atvor ko‘rinishlari:

- O‘qish va ish faoliyatidan bosh tortish darsdan qochish, uyga vazifani bajarmaslik, dars davomida e’tiborsiz bo‘lish, o‘qishni davom ettirishni hoxlamaslik.

- Biologik yoki ijtimoiy xulq ko ‘rinishidir. Uning kelib chiqishi biologik va ijtimoiy psixologik omillarga ega bo`lib, uni boshqara olish qobiliyatiga juda kam insonlargina qodirdirlar.

O‘smirlik davri xususiyatlari shundayki, o‘smir o‘zining nohaqligini tan olishga qiynaladi. Atrofdagilar uning xulqini salbiy baholashi unga kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun suhbat jarayoni nihoyatda ehtiyotkorlikni talab qiladi. O‘smir agressiyasini bartaraf etishning eng maqbul usuli kattalarning o‘z-
o‘zlarini boshqara olishlari, sabr-toqat bilan o‘smirga maqbul yo‘llarni ko‘rsata bilishlariga bog’liq. Bunday holatlarda birgalikda biror-bir faoliyatni bajarish tavsiya etiladi.

Agar o‘smir xatti-harakatlari atrofdagilar hayoti va salomatligi uchun jiddiy xavf tug’dirsa, u muayyan bir davr ichida o‘zgarishlarga moyillik bildirmasa, psixiatr- ga murojaat etish zarur. Chunki bu holatlarda bosh miyadagi o‘zgarishlar natijasida agressiya o‘zini-o‘zi nazorat qilishning yo ‘qolishi sindromining oqibati sifatida yuzaga kelgan bo ‘lib, jamiyat uchun xavf tug’dirishi mumkin.

Biz tadqiqotlarimizni olib borish jarayonida o ‘smir yoshidagi o ‘g’il bola va qiz bolalarning agressiv holatini bartaraf qilish maqsadida hozirda amaliyotchi psixologlarimiz qo‘llayotgan zamonaviy psixologik usullardan “Niqob” va “Mato” terapiya usullaridan samarali foydalandik .Niqob terapiya metodi juda samarali bo‘lib, usbu usul psixiatr Gagik Nazloyan tomonidan yaratilgan. Niqob terapiyadan dastlab ruhiy bemorlarni davolashda foydalanilgan bo‘lsa, hozirda individual va jamoaviy psixodiagnostika va psixoterapiya maqsadlarida

ham keng qo‘llanilmoqda. Inson buyumli niqobni taqishi bilan o ‘zidagi “ijtimoiy niqob”ni yechadi. Niqoba terapiyaning davolovchi funksiyasi ham aynan shunda. U tashqi dunyo bilan aloqa shaklini chegaralashi bilan o`zida yangi qalb sifatlarini shakllantiradi.

Niqob terapiya- ma’lim usul psixologik chuqur komplekslarni va inson muammolarini niqobning jonsiz moddasiga tarjima qilishga asoslangan.Yuz-bu bizning psixologik holatimiz va kayfiyatimiz-ning, tanamizning, shuningdek o’tmishimiz va hozirgi kunimizning proeksiyasidir. Niqob terepiyasi yordamida odatiy,stereotipli rollardan xalos bo’lish,o’zingizni keraksiz narsalardan xalos qilish va hayotingizni o’zgartirish imkoniyatini yaratiladi. Muammoli vaziyatlarni o’z vaqtida hal qilish va hissiy muvozanatni o’rnatish juda muhimdir. Niqoblardan foydalanish insonning taqdirida muhim o’rin tutadigan mavzularni bemalol yoritib berish imkoniyatidir.Bunday muammoli vaziyatlar eng yahshi tarzda “niqoblangan”ko’rininshda hal qilinadi. Niqoblar vaziyatni tushunishning ajoyib usuli bolib, uni o’yin mavzusiga aylantirish ham mumkin. Respondentlar bilan

o‘tkazilgan tajriba-sinovlarda ushbu metodning samarali va ijobiy tomonlari ham isbotlandi .Biz mavzu bo ‘yicha olib borayotgan tadqiqotlarimizda mato terapiyadan ham foydalandik.

O’smir yoshidagi qizlarda yuzaga keladigan agressiya holatlari ham o ‘ziga xos xususiyatlarga ega bo ‘lib,uni bartaraf qilishning ham psixologik jihatlari mavjud. O’smir yoshdagi qizlar muammolarini bartaravf etishda mato terapiyadan foydalanish orqali ularning psixologik holatini ijobiylashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Qizlar matolar yordamida turli shakl, bezak, naqsh, gul va boshqalarni yasash va tikish,to’qishlari orqali o`zining ichki ruxiyatidagi salbiy histuyg`ulardan yiroqlashadi, o’zini- o’zi tinchlantirib, ruxiy xotirjamlikka erishadi. Mato terapiya o’smir yoshidagi qizlarning qo’rquvlari, injiqliklari, o’zini past baholashlari,maktab o’quvchilarining o’zaro to’qnashuvlari kabi salbiy xislatlarni aniqlash va ularni bartaraf etish maqsadlarida ham foydalaniladi.

Agar o’quvchilar uchun tabiiy sharoitda ishlash imkoni yaratilsa, uning samarasi va natijadorligi yanada yuqori bo`ladi. Mato terapiyasini o’tkazishda o’quvchilarning jinsiy o’ziga xosliklariga ham e’tibor qaratiladi.O’smir yoshdagi qizlarning matolar bilan ishlash jarayonida qizlarga xos bo’lgan uquvlilik,epchillik,chaqqonlik,uddaburonlik,qunt bilan ishlash,ijodkorlik,tezkorlik kabi irodaviy sifat va xususiyatlarining namoyon bo ‘lishi ularni ijobiy,ruhiy holatga kelishlariga imkoniyati yaratiladi. O’quvchi qizlarning mato bilan ishlashda diqqati, tafakkuri,

xotirasi, xayoli, idrok kabi psixik jarayonlari ham rivojlanishi kuzatiladi. Shuningdek,mato terapiyani bajarish jarayonida o ‘smir yoshdagi qiz bolalarning his-tuyg’ularni ifoda etish jarayoniga ham katta e’tibor qaratilishi lozim. Mato terapiyani o‘tkazish jarayonida qizlar kichik guruhlarga ajratiladi va ularga mato terapiyani o’tkazishda zarur bo’lgan anjomlarni tavsiya qilinadi.Bular, mato qirqimlari, qaychi, santimetr, ulgilar, matoni chizishga mo’ljallangan bo’r, andozalar,igna, ip, angishvona tayyorlanadi va mato terapiyani amalda bajaradilar.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONSLUSION).

Demak, shaxs shakllanishining har bir yosh bosqichida xususiyatlar, inqirozlar,murakkabliklar, muammolar,qiyinchiliklar va o‘ziga xosliklar kuzatiladi. O'smirlik yosh davri ham bundan mustasno emas. Bu yosh shaxsning rivojlanishidagi eng qiyin davrlardan biridir. Aynan o‘smirlik yoshida yuzaga keladigan agressiyalarni o ‘z vaqtida diagnostika qilib borish,shaxs hayotini ijobiy va to‘kisligini ta’-minlashga zamin yaratadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Asadov Y., Musurmanov R. O‘smirlar deviant xatti-harakatining ijtimoiy- psixologik xususiyatlari (diagnostika, profilaktika, korreksiya). – Toshkent, 2011.
2. Asadov Y.M. Ruhiy holatlar diagnostikasi va korreksiyasi. –T., 2000.
3. G‘oziyev E. Pedagogik psixologiya asoslari. – T.: “O‘qituvchi”, 2000.
4. Sodiqov B. “Deviant xulqi bolalar psixologiyasi”. Termiz, 2010.
5. Xurvaliyeva T. Maktabda psixologik xizmatni tashkil etish. – A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2006.
6. Yadgarova G.T. “Tarbiyasi qiyin guruhga mansub bolalar bilan ishlash”,uslubiy qo‘llanma, Toshkent, 2007
7. Yo‘ldoshev U.A., Po‘latov M. Amaliy psixologning ish kitobi. – Navoiy,2000.
8. Nishonova Z.T.Psixologik xizmat.T.,2006.
9. To‘laganova G.K. “Tarbiyasi qiyin o‘smirlar”. T, “Universitet”, 2005

IJTIMOIY ONG JAMIYAT HAYOTINI ANGLASH, BAHOLASH VA MA’NOLASHTIRISHNING MARKAZIY MEXANIZMI SIFATIDA

Sodiqov Sardorbek Soxibjon o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi sikl boshlig‘i

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy ong jamiyat hayotini anglash, baholash va ma’nolashtirishning markaziy mexanizmi, ijtimoiy ongning jamiyat hayotidagi fundamental o‘rni, uning ijtimoiy borliqni aks ettirishdagi faolligi hamda jamiyatni boshqarish va rivojlantirishdagi institutsional ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy ong, ijtimoiy borliq, anglash, baholash, ma’nolashtirish, qadriyat, ijtimoiy mexanizm, mafkura, madaniyat, ma’naviy hayot, axborot urushi, axborot xavfsizligi, mafkuraviy barqarorlik, ma’naviy immunitet, jamiyat, ma’naviy muhit.

Аннотация. В данной статье анализируется центральный механизм понимания, оценки и осмысления общественной жизни, фундаментальная роль общественного сознания в общественной жизни, его деятельность в отражении общественного существования и его институциональное значение в управлении и развитии общества.

Ключевые слова: Общественное сознание, общественное существование, понимание, оценка, смысл, ценность, социальный механизм, идеология, культура, духовная жизнь, информационная война, информационная безопасность, идеологическая стабильность, духовный иммунитет, общество, духовная среда.

Abstract. This article analyzes the central mechanism of understanding, evaluating and giving meaning to social life, the fundamental role of social consciousness in social life, its activity in reflecting social existence, and its institutional significance in managing and developing society.

Keywords: Social consciousness, social existence, understanding, evaluation, meaning, value, social mechanism, ideology, culture, spiritual life, information warfare, information security, ideological stability, spiritual immunity, society, spiritual environment.

Ijtimoiy ong jamiyat hayotini anglash, baholash va ma’nolashtirishning markaziy mexanizmi hisoblanadi. U faqat individual tafakkur yig‘indisi emas, balki tarixiy tajriba, qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlar asosida shakllanadigan mustaqil ijtimoiy

reallikdir. Shu bois, ijtimoiy ongni falsafiy tahlil qilish harbiy ongni ijtimoiy ong shakli sifatida anglash uchun nazariy poydevor vazifasini bajaradi. Insoniyat tarixi shuni ko‘rsatadiki, jamiyat nafaqat moddiy ehtiyojlar, balki g‘oyaviy asoslar ustiga quriladi. Ijtimoiy ong – bu jamiyatdagi mavjud munosabatlarning insonlar xotirasi va tafakkuridagi in’ikosigina emas, balki borliqni o‘zgartiruvchi qudratli kuchdir. U jamiyat hayotini tushunish (anglash), unga nisbatan munosabat bildirish (baholash) va kelajakni loyihalash (ma’nolashtirish) jarayonlarining markaziy mexanizmi hisoblanadi. O‘zbek falsafiy an’anasida ijtimoiy ong jamiyatning ma’naviy tajribasini ifoda etuvchi, avloddan-avlodga o‘tadigan ma’nolar tizimi sifatida talqin qilinadi.

Bu masalada akademik J.Tulenov “Ijtimoiy ongni jamiyatning o‘z-o‘zini anglash shakli deb ta’riflab, u individual ongdan ustun bo‘lgan me’yoriy-qadriyatli tizim ekanini” ta’kidlagan [1]. Uning fikricha, shaxs ongi aynan ijtimoiy ong orqali mazmun kasb etadi.

Ijtimoiy ong – bu jamiyatning ma’naviy hayoti, odamlarning dunyoqarashi, g‘oya va his-tuyg‘ularining majmuasidir. U jamiyat hayotini shunchaki aks ettirib qolmay, uni anglash va boshqarish-ning markaziy mexanizmi vazifasini o‘taydi.

Ushbu mexanizmning uchta asosiy funksiyasini quyidagicha tahlil qilish mumkin: 1. Anglash: Ijtimoiy borliqning bilish mexanizmi. Ijtimoiy ongning birinchi va asosiy funksiyasi – jamiyatni anglashdir. Bu jarayonda ijtimoiy ong quyidagi vazifalarni bajaradi: Ijtimoiy tajribani tizimlashtirish: Fan va falsafiy qarashlar orqali jamiyatning o‘tmishi, buguni va qonuniyatlari o‘rganiladi. O‘zlikni anglash: Milliy va umum-insoniy qadriyatlar orqali jamiyat “Biz kimmiz va qaysi yo‘ldan ketyapmiz?” degan savolga javob topadi. Axborotni qayta ishlash: Ijtimoiy ong voqelikni shunchaki qabul qilmay, uni tahliliy suratda qayta ishlab, ijtimoiy bilimga aylantiradi. 2. Baholash: Ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlar filtri. Jamiyatdagi har bir hodisa ijtimoiy ongning “baholash” chig‘irig‘idan o‘tadi. Bu mexanizm jamiyatning ma’naviy va huquqiy sog‘lomligini ta’minlaydi: Axloqiy va huquqiy baho: Ijtimoiy ong vositasida insonlar xatti-harakatlariga “adolatli-nohaq”, “yaxshi-yomon” kabi mezonlar bilan baho beriladi. Ijtimoiy nazorat: Jamoatchilik fikri — baholash mexanizmining eng faol ko‘rinishi bo‘lib, u davlat qonunlari yetmagan joyda ma’naviy cheklovchi va yo‘naltiruvchi vazifasini bajaradi. Tanqidiy tafakkur: Ijtimoiy ong jamiyatdagi destruktiv (buzg‘unchi) g‘oyalarni rad etish va ijobiylarini qabul qilish uchun filtr vazifasini o‘taydi. 3. Ma’nolashtirish: Ijtimoiy taraqqiyotning maqsadli yo‘nalishi. Ijtimoiy

ongning eng oliy ko‘rinishi bu — ijtimoiy voqelikka ma’no berishdir. Ma’nolashtirilmagan jamiyatda parokandalik va inqiroz yuzaga keladi. Strategik maqsadlar: Ijtimoiy ong ideallar va g‘oyalarni yaratadi (Masalan, “Uchinchi Renessans” g‘oyasi jamiyat hayotini ma’no bilan to‘ldiruvchi kuch sifatida). Madaniy kodlar va ramzlar: Til, san’at va an’analar orqali har bir harakat mazmun kasb etadi. Bu esa ijtimoiy jipslikni ta’minlaydi. Kelajakni loyihalash: Jamiyat o‘z ertasini bugungi ong darajasidagi orzu va rejalari asosida quradi.

Shu bilan bir qatorda falsafa fanlari doktori B. To‘rayev “Ijtimoiy ong va individual ong nisbatini dialektik munosabat sifatida izohlab, individual ong ijtimoiy tajribasiz shakllana olmasligini ko‘rsatadi” [2]. Bu yerda ijtimoiy ong tayyor qolip emas, balki ijtimoiy tajriba orqali doimiy qayta ishlab chiqiladigan ma’no maydoni sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu ma’lumotlar asosida shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, ijtimoiy ongni individual ongdan ajratish mumkin emas, ammo uni faqat individual tafakkur yig‘indisiga qisqartirish ham xato ham ijtimoiy ong shaxsga tayyor ma’nolarni taklif qiladi, shaxs esa ularni qabul qiladi yoki qayta talqin qiladi.

Ijtimoiy ong turli shakllarda namoyon bo‘ladi va har biri jamiyat hayotida alohida funksiyani bajarishini o‘zbek olimasi N.Alimuhamedova “Ijtimoiy ong shakllarini jamiyat faoliyati sohalariga muvofiq ravishda tasniflab, siyosiy, huquqiy, axloqiy va mafkuraviy ongni asosiy turlar sifatida ajratgan”[3].

Siyosiy ong hokimiyat, boshqaruv va jamiyat rivoji haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi. Huquqiy ong qonun, adolat va javobgarlikni anglashga xizmat qiladi. Axloqiy ong inson xulq-atvorini me’yorlashtiradi, mafkuraviy ong esa jamiyatning strategik maqsadlari va umumiy yo‘nalishini belgilaydi. Falsafa fanlari doktori R.Nurimbetov ushbu shakllar o‘zaro bog‘liq ekanini ta’kidlab, “biridagi inqiroz boshqalariga ham ta’sir qilishini ko‘rsatadi” [4]. Masalan, huquqiy ong zaiflashsa, siyosiy ishonch pasayadi, mafkuraviy ong inqirozi esa axloqiy me’yorlarni nisbiylashtiradi. Ushbu xulosadan kelib chiqib, ijtimoiy ong shakllari alohida tizimlar emas, balki yagona ma’no makonining turli qirralaridir. Shu bois, axborot urushi ularning birini emas, butun tizimni izdan chiqarishga qaratilgan bo‘ladi.

Kasbiy ong ijtimoiy ongning maxsus, maqsadga yo‘naltirilgan shakli bo‘lib, u muayyan ijtimoiy funksiyani bajaruvchi guruhlar faoliyati bilan bog‘liq holda shakllanadi. Falsafa fanlari doktori A.Safarov o‘zining izlanishida “kasbiy ongni bilim, qadriyat va

mas’uliyat birligi sifatida talqin qilib, u jamiyat ehtiyojlariga javob berishi shartligini ta’kidlab o‘tgan” [5].

Kasbiy ongning asosiy xususiyati – ijtimoiy mas’uliyatdir. O‘zbek faylasufi Sh.Paxrutdinov “kasbiy mas’uliyatni shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yilgan ijtimoiy burch sifatida baholaydi” deb ta’riflagan [6]. Ayni shu jihat harbiy ongni kasbiy ongning eng yuqori mas’uliyat darajasiga ega shakli sifatida ko‘rishga asos bo‘ladi. Shundan kelib chiqib ta’kidlash kerakki, kasbiy ong jamiyat uchun xizmat qila olmasa, u professional mahorati bo‘lgan, ammo ijtimoiy mazmundan mahrum faoliyatga aylanadi. Harbiy ong esa aynan ijtimoiy mazmunning eng yuqori ifodasidir.

Harbiy ong ijtimoiy ongning maxsus va o‘ta mas’uliyatli shakli bo‘lib, u jamiyat xavfsizligi, davlat suvereniteti va ijtimoiy barqarorlik bilan bevosita bog‘liq. Shu bois, harbiy ongni faqat kasbiy ong doirasida emas, balki ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida tahlil qilish zarur.

Yana bir muhim masala bo‘yicha o‘zbek falsafiy tadqiqotlarida harbiy ong jamiyatning xavfsizlikka bo‘lgan munosabatini ifoda etuvchi maxsus ong shakli sifatida talqin qilinishini falsafa fanlari doktori Sh. Abdullayev “Harbiy ongni “burch, intizom va jamoaviy javobgarlikka asoslangan kasbiy-ma’naviy ong” sifatida ta’riflagan” [7]. Uning ta’kidlashicha, harbiy ong shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yilgan ijtimoiy burch bilan belgilanadi.

Harbiy ongning birinchi asosiy belgisi – burch va sadoqatdir. Akademik A.Erkayev burch tushunchasini ma’naviy qadriyat sifatida tahlil qilib, “burchni anglagan shaxs ijtimoiy manfaatni shaxsiy xohishlardan ustun qo‘ya olish” deb ta’kidlagan [8]. Harbiy ongda burch Vatan, xalq va davlat oldidagi ma’naviy majburiyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi belgi – intizom va ierarxiya. Bu to‘g‘risida falsafa fanlari doktori B. To‘rayev “Ijtimoiy tizimlarda ierarxiya tartib va barqarorlikning zarur sharti ekanini ko‘rsatib, harbiy sohada u ma’naviy itoat va mas’uliyat bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lishini qayd etadi” [9].

Uchinchi belgi – jamoaviy javobgarlik. O‘zbek faylasufi R.Nurimbetov “Jamoaviy javobgarlikni ijtimoiy birdamlikning eng yuqori ko‘rinishi sifatida baholaydi” [10]. Harbiy ongda bu belgi yakka qaror emas, balki umumiy xavfsizlik uchun javob berishga tayyorlikni anglatadi. Harbiy ongning o‘ziga xosligi shundaki, u shaxsni erkinlikdan mahrum etmaydi, balki erkinlikni jamoaviy xavfsizlik bilan ma’naviy jihatdan bog‘laydi.

Harbiy ong ijtimoiy ongdan uzilgan holda mavjud bo‘la olmaydi. U ijtimoiy ongning milliy va mafkuraviy shakllari bilan uzviy bog‘liq. Akademik J.Tulenov milliy ongni jamiyatning tarixiy xotirasi va umumiy maqsadlarini ifoda etuvchi ong shakli sifatida tahlil qilib, “harbiy ong aynan shu milliy ongga tayanishini” [11] ta’kidlaydi.

Milliy ong bilan bog‘liqlik harbiy ongni begona mafkuraviy ta’sirlardan himoya qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Falsafa fanlari doktori N. Jo‘rayev mafkuraviy ong ijtimoiy yo‘nalishni belgilashini qayd etib, “Mafkuraviy bo‘shliq mavjud jamiyatda harbiy ong zaiflashishini ko‘rsatadi” [12]. Harbiy ong ijtimoiy ongning eng konsentrlashgan shakli bo‘lib, unda milliy ong va mafkuraviy ongning barqarorligi sinovdan o‘tadi. Bu barqarorlik buzilsa, harbiy ong ham formal tusga aylanadi.

Harbiy ong jamiyatda xavfsizlikni anglash va qabul qilish madaniyatini shakllantiradi. Falsafa fanlari doktori Q.Nazarov “Xavfsizlikni faqat tashqi tahdidlardan himoya emas, balki ijtimoiy barqarorlik sharti sifatida talqin qilgan” [13]. Harbiy ong aynan shu xavfsizlikni ongli ravishda ta’minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, harbiy ong ijtimoiy ishonchni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek olimasi M.Qodirova “Ishonch jamiyatda tartib va birdamlikning ma’naviy poydevori ekanini ta’kidlab, harbiy institutlarga bo‘lgan ishonch umumiy ijtimoiy barqarorlikni kuchaytirishini ko‘rsatadi” [14]. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, harbiy ong jamiyat uchun faqat mudofaa resursi emas, balki barqarorlikni ta’minlovchi ma’naviy kafolatdir. Unga bo‘lgan ishonch zaiflashsa, xavfsizlik ham ramziy tusga aylanadi.

Harbiy ong tabiiy ravishda shakllanadigan holat emas; u ijtimoiy muhit, davlat institutlari hamda mafkura va qadriyatlar tizimining uzviy o‘zaro ta’siri natijasidir. Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda mazkur manbalarning har biri yangi mazmun va funksiya kasb etmoqda.

Oila, ta’lim va tarbiya harbiy ongning dastlabki poydevorini yaratadi. Bu haqida akademik A. Erkayev “Tarbiyani ma’naviy immunitetni shakllantiruvchi jarayon sifatida baholab, vatanparvarlik va burch hissi bolalik davridan shakllanmasa, keyinchalik formal tusda qolishini belgilagan” [15]. Zamonaviy sharoitda ta’lim muassasalari faqat bilim berish emas, balki xavfsizlikka ongli munosabatni tarbiyalash vazifasini ham bajaradi.

Jamoa va institutlar (maktab, mahalla, jamoat tashkilotlari) harbiy ongni ijtimoiy tasdiqlash maydoni sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, jamoaviy muhit shaxs qadriyatlarini mustahkamlashda hal qiluvchi

ahamiyatga ega hisoblanadi. Harbiy ong ijtimoiy muhitda faqat o‘rgatiladigan holat emas, balki doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlanmasa, tez yemiriladigan ma’naviy tuzilmadir. Zamonaviy axborot muhitida bu qo‘llab-quvvatlash yanada murakkablashgan.

Harbiy ong shakllanishida davlat va harbiy institutlar markaziy o‘rin tutishi haqida o‘zbek olimasi M.Qodirova “Davlatni ijtimoiy xavfsizlik uchun javobgar sub’ekt sifatida baholab, harbiy institutlar orqali davlat o‘z qadriyatlarini institutsional shaklda mustahkamlashini ta’kidlaydi” [16].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, ijtimoiy ong jamiyatning “miyasi” va “vijdoni”dir. U jamiyat hayotidagi voqealarni shunchaki qayd etuvchi ko‘zgu emas, balki ularni tahlil qiluvchi, baholovchi va ularga yuksak mazmun beruvchi tizimli mexanizmdir. Shu sababli, ijtimoiy ong shakllarini (ilm-fan, ta’lim, san’at, din va mafkura) rivojlantirish – barqaror jamiyat qurishning asosiy sharti hisoblanadi.

Uning markaziy o‘rni quyidagi xulosaviy nuqtalarda namoyon bo‘ladi:

1.Integratsiya va barqarorlik: Jamiyat o‘z hayotini anglash orqali ichki ziddiyatlarni kamaytiradi va umumiy maqsadlar atrofida jipslashadi. Anglanmagan hayot parokandalikka mahkumdir.

2.Ma’naviy-huquqiy filtr: Baholash mexanizmi sifatida ijtimoiy ong jamiyatning “vijdoni” vazifasini o‘taydi. U destruktiv g‘oyalarni inkor etish va ijobiy qadriyatlarni mustahkamlash orqali jamiyatning ma’naviy immunitetini ta’minlaydi.

3.Taraqqiyot strategiyasi: Ma’nolashtirish funksiyasi orqali ijtimoiy ong jamiyatning kelajakdagi qiyofasini loyihalaydi. Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy islohot avvalo insonlar ongida ma’no kasb etsagina, kutilgan natijani beradi.

Shu sababli, zamonaviy globallashuv va axborot xurujlari davrida ijtimoiy ong shakllarini – ayniqsa ilm-fan, ta’lim va milliy mafkurani tizimli rivojlantirish davlat va jamiyatning eng ustuvor vazifasi bo‘lib qolaveradi.

Adabiyotlar

1. Tulenov J**.** Ijtimoiy falsafa asoslari**.** – Toshkent: Ma’naviyat, 2011. – 48–51-b.

2. To‘rayev B. Ong va jamiyat dialektikasi**.** – Toshkent: Universitet, 2013. – 62–65-b.

3. Alimuhamedova N. Ijtimoiy ong shakllari**.** – Toshkent: Fan, 2014. – 73–76-b.

4. Nurimbetov R. Ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi**.** – Toshkent: Falsafa va huquq, 2016. – 89–92-b.

5. Safarov A. Kasbiy ong va ijtimoiy mas’uliyat**.** – Toshkent: Akademnashr, 2017. – 54–57-b.
6. Paxrutdinov Sh. Ijtimoiy mas’uliyat falsafasi**.** – Toshkent: Fan, 2015. – 101–104-b.
7. Abdullayev Sh. Harbiy ong falsafasi**.** – Toshkent: Mudofaa nashriyoti, 2016. – 41–44-b.
8. Erkayev A. Burch va ma’naviyat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010. – 67–70-b.
9. To‘rayev B. Ijtimoiy tartib va ierarxiya**.** – Toshkent: Universitet, 2014. – 83–86-b.
10. Nurimbetov R. Jamoaviy javobgarlik falsafasi. – Toshkent: Fan, 2015. – 58–61-b.
11. Tulenov J. Milliy ong va jamiyat taraqqiyoti**.** – Toshkent: Akademiya, 2012. – 92–95-b.
12. Jo‘rayev N. Mafkuraviy ong va barqarorlik**.** – Toshkent: Falsafa va huquq, 2014. – 77–80-b.
13. Nazarov Q. Xavfsizlik falsafasi**.** – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 49–52-b.
14. Qodirova M. Ishonch va ijtimoiy barqarorlik**.** – Toshkent: Fan, 2019. – 104–107-b.
15. Erkayev A. Tarbiya va ma’naviy immunitet. – Toshkent: Ma’naviyat, 2012. – 58–61-b.
16. Qodirova M. Davlat va ijtimoiy xavfsizlik**.** – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 76–79-b.

YOSHLAR TAFAKKURIDA TARIXIY XOTIRANI MUSTAHKAMLASHDA TA’LIM TIZIMINING ROLI

Pulatov Baxodir Abduraupovich
Farg‘ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakulteti maxsus tayyorgarlik sikli boshlig‘i
Ahmadjonov Shohruhbek Bahromjon o‘g‘li, Ismoiljonov Husanboy Dilshodjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakulteti 3-bosqich talabalari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar ongida tarixiy xotirani shakllantirish va mustahkamlashda ta’lim tizimining o‘rni yoritib berilgan. Globallashuv davrida yosh avlodning tarixiy ongini shakllantirish, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish, ajdodlar merosini qadrlash orqali ularni barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalalari ko‘rib chiqilgan. Tarixiy darslar, ekskursiyalar, zamonaviy texnologiyalar va

interaktiv metodlar yordamida yoshlarning tarixga bo‘lgan qiziqishini oshirishning samarali yo‘llari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tarixiy xotira, ta’lim tizimi, yoshlar, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, tarbiya.

KIRISH

Bugungi globallashuv va tez o‘zgarayotgan axborot makonida yoshlar ongini sog‘lom, mustahkam tarixiy xotira asosida shakllantirish jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biridir. Tarixiy xotira – bu nafaqat o‘tmishdagi voqealarni eslab qolish, balki ularni chuqur anglab, hozirgi hayotda o‘z aksini topishini ta’minlovchi ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanadi. Yosh avlodning tarixga, milliy qadriyatlarga, o‘zlikni anglashga bo‘lgan munosabati bevosita tarixiy xotiraning shakllanganlik darajasiga bog‘liq.

Bugungi kunda yoshlar orasida tarixiy bilimsizlik, tarixiy voqealarga befarqlik holatlari, ayrim noto‘g‘ri axborotlar ta’sirida shakllangan qarashlar kuzatilmoqda. Bu esa jamiyatda milliy o‘zlik, birlik va ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, yoshlar ongida tarixiy xotirani shakllantirish, uni chuqurlashtirish va mustahkamlash ta’lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ta’lim – bu nafaqat bilim berish, balki tarbiyalash, dunyoqarashni shakllantirish va milliy qadriyatlarni yosh ongiga singdirish vositasidir. Maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’lim bosqichigacha bo‘lgan barcha jarayonlarda tarixiy ongni uyg‘otish, tarixiy voqeliklarni to‘g‘ri tushuntirish, tarixiy shaxslar merosini chuqur o‘rganish orqali yoshlar qalbida Vatanga sadoqat, milliy g‘urur va faxr tuyg‘ulari kuchayadi.

Shu ma’noda, ushbu maqola doirasida ta’lim tizimining yoshlar ongida tarixiy xotirani mustahkamlashdagi o‘rni, vositalari, metodik yondashuvlari hamda mavjud muammolar va ularning yechimlari ijtimoiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, tarixiy xotira va ta’lim uyg‘unligi orqali barkamol, mas’uliyatli, o‘z millatiga sadoqatli avlodni tarbiyalash mumkin.

ASOSIY QISM

Tarixiy xotira nima va u yoshlar tarbiyasida nima uchun muhim?

Tarixiy xotira – bu xalqning o‘z tarixini, o‘tmishdagi muhim voqea va shaxslarni eslab, ularni qadrlab yashashi demakdir. Tarixiy xotira orqali inson o‘z millatiga, vatani va xalqiga bo‘lgan mehr-muhabbatini mustahkamlaydi. Ayniqsa, yosh avlodning ongida tarixiy xotirani shakl-

lantirish – ularni vatanparvar, g‘ururli, o‘zlikni anglaydigan shaxs qilib tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Yoshlar o‘z xalqining tarixini chuqur bilsa, o‘z madaniyati, qadriyatlari bilan faxrlansa, ularni asrash va davom ettirishga harakat qiladi. Shu sababli ta’lim tizimida tarixiy xotirani mustahkamlash juda zarur.

Ta’lim tizimining tarixiy xotirani shakllantirishdagi o‘rni

Ta’lim – yoshlar ongini shakllantiradigan asosiy tizimdir. Maktab, kollej yoki universitetlarda tarix fanini o‘qitish orqali o‘quvchilarga o‘z xalqining bosib o‘tgan yo‘li, buyuk ajdodlari, tarixiy voqealar haqida bilim beriladi.

Bugungi kunda quyidagi yo‘llar orqali tarixiy xotira mustahkamlanmoqda:

Tarix darslari orqali: Darslarda tarixiy mavzularni chuqur o‘rganish, tarixiy shaxslar haqida batafsil ma’lumot berish.

Tarixiy tadbirlar orqali: Mustaqillik bayrami, 9-may – Xotira va qadrlash kuni kabi tarixiy sanalarni nishonlash orqali yoshlar ongida tarixga hurmat uyg‘otiladi.

Muzey va tarixiy joylarga ekskursiyalar: O‘quvchilar tarixni faqat darslikdan emas, ko‘rish, eshitish va his qilish orqali o‘rganadilar.

Film va hujjatli ko‘rsatuvlar: Tarixiy mavzularda tayyorlangan filmlar yoshlar uchun qiziqarli va esda qolarli bo‘ladi.

Zamonaviy ta’limdagi yangi yondashuvlar

Bugungi kunda darslarni interfaol va qiziqarli usulda o‘tkazish tarixni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Misol uchun:

Savol-javoblar, munozaralar: O‘quvchilar tarixiy voqealarni muhokama qilish orqali voqealarning mohiyatini tushunib yetadilar.

Rolli o‘yinlar: Tarixiy shaxslarning rolini ijro qilish orqali tarixiy voqealarni chuqurroq his qilishadi.

Loyiha ishlari: O‘quvchilar tarixiy mavzularda prezentatsiya tayyorlab, o‘z fikrini ifoda etadi.

Raqamli texnologiyalar: Virtual ekskursiyalar, tarixiy video darslar, onlayn viktorinalar orqali tarixni o‘rganish zamonaviy va oson bo‘lmoqda.

Ba’zi muammolar va ularni hal qilish yo‘llari

Afsuski, ba’zida tarix darslari quruq ma’lumotlar asosida o‘tiladi, bu esa o‘quvchilarni zeriktiradi. Shuningdek, ba’zi yoshlar tarixga befarq qarashadi. Buning oldini olish uchun:

Darslar qiziqarli va jonli o‘tkazilishi kerak;

O‘qituvchilar yoshlar bilan do‘stona munosabatda bo‘lishi, ularni rag‘batlantirib borishi zarur;
Tarixni o‘rganishga mehr uyg‘otadigan tadbirlar ko‘paytirilishi kerak.

XULOSA

Bugungi globallashuv davrida ayrim yot g‘oyalar, ma’lumotlar va noto‘g‘ri tarixiy talqinlar yosh ongini chalg‘itishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida, tarixiy xotirani susaytiradi, milliy g‘ururni pasaytiradi. Shuning uchun o‘quv dasturlarini yangilash, tarixiy mavzularni zamon bilan uyg‘unlashtirish, yoshlar bilan individual ishlash orqali ularning tarixga bo‘lgan qiziqishini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Kelajakda tarixiy xotirani mustahkamlash yo‘lida:
o‘qituvchilar malakasini oshirish,
interaktiv darslar sonini ko‘paytirish,
tarixiy joylarga ekskursiyalarni muntazam o‘tkazish,
madaniy meros obidalarini o‘rganish va targ‘ib qilish ishlari yanada kuchaytirilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimi orqali shakllanadigan tarixiy xotira – bu yoshlar ongini mustahkamlovchi asos, Vatanga sadoqat, milliy birlik va barkamol jamiyatni qurishning muhim kafolatidir. Tarixini bilgan va uni qadrlagan yosh hech qachon yo‘ldan adashmaydi, aksincha, o‘z yurtining fidoyi farzandi bo‘lib voyaga yetadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jo‘rayev, M. A. Tarixiy xotira va ijtimoiy ong: zamonaviy yondashuvlar.Toshkent: “Fan va taraqqiyot”, 2023. – B. 17–34.
2. Yusupova, D. Sh. Ta’lim tizimida milliy o‘zlikni shakllantirishning pedagogik asoslari.Toshkent: “O‘qituvchi”, 2021. – B. 52–68.
3. Mamatqulov, A. M. Globallashuv sharoitida yoshlar ongida tarixiy ong va vatanparvarlikni shakllantirish. Samarqand: “Ilm ziyo”, 2022. – B. 38–49.
4. Mirzayev, R. H. Yangi O‘zbekiston va ma’naviyat: yoshlar tarbiyasining asosiy yo‘nalishlari. Toshkent: “Ma’naviyat”, 2023. – B. 26–40.
5. Abdurahmonova, N. I. Tarixiy merosni o‘rganish orqali yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish. Buxoro: “Buxoro universiteti nashriyoti”, 2020. – B. 70–81.
6. Qodirova, G. M. Ta’limda tarixiy ongni shakllantirishning zamonaviy metodlari.Andijon: “Pedagog nashriyoti”, 2022. – B. 45–59.
7. Tursunov, Z. A. Tarix fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar.Namangan: “Ilmiy izlanish”, 2021. – B. 33–48.

MIGRATSIYANING O‘SMIRLARNING SHAXSIY RIVOJLANISHIGA TA’SIRI: EMPATIYA ASPEKTIDA

Sherjanova Nodira
Urganch davlat Universiteti pedagogika va psixologiya kafedra o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada migratsiya jarayonining o‘smirlarning shaxsiy rivojlanishiga ta’siri empatiya nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Ota-onasi mehnat migratsiyasida bo‘lgan o‘smirlarning emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi hamda boshqalar his-tuyg‘ularini anglash qobiliyati (empatiya) shakllanishiga migratsiyaning ijobiy va salbiy ta’sirlari o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, migratsiya sharoitida o‘sayotgan o‘smirlarda mustaqillik va hayotiy tajriba ortishi bilan birga, emotsional bo‘shliq, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi kuzatilishi mumkin. Shu bilan birga, ayrim hollarda bunday o‘smirlar boshqalarga nisbatan sezgirlik va hamdardlik kabi empatik xususiyatlarni rivojlantirishi ham aniqlangan. Maqolada empatiyani rivojlantirishga qaratilgan pedagogik va psixologik yondashuvlar yuzasidan tavsiyalar berildi.

Kalit so‘zlar:migratsiya, o‘smirlar, shaxsiy rivojlanish, empatiya, emotsional rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, mehnat migratsiyasi, ota-ona migratsiyasi, psixologik holat, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, pedagogik yondashuvlar

Аннотация. В данной статье рассматривается влияние миграционных процессов на личностное развитие подростков с точки зрения эмпатии. Особое внимание уделяется подросткам, чьи родители находятся в трудовой миграции, их эмоциональному состоянию, социальной адаптации и способности понимать чувства других людей. Результаты исследования показывают, что миграция оказывает как положительное, так и отрицательное влияние: с одной стороны, у подростков развивается самостоятельность и жизненный опыт, с другой — может наблюдаться эмоциональный дефицит и недостаток социальной поддержки. Также установлено, что в некоторых случаях у таких подростков формируются более выраженные эмпатические качества, такие как сочувствие и чувствительность к окружающим. В статье предлагаются педагогические и психологические рекомендации по развитию эмпатии у подростков.

Ключевые слова: миграция, подростки, личностное развитие, эмпатия, эмоциональное развитие, социальная адаптация, трудовая

миграция, родительская миграция, психологическое состояние, социальная поддержка, педагогические подходы

Annotation. This article examines the impact of migration on adolescents' personal development from the perspective of empathy. Particular attention is given to adolescents whose parents are engaged in labor migration, focusing on their emotional state, social adaptation, and ability to understand others' feelings. The findings indicate that migration has both positive and negative effects: on the one hand, it fosters independence and life experience; on the other hand, it may lead to emotional deprivation and a lack of social support. Additionally, in some cases, such adolescents demonstrate higher levels of empathy, including increased sensitivity and compassion toward others. The article also provides pedagogical and psychological recommendations for developing empathy in adolescents.

Keywords: migration, adolescents, personal development, empathy, emotional development, social adaptation, labor migration, parental migration, psychological state, social support, pedagogical approaches

KIRISH. Bugungi globallashuv sharoitida migratsiya jarayonlari jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, mehnat migratsiyasi natijasida ko‘plab ota-onalarning uzoq muddatga boshqa hudud yoki davlatlarga ketishi oila institutiga, xususan, o‘smirlar tarbiyasi va shaxsiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘smirlik davri inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda shaxsning ijtimoiy, emotsional va axloqiy sifatlari, jumladan empatiya qobiliyati shakllanadi va rivojlanadi. Empatiya — bu boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash, ularga hamdard bo‘lish va mos ravishda munosabat bildirish qobiliyatidir. Mazkur sifat shaxsning ijtimoiy moslashuvi, samarali muloqoti hamda sog‘lom psixologik rivoji uchun muhim omil hisoblanadi. Ota-onaning yo‘qligi yoki ularning uzoqda bo‘lishi o‘smirning emotsional ehtiyojlariga bevosita ta’sir etib, empatiya rivojlanish jarayonida turli o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, migratsiya sharoitida voyaga yetayotgan o‘smirlarning shaxsiy rivojlanishini, ayniqsa empatiya kabi muhim psixologik sifat shakllanishini o‘rganish dolzarb masalalardan biridir. Ushbu tadqiqotning maqsadi — migratsiyaning o‘smirlar empatik rivojlanishiga ta’sirini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash

hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik va psixologik yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat.

MUAMMONING O‘RGANILGANLIK DARAJASI:

Migratsiya jarayonlarining o‘smirlar shaxsiy rivojlanishiga ta’siri va bu jarayonda empatiya shakllanishi masalasi xalqaro hamda mahalliy ilmiy adabiyotlarda turli jihatlardan o‘rganilgan. Xususan, ijtimoiy psixologiya, pedagogika va sotsiologiya sohalarida migratsiyaning oilaviy tizimga, bolalar va o‘smirlarning emotsional holatiga ta’siri keng tadqiq etilgan. Xorijiy tadqiqotchilar orasida migratsiyaning bolalar psixologiyasiga ta’siri bo‘yicha D. G. Finkelstein, C. R. Phinney, J. Bowlby kabi olimlarning ishlari muhim o‘rin tutadi. Ularning tadqiqotlarida ota-ona ajralishi, emotsional bog‘liqlik va xavfsiz bog‘lanish (attachment theory) o‘smirlarning hissiy rivojlanishiga bevosita ta’sir qilishi asoslab berilgan. Shuningdek, migratsiya sharoitida o‘sayotgan bolalarda ijtimoiy izolyatsiya, stress va emotsional beqarorlik holatlari kuzatilishi mumkinligi ta’kidlangan. MDH mamlakatlari olimlari, jumladan rus va markaziy osiyolik tadqiqotchilar ham migratsiya jarayonining bolalar va o‘smirlar psixologiyasiga ta’sirini o‘rganib kelmoqda. Ularning ishlarida ota-onaning mehnat migratsiyasiga ketishi natijasida oilaviy tarbiya tizimining zaiflashuvi, o‘smirlarning mustaqillik darajasining ortishi hamda emotsional ehtiyojlarning yetarlicha qondirilmasligi qayd etilgan. Mahalliy tadqiqotlarda ham migratsiya va yoshlar muammolari, ularning ijtimoiylashuvi, ta’lim jarayonidagi o‘zgarishlar tahlil qilingan. Biroq aynan empatiya rivojlanishi aspektida migratsiyaning o‘smirlarga ta’siri masalasi yetarlicha chuqur va kompleks o‘rganilmaganligi kuzatiladi. Shu sababli, mazkur mavzu dolzarb bo‘lib, migratsiya sharoitida o‘sayotgan o‘smirlarning empatik xususiyatlarini o‘rganish, ularning shaxsiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR: Tadqiqot jarayonida migratsiya sharoitida yashayotgan, ya’ni ota-onasi mehnat migratsiyasida bo‘lgan o‘smirlarning shaxsiy rivojlanishi va empatiya darajasi tahlil qilindi. Kuzatuvlar va so‘rovnomalar natijasiga ko‘ra, ushbu toifadagi o‘smirlar emotsional va ijtimoiy jihatdan turlicha rivojlanish xususiyatlarini namoyon etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ota-onasidan uzoqda yasha-

yotgan o‘smirlarning bir qismida mustaqillik, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, qaror qabul qilish ko‘nikmalari tez rivojlanadi. Bu holat ularning shaxsiy yetuklashuv jarayonini tezlashtiradi va ijtimoiy moslashuvga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu o‘smirlarda hissiy qo‘llab-quvvatlash yetishmasligi, yolg‘izlik hissi va emotsional beqarorlik holatlari ham kuzatiladi. Empatiya aspektida o‘rganilganda, migratsiya sharoitida o‘sayotgan ayrim o‘smirlarda boshqalarning his-tuyg‘ularini tezroq anglash, hamdardlik bildirish va yordam berishga moyillik kuchliroq ekanligi aniqlandi. Bu holat ularning o‘z shaxsiy tajribasida emotsional yetishmovchilikni boshdan kechirishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ya’ni, ular boshqalarning holatini yaxshiroq tushunishga harakat qiladi va bu empatik sezgirlikni oshiradi. Biroq boshqa bir guruh o‘smirlarda esa aksincha, ijtimoiy befarqlik, emotsional yopilish va muloqotda qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu holat uzoq muddatli ota-ona nazorati va qo‘llab-quvvatlashining yetishmasligi natijasida yuzaga keladi. Umumiy natijalar shuni ko‘rsatadiki, migratsiya o‘smirlarning empatiya rivojlanishiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi: bir tomondan empatik sezgirlikni kuchaytirishi mumkin bo‘lsa, boshqa tomondan emotsional sovuqlik va ijtimoiy chekinishga olib kelishi ehtimoli mavjud. Shu bois, pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

XULOSA: Mazkur tadqiqot natijalariga ko‘ra, migratsiya jarayoni o‘smirlarning shaxsiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Ayniqsa, ota-onasi mehnat migratsiyasida bo‘lgan o‘smirlarda empatiya rivojlanishi murakkab va ko‘p qirrali jarayon ekanligi kuzatildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, migratsiya sharoitida o‘sayotgan o‘smirlarning bir qismida mustaqillik, mas’uliyat va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalari rivojlanishi bilan birga empatik sezgirlik ham kuchayadi. Biroq ayrim hollarda emotsional yetishmovchilik, psixologik qo‘llab-quvvatlashning kamligi va yolg‘izlik hissi empatiya rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Umuman olganda, migratsiya o‘smirlar empatiyasiga ikki tomonlama — ham ijobiy, ham salbiy ta’sir etishi bilan xarakterlanadi. Bu esa ularning shaxsiy rivojlanish jarayonida ijtimoiy va emotsional muvozanatni ta’minlash muhimligini ko‘rsatadi. Shu bois, migratsiya sharoitida yashayotgan o‘smirlar bilan ishlashda oilaviy, pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning emotsional ehtiyojlariga e’tibor qaratish hamda

empatiya rivojlanishini rag‘batlantiruvchi maxsus dasturlar ishlab chiqish zarur deb hisoblanadi.

TAVSIYALAR: Migratsiya sharoitida o‘sayotgan o‘smirlarning shaxsiy rivojlanishi va empatiya qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: Oilaviy aloqalarni mustahkamlash; Ota-onalar va farzandlar o‘rtasida muntazam muloqotni yo‘lga qo‘yish (telefon, videoqo‘ng‘iroqlar orqali) o‘smirlarning emotsional barqarorligini saqlashga yordam beradi. Psixologik qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish; Maktablarda psixologik xizmatlarni rivojlantirish, migratsiya ta’siridagi o‘smirlar bilan individual va guruhiy ishlashni yo‘lga qo‘yish lozim. Empatiya rivojlantiruvchi dasturlarni joriy etish; Treninglar, rolli o‘yinlar va interfaol metodlar orqali o‘quvchilarda hamdardlik, tushunish va ijtimoiy sezgirlikni rivojlantirish tavsiya etiladi. Pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish; O‘qituvchilar migratsiya sharoitidagi bolalar psixologiyasi va emotsional ehtiyojlari bo‘yicha maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kengaytirish; Mahalla, maktab va ijtimoiy tashkilotlar hamkorligida o‘smirlarni qo‘llab-quvvatlovchi dasturlar ishlab chiqish muhimdir. Bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etish; To‘garaklar, sport va ijodiy faoliyatga jalb qilish orqali o‘smirlarning ijtimoiy faolligini oshirish va emotsional stressni kamaytirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Bowlby J. Attachment and Loss: Vol. 1. Attachment. New York: Basic Books, 1982.
2. Finkelstein D. G. Child Development in Migrant Families. Oxford University Press, 2018.
3. Phinney J. S. Ethnic Identity and Acculturation in Immigrant Adolescents. Cambridge University Press, 2003.
4. UNICEF. Children Left Behind: The Impact of Migration on Children. New York, 2019.
5. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
6. G‘afforova T. S. Pedagogik psixologiya. Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
7. Ismailova N. R. O‘smirlar psixologiyasi va tarbiya masalalari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
8. Saidov A. X. Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent: Universitet, 2017.
9. Mirzayev B. Sh. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
10. UNICEF Uzbekistan. Migratsiya va bolalar farovonligi bo‘yicha hisobot. Toshkent, 2022.

O‘SMIRLIK DAVRIDA PSIXOLOGIK ZO‘RIQISH YUZAGA KELISHI SABABLARINI O‘RGANISH

Qalandarova Bonu Shermamat qizi
Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti Sport faoliyati, pedagogika va psixologiya fakulteti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o’qituvchisi

ANNATATSIYA: Ushbu maqolada o‘smirlarda stress namoyon bo‘lishining psixologik ko‘rinishlari haqida so‘z yuritiladi. O‘smirlarning psixologik xususiyatlarini tadqiq etgan olimlar fikrlari taxlil qilinib, ularning emotsional sohasida psixologik zo’riqish namoyon bo’lishi natijasida salbiy holatlar yuzaga kelishi aniqlangan.

Kalit so’zlar: Deviant, xulq-atvor, o’smirlik, stress, affekt, psixik taraqqiyoti, ziddiyat, salbiy kechinmalar.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются психологические проявления стресса у подростков. Анализируются мнения ученых, изучавших психологические особенности подростков, и установлено, что негативные ситуации возникают в результате психологического напряжения в их эмоциональной сфере.

Ключевые слова: Девиантное поведение, подростковый возраст, стресс, аффекты, психическое развитие, конфликты, негативные переживания.

ABSTRACT: This article discusses the psychological manifestations of stress in adolescents. The opinions of scientists who have studied the psychological characteristics of adolescents are analyzed, and it is found that negative situations arise as a result of psychological tension in their emotional sphere.

Keywords: Deviant, behavior, adolescence, stress, affect, psychic progress, conflict, negative experiences.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi. Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish maqsadida 2021-yil mamlakatimizda “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili deb e'lon qilindi.[1] Hozirgi davrdagi o‘smirlar o‘tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o‘sish oldinroq

namoyon bo‘lmoqda. “Endi o‘smir bola emas, biroq katta ham emas” ayni shu ta’rif o‘smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. O‘smirlik- bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqish, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakllanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O‘smirlik balog‘otga yetish davri bo‘lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taaluqli chigal masalalaming paydo bo‘lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu yoshda o‘smir rivojida keskin o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi. Bu o‘zgarishlar fiziologik hamda psixologik o‘zgarishlardir. O’smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim hislat- voyaga yetish yoki kattalik hissining paydo bo‘lishi alohida ahamiyatga ega. Kattalik hissi ijtimoiy-axloqiy sohada, aqliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda, xulq-atvorning tashqi shakllarida o‘z ifodasini topadi. O‘smirlik yoshiga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni o‘rgana turib, o‘smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib, kamolotga erishish yo‘llarini va unga ta’sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita ta‘sirini tushunish mumkin. O‘smirlik yoshida, taxminan 10-11 yoshdan 14-15 yoshlargacha davom qilib, bu davrda bolalarni emotsional kechinmalarida katta o‘zgarishlar boshlanadi.[5] Ushbu yoshdagi davrda bolalar ortiqcha ruhiy va jismoniy zo‘riqishga duchor bo’lishadi. Maktabda, oilada o‘smirlar turli xil muammolarga duch kelishadi, ularning salbiy ta’siri ko‘plab stressli vaziyatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Stress - inson organizmini haddan tashqari zo‘riqish natijasida paydo bo‘ladigan tanglik jarayonidir. Rus psixologi A.V.Petrovskiy stress-affektiv holatga yaqin turadigan, lekin boshdan kechirilishining davomiyligiga ko’ra kayfiyatlarga yaqin his-tuyg’ular boshdan kechirilishining alohida shaklidir, deb ta’riflagan. Profssor E.G’ozievning umumiy psixologiya kitobida stress-og’ir jismoniy va murakkab aqliy yuklamalar ishlarning me’yoridan oshib, ketib xavfli vaziyatlar tug‘ilganida, zaruriy chora-tadbirlarni zudlik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zo‘riqishlar sifatida ko‘rsatiladi. Stress ayrim o‘smirlarda yengil kechadi, ayrimlarida jiddiyroq va qiyinroq o‘tadi. Bunga asosiy sabab quyidagilar deb belgilanadi. Stressning hosil bo‘lishi muommoli vaziyatga qay darajada munosabatda bo‘lishimizga va bu holatni baholashimizga va u bilan kurashishimizga bog’liqdir.[3] Maktabda sinfdoshlari tomonidan rad etiluvchi munosabat ya’ni begonalik, boshqalarga nisbatan murosasizlik, kattalar bilan ziddiyatli holatlar, darsda past baho olishdan qo‘rqish, o‘zini past

baholash, o‘qituvchining adolatsizligi, noaniqlik, tashvish, dangasalik tufayli o‘rganilmagan dars mashg‘ulotlari ham stress holatini yuzaga keltirishi mumkin. Turli xil stressli vaziyatlarning salbiy ta’siri o‘smirlarning rivojlanishiga, uning xatti-harakatlariga, tengdoshlari va o‘qituvchilari bilan munosabatlariga ta’sir qiladi. Bu esa barcha yangi stressli vaziyatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. O‘smirlarda hissiy asabiylashish, tashvish, turli qo‘rquvlar, xulq-atvorda harakatlarda izchillik yo‘qligi, diqqatni jamlay olmaslik, hurmatsizlik, diqqat konsentratsiyasining kognitiv buzilishi, intellektual qobiliyatlarning pasayishi kabi holatlarda, o‘smirlik yoshini batafsil o‘rganish va kuzatish muhimdir.[4] O’smirning psixik o‘sishini harakatga keltiruvchi kuch - uning faoliyatini vujudga keltirganligi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namo-yon bo‘lishidir. Vujudga kelgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklani oldini olish orqali o‘smir shaxsida yangi psixologik fazilatlani shakllantirish, nizoli vaziyatlarini asta-sekin bartaraf etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. [2]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘smirlik davridagi bolalarda stressli vaziyatlar namoyon bo‘lishining turli omillar bilan bog‘liqligi o‘rganildi. Bu yoshdagi bolalar ko‘pincha o‘zlarini tushunishda va boshqarishda qiyinchiliklarga duch keladilar, shunin-gdek, ijtimoiy munosabatlar va o‘z-o‘zini anglashda muammolar yuzaga keladi. O‘zlarini boshqalardan ajralgan yoki noma’lum his qilishi sababli ijtimoiy munosabatlarda noaniqlik va shubhalar bilan yuzlashadilar. Ular o‘zlariga nisbatan ishonchsizlikni sezishlari mumkin, bu esa boshqalar bilan munosabatlarni buzishi yoki umuman cheklashiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham har qanday holatda ham stress tufayli aziyat chekishadi. Bu esa atrofidagilar bilan munosabatlarini yomonlashishiga sabab bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O’zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash” to’g’risidagi qarori. Toshkent, 2021-yil 18-yanvar, 23-son.

2.E.E. G’oziev “Ontogenez psixologiyasi” o’quv qo’llanma. Toshkent “NIF MSh”2020

3.F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova. “Umumiy psixologiya” darslik. Toshkent-2010

4.N.A.Roziqova “Ta’lim jarayonida pedagoglardagi streesga barqarorlikni rivojlantirish”. O’quv qo’llanma. Toshkent-2021

5.Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova,D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova “Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiya”. Toshkent-2018

SUBYEKTIV VAQT TEZLIGI TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK MOHIYATI VA UNING TALABA YOSHLAR FAOLIYATIDAGI O‘RNI

Solayev Og‘abek Ilhombek o‘g‘li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada subyektiv vaqt tezligi tushunchasining psixologik mohiyati nazariy jihatdan tahlil qilinadi hamda uning talaba yoshlar faoliyatidagi o‘rni ochib beriladi. Subyektiv vaqt tezligi shaxs tomonidan vaqtning o‘tish tezligini individual tarzda idrok etish va baholash jarayoni sifatida talqin etiladi. Maqolada ushbu tushunchaning kognitiv, emotsional va motivatsion asoslari hamda talabalar o‘quv faoliyatiga ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Subyektiv vaqt tezligi, vaqtni idrok etish, psixologik mohiyat, talabalar, o‘z-o‘zini boshqarish, vaqt perspektivasi.

Аннотация: В данной статье теоретически анализируется психологическая сущность понятия субъективной скорости времени и раскрывается его роль в деятельности студенческой молодежи. Субъективная скорость времени интерпретируется как процесс индивидуального восприятия и оценки человеком скорости течения времени. В статье освещаются когнитивные, эмоциональные и мотивационные основы данного понятия, а также его влияние на учебную деятельность студентов.

Ключевые слова: Субъективная скорость времени, восприятие времени, психологическая сущность, студенты, самоуправление, временная перспектива.

Abstract: This article theoretically analyzes the psychological essence of the concept of subjective time velocity and reveals its role in the activities of student youth. The subjective speed of time is interpreted as the process of individual perception and evaluation of the passage of time by an individual. The article highlights the cognitive, emotional, and motivational foundations of this concept, as well as its impact on students' learning activities.

Keywords: Subjective time velocity, time perception, psychological essence, students, self-regulation, time perspective.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimining jadallashishi, axborot oqimining ortishi va akademik talablarning murakkablashuvi talaba-yoshlardan yuksak darajadagi o‘zini o‘zi tashkil etishni, rejalashtirishni hamda vaqt resurslaridan samarali foydalanishni talab qiladi. Shu bois, vaqtni idrok etish jarayoni shaxs faoliyatini tartibga soluvchi muhim psixologik mexanizmlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Vaqt nafaqat obyektiv jismoniy kategoriya, balki subyektiv psixologik tajriba sifatida ham namoyon bo‘ladi va uni individual idrok etish shaxsning kognitiv, hissiy hamda xulq-atvor jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Psixologik nuqtayi nazardan, vaqtni idrok etish diqqat, xotira, tafakkur va hissiy kechinmalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab tizimdir. Xususan, vaqtning subyektiv tezligi tushunchasi shaxsning vaqt oqimining tez yoki sekin kechishi haqidagi individual bahosini ifodalaydi va faoliyat dinamikasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonda vaqtning "tezlashishi" yoki "sekinlashishi" haqidagi subyektiv hissiyotlar ichki ruhiy holat va tashqi faoliyat sharoitlarining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, vaqtni subyektiv idrok etish shaxs motivatsiyasi, stressga chidamliligi va o‘zini o‘zi nazorat qilish darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Talaba-yoshlar o‘quv yuklamasi, belgilangan muddatlar va baholash tizimi talablariga doimiy moslash-ishga majbur bo‘lganliklari sababli, ko‘pincha vaqt yetishmasligi yoki uning o‘tkinchiligi kabi subyektiv tuyg‘ularni boshdan kechiradilar. Bu esa ularning akademik samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli, vaqtning subyektiv tezligi tushunchasining psixologik mohiyatini tahlil qilish va uning talaba faoliyatidagi o‘rnini belgilash bugungi kundagi dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Vaqtning subyektiv tezligi tushunchasining psixologik mohiyati. Vaqtning subyektiv tezligi tushunchasi vaqtni idrok etishning markaziy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u individning ichki ruhiy tajribasi asosida vaqt o‘tishining intensivligi va davomiyligini baholash jarayonidir. Ushbu tushuncha obyektiv vaqtning fizik xususiyatlaridan farqli o‘laroq, inson ongida shakllanadigan psixologik konstruksiya sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ayni bir vaqt oralig‘i turli odamlar tomonidan yoki ayni bir odam tomonidan turli vaziyatlarda turlicha tezlik bilan o‘tayotgan deb qabul qilinishi mumkin.

Zamonaviy psixologiyada vaqtning subyektiv tezligini tushunishga doir bir necha nazariy yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular orasida vaqt istiqboli konsepsiyasi alohida o‘rin tutadi. Ushbu yo‘nalish Filipp Zimbardo va Jon Boyd tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, shaxsning o‘tmish, hozirgi va kelajak bilan bog‘liq kognitiv yo‘nalishi uning vaqtni idrok etish xususiyatlarini belgilab berishini asoslaydi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, hozirgi kunga yo‘naltirilgan shaxslar vaqtning tezroq o‘tishini his qilishga moyil, kelajakka yo‘naltirilgan shaxslar esa vaqtni tizimli va nazorat qilinadigan resurs sifatida qabul qiladilar.

Kognitiv psixologiya doirasida vaqtning subyektiv tezligi diqqat resurslarining taqsimlanishi, axborotni qayta ishlash intensivligi va ishchi xotiraga tushadigan yuklama bilan bevosita bog‘liqdir. Diqqatning faoliyatga yuqori darajada jalb etilishi (masalan, murakkab intellektual vazifalarni bajarishda) vaqtning tez o‘tishini subyektiv his qilishni yuzaga keltiradi. Bu holat ba’zan "psixologik kompressiya" sifatida talqin qilinadi. Aksincha, diqqatning yetarli darajada band emasligi, monoton faoliyat yoki sensor deprivatsiya sharoitida vaqtning sekinlashishi kuzatiladi, bu "psixologik kengayish" effekti bilan izohlanadi. Bu tushunchaning neyropsixologik asoslari ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, vaqtni idrok etish jarayonida miya tuzilmalari, xususan, prefrontal po‘stloq, bazal gangliyalar va miyacha faol ishtirok etadi. Bu tizimlar vaqt oralig‘ini baholash, ketma-ketlikni tashkil etish va harakatlarni rejalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jihatdan vaqtning subyektiv tezligi markaziy asab tizimining funksional holati bilan chambarchas bog‘liq.

Vaqtning subyektiv tezligini shakllantirishda hissiy omillar ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Affektiv holatlar vaqtni idrok etishning modulyatori sifatida namoyon bo‘ladi. Ijobiy emotsiyalar (qiziqish, quvonch, ilhomlanish) vaqtning tez o‘tishini ta’minlaydi, salbiy emotsiyalar (zerikish, bezovtalik, depressiv holatlar) esa vaqtning cho‘zilgandek tuyulishiga olib keladi. Bu hodisa affektiv-kognitiv integratsiya mexanizmlari bilan izohlanadi.

Motivatsion omillar ham ushbu tushunchaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Faoliyatga nisbatan yuqori ichki motivatsiya mavjud bo‘lgan hollarda inson "oqim holatiga" kirishi mumkin. Bu Mixaliy Sikszentmixay tomonidan tasvirlangan holat bo‘lib, unda vaqtni his qilish deyarli yo‘qoladi yoki sezilarli darajada tezlashadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, vaqtning subyektiv tezligi bevosita motivatsion tartibga solish bilan bog‘liq.

Talaba yoshlar faoliyatida vaqtning subyektiv tezligi tushunchasi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Vaqt tez o‘tayotgandek tuyuladigan talabalar o‘quv topshiriqlarini rejalashtirishda ko‘pincha xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Bu esa topshiriqlarning kechikishiga va o‘zlashtirish samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Roy Baumeysterning o‘z-o‘zini boshqarish nazariyalari doirasida ilgari surgan qarashlariga ko‘ra, shaxsning o‘z faoliyatini nazorat qila olish qobiliyati muvaffaqiyatli ta’limning muhim omilidir. Vaqtning subyektiv tezligini noto‘g‘ri baholash esa bu jarayonni murakkablashtiradi. Bundan tashqari, vaqtni noto‘g‘ri idrok etish talabalarda stress va psixologik zo‘riqishning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Vaqt yetishmasligi hissi ularda bezovtalik, o‘ziga ishonchsizlik va motivatsiyaning pasayishini keltirib chiqaradi.

Vaqtning subyektiv tezligi tushunchasi talaba yoshlarga xos individual psixologik xususiyatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu tushuncha kognitiv, emotsional va motivatsion omillar tizimida shakllanadi. Shu bois uni faqat bitta omil bilan izohlash kifoya qilmaydi.

Nazariy jihatdan, vaqtni ongli idrok etish va boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali uning subyektiv tezligini muvozanatlashtirish mumkin. Bu esa talabalarning akademik faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Talabalarda vaqtning subyektiv tezligi tushunchasi murakkab ko‘p komponentli psixologik konstruksiya bo‘lib, u kognitiv, emotsional, motivatsion hamda neyropsixologik omillarning o‘zaro integratsiyasi asosida shakllanadi. Ushbu tushuncha shaxsning vaqt oqimini individual idrok etishi orqali namoyon bo‘lib, obyektiv vaqtning fizik xususiyatlaridan farqli ravishda, ichki psixik holat va faoliyat sharoitlariga bog‘liq holda o‘zgaruvchan xarakterga ega. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, vaqtning subyektiv tezligi talaba yoshlarning o‘quv faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish va o‘z-o‘zini boshqarish jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, vaqtni tez o‘tayotgandek idrok etish holati topshiriqlarni kechiktirish, rejalashtirishdagi noaniqliklar hamda akademik stressning ortishiga olib kelishi mumkin. Aksincha, vaqtni ongli va tizimli idrok etish o‘quv faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, talabalarda vaqtni idrok etish mexanizmlarini rivojlantirish, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda motivatsion barqarorlikni ta’minlash muhim pedagogik va psixologik ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar ta’lim jarayonini optimallashtirish va talaba yoshlarning shaxsiy

hamda akademik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Baumeister R. F., Tierney J. (2011). Willpower: Rediscovering the Greatest Human Strength. New York: Penguin Press.
2. Boyd J., Zimbardo P. (1999). Time Perspective Theory and Research. Stanford University Press.
3. Csikszentmihalyi M. (1990). Flow: The Psychology of Optimal Experience. New York: Harper & Row.
4. James W. (1890). The Principles of Psychology. New York: Holt.
5. Levin R. (1998). The Psychology of Time Perception. Oxford: Oxford University Press.
6. Zimbardo P. G., Boyd J. N. (2008). The Time Paradox: The New Psychology of Time That Will Change Your Life. New York: Free Press.

TO‘LA YEVKLID FAZODA CHEBISHEV-LAGGER KO'PHADLARINI ORTOGONALLASHTIRISH PRINSIPI YORDAMIDA ANIQLASH

Jumanazarova Shodiya Otojon qizi
Urganch davlat Pedagogika instituti matematika va kompyuter texnologiyalari kafedrasi o‘qtuvchisi
Mahmudova Marjona Arslon qizi
UrDPI Aniq va tabiiy fanlar fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu tezisda to‘la Yevklid fazosida Chebishev–Lagger ko‘phadlari koeffitsientlarini ortogonallik prinsipi asosida aniqlash masalasi o‘rganiladi. Ko‘phadlar sistemasi, ularning ortogonallik xossalari hamda funksiyalarni yaqinlashtirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Chebishev va Lagger ko‘phadlari yordamida funksiyalarni qatorlarga yoyish va koeffitsientlarni aniqlash usullari yoritiladi. Ushbu mavzu nazariy jihatdan muhim bo‘lib, funksiyalar nazariyasi, matematik analiz va amaliy hisoblash masalalarida keng qo‘llaniladi.

Kalit so‘z: Chebishev ko‘phadlari, Lagger ko‘phadlari, ortogonallik prinsipi, Yevklid fazosi, funksiyalar nazariyasi, yaqinlashtirish, qatorlar, koeffitsientlar, ortogonal sistemalar, matematik analiz.

Аннотация. В данной работе рассматривается задача определения коэффициентов многочленов Чебышёва–Лагерра в полном евклидовом пространстве на основе принципа ортогональности. Анализируются системы многочленов, их свойства

ортогональности и роль в приближении функций. Освещаются методы разложения функций в ряды с использованием многочленов Чебышёва и Лагерра, а также способы определения коэффициентов. Данная тема имеет важное теоретическое значение и широко применяется в теории функций, математическом анализе и прикладных вычислениях.

Ключевые слова. многочлены Чебышёва, многочлены Лагерра, принцип ортогональности, евклидово пространство, теория функций, приближение, ряды, коэффициенты, ортогональные системы, математический анализ.

Abstract. This thesis studies the determination of coefficients of Chebyshev–Laguerre polynomials in a complete Euclidean space based on the orthogonality principle. Polynomial systems, their orthogonality properties, and their role in function approximation are analyzed. Methods for expanding functions into series using Chebyshev and Laguerre polynomials and determining their coefficients are discussed. This topic is theoretically significant and widely applied in function theory, mathematical analysis, and computational mathematics.

Keywords. Chebyshev polynomials, Laguerre polynomials, orthogonality principle, Euclidean space, function theory, approximation, series expansion, coefficients, orthogonal systems, mathematical analysis.

Kirish. Matematik analiz va funksiyalar nazariyasida ortogonal ko‘phadlar muhim o‘rin egallaydi. Xususan, Chebishev va Lagerr ko‘phadlari funksiyalarni yaqinlashtirish, ularni qatorlarga yoyish hamda turli amaliy masalalarni yechishda keng qo‘llaniladi. Ortogonallik prinsipi esa bu ko‘phadlar sistemasining asosiy xossa-laridan biri bo‘lib, u yordamida koeffitsientlarni aniqlash jarayoni sezilarli darajada soddalashadi.

To‘la Yevklid fazosida aniqlangan vaznli skalyar ko‘paytma yordamida berilgan funksiyalar fazosida ortogonal sistemalarni qurish masalasi nazariy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, $L_2(R_+, e^{-t}d\mu)$ fazosida aniqlangan Chebishev–Lagerr ko‘phadlari sistemasi ko‘plab fizik va muhandislik masalalarida uchraydi.

Ushbu ishda ortogonallik prinsipi asosida Chebishev–Lagerr ko‘phadlarining dastlabki hadlarini aniqlash, ularning normasi va koeffitsientlarini hisoblash usullari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Gamma-funksiya yordamida integrallarni hisoblash va ortogonal sistemalarni qurish jarayoni batafsil yoritiladi.

Misol: $L_2(R_+, e^{-t}d\mu)$ bilan $R_+ = [0,\infty)$ da aniqlangan o‘lchavli va

$$\int_0^\infty |x(t)|^2 e^{-t}dt < \infty$$

shartni qanoat funktsiyalari uchun $(x,y) = \int_0^\infty x(t)y(t)e^{-t}dt$ fo‘rmula o‘rinli bo’lsa, bu fozadagi $1, t, t^2, \dots \dots t^n, \dots \dots$ chiziqli bog'lanmagan Chebishev-Lagger ko'phadlarining oldingi 3 ta hadini aniqlang.

Yechish: Ortogonal tizimga yo'naltiriladi

$$\Psi_n = x_n(t) = a_0 + a_1 t + a_2 t^2 + \cdots + a_{n-1}t^{n-1}$$

ko'rishida izlaymiz. Bunda $x_1(t) = a_0$ masalalardan tenglikdan $a_0 = 1$ ekanligini topamiz:

$$|x_1|^2 = \int_0^\infty a_0^2 e^{-t}dt = a_0^2 = 1 \text{ tenglikdan } a_0 = 1$$

ekanligini topamiz.

Demak $\psi_1(t) = x_1(t) = 1$ ekan $\psi_1(t) = x_1(t)$ Endi $\psi_2(t) = t - (f_2, \psi_1)\psi_1 = t - 1$ deb izlab $\psi_2(t)$ hadini topamiz. $\psi_2(t)$=t va ushbu

$$(f_2, \psi_1) = \int_0^\infty e^{-t}t\,dt = \Gamma(2) = (2-1)! = 1$$

integrallab yechib (f_2, ψ_1) ni topib olamiz. Endi ψ_2 ning no‘rmasini hisoblaymiz.

$|\psi_2|^2 = \int_0^\infty (t-1)^2 e^{-t}dt = \int_0^\infty (t^2 - 2t + 1)e^{-t}dt = \Gamma(3) - 2\Gamma(2) + \Gamma(1) = 1$

topamiz biz bu yerda barcha $n \in N$ larda o‘rinli bo‘lgan $\Gamma(n) = (n-1)!$ tenglikdan foydalanib topdik. Demak , $\psi_2(t) = x_2(t) = t - 1$ ekan. Endi $\psi_2(t)$ ni izlaymiz $\phi_3(t) = t^2 - (f_3, \psi_1)\psi_1 - (f_3, \psi_2)\psi_2$ deymiz va (f_3, ψ_1) va (f_3, ψ_2) larni koeffitsientlarini hisoblaymiz:

$$(f_3, \psi_1) = \int_0^\infty t^2 e^{-t}dt = \Gamma(3) = 2$$

$$(f_3, \psi_2) = \int_0^\infty t^2(t-1)e^{-t}dt = \Gamma(4) - \Gamma(3) = 3! - 2! = 4$$

Endi.

$$\phi_3(t) = t^2 - 2 - 4(t-1) = t^2 - 4t + 2$$

normasini hisoblaymiz, ya'ni:

$|\phi_3|^2 = \int_0^\infty (t^2 - 4t + 2)^2 e^{-t}dt = \int_0^\infty (t^4 - 8t^3 + 20t^2 - 16t + 4)e^{-t} = \Gamma(5) - 8\Gamma(4) + 20\Gamma(3) - 16\Gamma(2) + 4\Gamma(1) = 24 - 48 + 40 - 16 + 4 = 4$

Oxirida ϕ_3 ni topish uchun tenglikdan foydalanamiz:

$$\psi_3 = \frac{\phi_3(t)}{|\phi_3|} = \frac{t^2 - 4t + 2}{2} = \frac{1}{2}t^2 - 2t + 1$$

Demak: $\psi_1(t) = 1$, $\psi_2(t) = t - 1$, $\psi_3(t) = \frac{1}{2}t^2 - 2t + 1$ ekan.

Xulosa: Mazkur ishda to‘la Yevklid fazosida aniqlangan vaznli funksiyalar fazosida Chebishev–Lagerr ko‘phadlarining dastlabki hadlarini ortogonallik prinsipi asosida aniqlash masalasi ko‘rib chiqildi. Gram–Shmidt ortogonallashtirish usuli yordamida $\psi_1(t), \psi_2(t), \psi_3(t)$ ko‘phadlari ketma-ket hosil qilindi va ularning aniq ko‘rinishlari topildi. Hisoblash jarayonida Gamma-funksiyaning $\Gamma(n) = (n-1)!$ xossasidan samarali foydalanildi, bu esa integral hisoblashni sezilarli darajada soddalashtirdi. Natijada quyidagi ortogonal ko‘phadlar sistemasi olindi:

$$\psi_1(t) = 1, \psi_2(t) = t - 1, \psi_3(t) = \frac{1}{2}t^2 - 2t + 1.$$

Olingan natijalar ortogonal ko‘phadlar yordamida funksiyalarni yaqinlashtirish, ularni qatorlarga yoyish va amaliy hisoblashlarda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv matematik analiz, differensial tenglamalar va sonli usullar kabi sohalarda keng qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kolmogorov A.N., Fomin S.V. Elementy teorii funktsiy i funktsionalnogo analiza. – Moskva: Nauka, 1989.
2. Kantorovich L.V., Krylov V.I. Priblizhennye metody vysshogo analiza. – Moskva: Fizmatlit, 1950.
3. Szegő G. Orthogonal Polynomials. – American Mathematical Society, 1975.
4. Nikolskiy S.M. Kurs matematicheskogo analiza. – Moskva: Nauka, 2001.
5. Tikhonov A.N., Samarskiy A.A. Uravneniya matematicheskoy fiziki. – Moskva: Nauka, 1977.
6. Boyd J.P. Chebyshev and Fourier Spectral Methods. – Dover Publications, 2001.
7. Andrews L.C. Special Functions of Mathematics for Engineers. – SPIE Press, 1998.

XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA “YUMSHOQ KUCH” OMILININGNING SHAKLLANISHI VA MEDIA

Matyakubov A.E.

Urganch RANCH texnologiya universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti v.b.

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada rivojlangan davlatlar “yumshoq kuch” va axborot urushlari orqali rivojlanayotgan mamlakatlarda o‘ziga xayrixohlik va moyillik muhitini shakllantirib, uzoq muddatli g‘oyaviy-siyosiy maqsadlariga erishayotganliklari tahlil qilingan. Bunday sharoitda O‘zbekiston uchun milliy mediani kasbiy boshqarish, uni davlat va jamiyat barqarorligini ta’minlash vositasiga aylantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, xorijiy medianing salbiy ta’sirini kamaytirish uchun milliy manfaatlarga asoslangan mazmunli materiallarni targ‘ib qilish, ichki va tashqi jamiyat ongiga maqsadli ta’sir o‘tkazish zarurligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, “yumshoq kuch”, tashqi siyosat, media, tili, san’ati, qadriyat, axborot makoni, milliy manfaat, yoshlar, ma’naviyat,.

Bugungi kunda axborot makonidan ma’lum bir maqsadsiz, samarasiz uslubda foydalanish nafaqat amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoniga salbiy ta’sir qiladi, balki davlat va jamiyat ijtimoiy xavfsizligiga ham rahna solishi mumkin. Chunki, axborot oqimlarining kengayishi bilan shaxs, jamiyat, uning madaniyati, qadriyatlari, mentaliteti va xavfsizligi himoyasi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham, axborot makoni vujudga keltirgan haqiqiy va ehtimoliy xatarlarni inobatga olgan holda, davlatning barcha sohalardagi ichki va tashqi siyosati, mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimizning faravonligi yo‘lida olib borilayotgan islohotlarni media sohasini takomillashtirish va samarali amalga oshirish orqali O‘zbekiston aholisi hamda jahon hamjamiyatiga to‘g‘ri tushuntirish, provard maqsadimizga erishishimizda ijobiy omil xisoblanadi.

Bugun zamonaviy siyosiy nazariyalarda jamiyat ongiga ta’sir o‘tkazish masalasi yangicha usullarda ishlab chiqilib, amalda keng foydalanilmoqda. Umuman olganda, davlatning tashqi siyosatida “yumshoq kuch” texnologiyasidan foydalanish eng avvlo media orqali shakllantirilib, u mamlakat milliy manfaatlarini himoya qilish hamda yaqin va uzoq muddatli istiqbolga rejalashtirilgan g‘oyalarni amalga oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Davlatlararo munosabatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak “yumshoq kuch” (soft power) atamasi 1990 yilda AQShning Garvard universiteti professori Jozef Nay tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, davlatning o‘z siyosati, madaniyati, brendlari, ta’lim tizimi, imidji va boshqa shunga o‘xshash omillari orqali xalqaro munosa-

batlarga va boshqa mamlakatlarga ta’sir o‘tkazish mahoratini anglatadi. Uning ta’kidlashicha, dunyodagi “yumshoq kuch”ga ega bo‘lgan mamlakatlar o‘zning turli madaniy kuch omillari - tili, san’ati, turmush-turzi, qadriyatlari va mentalitetining ayrim qirralari asosida o‘zga davlatlarga ta’sir o‘tkazishadi. Boshqa davlatlar rahbariyati hamda aholisiga o‘z g‘oyaviy asoslarini singdirish orqali o‘ziga nisbatan xayrxoxlik va moyillik ruhiyatini shakllantiradi[36]. Mazkur jarayonda esa media katta rol o‘ynaydi.

“Yumshoq kuch” omilining ijobiy tomonlari shundaki, unda jon talafotisiz va intellektual vositalardan keng, moliyaviy imkoniyatdan kam foydalangan holda, davlatning strategik maqsadlari amalga oshirilib, milliy manfaatlarni himoyalash va tatbiq etish uchun yordam beradi. Bu ayniqsa rivojlangan davlatlar tomonidan rivojlanayotgan (yoki “uchinchi dunyo mamlakatlari”) davlatlarga nisbatan qo‘llaniladi[37]. “Yumshoq kuch”ni qo‘llashda media alohida o‘rin tutadi. Shu boisdan, dunyo medianing keng ko‘lamda jamiyat ongini shakllantirish, siyosiy hodisalar sharhi, turlicha bo‘lgan g‘oyalar va mafkuralarning targ‘ib qilinishi hamda axborot urushlari ayrim davlatlarning kuchayishini, ayrimlarining zaiflanishini vujudga keltiradi. Bu ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar hamda ularning aholisiga uzoq muddatli istiqbolda salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ya’ni, medianing “yumshoq kuch” texnologiyasi sifatida foydalanish uni qo‘llayotgan davlatning manfaatlariga mos ravishda o‘ziga nisbatan kuchsiz bo‘lgan davlatda, “tafakkurni zabt etish” orqali o‘zining pozitiv imidjni yaratishga yordam beradi.

Bugungi kunimizda keng namoyon bo‘layotgan axborot urushlarining asosiy maqsadlaridan biri bu “yumshoq kuch”ni qo‘llayotgan davlatlarga xayrixox siyosat tarafdorlarini shakllantirish, o‘ziga nisbatan “moyillik siyosati” tarafdorlarini doimiy ravishda ko‘paytirib borishdan iborat bo‘lib, ushbu jamiyatda uzoq muddatli istiqbollarda g‘oyaviy-siyosiy maqsadlarni amalga oshirish uchun kerakli sharoit yaratishdir[38].

Bunday davrda mahalliy medialarining shaklidan qat’iy nazar, kasbiy ravishda boshqarish, davlat va jamiyat barqarorligi, xavfsizligi, mamlakatning rivojlanish yo‘lidagi va umuman milliy madaniyati,

---

[36] Nye J. Bound to Lead: The Changing Nature of American Power. BasicBooks, 1990

[37] https://uz.wikipedia.org/wiki/Yumshoq_kuch_(roman)

[38] Давыдов Ю.П. Понятие «жесткой» и «мягкой» силы в теории международных отношений // Международные процессы. 2004. № 1 (4).

qadriyatlari hamda mentalitetini saqlashda o‘ta muhim sanaladi. Bunday chora-tadbirlarni amalga oshirish milliy yuksalish yo‘lida olib borilayotgan islohotlarni ustuvor etishga yordam berib, axborot muhitida mamlakatimizni yaxshi tomondan tanishtirish uchun mustahkam poydevor yaratib beradi.

Xorijiy medianing salbiy ta’sirini kamaytirish va zararsizlantirish uchun milliy mediada o‘z davlati manfaatlari nuqtai nazaridan namoyish qilinadigan ayrim ko‘rsatuvlar, dunyoning ba’zi voqealari milliy hamda strategik manfaatlarni inobatga olgan holda fuqarolarga taqdim etilishi lozim. Chunki bugun mazmunli, milliy manfaatlarimizga mos materiallarni taqdim etish bilangina ham ichki, ham tashqi jamiyat ongiga maqsadli ravishda ta’sir o‘tkazish mumkin[39]. Umuman olganda, axborot urushidagi voqea va xodisalar ayrim kuchlar tomonidan o‘z manfaatlariga moslashtirilmasdan, bahssiz haqiqatga aylangan bo‘lib, u inobatga olinsa, mamlakatning erishgan yutuqlari, milliy manfaatlari hamda olib borilayotgan islohotlarni himoyalash yaxshi natijalarga olib keladi.

Hozirda jahon axborot maydonida bir qancha xatarli omillar mavjud. Xususan, O‘zbekiston xalqi va jahon hamjamiyatida mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan siyosatga ishonchsizlik, qonun ustuvorligini ta’minlashning yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, umuman olganda amalga oshirilayotgan islohotlardagi uchragan kichkina xatolarni bo‘rttirib ko‘rsatish orqali xukumat rahbariyatiga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqarish kabi xolatlar mavjud. Bunday vaziyat tabiiy ravishda vujudga kelgan bo‘lib, ko‘pincha tashqi omillarga ham bog‘liq va mahalliy media hamda jurnalistlar faoliyatini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda siyosiy, iqtisodiy integratsiyalashuv omillari hamda virtual ijtimoiy munosabatlar bizni tobora qamrab olayotganiga ko‘nikmasdan imkonimiz yo‘q, albatta. Mazkur jarayonlarda yoshlarimiz ruhiyati, ma’naviyati va mafkurasini himoya qilish eng muhim masala xisoblanadi. Bunga, barcha ijtimoiy-siyosiy resurslarni safarbar etgan holda, kompleks yondashish asosida erishish mumkin. Shuningdek, bugun yoshlar dunyoqarashi va ma’naviy qiyofasini shakllantirishda medianing rolini inobatga olgan holda, turli

[39] Столетов О.В. Тренды трансформации властных отношений в мировой политике: Smart power // Полис. Политические исследования. 2009. № 4.

teledasturlar orqali efirga uzatilayotgan ko‘rsatuvlarning (kliplar, film va h.k.), internet materiallarining ma’naviy mazmunini tartibga solish lozim deb hisoblaymiz. Bunda, g‘arbona “supergeroy”lar ishtirokidagi filmlar va multfilmlar namoyishini kamaytirib, milliy qahramonlar idealini yaratuvchi filmlar namoyishini ko‘paytirish, “jaholatga qarshi ma’rifat” g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi ijtimoiy roliklar berib borish zarurdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Nye J. Bound to Lead: The Changing Nature of American Power. BasicBooks, 1990. [18] Rosenau J.N. Turbulence in World Politics: a Theory of Change and Continuity. Princeton University Press, 1990.

2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yumshoq_kuch_(roman)

3. Давыдов Ю.П. Понятие «жесткой» и «мягкой» силы в теории международных отношений // Международные процессы. 2004. № 1 (4).

4. Столетов О.В. Тренды трансформатsiи властных отношений в мировой политике: Smart power // Полис. Политические исследования. 2009. № 4.

TALABALARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYLASHDA PSIXOLOGIK OMILLARNI TASIRI

Ruzimova Feruza Madrahimovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu tezisda oliy ta’lim muhitida talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ta’sir etuvchi psixologik omillar tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi vatanparvarlik yo‘nalishidagi qadriyatlarni shakllantirishda motivatsiya, ijtimoiy identifikatsiya, emotsional bog‘liqlik, ma’naviy-axloqiy refleksiya va ijtimoiy ta’sir mexanizmlarining rolini asoslashdir. Metodologik yondashuv nazariy tahlil va integrativ model qurishga tayanadi. Ilmiy yangilik sifatida psixologik omillar o‘rtasidagi funksional bog‘lanishlar izohlanadi.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik; ijtimoiy identifikatsiya; motivatsiya; qadriyatlar tizimi; emotsional bog‘liqlik; ijtimoiy ta’sir; refleksiya.

Аннотация. В тезисе системно анализируются психологические факторы, влияющие на воспитание патриотизма у студентов в условиях высшего образования. Цель исследования состоит в обосновании роли мотивации, социальной идентичности,

эмоциональной привязанности, нравственно-ценностной рефлексии и механизмов социального влияния в формировании патриотических установок. Методологически работа опирается на теоретический анализ и построение интегративной модели. Научная новизна заключается в объяснении функциональных связей между ключевыми психологическими факторами.

Ключевые слова: патриотизм; социальная идентичность; мотивация; система ценностей; эмоциональная привязанность; социальное влияние; рефлексия.

Abstract. This thesis provides a systematic analysis of psychological factors shaping students' patriotism within higher education. The aim is to substantiate the roles of motivation, social identity, emotional attachment, moral-value reflection, and social influence mechanisms in developing patriotic attitudes and stable civic orientations. The methodology relies on theoretical analysis and an integrative conceptual model. Scientific novelty is presented through clarifying functional links among key psychological determinants and identifying conditions that strengthen internalized, non-formal patriotism.

Keywords: patriotism; social identity; motivation; value system; emotional attachment; social influence; reflective thinking.

Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi psixologiya fanida shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, ijtimoiylashuv mexanizmlari hamda qadriyatlarning ichki qabul qilinishi bilan izohlanadi. Vatanparvarlikni faqat deklarativ shiorlar yoki epizodik tadbirlar natijasi sifatida tushuntirish yetarli emas; u shaxsning o‘zini muayyan ijtimoiy birlik, madaniy muhit va tarixiy davomiylik bilan bog‘lash tajribasi, shu bog‘liqlikni anglash va himoya qilishga tayyorlikni tartibga soluvchi psixik tuzilmalar majmuasidir. Oliy ta’lim yosh davrining o‘ziga xosligi shundaki, talabalik bosqichida identifikatsiya jarayonlari jadallashadi, ma’naviy-axloqiy qarorlar mustaqillashadi, ijtimoiy rollar kengayadi va kelajak kasbiy yo‘nalish bilan bog‘liq maqsadlar barqarorlashadi. Shu sababli vatanparvarlik tarbiyasi psixologik omillarni hisobga olgan holda, shaxsning ichki motivlari va ijtimoiy muhit talablari o‘rtasida muvozanat yaratishga qaratilgan bo‘lishi zarur.

Psixologik omillarni izohlashda birinchi navbatda motivatsion soha tahlili muhim. Motivatsiya vatanparvarlik mazmunini tashqi talab sifatida emas, shaxsiy ahamiyatga ega maqsad sifatida qabul qilishni ta’minlaydi. O‘zini o‘qish va kasbiy o‘sishda muvaffaqiyatli ko‘rish,

jamiyatda kerakli bo‘lish, foyda keltirish istagi vatanparvarlikning instrumental emas, mazmuniy motivlari bilan uyg‘unlashgandagina barqaror munosabatga aylanadi. Bu yerda ichki motivlar ustuvor bo‘lgan holatda talaba vatanparvarlikni nazorat yoki baholash omili sifatida emas, o‘zligini anglashning tarkibiy qismi sifatida boshdan kechiradi. Motivatsiyaning bunday ko‘rinishi o‘z-o‘zini belgilash yondashuvlarida ta’kidlangan avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlik ehtiyojlari bilan mos keladi; ehtiyojlar qondirilganda qadriyatlar ichkilashadi va xulq-atvorni barqaror boshqaradi [1]. Shundan kelib chiqib, oliy ta’limdagi tarbiyaviy ishlar talabada avtonom tanlov tajribasini kuchaytirishi, uning tashabbusini qo‘llab-quvvatlashi va real ijtimoiy foyda ko‘rinishini ta’minlashi kerak.

Ikkinchi muhim omil ijtimoiy identifikatsiyadir. Talaba o‘zini “biz” doirasiga kiritgan sari, umumiy ramzlar, tarixiy xotira va kollektiv qadriyatlar psixologik yaqinlashuv manbaiga aylanadi. Ijtimoiy identifikatsiya nazariyalarida guruhga mansublik shaxsiy o‘z-o‘zini baholash bilan uzviy bog‘lanishi ko‘rsatiladi: ijobiy guruh imiji o‘z qadrini his etishni oshiradi, salbiy tasavvurlar esa masofalanish yoki befarqlikni kuchaytiradi [2]. Demak, vatanparvarlik tarbiyasida “biz” tushunchasini qurish jarayoni faqat ma’lumot berish bilan cheklanmasdan, talabaning shaxsiy tajribasi bilan bog‘lanishi, universitet hamjamiyati ichida hamkorlik, o‘zaro mas’uliyat va birgalikdagi yutuqlar orqali mustahkamlanishi lozim. Bunda madaniy-psixologik yondashuv muhim bo‘lib, u shaxsning qiymatlari va ma’nolari ijtimoiy amaliyotda, muloqot va faoliyatda shakllanishini ta’kidlaydi [3].Talabalar uchun ma’naviy qadriyatlar “tayyor” holda berilmaydi; ular muloqot, munozara va birgalikdagi faoliyatda ma’noga ega bo‘ladi.Uchinchi omil emotsional bog‘liqlik va affektiv tajribalar bilan bog‘liq.Vatanparvarlikning kognitiv komponenti (bilim, tasavvur, tushuncha) affektiv komponent bilan mustahkamlanmasa, u tez so‘nuvchi deklaratsiya bo‘lib qoladi. Emotsional bog‘liqlik ko‘pincha ijtimoiy tajribalarning jonli obrazlari orqali yuzaga keladi: o‘z hududining tabiati, mahalliy hamjamiyat bilan aloqalar, ijtimoiy xizmat, ko‘ngillilik faoliyati, universitet va shahar hayotidagi real ishtirok. Ijobiy affekt xotira va qadriyatlar konsolidatsiyasini kuchaytirishi, o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlarini faollashtirishi empirik tadqiqotlarda ko‘rsatiladi [4].Shu nuqtai nazardan, tarbiyaviy texnologiyalar talabalarda ijobiy emotsional tajribani uyg‘otadigan, lekin sun’iy patetika va majburlashdan xoli bo‘lgan faoliyatlarga tayanishi maqsadga muvofiq. Aks holda psixologik reaktans, ya’ni majburiy ta’sirga

qarshilik paydo bo‘lishi va qadriyatlarning inkori kuchayishi mumkin.To‘rtinchi omil ma’naviy-axloqiy refleksiya va tanqidiy fikrlashning vatanparvarlik bilan uyg‘unlashuvidir. Talabalik davrida shaxsiy pozitsiya shakllanadi; talaba “nega men buni qadrlashim kerak” degan savolga ichki javob topishga intiladi. Aynan refleksiya qadriyatlarning ichkilashuvi uchun psixologik shart bo‘lib xizmat qiladi, chunki u shaxsiy tajriba, ijtimoiy me’yor va kelajak rejalari o‘rtasida ma’no ko‘prigini quradi. Shaxsning ma’naviy yetukligi mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, ijtimoiy oqibatlarni oldindan ko‘ra bilish va o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish bilan bog‘liq bo‘lib, bu holatlar tarbiya jarayonida izchil qo‘llab-quvvatlansa, vatanparvarlik ham tashqi atribut emas, ichki me’yor sifatida shakllanadi[5]. Shuning uchun ta’lim jarayonida tarixiy-madaniy mavzularni muhokama qilish, real hayotiy vaziyatlarni tahlil etish, axloqiy dilemmalar asosida fikr yuritish refleksiv komponentni kuchaytiradi.

Beshinchi omil ijtimoiy ta’sir mexanizmlari va psixologik muhitdir. Universitetdagi akademik adolat, munosabatlarning hurmatga asoslanganligi, pedagog va talaba o‘rtasida ishonchning mavjudligi tarbiyaviy ta’sirning qabul qilinishini belgilaydi. Ijtimoiy o‘rganish yondashuviga ko‘ra, talaba qadriyatlarni ko‘pincha kuzatish, taqlid va mustahkamlash orqali egallaydi; demak, pedagogik jamoaning shaxsiy namunasi, madaniy muomala va fuqarolik mas’uliyati vatanparvarlikning yashirin o‘quv dasturi sifatida ishlaydi [6]. Bunda rasmiy tadbirlar ikkilamchi bo‘lib qoladi: agar kundalik munosabatlarda adolat va hurmat buzilsa, rasmiy chaqiriqlar ishonchsiz ko‘rinadi. Shuningdek, tengdoshlar guruhi me’yorlari ham kuchli determinant bo‘lib, jamoada ijobiy ijtimoiy kapital, o‘zaro yordam va hamkorlik qadriyatlari ustuvor bo‘lsa, vatanparvarlik xulqiy ko‘rinishlar orqali tabiiy namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagi omillarni integratsiyalashgan holda, talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning psixologik modeli besh bo‘g‘indan tashkil topadi: motivatsion ichkilashuv, ijtimoiy identifikatsiya, emotsional bog‘liqlik, refleksiv ma’no yaratish va qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit. Bu bo‘g‘inlar o‘zaro bir yo‘nalishda ishlaganda tarbiya samaradorligi ortadi: masalan, ijtimoiy identifikatsiya kuchaysa, emotsional bog‘liqlik uchun zamin yaratiladi; refleksiya esa motivatsion ichkilashuvni barqarorlashtiradi; adolatli muhit esa barcha jarayonlarning psixologik xavfsizligini ta’minlaydi. Aksincha, bo‘g‘inlardan biri izdan chiqsa, butun tizim zaiflashadi: kuchli tashqi nazorat ichki motivatsiyani pasaytiradi, ishonchsiz muhit refleksiyani kinoyaga

aylantiradi, emotsional tajriba yetishmasa identifikatsiya formal bo‘lib qoladi.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash psixologik jihatdan murakkab, ko‘p omilli jarayon bo‘lib, uning samarasi motivatsiyaning ichkilashuvi, ijtimoiy identifikatsiyaning ijobiy mazmunda shakllanishi, emotsional bog‘liqlikning tabiiy tajribalar orqali mustahkamlanishi, ma’naviy-axloqiy refleksiyaning qo‘llab-quvvatlanishi va universitet muhitining adolat hamda ishonchga tayanganligi bilan belgilanadi. Ushbu tezisda taklif etilgan integrativ yondashuv vatanparvarlik tarbiyasini deklarativ tadbirlar doirasidan chiqarib, shaxsning o‘zini anglash va mas’uliyatli ijtimoiy ishtiroki bilan bog‘liq barqaror psixologik tizim sifatida qurish zarurligini asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.Deci E. L., Ryan R. M. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness. New York: Guilford Press. 756 p.

2.Tajfel H., Turner J. C. The Social Identity Theory of Intergroup Behavior. In: Worchel S., Austin W. G. (eds.). Psychology of Intergroup Relations. Chicago: Nelson-Hall. P 7–24.

3.Выготский Л. С. Мышление и речь. Москва: Лабиринт. 352 с.

4.Fredrickson B. L. Positivity. New York: Crown Publishers. 304 p.

5.Асмолов А. Г. Психология личности: культурно-историческое понимание развития человека. Москва: Смысл. 528 с.

6.Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs: Prentice-Hall.247 p.

7.Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya. Toshkent: O‘zbekiston. 320 b.

TALABALIK DAVRI BILAN BOG‘LIQ BO‘LGAN FABBING HOLATINI EKSPERIMENTAL TADQIQ QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Matchanova Dilbar Yusufbayevna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Pedagogika va psixologiya Kafedrasi katta o’qituvchisi

Annotation: This article scientifically examines the phenomenon of phubbing associated with the student period through experimental research. It presents the results of an experimental study on the effects of

phubbing on students' cognitive abilities, creativity, and motivation for learning. This research is aimed at highlighting the advantages and challenges of integrating technologies related to phubbing into the education of university students.

Keywords: student period, phubbing, social networks, experimental research results, education, technologies, integration.

Annotatsiya: mazkur maqolada talabalik davri bilan bog‘liq bo‘lgan fabbing holatini eksperimental tadqiq qilishning o‘ziga ilmiy jixatdan yoritilagn bo‘lib, fabbingning talabalarning kognitiv qobiliyatlari, ijodkorligi va bilim olish motivlariga ta'sirining eksperimental tadqiqot natijalari keltirilgan. Ushbu tadqiqot talaba yoshlar ta'limida fabbing bilan bog‘liq texnologiyalarini integratsiyalashning afzalliklari va muammolarini yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: talabalik davri, fabbing, ijtimoiy tarmoq, eksperimental tadqiqot natijalari, ta'lim, texnologiyalar, integratsiya.

Axborot oqimining jadal tarqqiyoti davridagi fabbing holati talabalarga o‘z g‘oyalarini moddiy obyektlarga aylantirish imkonini beradi, ijodkorlikni, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini va texnik mahoratni rivojlantiradi. Emperik taxlil natijalari fabbing holati talabalarning kognitiv qobiliyatlari, ijodkorligi va o'quv motiviga sezilarli ijobiy ta'sirini ko‘rsatadi. Sifatli ma'lumotlar shuni ko‘rsatdiki, talabalar o‘zlarining qiziqishlari va iste'dodlarini o‘rganishga jalb qiluvchi, kuch beruvchi va yordam beradigan ajoyib faoliyatni topdilar[1].

Talabalar uchun tadqiqotga kiritilgan maxsus fabbing faoliyati turli xil raqamli ishlab chiqarish vositalaridan foydalangan holda amaliy vazifalarni o‘z ichiga oladi. Ishtirokchilar 3D printerlar yordamida uch o‘lchamli obyektlarni loyihalash va chop etish bilan shug‘ullanishdi. Ular raqamli modellarni yaratish, chop etishga tayyorlash va dizaynlarining jismoniy amalga oshirilishini kuzatishni o‘rgandilar. Talabalar muammolarni hal qilish yoki innovatsion yechimlarni yaratish uchun fabbing ko‘nikmalarini qo‘llashni talab qiladigan guruh loyihalarida hamkorlik qilishadi. Bu ishtirokchilar o‘rtasida jamoaviy ish, muloqot va ijodkorlikni rivojlantirdi.Ushbu fabbing faoliyati talabalar o‘rtasida ijodkorlik, muammolarni hal qilish ko‘nikmalari va texnik bilimlarini targ‘ib qiluvchi amaliy tajribalarni taqdim etish va ta'limda raqamli ishlab chiqarish imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan.[4]

Talabalar uchun raqamli ishlab chiqarish faoliyati bo‘yicha tadqiqot natijalari ta'lim amaliyotiga bir nechta ta'sir ko‘rsatadi. Ta'limga raqamli ishlab chiqarish faoliyatini qo‘shish talabalar orasida ijodkorlik va

innovatsiyalarni rivojlantirishi mumkin. Fabbing asboblari bilan amaliy tajriba o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga, dizaynlar bilan tajriba o‘tkazishga va yangi g‘oyalarni o‘rganishga undaydi. Fabbing faoliyati bilan shug‘ullanish o‘quvchilarda muammolarga duch kelganda muammoni yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va sinov va xato orqali yechim topadi. Ta’limga bunday amaliy yondashuv o‘quvchilarni to‘siqlarni yengib o‘tish uchun analitik va ijodiy fikrlashga undaydi.[3]

Fabbing faoliyati ko‘pincha fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika (STEAM) elementlarini o‘z ichiga oladi. Raqamli ishlab chiqarishni o‘quv rejasiga integratsiyalash fanlararo ta'limni rivojlantirishga yordam beradi va talabalarga turli fanlar bo‘yicha aloqa o‘rnatishga yordam beradi.Raqamli ishlab chiqarishdagi hamkorlik loyihalari talabalardan birgalikda ishlash, samarali muloqot qilish va fikr almashishni talab qiladi. Ushbu hamkorlik muhiti talabalar o‘rtasida jamoaviy ishlash, yetakchilik qobiliyatlari va tengdoshlarni o‘rganishga yordam beradi. Raqamli ishlab chiqarish faoliyati talabalarga nazariy bilimlarni real dunyo sharoitida qo‘llash imkoniyatini beradi. Moddiy obyektlarni loyihalash va yaratish orqali o‘quvchilar o‘rganishning amaliy natijalarini ko‘rishadi va tushunchalarni chuqurroq tushunishadi. Raqamli ishlab chiqarish talabalarga o‘z qiziqishlarini o‘rganishi, o‘z tezligida ishlashi va o‘z ehtiroslariga mos keladigan loyihalarni amalga oshirishi mumkin bo‘lgan shaxsiylashtirilgan ta’lim tajribasini yaratish imkonini beradi. Ta’limga individual yondashuv o‘quvchilarning faolligini va motivatsiyasini oshiradi.Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli ishlab chiqarish faoliyatini ta'lim amaliyotiga integratsiya qilish talabalarning ta'lim natijalarini oshirishi, XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishi va talabalarni texnologiya, dizayn va innovatsiyalar bo‘yicha kelajakdagi martaba uchun tayyorlashi mumkin.[2]

Fabbingning talabaning kognitiv, ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga ta'sirini o‘lchash miqdoriy va sifatli tadqiqot usullarining kombinatsiyasidan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Fabbing faoliyati kontekstida ushbu kognitiv qobiliyatlarni baholash orqali tadqiqotchilar va o‘qituvchilar talabalarni amaliy uydirma tajribalariga jalb qilish bilan bog‘liq kognitiv rivojlanish va o‘rganish natijalari haqida tushunchaga ega bo‘lishlari mumkin. Ushbu og‘zaki bo‘lmagan baholash vositasi mavhum fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini o‘lchash uchun ishlatiladi. U shaxsning naqshlarni aniqlash va murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatini baholaydigan vizual jumboqlardan iborat

bo‘lib, ular fabbingning kognitiv qobiliyatlarga ta'sirini baholashda muhim bo‘lishi mumkin.Ushbu keng qamrovli testlar turli kognitiv qobiliyatlarni, jumladan, fazoviy munosabatlarni, vizualizatsiyani, muammoni hal qilish va aqliy fikrlashni baholaydi. U fabbing faoliyati talabalarning kognitiv rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi haqida tushuncha berishi mumkin. WISC bolalar va talabalarning kognitiv qobiliyatlarini baholovchi keng qo‘llaniladigan razvedka testidir. U og‘zaki tushunish, pertseptiv fikrlash, ish xotirasi va ishlov berish tezligini o‘lchaydigan subtestlarni o‘z ichiga oladi, ular fabbingning kognitiv ta'sirini baholash uchun tegishli bo‘lishi mumkin.Ushbu razvedka testi turli sohalardagi kognitiv qobiliyatlarni baholaydi, masalan, suyuq fikrlash, bilim, miqdoriy fikrlash, vizual-fazoviy ishlov berish va ish xotirasi. U fabbingning talabalarning kognitiv qobiliyat-lariga ta'sirini o‘lchash uchun ishlatilishi mumkin

Xulosa qilib aytganda, talabalarda fabbingni eksperimental o‘rganish tajribasini shakllantirishda raqamli ishlab chiqarish texnologiyalarining transformatsion salohiyatiga ta’sir ko’rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Stop Phubbing. stopphubbing.com. Дата обращения: 30 ноября 2016. Архивировано из оригинала 11 октября 2013 года.

2.Katy Steinmetz. Why the ‘Stop Phubbing‘ Campaign Is Going Viral (англ.) // Time : magazine. — ISSN 0040-781X. Архивировано 6 ноября 2016 года.

3."Phubbing - a word is born". McCANN Australia (англ.). Архивировано из оригинала 4 июня 2016. Дата обращения: 30 ноября 2016.

4. "Фаббинг: телефон важнее партнера?". Архивировано из оригинала 1 декабря 2016. Дата обращения: 30 ноября 2016.

5. J.Roberts, M. David «My life has become a major distraction from my cell phone: Partner phubbing and relationship satisfaction among romantic partners». Computers in Human Behavior, № 54, 2015

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA JAHON MIQYOSIDA KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Isakjanova Saboxat Muhamedovna
TDIU doktoranti, JMHAL o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida jahon miqyosida kichik biznes rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari tahlil qilinadi. Raqamlashtirish, elektron tijorat, fintech xizmatlar va innovatsion biznes modellarining kichik biznesga ta’siri o‘rganiladi. Shuningdek, turli mamlakatlarda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va raqamli transformatsiya jarayonidagi o‘zgarishlar tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, kichik biznes, tadbirkorlik, innovatsiyalar, elektron tijorat, fintech, startaplar

Annotation: This article analyzes modern trends in the development of small business in the global digital economy. It examines the impact of digitalization, e-commerce, fintech services, and innovative business models on small enterprises. The study also explores support mechanisms for small businesses in different countries and changes occurring during digital transformation.

Keywords: digital economy, small business, entrepreneurship, innovation, e-commerce, fintech, startups

Аннотация: В данной статье анализируются современные тенденции развития малого бизнеса в условиях цифровой экономики на глобальном уровне. Рассматривается влияние цифровизации, электронной коммерции, финтех-услуг и инновационных бизнес-моделей на малый бизнес. Также анализируются механизмы поддержки малого бизнеса в разных странах и изменения в условиях цифровой трансформации.

Ключевые слова: цифровая экономика, малый бизнес, предпринимательство, инновации, электронная коммерция, финтех, стартапы

Kirish. Hozirgi davrda jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi kichik biznes faoliyatining transformatsiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyot nafaqat yangi bozor imkoniyatlarini yaratmoqda, balki kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion faoliyatni kengaytirish va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvini tezlashtirishda muhim omilga aylanmoqda.

Xalqaro tashkilotlar ma’lumotlariga ko‘ra, kichik va o‘rta biznes subyektlari (SME) jahon miqyosida korxonalar sonining 90[40] foizidan ortig‘ini tashkil etadi hamda bandlikning asosiy qismini ta’minlaydi. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonlari ushbu sektor rivojlanishining asosiy drayverlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xususan, OECD tadqiqotlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalarni joriy etish kichik biznes uchun ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi bozorlarga chiqish va biznes jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, kichik korxonalar yirik kompaniyalarga nisbatan raqamli transformatsiyada ortda qolmoqda, bu esa asosan moliyaviy resurslar yetishmasligi, raqamli ko‘nikmalar pastligi va infratuzilma muammolari bilan izohlanadi .

So‘nggi yillarda kichik biznesda raqamlashtirish darajasining sezilarli o‘sishi kuzatilmoqda. Masalan, 2019–2022 yillar oralig‘ida kichik biznes subyektlarida yuqori tezlikdagi internetdan foydalanish darajasi 23 foizdan 52 foizgacha oshgan. Bundan tashqari, korxonalarning 72 foizi qaror qabul qilish jarayonida ma’lumotlarga asoslangan yondashuvdan foydalanmoqda. Bu esa ma’lumotlar iqtisodiyoti (data-driven economy) kichik biznes faoliyatida muhim o‘rin egallay boshlaganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, World Bank hisobotlariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot global iqtisodiy o‘sishning muhim omiliga aylanib, IT xizmatlar sohasi boshqa tarmoqlarga nisbatan ikki baravar tez o‘smoqda hamda ish o‘rinlarini yaratish sur’ati umumiy iqtisodiyotga nisbatan olti baravar yuqori hisoblanadi. Biroq, raqamli rivojlanish darajasi mamlakatlar o‘rtasida notekis bo‘lib, bu “raqamli tafovut” (digital divide) muammosini yuzaga keltirmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes rivojlanishining yana bir muhim tendensiyasi – sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, elektron tijorat va fintech xizmatlarining keng joriy etilishidir. Ushbu texnologiyalar kichik biznesga xarajatlarni kamaytirish, moslashuvchanlikni oshirish va global bozorlarga chiqish imkonini bermoqda.

Adabiyotlar sharhi

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes rivojlanishi masalalari so‘nggi yillarda ko‘plab xalqaro tashkilotlar va ilmiy tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilmoqda. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlarni shartli ravishda bir necha asosiy guruhlarga ajratish mumkin.

[40] OECD (2022). SME and Entrepreneurship Outlook 2022. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development

Birinchi guruh tadqiqotlarda kichik va o‘rta biznes (SME) ning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, OECD hisobotlarida kichik biznes subyektlari iqtisodiy o‘sish, bandlikni ta’minlash va innovatsiyalarni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, kichik biznes global miqyosda korxonalar sonining asosiy qismini tashkil etib, ularning raqamli transformatsiyasi umumiy iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ikkinchi guruh ilmiy ishlar raqamli texnologiyalarning kichik biznes faoliyatiga ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. Jumladan, Jahon banki (World Bank) tadqiqotlarida raqamlashtirish jarayonlari kichik biznes uchun yangi bozor imkoniyatlarini yaratishi, operatsion xarajatlarni kamaytirishi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi ta’kidlangan. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlarda raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi kichik biznesning texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi qayd etiladi.

Uchinchi yo‘nalishdagi tadqiqotlar kichik biznesda innovatsion faoliyat va raqamli biznes modellarning shakllanishiga qaratilgan. Ilmiy manbalarda elektron tijorat (e-commerce), platforma iqtisodiyoti va fintech xizmatlari kichik biznes rivojlanishining muhim drayverlari sifatida ko‘rib chiqiladi. Xususan, raqamli platformalar orqali kichik korxonalar global bozorlarga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu esa ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchi guruh tadqiqotlarda kichik biznesni raqamlashtirish jarayonidagi muammolar va cheklovlar tahlil qilingan. Ko‘plab mualliflar kichik korxonalarda moliyaviy resurslar yetishmasligi, raqamli ko‘nikmalarning past darajasi, kiberxavfsizlik muammolari hamda institutsional to‘siqlar mavjudligini ta’kidlaydi. OECD va boshqa xalqaro tashkilotlar hisobotlarida ushbu omillar kichik biznesning raqamli transformatsiya jarayonida asosiy to‘siqlar sifatida ko‘rsatilgan[41].

Beshinchi yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash siyosatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesni raqamlashtirish davlat tomonidan faol qo‘llab-quvvatlanadi, jumladan, subsidiyalar, soliq imtiyozlari va innovatsion infratuzilma orqali. Rivojlanayotgan

[41] World Bank (2021). Digital Economy for SMEs: Opportunities and Challenges. Washington, D.C.: World Bank Group.

mamlakatlarda esa asosiy e’tibor raqamli infratuzilmani rivojlantirish va tadbirkorlik muhitini yaxshilashga qaratilgan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki,[42] kichik biznesni raqamli transformatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning jahon miqyosidagi zamonaviy tendensiyalarini kompleks tarzda tizimli tahlil qilish, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar kesimida, hali ham dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Asosiy qism: kichik biznes rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes rivojlanishi bir qator muhim va o‘zaro bog‘liq tendensiyalar bilan tavsiflanadi. Ushbu tendensiyalar global iqtisodiyotning transformatsiyasi, texnologik taraqqiyot va institutsional o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

1. Raqamlashtirish va biznes jarayonlarining transformatsiyasi

So‘nggi yillarda kichik biznes faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi sezilarli darajada oshdi. Bulutli texnologiyalar, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (big data) asosida ishlovchi tizimlar kichik korxonalarga o‘z faoliyatini optimallashtirish imkonini bermoqda.

Tadqiqotlarga ko‘ra, raqamli texnologiyalarni qo‘llayotgan kichik biznes subyektlarida mehnat unumdorligi an’anaviy usullardan foydalanuvchi korxonalarga nisbatan 20–30 foizga yuqori bo‘ladi. Bu esa raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta’sirini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, kichik biznesda ERP tizimlari, CRM platformalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv vositalarining joriy etilishi boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

2. Elektron tijorat (e-commerce) ning jadal rivojlanishi

Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat kichik biznes rivojlanishining eng tez o‘sayotgan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Internet va mobil texnologiyalarning keng tarqalishi kichik korxonalarga global bozorlarga chiqish imkonini bermoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda jahon bo‘yicha e-commerce hajmi yillik o‘rtacha 15–20 foiz sur’atlarda o‘smoqda[43]. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda kichik biznes subyektlarining onlayn savdoga o‘tishi keskin tezlashdi.

[42]Gov.uk (2022). SME Digital Adoption Taskforce Final Report. [Online] Available at: https://www.gov.uk/government/publications/sme-digital-adoption-taskforce-final-report/sme-digital-adoption-taskforce-final-report

[43]Gov.uk (2022). SME Digital Adoption Taskforce Final Report. [Online] Available at: https://www.gov.uk/government/publications/sme-digital-adoption-taskforce-final-report/sme-digital-adoption-taskforce-final-report

Natijada, an’anaviy savdo shakllari bilan bir qatorda omnichannel (ko‘p kanalli savdo) modeli keng qo‘llanilmoqda. Bu esa mijozlar bilan o‘zaro aloqalarni yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

3. Fintech va raqamli moliyaviy xizmatlarning kengayishi.

Kichik biznes rivojlanishining muhim tendensiyalaridan yana biri — moliyaviy texnologiyalar (fintech) xizmatlarining ommalashuvidir.[44] Raqamli to‘lov tizimlari, onlayn kreditlash platformalari va kraudfanding mexanizmlari kichik biznes uchun moliyaviy resurslarga kirishni sezilarli darajada osonlashtirdi.

Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, fintech xizmatlaridan foydalanuvchi kichik korxonalar investitsiya jalb qilish va likvidlikni boshqarishda ancha yuqori natijalarga erishmoqda. Shu bilan birga, mobil banking va raqamli hamyonlar (e-wallet) kichik biznes operatsiyalarini soddalashtirmoqda.

4. Platforma iqtisodiyoti va startap ekotizimlarining rivojlanishi

Raqamli iqtisodiyotning yana bir muhim xususiyati — platforma iqtisodiyotining shakllanishidir. Amazon, Alibaba, Uber kabi global platformalar O’zbekistonda esa Uzum market, Asaxiy.uz, Sello!, Arzonapteka, Tovar.uz, Bookhara.uz kabi online savdo bilan shug’ullanuvchi platformalar ham mavjud bo‘lib, kichik biznes subyektlari uchun yangi biznes imkoniyatlarini yaratmoqda.

Platforma iqtisodiyoti kichik biznesga[45]:

vositachilarsiz savdo qilish

global mijozlarga chiqish

xarajatlarni kamaytirish imkonini bermoqda.

Bundan tashqari, startap ekotizimlarining rivojlanishi innovatsion kichik biznes subyektlari sonining ortishiga olib kelmoqda. Venchur kapital bozori kengayishi ham bu jarayonni qo‘llab-quvvatlamoqda.

5. Raqamli tafovut (digital divide) va cheklovlar muammosi[46]

Shu bilan birga, kichik biznesni raqamlashtirish jarayoni barcha hududlarda bir xil darajada kechmayapti. Rivojlangan va rivojlanayot-gan mamlakatlar o‘rtasida sezilarli tafovut mavjud.

Asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

[44] Economic Times (2023). 73% MSMEs report business growth via digital adoption. [Online] Available at: https://economictimes.indiatimes.com/small-biz/sme-sector/73-msmes-report-business-growth-via-digital-adoption-led-by-upi-and-smartphones-survey/articleshow/122124007.cms

[45] UNCTAD (2022). Digital Economy Report 2022: Value Creation and SMEs. Geneva: United Nations Conference on Trade and Development

[46] Chaffey, D. (2021). Digital Business and E-commerce Management. 7th Edition. Harlow: Pearson



raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi



raqamli ko‘nikmalar yetishmasligi



kiberxavfsizlik bilan bog‘liq xatarlar



moliyaviy resurslar cheklanganligi

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aynan ushbu omillar kichik biznesning raqamli transformatsiya jarayonini sekinlashtiradi.

6. Barqaror rivojlanish va “yashil” iqtisodiyotga integratsiya.

So‘nggi yillarda kichik biznes faoliyatida ekologik omillar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va “yashil” biznes modellarga o‘tishni ta’minlamoqda.

Ko‘plab mamlakatlarda kichik biznesni ekologik innovatsiyalar orqali rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim rol o‘ynaydi.

Jadval 1. O‘zbekistonda kichik biznesda raqamlashtirish darajasi[47] (So‘rovnoma asosida, 500 ta korxona tahlili)

Ko‘rsatkich	Ulushi (%)
To‘liq raqamli texnologiyalardan foydalanadi	35%
Qisman foydalanadi	45%
Umuman foydalanmaydi	20%

Izoh: Bu natijalar O‘zbekistondagi kichik biznes subyektlari orasida o‘tkazilgan tadqiqot asosida olingan.

Jadval 2. Texnologiyalar kesimida foydalanish darajasi (O‘zbekiston)[48]

Texnologiya turi	To‘liq foydalanish (%)	Qisman (%)	Foydalanmaydi (%)
Elektron hisob-faktura	65%	25%	10%
Onlayn to‘lov tizimlari	58%	30%	12%
CRM tizimlari	30%	40%	30%

[47]TuraboevIbroximIsmoilo‘g‘li.KICHIKBIZNESSUBYEKTLARIDARAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH STRATEGIYALARI. 1782 2025-yil, noyabr. № 11-son ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi

[48] TuraboevIbroximIsmoilo‘g‘li.KICHIKBIZNESSUBYEKTLARIDARAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH STRATEGIYALARI. 1782 2025-yil, noyabr. № 11-son ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi

Bulutli texnologiyalar	18%	32%	50%
Sun’iy intellekt (AI)	9%	21%	70%
Big Data tahlili	7%	18%	75%

Umumiy raqamlashtirish darajasi

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda kichik biznes sub-yektlarining atigi 35–41% i to‘liq raqamli texnologiyalarni qo‘llaydi, qolganlari qisman yoki umuman foydalanmaydi. Bu ko‘rsatkich rivojlangan davlatlar bilan solishtirganda ancha past: masalan, AQSh va Germaniyada bu ko‘rsatkich 90% dan yuqori. Shu bilan birga, raqamlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan bizneslar ko‘proq samarali moliyaviy boshqaruv, tezkor mijozlarga xizmat va marketing strategiyalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega.

Texnologiyalar bo‘yicha tafovutlar

Oddiy va keng tarqalgan texnologiyalar: elektron hisob-faktura (65%),[49] onlayn to‘lov tizimlari (58%), moliya/buxgalteriya dasturlari (52%).

Murakkab texnologiyalar: CRM tizimlari (30–38%), bulutli texnologiyalar (18–27%), sun’iy intellekt va Big Data (7–9%).

Bu ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, kichik biznes asosan kundalik operatsiyalarni avtomatlashtirish bilan cheklanmoqda, innovatsion texnologiyalarni joriy etishda hali ortda qolmoqda.

Rivojlanish imkoniyatlari va to‘siqlar

Shu bilan birga, kichik biznes uchun raqamlashtirish samaradorligi yuqori: operatsiyalarni optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish, yangi mijozlar bazasini jalb qilish imkoniyatini beradi.

Raqamli texnologiyalarning biznes samaradorligiga ta’siri

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni faol qo‘llaydigan kichik biznes subyektlari[50]:

Moliyaviy natijalarni 15–20% ga oshirishga muvaffaq bo‘ladi,

Mijozlar bilan aloqalarni tezlashtiradi va xizmat sifatini yaxshilaydi,

Bozor raqobatida raqamlashtirilmagan subyektlarga nisbatan ustunlikka ega bo‘ladi.

Jadval 3. Global va mahalliy kichik biznesda raqamli texnologiyalarni qo‘llash darajasi [51](2023–2025 yillar)

[49] Karimov, O., & Islomova, M. (2021). O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesning raqamlashtirilishi: amaliy tajriba va istiqbollar. Tashkent: Fan va texnologiya.

[50] Tashkent Business Journal (2023). Kichik biznesda raqamli texnologiyalarni tatbiq etish darajasi. №4, pp. 45–58.

Texnologiya Ko‘rsatkich	Global/ tendensiya Foiz	O‘zbekiston / Foiz
E-commerce savdosi hajmi	~$7.4trillion (2025	
Raqamli vositalar bilan biznes o‘sishi (MSME)	73%	
To‘liq raqamli texnologiyalarni qo‘llash	90% (AQSh, Germaniya)	35%
Elektron hisob-faktura	keng tarqalgan	65%
Onlayn to‘lov tizimlari	keng tarqalgan	58%
CRM tizimlari	60–70% (Rivojlangan davlatlar)	30%
Bulutli texnologiyalar	keng qo‘llanadi	18%
Sun’iy intellekt (AI)	40–50% (Rivojlangan davlatlar SME)	9%
Big Data tahlili	35–45%	7%
Davlat tomonidan digital qo‘llab-quvvatlash	mavjud (UK SME taskforce)	rivojlanmoqda

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesning rivojlanishi bir necha asosiy tendensiyalar bilan tavsiflanadi[52]. Birinchidan, global miqyosda kichik biznes subyektlari raqamlashtirish va elektron tijorat orqali o‘sib bormoqda, bu esa ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yangi bozorlar imkoniyatlariga chiqish imkonini beradi.

Ikkinchidan, fintech va raqamli moliyaviy xizmatlar kichik biznesning likvidligini oshirish va moliyaviy resurslarga kirishni osonlashtirishda muhim rol o‘ynamoqda. Platforma iqtisodiyoti va startap ekotizimlarining rivojlanishi esa kichik korxonalarni global bozorlarga integratsiyalashuvga rag‘batlantiradi.

Uchinchidan, O‘zbekistondagi kichik biznesda raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi hali o‘rtacha bo‘lib, elektron hisob-faktura va onlayn to‘lov tizimlari kabi oddiy texnologiyalar keng qo‘llanilsa-da, CRM, bulutli xizmatlar, sun’iy intellekt va Big Data kabi murakkab texnologiyalar kam tatbiq etilmoqda. Shu bilan birga, moliyaviy resurslar yetishmasligi, raqamli savodxonlik pastligi va kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanmaganligi raqamli transformatsiya jarayonini sekinlashtiruvchi asosiy omillar sifatida aniqlangan.

[51] Statistik ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan shakllantirildi

[52] Xalqaro iqtisodiyot va moliya jurnal (2022). Fintech va elektron tijoratning kichik biznes rivojiga ta’siri O‘zbekistonda. Tashkent, №2, pp. 67–79.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, O‘zbekistonda kichik biznesning raqamlashtirilishini tezlashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:[53]

Kichik biznes subyektlari uchun raqamli savodxonlikni oshirish bo‘yicha treninglar va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish.

Innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish bo‘yicha pilot loyihalar va startap ekotizimlarini rivojlantirish.

Barqaror rivojlanish va “yashil iqtisodiyot” konseptlarini raqamli transformatsiya bilan integratsiya qilish.

Natijada, kichik biznes subyektlarining raqamli transformatsiyasi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ish o‘rinlarini yaratish, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va xalqaro bozorda raqobatbardoshligini mustahkamlash imkonini beradi. Mazkur xulosalar O‘zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotga moslashish strategiyasini ishlab chiqishda muhim ilmiy va amaliy asos sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.OECD (2022). SME and Entrepreneurship Outlook 2022. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development.

2.World Bank (2021). Digital Economy for SMEs: Opportunities and Challenges. Washington, D.C.: World Bank Group.

3.Neliti, Media (2023). Kichik biznes subyektlarida raqamli transformatsiya va texnologiyalarni joriy etish darajasi. [Online] Available at: https://media.neliti.com/media/publications/668022-kichik-biznes-subyektlarida-raqamli-tran-2f5c2b7b.pdf

4.Gov.uk (2022). SME Digital Adoption Taskforce Final Report. [Online] Available at: https://www.gov.uk/government/publications/sme-digital-adoption-taskforce-final-report/sme-digital-adoption-taskforce-final-report

5.Economic Times (2023). 73% MSMEs report business growth via digital adoption. [Online] Available at: https://economictimes.indiatimes.com/small-biz/sme-sector/73-msmes-report-business-growth-via-digital-adoption-led-by-upi-and-smartphones-survey/articleshow/122124007.cms

6.UNCTAD (2022). Digital Economy Report 2022: Value Creation and SMEs. Geneva: United Nations Conference on Trade and Development.

[53] Sultonov, R. (2020). Startap va platforma iqtisodiyoti: O‘zbekiston misolida. Tashkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

7.Chaffey, D. (2021). Digital Business and E-commerce Management. 7th Edition. Harlow: Pearson.
8. Turaboev Ibroxim Ismoil o‘g‘li.KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH STRATEGIYALARI. 1782
2025-yil, noyabr. № 11-son
9.Karimov, O., & Islomova, M. (2021). O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesning raqamlashtirilishi: amaliy tajriba va istiqbollar. Tashkent: Fan va texnologiya.
10.Tashkent Business Journal (2023). Kichik biznesda raqamli texnologiyalarni tatbiq etish darajasi. №4, pp. 45–58.
11.Xalqaro iqtisodiyot va moliya jurnal (2022). Fintech va elektron tijoratning kichik biznes rivojiga ta’siri O‘zbekistonda. Tashkent, №2, pp. 67–79.
12.Sultonov, R. (2020). Startap va platforma iqtisodiyoti: O‘zbekiston misolida. Tashkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

JALOLIDDIN MANGUBERDI - MILLIY G‘URUR VA MA’NAVIY QALQON TIMSOLI

Sharipov Ibrat G‘ayrat o‘g‘li
O‘R Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining shimoli-g‘arbiy harbiy okrug fakulteti kafedra boshlig‘i
Atajanov Murodbek Saparbayevich
O‘R Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining shimoli-g‘arbiy harbiy okrug fakulteti kafedra boshlig‘i

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Manguberdi siymosi “ma’naviy qalqon” g‘oyasi prizmasi orqali tahlil qilinadi. Muallif sarkardaning ruhiy jasorati, uning Chingizxon qo‘shinlariga qarshi kurashidagi bukilmas irodasi va vatanparvarlik tamoyillarini bugungi kundagi milliy xavfsizlik va ma’naviy immunitet masalalari bilan bog‘laydi. Maqolada Manguberdining 11 yillik darbadarlik davridagi faoliyati va Sind daryosi bo‘yidagi qat’iyati milliy g‘urur va tarixiy xotira asosi sifatida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Jaloliddin Manguberdi, ma’naviy qalqon, vatan-parvarlik, ruhiy jasorat, milliy xavfsizlik, tarixiy xotira, Xorazmshohlar, iroda, milliy o‘zlik.

Аннотация: В данной статье образ Джалолиддина Мангуберди анализируется через призму идеи «духовного щита». Автор связывает духовное мужество полководца, его несгибаемую волю в борьбе против войск Чингисхана и принципы патриотизма с современными вопросами национальной безопасности и духовного иммунитета. В статье освещаются деятельность Мангуберди в период 11-летних скитаний и его решительность на берегу реки Инд как основа национальной гордости и исторической памяти.

Ключевые слова: Джалолиддин Мангуберди, духовный щит, патриотизм, духовное мужество, национальная безопасность, историческая память, Хорезмшахи, воля, национальная идентичность.

Abstract: This article analyzes the figure of Jaloliddin Manguberdi through the prism of the "spiritual shield" concept. The author links the commander's spiritual courage, his unyielding will in the struggle against Genghis Khan's forces, and the principles of patriotism with modern issues of national security and spiritual immunity. The article highlights Manguberdi's activities during his 11-year exile and his determination on the banks of the Indus River as a foundation for national pride and historical memory.

Keywords: Jaloliddin Manguberdi, spiritual shield, patriotism, spiritual courage, national security, historical memory, Khwarazmshahs, will, national identity.

KIRISH

Ma’naviy qalqon nima?

Bugungi globallashuv va mafkuraviy kurashlar keskinlashgan davrda har bir millat o‘zligini asrab qolishi uchun nafaqat jismoniy, balki kuchli ma’naviy himoyaga muhtojdir. **“Ma’naviy qalqon”** tushunchasi - bu xalqning ko‘p asrlik qadriyatlari, milliy g‘ururi, diniy e’tiqodi va tarixiy xotirasidan shakllanadigan o‘ziga xos ruhiy himoya tizimidir [1].

Ushbu qalqon insonni yot g‘oyalar, ma’naviy qashshoqlik va loqaydlik kabi ichki hamda tashqi tahdidlardan asraydi. Tarix tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat va millatning tanazzuli birinchi navbatda uning ma’naviy qalqoni yemirilishidan, ya’ni o‘z ajdodlari jasoratini unutishidan boshlanadi [2]. Shu ma’noda, vatanparvarlikning eng yuksak namunalarini ko‘rsatgan ajdodlarimiz siymosi bugungi avlod

uchun shunchaki o‘tmish emas, balki ma’naviy immunitet vazifasini o‘taydi.

Jaloliddin Manguberdi siymosi mana shu qalqonning eng mustahkam va yorqin qatlamlaridan biridir. Uning hayoti va kurashi bizga vatan himoyasi nafaqat qilich bilan, balki eng avvalo bukilmas iroda va ma’naviy quvvat bilan amalga oshirilishini uqtiradi [3].

Sulton Jaloliddinning ruhiy jasorati: "Yengilmas iroda - yengilmas qalqon"

Jaloliddin Manguberdi siymosida namoyon bo‘lgan ruhiy jasorat - bu shunchaki jismoniy qo‘rqmaslik emas, balki qalbning chuqur qatlamlaridan joy olgan imon va vatanparvarlikning tashqi ifodasidir. O‘z davrining eng yirik imperiyasi - mo‘g‘ul bosqinchilari butun dunyoga vahima solib turgan bir paytda, Sulton Jaloliddin ularga qarshi chiqishga botina olgan kam sonli hukmdorlardan biri edi. Uning ichki kuchi dushman sonining ko‘pligida emas, balki o‘z haqiqatiga bo‘lgan ishonchida namoyon bo‘lgan [4].

Sarkardaning irodasini "ma’naviy qalqon" sifatida tavsiflovchi eng yorqin voqea Sind daryosi bo‘yidagi jangdir. Mazkur jangda dushman qo‘shini qurshovida qolgan Sulton, o‘z ahli ayoli va farzandlarini dushman qo‘lida xor bo‘lmasligi uchun daryo to‘lqinlariga omonat topshirishga qaror qiladi [5]. Bu insoniy tuyg‘ular va harbiy mas’uliyat o‘rtasidagi eng og‘ir tanlov bo‘lib, Jaloliddinning ma’naviy qat’iyati o‘z shaxsiy hayotidan ham ko‘ra millat nomusi va erkinligini ustun qo‘yganini isbotlaydi.

Daryoning shiddatli oqimidan ot bilan suzib o‘tgan Sultonning jasorati hatto g‘animni ham hayratga solgan. Chingizxon o‘z o‘g‘illariga qarata: "Ota mana shunday o‘g‘il bilan faxrlanishi lozim!" degan e’tirofi, aslida uning harbiy mag‘lubiyat emas, balki ma’naviy mag‘lubiyatga uchraganidan dalolat beradi [6]. Jaloliddinning bu yengilmas irodasi asrlar osha o‘zbek xalqining ruhiy xazinasi bo‘lib, har qanday tahdidga qarshi turuvchi milliy qalqon vazifasini o‘tab kelmoqda.

Chingizxonning harbiy qudrati oldida tiz cho‘kmagan yagona hukmdor.

Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlari o‘z davrida “Xudoning qahri” sifatida ko‘rilgan va ularning shiddati oldida yirik saltanatlar qarshilik ko‘rsata olmay taslim bo‘lgan edi. Biroq Sulton

Jaloliddin Manguberdi bu umumiy qo‘rquv va tushkunlik muhitini yorib chiqqan, dushman haybatidan cho‘chimagan yagona hukmdor sifatida tarix sahifalaridan joy oldi [7]. Uning bu jasorati negizida faqatgina harbiy strategiya emas, balki g‘oyat ulkan ichki ruhiy quvvat yotar edi.

Jaloliddinning ichki kuchi uning o‘z xalqi va davlati oldidagi mas’uliyatini shaxsiy hayoti va xavfsizligidan ustun qo‘yishida namoyon bo‘ldi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, u hatto eng umidsiz vaziyatlarda ham - o‘z yaqinlari va qo‘shinidan ayrilgan damlarda ham - kurash ruhini yo‘qotmagan [8]. Bu holat mo‘g‘ul qo‘shinlari orasida sarosima uyg‘otgan, chunki ular o‘limdan qo‘rqmaydigan va irodasi bukilmaydigan shaxs bilan to‘qnash kelishgan edi.

Uning bu "ichki qalqoni" nafaqat o‘zini, balki atrofidagi jangchilarni ham ruxlantirib, g‘alaba qozonish mumkinligiga ishonch uyg‘otdi. Shuning uchun ham Jaloliddin Manguberdi nomi asrlar osha mardlik va yengilmaslik ramzi bo‘lib qolmoqda, uning irodasi esa milliy ma’naviyatimizning ajralmas qismidir [9].

Sind daryosi bo‘yidagi jang: Ma’naviy mas’uliyat va qat’iyatning oliy nuqtasi

Sulton Jaloliddin Manguberdi hayotidagi eng og‘ir va ayni paytda eng shonli sahifalardan biri bu 1221-yildagi Sind daryosi bo‘yidagi jangdir. Bu to‘qnashuv shunchaki ikki qo‘shinning jangi emas, balki inson irodasining so‘nggi nuqtasigacha sinalishi edi. Dushman qurshovida qolgan Sulton, o‘z yaqinlarining dushman qo‘lida tahqirlanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun tarixdagi eng alamli va qat’iy qarorlardan birini qabul qildi [4].

Sulton o‘z ahli ayoli va farzandlarini dushmanga asir tushib, nomusi toptalishidan asrash maqsadida ularni daryo to‘lqinlariga omonat topshirdi. Bu ish insoniy nuqtai nazardan buyuk fojia bo‘lsa-da, Jaloliddin uchun bu ma’naviy mas’uliyatning oliy ko‘rinishi edi. U or-nomusni jondan, milliy g‘ururni esa hayotdan ustun qo‘ydi [5]. Bu qat’iyat uning "ma’naviy qalqoni" qanchalik mustahkam ekanligini, hatto eng dahshatli shaxsiy yo‘qotishlar ham uning erk uchun kurashish irodasini sindira olmasligini ko‘rsatdi.

Daryoga ot solib, g‘animga qarshi nafrat bilan boqqan Sultonning bu jasorati mo‘g‘ul qo‘mondonlarini ham hayratga soldi. Tarixchi Nasaviy yozganidek, Sultonning bu harakati dushman ko‘z o‘ngida mag‘lub bo‘lmagan, balki ruhiy jihatdan g‘olib chiqqan sarkarda

siymosini gavdalantirdi [10]. Bugungi kun nuqtai nazaridan, bu voqea milliy ozodlik va shaxsiy daxlsizlikning ma’naviy asosi sifatida maqolada markaziy o‘rinni egallaydi.

Vatanga muhabbat - milliy xavfsizlikning ma’naviy asosi

Sulton Jaloliddin Manguberdi hayotining eng muhim darsi - bu vatanparvarlikning shunchaki hissiyot emas, balki davlat mustaqilligini ta’minlovchi strategik kuch ekanligidir. Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbat Jaloliddin uchun ma’naviy asos bo‘lib xizmat qildi va bu tuyg‘u milliy xavfsizlikning eng mustahkam mudofaa chizig‘iga aylandi [1].

Jaloliddin o‘z yurtidan uzoqda, 11 yil davomida darbadarlikda yashagan bo‘lsa-da, bir lahza bo‘lsin kurashni to‘xtatmadi. Uning uchun Vatan tushunchasi shunchaki geografik hudud emas, balki insonning or-nomusi, ajdodlar merosi va kelajak avlod oldidagi mas’uliyati edi [11]. Bugungi kun nuqtai nazaridan qaraganda, milliy xavfsizlik nafaqat qurolli kuchlar qudrati bilan, balki xalqning, ayniqsa yoshlarning o‘z vataniga bo‘lgan sadoqati va ma’naviy immuniteti bilan o‘lchanadi.

Ma’naviy qalqon g‘oyasi aynan mana shu nuqtada milliy xavfsizlik bilan tutashadi:

- Vatanparvarlik - yot g‘oyalarga qarshi immunitet: O‘z tarixini va Jaloliddin kabi ajdodlari jasoratini bilgan yoshlar tashqi mafkuraviy tazyiqlarga berilmaydi [12].
- Fidoyilik - davlat mustahkamligi garovi: Sultonning Hindistondan tortib Kavkazgacha bo‘lgan hududlarda ozodlik bayrog‘ini baland ko‘targani, vatan ishqi har qanday qiyinchilikdan ustunligini isbotladi.

Shunday qilib, Jaloliddin Manguberdi merosi bizga shuni uqtiradiki, vatanni sevish - bu shunchaki faxrlanish emas, balki uni har qanday ma’naviy va jismoniy xavflardan himoya qilishga tayyor turishdir [13].

Jaloliddin Manguberdining 11 yillik darbadarlikdagi kurashi

Sulton Jaloliddinning vatanparvarligi faqatgina u taxtda o‘tirgan yillarda emas, balki vatanidan uzoqda, musofirlikda o‘tkazgan 11 yillik shiddatli hayotida yanada yorqinroq namoyon bo‘ldi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, u Xorazmshohlar davlati qulaganidan so‘ng ham, mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurash bayrog‘ini bir lahza bo‘lsin tushirmadi [5]. Bu davr uning nafaqat jismoniy chidamliligini, balki "ma’naviy qalqon" g‘oyasiga qanchalik sodiq bo‘lganini isbotlaydi.

Ushbu 11 yil davomida Sulton quyidagi ma’naviy tamoyillarga tayanib ish ko‘rdi:

- Umidni uzmaslik: Hindistondan tortib Eron va Iroq hududlarigacha bo‘lgan masofada u yangi qo‘shin to‘plashga va dushmanga zarba berishga muvaffaq bo‘ldi [4].

- G‘oyaviy barqarorlik: Uning maqsadi shunchaki tirik qolish emas, balki parchalangan islom olami va turkiy dunyo kuchlarini birlashtirib, vatan ozodligini qayta tiklash edi.

- Diplomatik mahorat: Darbadarlikda yurib ham, u atrofiga sodiq safdoshlarni to‘play oldi, bu esa uning yuksak yetakchilik qobiliyati va ma’naviy nufuzidan dalolat beradi [14].

Sulton Jaloliddinning bu davrdagi faoliyati bizga shuni uqtiradiki, inson o‘z vatanini tark etishga majbur bo‘lsa ham, vatan uning qalbini tark etmasligi kerak. Uning bu matonati bugungi kunda har qanday qiyin vaziyatda tushkunlikka tushmaslik va umummilliy maqsadlar yo‘lida birlashish uchun ma’naviy namuna bo‘lib xizmat qiladi [15].

Tarixiy xotira - kelajak himoyasi

Tarixiy xotira - bu shunchaki o‘tmishdagi voqealar bayoni emas, balki millatning ertangi kunini belgilab beruvchi ma’naviy poydevordir. Jaloliddin Manguberdi siymosi va uning kurash tarixi biz uchun o‘tmish sabog‘i bo‘lish bilan birga, kelajak avlodlarni har qanday tashqi tahdidlardan asraydigan ma’naviy qalqondir [16].

Ushbu xotiraning ahamiyati quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

- Dushman e’tirofi va ibrat: Chingizxonning o‘z o‘g‘illariga Jaloliddinni o‘rnak qilib ko‘rsatgani - "Ota mana shunday o‘g‘il bilan faxrlanishi lozim", degan so‘zlari shunchaki e’tirof emas edi. Bu dushmanning ham ma’naviy ustunlik oldida tiz cho‘kishi, buyuk jasoratning asrlar osha o‘lmasligini anglatadi [4].

- Gidostratega emas, ma’naviy quvvat: Bugungi globallashuv davrida xalqimizga faqatgina harbiy qudrat emas, balki Manguberdidek bukilmas iroda va vatanparvarlik ruhi kerak. Tarixiy xotira yoshlarda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantiradi, bu esa o‘z navbatida har qanday yot g‘oyalarga qarshi eng ishonchli himoyadir [17].

- Ma’naviy merosning davomiyligi: Jaloliddin Manguberdi nomi milliy g‘urur ramzi sifatida yashab kelayotgan ekan, bu xalqimizning ozodlik va erkinlikka bo‘lgan intilishi hech qachon so‘nmasligidan

dalolat beradi. Biz ajdodlarimiz jasoratini eslar ekanmiz, o‘z kelajagimizni ma’naviy qashshoqlikdan himoya qilgan bo‘lamiz [9].

Shunday qilib, tarixiy xotira - bu bizning o‘zligimizni asrovchi, milliy manfaatlarimizni himoya qiluvchi va kelajak yo‘limizni yorituvchi nurdir.

Xulosa qilib aytganda, Jaloliddin Manguberdi siymosi shunchaki tarixiy shaxs emas, balki millatimizning har qanday davrdagi sinovlarga qarshi turuvchi ma’naviy poydevoridir. Uning hayoti va kurashi vatanparvarlikning eng oliy ko‘rinishi bo‘lib, bugungi globallashuv asrida xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun mustahkam “ma’naviy qalqon” vazifasini o‘taydi.

Sultonning 11 yillik darbadarlikda ham o‘z irodasini yo‘qotmagani va Sind daryosi bo‘yidagi jasorati bizga shuni uqtiradiki, milliy ozodlik va or-nomus har qanday shaxsiy manfaatdan ustun turishi lozim. Uning bu bukilmas ruhiyati milliy xavfsizlikning ma’naviy asosi bo‘lib, yoshlarimizda yot mafkuralarga qarshi kuchli immunitet shakllanishiga xizmat qiladi.

Biz ajdodimizning mardlik merosini o‘rganish va uni qalbimizda e’zozlash orqali nafaqat o‘tmishimizni e’tirof etamiz, balki o‘zligimizni va kelajagimizni ham turli ma’naviy tahdidlardan himoya qilgan bo‘lamiz. Zero, Manguberdi ruhi bilan yashash - bu vatanni sevish, milliy g‘ururni baland tutish va har qanday sharoitda ham erk uchun kurashish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O‘zbekiston strategiyasi". — Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti, 2021.

[2] Karimov I.A. "Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch". — Toshkent: "Ma’naviyat", 2008.

[3] Ziyodov Sh. "Jaloliddin Manguberdi — buyuk sarkarda". Tarixiy-tahliliy ocherklar to‘plami.

[4] Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. "Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti". — Toshkent: "O‘zbekiston", 2006.

[5] Buniyotov Z.M. "Anushtegin Xorazmshohlar davlati (1097–1231)". — Toshkent: "Fan", 1998.

[6] G‘ulomov S. "O‘zbekiston tarixi: buyuk sarkardalar". — Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2015.

[7] Sagdullayev A. "O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti". — Toshkent: "Sharq", 2000.

[8] Bartold V.V. "Turkiston mo‘g‘ullar istilosi davrida". — Toshkent: "Fan", 1995.
[9] Azamat Ziyo. "O‘zbek davlatchiligi tarixi". — Toshkent: "Sharq", 2001.
[10] Ahmedov B. "O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari". — Toshkent: "O‘qituvchi", 1991.
[11] Karimov I.A. "Ona yurtimiz baxtu saodati va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir". - Toshkent: "O‘zbekiston", 2015.
[12] Gulyamov Ya.G‘. "Xorazmning sug‘orilish tarixi". — Toshkent: "Fan", 1957.
[13] Jo‘rayev N. "Mafkuraviy immunitet va yoshlar tarbiyasi". — Toshkent: "Ma’naviyat", 2010.
[14] Hasanov H. "O‘rta Osiyo joy nomlari tarixi". — Toshkent: "O‘qituvchi", 1964.
[15] O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 3-jild. — Toshkent: "O‘zME", 2002.
[16] Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O‘zbekiston ma’naviyati". — Toshkent: "Ma’naviyat", 2021.
[17] Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q". — Toshkent: "Sharq", 1998.

GLOBALASHUV SHAROITIDA MILLIY PEDAGOGIK TA’LIM MODELIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Aliyev Oqiljon
Buxoro pedagogika instituti harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari, umumqo‘shin tayyorgarlik sikl boshlig‘i, podpolkovnik

Annotatsiya: Mazkur maqolada globalashuv sharoitida milliy pedagogik ta’lim modelini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonidagi ahamiyati, ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi roli hamda ta’lim sifatini oshirishdagi imkoniyatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: globalashuv, pedagogik ta’lim, raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompetensiya, innovatsiya, ta’lim sifati.

Annotation: This article analyzes the role of digital technologies in the development of the national pedagogical education model under globalization. It highlights the importance of information and communication technologies in teacher training, their role in developing professional competencies, and their potential to improve the quality of education in the modern educational system.

Keywords: globalization, pedagogical education, digital technologies, information and communication technologies, competence, innovation, quality of education.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль цифровых технологий в развитии национальной модели педагогического образования в условиях глобализации. Освещается значение информационно-коммуникационных технологий в подготовке педагогических кадров, их влияние на формирование профессиональных компетенций и повышение качества образования.

Ключевые слова: глобализация, педагогическое образование, цифровые технологии, информационно-коммуникационные технологии, компетенции, инновации, качество образования.

KIRISH. XXI asrda globalashuv jarayonlarining jadallashuvi barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalar qatori ta’lim tizimiga ham tub o‘zgarishlar kiritmoqda. Zamonaviy axborot makonining kengayishi, bilimlar hajmining tezkor ortib borishi hamda innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi pedagogik ta’lim mazmuni va shakllarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, milliy pedagogik ta’lim modelini xalqaro ta’lim standartlari bilan uyg‘unlashtirish, uni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta’lim tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ular nafaqat ta’lim jarayonini tashkil etish vositasi, balki bilimlarni uzatish, o‘zlashtirish va baholashning yangi mexanizmlarini shakllantiruvchi muhim omil sifatida e’tirof etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Globalashuv sharoitida milliy pedagogik ta’lim modelini rivojlantirish masalasi o‘zida ikki muhim yo‘nalishni mujassam etadi: bir tomondan, milliy qadriyatlar va an’analarni saqlab qolish, ikkinchi tomondan esa, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etish. Ushbu jarayonda raqamli texnologiyalar o‘ziga xos ko‘prik

vazifasini bajarib, milliy ta’lim tizimini global ta’lim makoniga integratsiyalashuvini ta’minlaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi — globalashuv sharoitida milliy pedagogik ta’lim modelini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash hamda ularni ta’lim amaliyotiga samarali joriy etishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat [1,2,3].

ASOSIY QISM. Globalashuv jarayoni ta’lim tizimining mazmuni, shakli va metodlarini tubdan o‘zgartirib, milliy pedagogik ta’lim modellarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bugungi kunda bilimlar jamiyatida raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun pedagogik ta’lim tizimi faqat an’anaviy yondashuvlarga emas, balki raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion yondashuvlarga ham tayanishi zarur bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, milliy pedagogik ta’lim modelini modernizatsiya qilish jarayonida raqamli texnologiyalar strategik ahamiyatga ega omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini tashkil etish, boshqarish va baholashning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ular o‘quv jarayonini individuallashtirish, talabalarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda o‘qitish sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Ayniqsa, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlari, adaptiv o‘qitish platformalari va raqamli resurslar pedagogik jarayonni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu esa ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kuchaytirib, bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi [5,7].

Milliy pedagogik ta’lim modeli doirasida raqamli texnologiyalarni joriy etish faqat texnik yangilik sifatida emas, balki metodologik va didaktik yangilanish sifatida qaralishi lozim. Chunki raqamli muhitda ta’lim jarayoni an’anaviy “ma’ruza–tinglovchi” tizimidan “interaktiv–hamkorlik” modeliga o‘tadi. Bu esa talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Natijada, pedagogik ta’lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimga aylanadi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy o‘qituvchi raqamli resurslardan samarali foydalanishi, elektron ta’lim platformalarida ishlay olishi, raqamli kontent yaratishi va uni pedagogik maqsadlarda qo‘llay bilishi zarur. Bu esa pedagogning kasbiy

kompetensiyalarini kengaytiradi hamda uning zamonaviy ta’lim bozoridagi raqobatbardoshligini ta’minlaydi [4].

Biroq, milliy pedagogik ta’lim modelida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, raqamli savodxonlik darajasining turlicha ekanligi hamda metodik ta’minotning to‘liq shakllanmaganligi ushbu jarayonning samaradorligiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, raqamli transformatsiya jarayonini tizimli yondashuv asosida amalga oshirish, pedagog kadrlarni uzluksiz o‘qitish va zamonaviy raqamli resurslar bazasini kengaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi [6,8,9].

Umuman olganda, globalashuv sharoitida milliy pedagogik ta’lim modelida raqamli texnologiyalarning o‘rni tobora ortib bormoqda. Ular ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish va pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishda asosiy omil sifatida xizmat qilmoqda. Kelajakda raqamli texnologiyalarni yanada chuqur integratsiya qilish milliy ta’lim tizimining xalqaro ta’lim makonida munosib o‘rin egallashiga zamin yaratadi.

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini individuallashtirish, interaktivlashtirish va samaradorligini oshirish orqali pedagog kadrlarni tayyorlash sifatiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ular pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish, o‘quv jarayonini optimal-lashtirish hamda ta’limning ochiqligi va moslashuvchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu esa milliy pedagogik ta’lim modelining global ta’lim makoniga integratsiyalashuvini tezlashtiradi [10].

XULOSA. Globalashuv sharoitida milliy pedagogik ta’lim modelini rivojlantirish jarayoni zamonaviy ta’lim paradigmasining o‘zgarishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, unda raqamli texnologiyalar hal qiluvchi omillardan biri sifatida maydonga chiqmoqda [7]. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya pedagogik ta’lim tizimining nafaqat texnik modernizatsiyasi, balki uning mazmuniy va metodologik yangilanishini ham ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, globalashuv sharoitida milliy pedagogik ta’lim modelida raqamli texnologiyalarning o‘rni strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ular ta’lim tizimini innovatsion rivojlantirishning asosiy drayveri hisoblanadi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy izlanishlar milliy ta’lim tizimining raqobatbardoshligini oshirish va uni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqishda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2020.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” Farmoni. – Toshkent, 2019.

4.UNESCO. (2023). Global Education Monitoring Report: Technology in Education. Paris: UNESCO Publishing.

5.OECD. (2021). Digital Education Outlook: Pushing the Frontiers with AI, Blockchain and Robots. Paris: OECD Publishing.

6.Bates, T. (2019). Teaching in a Digital Age. Vancouver: Tony Bates Associates Ltd.

7.Siemens, G. (2014). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning.

8.Кларин, М. В. (2018). Инновации в обучении: метаоценка мировых тенденций. Москва: Юрайт.

9.Полат, Е. С. (2017). Современные педагогические и информационные технологии в системе образования. Москва: Академия.

10.Laurillard, D. (2012). Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology. Routledge.

TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING EMPATIK QOBILIYATLARINI IJTIMOIY MOSLASHISH DASTURLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Pirjonov Sarvarbek Davlatovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning empatik qobiliyatlarini ijtimoiy moslashish dasturlari asosida rivojlantirishning psixologik-pedagogik jihatlari tahlil qilingan. Empatiya o‘quvchining boshqalarni tushunishi, ularning hissiy holatini anglash, o‘zaro hurmat va hamkorlikka asoslangan munosabatlarni shakllantirishda muhim omil sifatida talqin etiladi. Tezisda ijtimoiy moslashuv dasturlarining o‘quvchilarning jamoaga kirishishi, muloqot madaniyatini egallashi, nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etishi hamda ijtimoiy faolligini oshirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, empatik

qobiliyatlarni rivojlantirishda treninglar, interfaol metodlar, rolli o‘yinlar, refleksiv yondashuvlar hamda o‘qituvchi, psixolog va ota-onalar hamkorligining ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Xulosa sifatida empatiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy moslashish dasturlari o‘quvchi shaxsining barkamol kamol topishi va ijtimoiy kompetentligini oshirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: empatiya, empatik qobiliyat, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy moslashish dasturi, ta’lim jarayoni, refleksiya, interfaol metod, muloqot madaniyati, ijtimoiy kompetentlik.

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida nafaqat o‘quvchilarga bilim berish, balki ularni jamiyatda samarali yashashga tayyorlash, shaxslararo munosabatlarda madaniyatli, mas’uliyatli va bag‘rikeng bo‘lib shakllantirish vazifasi ham turibdi. Shu nuqtai nazardan o‘quvchilarda empatik qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Empatiya shaxsning boshqa insonning hissiy holatini anglash, uning kechinmalarini tushunish, vaziyatni boshqaning nuqtayi nazaridan baholash va mos munosabat bildirish qobiliyatidir. Mazkur sifat o‘quvchining tengdoshlar, o‘qituvchilar va jamoa bilan sog‘lom munosabat o‘rnatishida muhim omil hisoblanadi.

Mazkur tezisning maqsadi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning empatik qobiliyatlarini ijtimoiy moslashish dasturlari asosida rivojlantirishning psixologik-pedagogik imkoniyatlarini nazariy jihatdan yoritishdan iborat. Shunga muvofiq ravishda tadqiqotda empatiya va ijtimoiy moslashuv tushunchalarining mazmuni tahlil qilindi, empatik qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik omillar ajratildi hamda ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish yo‘llari umumlashtirildi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyoslash, umumlashtirish va psixologik-pedagogik manbalarni sharhlash metodlaridan foydalanildi. Bunday yondashuv empatiya, ijtimoiy moslashuv, refleksiya, muloqot madaniyati va hamkorlikka asoslangan ta’lim o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berish imkonini beradi. Shu bois tezisda empatik qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi empirik natija sifatida emas, balki nazariy-metodologik va amaliy-pedagogik yondashuv sifatida talqin qilinadi.

Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, empatik qobiliyatlar o‘quvchilarning jamoaga moslashuvi, o‘zaro hurmatga asoslangan muloqoti va ijtimoiy faolligining muhim shartlaridan biridir. Empatiya rivojlangan o‘quvchi odatda boshqalarning holatini to‘g‘riroq anglaydi, nizoli vaziyatlarda sabrliroq bo‘ladi, hamkorlikka moyillik bildiradi hamda guruhiy faoliyatda faolroq ishtirok etadi. Aksincha, empatik

sezgirlikning pastligi o‘zaro tushunmovchilik, tajovuzkorlik, muloqotdagi qiyinchilik va jamoaga moslashishdagi to‘siqlarni kuchaytirishi mumkin.

Ijtimoiy moslashish dasturlari esa o‘quvchining maktab muhiti, sinf jamoasi va ijtimoiy me’yorlarga muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlashga qaratilgan pedagogik-psixologik ta’sir tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday dasturlar tarkibiga trening mashg‘ulotlari, rolli o‘yinlar, vaziyatli topshiriqlar, guruhiy muhokamalar, refleksiv savollar va interfaol metodlarni kiritish mumkin. Aynan shu vositalar orqali o‘quvchi nafaqat boshqalarni tushunishga, balki o‘z hissiyotlarini anglash va boshqarishga ham o‘rganadi. Bu esa empatiyaning bilish, hissiy va xulqiy komponentlarini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida empatik qobiliyatlarni rivojlantirish samaradorligi muayyan pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq. Birinchi-dan, ta’lim muassasasida psixologik xavfsiz, qo‘llab-quv-vatlovchi va hurmatga asoslangan muhit yaratilishi zarur. Ikkinchidan, dars mazmuniga hamkorlik, fikr almashish, tinglash, boshqaning nuqtayi nazarini tushunish va hissiy tajribalarni tahlil qilishga qaratilgan topshiriqlar kiritilishi lozim. Uchinchidan, pedagoglarning o‘zlari empatik muloqot namunalarini namoyon etishi muhimdir. Chunki o‘qituvchi shaxsiy namuna orqali o‘quvchida ham empatiya, ham ijtimoiy mas’uliyatni shakllantiradi.

Shuningdek, ushbu jarayonda faqat o‘quvchi bilan ishlash yetarli emas. Maktab psixologi, sinf rahbari, fan o‘qituvchilari va ota-onalarning hamkorligi empatik xulqni barqaror shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ota-onalar uchun tushuntirish ishlari, pedagoglar uchun seminar-treninglar hamda maktab psixologi tomonidan olib boriladigan profilaktik va rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar ijtimoiy moslashish dasturlarining amaliy samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning empatik qobiliyatlarini ijtimoiy moslashish dasturlari asosida rivojlantirish ta’limning muhim psixologik-pedagogik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda muloqot madaniyati, o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik, jamoada ishlash ko‘nikmalari va ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois ta’lim jarayoniga empatiya rivojiga yo‘naltirilgan dasturlarni izchil joriy etish, ularni interfaol metodlar va refleksiv yondashuvlar bilan boyitish, shuningdek, oila va maktab hamkorligini kuchaytirish dolzarb vazifa sanaladi. Kelgusida ushbu yo‘nalishni turli yosh bosqichlari, maktab sharoiti va individual

farqlar kesimida empirik jihatdan chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davis, M. H. (1983). Measuring individual differences in empathy: Evidence for a multidimensional approach. Journal of Personality and Social Psychology, 44(1), 113–126. https://doi.org/10.1037/0022-3514.44.1.113.
2. Durlak, J. A., Weissberg, R. P., Dymnicki, A. B., Taylor, R. D., & Schellinger, K. B. (2011). The impact of enhancing students' social and emotional learning: A meta-analysis of school-based universal interventions. Child Development, 82(1), 405–432. https://doi.org/10.1111/j.1467-8624.2010.01564.x.
3. Taylor, R. D., Oberle, E., Durlak, J. A., & Weissberg, R. P. (2017). Promoting positive youth development through school-based social and emotional learning interventions: A meta-analysis of follow-up effects. Child Development, 88(4), 1156–1171. https://doi.org/10.1111/cdev.12864.
4. UNESCO. (2024). Mainstreaming social and emotional learning in education systems: A policy guide. Paris: UNESCO.
5. OECD. (2024). Social and Emotional Skills for Better Lives: Findings from the OECD Survey on Social and Emotional Skills 2023. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/35ca7b7c-en.
6. OECD. (2024). Nurturing Social and Emotional Learning Across the Globe: Findings from the OECD Survey on Social and Emotional Skills 2023. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/32b647d0-en.
7. Karimova, V. M. (2006). Ijtimoiy psixologiya. Toshkent. 243 b.
8. Karimova, V. M. (1994). Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent.
9. Karimova, V. M., & Akramova, F. A. (2000). Psixologiya. Toshkent.
10. G‘oziyev, E. G‘. (2001). Muomala psixologiyasi. Toshkent: Universitet.
11. Ganjiyev, F. F. (2023). O‘smirlarda agressivlik va ijtimoiy psixologik moslashuvning nazariy-metodologik asoslari. Pedagogik mahorat, 6-son.
12. Yelibayev, J. T. (2024). Bo‘lajak psixologlarda empatiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. In: Zamonaviy psixologik tadqiqotlar tendensiyalari xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro.

THE IMPORTANCE OF TEACHING AND LEARNING LANGUAGES IN MILITARY YOUTH: THE CASE OF UZBEKISTAN

Allabergenova Intizor Xojinazarovna
English teacher of military academic-lyceum named after Jaloliddin Manguberdi

Abstract: In the context of Uzbekistan’s ongoing military reforms and increasing participation in international cooperation, foreign language proficiency has become a strategic priority in the training of military youth. This article examines the importance of language education within Uzbekistan’s military system, focusing on its role in

operational effectiveness, international collaboration, intelligence capabilities, and intercultural communication. The study also analyzes current challenges and proposes methodological approaches for improving language teaching in military institutions of Uzbekistan. The findings highlight that strengthening language competence among military youth contributes significantly to national security and global integration.

Key words: foreign language proficiency, international collaboration, intercultural communication, methodological approaches, language competence

Annatatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistonda harbiy islohotlar va xalqaro hamkorlik sharoitida harbiy yoshlarni tayyorlashda xorijiy tillarni o‘rganishning ahamiyatini yoritadi. Til ta’limi operativ samaradorlik, madaniyatlararo muloqot, razvedka faoliyati va xalqaro hamkorlikda muhim rol o‘ynashi ta’kidlanadi. Tadqiqot mavjud muammolarni aniqlab, til o‘qitishni takomillashtirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar beradi. Natijalar til kompetensiyasini rivojlantirish milliy xavfsizlik va global integratsiyani kuchaytirishini ko‘rsatadi.

Kalit so'zlar: chet tilini bilish, xalqaro hamkorlik, madaniyatlararo muloqot, uslubiy yondashuvlar, til kompetensiyasi

Аннотация: В статье рассматривается значение изучения иностранных языков в подготовке военной молодежи Узбекистана в условиях военных реформ и международного сотрудничества. Подчеркивается роль языкового образования в оперативной эффективности, межкультурной коммуникации, разведывательной деятельности и глобальном взаимодействии. Исследование выявляет существующие проблемы и предлагает методические рекомендации по совершенствованию преподавания языков в военных учреждениях. Результаты показывают, что развитие языковой компетенции усиливает национальную безопасность и международную интеграцию.

Ключевые слова: знание иностранных языков, международное сотрудничество, межкультурная коммуникация, методические подходы, языковая компетенция

Introduction: In recent years, the Republic of Uzbekistan has implemented comprehensive reforms aimed at modernizing its armed forces and aligning them with international standards. These reforms emphasize professionalism, technological advancement, and international cooperation (Ministry of Defence of Uzbekistan, 2022; Mirziyoyev, 2021).

Language learning has become a key component of this transformation. Military youth—cadets of higher military institutions and young officers—must be prepared to operate in multilingual environments where communication is essential (Crystal, 2003).

Furthermore, Uzbekistan's growing participation in international defense cooperation requires personnel with strong foreign language competence (UNESCO, 2021).

Language education in Uzbekistan's military system

1. Institutional ramework: Language training is implemented in major military institutions such as:

- ✓ Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan
- ✓ Chirchiq Higher Tank Command Engineering School
- ✓ Military Technical Institute of the National Guard of Uzbekistan

These institutions include foreign language instruction as part of professional education, particularly focusing on English for Specific Purposes (ESP) (Richards & Rodgers, 2014; Karimov, 2020).

2. National Policy and Reforms: Language education in Uzbekistan is strongly supported by national policy. The Presidential Decree No. PQ-1875 marked a turning point in improving foreign language teaching across all educational sectors, including military institutions. Later reforms further strengthened this direction, emphasizing:

- ✓ Integration of modern teaching technologies
- ✓ Teacher training and qualification improvement
- ✓ Expansion of international cooperation (Mirziyoyev, 2021; Xudoyberdiyev, 2022)

These policies have created a solid foundation for enhancing language competence among military youth.

Importance of language learning for military mouth

We can see the importance of language learning for military mouth in several fields. Firstly, operational effectiveness: language proficiency is essential for effective communication during military operations. Uzbek military personnel engaged in joint exercises or international missions must understand commands, technical instructions, and situational information accurately (Islomov, 2019).

Miscommunication can lead to operational failure; therefore, language competence is directly linked to mission success.

Next, international military cooperation: Uzbekistan actively cooperates with organizations such as the Shanghai Cooperation Organisation and the United Nations.

Military youth with language skills can:

- ❖ Participate in international training programs
- ❖ Engage in peacekeeping missions
- ❖ Represent Uzbekistan in global military forums
- ❖ This enhances both individual professionalism and national prestige

(Xasanov, 2021).

Another important factor is the lack of exposure to professional vocabulary. Students who are not familiar with military terminology struggle to interpret meaning correctly.

The results also emphasize the importance of teaching methodology. Traditional methods that focus on memorization are not effective for developing translation skills. Instead, context-based learning and practical exercises should be used.
Students need to develop:

- analytical thinking
- contextual awareness
- ability to interpret meaning

Pedagogical Implications
The study suggests several important strategies for improving translation teaching:

- use of authentic materials
- focus on context-based vocabulary
- integration of translation exercises
- development of professional terminology

These strategies can significantly improve students' translation competence.

Conclusion. This study demonstrates that polysemy is a major challenge in translating military discourse. Accurate translation requires contextual understanding, semantic flexibility, and professional knowledge.

The results show that most students rely on general meanings, which leads to incorrect translations. Therefore, teaching methods should focus on context and practical application.

The findings can be applied in military education and language teaching, helping students develop better translation skills and professional competence.

References

1. Baker, M. (2018). In Other Words. Routledge.
2. Munday, J. (2016). Introducing Translation Studies. Routledge.
3. Pym, A. (2014). Exploring Translation Theories. Routledge.
4. House, J. (2015). Translation Quality Assessment. Routledge.
5. O'Hagan, M. (2019). Translation and Technology. Routledge.
6. Gambier, Y., & van Doorslaer, L. (2016). Translation Studies.
7. Biel, Ł. (2014). Translation in Specialized Contexts.
8. Zanettin, F. (2012). Translation Corpora.
9. Alimov, R. (2020). Tarjima nazariyasi asoslari.
10. Karimov, B. (2021). Military Translation Studies.

ZAMONAVIY O'QITISH TIZIMIDA YUZAGA KELADIGAN PEDAGOGIK MUAMMOLAR

Otajonov Olimbay Atamurodovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu tezis zamonaviy o'qitish tizimida yuzaga kelayotgan muammolarni pedagogik jarayonning maqsad, mazmun, metod, baholash va boshqaruv komponentlari kesimida tahlil qiladi. Tadqiqotda nazariy tahlil, taqqoslash va tizimli yondashuv metodlari qo'llanildi. Ilmiy yangilik sifatida muammolar o'zaro bog'liqligi "dizayn–ijro–baholash" zanjiri orqali asoslanib, amaliy yechimlar institutsional va didaktik darajalarda integratsiyalashgan tarzda taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ta’lim; kompetensiyaviy yondashuv; raqamli didaktika; formatif baholash; o‘qituvchi kompetensiyasi; ta’lim sifati; o‘quv motivatsiyasi

Аннотация. Данный тезис анализирует проблемы современного обучения через компоненты цели, содержания, методов, оценивания и управления образовательным процессом. Использованы методы теоретического анализа, сопоставления и системного подхода. Научная новизна заключается в обосновании взаимосвязанности проблем через цепочку «проектирование–реализация–оценивание» и в предложении интегрированных решений на институциональном и дидактическом уровнях.

Ключевые слова: современное образование; компетентностный подход; цифровая дидактика; формативное оценивание; компетентность учителя; качество образования; учебная мотивация

Abstract. This thesis analyzes key challenges in contemporary teaching systems across goals, content, methods, assessment, and educational management. The study employs theoretical analysis, comparative reasoning, and a systems approach. Its novelty lies in explaining how issues interact through a “design–implementation–assessment” chain and in proposing integrated solutions that align institutional conditions with didactic practices to improve learning quality and equity.

Keywords: contemporary education; competency-based approach; digital didactics; formative assessment; teacher competence; educational quality; learning motivation

Zamonaviy o‘qitish tizimidagi muammolar ko‘pincha alohida omillar yig‘indisi sifatida tasvirlanadi, biroq ular amalda yagona pedagogik mexanizmning turli bo‘g‘inlarida paydo bo‘ladigan uzilishlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayonini loyihalash, uni auditoriya va raqamli muhitda ijro etish hamda natijalarni baholash bosqichlari bir-biriga uzviy bog‘langanligi sababli, bitta bo‘g‘indagi nomuvofiqlik boshqasida sifat yo‘qotishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, muammolarni tahlil qilishda “dizayn–ijro–baholash” zanjirini asosiy analitik ramka sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq: maqsad va kutilayotgan natijalar noaniq bo‘lsa, metod tanlovi tasodifiylashadi; metod va ta’lim texnologiyalari sharoitga mos bo‘lmasa, baholash adolatliligi va ishonchliligi pasayadi; baholash natijalari esa qayta aloqa sifatida o‘quv jarayonini takomillashtirishga xizmat qilmasa, tizim o‘z-o‘zini rivojlantirish xususiyatini yo‘qotadi. Kompetensiyaviy yondashuv

doirasida natijani faqat bilim hajmi bilan emas, balki amaliy faoliyatga tatbiq qila olish, muammo yechish, muloqot va o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalari orqali belgilash zarurligi qayd etiladi, biroq ko‘plab amaliyotlarda maqsadlar hali ham mavzu bo‘limlarini “o‘tish” logikasida ifodalanib qolmoqda [1]. Natijada o‘qituvchi darsni faol metodlar bilan bezashga urinadi, lekin bu metodlar kompetensiya indikatorlari bilan bog‘lanmagani sababli o‘quv faoliyati fragmentar tus oladi.

Mazmunni tanlash va strukturalash bilan bog‘liq muammolar ham zamonaviy ta’limning markaziy og‘riqli nuqtalaridan biridir. O‘quv dasturlari ko‘pincha fan ichidagi bilimlar tizimini saqlashga intiladi, bu esa ta’lim oluvchining real vaziyatlarda integrativ fikrlashiga xizmat qiladigan fanlararo bog‘lanishlarni yetarli darajada yuzaga chiqarmaydi. Raqamli resurslar ko‘paygan sharoitda “nima o‘qitiladi” masalasi “qanday tanlab olinadi” va “qanday ma’noga keltiriladi” masalalari bilan almashmoqda: ma’lumot haddan tashqari ko‘pligi (information overload) o‘quvchidan tanqidiy filtrlash va dalillash kompetensiyalarini talab qiladi [6]. Biroq bu kompetensiyalarni shakllantirish uchun o‘quv topshiriqlari reproduktiv qayta aytishdan ko‘ra, dalil keltirish, manba baholash, pozitsiya asoslash kabi faoliyatlarni ko‘proq o‘z ichiga olishi lozim. Mazmunni kompetensiyalarga yo‘naltirib qayta dizaynlashda didaktik birliklarni “mavzu” emas, “muammo yoki amaliy vazifa” atrofida qurish, shuningdek, o‘quv materialini minimal zarur yadro va kengaytirilgan modul sifatida ikki qatlamda berish maqsadga muvofiq bo‘ladi; bu yondashuv differensiallashtirishni ham osonlashtiradi [2].

Metod va pedagogik texnologiyalar sohasidagi muammolar, avvalo, o‘qituvchining didaktik qaror qabul qilish madaniyati bilan bog‘liq. Zamonaviy didaktika o‘quvchini faol subyekt sifatida ko‘rishni, o‘qituvchini esa o‘rganish muhitini loyihalovchi va fasilitator sifatida tasavvur etishni taklif etadi [4]. Biroq amaliyotda “faollashtiruvchi” metodlar ba’zan tashqi shakl darajasida qoladi: guruhlarga bo‘lish, taqdimot qildirish, test ishlatish o‘quv maqsadiga bevosita xizmat qilmasa, u o‘qitish samaradorligini oshirmaydi, aksincha vaqt va e’tiborni parchalashi mumkin. Muammoning ildizi metodni tanlashda uchta mezonning bir vaqtning o‘zida hisobga olinmasligidadir: maqsad (kompetensiya ko‘rsatkichi), o‘quvchi resursi (tayyorgarlik, motivatsiya, til va muloqot imkoniyati) hamda sharoit (sinf hajmi, vaqt, texnika, internet). Shu sababli metodik muammo institutsional resurslar muammosi bilan tutashadi: raqamli ta’lim vositalari mavjud bo‘lgani bilan, barqaror internet, mos qurilmalar, platformalardan pedagogik

jihatdan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha tayyorgarlik yetarli bo‘lmasa, raqamlashtirish kutilgan natijani bermaydi, hatto tengsizlikni kuchaytirishi mumkin [6]. Raqamli didaktika nuqtai nazaridan muhim talab shuki, texnologiya “kontent yetkazish kanali” emas, balki o‘rganishni boshqarish, hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, qayta aloqani tezlashtirish va individual trajektoriyani qo‘llab-quvvatlash vositasi bo‘lishi kerak.

Baholash tizimidagi muammolar zamonaviy o‘qitishning sifat ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir qiladi. Ko‘plab ta’lim muassasalarida baholash hali ham yakuniy nazoratga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘qish jarayonida o‘quvchiga yo‘l-yo‘riq beruvchi formatif baholash amaliyoti yetarli institutsional maqomga ega emas. Vaholanki, formatif baholash o‘quvchining xatolarini “jarima” sifatida emas, o‘sish nuqtasi sifatida ko‘rishga yordam beradi va metakognitiv ko‘nikmalarni qo‘llab-quvvatlaydi [5]. Muammo shundaki, formatif baholashni joriy etish faqat yangi blanklar yoki rubrikalar kiritish bilan hal bo‘lmaydi; u o‘qituvchining baholash savodxonligi, mezonlarning shaffofligi, topshiriqlarning maqsadga mosligi hamda qayta aloqaning sifati bilan belgilanadi. Baholashning ishonchliligi (reliability) va haqiqiyligi (validity) ta’minlanmaganda, natijalar ta’limni boshqarish uchun ham, o‘quvchini rivojlantirish uchun ham yetarli dalil bo‘la olmaydi. Shu bois baholashni “o‘qitishdan keyingi” jarayon emas, “o‘qitishning ichki mexanizmi” sifatida qayta konseptuallashtirish zarur; bunda mezonli baholash, portfel, loyihaviy ish, og‘zaki himoya kabi usullar bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida ishlashi lozim [3].

O‘qituvchi kompetensiyasi va kasbiy identiteti bilan bog‘liq muammolar barcha bo‘g‘inlarni birlashtiradigan omil sifatida ko‘rinadi. Zamonaviy o‘qituvchi fanni bilish bilan birga, o‘quvchini o‘rganishga undash, sinfdagi ijtimoiy-psixologik iqlimni boshqarish, inklyuziv yondashuv elementlarini qo‘llash, raqamli muhitda xavfsiz va samarali faoliyatni tashkil etish, shuningdek, tadqiqotga asoslangan refleksiya yuritish kompetensiyalariga ham ehtiyoj sezadi [1]. Biroq malaka oshirish tizimlari ba’zan o‘qituvchining real dars amaliyotiga ko‘chadigan, kuzatuv va murabbiylik bilan mustahkamlanadigan formatda emas, qisqa muddatli nazariy kurslar ko‘rinishida qolib ketadi. Natijada yangi yondashuvlar “bilim” sifatida o‘zlashtiriladi, lekin “ko‘nikma” va “odat”ga aylanmaydi. Bu muammoni hal etishda professional o‘rganish hamjamiyatlari, darsni birgalikda tahlil qilish, aks ta’sir (feedback)ga asoslangan kuzatuv, amaliy tadqiqot (action research) elementlarini joriy etish samarali yo‘l bo‘lishi mumkin [4]. Muhimi,

o‘qituvchi faoliyatini baholash faqat hujjatbozlik bilan emas, o‘quv natijalari dinamikasi, o‘quvchi faolligi, ta’lim muhitining sifati kabi ko‘rsatkichlar bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak.

Ta’limni boshqarish va institutsional muhit muammolari esa didaktik yechimlarning “ishlash- ishlamasligi”ni belgilovchi shartlar majmuasidir. O‘quv yuklamasining me’yorlanishi, guruhlar sig‘imi, metodik xizmatning sifati, kutubxona va elektron resurslarga kirish, akademik halollikni ta’minlash, sifatni ichki monitoring qilish kabi omillar birgalikda o‘qitish tizimining barqarorligini belgilaydi. Xususan, akademik halollik amaliyotlari kuchsiz bo‘lganda baholash natijalari real o‘rganishni aks ettirmaydi; bu esa o‘qituvchi va o‘quvchi uchun motivatsion buzilishlar keltirib chiqaradi, chunki mehnat va natija o‘rtasidagi bog‘liqlik xiralashadi [6]. Sifatni boshqarishda ma’lumotlarga asoslangan yondashuv zarur bo‘lsa-da, u faqat raqamli ko‘rsatkichlar yig‘ish bilan cheklanmasligi kerak; sifat ko‘rsat-kichlarining pedagogik mazmuni ochilmasa, monitoring “hisobot”ga aylanib qoladi. Shu sababli boshqaruv qarorlari o‘quv natijalarining tahlili, o‘qituvchi va talaba fikr-mulohazalari, dars kuzatuvlari hamda dastur natijalarining tashqi baholash elementlari bilan muvozanatlangan holda qabul qilinishi maqsadga muvofiq [2].

Yuqoridagi tahlillar zamonaviy o‘qitish tizimidagi muammolarni bir-biridan ajratib emas, balki o‘zaro ta’sir qiluvchi tizim sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi. Muammolarni bartaraf etishning ilmiy asoslangan yo‘li sifatida uch yo‘nalish uyg‘unligi taklif etiladi: birinchidan, o‘quv natijalarini kompetensiya indikatorlari asosida aniq va o‘lchanadigan qilib qayta ifodalash hamda mazmunni shu indikatorlarga mos ravishda modul va vazifa atrofida qayta loyihalash; ikkinchidan, o‘qituvchining metodik qaror qabul qilishini qo‘llab-quvvatlaydigan kasbiy rivojlanish ekotizimini yaratish, bunda murabbiylik, hamkasblik tahlili va amaliy tadqiqotlar uzluksiz ishlashi; uchinchidan, baholashni o‘qitishning ichki mexanizmi sifatida tiklab, formatif baholashni mezonli, shaffof va muntazam qayta aloqa bilan ta’minlash. Xulosa qilib aytganda, zamon-aviy ta’lim muammolarining tub yechimi texnologik yangilanish-ning o‘zida emas, balki pedagogik dizayn madaniyatini kuchaytirish, baholash savodxonligini oshirish va institutsional sharoitlarni didaktik maqsadlar bilan muvofiqlashtirishda namoyon bo‘ladi; aynan shu integratsiya ta’lim sifati va o‘quvchi rivojlanishining barqarorligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Azizxodjayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. TDPU nashriyoti. 2013. 200 b.
2. Zunnunov A. O. Umumiy pedagogika. Toshkent. O‘qituvchi. 2017. 320 b.
3. Xutorskoy A. V. Kompetentnostnyy podkhod v obrazovanii: nauchno-metodicheskoe posobie. Moskva. Eydos. 2013. 256 s.
4. Shulman L. S. The Wisdom of Practice: Essays on Teaching, Learning, and Learning to Teach. San Francisco. Jossey-Bass. 2004. 544 p.
5. Black P., Wiliam D. Inside the Black Box: Raising Standards Through Classroom Assessment. London. GL Assessment. 2002. 64 p.
6. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. Paris. OECD Publishing. 2023. 470 p.

AKADEMIK LITSEYLARDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA TASHKILIY ASOSLARI

Rajabov Elyor Baxtiyorovich

Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi Aniq fanlar kafedrasi fizika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada akademik litseylarda ta’lim sifatini oshirishning zamonaviy pedagogik va tashkiliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar asosida akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish, o‘quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, Ichki ishlar vazirligi tizimidagi akademik litseylarning yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirishdagi o‘rni alohida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar:akademik litsey, ta’lim sifati, pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, raqamli ta’lim, kompetensiya, islohot

Аннотация: В статье рассматриваются современные педагогические и организационные механизмы повышения качества образования в академических лицеях. На основе проводимых реформ в системе образования освещаются вопросы совершенствования деятельности академических лицеев, внедрения инновационных технологий в учебный процесс и развития знаний и навыков учащихся. Особое внимание уделяется роли ака-

демических лицеев системы Министерства внутренних дел в формировании всесторонне развитой личности.

Ключевые слова:академический лицей, качество образования, педагогические технологии, инновации, цифровое образование, компетенции, реформа

Abstract: This article examines modern pedagogical and organizational mechanisms for improving the quality of education in academic lyceums. Based on ongoing reforms in the education system, the issues of enhancing the activities of academic lyceums, introducing innovative technologies into the educational process, and developing students' knowledge and skills are discussed. Particular attention is paid to the role of academic lyceums within the system of the Ministry of Internal Affairs in shaping well-rounded individuals.

Keywords:academic lyceum, quality of education, pedagogical technologies, innovation, digital education, competence, reform

Kirish

Hozirgi globallashuv va axborotlashuv jarayonida ta'lim tizimini rivojlantirish, uning sifat va samaradorligini oshirish har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash ta'lim tizimining asosiy maqsadi bo'lib, bu esa o'z navbatida ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni joriy etishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini hisoblangan akademik litseylar faoliyatini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Akademik litseylar o'quvchilarning chuqur bilim olishini ta'minlash, ularni oliy ta'lim muassasalariga puxta tayyorlash hamda kasbiy yo'naltirishda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, mazkur ta'lim muassasalari yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va ularni har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, Ichki ishlar vazirligi tizimidagi akademik litseylar o'zining o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu litseylar nafaqat sifatli ta'lim berish, balki o'quvchilarda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish, shuningdek, vatanparvarlik ruhini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois akademik litseylarda ta'lim sifatini oshirish, ularning

faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil etish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi[1.].

Asosiy qism

Akademik litseylarda ta’lim sifatini oshirish jarayoni kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayon faqat o‘quv dasturlarini takomillashtirish bilan cheklanmay, balki o‘qitish metodikasi, boshqaruv tizimi hamda o‘quv muhitini zamonaviylashtirishni ham o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Interaktiv darslar, muammoli o‘qitish, loyiha asosida ta’lim va raqamli platformalardan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularning bilimlarni mustahkam o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim berish o‘quvchilarda nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantirishga qaratilgan. Bu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Natijada ular kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan raqobatbardosh kadrlar bo‘lib yetishadi.

Akademik litseylarda raqamli ta’limni rivojlantirish ham dolzarb masalalardan biridir. Elektron darsliklar, onlayn ta’lim platformalari va virtual laboratoriyalar o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Bu esa ta’limning shaffofligi va sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Ichki ishlar vazirligi tizimidagi akademik litseylar faoliyatida esa tarbiyaviy jarayon alohida o‘rin tutadi. Bu yerda o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki intizom, mas’uliyat, huquqiy ong va vatanparvarlik kabi fazilatlar ham shakllantiriladi. Shu sababli ushbu litseylarda ta’lim jarayoni maxsus tarbiyaviy dasturlar bilan uyg‘un holda olib boriladi. Bundan tashqari, pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini oshirish ham muhim omil hisoblanadi. Doimiy malaka oshirish kurslari, xorijiy tajribalarni o‘rganish va ilmiy-amaliy seminarlar o‘qituvchilarning pedagogik salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, akademik litseylar va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali ta’lim uzluksizligini ta’minlash, o‘quv dasturlarini uyg‘unlashtirish va iqtidorli yoshlarni erta aniqlash imkoniyati kengayadi[2.].

Hozirgi zamonaviy o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida didaktik tamoyillarni chuqur bilishi, zamon talablariga mos o‘qitish vositalari, shakllari va metodlaridan samarali foydalana olishi zarur. Shu bilan birga, pedagoglar o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari hamda ularni amaliyotda qo‘llash texnologiyalari bilan doimiy ravishda tanishib borishi muhim ahamiyatga ega. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan asosiy metodlar qatoriga hikoya qilish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi suhbat, ma’ruza, muammoli vaziyat yaratish, munozara, savol-javob, test va nazorat ishlari, mustaqil izlanish, muammoli taqdimot hamda evristik yondashuv kabi usullar kiradi. Ushbu metodlar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirib, ularning ijodiy va tahliliy fikrlashini rivojlantiradi.

Akademik litseylarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, “SWOT-tahlil”, “Keys-stadi”, “Qarorlar shajarasi”, “Assesment”, “Tushunchalar tahlili”, “Insert”, “FSMU”, “Brifing”, “Intervyu” kabi interfaol metodlar hamda grafik organayzerlardan foydalanish o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi [3.].

Interfaol usullar samaradorligi o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish, jamoada ishlash qobiliyatini shakllantirish hamda murakkab muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish malakasini oshirishda namoyon bo‘ladi. Shu orqali o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki amaliy ko‘nikma va kompetensiyalar ham shakllanadi. Umuman olganda, o‘qituvchi tomonidan ta’lim jarayonini modellashtirish va zamonaviy interfaol metodlarni qo‘llash akademik litseylarda ta’lim sifatini oshirishga, shuningdek, raqobatbardosh va malakali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Bu esa ta’lim, rivojlanish va tarbiyaning birligi tamoyilini samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, akademik litseylarda ta’lim sifatini oshirish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim vazifalardan biridir. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish hamda raqamli ta’lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim natijalar beradi. Shuningdek, akademik litseylarda ta’lim jarayonini takomillashtirish faqat o‘quvchilarning

bilim darajasini oshirish bilan cheklanmay, balki ularning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Xususan, intizom, mas’uliyat, mustaqil fikrlash va vatanparvarlik kabi sifatlarni shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ichki ishlar vazirligi tizimidagi akademik litseylar esa bu borada alohida o‘rin tutib, yoshlarni huquqiy ongli, ma’naviy yetuk va jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, akademik litseylar va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi integratsiyani yanada kuchaytirish, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish hamda innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish ta’lim sifatini yanada yuqori bosqichga olib chiqadi. Umuman olganda, akademik litseylarda ta’limni rivojlantirishning huquqiy va innovatsion asoslarini takomillashtirish mamlakatda raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlar tayyorlashga mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov Otabek Raximovich Akademik litseylarda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining o‘rni va ahaniyati// Research Focus, Uzbekistan Volume 2. 2023
2. Mamarizzayeva Dilnozaxon Erkinovna Akademik litseylarda ona tili darslarini kompetensiyaviyyondashuv asosida tashkil etish // Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. Yanvar. 2026.
3. Bektemirova YA.F Akademik litseylarda zamonaviy interaktiv usullardan foydalanishning ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyati "Экономика и социум" №2(129)-1 2025

ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКОВ В АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЯХ: ТИПОЛОГИЧЕСКОЕ СРАВНЕНИЕ

Ибрагимова Анахон Шавкатовна

СГБ «Темурбеклар мактаби» ВАЛ, преподаватель русского языка и литературы, магистр

Аннотация: Данная статья посвящена анализу ключевых проблем, возникающих в процессе изучения иностранных языков во многих учебных заведениях, а в особенности в академических лицеях. Особое внимание уделяется сопоставительно-типологическому подходу, позволяющему выявить различия и сходства в методах преподавания, языковых структурах и когнитивных

процессах учащихся. Рассматриваются факторы, влияющие на эффективность обучения, включая методические, психолингвистические и социокультурные аспекты. В результате предлагаются рекомендации по оптимизации образовательного процесса.

Ключевые слова: изучение языков, академические лицеи, сопоставительная типология, методика преподавания, билингвизм, интерференция.

В условиях глобализации владение иностранными языками становится необходимым компонентом современного образования. Академические лицеи, как учреждения с углублённой академической подготовкой, играют важную роль в формировании языковой компетенции учащихся. Однако, несмотря на высокий уровень образовательных программ, в процессе изучения языков возникает ряд проблем, снижающих эффективность обучения.

Цель данной статьи — выявить основные трудности в изучении языков в академических лицеях и проанализировать их с позиции сопоставительно-типологического подхода. Этот подход позволяет сравнивать языковые системы и методики преподавания, выявляя причины ошибок и трудностей учащихся.

Сопоставительная типология — это раздел лингвистики, изучающий сходства и различия между языками независимо от их генетической принадлежности. В контексте обучения иностранным языкам данный подход помогает понять, каким образом родной язык учащегося влияет на освоение нового языка.

Одной из ключевых проблем является явление интерференции — переноса структур родного языка на изучаемый. Например, учащиеся, говорящие на узбекском или русском языках, могут испытывать трудности при освоении английской грамматики из-за различий в порядке слов и системе времен.

Интерференция проявляется на всех уровнях языка: фонетическом, лексическом и грамматическом. Учащиеся часто допускают ошибки, связанные с прямым переносом правил родного языка. Например, в английском языке строгий порядок слов (SVO) может вызывать трудности у учащихся, привыкших к более свободному порядку.

Во многих академических лицеях акцент делается на грамматике и переводе, тогда как устная речь и аудирование остаются недостаточно развитыми. Это приводит к тому, что учащиеся могут хорошо выполнять письменные задания, но

испытывают трудности в реальном общении. Недостаточная коммуникативная практика.

Учебники часто не учитывают типологические особенности родного языка учащихся. В результате задания могут быть либо слишком простыми, либо чрезмерно сложными, не соответствующими уровню подготовки.

Страх ошибки, низкая мотивация и неуверенность в себе являются значительными препятствиями в изучении языков. В академических лицеях, где требования к успеваемости высоки, эти факторы могут усиливаться.

Не все преподаватели владеют современными методиками и сопоставительно-типологическим анализом. Это ограничивает их способность эффективно объяснять различия между языками и предотвращать типичные ошибки учащихся.

Сопоставительно-типологический анализ языковых трудностей. Различия в звуковых системах языков приводят к трудностям в произношении. Например, отсутствие некоторых английских звуков в родном языке учащихся (например, /θ/ и /ð/) вызывает ошибки и акцент.

Ложные друзья переводчика (false friends) являются распространённой проблемой. Учащиеся могут неправильно интерпретировать слова, похожие по форме, но отличающиеся по значению.

Система времен в английском языке значительно сложнее, чем в узбекском или русском. Это приводит к частым ошибкам в употреблении времен, особенно в устной речи.

Сопоставительный анализ показывает, что традиционные методы (грамматико-переводной) менее эффективны по сравнению с коммуникативным подходом. В академических лицеях часто преобладает первый, что ограничивает развитие практических навыков.

Коммуникативный подход, напротив, ориентирован на использование языка в реальных ситуациях, что способствует лучшему усвоению материала. Однако его внедрение требует соответствующей подготовки преподавателей и изменения учебных программ.

Многие учащиеся академических лицеев являются билингвами, что может быть как преимуществом, так и источником дополнительных трудностей. С одной стороны, знание нескольких

языков развивает когнитивные способности. С другой — увеличивает вероятность интерференции.

Сопоставительно-типологический подход позволяет использовать билингвизм как ресурс, помогая учащимся осознанно сравнивать языки и избегать ошибок.

Рекомендации по улучшению процесса обучения

- Внедрение сопоставительно-типологического анализа в учебный процесс для объяснения различий между языками;
- Развитие коммуникативных навыков через диалоги, ролевые игры и обсуждения;
- Адаптация учебных материалов с учётом родного языка учащихся;
- Повышение квалификации преподавателей в области современных методик;
- Создание благоприятной психологической среды, снижающей страх ошибок.

Проблемы изучения языков в академических лицеях носят комплексный характер и требуют системного подхода к их решению. Сопоставительно-типологический анализ является эффективным инструментом, позволяющим глубже понять причины трудностей и разработать более эффективные методы обучения.

Оптимизация образовательного процесса возможна при условии интеграции теоретических знаний с практическими навыками, а также учёта индивидуальных особенностей учащихся. Это позволит повысить уровень владения иностранными языками и подготовить учащихся к успешной коммуникации в глобальном мире.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Ке П. Контрастивная лингвистика. — Сингапур: Springer, 2018. — 210 с.
2. Кшешовский Т. П. Сопоставление языков: область контрастивной лингвистики. — Берлин: Walter de Gruyter, 1990. — 286 с.
3. Фисяк Я. (ред.) Контрастивная лингвистика и преподавание языков. — Оксфорд: Pergamon Press, 1981. — 284 с.
4. Пиллаи К. Т. Контрастивная лингвистика и обучение языкам. — Аннамалаинагар: Annamalai University, 1973. — 263 с.

5. Ладо Р. Лингвистика через культуры: прикладная лингвистика для преподавателей языков. — Энн-Арбор: University of Michigan Press, 1957. — 141 с.
6. Эллис Р. Изучение второго языка. — Оксфорд: Oxford University Press, 1994. — 824 с.
7. Лайтбаун П. М., Спада Н. Как изучаются языки. — Оксфорд: Oxford University Press, 2013. — 304 с.
8. Одлин Т. Языковой перенос: межъязыковое влияние в изучении языков. — Кембридж: Cambridge University Press, 1989. — 200 с.
9. Браун Х. Д. Принципы изучения и преподавания языков. — Нью-Йорк: Pearson Education, 2007. — 410 с.
10. Кук В. Изучение второго языка и преподавание языков. — Лондон: Routledge, 2016. — 320 с.

АДМИНИСТРАТИВНАЯ СИСТЕМА ГОСУДАРСТВА ХОРЕЗМШАХОВ (АНУШТЕГИНИДЫ)

Бегимов Максуд Хиясович
ведущий преподаватель русского языка и литературы Хорезмского академического лицея при МВД

Краткое содержание статьи: В данной статье освещаются вопросы административной и придворной системы управления государством ануштегинидов (хорезмшахов), придворных должностей, а также отличительные особенности их системы управления по сравнению с системами других государств данного периода.

Ключевые понятия: хорезмшахи, ануштегиниды, даргах (двор), боргах, диархия, двоевластие, диван, орду, казоват, рузи бор, рузи бордихи, сохиби диван, отабек, шахна, райс, мухтасиб; упоминаются Джувайни, Казвини, Джамол Карший, Алауддин Отсиз, Абуфатх Эль-Арслон, Алауддин Текеш, З. Бунийодов, В.В. Бартольд.

В конце X века правитель Северного Хоразма Мамун ибн Мухаммад объединил страну и провозгласил себя хорезмшахом, столицей остался город Гургандж. Правление мамунидов (Мамун ибн Мухаммад (995–997), Али ибн Мамун (997–1009), Мамун ибн Мамун (1009–1017)) укрепило политическое, экономическое и культурное положение Хоразма. В 1017 году Хоразм был присоединён султаном Махмудом, и на протяжении столетия

потерял статус самостоятельного государства. До 1040 года Хоразм входил в состав династии газнавидов, позже — в состав Сельджукского государства.

В конце XI — начале XII века на исторической сцене появилось государство хорезмшахов, зависимое от Великого Сельджукского государства, которое благодаря усилиям таких талантливых и политически одарённых правителей, как Алауддин Отсиз (1127–1156), Абуфатх Эль-Арслон (1156–1172), Алауддин Текеш, добилось не только независимости, но и превратилось в одно из значительных и мощных государств своего времени.

В источниках, созданных в период монгольского завоевания, а также в трудах таких авторов, как Джувайни и Казвини, содержатся сведения об ануштегинидах. В трудах Джамола аль-Карши упоминаются ануштегиниды и приводятся сведения о них.

Государство ануштегинидов простиралось не только на Хоразм, но и на южную часть Дашти Кыпчак, Восточный Туркестан, Среднюю Азию, а также некоторые регионы Ближнего и Среднего Востока.

В начале XIII века, при Мухаммаде Хорезмшахе, в результате централизации большого территории возникло крупное политическое объединение; возросла политическая мощь государства, развивалось ремесло и торговля, росли города; рост в различных отраслях хозяйства стал фактором общего экономического и культурного прогресса.

В управлении государством установился более прочный порядок, существовала отлаженная система. При хорезмшахе была учреждена широкая коллегия при дворе, выполнявшая представительские функции и иные обязанности.

Экономическая и военная мощь государства усилилась, однако этот процесс был прерван в 1219 году нашествием монгольских войск под предводительством Чингисхана, когда войска монголов вторглись на территорию государства хорезмшахов Мухаммада.

В Восточном мусульманском мире, в сложной политической ситуации, быстрое и уверенное укрепление государства хорезмшахов во многом было обусловлено прежде всего чёткой организацией государственного аппарата и хорошо организованной армией.

Во времена правления ануштегинидов политическое устройство общества и порядок государственного управления выглядели следующим образом: государственное управление

состояло из двух систем — придворной (даргах) и диванов (административных учреждений). Во главе двора стоял правитель.

По словам историка Зиё Бунийодова, во время нашествий у государства хорезмшахов сложилась особая форма диархии (двоевластия): номинальным абсолютным монархом считался хорезмшах султан Алауддин Мухаммад, но фактически в значительной мере власть находилась в руках его матери Туркон-хатун, которая влияла как на внутренние, так и на внешние дела государства; в некоторых вопросах она даже выступала с позиций, противоположных монарху.

В официальных документах, составленных Бахоуддином Мухаммадом аль-Багдадьи, сохранилось послание хорезмшаха великому Отабеку Шамс уд-давла ва-дин Ирак Пахлавони; в нём отчётливо слышится дух добрососедских отношений и указывается на стремление Текеша поддерживать мирные и дружеские отношения с Отабеком.

Центральное государственное управление включало высший совет, называемый «совет ul-высший al-фахри at-титул» (название в оригинале), которым председательствовал визирь. Должность визиря впервые была учреждена при султане Отсизе. Визиры хорезмшахов, как правило, назначались из числа персов и арабов — образованных, мудрых и предприимчивых государственных служащих, хорошо знавших персидский и арабский языки. На приёме визирь сидел с правой стороны хорезмшаха и был его главным советником.

На визиря возлагалось множество важных обязанностей; далее в документе подробно описываются административные посты и функции — диван, отабек, шахна, мухтасиб и др.

AKADEMIK LITSEYLARDA “MA’NAVIYAT ASOSLARI” VA “TARBIYA” FANLARINI O‘QITISHDA MAXTUMQULI FIROG‘IY HIKMATLARIDAN FOYDALANISH

Abdullayev Madamin Saotboyevich
IIV Xorazm akademik litseyi “Ijtimoiy-gumanitar va huquqiy fanlar” kafedrasi boshlig‘i, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada atoqli turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firagiyning ma’naviy-axloqiy qarashlaridan kelib chiqib, akademik litseylarda “Ma’naviyat asoslari” va “Tarbiya”

fanlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etishga doir ayrim mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Maxtumquli, halollik, nafs, do‘stlik, sadoqat, hurmat, mardlik, mardlik.

Insoniyat tarixining har bir bosqichida jamiyat va undagi turli ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy jarayonlar shu jamiyatda yashayotgan kishilarning xulq-atvori, ma’naviy-axloqiy qiyofasining qay darajada shakllanganligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Jamiyatning institutsional tuzilishi, ijtimoiy munosabatlar va undagi o‘zaro munosabatlar tamoyillari, o‘z navbatida, jamiyatni ma’naviy jihatdan yuksaltirishni taqozo etadi. Jamiyatda ro‘y berayotgan har qanday jarayonlar, xoh davlat siyosati bilan bog‘liq bo‘lsin, xoh ijtimoiy-maishiy soha bilan bog‘liq bo‘lsin, eng avvalo, jarayon sub’ektlarining intellektual va ma’naviy yetukligini taqozo etadi.

Jamiyatdagi axloqiy-axloqiy qadriyatlarning sivilizatsiyaga ta’siri keng ko‘lamli hodisa bo‘lib, barcha davrlarda o‘zining ijtimoiy ahamiyatini namoyon etgan. Bugungi notinch zamonda bu jihat ayniqsa muhimdir. Qadriyatlarga hurmatsizlik, o‘z manfaatini ko‘zlab o‘zgalar mulkiga, hayoti va qadr-qimmatiga tajovuz qilish, afsuski, odatiy holga aylanib bormoqda. Binobarin, insonni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga e’tiborni kuchaytirish, bu borada ajdodlarimizning boy ma’naviy merosidan unumli foydalanish, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy kamolot sirlarini keng jamoatchilikka targ‘ib qilgan holda, ularni yetuk, bilimli, ma’naviyatli insonlar etib tarbiyalash muhim vazifadir. “Dunyo shiddat bilan o‘zgarayotgan, barqarorlik va davlatlarning kuchli rivojlanishiga olib keladigan turli yangi tahdid va xavf-xatarlar yuzaga kelayotgan bugungi kunda har qachongidan ham muhimroqdir, ma’naviyat va ma’rifat, aholining barcha qatlamlarini axloqiy tarbiyalashga e’tibor qaratilmoqda”. [1, 285-b.]

Jamiyatni ma’naviy-axloqiy yuksaltirish, yosh avlod kamolotini yuksaltirish muhimligini hisobga olgan holda ta’lim tizimida, xususan, akademik litseylarda “Ma’naviyat asoslari”, “Ta’rbiya” fanlari o‘qitilmoqda. Mutafakkirlar hayoti va faoliyatini chuqur o‘rganishga qaratilgan mavzular salmog‘ini oshirish muhim ahamiyatga ega. Xususan, turkman xalqining ulug‘ shoiri Maxtumquli Firog‘iyning boy ma’naviy-falsafiy merosini yoshlar e’tiboriga havola etish ularning intellektual yetuk inson bo‘lib kamol topishida katta ahamiyat kasb etadi.

Asrlar davomida olimlar va mutafakkirlarning diqqat-e’tiborida bo’lgan ta’lim-tarbiya masalasi Maxtumquli Firog‘iy ma’naviy merosida

ham salmoqli o‘rin egallaydi. Mutafakkir o‘z ta’limoti va hikmatlarida jamiyatning ma’naviy-axloqiy qiyofasini, uning fazilatlari va illatlarini aniq ko‘rsatib bergan. Ushbu ta’limotlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, akademik litseylar o‘quv dasturlarida “Ma’naviyat asoslari” va “Tarbiya” fanlarini o‘qitishda ulardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu fanlarning o‘quv dasturida inson kamolotining eng muhim mezonlari bo‘lgan mardlik va qo‘rqoqlik, nafs, vafodorlik, halollik, sabr-toqat, qanoat, vatanga sadoqat, hurmat kabi ijtimoiy-falsafiy, ma’naviy-axloqiy kategoriyalar ko‘rib chiqiladi. Albatta, Maxtumquli ijodining asosini bu mavzulardagi hikmatlar tashkil etishini hisobga olsak, ulardan ta’lim-tarbiya jarayonlarida unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Quyida mutafakkirning ma’naviy merosidan namunalar va ulardan dars jarayonida foydalanish yo‘llari bilan o‘rtoqlashamiz.

Mardlikni go‘zal axloqiy fazilat deb bilgan Maxtumquli mardning xarakterini nomardning fe’liga qarama-qarshi qo‘yib, odamlarga nima to‘g‘ri, nima noto‘g‘ri ekanligini tushuntirishga harakat qiladi.

Yuz nomard joyini bosmas bir mardning,
Chekar tashvishini mard elu yurtning.
Qilgan qilig‘ini ko‘ring nomardning:
Jangmi deya qochar tuman uchrasa! [2, 38-b.]

Agar mard yigit vatan sha’ni, el-ulus yoki sha’ni uchun jonini berishga tayyor bo‘lsa, mard jangdan qochadi, dushman oldida qo‘rquvdan titraydi, hatto tuman ham unga jang maydonidek tuyuladi. Maxtumquli mardlar va badnomlar obrazini tasvirlar ekan, odamlarni axloqiy kamolotga yetaklovchi g‘oyalar atrofida birlashtirishni maqsad qilgan. Firog‘iy faqat mardlargina millat birligini ta’minlashi mumkinligini tushundi. “Maxtumquli o‘z xalqining turli sinov va mashaqqatlarga mardonavorlik bilan bardosh berib, o‘z milliy o‘ziga xosligiga hamisha sodiq qolganini yuksak saviyada ifodalagan. Maxtumquli she’rlari orqali turkman xalqining azmu shijoat, mardlik, do‘stga sadoqat kabi oliyjanob fazilatlarini yanada chuqurroq anglashimiz mumkin”. [3, 5-b.]

Maxtumquli mard va nomard obrazni juda ta’sirli tasvirlab, xalqqa murojaat qiladi:

Mard yigit mard erdan tug'ar,
Nomard hech qachon mard bo‘lmas.
Bo‘ri ko‘zida o‘t yonar,
Tulki, shaqalda shaxt bo‘lmas, [1, 55-b.]

- deb xitob qiladi u. Qahramonlarni bo‘ri, zaiflarni esa tulki, shoqol deb ta’riflagan shoir kishilarda bu ikki xarakter haqida xulosa hosil qilishga

yordam beradi. Mardlik va qo‘rqoqlik masalasi turkman mumtoz adabiyotining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, Maxtumquli yashagan davr muhiti shoirni ayni mavzuda ko‘plab ma’ruzalar yaratishga undagan. Hayotida ko‘p nohaqlik va nohaqliklarni boshidan kechirgan shoir bu borada chuqur falsafiy mushohada yuritib, o‘z fikrlarini bildirgan:

Otilgan o‘q izga qaytmas,
Mard nomardni, mard deb aytmas,
Qo‘lin kessang bir so‘z aytmas,
Chin mardona g‘o‘ch yigitlar. [4, 220-b.]

Maxtumquli bu hikmatlarda mard va noloyiq insonlar qiyofasini juda ishonarli, xalqchil tasvirlay olgan, bu ikki ziddiyatli axloqiy tushunchaning mohiyatini hayotiy misollar bilan ochib bergan. Mard yigit ko‘pchilikning fikriga quloq soladi, faqat o‘z fikrini gapirmaydi, maslahat bilan ish tutadi. Bugungi siyosiy til bilan aytganda, demokratiya tamoyillari bilan hamohang bo‘lgan bu harakatlar jasoratning asl mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Yoki mard odam kerak bo‘lsa, doim “yaxshi” deyishini ta’kidlab, insonparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qiladi. “Bir ehson yetmishta yomonlikdan qutqarur” degan diniy motivlardan foydalanib, masalani chuqurroq tushunishga yordam beradi. Qo‘rqoqning faqat o‘zini o‘ylab ish tutishini, faqat xotini bilan maslahatlashishini, dushman xavfini his qilganda o‘zini qo‘yarga joy topolmasligini keskin tanqid qiladi. “Ma’naviyat asoslari” va “Tarbiya” fanlarini o‘qitish jarayonida bu misollarni keltirish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarni mard va jasur bo‘lishga undaydilar. Bu hikmatlar ma’nosini tushuntirish uchun turli sahna ko‘rinishlari, ifodali o‘qish musobaqalari kabi usullardan foydalanish mumkin.

Jamiyatdagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning tavsifi, do‘stlik mavzusi Maxtumquli xikmatlarida alohida o‘rin tutadi. Mutafakkir odamlarni do‘st tanlashda o‘ta oqilona bo‘lishga chorlab, ular hayotning turli sinovlariga birga bardosh bera olishlariga ishonch hosil qilib, do‘st bo‘lish zarurligini ta’kidlagan. Yaxshi do‘st tanlashda uning xulq-atvori, odob-axloqi, xalq orasida yurish-turishiga e’tibor qaratish lozim, odobli odamlardan uzoq bo‘lishni maslahat beradi. Shoir shunday hikmatli fikrlarni nihoyatda go‘zal va o‘ziga xos tasviriy vositalar orqali ifodalaydi:

Ko‘ngli qora bilan bo‘lmanglar ulfat,
Yuqar undan turli-tuman kasofat.
Ko‘mirga har qancha aylasang izzat,
Yuzingga qorasi yuqqancha bo‘lmas.[5, 19-b.]

Mutafakkir ko‘nglida yomonlik, yovuzlik mujassam etgan odamlardan hech qachon yaxshilik chiqmasligini qayta-qayta takrorlagan. Jamiyat taraqqiyotining to‘sig‘i bo‘lgan bunday illatlarni yo‘q qilishga da’vat etuvchi nasihatlariga odamlar e’tiborini qaratadi.

“Yaxshilar yonida yurgil sen o‘zing,
Dur bo‘lsin doim so‘zlagan so‘zing,
Olimga yondashsang, ochilar ko‘zing,
Johilga yondashsang, ko‘rdek bo‘larsan”. [6, 13-b.]

Maxtumquli hayotning achchiq haqiqatlarini sodda, ravon tilda, go‘zal o‘xshatishlar orqali tasvirlab, odamlardan ana shu ijtimoiy voqelik haqida falsafiy mushohada yuritishlarini istaydi. Bu orqali u jamiyat-da axloqiy kamolotga munosib hissa qo‘shishga harakat qiladi.

Mutafakkir do‘st, yo‘ldosh, birodar tushunchalariga to‘xtalib, odamlarni soxta do‘stlardan ehtiyot bo‘lishga, yaxshi-yomonda yoningizda bo‘lgan chin do‘stning qadriga yetishga chorlaydi. Shoir axloqiy kamolotga erishish, o‘zgalarning haq-huquqlarini himoya qilish, birodarning sirini hech qachon oshkor etmaslik uchun odamlarning ma’naviy-axloqiy qarashlarining shakllanishiga ta’sir etuvchi sadoqat, birdamlik kabi fazilatlarni targ‘ib qiladi. Mutafakkir nasihatlaridan shuni tushunish mumkinki, do‘stlik, birodarlik kabi qadriyatlar jamiyatdagi birlik va hamjihatlikning asosi hisoblanadi. Do‘stlik, birodarlik, sadoqat kabi tushunchalarni chuqur anglash uchun ushbu hikmatlardan darslarda keng foydalanish tavsiya etiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, akademik litseylarda o‘qitiladigan yuqorida qayd etilgan fanlar mazmuni bevosita Maxtumquli ijodi va ularning o‘gitlari, umuminsoniy g‘oyalari asosida boyitiladi. Barkamol shaxsni voyaga yetkazishdek sharafli ishdagi bu boyliklarning o‘rni va ahamiyati bugungi shiddatli davrda ayniqsa yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент: “O‘zbekiston”, 2021. -Б.285.
2. Махтумқули. Устозингдан айрилма (Тарж. Э.Очилов). -Тошкент: “O‘zbekiston”,2012. -Б.38.
3. Мирзиёев Ш.М. Махтумқули - сўзлар тили туркманнинг(Сўз боши) //Махтумқули. Элингга бахш айла.(Сайланма) -Тошкент: “Tasvir” нашриёт уйи, 2017. -Б.5-6.
4. МАХТИМҚУЛИ. Том II {Матн} Таржимон Г. Матёқубова. -Нукус: AVANGARD-BASRA, 2022. –Б.220.

5. Қурамбоев К. Махтумқули шеърияти Ўзбекистонда. - Тошкент: “Фан”, 1984. -Б.19.
6. Махтумқули. Ҳикматлар (Таржимон ва тузувчи Э.Очилов). - Тошкент: “O‘zbekiston”, 2013. -Б.13.

TASHKENT COPY OF "SHAJARAYI TURK" AND ITS HISTORY OF LEARNING

Abdullaev M.S.
Head of the Department of "Social, Humanitarian and Legal Sciences" of the Khorezm Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs, Doctor of Philosophy (PhD)

Abstract: This article provides information about the Tashkent copy of the work "Shajarayi Turk".

Key words: "Shajarayi Turk", Abulgazi Bakhadirkhan, Tashkent copy.

In the medieval Central Asian states, most of the historical works were written by special orders of the rulers. However, Zahiriddin Muhammad Babur (1506–1530) wrote the autobiographical "Voqeati Babur" and Khorezmshah Abulgazi Bakhadir khan (1643–1663/1664), a descendant of Genghis, wrote "Shajarayi Tarokima" and "Shajarayi Turk" by themselves. Both genealogical works of Abulgazikhan are widely promoted and well studied among the scientific community.

The variety and abundance of information about the distant past found in each line requires the author of the work to give them sufficient explanations. This situation indicates that there are big and urgent issues before Uzbek ethnology. There is a need to develop a comprehensive scientific system and program for the realization of historical works similar to "Shajarayi Turk".

Extensive studies have been carried out on the works of Zahiriddin Muhammad Babur and Abulgazi Bakhadirkhan. It has been translated and published in several languages of the world. There are analyzes performed on the basis of source studies and textual studies. Nevertheless, until now these three historical works have not been given a special evaluation as a book written by a royal historian.

Abulgazi Bakhadirkhan has the intention of writing a historical work for his people. In order to fulfill his duty to history, nation and country, he intends to start the works "Shajarayi Tarokima" and "Shajarayi Turk" (1643-1663/1664).

Such content is in the text of the work. The first book was written at the request of Turkmen tribal chiefs (between 1658 and 1661)[58].

This work is dedicated to the history of the origin of Oghuz Khan, Turkish peoples and the Turkmen people. Information in written sources is supplemented by oral information that circulates among the people. Khan's royal work dedicated to the history of his people is "Shajarayi Turk". The book describes the socio-political history of Khorezm in the first half of the XVI-XVII centuries. The neglect of their ancestors and the ignorance of the people of Khorezm about their past forces the author to pick up a pen. He notes that dozens and thirty historical works on the history of Genghis Khan and Genghis have been written. But the fact that no serious book about the past of his country has been written makes the khan very sad. Such sad circumstances, as well as the absence of any chronicle detailing the events between the reigns of Abulgazi Khan and his great-grandfather Shaibani Yadgorkhan, strongly motivated the writing of this work.

The author is seeking a talented historian to fill this position. But he could not find a suitable candidate, and he took a pen and davat in his hand and began to write, following the Turkish proverb " oʻksuz(oʻkusuk) oʻz kindigin oʻzi kesar”" (an orphan sees his own day, decides for himself). According to tradition, after praising God and praising the prophet in the preface, the author and author of the work, being the author of the work, immediately goes to the main text.

The book records the years of history from Adam to the reign of the author, typical of the style of Muslim historiography. The work consists of a prologue and nine chapters: it is written in Turanian (Chigatai language), the events are described in simple and concise terms.

22 manuscripts of Abulgazikhan's book "Shajarayi Turk" have been recorded in catalogs around the world, 5 of which are kept in the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruniy, Faculty of Arts of the Republic of Uzbekistan. These are manuscripts numbered R. 2056, 7668, 851, 11110, 7626, inverter.

* Manuscript number 7668 was copied in 1349 AH. The work is written in the Chigatoy language, in Nastaliq script. Size: 15x22 cm, 13 lines, 280 sheets, size 15x22 cm. in Nastaliq script.

[58] Kononov A.N. Rodoslovnaya turkmen. Sochineniye Abu-l-gazi xana xivinskogo. Perevod na russkiy yazыk i svodnыy tekst. – Moskva-Leningrad, 1958 g. – 192+96 str; SVR/Istoriya, sostaviteli: D.Yu. Yusupova, R.P. Djalilova. – Tashkent, 1998 g.– S.152-154

Yuqori ta’sir: Ichki motivatsiya

O‘rtacha-yuqori ta’sir: Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash

O‘rtacha ta’sir: O‘z-o‘zini anglash

Nisbatan pastroq ta’sir: Moslashuvchanlik

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning o‘zini-o‘zi faollashtirish jarayoni ko‘p omilli psixologik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ichki motivatsiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning ustuvorligi ta’lim

jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytirish zarurligini asoslaydi.Shuningdek, statistik jihatdan ishonchli farqlarning mavjudligi ($t > 2$; $p < 0.05$) olingan natijalarning ilmiy asoslanganligini tasdiqlaydi hamda ularni amaliyotga joriy etish imkonini beradi.

XULOSA: Umumiy xulosa sifatida, talabalar ta'lim jarayonida o'zini-o'zi faollashtirishning psixologik determinantlari o'z kuchlarini va qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari, ta'lim jarayonida o'zini-o'zi faollashtirishni oshirish uchun ichki motivatsiyani rag'batlantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Tavsiyalar sifatida, ta'lim muassasalarida motivatsiya oshirish dasturlari va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari ishlab chiqilishi lozim. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarning o‘zini-o‘zi faollashtirish darajasini oshirish faqat alohida psixologik omillarni rivojlantirish bilangina cheklanib qolmay, balki kompleks yondashuvni talab etadi. Ya’ni, ta’lim jarayonida motivatsion, kognitiv va ijtimoiy component-larning o‘zaro uyg‘unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zini-o‘zi faollashtirishni samarali rivojlantirish uchun, avvalo, talabalarda ichki motivatsiyani shakllantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish lozim. Bunda interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish (project-based learning) kabi yondashuvlar talabalarning mustaqil fikrlashi va faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, talabalar o‘zini-o‘zi faollashtirishining psixologik determinantlarini chuqur tahlil qilish va ularni amaliyotga joriy etish ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh va mustaqil fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimov M.A. Ta'lim psixologiyasi. — Toshkent: Fan, 2020. — 300 b.

2. Davlatov S.I. O'zini-o'zi faollashtirish va ta'lim. — Toshkent: O'qituvchi, 2021. 250 b.

3. Xodjayev A.B. Psixologik motivatsiya va ta'lim. — Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti, 2019. — 200 b.

4. Raxmonov A.A. Talabalarning o'zini-o'zi faollashtirish jarayonlari. — Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti, 2022. — 150 b.

5. Toshpulatov Z.F. Psixologiya va ta'lim jarayoni. — Farg'ona: Farg'ona Davlat Universiteti, 2023. — 180 b.

YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIM JARAYONIDA YOSHLARNING HUQUQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI (harbiy akademik litseylar misolida)

Shakirova Nafisa Abrarovna
O‘R MG Toshkent “Temurbeklar maktabi” HAL Davlat va huquq fani yetakchi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston yoshlarinig bugungi kundagi huquqiy salohiyatini oshirish bo`yicha dolzarb masalalari tahlil qilingan

Kalit so‘zlari:huquqiy ta’lim, huquqiy madaniyat, yoshlar tarbiyasi, huquqiy ong, qonun ustuvorligi, fuqarolik jamiyati, huquqiy savod-xonlik, Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti.

O‘zbekiston taraqqiyotida huquqiy ta’lim va yoshlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish masalalari va yoshlarni o‘rni haqda fikrimni bildirmoqchi edim.Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Jamiyat taraqqiyoti va davlat boshqaruvida qonun ustuvorligini ta’minlash fuqarolarning huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatiga bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa yosh avlodning huquqiy ongini shakllantirish, ularga qonunlarga hurmat ruhida ta’lim va tarbiya berish davlat siyosatining muhim yo‘nalish-laridan biri hisoblanadi.

Huquqiy ta’lim tizimi nafaqat yuridik bilimlarni berish, balki shaxsda huquqiy madaniyat, qonunlarga hurmat va fuqarolik mas’-uliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli so‘nggi yillarda O‘zbekistonda huquqiy ta’limni rivojlantirish, yoshlarning huquqiy ongini oshirish, qonuniylik va adolat tamoyillarini mustahkamlash bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham huquqiy ta’limni takomillashtirish, yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish hamda fuqarolarning qonunlarga hurmatini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan [1. B. 10-15].

Huquqiy ta’lim tushunchasi va uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqida tahlil qiladigan bo‘lsak, avvalambor huquqiy ta’lim – bu fuqarolarga huquqiy bilim berish, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash va jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi pedagogik jarayondir. Huquqiy ta’lim shaxsda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

Huquqiy madaniyat esa shaxsning qonunlarni bilishi, ularga rioya qilishi, o‘z huquq va majburiyatlarini anglab yetishi hamda jamiyat hayotida faol fuqarolik pozitsiyasini egallashi bilan tavsiflanadi.

Huquqshunos olimlarning fikriga ko‘ra, jamiyatda huquqiy madaniyat darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, qonun ustuvorligi shunchalik mustahkam bo‘ladi va ijtimoiy barqarorlik ta’minlanadi [2.B.24-26].

Bugungi globallashuv sharoitida huquqiy ta’lim nafaqat yuridik bilimlarni o‘rgatish, balki shaxsda demokratik qadriyatlar, inson huquq-lariga hurmat va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Shu sababli huquqiy ta’lim tizimi maktab, litsey, kollej va oliy ta’lim muassasalarida izchil amalga oshirilmoqda. Maktablarda “Huquq asoslari” fani o‘qitilishi yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda huquqiy ta’limni rivojlantirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Jumladan, 2019-yil 9-yanvarda qabul qilingan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi” aholining huquqiy savodxonligini oshirish va huquqiy ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi [3.B3-5].

Mazkur konsepsiyada quyidagi asosiy vazifalar belgilangan:

- ✓ fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish;
- ✓ yoshlarning huquqiy ongini shakllantirish;
- ✓ ta’lim tizimida huquqiy fanlarni takomillashtirish;
- ✓ ommaviy axborot vositalari orqali huquqiy targ‘ibotni kuchaytirish.

Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham huquqiy ta’limni rivojlantirish masalalari alohida e’tibor qaratilgan. Strategiyada yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash hamda fuqarolarning huquqiy savodxonligini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan [1.B.18-20].

Bundan tashqari, Adliya vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan “Huquqiy axborot portali”, “Advice.uz” platformasi va boshqa elektron xizmatlar aholining huquqiy bilimlarini oshirishga xizmat qilmoqda [4].

Yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish ta’lim va tarbiya jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayon quyidagi omillar orqali amalga oshiriladi:

1. Huquqiy bilimlarni tizimli o‘qitish -ta’lim muassasalarida huquqiy fanlarni o‘qitish yoshlarning huquqiy ongini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Huquq asoslari fanida Konstitutsiya, inson huquqlari, davlat tuzilishi va fuqarolarning huquq hamda majburiyatlari haqida bilimlar beriladi.

2. Tarbiyaviy ishlar orqali huquqiy ongni shakllantirish - huquqiy madaniyatni shakllantirish faqat dars jarayoni bilan cheklanib qolmaydi. Turli seminarlar, davra suhbatlari, huquqiy targ‘ibot tadbirlari yosh-larning huquqiy savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

3. Ommaviy axborot vositalari va internetning roli - bugungi kunda internet va raqamli texnologiyalar huquqiy ta’limni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Turli huquqiy portallar, onlayn platformalar va elektron darsliklar yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirishga yordam beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, huquqiy ta’lim tizimli tashkil etilgan jamiyatlarda yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar darajasi ancha past bo‘ladi [5.B.40-42].

Huquqiy ta’lim tizimida erishilgan yutuqlar bilan birga ayrim muammolar ham mavjud.

Birinchidan, ayrim yoshlar o‘rtasida huquqiy bilimlarning yetarli darajada emasligi kuzatilmoqda.

Ikkinchidan, huquqiy targ‘ibot ishlarining samaradorligini yanada oshirish zarur.

Uchinchidan, huquqiy ta’limda zamonaviy pedagogik texno-logiyalardan keng foydalanish talab etiladi.

Shu sababli huquqiy ta’lim tizimini takomillashtirish, interaktiv o‘qitish metodlarini qo‘llash hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi [6.B.55-57].

Hozirgi kunda litseyimizda uchta yo‘nalish bo‘yicha ta’lim beriladi. Shulardan biri ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishidir. Bu yo‘nalishda asosiy chuqurlashitirilgan fanlarhuquqshunoslik va ingliz tili fanlari bo‘yicha tahsil beramiz.

Biz, Huquqshunoslik fanlarini o`quvchilarga chuqur o‘rgatishimiz uchun, Fanlar asosan tizimli o`tiladi.

“Davlat va huquq asoslari” fani Iva II bosqichdahar semestr muntazam o‘tiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o`quvchilar chuqur o`rganishlari uchun fani I-II bosqichlarda yani II va III semestrlarda “Konstitutsiyaviy huquqqa kirish” fani va kelajakda bo‘lajak huquqshunos qanday talablarga javob berishi va huquq-

shunoslik sohasi naqadar ma’suliyatli soha ekanligini kasbga yo`naltirish maqsadida biz “Huquqiy ko‘nikmalar” fanni IV semestr o‘rgatamiz.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida huquqiy ta’lim va yoshlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish muhim strategik vazifalardan biridir. Huquqiy savodxonlikni oshirish jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu sababli ta’lim tizimida huquqiy fanlarni rivojlantirish, yoshlarning huquqiy ongini shakllantirish, huquqiy targ‘ibotni kuchaytirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etar ekan. Kelgusida huquqiy ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish va ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo‘lib qoladi deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”.
2. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2018.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi (2019-yil 9-yanvar).
4. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy sayti – www.adliya.uz.
5. Rustamboyev M.H. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari. – Toshkent, 2017.
6. Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2020.

O‘QUVCHIDA BILISHGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISHNING INTEGRATIV DIDAKTIK MODELLARI

Xadjiyev Umrbek Shonazarovich

Urganch RANCH texnologiya universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchida bilishga bo‘lgan ichki qiziqishni shakllantirish uchun integrativ didaktik modelning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Model ta’limning uch hal qiluvchi komponenti —

Mazmun, Metod va Muhitning sinergik birligini isbotlaydi. Asosiy e'tibor J.Bruner (Spiral O‘quv Dasturi), V.V.Davydov (Mazmunli Umumlashtirish), J.Piaget (Faoliyat Nazariyasi) va L.S.Vygotskiy (RYZ) kabi yetuk pedagoglarning qarashlariga qaratilgan. Ko‘rsatilishicha, faqat mazmunning chuqurligi, metodning faolligi va ijobiy muhitning mutanosibligi o‘quvchining o‘rganishni tashqi majburiyatdan ijodiy kashfiyotga aylantirishini ta’minlaydi. Maqola zamonaviy ta’lim amaliyotida (loyihaviy ta’lim, kashfiyot metodi) faol, o‘ziga ishongan va hayotiy muammolarni hal qila oladigan shaxsni shakllantirishning nazariy zaminini mustahkamlaydi.

Kalit so‘zlar: integrativ model, bilishga qiziqish, mazmun-metod-muhit, spiral o‘quv dasturi, faoliyat nazariyasi, rivojlanishning yaqin zonasi (ryz), sinergiya, kashfiyot metodi.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of an integrative didactic model designed to effectively cultivate intrinsic cognitive interest in students. The model proves the synergistic unity of the three critical components of education: Content, Method, and Environment. Special attention is given to the perspectives of prominent pedagogues and psychologists, including J. Bruner (Spiral Curriculum Theory), V. V. Davydov (Meaningful Generalization), J. Piaget (Activity Theory), and L. S. Vygotsky (ZPD). It is demonstrated that only the balance between the depth of content, the activeness of the method, and a positive environment ensures the transformation of learning from an external obligation into a creative discovery. The article strengthens the theoretical basis for fostering active, self-confident individuals capable of solving real-life problems within modern educational practices (project-based learning, discovery method).

Keywords: integrative model, cognitive interest, content-method-environment, spiral curriculum, zone of proximal development (zpd), synergy, activity theory, discovery method.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы интегративной дидактической модели, разработанной для эффективного формирования внутреннего познавательного интереса у учащихся. Модель доказывает синергетическое единство трех ключевых компонентов обучения: Содержания, Метода и Среды. Основное внимание уделяется взглядам выдающихся психологов и педагогов, таких как Дж. Брунер (Теория Спиральной Учебной Программы), В. В. Давыдов (Содержательное Обобщение), Ж. Пиаже (Теория Деятельности) и

Л. С. Выготский (ЗБР). Показано, что только гармония между глубиной содержания, активностью метода и позитивной средой позволяет трансформировать обучение из внешней обязанности в творческое открытие. Статья укрепляет теоретическую базу для формирования активной, уверенной в себе личности, способной решать жизненные проблемы в современной образовательной практике (проектное обучение, метод открытий).

Ключевые слова: интегративная модель, познавательный интерес, содержание-метод-среда, спиральная учебная программа, синергия, теория деятельности, зона ближайшего развития (збр), метод открытий.

Kirish. O‘quvchida bilishga bo‘lgan qiziqishni samarali shakllantirish uchun ishlab chiqilgan integrativ model o‘zining metodologik va didaktik asoslarini bevosita zamonaviy psixologik-pedagogik nazariyalardan oladi. Bu modelning markazida bilim olishni tashqi majburiyatdan ichki ehtiyoj darajasiga ko‘tarish maqsadi turadi. Model ayniqsa bilish faoliyatini rag‘batlantiruvchi uchta asosiy komponent – mazmun (nima o‘rganiladi), metod (qanday o‘rganiladi) va muhit (qayerda va qanday sharoitda o‘rganiladi)ning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu uch omilning bir-birini to‘ldirib, sinergik ta’sir ko‘rsatishi ta’lim samaradorligining kaliti hisoblanadi.

Mazkur integrativ yondashuv zamonaviy didaktik amaliyot uchun fundamental zamin yaratadi, chunki u bilim berishni shunchaki ma’lumotni uzatish sifatida emas, balki rivojlantiruvchi faoliyat sifatida ko‘radi. Ushbu nazariyalar (jumladan, kognitiv, konstruktivistik va sotsial-madaniy yondashuvlar) o‘quvchining kognitiv rivojlanishi, ijtimoiy tajribasi va shaxsiy faolligini o‘rganish motivatsiyasining asosiy manbalari deb belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, mazmunning chuqurligi (Davydov), metodning faolligi (Piaget) va ijtimoiy muhitning rag‘batlantirishi (Vygotskiy/Dewey) bir-biridan ajralmas holda, o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini va kompetentligini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu qismning asosiy maqsadi — yetuk pedagog va psixologlarning bilish motivatsiyasiga oid fundamental qarashlari tahlil qilinib, ularning g‘oyalari integrativ modelda qanday birlashganini ko‘rsatishdir. Tahlil, ushbu klassik nazariyalar zamonaviy ta’lim amaliyotiga (masalan, loyihaviy ta’lim, kashfiyot metodi, muammoli ta’lim) qanday kuchli ta’sir ko‘rsatayotganini ochib beradi. Natijada, o‘quvchining shunchaki bilimlarni o‘zlashtirishi emas, balki uni hayotiy muammolarni

hal qilishda qo‘llay olishi uchun zarur bo‘lgan ichki qiziqish va ijodiy salohiyat shakllantirilishining nazariy asoslari mustahkamlanadi.

Asosiy qism. Ta’lim mazmunini tuzishning ahamiyatini amerikalik psixolog Jerome Brunerning Spiral O‘quv Dasturi nazariyasi chuqur asoslaydi. U bilimlarni doimiy ravishda kengaytirish va yangilash orqali o‘quvchining qiziqishini uzoq muddat saqlashga yordam beradi. Bruner bu borada ta’kidlaydi: "Men rivojlantirishga harakat qiladigan asosiy tezis shundan iboratki, har qanday predmetni rivojlanishning istalgan bosqichidagi har qanday bolaga intellektual jihatdan halol shaklda samarali o‘rgatish mumkin."[60] Brunerning bu iqtibosi o‘quv materiali murakkabligi sababli emas, balki taqdim etish usuli noto‘g‘ri bo‘lgani uchun qiziqarsiz bo‘lib qolishini bildiradi. Agar mazmun bolaning kognitiv darajasiga mos ravishda (halol shaklda) tuzilsa, u har qanday mavzuni o‘rganishga qiziqadi. Uning g‘oyasi, o‘quvchiga bilimning asosiy strukturasini yoshiga mos ravishda ilg‘ab olish imkonini berishdan iboratdir. Spiral o‘quv dasturi, shuningdek, bilimlarning izchilligi va bog‘liqligini ta’minlab, o‘quvchining ishtiyoqini doimiy ushlab turadi.

Bruner g‘oyasini to‘ldiruvchi nazariya V.V.Davydovning Mazmunli Umumlashtirish kontseptsiyasidir. Davydovga ko‘ra, bilim faqat yuzaki faktlarni o‘zlashtirishdan iborat bo‘lmay, balki obyektlar va hodisalarning ichki, muhim aloqalari va umumiy qonuniyatlarini tushunishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Davydov shuni uqtiradi: "O‘rganishning haqiqiy predmeti bu talabaning ilmiy bilimlarning fundamental asoslariga yo‘naltirilgan faoliyatidir."[61] Uning fikriga ko‘ra, ta’limning asosiy predmeti bilimlar to‘plami emas, balki o‘quvchining ilmiy bilimlarning mohiyatini o‘rganishga qaratilgan faoliyatidir. Faqatgina chuqur, mazmunli umumlashtirishga asoslangan ta’limgina o‘quvchida ichki kognitiv ehtiyojni uyg‘ota oladi. Shuning uchun, ta’lim metodikasi nazariy bilimlarni amaliy tadqiqotlar orqali mohiyatni ochishga yo‘naltirishi shart. Bilimning chuqur tizimliligini ta’minlash orqali o‘quvchi shunchaki qiziqishdan ilmiy-tadqiqot motivatsiyasi darajasiga ko‘tariladi.

Bilish jarayoniga oid eng muhim qarashlardan biri Jean Piagetning Faoliyat Nazariyasi hisoblanadi, u faol metodlarning zarurligini isbotlaydi. Piagetga ko‘ra, bola bilimni passiv qabul qilmaydi, balki uni o‘z harakatlari, tajribasi va faoliyati orqali qayta quradi (akkkomodatsiya).

[60] Bruner J. The process of education. – Cambridge. Harvard University Press. 1977. p. 33.

[61] Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. Опыт теоретического и экспериментального психологического исследования. – Москваю Педагогика. 1986. С. 110

Piaget ta’kidlaganidek: "Maktabdagi ta’limning asosiy maqsadi, boshqa avlodlar qilgan ishlarni shunchaki takrorlaydigan emas, balki yangi narsalarni qila oladigan erkaklar va ayollarni yaratish bo‘lishi kerak."[62] Bu iqtibos o‘qitishning asosiy maqsadi kashfiyotchi shaxsni yetishtirish ekanini ta’kidlaydi. Piaget bilimni tayyor holda berishga emas, balki o‘quvchining o‘zi harakat qilishiga – muammoni qo‘yish, tajriba o‘tkazish va xulosa chiqarishga yo‘naltirish kerakligini aytadi. Faqat shunday faol ishtirok etish orqali bilishga bo‘lgan ichki qiziqish uyg‘onadi va ijodkorlik rivojlanadi.

John Deweyning Pragmatizmga asoslangan qarashlari esa bilimning hayotiyligi va amaliy aloqadorligini ta’minlash zaruriyatini ta’kidlaydi. Dewey ta’limni real tajribaga asoslanishi kerakligini uqtiradi. Dewey o‘zining mashhur asarida yozadi: "Men ishonamanki, yagona haqiqiy ta’lim faqat bola o‘zini topgan ijtimoiy vaziyatlarning talablari orqali uning kuch-qudratini rag‘batlantirish orqali keladi."[63] Dewey ta’limning haqiqiy manbai shaxsning ijtimoiy tajribasi ekanligini ta’kidlaydi. Ta’lim mazmuni va metodlari izolyatsiyalangan holda emas, balki real ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqishi shart. Agar o‘rganilayotgan bilim real hayotiy yoki ijtimoiy muammoni hal qilish vositasi sifatida taqdim etilsa, o‘quvchida "bilish zaruriyati" uyg‘onadi, bu esa tashqi yukni ichki istakka aylantirishga yordam beradi.

Ta’lim muhitining hissiy fonini yaratishda L. S. Vygotskiyning Rivojlanishning Yaqin Zonasi (RYZ) nazariyasi katta ahamiyatga ega. RYZ o‘quvchi shaxsiy yordamisiz erisha olmaydigan, lekin o‘qituvchi bilan hamkorlikda o‘zlashtira oladigan optimal murakkablik darajasini belgilaydi. Vygotskiy ta’lim va rivojlanish haqida shunday degan: "O‘rganish shunchaki fikrlash qobiliyatini egallashdan ko‘ra ko‘proq narsadir; bu turli narsalar haqida fikrlash uchun son-sanoqsiz ixtisoslashgan qobiliyatlarni egallashdir."[64] Vygotskiy ta’limni shunchaki ma’lumot to‘plash emas, balki kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish deb hisoblaydi. RYZda muvaffaqiyat hissiyoti kafolatlangani uchun, u ijobiy emotsional fonni ta’minlaydi va o‘quvchining ichki intellektual faolligini rag‘batlantirish orqali bilishga bo‘lgan ishtiyoqni maksimal darajada oshiradi.

[62] Piaget J. To understand is to invent: the future of education. – New York. Penguin Books. 1976. P. 20
[63] Dewey J. My Pedagogic Creed. The School Journal, Volume LIV, Number 3 (January 16, 1897), p. 77.
[64] Vygotskiy L.S. Mind in society. – Cambridge. Harvard University Press. 1978. P. 116

Ta’lim faoliyatining samaradorligi va bilish motivatsiyasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni rus psixologi D. B. Elkoninning tadqiqotlari ham tasdiqlaydi. Uning ta’lim faoliyati nazariyasi mazmun va metodlarning yagonaligini quvvatlaydi. Elkonin bu borada shunday yozadi: "O‘quv faoliyati faqatgina bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga qaratilgan emas, balki, eng avvalo, o‘quvchining o‘zini o‘zgartirishga yo‘naltirilgan faoliyatdir."[65] Elkonin bu bilan haqiqiy bilish faoliyati o‘quvchining o‘zida shaxsiy o‘zgarishni keltirib chiqarishi kerakligini, bu jarayon esa ichki motivatsiyasiz mumkin emasligini uqtiradi. Bilishga qiziqish o‘quvchining o‘z faoliyatini ongli ravishda tashkil etishi va uni rivojlantirishga intilishi bilan bevosita bog‘liq. Bu esa mazmunning chuqurligi va metodlarning faolligini birlashtirish orqali amalga oshadi.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim nazariyasining markazida turgan g'oya shuki, bilishga bo‘lgan chinakam qiziqish ta'lim jarayonining alohida qismlari orqali emas, balki integrativ yondashuv orqali shakllanadi. Bu yondashuv ta'limning uch asosiy ustuni – Mazmun, Metod va Muhit – o'rtasidagi uzviy, o'zaro kuchaytiruvchi munosabatni talab qiladi. Ushbu uch omilning bir-birini to‘ldirib ishlashi o‘quvchining passiv tinglovchidan faol kashfiyotchi shaxsga aylanishi uchun zamin yaratadi.

Jerome Brunerning "Kashfiyot qilishga rag‘batlantirish, shaxsning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashdir"[66] degan falsafasi aynan shu integratsiyaning yakuniy maqsadini belgilaydi. Ta'limning maqsadi faqat bilim uzatish emas, balki o‘quvchining mustaqil o'rganish qobiliyatiga ishonch hissini shakllantirishdir. Bu ishonch esa kashfiyot usuli (faol metodlar) orqali erishilgan har bir muvaffaqiyat, hatto eng kichiklari ham, ijobiy emotsional zamin (qo'llab-quvvatlovchi muhit)da mustahkamlanganida mustahkamlanib boradi.

Metodning ahamiyati shundaki, u o'quvchiga axborotni tayyor holda qabul qilish o'rniga, uni o'zi qurish imkoniyatini beradi. Amaliy loyihalar, muammoli vaziyatlarni yechish va izlanish orqali erishilgan natija, shaxsiy g'alaba sifatida qabul qilinadi. Bu faoliyat turini Mazmunning dolzarbligi qo'llab-quvvatlaydi; ya'ni o'rganilayotgan narsalar hayotiy ahamiyatga ega bo'lsa, o'quvchi ushbu kashfiyot jarayoniga chuqurroq sho'ng'iydi, chunki u natijaning o'ziga bog'liq ekanligini his qiladi.

[65] Эльконин Д.Б. Психология обучения младшего школьника. – Москва. Просвещение. 1974. 65 с.
[66] Bruner J. The relevance of education. – New York. W.W.Norton & Company. 1971. p. 113

Biroq, eng muhim sinergik omil bu Muhitdir. Hatto eng mukammal metod va qiziqarli mazmun ham, salbiy yoki tanqidiy muhitda o'z kuchini yo'qotadi. Xatosiz o'rganish bo'lmaydi, shuning uchun sinf xavfsiz joy bo'lishi kerak. Faqat xavfsiz muhitda o'quvchi xato qilishdan qo'rqmaydi, balki uni o'rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qiladi. Bu ijobiy emotsional fond o'quvchining bilish faoliyatiga bo'lgan ichki motivatsiyasini doimiy ravishda oshirishga xizmat qiladi.

Umuman integrativ didaktik modelni alohida elementlarga bo'lib qarash noto'g'ri. U uch omilning o'zaro mutanosib, sinergik birligidir. Faqat shunday yondashuv orqaligina ta'lim jarayoni o‘quvchilar uchun shunchaki majburiyat va topshiriqlarni bajarishdan, ichki ijodiy ehtiyoj va doimiy kashfiyotga aylanadi. Bu esa o'z-o'zidan mustaqil, ishonchli va hayoti davomida o'rganishga tayyor shaxslarni yetishtirishning asosiy kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bruner J. The process of education. – Cambridge. Harvard University Press. 1977. p. 97.
2. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. Опыт теоретического и экспериментального психологического исследования. – Москваю Педагогика. 1986. с. 240.
3. Piaget J. To understand is to invent: the future of education. – New York. Penguin Books. 1976. P. 148
4. Dewey J. My Pedagogic Creed. - The School Journal. Volume LIV. Number 3 (January 16, 1897). pages 77-80.
5. Vygotskiy L.S. Mind in society. – Cambridge. Harvard University Press. 1978. P. 170
6. Эльконин Д.Б. Психология обучения младшего школьника. – Москва. Просвещение. 1974. – 328 с.
7. Bruner J. The relevance of education. – New York. W.W.Norton & Company. 1971. p. 196

O‘ZBEK TILIDA KOSMONIMLARNING LINGVOSTILISTIK XUSUSIYATLARI TAHLILI

Berdimuratova Roza Rahmonovna
UrDPI akademik litesyikatta o‘qituvchi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilida kosmonimlarning lingvostilistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Kosmonimlar — osmon jismlari nomlari sifatida til tizimida alohida qatlamni tashkil etib, ular-

ning semantik, stilistik va funksional jihatlari o‘rganiladi. Maqolada kosmonimlarning badiiy matnlardagi qo‘llanishi, ularning obrazlilik yaratishdagi o‘rni va milliy tafakkur bilan bog‘liqligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kosmonim, lingvostilistika, semantika, metafora, stilistik vosita, obrazlilik, o‘zbek tili, badiiy matn.

Tilshunoslikda leksik birliklarning turli qatlamlari mavjud bo‘lib, ulardan biri kosmonimlardir. Kosmonimlar — osmon jismlari (quyosh, oy, yulduzlar, sayyoralar va boshqalar) nomlarini ifodalovchi leksik birliklar bo‘lib, ular nafaqat ilmiy, balki badiiy va publitsistik nutqda ham keng qo‘llaniladi.

O‘zbek tilida kosmonimlar qadimiy ildizlarga ega bo‘lib, ular xalqning dunyoqarashi, mifologiyasi va madaniyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, badiiy adabiyotlarda kosmonimlar orqali chuqur ma’no, obrazlilik va estetik ta’sir yaratiladi. Tilshunoslikda leksik birliklarning muayyan guruhlari mavjud bo‘lib, ular inson tafakkuri va borliqni idrok etish jarayoni bilan bevosita bog‘liqdir. Shunday birliklardan biri kosmonimlardir. Kosmonim atamasi qadimgi yunon tilidagi “kosmos” — “olam, koinot” va “onoma” — “nom” so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan bo‘lib, umumiy ma’noda osmon jismlarining nomlarini anglatadi. Ushbu termin lingvistika, ayniqsa onomastika sohasida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u koinot obyektlarini nomlash tizimini ifodalaydi.

O‘zbek tilida kosmonimlar qadimdan shakllangan va xalqning tarixiy-madaniy tajribasi bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan. Bu birliklar dastlab insoniyatning osmon hodisalariga bo‘lgan qiziqishi, ularni kuzatishi va tushuntirishga bo‘lgan ehtiyoji natijasida yuzaga kelgan. Masalan, “Quyosh”, “Oy”, “Yulduz” kabi kosmonimlar nafaqat ilmiy termin sifatida, balki kundalik nutqda ham faol qo‘llaniladi. Shu bilan birga, “Zuhra”, “Mirrix”, “Mushtariy” kabi sayyora nomlari ham o‘zbek tilining kosmonimik qatlamini boyitadi.

Kosmonimlar til tizimida birinchi navbatda nominativ funksiyani bajaradi, ya’ni ular borliqdagi muayyan obyektlarni nomlash vazifasini ado etadi. Biroq bu bilan cheklanib qolmay, ular tilning stilistik imkoniyatlarini kengaytirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, badiiy nutqda kosmonimlar orqali obrazli ifodalar, ramziy ma’nolar va emotsional ta’sir kuchaytiriladi. Shu jihatdan kosmonimlar nafaqat lingvistik, balki estetik birliklar sifatida ham ahamiyat kasb etadi [1].

Kosmonimlarning eng muhim jihatlaridan biri ularning semantik ko‘p qirrali xususiyatga ega ekanligidir. Har qanday kosmonim o‘zining asosiy, ya’ni denotativ ma’nosiga ega bo‘lib, u real osmon jismini

bildiradi. Masalan, “Quyosh” — Yerga yorug‘lik va issiqlik beruvchi yulduz, “Oy” — Yerning tabiiy yo‘ldoshi, “Yulduz” esa uzoq koinot jismlarini anglatadi. Biroq kosmonimlar faqat shu asosiy ma’no bilan cheklanib qolmaydi. Ular ko‘pincha ko‘chma, ya’ni konnotativ ma’noda ham qo‘llaniladi. Bu holatda kosmonimlar turli obrazlar, hissiyotlar va sifatlarni ifodalash vositasiga aylanadi. Masalan, “oydek yuz” iborasi insonning nihoyatda go‘zal, nurli chehrasini ifodalaydi. Bu yerda “oy” so‘zi o‘zining haqiqiy ma’nosidan uzoqlashib, go‘zallik timsoliga aylangan.

Shuningdek, “yulduzdek porlash” ifodasi ham insonning muvaffaqiyati, mashhurligi yoki iste’dodini ta’kidlash uchun ishlatiladi. Bu yerda “yulduz” yorqinlik, e’tibor markazida bo‘lish kabi ijobiy konnotatsiyalarni o‘zida mujassam etadi. Demak, kosmonimlar semantik jihatdan kengayish xususiyatiga ega bo‘lib, ular turli nutqiy vaziyatlarda yangi ma’no qirralarini kasb etadi.

Kosmonimlarning semantik xususiyatlari ularning kontekstga bog‘liq holda turlicha talqin qilinishida ham namoyon bo‘ladi. Bir xil kosmonim turli matnlarda turlicha ma’no yukini olishi mumkin. Bu esa ularning til tizimidagi dinamik va moslashuvchan birliklar ekanligini ko‘rsatadi. Kosmonimlar lingvostilistik jihatdan juda boy va rang-barang imkoniyatlarga ega. Ular nutqda turli stilistik vosita sifatida qo‘llanib, matnning ta’sirchanligini oshiradi. Quyida kosmonimlarning asosiy lingvostilistik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kosmonimlarning eng keng tarqalgan stilistik funksiyalaridan biri metafora yaratishdir. Metafora — bu bir obyekt yoki hodisani boshqa bir obyekt orqali obrazli ifodalash vositasidir. Kosmonimlar bu jarayonda juda qulay material hisoblanadi, chunki ular yorqin, ko‘zga tashlanadigan va umumiy tasavvurga ega obyektlarni bildiradi. Masalan, “U sinfning yulduzi edi” gapida “yulduz” so‘zi asl ma’nosida emas, balki ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan. Bu yerda u iste’dodli, ajralib turadigan shaxsni anglatadi. Bunday metaforalar nutqqa obrazlilik, jonlilik va ta’sirchanlik bag‘ishlaydi.

Metaforik qo‘llanish orqali kosmonimlar inson xarakterini, holatini yoki ijtimoiy mavqeini ifodalashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa ularning lingvostilistik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Kosmonimlar epitet sifatida ham keng qo‘llaniladi. Epitet — bu predmet yoki hodisaning muayyan xususiyatini ta’kidlash uchun ishlatiladigan badiiy aniqlovchidir. Kosmonimlar epitet sifatida qo‘llanganda, ular tasvirni yanada yorqin va ifodali qiladi. Masalan, “oy yuzli qiz” iborasida “oy” epitet vazifasini bajarib, qizning go‘zalligini

yanada kuchliroq tasvirlaydi. Xuddi shuningdek, “quyoshdek mehribon ona” ifodasida “quyosh” so‘zi mehr, iliqlik va g‘amxo‘rlik ramzi sifatida ishlatilgan.

Bunday epitetlar orqali nafaqat tashqi ko‘rinish, balki ichki sifatlar ham obrazli tarzda ifodalanadi. Natijada nutq yanada boy, estetik jihatdan mukammal va ta’sirchan bo‘ladi. Kosmonimlarning yana bir muhim xususiyati — ularning ramziy (simvolik) ma’no yuklay olishidir. Til va madaniyatda ayrim kosmonimlar muayyan tushunchalar bilan mustahkam bog‘langan bo‘ladi. Masalan, “Quyosh” ko‘pincha hayot, energiya, umid va yorug‘lik timsoli sifatida talqin qilinadi. “Oy” esa go‘zallik, sokinlik, romantika va sirlilik bilan bog‘lanadi. “Yulduz” esa orzular, maqsadlar va yo‘l ko‘rsatish ramzi sifatida qaraladi. Bu ramziy ma’nolar kosmonimlarning badiiy matnlarda keng qo‘llanishiga sabab bo‘ladi. Ular orqali muallif o‘z fikrini bevosita emas, balki obrazli va chuqur ma’no orqali ifodalaydi. Bu esa matnning estetik qiymatini oshiradi.

O‘zbek badiiy adabiyotida kosmonimlar muhim stilistik vositalardan biri sifatida faol qo‘llaniladi. Ular asosan she’riyat, nasr va publitsistik matnlarda uchraydi. Kosmonimlar orqali muallif turli badiiy maqsadlarni amalga oshiradi.

Birinchidan, kosmonimlar obraz yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, qahramonning go‘zalligini “oy” orqali, uning kuchi va energiyasini “quyosh” orqali ifodalash mumkin. Bu esa o‘quvchida aniq va jonli tasavvur hosil qiladi.

Ikkinchidan, kosmonimlar qahramon xarakterini ochishda xizmat qiladi. Masalan, “yulduz” obrazidan foydalanish orqali qahramonning iste’dodi, maqsadga intilishi yoki jamiyatdagi o‘rni ko‘rsatiladi.

Uchinchidan, kosmonimlar matnning emotsional-ekspressiv ta’-sirini oshiradi. Ular orqali muallif o‘z hissiyotlarini yanada chuqurroq va ta’sirchanroq ifodalaydi. Masalan, “Oy yuzingni ko‘rsam edi, tunlarim yorishardi” misrasida “oy” sevgilining go‘zalligini ifodalash bilan birga, muallifning sog‘inch va muhabbat tuyg‘ularini ham aks ettiradi.

Shuningdek, kosmonimlar matnning poetikligini oshiradi, unga musiqiylik va ritmik ohang bag‘ishlaydi. Bu esa o‘quvchiga estetik zavq beradi [4].

O‘zbek tilida kosmonimlar ko‘p qirrali lingvistik birliklar bo‘lib, ular nafaqat nominativ, balki semantik va stilistik funksiyalarni ham bajaradi. Ular orqali tilning obrazlilik, ifodaviylik va emotsionallik imkoniyatlari kengayadi. Kosmonimlarning denotativ va konnotativ ma’nolari ularning semantik boyligini ko‘rsatadi. Metafora, epitet va

simvol sifatida qo‘llanishi esa ularning lingvostilistik ahamiyatini yanada oshiradi. Ayniqsa, badiiy matnlarda kosmonimlar muhim estetik vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bois kosmonimlarni o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanadi. Kosmonimlar til tizimida nafaqat nominativ birlik sifatida, balki xalqning tarixiy dunyoqarashi, ruhiyati va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim semantik vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, o‘zbek xalqining qadimiy tasavvurlari, mifologik qarashlari va og‘zaki ijod namunalari kosmonimlar bilan uzviy bog‘langan. Bu birliklar orqali ajdodlarimiz borliqni qanday idrok etgani, tabiat hodisalariga qanday ma’no yuklagani yaqqol ko‘zga tashlanadi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida quyosh va oy alohida e’tibor bilan tasvirlanadi. Quyosh ko‘pincha hayot manbai, yorug‘lik va iliqlik ramzi sifatida talqin etilib, u tiriklik, baraka va ezgulik timsoli sifatida qadrlanadi. Oy esa aksariyat hollarda go‘zallik, latofat va sokinlik ifodasi sifatida qo‘llanadi. Xususan, xalq qo‘shiqlari, dostonlar va ertaklarda “oy yuzli qiz” yoki “oydek jamol” kabi iboralar orqali insonning tashqi go‘zalligi va nozikligi ifodalanadi. Bu esa oy kosmonimining estetik va badiiy imkoniyatlari nihoyatda keng ekanligini ko‘rsatadi.

Yulduzlar bilan bog‘liq tasavvurlar esa ko‘proq inson taqdiri, qismati va orzu-umidlari bilan aloqador holda talqin qilinadi. Xalq orasida “yulduzi porladi”, “yulduzi yonmadi” kabi iboralar keng tarqalgan bo‘lib, ular insonning omadli yoki omadsiz bo‘lishini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu holat yulduz kosmonimining ramziy ma’noda inson hayoti bilan bog‘langanligini, ya’ni uning nafaqat fizik hodisa, balki ma’naviy tushuncha sifatida ham qabul qilinishini ko‘rsatadi. Shu jihatdan qaraganda, kosmonimlar o‘zbek xalqining milliy tafakkurini, dunyoni idrok etish usulini va qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. O‘zbek tilidagi kosmonimlar lingvostilistik jihatdan nihoyatda boy va ko‘p funksiyali leksik birliklar sirasiga kiradi. Ular tilning asosiy nominativ vazifasini bajarish bilan bir qatorda, uning estetik va ekspressiv imkoniyatlarini ham sezilarli darajada kengaytiradi [5].

Xulosa qilib aytganda, kosmonimlar o‘zbek tilining boyligini, uning ifoda imkoniyatlarini va xalqning chuqur ma’naviy merosini aks ettiruvchi muhim lingvistik hodisa sifatida alohida e’tiborga loyiqdir. Ular orqali nafaqat borliq tasvirlanadi, balki insonning ichki kechinmalari, estetik qarashlari va ruhiy holati ham ifodalanadi. Demak,

kosmonimlar til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni namoyon etuvchi muhim vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 680 b.
2. Hojiyev A. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991. – 256 b.
3. Nurmonov A. Lingvistika nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2012. – 280 b.
4. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013. – 240 b.
Abdullayev Y. Stilistika asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – 220 b

TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIYAT

Irisboyeva Xotira O‘tbosarovna
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent “Temurbeklar maktabi” HAL
ona tili va adabiyoti fani bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davridagi ilm-fan, madaniyat, ijodkorlar tomonidan yaratilgan ijod mahsullari, sohibqironning ilm-fan yo‘lida olib brogan faoliyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: renessans, madrasa, ilm, rasadxona, tabib, munajjim,fiqh, “Tuzuk”, o‘nlik.

Аннотация: В данной статье будут рассмотрены наука, культура, творческие работы художников эпохи Амира Тимура и тимуридов, а также пойдет речь о деятельности полководца в сфере науки

Ключевые слова: Ренессанс, медресе, наука, обсерватория, врач, астролог, юриспруденция, «Тузук», десятичная система.

Amir Temur davlatni aql-zakovot va huquqiy asos bilan idora etgan. Uning “... davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim”, degan so‘zlari buning yorqin dalilidir.

Tarixda eng katta va buyuk imperiyalardan biri Temuriylar imperiyasi asoschisi buyuk bobokalonimiz Amir Temur nafaqat harbiy sarkarda, balki bunyodkor, adolatli shaxs sifatida ham tarixda chuqur iz qoldirgan bo‘lib, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomizning: “Adolat har bir ishda hamrohimiz va

dasturimiz bo‘lsin” degan chuqur ma‘noli so‘zlari har birimiz uchun hayotiy e‘tiqodga aylanishi zarur” [1,B.56] degan so‘zlari ham buyuk Sohibqironnig har ishda adolatli shaxs sifatida kelajak avlodga faxriy o‘rnak bo‘la olishining yorqin ifodasidir.

Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda ta’limga e’tibor, ilm- fanga homiylik davlat siyosatiga aylandi. Barcha shaharlarda oliy ta’lim dargohlari madrasalar barpo etilib, o‘z davrining yetuk olim-u ulamolari tolibi ilmlarga dars berishga jalb etildi. Amir Temur va temuriylar davri qadim Turon o‘lkasida maorif va ta’lim tizimi, ilm-fan yuksak rivojlangan davr sifatida ahamiyatlidir. Temuriylar davri renessansi rivoji bevosita Amir Temur asos solgan ulkan saltanatda adolatli boshqaruv tizimi barpo etilganligida katta o‘rin tutgan. Qudratli saltanat va ma’rifatli jamiyat barpo etishda qadim turkiy davlatchilik an’analari va islomiy shariatga tayanib ish tutgan Amir Temur har qanday taraqqiyotning asosi sifatli ta’lim tizimi ekanligini chuqur anglagan edi. Shu sababli Sohibqiron birinchi galda ta’lim va tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ilmli, ma’rifati shaxslarning jamiyatdagi mavqeyini ko‘tarish yo‘lidan bordi. Ulkan saltanatning barcha shahar va yirik qishloqlarida ko‘plab boshlang‘ich maktablar barpo etildi. Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, bu davr-da o‘g‘il bola 4 yil, 4 oy va 4 kunlik bo‘lganda maktabga berish an’-anasi amalda bo‘lib, boshlang‘ich ta’lim ulkan saltanatning barcha madaniy o‘lkalarini qamrab olgan edi.

Temuriylar renessansi Osiyo va islom tarixida XIV–XV asrlarni qamrab oladi. Bu davrda temuriylar ilm-fan, madaniyat rivojlanishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratdilar. Samarqand shahri qayta qurildi va ilm-ma’rifat markaziga aylandi. Hirot Sharqning eng yirik ilm-fan va madaniyat markazlaridan biriga aylandi. Hunarmandchilik san’at darajasiga ko‘tarildi.

Shohruh Mirzo va rafiqasi Gavharshodbegim, Mirzo Ulug‘bek, Sulton Husayn Mirzolar tomonidan o‘quv dargohlari – madrasalar qurildi. Ularning samarali faoliyat olib borishi uchun mablag‘lar ajratildi. Madrasalarda diniy bilimlardan tashqari turli fan ixtisosliklari bo‘yicha ta’lim berish yo‘lga qo‘yildi. Amir Temur buyrug‘i bilan madrasalarda diniy ilmlar (tafsir, hadisshunoslik, fiqh va boshqalar) bilan bir qatorda dunyoviy ilmlar (handasa, aljabr/algebra, riyoziyot/matematika, mantiq, ilmi nujum/astronomiya, adabiyot, tarix, xattotlik va boshqalar) o‘qitilishi keng yo‘lga qo‘yildi.

Oliy ta’lim dargohlari bo‘lgan madrasalar Amir Temur va temuriylar davrida yirik ilmiy markazlar, ma’rifat o‘choqlari vazifasini sharaf bilan bajardi.

Shaharlardagi har bir madrasaga vaqf yer-mulklar ajratilib, ulardan keladigan daromadlar mudarris va xizmatchilar maoshi, kutubxona ta’minoti, ta’mirlash va boshqa ishlar uchun yetarli bo‘lgan.

Rasadxona olimlari Ulug‘bek boshchiligida osmon sferasidagi koordinatalar tizimlari orasidagi o‘zgarishga oid, masalan, ekliptik koordinatalar tizimidan ekvatorial koordinatalar tizimiga o‘tish kabi jadvallarni ishlab chiqdi.

Bu davrda ta’lim uch bosqichni o‘z ichiga olgan. Birinchisi, quyi bosqich, o‘qish muddati ikki yilni tashkil qilgan. Ikkinchisi, o‘rta bosqich, o‘qish muddati uch yil bo‘lgan. Uchinchisi, yuqori bosqich, o‘qish davomiyligi uch yil bo‘lgan. Ta’lim davomiyligi jami o‘rtacha 8 yilni tashkil qilgan.

Ma’ruzalar yetmish nafar talabadan iborat katta guruhlarga o‘qilgan, amaliy darslar esa o‘n – o‘n besh nafar talaba ishtirokida o‘tkazilgan. Bu uslub keyingi asrlarda ham saqlanib qolgan.

Ulug‘bek madrasalarida arab tili (fonetika, morofologiya, sintaksis), Qur’oni karim, ritorika, hadis, mantiq, tafsir, fiqh, metafizika, matematika (arifmetika, algebra), tibbiyot (gigiyena), geografiya, tarix, adabiyot kabi fanlar o‘qitilgan. Amir Temur davridagidek ilm-fanni qo‘llab-quvvatlash XV–XVI asrlarda ham davom etgan.

Bu davrda tibbiyot fani shu qadar yuksak darajaga ko‘tarilgan ediki, hatto o‘lgan odamning jasadini balzamlash usulini ham bilganlar.

Amir Temur o‘z zamonasidagi ijtimoiy guruhlarni o‘n ikki toifaga bo‘lgan. Shular ichida hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislarni sakkizinchi toifaga kiritgan. Ularni “saltanat korxonasiga rivoj beruvchilar” deb atagan. Sohibqiron tabiblar haqida shunday deydi: “Hakimlar va tabiblar bilan ittifoqda bemorlarni davolatar edim”.

Mirzo Ulug‘bek davrida tabiblar orasida mohir jarrohlar ham bo‘lgan. Ulardan biri Tojiddin Hakim edi. Bu jarroh ancha murakkab operatsiyalarni ham qilgan. Masalan, ko‘z kataraktasini jarrohlik yo‘li bilan muvaffaqiyatli davolagan.

Amir Temur davrida ilm-fanning taraqqiy etishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar haqida gapirar ekanmiz, birinchi navbatda, Sohibqironning mamlakatda qat’iy tartib o‘rnatishga erishganini, har bir ishni, shu jumladan, ilm va ta’lim ishlarini belgilangan qonun va qoidalarga muvofiq amalga oshirganini, bu qonun-qoidalarni esa saltanatdagi kishilarning turli xil toifalari bilan bog‘lab tuzganini ta’kidlab o‘tish

zarur. Bu haqda “Temur tuzuklari”da quyidagi so‘zlar bitilgan: “Saltanatim martabasiga zeb-u ziynat berdim. Saltanatimni o‘n ikki toifaga bo‘lib, ularga tayangan holda ish yurgizdim. Saltanatim qonun-qoidalarini ham ana shu o‘n ikki toifaga bog‘lab tuzdim” [2, B.64]. Amir Temurning ulamo, fuzalo, fozillar toifasiga (birinchi toifa) alohida e’tibor bergani, ularni o‘ziga yaqinlashtirishga harakat qilgani, davlat miqyosida amalga oshiriladigan tadbirlarni belgilash, muhim qarorlar qabul qilishdan avval kengashlar chaqirib, ular bilan maslahatlashgani Sohibqironning ilm-fan ahliga katta ishonch bildirganligidan dalolat beradi. Temur kengashib, maslahatlashib o‘tkazilgan tadbir sanoqsiz lashkar ojizlik qilgan kuchni yengishga imkon beradi, deb hisoblagan. Amir Temurning ilm-fan ahliga bo‘lgan munosabati davlatni idora qilish, saltanat saroyida o‘tirish, maoshlar tayinlash va shu kabilar tuzuklarda alohida qayd qilingan. Xususan, u olimlar, donishmandlarga saroyda o‘tkaziladigan majlislarda o‘zining o‘ng tarafidan ul kishilar uchun mo‘ljallangan tomonidan o‘rin bergan. Umrining ko‘p qismini harbiy yurishlarda o‘tkazgan Amir Temur safarlarda ham olimlar bilan hamsuhbat bo‘lar edi. Jumladan, Damashq muhosara qilingan paytda, mashhur arab tarixchisi va mutafakkiri ibn Xaldun (1332 – 1406) bilan suhbatda bo‘lgan. Uchrashuv chog‘ida mashhur tarixchi Sohibqironga Qur’oni Karimning go‘zal bir nusxasini hadya qiladi va Amir Temur o‘rnidan turib, muqaddas kitobni o‘pib, boshiga qo‘ygan [4, B.226-228]. Xuddi ana shunday hurmat va ehtiromni Sohibqiron o‘zi zabt etgan mamlakatlardagi olim-u fuzalo, dono kishilarga nisbatan ham ko‘rsatgan. “Qaysi mamlakatni zabt etgan bo‘lsam, – deb ta’kidlaydi bu haqda Amir Temur, – o‘sha yerning obro‘-e’tiborli kishilarini aziz tutib, sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixlariga ta’zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga suyurg‘ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim”. [2.B.45] Temur davrida ilm-fanning qaytadan rivoj topishiga ta’sir ko‘rsatgan omillardan yana biri qo‘shni mamlakatlar, ayniqsa Xitoy [2, B.32], Hindiston bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi bo‘ldi. Turli mamlakatlardagi ilmiy markazlar, olimlar o‘rtasida aloqalarning o‘rnatilishi, xalqlarning bir-birining tarixiy madaniyatini o‘rganishi, ilm-fan sohasidagi erishgan natijalari bilan tanishishi ilmiy bilimlar taraqqiyoti uchun qulay sharoit tug‘dirgan. Shuningdek, XIV-XV asrlarda ilm-fanning yuksalishi uchun IX-XII asrlarda O‘rta Osiyoda yaratilgan madaniyatning, xususan, Xorazmiy, Forobiy, ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy kabi jahonga mashhur bo‘lgan allomalar ilmiy merosining g‘oyaviy manba bo‘lib xizmat qilganligini alohida ta’kidlab o‘tish zarur. Taniqli gollandiyalik matematik va fan

tarixi bilimdoni D. Y. Stroykning fikricha, “islom dunyosida bo‘lgan ko‘p urushlar, siyosiy va etnologik o‘zgarishlar matematika va astronomiya rivojida yuksalish na qulashlarga sabab bo‘lsa, ilmiy markazlardan birining yo‘qolishi va boshqalarining paydo bo‘lishiga olib kelgan bo‘lsa-da, bu fanlarning umumiy xarakteri, taraqqiyotining asosiy yo‘nalishiga ta’sir eta olmagan” [3, B.53].

Amir Temur buyuk davlat arbobi sifatida o‘z xalqining tarixi va madaniyatida muhim rol o‘ynagan, uning ko‘plab yutuqlari avlodlarga ilhom berishda davom etadi. U haqidagi bilim va tushunchalarimiz uning qahramonligi va buyukligi haqida ko‘proq anglash imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida milliy g‘ururimizni yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev. Sh. Erkin va farovon,demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O‘zbekiston. 2016. – B.56.
2. Temur tuzuklari. – T., 1991. – B.64.
3. Choriyev A. Sohibqiron ma’naviyati. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2021. – B.53
4. Maxsudov D. Amir Temur saltanatida ilm-fan rivoji xususida // Temuriylar davri: tadqiqotlar va muammolar. – T.: “Navro‘z”, 2014. – B.226-228.

AMIR TEMUR DAVRIDA DIPLOMATIK ALOQALAR VA XALQARO MUNOSABATLARDA XORIJIY TILLARNING O‘RNI

Numanov Sherzodbek Komiljanovich
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent «Temurbeklar maktabi» harbiy-akademik litseyi Ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amir Temur davrida shakllangan diplomatik aloqalar tizimi va xalqaro munosabatlarning o‘ziga xos jihatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tarixiy manbalar asosida Temur davlatining Yevropa, Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan olib borgan diplomatik aloqalari o‘rganiladi. Shuningdek, maqolada diplomatik munosabatlarda xorijiy tillarning o‘rni, tarjimonlar faoliyati hamda muloqot jarayonidagi lingvistik omillar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: diplomatiya, Amir Temur, xalqaro munosabatlar, xorijiy tillar, tarjimonlar, elchilar, kommunikatsiya

Аннотация: В данной статье на основе исторических источников анализируются особенности дипломатических связей и

международных отношений в эпоху Амира Темура. Рассматриваются дипломатические контакты государства Темура со странами Европы, Азии и Ближнего Востока. Особое внимание уделяется роли иностранных языков, деятельности переводчиков и лингвистическим аспектам дипломатической коммуникации.

Ключевые слова: дипломатия, Амир Темур, международные отношения, иностранные языки, переводчики, коммуникация

Abstract: This article analyzes the features of diplomatic relations and international interactions during the reign of Amir Temur based on historical sources. It examines Temur's diplomatic contacts with European, Asian, and Middle Eastern states. Special attention is given to the role of foreign languages, interpreters, and linguistic factors in diplomatic communication.

Key words: diplomacy, Amir Temur, international relations, foreign languages, interpreters, communication

Amir Temur davri nafaqat harbiy yurishlar va davlat qurilishi bilan, balki keng ko‘lamli diplomatik aloqalar tizimi bilan ham ajralib turadi. XIV–XV asrlarda Temur davlati Yevropa, Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan faol siyosiy va diplomatik munosabatlar olib borgan. Bu jarayonlar o‘z davri uchun yuqori darajada tashkil etilgan tashqi siyosat tizimini aks ettiradi.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, Amir Temur diplomatik aloqalarni davlat boshqaruvining muhim vositasi sifatida ko‘rgan. U elchilar orqali turli davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va harbiy hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan[67]. Bu esa Temur davlatining xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Xususan, Amir Temurning Yevropa davlatlari, jumladan Fransiya va Ispaniya hukmdorlari bilan olib borgan yozishmalari tarixiy ahamiyatga ega. Bu yozishmalar orqali davlatlar o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatilgan va savdo-sotiq rivojlangan[68]. Shu bilan birga, Temur davrida Xitoy, Hindiston va Eron bilan ham faol aloqalar olib borilgan.

Amir Temur davridagi xalqaro munosabatlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, uning tashqi siyosati faqat harbiy kuchga emas, balki puxta o‘ylangan diplomatik strategiyaga ham tayangan. Temur o‘z davlati manfaatlarini ilgari surishda elchilar, rasmiy maktublar, sovg‘a-salom almashinuvi va siyosiy muzokaralardan samarali foydalangan. Bu jihat uning tashqi siyosatini o‘rta asr Sharqidagi ko‘plab hukmdorlardan ajratib turadi[69].

---

[67] Yazdiy Sh.A. *Zafarnoma*. Toshkent: Fan, 1997.
[68] Manz A. *The Rise and Rule of Tamerlane*. Cambridge University Press, 1989.
[69] Manz B.F. *The Rise and Rule of Tamerlane*. Cambridge: Cambridge University Press

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Amir Temur diplomatik aloqalarni bir necha maqsadga yo‘naltirgan: birinchidan, davlat xavfsizligini ta’minlash; ikkinchidan, savdo yo‘llarini nazorat qilish; uchinchidan, geosiyosiy raqiblarga qarshi muvozanat yaratish. Ayniqsa, Usmonli sultoni Boyazid I bilan qarama-qarshilik kuchaygan davrda Yevropa davlatlari bilan olib borilgan aloqa shu jihatdan muhim bo‘lgan.

Amir Temurning G‘arbiy Yevropa bilan munosabatlari orasida Kastiliya bilan aloqalar alohida o‘rin tutadi. Ispan qiroli Genrix III saroyidan Samarqandga yuborilgan Ruy Gonsales de Klavixo elchixonasi Temur saroyi diplomatik hayotini o‘rganishda birlamchi manbalardan biri hisoblanadi[70]. Klavixo qaydlariga ko‘ra, Samarqand saroyida elchilarni qabul qilish marosimlari qat’iy tartib asosida tashkil etilgan, bu esa markazlashgan va rasmiylashtirilgan diplomatik muhit mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Amir Temur Fransiya qiroli Karl VI va Angliya qiroli Genrix IV bilan ham diplomatik maktublar almashganligi tarixiy manbalarda tilga olinadi. Bu yozishmalar o‘sha davr xalqaro siyosatida Temur davlatining salmog‘i yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi[71]. Temur bu aloqalar orqali bir tomondan o‘zining xalqaro nufuzini mustahkamlashga, ikkinchi tomondan esa umumiy siyosiy manfaatlar asosida ittifoqiy yaqinlashuvlarga zamin yaratishga intilgan.

Elchilar faoliyatini tahlil qilganda, ularning faqat marosimiy rol bilan cheklanmaganini ko‘rish mumkin. Elchilar hukmdorning siyosiy irodasini ifoda etuvchi vakil bo‘lgan. Ular muzokara olib borgan, vaziyatni kuzatgan, hukmdor saroyiga muhim ma’lumotlar yetkazgan va zarur hollarda siyosiy-ruhiy ta’sir vositasi sifatida ham xizmat qilgan. Demak, Amir Temur diplomatiyasida elchilar instituti davlat tashqi siyosatining faol instrumenti bo‘lgan.

Bu o‘rinda diplomatik yozishmalar masalasi ham alohida e’tiborga loyiq. Rasmiy maktublarda uslubning lo‘ndaligi, maqsadning aniqligi va siyosiy ishoralarning ravshanligi muhim bo‘lgan. O‘rta asr diplomatik maktublari ko‘pincha hukmdor sha’nini ulug‘lash, siyosiy niyatni yumshoq ifodalash va shu bilan birga aniq pozitsiyani bildirib qo‘yish xususiyatiga ega edi[72]. Temur davrida ham xuddi shu diplomatik uslub amal qilganini manbalar tasdiqlaydi.

Amir Temur diplomatik tizimining yana bir muhim xususiyati – uning harbiy-siyosiy strategiya bilan uzviy bog‘liqligidir. Ko‘plab hollarda diplomatik muzokara harbiy yurishning oldingi bosqichi yoki

[70] Clavijo R.G. *Embassy to Tamerlane, 1403–1406*. London: Routledge, 1928.
[71] Yazdiy Sh.A. *Zafarnoma*. Toshkent: Fan, 1997.
[72] Clavijo R.G. *Embassy to Tamerlane, 1403–1406*. London: Routledge, 1928.

unga parallel vosita bo‘lib xizmat qilgan. Ya’ni diplomatiya va harbiy kuch bir-biriga qarama-qarshi emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi mexanizm sifatida ishlatilgan[73]. Bu esa Temurning xalqaro munosabatlarga pragmatik yondashganini ko‘rsatadi.

Ruy Gonsales de Klavixo o‘zining Samarqandga qilgan safar xotiralarida Temur saroyida turli xalqlardan kelgan elchilar bilan muloqot tarjimonlar orqali olib borilganini qayd etadi[74]. Bu esa Temur davlatida tarjimonlar tizimi mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi.

Diplomatik muloqotda tilning qanday qo‘llanganini quyidagi uch tildagi model misollar orqali ko‘rish mumkin:

O‘zbek: “Buyuk va qudratli hukmdorga chuqur hurmat ila murojaat qilamiz hamda o‘zaro tinchlik va hamkorlikni mustahkamlash istagimizni bildiramiz.”

Rus: «Обращаемся с глубоким уважением к великому и могущественному правителю и выражаем наше стремление к укреплению мира и сотрудничества.»

Ingliz: “We address the great and powerful ruler with deep respect and express our intention to strengthen peace and cooperation.”

Mazkur iboralar o‘rta asr diplomatik yozishmalariga xos bo‘lgan **hurmat, siyosiy ehtiyotkorlik va muloqot madaniyati**ni aks ettiradi. Bu jihatlar tarixiy manbalarda, xususan, Temur davri diplomatik yozish-malarida ham kuzatiladi[75].

O‘zbek: “Tomonlar o‘zaro manfaatli kelishuvga erishish maqsadida ochiq va samimiy muzokaralar olib bordilar.”

Rus: «Стороны провели открытые и конструктивные переговоры с целью достижения взаимовыгодного соглашения.»

Ingliz: “The parties conducted open and constructive negotiations in order to reach a mutually beneficial agreement.”

Bu kabi iboralar diplomatik muloqotning asosiy tamoyillari – **ochiqlik, konstruktivlik va muvozanatli ifoda**ni aks ettiradi. Fairclough ta’kidlaganidek, til ijtimoiy kuch vositasi sifatida muzokara jarayonida muhim rol o‘ynaydi[76].

O‘zbek: “Biz siz bilan do‘stona aloqalarni rivojlantirish va savdo munosabatlarini kengaytirish tarafdorimiz.”

Rus: «Мы выступаем за развитие дружественных отношений и расширение торгового сотрудничества.»

---

[73] Manz B.F. *The Rise and Rule of Tamerlane*. Cambridge: Cambridge University Press, 1989.
[74] Clavijo R.G. *Embassy to Tamerlane, 1403–1406*. Translated by Guy Le Strange. London: Routledge, 1928.
[75] Yazdiy Sh.A. *Zafarnoma*. Toshkent: Fan, 1997.
[76] Fairclough N. *Language and Power*. London: Longman, 1989.

Ingliz: “We support the development of friendly relations and the expansion of trade cooperation.”

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, temuriylar davridagi diplomatik tajriba zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, til va kommunikatsiya omilining roli bugungi diplomatiyada ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Shuningdek, tarixiy tajriba asosida shuni aytish mumkinki, diplomatik muvaffaqiyat ko‘p jihatdan nutq madaniyati, tilni bilish darajasi va kommunikativ kompetensiyaga bog‘liqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yazdiy Sh.A. Zafarnoma. – Toshkent: Fan, 1997.
2. Manz A. The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989.
3. Manz B.F. The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989.
4. Clavijo R.G. Embassy to Tamerlane, 1403–1406. – London: Routledge, 1928.
5. Bartold V.V. Turkiston mo‘g‘ullar istilosi davrida. – Toshkent: Fan, 1963.
6. Clavijo R.G. Embassy to Tamerlane, 1403–1406. Translated by Guy Le Strange. – London: Routledge, 1928.
7. Fairclough N. Language and Power. – London: Longman, 1989.

TEMURIYLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIYAT TARAQQIYOTI

Yunusova Madina Rixsibayevna

Ozbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi Toshkent “Temurbeklar maktabi”

ingliz tili fani Katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida madaniy hayoti haqida so’z yuritiladi. Bu davrning katta bir o’zgarishi “Ikkinchi renessans” vaqtida adabiy muhit va tasviriy san’atning yuksalishi haqida turli xil manbalar asosida tahlil qilingan va qimmatli ma‘‘lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: Temuriylar, Ikkinchi renessans, adabiy muhit, tasviriy san’at.

Kirish

Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan va madaniyat yuksak darajada rivojlangan muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. XIV–XV asrlarda Amir Temur va uning vorislari tomonidan barpo etilgan qudratli davlat nafaqat siyosiy jihatdan, balki ilmiy-ma’rifiy va

madaniy sohalarda ham ulkan yutuqlarga erishdi. Bu davr ko‘pincha “Ikkinchi renessans” deb atalib, unda ilm-fan, adabiyot, san’at va me’morchilik yangi bosqichga ko‘tarildi.

Mazkur maqolada Temuriylar hukmronligi davrida ilm-fan va madaniyat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari turli tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi hamda ushbu davrning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi yoritiladi.

Asosiy qism

Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda ta’limga e’tibor, ilm- fanga homiylik davlat siyosatiga aylandi. Barcha shaharlarda oliy ta’lim dargohlari madrasalar barpo etilib, o‘z davrining yetuk olimu ulamolari tolibi ilmlarga dars berishga jalb etildiyu Amir Temur va temuriylar davri qadim Turon o‘lkasida maorif va ta’lim tizimi, ilm-fan yuksak rivojlangan davr sifatida ahamiyatlidir. Ulkan saltanatning barcha shahar va yirik qishloqlarida ko‘plab boshlang‘ich maktablar barpo etildi. Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, bu davrda o‘g‘il bola 4 yil, 4 oy va 4 kunlik bo‘lganda maktabga berish an’anasi amalda bo‘lib, boshlang‘ich ta’lim ulkan saltanatning barcha madaniy o‘lkalarini qamrab olgan edi.[77]

Amir Temur davlatni aql-zakovot va huquqiy asos bilan idora etgan. Uning „… davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim“, degan so‘zlari buning yorqin dalilidir. [78] Bu esa jamiyatda ilmli va ma’rifatli kishilarning mavqeini oshirishga xizmat qildi.

Amir Temur va Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatning asosiy xususiyatlari:

- **Ilm-fan taraqqiyoti:** Astronomiya, matematika, tarix va tibbiyot fanlari rivojlandi. Mirzo Ulug‘bek tomonidan Samarqandda rasadxona qurilib, yulduzlar jadvali ("Ziji jadidi Ko‘ragoniy") yaratildi.
- **Me'morchilik:** Temur va temuriylar o‘z davlatlarida ulkan qurilishlar olib bordilar. Shahrisabzdagi Oqsaroy, Samarqanddagi Bibixonim masjidi, Go‘ri Amir maqbarasi, Shohi Zinda majmuasi bu davr me'morchiligining cho‘qqisi hisoblanadi.
- **Adabiyot va san'at:** Fors va turkiy (chig‘atoy) tillarida adabiyot rivojlandi. Alisher Navoiy turkiy tilda ijod qilib, temuriylar davri adabiy muhitining gullab-yashnashiga hissa qo‘shdi. Hirot miniatyura maktabi shakllandi.

[77] . xs.uz/uz/post/amir temur va temuriylar davri renessansida ta’lim tizimining tutgan ahamiyati
[78] uz.wikipedia.org/wiki/Amir_Temur

- **Kitobat san'ati:** Kutubxonalar tashkil etilib, qo‘lyozma kitoblar yaratish, xattotlik va miniatyura san'ati yuksak darajaga ko‘tarild.

Astronomiya va Matematika sohasida erishilgan buyuk muvaffaqiyatlar Temuriylar davlatiga katta shuhrat keltirdi. Bu shuhrat, birinchi navbatda, Ulug‘bek nomi bilan bog‘liqdir. Ulug‘bek Movarounnahrda ilm-fanni tashkil etish borasidagi faoliyati bilan musulmon olami ko‘plab olimlarining diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etdi. Qozizoda Rumiy ham shu jumladan[79], Kichik Osiyoda, Mannar dengizi janubidagi Bursa shahrida (taxminan 1360 yilda) tug‘ilgan bu olim dastlabki ma’lumotni ona shahrida olgach, Shamsiddin Fanoriydan matematika va astronomiyadan saboq oldi. Qozizoda Fanoriydan Xuroson va Movarounnahr matematiklari hamda astronomlarining shuhrati to‘g‘risida ko‘p hikoyatlarni eshitdi, taxminan yigirma yoshida (XIV asr 80-yillarining boshlari) ona shahrini bir umrga tark etib, sharqqa yo‘l oldi, Manbaalarda Qozizoda Rumiy Ulug‘bekni ilk bor qachon ko‘rganligi xususida ma’lumot yo‘q. Lekin Ulug‘bek o‘zining “ Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asariga yozgan muqaddimasida uni ustozim deb ataydi [80]. 1413 yilda Ulug‘bek Movarounnahr hukmdori bo‘lgandan keyin, ustozini Hirotdan Samarqandga olib keldi va u umrining oxirigacha shu yerda qoldi. Ulug‘bek madrasasi binosi va rasadxonasi Qozizodaning bevosita ishtirokida barpo etildi. [81]

Temuriylar saltanati hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda badiiy adabiyot ham yangi bosqichda ko’tarildi.

Abdurahmon Jomiyning “Haft avrang”, A.Navoiyning “Xamsa”, “Hazoyin ul maoniy” asarlari shu davr adabiyotining shoh asarlari edi. Jomiy yetti dostondan iborat to’plamiga “Haft avrang” (Yetti taxt) deb nom qo’yar ekan, Temuriylar sulolasidan yetti (Amir Temur, Xalil Sulton, Shohrux, Ulug’bek, Abulqosim Bobur, Abu Said, Mirzo Husayn Boyqaro) ni ko’zda tutgan bo’lsa, Navoiy o’z “Xamsa”sini yaxlit holda Husayn Boyqaroga bag’ishlagan va bu bilan har ikki muallif ham shu davr hukumdorlariga o’zlarining ma’lum ma’noda minnatdorchiliklarini namoyon etgan.

Turon mamlakatidagi oliy ta’lim dargohlari bo‘lgan madrasalar Amir Temur va temuriylar davrida yirik ilmiy markazlar, ma’rifat o‘choqlari vazifasini sharaf bilan bajardi. Shaharlardagi har bir madrasaga vaqf yer

---

[79] А.А. Ахмедов Улугбек Мухаммад Тарагай. Зидж. Новый гураганови астрономические таблицы. Т: 1994, - 32 b.

[80] А.А. Ахмедов Улугбек Мухаммад Тарагай. Зидж. Новый гураганови астрономические таблицы. Т: 1994, - 32 b.

[81] R. Qosimov., S.Saidqosimov, A.Axmedov, B.Ahmedov. Amir Temur jahon tarixida. T.: «Sharq», 2006. - 336 b.

mulklar ajratilib, ulardan keladigan daromadlar madrasalar mudarrislari va xizmatchilari maoshi, kutubxona ta’minoti, ta’mirlash va boshqa ishlar uchun yetarli bo‘lgan. [82]

Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida Amir Temur va Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va bunyodkorlik yuksak darajada rivojlangani madh etiladi. Yazdiy Samarqand va boshqa shaharlarda qurilgan madrasalar, rasadxonalar, kutubxonalar hamda dunyoning turli chekkalaridan to‘plangan olimlar, shoirlar, muhandislar va san’-atkorlarning ilmiy faoliyatini alohida ta’kidlaydi. Umuman olganda, Yazdiy "Zafarnoma"da Temuriylar davrini "renessans" – ilmiy va madaniy yuksalish davri sifatida tasvirlaydi.

Temuriylar saltanati hukmronligi davrida keng yoritilgan qo‘lyozmalar ishlab chiqarish rivojlangan. Boy ranglar va nafis naqshlar bilan ajralib turadigan bu qo‘lyozmalar temuriylar moddiy madaniyati-ning muhim qismi bo‘lib xizmat qilgan va turli bosib olingan hudud-larning hunarmandchiligini aks ettirgan. Temuriylar san’ati davrini Kamolddin Behzod, Sultonali Mashhadiy, Umar Aqta, Ja’far Tabriziy va boshqa ko‘plab rassomlar va xattotlar ijodida ko‘rish mumkin. Ko‘-pincha qo‘lyozmalar vaqt o‘tishi bilan bir nechta rassomlar tomonidan ishlab chiqilgan va har bir qo‘lyozmada turli xil badiiy uslublarning birlashgan ko‘rinishi yaratilgan.

Qohira Bo‘stoni

Qohira Bo‘stoni fors kitob san’atida saqlangan ko‘plab nufuzli qo‘lyozmalardan biridir. Qohira Bo‘stoni Sulton Husayn Boyqaro homiyligi bilan bog‘liq bo‘lgan, saqlanib qolgan sanoqli rasmli qo‘lyozmalardan biridir. Qo‘lyozma o‘zining tarixiy mazmunini katta aniqlik bilan tasvirlab beradi, Kamoliddin Behzodning ko‘plab asl rasm-larini o‘z ichiga oladi. Behzod ushbu qo‘lyozmaning birinchi to‘liq yozuvini va uning rasmlarini yaratgan. U fors rassomlari orasida hurmatga erishgan va islom qo‘lyozmalarining yuksak nufuzini belgilab bergan. [83]

Temuriylar davrida bir qator atoqli allomalar: Sa’diddin Taftazoniy (1322-1392), Mir Sayyid Sharif Jurjoniy, jahon ilm-fani taraqqiyotiga katta ulush qo’shgan buyuk falakiyotchi olim va davlat arbobi Muqam-mad Tarag’ay Ulug’bek, G’iyosiddin Jamshid al-Koshiy, tarixda Ali qushchi nomi bilan mashhur bo’lgan Alouddin Ali ibn Muhammad

[82] R. Qosimov., S.Saidqosimov, A.Axmedov, B.Ahmedov. Amir Temur jahon tarixida. T.: «Sharq», 2006. - 336 b.

[83] uz.wikipedia.org/wiki/Temuriylar_san’ati

qushchi, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug' olim-u mutafakkirlar yetishib chiqdi. [84]

XIV-XV asrlarda mantiq, tabiy-ilmiy fanlar, ayniqsa falakiyot, falsafa va axloqshunoslikka katta e'tibor berildi.

Movarounnaxr va Xurosonda XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda ro'y bergan madaniy yuksaklik butun musulmon Sharqigina emas, yevropa mamlakatlarini hayratga soldi. Bu yuksaklik Markaziy Osiyoning so'nggi madaniy-ma'naviy rivojinigina belgilab bermay, qo'shni mamlakatlardagi madaniy taraqqiyotga ham katta turtki berdi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar hukmronligi davri Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan va madaniyatning eng yuksak rivojlangan davrlaridan biri bo'ldi. Bu davrda yaratilgan ilmiy asarlar, me'moriy obidalar va adabiy meros nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega.

Temuriylar davrida shakllangan ilmiy va madaniy muhit keyingi avlodlar taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratdi hamda jahon sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa qo'shdi. Shu bois ushbu davrni haqli ravishda Sharq uyg'onish davrining muhim bosqichi sifatida baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asari.
2. R. Qosimov., S.Saidqosimov, A.Axmedov, B.Ahmedov. Amir Temur jahon tarixida. T.: «Sharq», 2006. - 336 b.
3. A.A. Ахмедов Улугбек Мухаммад Тарагай. Зидж. Новый гураганови астрономические таблицы. T: 1994, - 32 b.
4. uz.wikipedia.org/wiki/Amir_Temur
5. xs.uz/uz/post/amir temur va temuriylar davri renessansida ta'lim tizimining tutgan ahamiyati
6. uz.wikipedia.org/wiki/Temuriylar_san'ati
7. Olympiad.uz/39276

YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINI OSHIRISHDA DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANINING AHAMIYATI

Batirova Xadichabonu Mamadiyorovna
Toshkent Temurbeklar maktabi harbiy-akademik litseyi Davlat va huquq asoslari fani bosh o'qituvchisi

[84] Olympiad.uz/39276

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda “Davlat va huquq asoslari” fanining o‘rni, ahamiyati hamda dolzarb jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, huquqiy ongni oshirishning zamonaviy usullari va ta’lim tizimidagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: huquqiy madaniyat, huquqiy ong, yoshlar, davlat, huquq, ta’lim, tarbiya

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение предмета «Основы государства и права» в формировании правовой культуры молодежи. Также рассматриваются современные методы повышения правового сознания и их значение в системе образования.

Ключевые слова: правовая культура, правовое сознание, молодежь, государство, право, образование, воспитание

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish hisoblanadi. Huquqiy madaniyat – bu shaxsning huquqiy bilimlari, huquqqa bo‘lgan munosabati va uni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarining yig‘indisidir. Bu jamiyat a’zolarining huquqqa bo‘lgan ongli munosabati, qonunlarga hurmat bilan qarashi hamda ularga amal qilish darajasi bilan belgilanadi. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: huquqiy bilimlar; huquqiy ong; huquqiy xulq-atvor. Yoshlar jamiyatning eng faol qatlami bo‘lib, ularning huquqiy ongini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, “Davlat va huquq asoslari” fanining o‘qitilishi yosh avlodni huquqiy jihatdan savodli qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar huquqiy madaniyati yuqori bo‘lgan jamiyatda qonun ustuvorligi ta’minlanadi va ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi.

“Davlat va huquq asoslari” fani ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida muhim o‘rin egallab, jamiyatda davlat va huquqning paydo bo‘lishi, rivojlanishi, amal qilish qonuniyatlari hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganadi. Mazkur fan o‘quvchilarga nafaqat nazariy bilimlar beradi, balki ularni kundalik hayotda huquqiy normalardan ongli ravishda foydalanishga ham o‘rgatadi. Ushbu fan mazmunan bir necha asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi. Avvalo, unda davlat tushunchasi, uning kelib chiqish sabablari, shakllari, funksiyalari va boshqaruv tizimi o‘rganiladi. Shu bilan birga, huquq tushunchasi, uning mohiyati, manbalari, prinsiplari hamda huquq tizimi haqida bilimlar beriladi. Bundan tashqari, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari, burchlari, jamiyat va davlat oldidagi mas’uliyati kabi masalalar ham

keng yoritiladi. Fan doirasida konstitutsiyaviy huquq, ma’muriy huquq, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi kabi asosiy huquq sohalari haqida boshlang‘ich tushunchalar berilib, o‘quvchilarda huquqiy tizim haqida yaxlit tasavvur shakllantiriladi. Bu esa yoshlarning turli huquqiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishiga zamin yaratadi. “Davlat va huquq asoslari” fanining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: Birinchidan, yoshlarni puxta huquqiy bilimlar bilan qurollantirishdir. Bu orqali ular o‘z huquq va majburiyatlarini bilib oladi, qonunlarni tushunadi hamda ularga amal qilish zarurligini anglaydi. Ikkinchidan, o‘quvchilarda huquqiy ong va huquqiy tafakkurni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Huquqiy ong – bu shaxsning huquqqa bo‘lgan munosabati, qonunlarga hurmati va ularni qadrlash darajasi bilan belgilanadi. Mazkur fan aynan shu sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, yoshlarni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashdan iborat. Qonun ustuvorligi tamoyili amal qiladigan jamiyatda fuqarolar huquqiy jihatdan ongli bo‘lishi zarur. Shu bois ushbu fan orqali o‘quvchilarda qonunlarga itoatkorlik va adolatga intilish hissi shakllantiriladi. To‘rtinchidan, fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash ham muhim vazifalardan biridir. Fan orqali yoshlar jamiyat hayotida faol ishtirok etish, o‘z fikrini erkin bildirish, davlat boshqaruvida bevosita yoki bilvosita qatnashish kabi demokratik qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Beshinchidan, huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qilishidir. Huquqiy bilimga ega bo‘lgan shaxs odatda qonunbuzarlikka kamroq moyil bo‘ladi. Shu sababli ushbu fan profilaktik ahamiyatga ega bo‘lib, yoshlar orasida jinoyatchilik va boshqa salbiy holatlarning kamayishiga yordam beradi. Oltinchidan, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashdir. Fan doirasida turli hayotiy vaziyatlar tahlil qilinib, o‘quvchilarga real muammolarni huquqiy jihatdan hal etish ko‘nikmalari beriladi. Bu esa ularning mustaqil fikrlashini va huquqiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, mazkur fan shaxsning har tomonlama barkamol bo‘lib shakllanishiga ham xizmat qiladi. Chunki huquqiy bilimga ega bo‘lgan inson nafaqat o‘z manfaatlarini himoya qila oladi, balki jamiyatdagi tartib-intizomni saqlashga ham o‘z hissasini qo‘shadi. Umuman olganda, “Davlat va huquq asoslari” fani yosh avlodni huquqiy jihatdan yetuk, ongli va mas’uliyatli fuqaro etib tarbiyalashda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda ta’lim tizimi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Chunki aynan ta’lim jarayonida shaxsning dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi, huquqiy ong va huquqiy tafakkuri shakllanadi. Huquqiy madaniyat esa faqatgina

nazariy bilimlar yig‘indisi bo‘lib qolmay, balki ularni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi. Ta’lim muassasalari, xususan umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litseylar va oliy ta’lim muassasalari yoshlarning huquqiy tarbiyasini tizimli ravishda amalga oshiradigan asosiy ijtimoiy institutlar hisoblanadi. Ushbu muassasalarda “Davlat va huquq asoslari” fanining o‘qitilishi orqali o‘quvchilarga davlat va huquq tizimi haqida fundamental bilimlar beriladi, ularning huquqiy savodxonligi oshiriladi. Ta’limning huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi o‘rni bir necha jihatlar orqali namoyon bo‘ladi. Avvalo, ta’lim jarayonida yoshlar huquqiy bilimlarga ega bo‘ladi. Ular o‘z huquq va erkinliklarini, majburiyatlarini, qonunlar mazmunini o‘rganadi. Bu esa ularga hayotda turli vaziyatlarda o‘zini to‘g‘ri tutish va qonuniy yo‘l tutish imkonini beradi. Ikkinchidan, ta’lim huquqiy ongni shakllantiradi. Huquqiy ong shaxsning qonunlarga bo‘lgan munosabati, ularni hurmat qilishi va ularga amal qilishga tayyorligi bilan belgilanadi. Ta’lim orqali yoshlar qonun ustuvorligi, adolat, tenglik kabi asosiy huquqiy qadriyatlarni anglab yetadi. Uchinchidan, ta’lim huquqiy xulq-atvorni rivojlantiradi. Nazariy bilimlar amaliy mashg‘ulotlar, muammoli vaziyatlar tahlili, rolli o‘yinlar va sud jarayonlari modellari orqali mustahkamlanadi. Bu esa o‘quvchilarda huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. To‘rtinchidan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim samarador-ligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Interaktiv metodlar, debatlar, “case study” usuli, guruhli muhokamalar yoshlarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Bu esa ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va huquqiy bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Beshinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiya-larining keng qo‘l-lanilishi huquqiy ta’limni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Internet, elektron darsliklar, onlayn platformalar orqali yoshlar huquqiy ma’lumotlarga tez va oson kirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa ularning huquqiy savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ta’lim jarayonida huquqiy tarbiya masalasiga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Darsdan tashqari tadbirlar – huquqiy davra suhbatlari, uchrashuvlar, seminarlar, viktorinalar yoshlarning huquqiy bilimlarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, amaliyotchi yuristlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari bilan uchrashuvlar o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otadi. Bundan tashqari, oila va ta’lim muassasasi hamkorligi ham muhim ahamiyatga ega. Agar ta’lim jarayonida berilgan huquqiy bilimlar oilada mustahkamlanib borilsa, bu yoshlarning huquqiy madaniyatini yanada oshiradi. Ammo amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ayrim hollarda hu-

quqiy ta’lim yetarli darajada samarali tashkil etilmayapti. Darslarning ko‘proq nazariy yo‘naltirilganligi, amaliy mashg‘ulotlarning kamligi, zamonaviy metodlarning yetarli qo‘llanilmasligi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish, uni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish zarur. Raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan hozirgi davrda huquqiy targ‘ibotni kuchaytirish zarur. Bunda internet va ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari, huquqiy targ‘ibot tadbirlari, muhim rol o‘ynaydi. Yoshlar o‘rtasida huquqiy bilimlarni keng targ‘ib qilish ularning qonunlarga bo‘lgan hurmatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar huquqiy madaniyatini oshirish jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Bu jarayonda “Davlat va huquq asoslari” fanining o‘rni beqiyosdir. Mazkur fan orqali yoshlar o‘z huquq va majburiyatlarini anglaydi, qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalanadi hamda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘ladi. Shu bois, ushbu fan o‘qitilishini yanada takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda huquqiy targ‘ibotni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi Ta’lim tizimi yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishning eng muhim vositasi hisoblanadi. U orqali yoshlar nafaqat huquqiy bilimlarga ega bo‘ladi, balki qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalanadi, jamiyatda faol va mas’uliyatli fuqaro sifatida shakllanadi. Shu sababli huquqiy ta’limni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 80 b.
2. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2021. – 320 b.
3. Islomov Z.M. Huquq nazariyasi. – Toshkent: TDYU, 2020. – 250 b.
4. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2019. – 300 b.
5. Abdullayev A. Huquqiy madaniyat asoslari. – Toshkent: Fan, 2018. – 210 b.
6. BMTning “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”. – 1948. – 15 b.

HARBIY LITSEY O‘QUVCHILARINING HARBIY KASBIY QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHDA JALOLIDDIN MANGUBERDI FAOLIYATINING PSIXOLOGIK TALQINI

M.T.Jalalova
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi “Temurbeklar maktabi” harbiy- akademik litsey psixologi

Annotatsiya: maqolada harbiy litsey o‘quvchilarining harbiy kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning psixologik asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy qahramon Jaloliddin Manguberdi shaxsi va uning psixologik fazilatlarini tarbiyaviy jarayonga tatbiq etish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tarixiy shaxslar obrazidan foydalanish o‘quvchilarda motivatsiya, iroda va vatanparvarlik sifatlarini samarali shakllantirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar:harbiy ta’lim, kasbiy qiziqish, psixologik tay-yorgarlik, irodaviy sifatlar, motivatsiya, vatanparvarlik, liderlik

Mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, “Xalq va armiya-bir tanu, bir jondir!” degan ezgu g‘oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas’ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g‘oya, bir maqsad asosida birlashtirish talab etilmoqda.

Barkamol insonning shakllanishi, uning munosib kasb-hunar egallashi, jamiyat taraqqiyoti uchun baholi qudrat o‘z hissasini qo‘shib yashashi va shu orqali jamiyatda o‘zligini namoyon etishi, ya’ni shaxs sifatida kamol topishi nazarda tutiladi. Komillik sari intilish har bir shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir. Keng ma’noda kasbiy shakllanish deganda, insonning o‘z aqliy qobiliyatlari, qiziqish, intilishlari, jismoniy imkoniyatlari, u yoki bu sohaga nisbatan layoqatlari, qadriyat va dunyoqarashlariga ko‘ra biron-bir kasb sohasida ta’lim olishi, keyinchalik shu sohaga kirishib, moslasha olishi hamda nihoyat yillar davomida yetuk va malakali mutaxassis bo‘lib yetishishini tushuniladi. Haqiqatdan ham bu cheksiz murakkab, orqaga qaytarilmaydigan, muhim jarayon bo‘lib, unda har bir shaxsning manfaatlari yo‘lida unumli foydalanishni tashkil etish, bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Qadimdan xalqimiz farzandlarining biron kasbning mohir ustasi bo‘lishlari bilan birga jismonan baquvvat va sog‘lom bo‘lishi uchun bolalariga ilk yoshdanoq suvda suzish, otda yurish, kurash tushish,

kamon otish kabi sport turlarini hamda harbiy o‘yinlarni mashq qildirishgan.

Yuqoridagi fikrlarga ko‘ra, hozirgi kunda harbiy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, harbiy litsey o‘quvchilarining kasbiy qiziqishlarini shakllantirish va rivojlantirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Bu jarayonda shaxsning psixologik xususiyatlari, ichki motivatsiyasi va irodaviy sifatlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Milliy tarixda o‘chmas iz qoldirgan shaxslar, jumladan Jaloliddin Manguberdi obrazi yoshlarni harbiy kasbga yo‘naltirishda muhim tarbiyaviy manba sifatida xizmat qiladi.

Harbiy kasbiy qiziqish shaxsning muayyan faoliyat turiga nisbatan ongli intilishi va ijobiy munosabatini ifodalaydi. U quyidagi omillar ta’sirida shakllanadi:

- ichki motivatsiya
- shaxsiy qadriyatlar
- ijtimoiy muhit
- ta’lim-tarbiya jarayoni

Psixologik nuqtai nazardan, kasbiy qiziqish shaxsning o‘z-o‘zini anglash va kelajak faoliyatini ongli tanlash jarayoni bilan bog‘liq.

Jaloliddin Manguberdi tarixda yuksak iroda va jasorat sohibi sifatida tanilgan. Uning psixologik portreti quyidagi sifatlar bilan tavsiflanadi:

- qat’iyat va bardoshlilik
- yuksak vatanparvarlik hissi
- tezkor qaror qabul qilish qobiliyati
- liderlik va tashkilotchilik mahorati

Ushbu sifatlar harbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan asosiy psixologik xususiyatlar hisoblanadi.

Jaloliddin Manguberdi obrazidan foydalanish o‘quvchilarda quyidagi natijalarni ta’minlaydi:

- motivatsiyaning oshishi
- irodaviy sifatlarning mustahkamlanishi
- stressga chidamlilikning rivojlanishi
- liderlik qobiliyatlarining shakllanishi

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, milliy qahramonlar obrazidan foydalanish o‘quvchilarning harbiy kasbga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, Jaloliddin Manguberdi shaxsi misolida irodaviy tarbiya va vatanparvarlikni shakllantirish yuqori samara beradi.

Bu esa harbiy ta’lim muassasalarida psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Harbiy litsey o‘quvchilarining kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishda tarixiy shaxslar, xususan Jaloliddin Manguberdining psixologik faoliyatidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda iroda, motivatsiya va vatanparvarlik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent, 1993.

2.Abu Ali ibn Sino. Axloq va psixologiyaga oid asarlar. – Toshkent, 1980.

3.G‘oziyev E. PsixologiY. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.

O‘QUVCHILARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Qutimova Malohat Tulibayevna

Gurlan tumani 42-ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi

Annotatsiya. Mazkur tezisda o‘quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning psixologik asoslari ijtimoiy identifikatsiya, motivatsiya va qadriyatlar internalizatsiyasi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi maktab muhitida harbiy-vatanparvar tarbiyaning psixologik mexanizmlarini hamda ularni qo‘llash shartlarini asoslashdir. Metodologiya sifatida nazariy tahlil va amaliy kuza-tuvlarning umumlashtirilishi qo‘llanadi. Ilmiy yangilik psixologik xavfsizlikka tayangan integrativ model taklif etilishidadir.

Kalit so‘zlar (o‘zbek): harbiy vatanparvarlik tarbiyasi; ijtimoiy identifikatsiya; motivatsiya; qadriyatlar internalizatsiyasi; psixologik xavfsizlik; o‘smirlik; ijtimoiy-psixologik muhit

Annotatsion: This thesis examines the psychological foundations of military-patriotic education of school students through social identification, motivation, and value internalization. The study aims to justify key psychological mechanisms and implementation conditions within the school environment. The methodology relies on theoretical analysis and synthesis of practical observations. Scientific novelty is an integrative model grounded in psychological safety, developmental

appropriateness, and the alignment of educational influences across school, family, and peer contexts.

Keywords (ingliz): military-patriotic education; social identity; achievement motivation; value internalization; psychological safety; adolescence; school climate

O‘quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammosi psixologiya fanida shaxs rivojlanishining ma’naviy-axloqiy yo‘nalganligi, ijtimoiylashuv jarayonlari va motivatsion sohaning tarkib topishi bilan uzviy bog‘liq tarzda ko‘riladi. Bunda “harbiy vatanparvarlik” tushunchasi faqat harbiy kasbga qiziqish yoki marosimiy faoliyat doirasiga qisqartirilmay, balki mas’uliyat, intizom, jamoaviy hamkorlik, xavfsizlikka ongli munosabat, fuqarolik burchini idrok etish kabi psixologik sifatlar tizimi sifatida talqin etilishi maqsadga muvofiqdir. Psixologik yondashuv bu tizimning qanday shakllanishi, qaysi mexanizmlar orqali barqarorlashishi va qaysi sharoitlarda deformatsiyalanishi mumkinligini tushuntirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur yo‘nalishdagi tarbiya samaradorligi o‘quvchi shaxsining yosh davri xususiyatlari, ehtiyojlar ierarxiyasi, o‘zini anglash dinamikasi hamda maktabdagi ijtimoiy-psixologik muhit bilan belgilanadi [1].

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining psixologik asoslarini izohlashda birinchi tayanch nuqta ijtimoiy identifikatsiya mexanizmidir. Ijtimoiy identifikatsiya shaxsning “men” konsepsiyasiga muayyan guruh, hudud, tarixiy-madaniy meros va jamoa qadriyatlarini kiritish jarayonini anglatadi. Maktab yoshida, ayniqsa o‘smirlik davrida, “men kimman” va “men qaysi jamoaga mansubman” degan savollar keskin faollashadi; bu davrda tengdoshlar ta’siri kuchayadi, ijtimoiy maqom va qabul qilinish ehtiyoji ortadi. Shu sababli harbiy-vatanparvar yo‘nalishdagi tarbiyaviy ta’sirlar “majburiy talqin” emas, balki o‘quvchi uchun ijtimoiy maqbul, shaxsiy qadrli va hissiy jihatdan yaqin identifikatsiya manbai bo‘lib ko‘rinishi lozim. Aks holda, tashqi talab sifatida berilgan g‘oya ichki pozitsiyaga aylanmaydi, formal xulq shakllanadi yoki qarshilik motivlari yuzaga keladi. Identifikatsiya ijobiy kechishi uchun o‘quvchi o‘z jamoasini adolatli, g‘amxo‘r, hamkorlikka ochiq muhit sifatida qabul qilishi zarur; bu esa pedagogik muloqot madaniyati va maktab iqlimiga bevosita bog‘liq [2].

Ikkinchi asosiy mexanizm motivatsiya va maqsadga yo‘naltirilgan xulqni boshqarish bilan bog‘liq. Psixologik tadqiqotlarda faoliyatning barqarorligi ko‘pincha ichki motivatsiya, ya’ni shaxsning o‘zini namoyon qilish, kompetentlikni his etish va autonomiya ehtiyojlari

qondirilishi bilan izohlanadi [5]. Harbiy-vatanparvar tarbiya doirasidagi mashg‘ulotlar (jamoaviy tadbirlar, xavfsizlik ko‘nikmalari, sport va intizomga doir faoliyat) o‘quvchida “men eplay olaman” degan kompetentlik hissini kuchaytirsa, u o‘z-o‘zidan tartib-intizomni tashqi nazorat emas, shaxsiy maqsad sifatida qabul qila boshlaydi. Bunda rag‘batlantirish tizimi ehtiyotkorlik bilan qurilishi lozim: faqat mukofot va bahoga tayanish motivatsiyani tashqi omillarga bog‘lab qo‘yishi, uzoq muddatda esa qiziqishni susaytirishi mumkin. Shuning uchun motivatsion ta’sirlar ma’no yaratish, real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash, o‘quvchining tanlovi va tashabbusiga imkon berish orqali ichkilashtirilishi kerak.

Uchinchi psixologik tayanch qadriyatlar internalizatsiyasi, ya’ni ijtimoiy ahamiyatli me’yor va qadriyatlarning shaxs ichki me’yoriga aylanish jarayonidir. Internalizatsiya odatda uch bosqichda kechadi: avval me’yor tashqi talab sifatida qabul qilinadi, keyin u manfaat va ijtimoiy ma’qullanish bilan bog‘lanadi, so‘ngra shaxsiy e’tiqod va odat darajasida mustahkamlanadi. Mazkur jarayonda emotsional tajriba va shaxsiy namunalar muhim: o‘quvchi hurmat qiladigan kattalar, murabbiylar yoki tarixiy shaxslar obrazi orqali “burch”, “sadoqat”, “xavfsizlikka mas’uliyat” kabi tushunchalarga psixologik mazmun beradi. Biroq namunalar tanlovi yoshga mos va psixologik xavfsiz bo‘lishi shart; qo‘rqitish, tahdidli ssenariylar, zo‘ravonlikni roma-ntizatsiya qilish internalizatsiyani buzadi, xavotirni oshiradi yoki tajovuzkor xulqni legitimlashtirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, harbiy-vatanparvar tarbiya psixologik jihatdan “xavfsizlik madaniyati” va “fuqarolik mas’uliyati” semantik maydonida qurilganda sog‘lomroq natija beradi [3].

Tarbiyaviy jarayonning samaradorligi ko‘p omilli ijtimoiy-psixologik muhitga ham bog‘liq. Bronfenbrennerning ekologik yondashuvi shaxs rivojlanishini mikrotizim (oila, sinf), mezotizim (oila-maktab hamkorligi), ekzotizim (mahalla, ommaviy axborot muhiti), makrotizim (madaniy me’yorlar) o‘zaro ta’sirida ko‘rsatadi [6]. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi ham aynan shunday ko‘p qatlamli maydonda kechadi: maktab bergan xabar oila qadriyatlari bilan mos kelmasa, o‘quvchi kognitiv dissonansni boshdan kechiradi va ko‘pincha tengdoshlar fikriga tayanib, vaziyatga moslashadi. Shuning uchun maktabning vazifasi faqat tadbir o‘tkazish emas, balki ota-onalar bilan psixologik savodxonlikka doir muloqot, sinf jamoasida hamkorlik normalarini mustahkamlash, ijtimoiy tarmoqlardagi destruktiv ta’sirlarga tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdan ham iborat.

Amaliy nuqtai nazardan, psixologik asoslangan integrativ model uchta shartning birligini talab qiladi. Birinchi shart mazmunning yosh va individual xususiyatlarga mosligidir: kichik maktab yoshida ramzlar va oddiy me’yorlar (tartib, yordam, hamjihatlik) yetakchi bo‘lsa, o‘smirlikda muhokama, bahs-munozara, axloqiy dilemmalar va ijtimoiy rol tajribasi (jamoa liderligi, ko‘ngilli tashabbuslar) samaraliroq bo‘ladi. Ikkinchi shart psixologik xavfsizlikdir: intizom talablari kamsitishsiz, qadr-qimmatni hurmat qilgan holda qo‘yilganda, o‘quvchi tartibni “qo‘rquv” emas, “o‘zini boshqarish” sifatida qabul qiladi. Uchinchi shart refleksiya va ma’no berish mexanizmlarini kiritishdir: har bir faoliyatdan so‘ng o‘quvchi nimani o‘rganganini, bu ko‘nikma qayerda kerak bo‘lishini, jamoaga qanday foyda keltirganini anglab borishi internalizatsiyani tezlashtiradi. Mazkur reflektiv komponent psixologik trening elementlari, sinf soatlari doirasidagi muhokamalar va individual suhbatlar orqali amalga oshirilishi mumkin [4].

Tadqiqot mantiqidan kelib chiqib, harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning psixologik mezonlari sifatida quyidagilarni bir butun tizimda baholash maqsadga muvofiq: kognitiv mezon (xavfsizlik, fuqarolik burchi, jamoaviy hamkorlik haqidagi tasavvurlar), affektiv mezon (o‘z jamoasiga daxldorlik, faxr va mas’uliyat hissining muvozanati), xulqiy mezon (intizom, ijtimoiy foydali tashabbus, nizolarni konstruktiv hal qilish), reflektiv mezon (o‘z xatti-harakatini tahlil qilish va o‘zini boshqarish). Ushbu mezonlar majmuasi tarbiyani faqat deklarativ shiorlar darajasidan chiqarib, shaxsning real psixologik rivojlanishi bilan bog‘lashga yordam beradi. Ayniqsa, affektiv komponentda me’yoriy muvozanatni saqlash muhim: haddan tashqari idealizatsiya tanqidiy fikrlashni susaytirishi, haddan tashqari dramatizatsiya esa xavotirni oshirishi mumkin; shuning uchun pedagogik ta’sirlar realistik, dalillarga tayangan va shaxs qadr-qimmatini e’zozlovchi bo‘lishi zarur.

Xulosa. O‘quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning psixologik asoslari ijtimoiy identifikatsiya, motivatsiya va qadriyatlar internalizatsiyasi mexanizmlarining uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Samarali tarbiya yoshga mos mazmun, psixologik xavfsiz muhit va refleksiyaga tayangan pedagogik texnologiyalar orqali ta’minlanadi. Integrativ yondashuv maktab, oila va tengdoshlar muhitidagi ta’sirlarni muvofiqlashtirib, o‘quvchida mas’uliyat, o‘zini boshqarish va jamoaga foydali bo‘lish ehtiyojini barqaror shaxsiy pozitsiyaga aylantirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g’risida» 2023 yil 28 fevraldagi PF-27-son Farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan ҳimoyasiga doimo shay turishga hamda harbiy xizmatni o‘tashga tayyorlash ishlarini yuқori saviyada tashkil etish maqsadida maktabimizda tashkil qilingan Jasorat sinfi — o‘quvchilarda vatanparvarlik, jasorat, mardlik va mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirish maqsadida o‘tkaziladigan tarbiyaviy mashg‘ulotdir. Tashkil qilingan Jasorat sinfning asosiy maqsadi O‘quvchilarda Vatanga muhabbat va sadoqatni shakllantirish, yoshlarni jasur, mard va fidoyi bo‘lib ulg‘ayishiga yordam berish, milliy qahramonlar va harbiylar hayoti bilan tanishtirish, o‘quvchilarda mas’uliyat va intizomni rivojlantirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya: darslik. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018. 320 b.
2. Andreeva G. M. Sotsialnaya psixologiya: uchebnik. Moskva: Aspekt Press, 2019. 512 s.
3. Bojovich L. I. Lichnost i yee formirovanie v detskom vozraste. Moskva: Prosvehenie, 2008. 464 s.
4. Asmolov A. G. Psychology of Personality: Cultural-Historical Understanding. Moscow: Smysl, 2010. 448 p.
5. Deci E. L., Ryan R. M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. New York: Plenum Press, 1985. 371 p.
6. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge (MA): Harvard University Press, 1979. 330 p.

TEMUR TUZUKLARI – DAVLAT BOSHQARUVINING HUQUQIY ASOSI SIFATIDA

Xodjayeva Dildora Tuxtapulatovna
Toshkent Temurbeklar maktabi harbiy-akademik litseyi Davlat va huquq asoslari fani bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amir Temurning “Temur tuzuklari” asari davlat boshqaruvining huquqiy asosi sifatida tahlil

qilinadi. Tuzuklarda belgilangan adolat, tartib-intizom, amaldorlarning mas’uliyati va xalq manfaatini ko‘zlash tamoyillari o‘z davrida huquqiy davlat qurilishining poydevori bo‘lib xizmat qilgan. Tadqiqotda ushbu tamoyillarning zamonaviy huquqiy-demokratik islohotlar bilan uzviy bog‘liqligi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Temur tuzuklari, adolat, huquqiy asos, davlat boshqaruvi, mas’uliyat, huquqiy davlat.

Аннотация: В статье рассматривается «Уложения Темура» как правовая основа государственного управления Амира Темура. Анализируются принципы справедливости, дисциплины, ответственности чиновников и ориентации на интересы народа, которые в своё время служили фундаментом построения правового государства. В исследовании раскрывается взаимосвязь этих принципов с современными правовыми и демократическими реформами.

Ключевые слова: Уложения Темура, справедливость, правовая основа, государственное управление, ответственность, правовое государство.

Davlat boshqaruvi tizimi har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchidir. Kuchli davlat — bu avvalo aniq qonun-qoidalar, mustahkam tartib-intizom va adolatli boshqaruvga tayanadigan tuzum demakdir. Ana shunday mukammal boshqaruv tamoyillarini shakllantirgan buyuk siymolardan biri — Amir Temurdir. Uning siyosiy-huquqiy qarashlari mujassam bo‘lgan “Temur tuzuklari” asari nafaqat tarixiy manba, balki davlat boshqaruvining puxta ishlab chiqilgan huquqiy konsepsiyasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur davlat boshqaruvi, harbiy strategiya va siyosiy tashkilotchilik sohasida buyuk tarixiy shaxs sifatida alohida o‘rin egallaydi. XIV asrning ikkinchi yarmida u katta hududlarni qamrab olgan kuchli davlatni barpo etishga muvaffaq bo‘ldi. Bu davlatni samarali boshqarish uchun aniq qonun-qoidalar, boshqaruv tamoyillari va tartib-intizom tizimi zarur edi. [1.160-b]

Shu maqsadda yaratilgan Temur tuzuklari asari davlatni boshqarish, harbiy tuzilmani tashkil etish, amaldorlarning vazifalari va jamiyatda adolatni ta’minlash masalalarini qamrab olgan muhim siyosiy-huquqiy manba hisoblanadi

“Temur tuzuklari” — bu davlatni boshqarish, qo‘shin tuzish, adolatni qaror toptirish, mansabdorlarni tanlash va nazorat qilish, ichki hamda tashqi siyosat yuritish kabi masalalarni tartibga soluvchi qoidalar

majmuidir. Tuzukda Sohibqiron o‘z tajribasi asosida shakllantirgan boshqaruv tamoyillarini bayon etadi. Ushbu qoidalar shunchaki nasihat yoki shaxsiy qarashlar emas, balki amaliy hayotda sinovdan o‘tgan siyosiy-huquqiy mezonlardir.

Davlat boshqaruvida quyidagi jihatlar muhim o‘rin tutgan:

Markazlashgan davlat boshqaruvi: Amir Temur davlatni markazlashgan boshqaruv asosida tashkil etgan. Barcha muhim qarorlar markaziy hokimiyat tomonidan qabul qilingan. Bu esa davlatning mustahkamligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Harbiy tizimning mustahkamligi: Temur davlatining kuchi uning harbiy tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan. Qo‘shin qat’iy tartib asosida tashkil etilgan va har bir harbiy bo‘linmaning vazifalari aniq belgilangan.

Davlat amaldorlarini tanlash: Amir Temur davlat boshqaruvida insonlarning kelib chiqishidan ko‘ra ularning bilim va qobiliyatiga e’tibor bergan. Bu esa davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga yordam bergan.

Temur davlat boshqaruvida qonun ustuvorligini eng muhim mezon sifatida belgilaydi. Uning fikricha, davlat qudrati adolat bilan mustahkamlanadi. “Kuch — adolatda” degan tamoyil Sohibqiron siyosatining markazida turgan. Har qanday amaldor yoki lashkarboshi qonunga bo‘ysunishi, tartib-intizomni saqlashi shart edi. Intizom buzilgan joyda davlat zaiflashadi, degan qat’iy qarash ilgari suriladi. [2.144-b]

Shuningdek, soliqlarni adolatli taqsimlash, aholining turli qatlamlari manfaatlarini hisobga olish, jazoni ayb darajasiga qarab belgilash kabi normalar huquqiy davlat tamoyillariga yaqin tushunchalarni ifodalaydi. Bu jihatdan “Temur tuzuklari”ni o‘rta asr sharqona huquq tafakkurining yuksak namunasi deyish mumkin.

Temur tuzuklarida markazlashgan davlat boshqaruvi alohida o‘rin egallaydi. Hududlarni boshqarish uchun ishonchli, tajribali va sadoqatli kishilar tayinlangan. Har bir mansabdor o‘z vazifasi va javobgarligini aniq bilgan. Bu tizim boshqaruv samaradorligini oshirgan.

Amir Temur davlatni 12 toifa vakillariga tayangan holda boshqarganini ta’kidlaydi. Ular orasida ulamolar, lashkarboshilar, hunarmandlar, savdogarlar va boshqa ijtimoiy qatlamlar vakillari bor edi. Bu esa boshqaruvda ijtimoiy muvozanatni ta’minlashga xizmat qilgan. Bunday yondashuv zamonaviy davlat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamohangdir. [3.122-b]

Temur tuzuklarida harbiy boshqaruv masalalari ham batafsil bayon qilingan. Qo‘shin tuzilishi, askarlarning majburiyatlari, mukofot va

jazolar tizimi aniq belgilab qo‘yilgan. Harbiy intizomning mustahkamligi davlat xavfsizligining kafolati sifatida ko‘riladi. Har bir sarkarda va askar o‘z o‘rnini, vazifasini va javobgarligini bilgan. Bu jihatlar Temur davlatining qisqa muddatda keng hududlarni egallashi va ularni boshqarishda barqarorlikni saqlay olganini izohlaydi. Harbiy va ma’muriy tizimning uyg‘unligi esa davlat boshqaruvining samaradorligini oshirgan.

“Temur tuzuklari” nafaqat siyosiy-huquqiy, balki axloqiy qoida va tamoyillarni ham o‘z ichiga oladi. Hukmdor halol, sabr-toqatli, kengashga tayanuvchi, ilm ahliga hurmat ko‘rsatuvchi bo‘lishi kerakligi qayta-qayta ta’kidlanadi. Bu qarashlar davlat boshqaruvida shaxsiy fazilatlarning ham muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Temur ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida Samarqandni o‘z davrining yirik siyosiy va madaniy markaziga aylantirgan. Bu esa uning boshqaruv siyosati faqat harbiy qudratga emas, balki ma’naviy taraqqiyotga ham asoslanganini ko‘rsatadi. [4.89-b]

Bugungi kunda “Temur tuzuklari” davlat boshqaruvi, huquqshunoslik va siyosatshunoslik yo‘nalishlarida muhim tarixiy manba sifatida o‘rganiladi. Tuzukdagi qonun ustuvorligi, adolat, mas’uliyat, maslahatlashuv va intizom tamoyillari hozirgi zamon boshqaruv tizimlari bilan ma’lum ma’noda uyg‘unlik kasb etadi.

Mustaqil O‘zbekiston sharoitida milliy davlatchilik an’analari va tarixiy merosni o‘rganish muhim vazifa hisoblanadi. Bu borada Temur tuzuklari davlat boshqaruvining tarixiy ildizlarini anglash, huquqiy tafakkurni boyitish va milliy g‘ururni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, “Temur tuzuklari” — bu oddiy tarixiy asar emas, balki o‘z davrida mukammal ishlab chiqilgan davlat boshqaruvi konsepsiyasidir. Unda markazlashgan boshqaruv, qonun ustuvorligi, adolat, mas’uliyat va intizom kabi tamoyillar asosiy o‘rin egallaydi. Amir Temur tomonidan ilgari surilgan ushbu g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Shu bois Temur tuzuklari nafaqat tarixiy meros, balki davlat boshqaruvi nazariyasining muhim huquqiy asosi sifatida baholanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Amir Temur Ko‘ragoni. Temur tuzuklari. – Toshkent: “IJOD PRESS”, 2019. -160 bet
2. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent, 2001
3. Bo‘riboy Ahmedov. Amir Temur darsligi. – Toshkent, 2016

4. Ibrohim Mo‘minov. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. – Toshkent: Fan, 1993.

DURPOSHSHO XUDOYNAZAROVA SHE’RIYATINING BADIIYATI

Xudayberganov Yodgorbek Sotimbayevich
Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada xorazmlik ayol ijodkor Durposhsho Xudoynazarova she’rlarining badiiyati tahlil qilingan. Tabiat haqidagi “Rangtasvir” she’rida orginal o‘xshatishlar, falsafiy xarakterga ega “Tashrif” she’ridagi tasavvufiy qarashlar, “Xorazm” she’rida vatanini shu muhitgagina xos bo‘lgan jihatlarni bayon qilish usullari tahlil qilingan.

Kalit so‘z: Xorazm adabiy muhiti, “Rangtasvir” she’ri, “Tashrif” she’ri, “Xorazm” she’ri

Durposhsho Xudoynazarova Boltaboyevna 1963-yil 4-iyulda Xorazm viloyati Bog‘ot tumanining Qipchoq qishlog‘ida ziyoli oilada dunyoga kelgan. Ilk she’riy to‘plami “Girdobdagi gul” 1999-yilda nashrdan chiqqan. 2022-yil “Bir tutam yog‘du” nomli she’riy kitobi keng o‘quvchilar ommasiga taqdim etildi.

Durposhsho Xudoynazarovaning she’riyati olamidagi rang-baranglik mavzular ko‘lamida, tesha tegmagan original o‘xshatish, tashbehlarda va o‘ziga xos ifoda yo‘sinida ko‘zga tashlanib turadi. Jumladan, tabiat tasvirining shoira ijodiga xos oshiqona notalarda kuylanishini quyidagi “Rangtasvir” she’rida ko‘rishimiz mumkin:

Maysalarning sho‘x davrasida
Qoqio‘tlar turar mastona.
Qumrilarning mahzun sasidan
Kabutarlar bo‘lar devona...[85]

Bu banddagi tabiatga oshiqlik ruhidan shuni anglashimiz mumkinki, shoira o‘zining ko‘nglida jo‘sh urayotgan muhabbatni “qoqio‘tlar”ga, “kabutarlar”ga ko‘chiradi. She’rda lirik qahramonning faqat bitta xususiyati, tabiatga oshiqligi namoyon bo‘ladi. Insonga xos xususiyatlarning predmetga ko‘chishining go‘zal ifodalari she’rning oxirgi bandida ham davom etadi:

Lolalarning libosi - alvon,
Oshiqlarning oladi hushin.

[85] 1. Durposhsho Xudoynazarova. “ Bir tutam yog`du”. Xorazm yoshlari-Urganch, 2022

Har bir giyoh - muattar jahon,
Ayta boshlar suvlarga tushin...
Adirlarda yam - yashil insho.

Endi bu bandda shoira “giyoh”larni vosita qilib oladi. Uning hidlari hech qanday cheklovlarsiz dunyoni bo‘ylashi esa tushga qiyos qilinadi. Ya’ni tushdagi inson kabi xohlagan makonda va zamonda bo‘lishi mumkinligiga ishora qilinadi. “Ayta boshlar suvlarga tushin…” kabi xalq og‘zki ijodini joyida qistirib ketilishi esa shoiraning mahoratidan nishonadir. E’tibor berib qarasak, bu xalq og‘zaki ijodining o‘zida tabiat unsuri, suv, bor. Tabiatga bog‘langan she’rda insonga xos “tush” detalini va tabiatning unsurini o‘zida jamlagan xalq og‘zaki ijodini o‘z o‘rnida yopishtirib ketishi she’rning badiiy qimmatini yanada oshirgan.

Shoiraning “Tashrif”[86] she’rida falsafiy qarashlar ilgari suriladi. Shoira:

Men keldim samoviy kengliklar osha,
Inson deb atalgan nafasga mahkum.

-degan misralar bilan she’rni boshlaydi. Shoira shu ikki misralarning o‘zida konfliktni yuzaga keltiradi. Bunda lirik qahramon “samoviy kenglik”ni erk deb biladi va unga qarshi tarafda tug‘ilishni, insonni va tiriklikni qullik, mahkumlik deb ataydi. Ayni damda shu mahkumlik “nafas” so‘zi bilan ham izohlab o‘tiladi. Bu bilan lirik qahramon “inson” bo‘lib yashash o‘tkinchiligiga, nafas kabi qisqaligiga ishora qiladi. Bu esa mubolag‘a san’atining betakror ifodasini yuzaga keltirgan. Bandning keyingi ikki misrasida esa samodan ayrilishning, tiriklikka mahkum etilishning sababi keltiriladi:

Hukmi mutlaq edi ishqqa yarasha,
Sohir muhabbatga yarasha hukm...

Bu misralar endi bandda nima haqida fikr yuritilayotganini yanada ravshanlashtiradi. “Ishqqa yarasha” hukm, “Sohir muhabbatga” berilgan hukm deganda nima nazarda tutilmoqda? Bu bilan shoira nima demoqchi? Bu savollarga javob izlash uchun esa insoniyat yaratilishiga oid diniy-tasavvufiy qarashlarga suyanish kerak. Ya’ni shoira bu bilan Odam Ato va Momo Havoning jannatdan quvilishiga ishora qilyapti. Diniy-tasavvufiy ta’limotga ko‘ra Alloh bandalarini o‘ziga ibodat qilishi uchun, muhabbat qo‘yishi uchun yaratgan. Ammo ular o‘z Egalariga yetarli darajada ishq qo‘yolmadilar, bu yo‘lda sustkashlik qildilar. Ya’ni shaytonning aldamchi “Sohir muhabbatiga” aldandilar. Shuning uchun ham ular o‘zining qalbidagi “ishqqa yarasha” hukm etildilar. Keyingi

[86] O‘sha manba

bandlarda lirik qahramonning “mahkumlikda” o‘tgan hayoti tasvirlanadi:

Chechaklarga burkab o‘ng-u ro‘yoni,
Ko‘ngul ufqlariga lolalar tikdim.
Gul-chaman ko‘rmoqni istab dunyoni,
Umidlar qadadim, ilinjlar ekdim.

Lirik qahramon bu bandda jannatni izlaydi. Buning uchun lirik qahramon asir etilgan dunyosini “Chechaklarga burkab o‘ng-u ro‘yoni” jannatga o‘xshatishga kirishadi. U nafaqat atrofini, balki ruhiy dunyosini ham o‘zgartiradi. Buni biz “ro‘yo” so‘zidan anglab olishimiz mumkin. Bilamizki, ro‘yo insonda fizologik o‘zgarishlar natijasida hosil bo‘ladigan jarayon. Bu vaziyatda insonda nimani ko‘proq ko‘rish istagi tug‘ilsa, o‘sha narsa inson ko‘z oldida paydo bo‘ladi. Demak, lirik qahramon jannatni qayta ko‘rish uchun botinni ham tarbiya qiladi, qalbiga umidlar qadaydi, ilinjlar ekadi. Undagi istak shu darajada kuchliki, ko‘ngil ufqlari hijrondan, iztirobdan lola kabi qizarib qonga to‘lgan. Keyingi bandda lirik qahramonning murodiga yetishishiga guvoh bo‘lamiz:

Iltijodan ungan - ilohiy ne’mat,
Bog‘i Jahonoro, Bog‘i Dilkusho...
Falaktoz obida - falaktoz qurbat
Mendan shaffof yodgor - samoviy insho...

Bu bandda lirik qahramon iltijo ya’ni ibodat bilan “ilohiy ne’matga” erishadi. Ikkinchi misradagi bog‘lar tahlilida esa tarixga yuzlanishimiz kerak bo‘ladi. Bunda “Bog‘i Jahonoro” Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan, “Bog‘i Dilkusho” esa Amir Temur tomonidan yaratilgan bog‘lardir. Aynan shu bog‘larni keltirilishida ham ramziylik bor. Dilkusho so‘zi fors-tojik tilida ko‘ngil ochuvchi, yaratuvchi degan ma’nolarni bildiradi. Bu bilan ijodkor iltijo, duo orqali inson g‘uborlangan, kirlangan ko‘ngillarini ochadigan yo‘lni topishi, yaratishi mumkinligini aytadi. Banddagi “Falaktoz obida - falaktoz qurbat” misrasi ham alohida tahlilni talab qiladi. Bunda biz “Falaktoz” qo‘shma so‘zi tarkibidagi “toz” leksemasining ma’nosiga e’tibor qaratishimiz lozim. Toz so‘zi boshning sochsiz qismiga nisbatan qo‘llanadi. Xo‘sh, nega falaktoz? Tasavvufda soch dunyo ramzi ekanligiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, toz so‘zining misra tarkibidagi ma’nosi yanada oydinlashadi. Soch va toz so‘zlarini bir-biriga zidlantiradigan bo‘lsak, misrada toz so‘zi zimmasiga dunyosiz, tarki dunyo qilgan inson ma’nosi yuklatilgnini ko‘rishimiz mumkin. Endi

misradagi boshqa so‘zlarni ham izohlaydigan bo‘lsak, falak so‘zi Alloh makoni, “qurbat” so‘zi esa Allohga yaqinlashish ma’nosida kelganligini anglaymiz. Ana endi izohlarni umumlashtirsak, quyidagicha xulosa chiqarishimiz mumkin. Misrada “Falaktoz obida” birikmasi qabr degan mazmunni anglatyapti, “Falaktoz qurbat” jumlasi esa bu foniy dunyodan ham ruhan, ham qalban kecholgan insongina Alloh vasliga erisha oladi degan g‘oyani ilgari suryapti. Ya’ni tasavvufga ko‘ra vahdat ul-vujud hosil qiladi.

Shoiraning vatanni madh etuvchi she’rlarida ham o‘ziga xos yondoshuvlarni ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, shoira “Xorazm”[87] she’rida vatanini shu muhitgagina xos bo‘lgan jihatlarni bayon qilish yo‘sinida tasvirlayda. Shoira ortiqcha she’riy san’atlarsiz, musiqiy ohang shaklida oson tushuniladigan jumlalar orqali milliylikni, tabiatimizni kuylaydi. She’rning uchinchi bandida esa orginal qiyoslashni ko‘rishimiz mumkin:

Kaltaminor - uzun iztirob,
Unsiz savol ham unsiz javob,
Asrlarga ibratli xitob -
Naqshi nigor, zarhal Xorazm.

Bu bandda shoira kaltaminor obyektining spetsifikasidan, ya’ni kaltaligidan, foydalangan holda Xorazmning tarixini “uzun iztirob” deyish orqali hech kimnikiga o‘xshamagan konfliktni yaratadi. Keyingi bandlarda muallif Xorazmlik avliyo, shoir-ijodkor va san’atkorlarni xalq qanday tasavvur etishi jihatidan nomlarini turli sifatlashlar bilan keltirib o‘tadi:

Orol - asrim chuqur yarasi,
Yuragimning qonli porasi,
Bolam, sensan najot qal’asi,
To‘zonlari - asal Xorazm.
...Ming tirilib, ming marta o‘lib,
Qad rostlagan har gal Xorazm.

She’rning yuqoridagi keyingi ikki bandida shoira Xorazmning og‘ir ekologik mintaqa ekanligini eslatib o‘tgan holda yosh avlodga xitob qiladi. Yurtni va tabiatni asrash ularning qo‘lida ekanligini, ular “najot qal’asi” ligini aytadi. Shoira she’rning oxirgi bandida yurtdagi har qanday qiyinchilikka qaramasdan uni sevishini, ulug‘lashini va bu “Ming tirilib, ming marta o‘lib, har gal qad rostlagan Xorazm”ni nurli kelajakka mash’al bo‘lishini ta’kidlaydi.

Yo‘llarimda mash’al Xorazm.

[87] O‘sha manba

Yo‘llarimda mash’al Xorazm!

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Durposhsho Xudoynazarova she’riyatning ilmini chuqur egallagan intellektual ijodkordir. Chunki badiiyatan boy she’rlarni yarata olgan. Tabiat haqidagi “Rangtasvir” she’rida orginal o‘xshatishlar ko‘zga tashlansa, falsafiy xarakterga ega “Tashrif” she’rida esa tasavvufiy bilimlarni ham chuqur egallaganini ko‘rishimiz mumkin. Shoira ijodini kuzatar ekanmiz, bu kabi nozik tasvirlarga ega, katta falsafiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega ijod namunalarini ko‘plab uchuratishimiz mumkin. Bu esa o‘zbek millati shoiriman degan, har bir ijodkorimizda xalqparvarlik hislatlari jo‘sh urishini, shuningdek, bunday ulug‘ vazifani o‘zlariga muqaddas burch deb bilishlarini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Durposhsho Xudoynazarova. “ Bir tutam yog`du”. Xorazm yoshlari-Urganch, 2022

TO’LIQ VA OTA OBRAZI SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ismailova Mohinur Maqsud qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: ushbu tezis to‘liq va noto‘liq oilalarda ota obrazi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qiladi. Tadqiqotning maqsadi ota obrazining bolada emotsional xavfsizlik, ijtimoiy moslashuv va o‘zini anglash jarayonlari bilan bog‘liqligini aniq-lashdir. Metodologiya sifatida nazariy tahlil va empirik yondashuvlar integratsiyasi asoslanadi. Ilmiy yangilik ota obrazini oilaviy tarkib, tarbiya uslubi va kommunikativ amaliyotlar kesishmasida izohlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ota obrazi; to‘liq oila; noto‘liq oila; ijtimoiylashuv; emotsional xavfsizlik; tarbiya uslubi; identifikatsiya

Аннотация:в тезисе анализируются социально-психологические особенности формирования образа отца в полных и неполных семьях. Цель исследования — выявить связи образа отца с эмоциональной безопасностью, социальной адаптацией и процессами самосознания ребенка. Обосновывается интеграция теоретического анализа и эмпирических подходов. Научная новизна

состоит в интерпретации образа отца на пересечении семейной структуры, стилей воспитания и коммуникативных практик.

Ключевые слова: образ отца; полная семья; неполная семья; социализация; эмоциональная безопасность; стиль воспитания; идентификация

Abstact: this thesis examines socio-psychological features of father image formation in two-parent and single-parent families. The study aims to identify how the father image relates to children's emotional security, social adaptation, and self-concept development. The methodology integrates theoretical analysis with an empirically oriented framework. Scientific novelty lies in explaining the father image through the interplay of family structure, parenting styles, and everyday communicative practices.

Keywords: father image; two-parent family; single-parent family; socialization; emotional security; parenting style; identification

Oila bolada dastlabki ijtimoiy tajriba, me'yorlar va munosabatlar modelini shakllantiradigan eng yaqin muhit bo‘lib, undagi ota obrazi shaxs taraqqiyotining muhim psixologik konstruktlaridan biri hisoblanadi. Ota obrazi deganda faqat real shaxsning xarakteri emas, balki bola ongida ota bilan bog‘liq kognitiv tasavvurlar, emotsional munosabatlar, xulqiy kutishlar va qadriyatlar majmui tushuniladi. Mazkur obraz bola uchun himoya, talabchanlik, adolat, mas'uliyat, ijtimoiy maqom va erkaklik roliga doir ramziy belgilarni ham mujassamlashtiradi. Shu sababli ota obrazining shakllanishi faqat individual psixologik jarayon sifatida emas, balki oilaviy tuzilma, kommunikatsiya, tarbiya uslubi, iqtisodiy resurslar, yaqin-qarindoshlar tarmog‘i hamda madaniy me'yorlar bilan shartlangan ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida qaralishi lozim.

To‘liq oilada ota obrazi odatda kundalik muloqot, birgalikdagi faoliyat va qaror qabul qilish amaliyotlari orqali barqarorroq, ko‘p kanalli va situatsion jihatdan boy tajribada shakllanadi. Bunda bola otaning turli rollardagi namoyon bo‘lishini ko‘radi: oilaviy ta'minot, intizom, emotsional qo‘llab-quvvatlash, muammolarni hal qilish, onaga munosabat, mehnat va dam olish madaniyati. Bandura ta'kidlagan kuzatish orqali o‘rganish mexanizmlari doirasida bola otaning xulqini model sifatida qabul qiladi, ayniqsa mukofot va jazo konturlarining izchilligi hamda emotsional munosabatning barqarorligi mavjud bo‘lsa, ichki me'yorlar tezroq internalizatsiyalanadi [7]. Shu bilan birga, to‘liq oilaning o‘zi avtomatik ravishda ijobiy ota obrazini kafolatlamaydi: ota-onalar o‘rtasidagi nizolar, inkongruent tarbiya uslublari yoki otaning

emotsional sovuqligi bola ongida ambivalent, ba’zan esa xavotirli ota obrazini shakllantirishi mumkin. Demak, strukturaviy “to‘liqlik”dan ko‘ra, ota ishtirokining sifati va kommunikativ muhitning psixologik xavfsizligi hal qiluvchi omil bo‘lib chiqadi.

Noto‘liq oilada ota obrazi shakllanishi ko‘pincha bilvosita yo‘llar orqali kechadi: onaning narrativlari, ijtimoiy stereotiplar, qarindoshlar tajribasi, ommaviy axborot vositalaridagi namoyishlar, shuningdek, otaning epizodik uchrashuvlari yoki masofaviy aloqalari (telefon, messenjer) orqali. Bu sharoitda obrazning fragmentarligi va idealizatsiya yoki devalvatsiya kabi kognitiv og‘ishlarga moyillik kuchayadi. Masalan, otadan ajralish travmatik kontekstda kechgan bo‘lsa, onaning emotsional holati va baholovchi gaplari bola tasavvurida “xavfli” yoki “ishonchsiz” ota sxemasini mustahkamlashi ehtimoli bor; aksincha, ota haqidagi ortiqcha idealizatsion tasvirlar real uchrashuvlarda mos kelmaslik hissini kuchaytirib, frustratsiya va tajovuzkorlikka olib kelishi mumkin. Bu holatlar bog‘lanish nazariyasi nuqtai nazaridan bola xavfsiz tayanchni qayta qurishga urinishi, ammo figurativ tarzda “mavjud bo‘lmagan” ota bilan bog‘lanishning noaniqligi xavotirli bog‘lanish strategiyalarini qo‘llab-quvvatlashi bilan izohlanadi [6]. Demak, noto‘liq oilada ota obrazining mazmuni ko‘pincha real tajribadan ko‘ra, kommunikativ vositachilar va interpretatsiya tizimlari orqali quriladi.

Ota obrazining ijtimoiy-psixologik determinantlarini tahlil qilishda uchta asosiy kesishma ajratiladi: oilaviy tarkib (to‘liq yoki noto‘liq), tarbiya uslubi va kommunikativ amaliyotlar. Tarbiya uslubi doirasida otaning avtoritativ, avtoritar, befarq yoki haddan tashqari erkin yondashuvi bola tomonidan qabul qilinadigan adolat va ishonchlilik mezonlarini belgilaydi. Avtoritativ uslubda talabchanlik va mehr muvozanati ota obrazini “qat’iy, ammo adolatli” sifatida barqarorlashtirsa, avtoritar uslub “jazolovchi” yoki “muloqotsiz kuch” sifatida idrok etilishiga sharoit yaratadi. Noto‘liq oilalarda tarbiya yukining asosan onaga tushishi, rol taqsimotining o‘zgarishi va resurslar tanqisligi tufayli nazorat yoki himoyachilik kuchayishi, bu esa bolada ota roliga doir ehtiyojni kuchaytirib, kompensator tasavvurlarni faollashtirishi mumkin. Shuningdek, maktab va mahalla kabi mezotizimlarning (Bronfenbrenner ekologik yondashuvi) kompensator imkoniyatlari muhim: murabbiylar, amaki-tog‘alar yoki boshqa erkak referent shaxslar ijtimoiy rol namunalarini qisman to‘ldiradi, ammo bu “ota” obrazining o‘zini emas, ko‘proq “erkaklik roli” va “himoya” funksiyasini substitutsiya qiladi [4]. Shu sababli substitutsiya to‘liq ekvivalent bo‘lolmaydi, biroq psixologik xavfsizlikni tiklashga xizmat qilishi mumkin.

Ota obrazining rivojlanish dinamikasi yosh davrlariga ko‘ra ham farqlanadi. Maktabgacha davrda obraz ko‘proq emotsional tonalitet va yaqinlik tajribasi asosida shakllanadi; kichik maktab yoshida esa ota me’yorlar, intizom va “nima mumkin, nima mumkin emas” chegaralarining tashuvchisi sifatida idrok etiladi. O‘smirlikda ota obrazi avtoritet va identifikatsiya manbai sifatida qayta baholanadi: o‘smir otaning qadriyatlarini tanqidiy ko‘rib chiqadi, mustaqillik ehtiyoji kuchayadi, shu bilan birga, ijtimoiy maqom va kelajak kasbiy yo‘nalish bo‘yicha otaning qo‘llab-quvvatlashi ayniqsa ahamiyatli bo‘ladi. Noto‘liq oilalarda o‘smirlik davrida ota obraziga doir savollar keskinlashishi, “nega u yo‘q” mazmunidagi kognitiv izlanishlar ortishi mumkin; agar bu savollarga kattalar tomonidan xolis, faktlarga tayangan va emotsional jihatdan ehtiyotkor javob berilmasa, o‘smir o‘z interpretatsiyalarini qurib, o‘zini ayblash yoki tajovuzkor himoya mexanizmlariga o‘tishi ehtimoli ortadi. Bu jihat amaliy psixologik maslahat va psixoprofilaktika uchun bevosita ahamiyatga ega.

Mazkur mavzuning metodologik asosida shaxs munosabatlari konsepsiyasi, ijtimoiy o‘rganish nazariyasi va oilaviy tizim yondashuvi bir-birini to‘ldiruvchi izohlar beradi. Shaxs munosabatlari doirasida ota obrazi bolada “men-boshqa” tizimidagi barqaror munosabatlar tugunlaridan biri bo‘lib, u o‘z-o‘zini baholash, ishonch, mas’uliyat va irodaviy sifatlar bilan uzviy bog‘lanadi [1]. Oilaviy tizim yondashuvida esa ota obrazi alohida shaxsning xususiyati emas, balki tizim ichidagi chegaralar, koalitsiyalar, kommunikatsiya qoidalari hamda nizolarni boshqarish uslubi bilan bog‘liq bo‘lgan “tizimli mahsulot” sifatida ko‘riladi [2]. Aynan shu integrativ nuqtai nazar to‘liq va noto‘liq oilalarda uchraydigan turli psixologik natijalarni bir yoqlama baholamasdan, sharoit va mexanizmlarni aniqlashga imkon beradi.

Ilmiy yangilik sifatida ota obrazini to‘liq va noto‘liq oilalarda “ishtirok sifati” mezoni bilan farqlash taklif etiladi, chunki amaliyotda otaning rasmiy mavjudligi bilan uning tarbiyaviy va emotsional ishtiroki har doim ham mos kelmaydi. Bu yondashuvda ota obrazining konstruktivligi uch ko‘rsatkich orqali baholanadi: izchillik (va’dalar va xatti-harakatlarning mosligi), emotsional mavjudlik (tinglash, hamdardlik, qo‘llab-quvvatlash) va adolatli chegaralar (tushunarli talablar, hurmatga asoslangan nazorat). Noto‘liq oilalarda esa kon-struktiv ota obrazini qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy-psixologik shartlari sifatida ota haqidagi neytral va faktologik narrativ, bola bilan uning yoshiga mos muloqot, shuningdek, erkak referent shaxslar bilan xavfsiz va barqaror aloqalarni yo‘lga qo‘yish ajratiladi. Bunda onaning otaga nisbatan

shaxsiy ranjini bolaga “tarbiyaviy axborot” sifatida yuklamaslik, bolaning identifikatsiya ehtiyojini hurmat qilish va uning savollariga himoyalovchi, ammo rostgo‘y javoblar berish muhim psixogigiyenik talab sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish nuqtai nazaridan, maktab psixologi va mahalla ijtimoiy xodimi hamkorligida “ota obrazi” bilan ishlash dasturlari ishlab chiqilishi mumkin. Bunday dasturlar to‘liq oilalarda otaning emotsional ishtirokini kuchaytirish, muloqot madaniyatini yaxshilash va nizolarni konstruktiv hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi. Noto‘liq oilalarda esa psixologik maslahatning markazida bolada otaga doir ambivalent hislarni nomlash, yo‘qotish tajribasini ekologik tarzda qayta ishlash, shuningdek, ijtimoiy tayanch tarmoqlarini kengaytirish turadi. Shu bilan birga, har ikki turdagi oilalarda ham “ota obrazi”ni faqat jinsiy rol stereotiplari bilan cheklab qo‘ymasdan, uni mas’uliyat, halollik, mehnatsevarlik, emotsional madaniyat va hamkorlik qadriyatlari bilan bog‘lab talqin qilish shaxs taraqqiyoti uchun samaraliroq yo‘nalish hisoblanadi.

Xulosa: to‘liq va noto‘liq oilalarda ota obrazi shakllanishi o‘xshash psixologik ehtiyojlar asosida kechsada, ularni ta’minlovchi mexanizmlar va risk omillari farqlanadi. To‘liq oilada ota obrazining barqarorligi ko‘proq bevosita muloqot sifati, tarbiya uslubining izchilligi va oilaviy nizolarni boshqarish madaniyatiga bog‘liq bo‘lsa, noto‘liq oilada obraz ko‘pincha bilvosita narrativlar va ijtimoiy vositachilar orqali quriladi hamda fragmentarlik, idealizatsiya yoki devalvatsiyaga moyillik kuchayadi. Ota obrazining konstruktiv shakllanishi uchun hal qiluvchi omil otaning rasmiy maqomi emas, balki emotsional mavjudlik, adolatli chegaralar va izchil mas’uliyatga asoslangan ishtirokdir. Mazkur yondashuv psixoprofilaktika, oilaviy maslahat va maktab psixologiyasi amaliyotida differensial, sharoitga mos strategiyalarni ishlab chiqish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

[1] Мясищев В. Н. Психология отношений. Ленинград: Издательство Ленинградского университета, 1960. 592 с.

[2] Варга А. Я., Столин В. В. Системная семейная психотерапия: основы и практика. Москва: Когито-Центр, 2001. 384 с.

[3] Гуревич П. С. Социальная психология: учебник для вузов. Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2010. 415 с.

[4] Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge (MA): Harvard University Press, 1979. 330 p.

[5]Bowlby J. Attachment and Loss. Vol. 1: Attachment. New York: Basic Books, 1969. 428 p.

[6] Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya: darslik. Toshkent: O‘zbekiston, 2011. 320 b.
[7] Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs (NJ): Prentice-Hall, 1977. 247 p.

DIQQAT - PSIXOLOGIK JARAYON SIFATIDA: NAZARIY TAHLIL, NEYROFIZIOLOGIK ASOSLAR

Shonazarova Sevara Anvar qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Psixologiya yo’nalishi magistranti

Abstract: This article extensively examines the essence of attention as a psychological process, its structure, types, properties, and functions. The main theoretical approaches to attention W. James, W. Wundt, D. Broadbent, A. Treisman, M. Posner, and D. Kahneman are analyzed. The neurophysiological foundations of attention, including the role of the prefrontal cortex and the reticular formation, are highlighted. The scientific contributions of Uzbek psychologists E. G’oziyev, R. Baratov, and M. Davletshin to the study of attention are described. In addition, methods for diagnosing attention Toulouse-Piéron, Schulte, and Bourdon tests and their practical application are presented.

Keywords: attention, voluntary attention, involuntary attention, postvoluntary attention, concentration, stability, shifting, distribution, span, selective attention, cognitive control, prefrontal cortex, reticular formation, flow state, diagnostics, educational psychology.

Аннотация: В данной статье всесторонне рассмотрена сущность внимания как психологического процесса, его структура, виды, свойства и функции. Проанализированы основные теоретические подходы к вниманию концепции У. Джеймса, В. Вундта, Д. Бродбента, А. Трейсман, М. Познера, Д. Канемана. Освещены нейрофизиологические основы внимания, роль префронтальной коры и ретикулярной формации. Описан научный вклад узбекских психологов Э. Гозиева, Р. Баратова и М. Давлетшина в изучение процесса внимания. Кроме того, представлены методы диагностики внимания тесты Тулуз–Пьерона, Шульте и Бурдона, а также их практическое применение.

Ключевые слова: внимание, произвольное внимание, непроизвольное внимание, послепроизвольное внимание, концентрация, устойчивость, переключение, распределение, объем, селективное внимание, когнитивный контроль, префронтальная

кора, ретикулярная формация, состояние потока, диагностика, психология образования.

Annotatsiya: Ushbu maqolada diqqatning psixologik jarayon sifatidagi mohiyati, tuzilishi, turlari, xossalari va vazifalari keng ko'lamda ko'rib chiqilgan. Diqqatning asosiy nazariy yondashuvlari W. James, W. Vundt, D. Broadbent, A. Treisman, M. Posner, D. Kahneman konsepsiyalari tahlil qilingan. Diqqatning neyrofiziologik asoslari, prefrontal korteks va retikulyar formatsiyaning roli yoritilgan. O'zbek psixologlari E. G'oziyev, R. Baratov va M. Davletshinlarning diqqat jarayonini o'rganishdagi ilmiy hissasi bayon etilgan. Bundan tashqari, diqqatni diagnostika qilish metodlari - Tuluz-Piron, Shulte va Bourdon testlari va ularning amaliy qo'llanilishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: diqqat, ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz diqqat, postvoluntar diqqat, konsentratsiya, turg'unlik, ko'chish, taqsimlanish, hajm, selektiv diqqat, kognitiv boshqaruv, prefrontal korteks, retikulyar formatsiya, oqim holati, diagnostika, ta'lim psixologiyasi.

Diqqat - insonning ongli faoliyatini tashkil etuvchi, ma'lum bir ob'yektga psixik kuchlarni yo'naltirish va ushlab turish imkonini beruvchi asosiy kognitiv jarayonlardan biridir. Psixologiya fanida diqqat mustaqil jarayon sifatida uzoq vaqt munozarali bo'lib kelgan: bir guruh olimlar uni mustaqil psixik jarayon deb hisoblasa, boshqalari uni sezgi, idrok va tafakkur kabi jarayonlarning xususiyati sifatida talqin etgan. Bugungi kunda esa kognitiv neyropsixologiya diqqatning neyral asoslarini eksperimental jihatdan isbotlash orqali uni mustaqil va o'lchanadigan psixologik konstrukt sifatida tan oldi [1].

Diqqatni o'rganish dolzarbligi bir necha jihatdan namoyon bo'ladi. Birinchidan, zamonaviy axborot jamiyatida inson har kuni ulkan hajmdagi ma'lumotlar oqimi bilan to'qnashadi va bu diqqatni boshqarish qobiliyatiga katta talab qo'yadi. Ikkinchidan, boshlang'ich va o'rta ta'limda diqqat buzilishlarining ko'payib borishi psixologlar va pedagoglardan yangi yondashuvlar ishlab chiqishni talab etmoqda. Uchinchidan, O'zbekistonda ta'lim islohoti sharoitida o'quvchilarning kognitiv potentsialni to'liq ro'yobga chiqarishi uchun diqqatni ilmiy asosda rivojlantirish zarurati ortib bormoqda [2].

Psixologiya tarixida diqqatni o'rganish W. Jamesning klassik asari "The Principles of Psychology" bilan boshlangan. James diqqatni quyidagicha ta'riflagan: "Diqqat - bu ko'rinadigan bir necha ob'yekt yoki fikrlar qatoridan birini onging tomonidan aniq va yorqin tarzda tanlab olishidir. Ong torayishi va konsentratsiyalanishi uning mohiyatini tashkil etadi." James ixtiyoriy (aktiv) va ixtiyorsiz (passiv) diqqatni farqlagan

hamda diqqatning ongli hayotdagi markaziy o'rnini ta'kidlagan. Uning qarashlari zamonaviy kognitiv psixologiyaga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan [1].

W. Vundt eksperimental psixologiya laboratoriyasida diqqatni appersepsiya ong markaziga ma'lumotlarni yetkazuvchi mexanizm sifatida o'rgandi. U diqqatning ikkita darajasini ajratdi: persepsiya - ong chekkasida joylashgan ma'lumotlarni qabul qilish va appersepsiya - ong markazida to'liq anglash. Vundtning eksperimental usullari diqqatni o'lchash metodologiyasining poydevorini yaratdi. Uning reaksiya vaqtini o'lchash tajribalari diqqatning ma'lumot qayta ishlash tezligiga ta'sirini birinchi bor miqdoriy jihatdan ko'rsatdi [2].

XX asrning ikkinchi yarmida kognitiv psixologiyaning rivojlanishi diqqat tadqiqotlarida yangi bosqichni boshlab berdi. D. Broadbent o'zining "filtr nazariyasi" bilan inson sezgi organlari qabul qilgan ma'lumotlarning ong tomonidan tanlab filtrlanishi mexanizmini tushuntirdi. Uning "ikki quloq" tajribasida ishtirokchilar bir vaqtda ikki turli xil xabar eshitishi va faqat bittasiga e'tibor qaratishi talab etildi. Tajriba natijalari diqqatning o'ta tanlovchi (selektiv) xarakter kasb etishini isbotladi. A. Treisman Broadbent nazariyasini takomillashtirdi: uning "xususiyatlarni birlashtirish nazariyasi" vizual diqqatning ob'yektning alohida xususiyatlarini (rang, shakl, hajm) parallel qayta ishlab, so'ng ularni bir butun obrazda birlashtirish orqali ishlashini ko'rsatdi [3].

M. Posner diqqatning uchta alohida tarmog'ini - oriyentatsiya (yangi stimulga yo'nalish), kuzatuv (muhim ma'lumotni ushlab turish) va ijroiya (ziddiyatli signallar orasida boshqaruv) tarmog'ini - ajratib ko'rsatdi hamda ularning neyral asoslarini aniqladi. Posnerning "fazoviy diqqat" eksperimentlari diqqatning ko'z harakatsiz ham fazoda ko'chirilishi mumkinligini, ya'ni ichki diqqat yo'nalishi mavjudligini isbotladi. Ushbu kashfiyot diqqatni sensor jarayonlardan mustaqil holda o'rganish imkoniyatini berdi [3].

D. Kahneman diqqatni cheklangan kognitiv resurs sifatida tavsifladi. Uning "resurslar nazariyasi" bir vaqtda bir necha vazifani bajarishning chegaralarini tushuntirib berdi: har bir vazifa ma'lum miqdorda kognitiv resurs talab etadi va agar umumiy talab mavjud resursdan oshib ketsa, unumdorlik pasayadi. Bu nazariya zamonaviy multitasking tadqiqotlarining nazariy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Psixologik adabiyotlarda diqqatning uchta asosiy turi ajratiladi. Ixtiyorsiz diqqat - irodaviy kuch sarflamasdan, kuchli, yangi yoki emotsional ahamiyatli stimullar ta'sirida o'z-o'zidan paydo bo'ladigan

diqqat turi. Bu tur evolyutsion jihatdan eng qadimiy bo'lib, xavf signallariga tez va avtomatik reagirlash funktsiyasini bajaradi. Ixtiyoriy diqqat - maqsad va niyat asosida ongli ravishda boshqariladigan diqqat turi. U ko'proq kognitiv kuch talab etadi va prefrontal korteksning aktiv ishtiroki bilan amalga oshiriladi. L.S. Vigotskiy bu diqqat turini oliy psixik funksiya sifatida ta'riflagan va uning ijtimoiy-madaniy sharoit ta'sirida shakllanishini ko'rsatgan. Post-ixtiyoriy diqqat - dastlab ixtiyoriy boshlangan, ammo qiziqish yoki mahorat ortishi natijasida zo'riqishsiz saqlanib qolgan diqqat turi. N.F. Dobrynin tomonidan ajratilgan bu tur ta'lim jarayonida eng samarali holat hisoblanadi [4].

Diqqatning psixologik xossalari tizimli ravishda tavsiflanadi. Konsentratsiya - diqqatning ma'lum bir ob'yektga to'planish darajasini ifodalaydi; yuqori konsentratsiya shovqin va chalg'ituvchi omillar mavjudligida ham vazifaga e'tibor qaratish imkonini beradi. Hajm - bir vaqtning o'zida diqqat doirasida ushlab turilishi mumkin bo'lgan ob'yektlar soni; kattalar uchun bu ko'rsatkich 7±2 birlikni tashkil etadi. Turg'unlik - diqqatni bir ob'yektga uzoq muddatli saqlash qobiliyati; o'rta maktab yoshida bu ko'rsatkich 40-45 daqiqagacha yetishi mumkin. Ko'chish - diqqatni bir ob'yektdan boshqasiga ongli ravishda o'tkazish tezligi va osonligi; bu xossa ko'p vazifali faoliyatda muhim rol o'ynaydi. Taqsimlanish - bir vaqtda ikkita yoki undan ortiq faoliyatga diqqat yo'naltirish qobiliyati; avtomatlashgan ko'nikmalar mavjud bo'lganda bu xossa yanada samarali ishlaydi [5].

Zamonaviy neyrovizualizatsiya usullari yordamida diqqatning neyral asoslari aniq belgilab berildi. Prefrontal korteks, xususan dorsolateral prefrontal korteks, ixtiyoriy diqqatning asosiy markaziy tuzilmasi hisoblanadi. Bu soha ishchi xotira va ijroiya funksiyalar bilan chambarchas bog'liq holda diqqatni yuqoridan pastga boshqarish jarayonini ta'minlaydi. Oldingi chiziqli kirus esa ziddiyatli signallar orasida tanlash va diqqatni yo'naltirish bilan shug'ullanadi - Posnerning ijroiya tarmoqiga to'g'ri keladi [3].

Retikulyar faollashtiruvchi sistema ushbu jarayonda umumiy uyg'oqlik va alertlik darajasini ta'minlaydi bu ixtiyorsiz diqqatning neyral asosi hisoblanadi. Tepa bo'lagi esa fazoviy diqqatni boshqaradi va Posnerning oriyentatsiya tarmog'iga mos keladi. Neyrotransmitter tizimi nuqtai nazaridan, dopamin prefrontal korteksda ishchi xotira va ixtiyoriy diqqatni qo'llab-quvvatlaydi; noradrenalin esa signal-shovqin nisbatini oshirish orqali diqqatning selektivligini kuchaytiradi. A.R. Luriyaning neyropsiologik yondashuvi diqqat buzilishlarini frontal bo'lak

shikastlanishi bilan bog'ladi va bu klinik psixologiyada diagnostik ahamiyat kasb etdi [6].

O'zbek psixologiya fanida diqqat muammosi bir qator tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. E. G'oziyev o'zining "Umumiy psixologiya" darsligida diqqatni shaxsning umumiy psixologik faoliyatini yo'naltiruvchi va tartibga soluvchi mexanizm sifatida ko'rib chiqdi. U diqqatni boshqa psixik jarayonlar - idrok, xotira, tafakkur bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qildi va o'zbek tilida birinchi tizimli nazariy asosni yaratdi. G'oziyev tadqiqotlarida diqqatning milliy-madaniy kontekstda o'ziga xos xususiyatlari ham qayd etildi [4].

R. Baratov bolalarda diqqatning ontogenetik rivojlanishini chuqur o'rgandi. Uning tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, maktabgacha yoshda diqqat asosan ixtiyorsiz xarakter kasb etadi va tashqi yorqin stimullarga bog'liq bo'ladi. Boshlang'ich maktab yoshida ixtiyoriy diqqatning jadal rivojlanishi kuzatiladi, ammo u hali yetarlicha barqaror bo'lmaydi. O'rta maktab yoshiga kelib diqqatning barcha xossalari - konsentratsiya, turg'unlik, ko'chish sezilarli darajada takomillashadi. Ushbu ontogenetik ma'lumotlar ta'lim dasturlarini yosh xususiyatlariga mos ravishda tuzishda amaliy ahamiyat kasb etadi [4].

M. Davletshin o'quv faoliyatida diqqatning rolini va uning buzilishlarini diagnostika qilish metodlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratdi. Uning ishlarida o'zbek maktab o'quvchilari uchun moslashtirilgan diqqat testlari taqdim etildi va o'qituvchilarga diqqat buzilishlari bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'rsatmalar ishlab chiqildi. Davletshin tadqiqotlari mahalliy ta'lim muhitida diqqatni rivojlantirish dasturlarini loyihalashda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda [4].

Amaliy psixologiyada diqqatni o'lchash uchun bir qator standartlashtirilgan metodlar qo'llaniladi. Tuluz-Piron testi diqqatning konsentratsiyasi va tezkorligini o'lchovchi belgili test bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida keng qo'llaniladi. Testda bir xil ko'rinishdagi belgilar orasidan zarur belgini tezda topish talab etiladi; natijalar xatoliklar soni va bajarilgan topshiriqlar miqdori orqali baholanadi [5].

Shulte jadvallari diqqatning taqsimlanishi va ko'chishini baholashda foydalaniladi. Bourdon testi konsentratsiya va turg'unlikni baholashda ishlatiladi: uzun qatorlardagi harflar yoki raqamlar ichidan ma'lum bir belgi izlab topiladi. Conners-3 shkalasi esa ayniqsa diqqat yetishmovchiligi sindromi diagnostikasida qo'llaniladi va ota-onalar, o'qituvchilar hamda o'quvchining o'zidan ma'lumot to'playdi [5].

Diqqatni rivojlantirish ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning dars davomidagi diqqat darajasi ko'pincha 10-15 daqiqadan so'ng pasaya boshlaydi. Shu sababli, 10-15 daqiqa o'tgach qisqa tanaffuslar va faoliyat turini o'zgartirish diqqatni saqlash samaradorligini 40% gacha oshirishi mumkin[4].

Mindfulness (ongli e'tibor) mashqlari so'nggi yillarda maktab muhitida diqqatni rivojlantirishda keng qo'llanilmoqda. Meta-analitik tadqiqotlar mindfulness dasturlarining maktab o'quvchilarida diqqat va o'quv samaradorligini sezilarli darajada oshirishini isbotlagan [6].

Xulosa. Diqqat - murakkab, ko'p qirrali psixologik jarayon bo'lib, uning ilmiy o'rganilishi W. Jamesdan boshlab Posner va Kahneman-larning zamonaviy kognitiv modellarigacha bo'lgan davrda jiddiy taraq-qiyot bosib o'tgan. Neyrovizualizatsiya usullarining rivojlanishi diqqatning neyral asoslarini va uchta mustaqil tarmog'ini aniq belgilash imkonini berdi. Diqqatning turlari va xossalari haqidagi nazariy bilimlar diagnostika va korreksiya amaliyotining ilmiy asosini tashkil etadi. O'zbek psixologiya fanida G'oziyev, Baratov va Davletshinlarning tad-qiqotlari mahalliy kontekstda diqqat jarayonini o'rganishda muhim asos yaratdi. Biroq xalqaro standartlar va mahalliy ilmiy an'analarni bir-lashtirgan yangi empirik tadqiqotlar, shuningdek, ta'lim muhitiga moslashtirilgan diagnostika va rivojlantirish dasturlari ishlab chiqish zarurati mavjud bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

[1] James, W. (1890). The Principles of Psychology (Vol. 1). Henry Holt and Company. https://doi.org/10.1037/10538-000

[2] Wundt, W. (1897). Outlines of Psychology. Wilhelm Engelmann.

[3] Posner, M. I., & Petersen, S. E. (1990). The attention system of the human brain. Annual Review of Neuroscience, 13(1), 25–42. https://doi.org/10.1146/annurev.ne.13.030190.000325

[4] G'oziyev, E. (2002). Umumiy psixologiya. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.

[5] Broadbent, D. E. (1958). Perception and Communication. Pergamon Press. https://doi.org/10.1037/10037-000

[6] Kahneman, D. (1973). Attention and Effort. Prentice-Hall.

[7] Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

[8] Treisman, A. M., & Gelade, G. (1980). A feature-integration theory of attention. Cognitive Psychology, 12(1), 97–136. https://doi.org/10.1016/0010-0285(80)90005-5

[9] Zenner, C., Herrnleben-Kurz, S., & Walach, H. (2014). Mindfulness-based interventions in schools - A systematic review and meta-analysis. Frontiers in Psychology, 5, 603. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2014.00603

BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIDA RAQAMLI DIDAKTIKA: AN’ANAVIY TA’LIM VA SUN’IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI

Turdiyeva Shahlo
Ranch Universiteti Pedagogika va filologiya fakulteti Pedagogika magistr 1-kurs 25-01-guruh

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy boshlang‘ich ta’limning transformatsion jarayonlari, xususan, raqamli didaktika va sun’iy intellektning o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi tahlil qilinadi. An’anaviy pedagogik usullarning sun’iy intellekt imkoniyatlari bilan sintezi o‘quvchilarning kognitiv yuklamasini optimallashtirish va shaxsiylashtirilgan ta’lim muhitini yaratish nuqtai nazaridan yoritilgan. Tadqiqotda 2025-2026 yillardagi ta’limiy innovatsiyalar va ularning metodik asoslari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli didaktika, sun’iy intellekt, shaxsiy-lashtirilgan ta’lim, kognitiv rivojlanish, EdTech, gibrid ta’lim, mos-lashuvchan algoritmlar.

Аннотация: В данной статье анализируются транс-формационные процессы современного начального образования, в частности интеграция цифровой дидактики и искусственного интеллекта в учебный процесс. Синтез традиционных педа-гогических методов с возможностями искусственного интеллекта освещается с точки зрения оптимизации когнитивной нагрузки учащихся и создания персонализированной образовательной среды.

Ключевые слова: цифровая дидактика, искусственный интеллект, персонализированное обучение, когнитивное развитие, EdTech, гибридное обучение.

Abstract: This article analyzes the transformational processes of modern primary education, specifically the integration of digital didactics and artificial intelligence into the educational process. The synthesis of traditional pedagogical methods with AI capabilities is highlighted from the perspective of optimizing students' cognitive load and creating a personalized learning environment.

Keywords: digital didactics, artificial intelligence, personalized learning, cognitive development, EdTech, hybrid learning.

Kirish

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi “To‘rtinchi sanoat inqilobi” sharoitida ta’lim paradigmasining tubdan o‘zgarishi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim tizimida raqamli didaktika shunchaki texnik yordamchi vosita emas, balki ta’limning metodologik asosini belgilovchi strategik omilga aylandi. Global miqyosda 2026-yilga kelib, ta’lim tizimlarining 60 foizdan ortig‘i sun’iy intellekt elementlarini o‘quv dasturlariga kiritgani va bu jarayon o‘quvchi-larning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgani kuzatilmoqda (UNESCO, 2025).

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixofiziologik xususiyatlari axborotni tezkor va vizual qabul qilishga moyilligi bilan ajralib turadi. Shu bois, an’anaviy “o‘qituvchi-darslik-o‘quvchi” zanjiriga “sun’iy intellect-raqamli platforma” bo‘g‘inining qo‘shilishi ta’lim samaradorligini yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur jarayonda raqamli didaktika raqamli muhitda o‘qitishning qonuniyatlari, tamoyillari va metodlari haqidagi fan sifatida namoyon bo‘ladi (M.E.Vayndorf-Sisoeva, 2020).

Asosiy qism

Zamonaviy pedagogikada “raqamli o‘qituvchi” tushunchasi o‘rniga “gibrid pedagogika” tushunchasi faol kirib kelmoqda. Raqamli didaktikaning fundamental asosi shundaki, u o‘quv jarayonini o‘quvchining kognitiv imkoniyatlariga moslashtirishni nazarda tutadi. Sun’iy intellekt o‘qituvchiga har bir o‘quvchining o‘zlashtirish dinamikasini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Olimlarning ta’kidlashicha, SI algoritmlari o‘quvchining mavzuni o‘zlashtirishdagi to‘siqlarini soniyalar ichida aniqlab, unga aynan qaysi ko‘nikma oqsayotganini ko‘rsatib beradi va moslashtirilgan materiallarni taqdim etadi (K.Luckin, 2024).

2026-yilgi pedagogik yangiliklardan biri sifatida “Generativ ta’lim muhiti”ni alohida qayd etish joiz. Bunda o‘qituvchi dars davomida sun’iy intellekt yordamida real vaqt rejimida 3D-modellar, virtual laboratoriyalar yoki interfaol hikoyalar yaratishi mumkin. Masalan, tabiatshunoslik darsida o‘quvchi SI yordamida o‘simlikning o‘sish jarayonini tezlashtirilgan formatda ko‘rishi yoki tarixiy qahra-mon bilan “muloqot” qilishi mumkin. Bu kabi metodlar o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishini (engagement) 75 foizgacha oshirishi amaliy tajribalarda isbotlangan (S.Sharipov, 2025).

Raqamli didaktikaning yana bir ustuvor jihati “aqlli baholash”

tizimlarining joriy etilishidir. An’anaviy baholashdan farqli o‘laroq, SI tizimlari o‘quvchining nafaqat yakuniy natijasini, balki javobga borish yo‘lidagi mantiqiy qadamlarini ham tahlil qiladi. Bu esa o‘qituvchiga har bir bola uchun individual “rivojlanish xaritasi”ni chizishga yordam beradi. Quyidagi jadvalda an’anaviy didaktika va raqamli didaktikaning qiyosiy tahlili keltirilgan:

Jadval. Ta’lim tizimlarining qiyosiy tavsifi

Mezonlar	An’anaviy didaktika	Raqamli didaktika (SI bilan)
Ta’lim tempi	Guruh uchun bir xil o‘rtacha tezlik	Individual (o‘quvchi qobiliyatiga ko‘ra)
Material shakli	Statik (kitob, qo‘llanma)	Dinamik (interfaol, multimodal, VR/AR)
Qayta aloqa	Kechiktirilgan (daftarlar tekshirilgach)	Instant (lahzali tahlil va tavsiya)
O‘qituvchi roli	Axborot yetkazuvchi asosiy manba	Mentor, fasilitator va dizayner

Sun’iy intellekt integratsiyasi boshlang‘ich sinflarda “shaxsiylashtirilgan o‘quv yo‘nalishi”ni yaratish orqali ta’lim sifatini kafolatlaydi. Bu borada o‘tkazilgan so‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, SI yordamida o‘qitilayotgan o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash darajasi an’anaviy guruhlarga nisbatan 1.5 baravar yuqori bo‘lgan (R.Safarova, 2025). Shu bilan birga, boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash nafaqat bilim berish, balki o‘quvchining ijodiy salohiyatini uyg‘otishga ham qaratilgandir (Q.Abdullayeva, 2024).

Raqamli didaktika sharoitida o‘qituvchining kompetentligi ham yangicha mazmun kasb etmoqda. Endilikda pedagog nafaqat dars o‘tishni, balki raqamli resurslarni filtrlashni, sun’iy intellektga to‘g‘ri “promt” berishni va bolalarning raqamli xavfsizligini ta’minlashni o‘z zimmasiga oladi. Texnologiyalar o‘qituvchi o‘rnini bosmasdan, balki uning imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘qituvchini texnik-rutin vazifalardan ozod etib, bor e’tiborini o‘quvchilar bilan ma’naviy-axloqiy va ijodiy muloqotga qaratishiga yo‘l ochadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli didaktika va sun’iy intellekt an’anaviy ta’limni inkor etmaydi, aksincha uni yanada samaraliroq qiladi. Xulosa o‘rnida ta'kidlash lozimki, SI texnologiyalari o‘qituvchini texnik vazifalardan ozod etib, unga tarbiya va ijod bilan shug‘ullanish uchun kengroq maydon yaratadi. Boshlang‘ich sinf dars-

larida texnologiyalar o‘quvchilarning faqatgina iste’molchi emas, balki ijodkor sifatidagi salohiyatini ochishga yordam beradi. Muvaffaqiyatli integratsiya jarayoni pedagoglarning raqamli kompetentligini muttasil oshirib borishiga bog'liq bo'lib, kelajak ta’limi insoniy intellekt va sun’iy intellektning mantiqiy uyg‘unligiga asoslanishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ròyxati:

1.Abdullayeva Q. va boshqalar. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent: "O‘qituvchi", 2024.

2.Luckin K. AI in Education: Promises and Perils for the Next Generation. - London: Routledge, 2024.

3.Safarova R.X. Raqamli ta’lim muhitida shaxsning kognitiv rivojlanishi. - Toshkent: "Fan", 2025.

4.Sharipov Sh.S. Zamonaviy pedagogikada raqamli transformatsiya jarayonlari. - Samarqand: Ilm-ziyo, 2025.

5.UNESCO. Guidelines for AI in Primary Education: Global Perspectives 2025-2026. - Paris: UNESCO Publishing, 2025.

6.Vayndorf-Sisoeva M.E. Sifrovaya didaktika: uchebnoye posobiye. - Moskva: Yurayt, 2020.

YUQORI SINF O‘QUVCHILARDA HARBIY TASAVVURLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abdullaev Shoxzod Zarifboy o‘g‘li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda yuqori sinf o‘quvchilarida harbiy tasavvurlar shakllanishining psixologik xususiyatlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. O‘smirlik davrida yuz beradigan kognitiv, emotsional va motivatsion o‘zgarishlar harbiy kasbga bo‘lgan qiziqish shakllanishida muhim omil sifatida qaraladi. Shuningdek, oila, maktab va ijtimoiy muhitning ta’siri, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining o‘quvchilar ongida aks etishi ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: harbiy tasavvur, psixologik rivojlanish, o‘smirlik davri, motivatsiya, vatanparvarlik, ijtimoiy muhit, kasbiy yo‘nalish.

Yuqori sinf o‘quvchilari shaxs sifatida shakllanishning muhim bosqichida turadi. Aynan shu davrda ular o‘z kelajagini rejalashtirish, kasb tanlash va hayotiy maqsadlarini aniqlashga intiladi. Bu jarayonda harbiy tasavvurlar alohida ahamiyat kasb etadi. Harbiy tasavvurlar – bu

o‘quvchilarning harbiy xizmat, Vatan himoyasi, harbiy kasb egalari, intizom, jasorat va burch kabi tushunchalar haqidagi bilimlari va qarashlaridir.[1] Ushbu tasavvurlar o‘quvchilarning ichki dunyosi, qiziqishlari va ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi. O‘smirlik davrida shaxsda mustaqillik, o‘zini namoyon qilish va o‘z qadr-qimmatini anglash ehtiyoji kuchayadi. Shu sababli o‘quvchilar kuchli, jasur va qat’iyatli insonlar obraziga intiladi. Harbiy kasb esa aynan shu sifatlarni mujassam etgani uchun ular uchun jozibador bo‘lib ko‘rinadi. [2]Shuningdek, yuqori sinf o‘quvchilarining tafakkuri ham rivojlangan bo‘ladi. Ular abstrakt fikrlashga qodir bo‘lib, murakkab tushunchalarni tushunish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa harbiy xizmatning mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Yuqori sinf o‘quvchilarida harbiy tasavvurlar shakllanishida gender (jins) omili ham muhim rol o‘ynaydi. An’anaviy qarashlarga ko‘ra, harbiy kasb ko‘proq erkaklar bilan bog‘langan bo‘lsada, zamonaviy jamiyatda qizlar orasida ham ushbu sohaga qiziqish ortib bormoqda. Psixologik jihatdan qaraganda: O‘g‘il bolalarda harbiy tasavvurlar ko‘proq jasorat, kuch va liderlik bilan bog‘lanadi Qizlarda esa bu tasavvurlar mas’uliyat, himoya va ijtimoiy xizmat tushunchalari orqali shakllanadi Bu esa harbiy tasavvurlarni shakllantirishda individual yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Mavzu tahlili Yuqori sinf o‘quvchilarida harbiy tasavvurlar shakllanishi quyidagi asosiy psixologik omillar bilan bog‘liq: 1. Kognitiv rivojlanish Bu davrda o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati sezilarli darajada rivojlanadi. Ular mantiqiy fikrlay oladi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. Natijada harbiy faoliyatning ichki mohiyati – mas’uliyat, strategiya va burch tushunchalari ongli ravishda anglanadi. 2. Motivatsion omillar Harbiy tasavvurlar shakllanishida motivatsiya hal qiluvchi rol o‘ynaydi: Ichki motivlar: vatanparvarlik hissi, o‘zini sinash istagi, jasorat ko‘rsatish ehtiyoji Tashqi motivlar: ota-ona, ustozlar, jamiyat va ommaviy axborot vositalari ta’siri 3. Emotsional rivojlanish O‘smirlik davrida emotsiyalar kuchli va tez o‘zgaruvchan bo‘ladi. Harbiy mavzudagi filmlar, tarixiy qahramonlar haqidagi hikoyalar o‘quvchilarda kuchli taassurot uyg‘otadi va ideal qahramon obrazini shakllantiradi. 4. Ijtimoiy muhit Oila, maktab va do‘stlar davrasi o‘quvchining qarashlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Agar muhitda harbiylarga nisbatan hurmat mavjud bo‘lsa, bu o‘quvchining harbiy tasavvurlarini ijobiy shakllantiradi. 5. Ta’lim tizimi va tarbiya Maktablarda o‘tkaziladigan harbiy-vatanparvarlik darslari, uchrashuvlar va amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarda real va asosli tasavvurlarni shakllantiradi.[3] Bu esa ularning ongli ravishda kasb tanlashiga yordam beradi. Mazkur mavzuning asosiy g‘oyasi shundan iboratki,

yuqori sinf o‘quvchilarida harbiy tasavvurlarni shakllantirish orqali ularda muhim ijtimoiy va psixologik sifatlarni rivojlantirish mumkin. Bular quyidagilardan iborat: vatanparvarlik hissi intizom mas’uliyat qat’iyat jamoaviylik Agar ushbu jarayon ilmiy asosda tashkil etilsa, nafaqat harbiy kadrlar, balki har tomonlama yetuk, ongli va faol shaxslar tarbiyalanadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqori sinf o‘quvchilarida harbiy tasavvurlar shakllanishi murakkab va ko‘p qirrali psixologik jarayondir. Bu jarayon shaxsning yosh xususiyatlari, motivatsiyasi, emotsional holati va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liq. Harbiy tasavvurlarni shakllantirishda oila, maktab va jamiyatning o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. To‘g‘ri yo‘naltirilgan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi esa yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu sababli ushbu yo‘nalishda psixologik yondashuvlarni kuchaytirish, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularni ongli ravishda yo‘naltirish zarur hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.
2. E.G‘oziev – Umumiy psixologiya – 120–150
3. M.G. Davletshin – Psixologiya asoslari – 90–130

TENGDOSHLAR GURUHI TA’SIRIDA AGRESSIV XULQNING KUCHAYISHI VA IJTIMOIYLASHUV MUAMMOLARI

Rajabboyev Asror Alisherovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'smirlik davrida tengdoshlar guruhining shaxs shakllanishiga ta'siri, agressiv xulq-atvorning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari va ijtimoiylashuv jarayonidagi muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda A.Bandura va L.Berkovits kabi olimlarning nazariy qarashlariga tayanilgan holda, guruh bosimi va model olish fenomenlarining agressiyani kuchaytirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, agressiv xulqning ijtimoiylashuv inqirozlariga sabab bo'lishi va uni bartaraf etish yo'llari bo'yicha ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: agressiya, tengdoshlar guruhi, ijtimoiylashuv, ijtimoiy o'rganish nazariyasi, guruh bosimi, model olish, o'smirlik psixologiyasi, deviant xulq.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние групп сверстников на формирование личности в подростковом возрасте,

социально-психологические механизмы агрессивного поведения и проблемы в процессе социализации. Основываясь на теоретических взглядах таких ученых, как А. Бандура и Л. Берковиц, в исследовании освещается роль феноменов группового давления и моделирования в усилении агрессии. Также представлены научные выводы о причинах возникновения кризисов социализации под влиянием агрессивного поведения и путях их преодоления.

Ключевые слова: агрессия, группа сверстников, социализация, теория социального научения, групповое давление, моделирование, психология подросткового возраста, девиантное поведение.

Abstract: This article analyzes the influence of peer groups on personality formation during adolescence, the socio-psychological mechanisms of aggressive behavior, and problems in the process of socialization. Drawing on the theoretical perspectives of scholars such as A. Bandura and L. Berkowitz, the study highlights the role of group pressure and modeling phenomena in reinforcing aggression. Furthermore, scientific conclusions are provided regarding the impact of aggressive behavior on socialization crises and the ways to overcome them.

Keywords: aggression, peer group, socialization, social learning theory, group pressure, modeling, adolescent psychology, deviant behavior.

Kirish. Zamonaviy psixologiya va pedagogikaning eng dolzarb muammolaridan biri — bu yosh avlodning jamiyatga moslashishi va ularning xulq-atvorida kuzatilayotgan salbiy o'zgarishlardir. Ayniqsa, o'smirlik davrida tengdoshlar guruhi shaxsning asosiy ijtimoiy muhitiga aylanadi. Bu davrda oilaning ta'siri nisbatan kamayib, "tengdoshlar submadaniyati" ustuvorlik qila boshlaydi. Ijtimoiy munosabatlar tizimidagi bunday o'zgarish ko'pincha agressiv xulq-atvorning shakllanishi va kuchayishi bilan birga kechadi[1]. Agressiya muammosi nafaqat individual psixologik xususiyat, balki murakkab ijtimoiy fenomen sifatida namoyon bo'ladi. Statistika va ijtimoiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning katta qismi aynan guruh ta'sirida yoki guruh tarkibida amalga oshiriladi. Shu sababli, tengdoshlar guruhi qanday qilib agressiyani rag'batlantiruvchi omilga aylanishini o'rganish, yoshlar o'rtasidagi ijtimoiy moslashuv muammolarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi[2].

O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ham yoshlarning sog'lom ijtimoiy muhitda kamol topishini ta'minlashdan iborat. Biroq, globallashuv va axborot asrida tengdoshlar guruhi orqali tarqaladigan turli yot g'oyalar va xulq-atvor modellari o'smirlarning ijtimoiylashuviga to'sqinlik qilmoqda. Ushbu tezisda agressiv xulqning guruh ta'sirida kuchayish mexanizmlarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish maqsad qilingan.

Agressiya tushunchasi psixologiya fanida turlicha talqin qilinadi. Klassik yondashuvlarda agressiya ko'pincha tug'ma instinkt (Z.Freyd, K.Lorens) sifatida ko'rilgan bo'lsa, zamonaviy ijtimoiy-psixologik nazariyalar uni o'rganilgan xulq-atvor shakli deb hisoblaydi. Bu borada Albert Banduraning "Ijtimoiy o'rganish nazariyasi" (Social Learning Theory) markaziy o'rinni egallaydi[3]. Bandura o'zining mashhur "Bobo doll" (Bobo qo'g'irchog'i) tajribasi orqali isbotladiki, bolalar va o'smirlar agressiv harakatlarni boshqalarni kuzatish (modeling) orqali o'zlashtiradilar. Agar o'smir o'z tengdoshlari guruhida agressiv harakatlar uchun mukofot (masalan, guruhdagi mavqening oshishi yoki boshqalar ustidan hukmronlik) olayotgan bo'lsa, bu xulq mustahkamlanadi[4]. Bu jarayon "vikar mustahkamlanish" deb atalib, unda shaxs bevosita tajribaga ega bo'lmasa-da, boshqalarning muvaffaqiyatli agressiyasini ko'rib, uni takrorlashga moyil bo'ladi. Boshqa bir muhim nazariya Leonard Berkovits tomonidan ilgari surilgan "Frustratsiya-agressiya" gipotezasining modifikatsiyalangan shaklidir. Berkovitsga ko'ra, agressiya nafaqat ichki turtki, balki tashqi muhitdagi "agressiv stimullar"ga bog'liq. Tengdoshlar guruhi ko'pincha shunday stimul vazifasini o'taydi. Masalan, guruhdagi qurol-yarog'ga oid suhbatlar, shafqatsiz videolar yoki guruh a'zolarining jaxldor kayfiyati a'zolarda agressiv tayyorgarlikni (priming) yuzaga keltiradi[5]. O`zbek olimlaridan E.G'oziyev o'smirlik davridagi agressivlikni shaxsning o'zini namoyon qilishga bo'lgan ehtiyoji va bu ehtiyojning to'g'ri kanalga yo'naltirilmaganligi bilan bog'laydi. Uning fikricha, o'smir o'zining "Men"ligini isbotlash uchun tengdoshlari orasida kuch ishlatish usulini tanlaydi, chunki bu eng tezkor e'tibor qozonish yo'lidir[6].

Ijtimoiylashuv — bu insonning jamiyat madaniyati, me'yorlari va qadriyatlarini o'zlashtirish jarayonidir. O'smirlik davrida bu jarayon o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tadqiqotchi Z.H.Hamroyeva ta'kidlaganidek, ijtimoiylashuv go'daklikdan boshlanib, o'smirlikda "ikkinchi ijtimoiylashuv" bosqichiga o'tadi, bunda tengdoshlar asosiy agentga aylanadi[7].

Tengdoshlar guruhi o'smir uchun quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Emotsional qo'llab-quvvatlash: Kattalar tushunmaydigan muammolarni tengdoshlar bilan bo'lishish.
2. Ijtimoiy statusga ega bo'lish: Guruh ierarxiyasida o'z o'rnini topish.
3. Avtonomiya: Oila nazoratidan chiqish va mustaqillikni his qilish. Biroq, bu guruh har doim ham ijobiy yo'nalishda bo'lmaydi. "Asotsial guruhlar"da ijtimoiylashuv me'yordan og'ish (deviatsiya) shaklida kechadi. Bunday guruhlarda agressiya — bu guruhga a'zolik chiptasi yoki sodiqlik belgisi sifatida baholanadi. Agar o'smir guruh me'yorlariga bo'ysunmasa, u "izolyatsiya" qilinishi yoki guruhdan chetlatilishi mumkin, bu esa o'smir uchun eng og'ir jazodir. Shu sababli, o'smir o'z tabiatiga zid bo'lsa-da, guruh bosimi ostida agressiv harakatlarni amalga oshiradi[8]. Tengdoshlar guruhi a'zolarining soni ham agressiya darajasiga ta'sir qiladi. Kichik do'stona guruhlarda (2-3 kishi) agressiya kamroq kuzatilsa, katta asotsial guruhlarda (20 va undan ortiq) "olomon psixologiyasi" ustunlik qiladi va javobgarlik hissi yo'qoladi[9]. Agressivlikning guruh ichida kuchayishi bir necha psixologik mexanizmlar orqali amalga oshadi. Birinchi mexanizm — Guruh bosimi (Conformity). O'smir guruhning rad etishidan qo'rqib, uning qadriyatlarini qabul qiladi. Agar guruh "kuchli bo'lish — bu urishish" tamoyiliga asoslansa, o'smir konformizm tufayli tajovuzkorga aylanadi[10]. Ikkinchi mexanizm — Deindividuatsiya (Shaxsiyatning yo'qolishi). Guruh tarkibida shaxs o'zining individual mas'uliyatini his qilmaydi. "Buni men emas, biz qildik" degan tushuncha agressiv harakatlar uchun ichki to'siqlarni olib tashlaydi. Bu holat ayniqsa maktabdagi bulling (bezorilik) holatlarida yaqqol ko'rinadi, bunda guruh bo'lib bir o'quvchini kamsitish ishtirokchilarga "umumiy kuch" tuyg'usini beradi[11]. Uchinchi mexanizm — Guruh poliarizatsiyasi. Muhokama jarayonida guruh a'zolarining fikrlari yanada radikallashadi. Agar guruhning dastlabki kayfiyati biroz agressiv bo'lsa, o'zaro muloqotdan so'ng bu kayfiyat ochiq tajovuzga aylanishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agressiv moyilligi bor o'smirlarning bir guruhga to'planishi ularning har biridagi agressiya darajasini bir necha barobar oshiradi (Deviancy Training)[12].

Tengdoshlar ta'sirida shakllangan agressiv xulq ijtimoiylashuv jarayonida jiddiy to'siqlarni yuzaga keltiradi. Birinchidan, bu "noto'g'ri identifikatsiya" muammosidir. O'smir o'zini jamiyatning foydali a'zosi sifatida emas, balki "kuchli va qo'rqinchli" shaxs sifatida anglay boshlaydi. Bu esa kelajakda kasb tanlash va oila qurishda muammolarni keltirib chiqaradi. Ikkinchidan, agressiv o'smirlar ko'pincha "ijtimoiy chetlanish" (social exclusion) holatiga tushadilar. Ularning xatti-harakati

sog'lom tengdoshlar guruhidan uzoqlashishiga va yanada ko'proq marginal guruhlarga qo'shilishiga sabab bo'ladi. Bu esa "yopiq doira"ni hosil qiladi: agressiya — chetlanish — asotsial guruhga qo'shilish — yanada ko'proq agressiya[13].

Uchinchidan, psixologik salomatlikdagi o'zgarishlar. Agressiv xulq ko'pincha ichki bezovtalik, empatiyaning pastligi va emotsional intellektning rivojlanmasligi bilan kechadi. Bunday o'smirlar o'z his-tuyg'ularini so'z bilan emas, balki jismoniy harakat bilan ifodalashga odatlanib qoladilar, bu esa ularning jamiyatdagi kommunikativ imkoniyatlarini cheklaydi.

Xulosa. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, tengdoshlar guruhi o'smir shaxsi shakllanishida ham konstruktiv, ham destruktiv rol o'ynashi mumkin. Agressiv xulqning kuchayishi ko'p jihatdan guruhdagi ijtimoiy me'yorlar va o'smirning guruhda o'z o'rnini topishga bo'lgan ehtiyojiga bog'liq. A.Bandura va boshqa olimlarning nazariyalari agressiyani ijtimoiy o'rganish mahsuli ekanligini tasdiqlaydi, bu esa ushbu muammoni korreksiya qilish imkoniyatini beradi.

Ijtimoiylashuv muammolarini bartaraf etish uchun quyidagi choralarni ko'rish maqsadga muvofiq:

- O'smirlar o'rtasida sog'lom ijtimoiy statusga erishishning muqobil yo'llarini (sport, san'at, volontyorlik) targ'ib qilish;
- Maktablarda "tengdosh — tengdoshga" tamoyili asosida agressiyaga qarshi treninglar o'tkazish, chunki o'smirlar uchun tengdoshining so'zi kattalarnikidan ko'ra ta'sirliroqdir;
- Oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali o'smirning qaysi ijtimoiy guruhlarga a'zo ekanligini nazorat qilish va yo'naltirish.

Xulosa qilib aytganda, agressiv xulq-atvorni faqat individual muammo sifatida emas, balki guruh dinamikasi va ijtimoiy muhit mahsuli sifatida baholash lozim. Faqatgina sog'lom tengdoshlar muhitini yaratish orqali biz o'smirlarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga erisha olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. G‘oziyev E.G‘. “Yosh davrlari psixologiyasi”, 1994. 45-bet.
2. Nurullayeva B.B. “Zamonaviy psixologiya muammolari”, 2022. 12-bet.
3. Bandura A. “Social Learning Theory”, 1977. p. 120.
4. Hamroyeva J. “Ijtimoiylashuv muammosi”, 2023.
5. Berkowitz L. “Aggression: Causes and Control”, 1993.
6. G‘oziyev E.G‘. “Psixologiya”, 1994.
7. Hamroyeva J. 2023. op. cit. (yuqoridagi manba).

8. Faris R. “Adolescent Aggression”, 2012.
9. “Bolalarning ijtimoiy moslashuvi”. Darslik, 2021.
10. Powers C.J. “Peer Relations”, 2012.
11. Xusenovich J.X. “O‘smirlarda agressiv xulq-atvor”, 2024.
12. Dishion T.J. “Deviancy Training”, 1996.
13. Farrell A.D. “Peer Influences”, 2017.

INGLIZ TILI O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYALARI TIZIMIDA LOYIHA KOMPETENSIYASINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Erkinova Lutfiya Qudratovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Zamonaviy ta’lim sharoitida ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishi faqat lingvistik bilim va pedagogik ko‘nikmalar bilan cheklanib qolmay, balki ko‘p qirrali kompetensiyalar majmuasini talab etadi. Shu kompetensiyalar ichida loyiha kompetensiyasi alohida ahamiyat kasb etadi, ayniqsa o‘quvchiga yo‘nal-tirilgan va kompetensiyaga asoslangan ta’lim paradigmalari doirasida. Mazkur maqolada ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari tizimida loyiha kompetensiyasining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Nazariy asoslar ko‘rib chiqilib, loyiha kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari yoritiladi hamda uni chet tilini o‘qitish amaliyotida qo‘llashning ahamiyati muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari loyiha kompetensiyasi o‘qituvchining samarali ta’lim muhitini yaratish qobiliyatini oshirishini, o‘quvchilarning kommunikativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishini hamda zamonaviy ta’lim stan-dartlariga mos kelishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: loyiha kompetensiyasi, kasbiy kompetensiya, ingliz tilini o‘qitish, loyiha asosida o‘qitish, o‘qituvchi rivoji

Kirish

Global ta’lim tizimlaridagi jadal o‘zgarishlar, ayniqsa ingliz tilini o‘qitish sohasida, o‘qituvchilardan talab etiladigan kompetensiyalarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Ingliz tili xalqaro aloqa vositasi sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan bir paytda, o‘qituvchilardan nafaqat til bilimlarini yetkazish, balki o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, ijodkorligi va mustaqil fikrlashini rivojlantirish ham talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, kasbiy

kompetensiya tushunchasi kengayib, turli o‘zaro bog‘liq ko‘nikma va malakalarni o‘z ichiga olmoqda.[1]

So‘nggi yillarda loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning — PBL) yondashuviga bo‘lgan e’tibor ortib bormoqda, bu esa loyiha kompetensiyasining ahamiyatini yanada kuchaytirdi. Loyiha kompetensiyasi o‘qituvchining loyiha faoliyatini tashkil qilish, amalga oshirish va baholash qobiliyatini anglatadi. Mazkur maqolada loyiha kompetensiyasining ingliz tili o‘qituvchisining umumiy kasbiy kompetensiyalari tizimidagi o‘rni va uning zamonaviy ta’limdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Ta’lim jarayonida kasbiy kompetensiya odatda o‘qituvchining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlar majmui sifatida talqin etiladi. Richards va Rodgers (2001) ta’kidlashicha, samarali til o‘qitish nafaqat predmet bilimini, balki pedagogik mahorat va kontekstni tushunishni ham talab qiladi.[2] Shuningdek, Shulman (1987) pedagogik mazmuniy bilim (pedagogical content knowledge) tushunchasini ilgari surib, mazmun va pedagogikaning uyg‘unlashuviga urg‘u bergan.[3]

Loyiha kompetensiyasi konstruktivizm nazariyasiga asoslanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, o‘quvchilar bilimni faol ishtirok va mazmunli tajribalar orqali egallaydilar. Thomas (2000) tomonidan ta’riflangan loyiha asosida o‘qitish murakkab vazifalar asosida tashkil etilib, o‘quvchilardan muammo yechish, qaror qabul qilish va tadqiqot olib borishni talab qiladi.[4]

Shu nuqtai nazardan, loyiha kompetensiyasi pedagogik kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi va kommunikativ yondashuv tamoyillari bilan uyg‘unlashadi.

Loyiha kompetensiyasining tarkibiy qismlari

1. Loyihalash ko‘nikmalari

O‘qituvchi o‘quv maqsadlariga mos, qiziqarli va til jihatdan mos loyihalarni ishlab chiqishi lozim.

2. Tashkiliy ko‘nikmalar

Loyiha faoliyatini samarali tashkil etish uchun vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, guruh ishini boshqarish muhimdir.

3. Fasilitatsiya ko‘nikmalari

O‘qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi rolini bajaradi.

4. Baholash ko‘nikmalari

Loyiha natijalarini baholashda turli usullar qo‘llanilishi zarur.

5. Reflektiv yondashuv

O‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qilib, takomillashtirib borishi kerak. Kasbiy rivojlanishda loyiha kompetensiyasining o‘rni
Loyiha kompetensiyasi o‘qituvchining kasbiy o‘sishida muhim ahamiyatga ega. U innovatsion yondashuvlarni rivojlantiradi va o‘qituvchini zamonaviy ta’lim talablariga moslashtiradi. Bundan tashqari, loyiha kompetensiyasi axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash imkonini beradi.[5]
Shuningdek, loyiha faoliyati orqali o‘quvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasi rivojlanadi, bu esa chet tilini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.
Amaliy ahamiyati:
-O‘quv dasturlari: loyiha asosida ta’limni joriy etish
-O‘qituvchi tayyorlash: maxsus treninglar tashkil etish
-Dars jarayoni: turli loyihalardan foydalanish
-Baholash: an’anaviy usullar bilan birga loyiha baholashni qo‘llash
Xulosa
Loyiha kompetensiyasi ingliz tili o‘qituvchisining muhim kasbiy kompetensiyalaridan biridir. U o‘qitish samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarni real hayotga tayyorlaydi. Zamonaviy ta’lim sharoitida loyiha kompetensiyasining ahamiyati yanada ortib bormoqda.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

[1] Beckett, G. H., & Miller, P. C. (2006). Project-based second and foreign language education: Past, present, and future.
[2] Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). Approaches and methods in language teaching.
[3] Shulman, L. S. (1987). Knowledge and teaching: Foundations of the new reform.
[4] Thomas, J. W. (2000). A review of research on project-based learning.
[5]Wiggins, G., & McTighe, J. (2005). Understanding by design.

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK PARADIGMALARDA LOYIHA KOMPETENSIYASI TUSHUNCHASI

Erkinova Lutfiya Qudratovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari, uning zamonaviy pedagogik paradigmalardagi o‘rni

hamda loyiha kompetensiyasi tushunchasining mohiyati keng yoritiladi. Shuningdek, loyiha asosida o‘qitishning ta’lim jarayonidagi ahamiyati, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Maqolada loyiha kompetensiyasining tarkibiy komponentlari, ularni shakllantirish mexanizmlari hamda zamonaviy ta’lim tizimidagi amaliy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik paradigma, loyiha kompetensiyasi, loyiha metodi, konstruktivizm, innovatsion ta’lim, refleksiya,ta’lim samaradorligi.

Kirish

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi talablarni qo‘ymoqda. Endilikda ta’limning asosiy maqsadi faqat bilim berish emas, balki o‘quvchini hayotiy vaziyatlarda samarali faoliyat yurita oladigan, mustaqil qaror qabul qiladigan va o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llay oladigan shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta’lim tizimining asosiy metodologik asosiga aylanmoqda.

Kompetensiyaviy yondashuv — bu ta’lim natijasini bilimlar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘quvchining turli hayotiy va kasbiy vaziyatlarda samarali harakat qila olish qobiliyati sifatida talqin etuvchi yondashuvdir.[2] Ushbu yondashuvda bilim, ko‘nikma va malaka o‘zaro integratsiyalashgan holda shakllanadi. Natijada, o‘quvchi faqat nazariy bilim egasi bo‘lib qolmay, balki uni real vaziyatlarda qo‘llay oladigan kompetent shaxsga aylanadi.

Zamonaviy pedagogik paradigmalarning rivojlanishi ushbu yondashuvning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, konstruktivistik paradigma ta’limni o‘quvchi tomonidan bilimni faol ravishda “qurish” jarayoni sifatida talqin qiladi.[1] Bu yondashuvga ko‘ra, bilim tayyor holda berilmaydi, balki o‘quvchi tomonidan tajriba, izlanish va tahlil orqali shakllantiriladi. Shu bilan birga, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasi har bir o‘quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olishni talab etadi.[3]

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv esa o‘quvchini ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida ko‘radi. Bu yondashuvda o‘quvchi bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki uni faol ravishda egallovchi va qo‘llovchi sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu paradigmalarning uyg‘unlashuvi kompetensiyaviy yondashuvning samarali amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar orasida loyiha asosida o‘qitish (project-based learning) alohida o‘rin egallaydi. Loyiha asosida o‘qitish — bu o‘quvchilarning muayyan muammo yoki vazifani hal qilish jarayonida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi va qo‘llashi jarayonidir. [5]Ushbu metod o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil izlanishga undaydi va real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtiradi.

Loyiha metodining asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u o‘quvchilarda kompleks kompetensiyalarni shakllantiradi. Jumladan, tanqidiy fikrlash, muammoni tahlil qilish, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va samarali muloqot qilish kabi ko‘nikmalar rivojlanadi. Bu esa zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun muhim hisoblanadi.[4]

Loyiha kompetensiyasi tushunchasi aynan ushbu jarayon bilan bog‘liq holda shakllanadi. Loyiha kompetensiyasi — bu o‘quvchining loyiha faoliyatini samarali tashkil etish, amalga oshirish va natijalarini baholash qobiliyatini ifodalovchi integrativ sifatdir. Ushbu kompetensiya quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

Kognitiv komponent o‘quvchining muammoni anglash, tahlil qilish va ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda o‘quvchi axborotni izlaydi, saralaydi va undan samarali foydalanadi.

Amaliy komponent esa nazariy bilimlarni real vaziyatlarda qo‘llash bilan bog‘liq. O‘quvchi loyiha jarayonida turli vosita va usullardan foydalanib, aniq natijaga erishishga harakat qiladi.

Kommunikativ komponent o‘quvchining jamoada ishlash, fikr almashish, o‘z g‘oyalarini asoslab berish va taqdim etish qobiliyatini ifodalaydi. Zamonaviy ta’limda bu komponent ayniqsa muhim, chunki ko‘plab faoliyatlar jamoaviy shaklda amalga oshiriladi.

Refleksiv komponent esa o‘quvchining o‘z faoliyatini tahlil qilishi, xatolarini aniqlashi va kelajakdagi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan xulosalar chiqarishini nazarda tutadi.

Loyiha kompetensiyasini shakllantirishda o‘qituvchining roli ham tubdan o‘zgaradi. U endilikda bilim beruvchi emas, balki o‘quvchilarning faoliyatini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchilar uchun muammoli vaziyatlar yaratadi, ularni izlanishga undaydi va mustaqil fikrlashga rag‘batlantiradi.

Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi loyiha asosida o‘qitish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Internet resurslari, onlayn platformalar va raqamli

vositalar o‘quvchilarga keng axborot bazasidan foydalanish imkonini beradi. Bu esa loyiha faoliyatining samaradorligini oshiradi.

Bugungi kunda loyiha kompetensiyasi nafaqat ta’lim jarayonida, balki kasbiy faoliyatda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lish uchun inson nafaqat bilimga ega bo‘lishi, balki uni amalda qo‘llay olishi, yangi g‘oyalar yaratishi va muammolarni hal qila olishi zarur. Shu sababli, ta’lim jarayonida loyiha kompetensiyasini shakllantirish strategik ahamiyatga ega.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik paradigmalarda loyiha asosida o‘qitish ushbu maqsadga erishishning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Loyiha kompetensiyasi esa o‘quvchining mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, ta’lim tizimida loyiha kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

[1] Zimnyaya I.A. Kompetensiyaviy yondashuv asoslari.
[2] Khutorskoy A.V. Kompetensiyalar va zamonaviy ta’lim.
[3] Polat E.S. Loyiha asosida o‘qitish texnologiyalari.
[4] Dewey J. Experience and Education.
[5] Vygotsky L.S. Thinking and Speech.

EVTAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA DARS JARAYONI TASHKIL QILISHNING O'QUVCHILAR METAKOGNITIV KO'NIKMALARGA TA'SIRI

B.R. Marimbayeva
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

ВЛИЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА НА ОСНОВЕ ЭВТАГОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА НА МЕТАКОГНИТИВНЫЕ НАВЫКИ УЧАЩИХСЯ.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние организации учебного процесса на основе эвтагогического подхода на развитие метакогнитивных навыков учащихся. Эвтагогика рассматривается как современный педагогический подход, способствующий формированию у обучающихся навыков самос-

тоятельного обучения, саморегуляции и осознанного планирования учебной деятельности. В ходе исследования научно обосновано развитие компонентов метакогнитивных навыков — планирования, мониторинга и рефлексии — посредством эвтагогического подхода. Также выявлено положительное влияние применения интерактивных методов, стратегий самостоятельного обучения и организации рефлексивной деятельности на фор-мирование у учащихся компетенций самоконтроля и самооценки. Результаты исследования показывают, что организация обучения на основе эвтагогического подхода способствует повышению метако-гнитивной активности учащихся, развитию критического мышления и ориентации на саморазвитие.

Ключевые слова: эвтагогика, метакогнитивные навыки, самостоятельное обучение, саморегуляция, рефлексия, мониторинг, планирование, интерактивные методы, критическое мышление, эффективность обучения.

THE IMPACT OF ORGANIZING THE LEARNING PROCESS BASED ON THE HEUTAGOGICAL APPROACH ON STUDENTS' METACOGNITIVE SKILLS.

Annotation. This article analyzes the impact of organizing the learning process based on the heutagogical approach on the development of students' metacognitive skills. Heutagogy is considered a modern pedagogical approach that promotes independent learning, self-regulation, and conscious planning of learning activities. The study scientifically examines how the components of metacognitive skills—planning, monitoring, and reflection—are developed through the heutagogical approach. It also identifies the positive effects of interactive methods, independent learning strategies, and reflective activities on students' abilities for self-assessment and self-control. The results indicate that organizing the educational process based on the heutagogical approach enhances students' metacognitive activity, fosters critical thinking, and supports self-directed development.

Keywords: heutagogy, metacognitive skills, independent learning, self-regulation, reflection, monitoring, planning, interactive methods, critical thinking, learning effectiveness.

Annotatsiya. Ushbu maqolada evtagogik yondashuv asosida dars jarayonini tashkil etishning o‘quvchilarning metakognitiv ko‘nik-malarini rivojlantirishga ta’siri tahlil qilinadi. Evtagogika o‘quv-chilarning mustaqil o‘rganish, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘quv faoliyatini

ongli ravishda rejalashtirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogic yondashuv sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot jarayonida metakognitiv ko‘nikmalarning tarkibiy qismlari — rejalashtirish, monitoring va refleksiya jarayonlari evtagogik yondashuv orqali qanday rivojlanishi ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, dars jarayonida interfaol metodlar, mustaqil ta’lim strategiyalari va reflektiv faoliyatni tashkil etishning o‘quvchilarning o‘z bilimini baholash va nazorat qilish kompetensiyasiga ijobiy ta’siri aniqlangan. Tadqiqot natijalari evtagogik yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning metakognitiv faolligini oshirish, tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar:evtagogika, metakognitiv ko‘nikmalar, mustaqil ta’lim, o‘z-o‘zini boshqarish, refleksiya, monitoring, rejalashtirish, interfaol metodlar, tanqidiy fikrlash, ta’lim samaradorligi.

KIRISH. Evtagogika andragogikaning (kattalar ta’limi nazariyasining) rivojlangan shakli sifatida qaraladi. Bu yondashuvda o‘rganuvchilar nafaqat qanday o‘rganishni, balki nimani o‘rganishni ham o‘zlari belgilaydi. Metakognitiv refleksiya jarayonida o‘quvchilar “ikki bosqichli o‘rganish” (double-loop learning) va reflektiv amaliyotni amalga oshiradi. Bu jarayonda ular quyidagilar ustida fikr yuritadi:nima o‘rganildi, qanday o‘rganildi, yangi bilim va ko‘nikmalar ularning qadriyatlari va qarashlariga qanday ta’sir ko‘rsatdi. Mazkur jarayon metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantiradi, chunki o‘quvchilar o‘z bilimlari va fikrlash jarayonlarini tanqidiy baholashni o‘rganadi. Bu esa o‘z-o‘zini tahlil qilish (self-reflection) orqali amalga oshadi (Blaschke & Marin, 2020). Daradoumis va Arguedas (2020) ta’kidlashicha, reflektiv o‘rganish talabalarning avvalgi o‘quv faoliyatlari haqida ongli ravishda fikr yuritishi va ularni tahlil qilishi jarayonini anglatadi. Bu jarayon maxsus metakognitiv faoliyatlar orqali rag‘batlantirilishi va qo‘llab-quvvatlanishi mumkin. Bunday faoliyatlar talabalarning o‘rganish jarayoniga yanada faol jalb etilishiga yordam beradi. Ular samarali o‘rganish usullari haqidagi xabardorlikni oshiradi hamda tanqidiy va ijodiy fikrlash, xatolardan o‘rganish, moslashuvchanlik va shaxsiy mas’uliyat kabi muhim ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Shu sababli, talabalarni reflektiv o‘rganishga jalb qiluvchi metodlarni taqdim etish muhim hisoblanadi.

MUAMMONING O‘RGANILGANLIK DARAJASI: Metakognitsiya insonning o‘z fikrlashi yoki o‘rganishi haqida fikr yuritishini anglatadi. Kognitsiya fikrlash yoki o‘rganishni bildirsa, “meta-” prefiksi “yuqori darajada” yoki “keyingi bosqichda” hamda “yanada kengroq

qamrovda” degan ma’nolarni qo‘shadi. Natijada, metakognitsiya o‘rganish jarayonida o‘z fikrlashini aks ettirish, kuzatish, o‘z-o‘zini boshqarish, baholash va yo‘naltirish kabi yuqori darajadagi faol jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, metakognitsiya o‘rganishni sezilarli darajada yaxshilaydi, chunki o‘z-o‘zini anglash talabalarga samarali o‘rganish strategiyalarini ishlab chiqish va o‘z yondashuvlarini ongli ravishda tashkil etish imkonini beradi. Tajribali o‘quvchilar odatda boshlovchilarga nisbatan kuchliroq metakognitiv ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar, chunki ular muammo va vaziyatlarni chuqurroq tushunadilar[8]. Shuningdek, McTighe va Wiggins [4]tomonidan ilgari surilgan o‘z-o‘zini bilish tushunchasi — ya’ni insonning o‘z bilimsizligini anglash va shaxsiy fikrlash uslublari tushunishga qanday ta’sir qilishini tan olish — ayniqsa, irqiy masalalar bilan bog‘liq fanlarda muhim ahamiyatga ega. Chunki metakognitiv xabardorlikning yetishmasligi o‘rganish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.Demak, metakognitsiya insonning o‘z fikrlash jarayonlarini ongli ravishda baholashi orqali “fikrlash haqida fikrlash” jarayonini anglatadi. Anderson va Krathwohl [9] metakognitsiyani o‘rganishdagi bilimlarning eng yuqori darajasi sifatida baholab, uni asosiy o‘quv maqsadlaridan biri deb hisoblaydilar. O‘quv vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish talabalarning metakognitiv qobiliyatlari — ya’ni o‘rganish jarayonida qo‘llanilayotgan bilim va ko‘nikmalarni anglash darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Metakognitsiya tarkibiga metakognitiv bilim, nazorat, tartibga solish hamda baholash kiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR: Mazkur tadqiqotda evtagogik yondashuv asosida tashkil etilgan dars jarayonining o‘quvchilarning metakognitiv ko‘nikmalariga ta’siri kompleks tarzda tahlil qilindi. Tahlil jarayonida o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini rejalashtirish, o‘z bilimlarini nazorat qilish (monitoring) va refleksiya qilish darajalari kuzatildi hamda an’anaviy ta’lim modeli bilan solishtirildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, evtagogik yondashuv qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilar faol ishtirok etib, o‘z o‘rganish jarayoniga nisbatan ongli yondashishni shakllantira boshlaydi. Xususan, o‘quvchilar o‘z oldilariga mustaqil maqsad qo‘yish, o‘quv strategiyalarini tanlash va natijalarni baholash kabi metakognitiv faoliyatlarga ko‘proq jalb etildi. Bu esa ularning o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyasini sezilarli darajada oshirdi. Shuningdek, interfaol metodlar (muammoli vaziyatlar, loyiha ishlari, reflektiv topshiriqlar) asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning fikrlash jarayonini chuqurlashtirib, ularni o‘z xatolarini tahlil qilishga va keyingi faoliyatini rejalashtirishga undadi. Natijada

o‘quvchilarda tanqidiy va reflektiv fikrlash elementlari shakllandi. Tadqiqot davomida olingan natijalar quyidagilarni ko‘rsatdi: o‘quvchilarning rejalashtirish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlandi; o‘z-o‘zini nazorat qilish va baholash qobiliyatlari oshdi; refleksiya qilish odati shakllandi; mustaqil o‘rganishga bo‘lgan motivatsiya kuchaydi; ta’lim jarayonida faol ishtirok darajasi ortdi.[7]

XULOSA: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, evtagogik yondashuv asosida tashkil etilgan dars jarayoni o‘quvchilarning metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda o‘z o‘quv faoliyatini mustaqil rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyatlarini shakllantiradi. Natijada o‘quvchilar faqat bilim oluvchi emas, balki o‘z bilimini boshqaruvchi, tanqidiy fikrlovchi va refleksiya qiluvchi subyektga aylanadi. Evtagogik yondashuv ta’lim jarayonining samaradorligini oshirib, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi hamda ularni hayot davomida o‘rganishga tayyorlaydi.

TAVSIYALAR: Ta’lim jarayonida evtagogik yondashuvni keng joriy etish va uni amaliyotga moslashtirish zarur. Darslarda o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi interfaol metodlardan samarali foydalanish tavsiya etiladi. O‘quvchilarda metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun refleksiya, o‘z-o‘zini baholash va monitoring jarayonlariga alohida e’tibor qaratish lozim. O‘qituvchilarning evtagogik kompetensiyalarini oshirish maqsadida maxsus trening va seminarlar tashkil etish zarur. Ta’lim dasturlariga mustaqil o‘rganish strategiyalari va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv elementlarini kiritish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sobirova.M.R. Evtagogik ta’limning mustaqil soha sifatida rivojlanishi.//Intereducation & global study. 2024. N=4(2).B. 154-161
2. Yo‘ldoshev, J., va Musurmonova, O. (2019). Pedagogika. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Pedagogik mahorat. Darslik / A.A. Xoliqov; O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi-T.: 2011
4. McTighe, J., & Wiggins, G. (2012). Understanding by design framework. Association for Supervision and Curriculum Development.
5. Blaschke, L. M. (2012). Heutagogy and lifelong learning: a review of heutagogical practice and self-determined learning. International Review of Research in Open and Distance Learning, 13(1), 56-71. https://10.19173/irrodl.v13i1.1076 Blaschke,

L.M. (2013). E-learning and self-determined learning skills. In Hase, S., & Kenyon, C. (Ed.). Self-determined learning: heutagogy in action. Bloomsbury Publishing.

6. Blaschke, L. M. (2018). Self-determined learning (heutagogy) and digital media creating integrated educational environments for developing lifelong learning skills. In D. Kergel, B. Heidkamp, P. Telleus, T. Rachwal, & S. Nowakowski (Eds.), The digitalturn in higher education (pp. 129-140). Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-658-19925-8_10

7. Hase, S., & Kenyon, C. (2013). Heutagogy fundamentals. In S. Hase & C. Kenyon (Eds.), Self-determined learning:heutagogy in action (pp. 1-17). Bloomsbury Publishing Plc.

8. Bransford, J. D., Brown, A. L., & Cocking, R. R. (2000). How people learn: brain, mind, experience, and school. National Academy Press.

9. Anderson, L. W. & Krathwohl, D. R.. (2001). A taxonomy for learning, teaching, andassessing: a revision of bloom's taxonomy of educational objectives. Allyn & Bacon.

10. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being. American Psychologist, 55(1), 68–78.

O‘SMIRLAR ORASIDA AGRESSIVLIK VA IJOBIY XULQ-ATVOR O‘RTASIDAGI BOG’LIQLIK: NAZARIY YONDASHUVLAR

Ishchanov Eldorbek Gulamdjanovich
Urganch davlat universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu tezis o‘smirlik davrida agressivlik va ijobiy (prosotsial) xulq-atvor o‘rtasidagi psixologik bog’liqlikni nazariy yondashuvlar asosida tahlil qiladi. Maqsad — agressiv impulslar, hissiy regulyatsiya, empativlik va ijtimoiy muhit omillari o‘rtasidagi dialektik munosabatni aniqlashdir. Metodologik asos sifatida frustratsiya–agressiya nazariyasi, ijtimoiy o‘rganish nazariyasi, shaxsning ekologik tizimlar modeli va hissiy intellekt yondashuvi integratsiyalangan. Tezisning yangiligi o‘smirlik davriga xos identitet inqirozi, tengdoshlar bosimi va biologik o‘zgarishlarni "agressivlik–ijobiy xulq" ikki qutbi o‘rtasidagi dinamik o‘tishlar bilan bog’lovchi konseptual model orqali ifodalanadi.

Kalit so‘zlar: agressivlik; ijobiy xulq-atvor; o‘smirlik davri; hissiy regulyatsiya; empativlik; ijtimoiy o‘rganish; tengdoshlar ta'siri.

Аннотация. Данный тезис анализирует психологическую взаимосвязь между агрессивным и просоциальным поведением в подростковом возрасте на основе теоретических подходов. Цель состоит в выявлении диалектического соотношения агрессивных импульсов, эмоциональной регуляции, эмпатии и факторов социальной среды. В качестве методологической основы интегрированы теория фрустрации–агрессии, теория социального научения, экологическая модель систем личности и подход эмоционального интеллекта. Новизна тезиса заключается в обосновании концептуальной модели, которая связывает кризис идентичности подросткового возраста, давление сверстников и биологические изменения с динамическими переходами между полюсами «агрессивность–просоциальное поведение».

Ключевые слова: агрессивность; просоциальное поведение; подростковый возраст; эмоциональная регуляция; эмпатия; социальное научение; влияние сверстников.

Abstract. This thesis examines the psychological relationship between aggression and prosotsial behavior during adolescence through major theoretical perspectives. The aim is to clarify the dialectical interaction among aggressive impulses, emotional regulation, empathy, and social context factors. The methodological basis integrates frustration–aggression theory, social learning theory, the ecological systems model of personality, and emotional intelligence perspectives. The scientific novelty lies in proposing a conceptual model that links adolescent identity crisis, peer pressure, and biological changes to dynamic transitions between the poles of aggression and prosotsial behavior, thus outlining targeted pathways for school-based psychological prevention.

Key words: aggression; prosotsial behavior; adolescence; emotional regulation; empathy; social learning; peer influence.

O‘smirlik davri — shaxsning biologik, kognitiv va ijtimoiy jihatdan eng jadal o‘zgaradigan bosqichi bo‘lib, bu davrda xulq-atvorning ikki qutbi — agressivlik va ijobiy (prosotsial) xulq — bir vaqtning o‘zida alohida intensivlik kasb etadi. Agressivlik odatda buzg’unchi omil sifatida baholansa-da, so‘nggi yillardagi psixologik tadqiqotlar bu hodisani bir o‘lchamli talqin qilishning yetarli emasligini ko‘rsatmoqda: bir qator hollarda agressiv yo‘nalishdagi energiya, tegishli psixologik sharoitlar ta'sirida, ijobiy xulq-atvorga —

himoyachilik, liderlik, adolatni himoya qilish — aylanishi mumkin. Shu sababli agressivlik va prosotsial xulq o‘rtasidagi munosabatni ziddiyat emas, balki dinamik o‘tishlar tizimi sifatida o‘rganish nazariy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi [1]. Mazkur tezisda ushbu o‘tishning mexanizmlari to‘rtta asosiy nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.

Frustratsiya–agressiya nazariyasi (Dollard va boshq., 1939; Berkowitz tomonidan qayta ishlangan, 1989) o‘smirlik davridagi agressiv xulq-atvorni tushuntirishda hamon muhim o‘rin tutadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, maqsadga erishish yo‘lida to‘siq paydo bo‘lganda (frustratsiya) shaxsda agressiv impuls uyg’onadi. O‘smirlar uchun bunday to‘siqlar son-sanoqsiz: akademik muvaffaqiyatsizlik, tengdoshlar tomonidan rad etilish, ota-onalar bilan ziddiyatlar, o‘zini namoyon qilish imkoniyatlarining cheklanganligi. Muhim jihat shundaki, frustratsiya agressiyani majburiy ravishda keltirib chiqarmaydi; uning yo‘nalishi shaxsning kognitiv baholashiga va ijtimoiy muhitning normativ talablariga bog’liq [2]. Agar o‘smir frustratsiyani xavf sifatida emas, balki hal qilinishi kerak muammo sifatida talqin qilishni o‘rgansa, xuddi shu motivatsion energiya muammoni konstruktiv hal etishga, ya'ni prosotsial xulqqa yo‘naltirilishi mumkin. Bu yerda frustratsiya–agressiya siklining "tetiklanish" bosqichi bilan "qayta baholash" bosqichi o‘rtasidagi psixologik masofa hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bandura (1977) ijtimoiy o‘rganish nazariyasi agressivlik va ijobiy xulq-atvorni parallel ravishda tushuntiradi: har ikkisi kuzatish, taqlid va mustahkamlash orqali o‘rganiladi. o‘smir nazorat qilinmagan, tahqirlovchi yoki agressiv xulq-atvorni namoyish etuvchi muhitda ulg’aysa, bu xulq me'yorlashadi; aksincha, hamkorlik, yordam ko‘rsatish va ziddiyatlarni muzokaralar orqali hal qilishni ko‘rgan o‘smir uchun prosotsial repertuar tabiiy bo‘ladi [3]. Ayniqsa, tengdoshlar guruhining modellash funksiyasi o‘smirlik davrida alohida kuchli: "referent guruh" deb ataladigan yaqin do‘stlar doirasining xulq-atvor me'yorlari individual tendentsiyalarni ham qayta shakllantirishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, agressivlik bilan aralashgan o‘smirni "guruhdan ajratish" strategiyasi ko‘pincha yetarli emas; balki uning referent guruhidagi prosotsial me'yorlarni kuchaytirish samaraliroq bo‘ladi. Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi shuningdek o‘z-samaradorlik (self-efficacy) kontseptsiyasini ham olib kiradi: o‘smir agressiv ziddiyatni muzokaralar orqali hal qila olishiga ishonsa, prosotsial strategiyani tanlash ehtimoli keskin ortadi.

Bronfenbrenner (1979) ekologik tizimlar modeli agressivlik va prosotsial xulq-atvorni individual jihatda emas, balki oila, maktab, mahalla va madaniy me'yorlar kabi o‘zaro bog’liq tizimlar kesishuvida ko‘radi. O‘smirning mikrotizimi — kundalik muloqot muhiti — bu davrda tez o‘zgaradi: ota-onalar ta'siridan tengdoshlar ta'siri, maktabdan onlayn makonlar, mahalladan global informatsion oqimlar sari siljish yuz beradi. Ushbu tizimlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik — masalan, uyda ijobiy, maktabda agressiv me'yorlar hukmron bo‘lsa — o‘smir uchun kognitiv ziddiyat va xulq-atvor beqarorligini keltirib chiqaradi [4]. Ekologik yondashuv nuqtai nazaridan, agressivlikning kuchayishi ko‘pincha tizimlar ichidagi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning zaiflashishi bilan parallel kechadi; shuningdek, prosotsial xulqni rivojlantirish uchun faqat o‘smirning o‘ziga emas, balki uning ekologik muhitini shakllantiruvchi kattalar, institutlar va ommaviy axborot vositalariga ham ta'sir ko‘rsatish zarur.

Hissiy intellekt (Salovey va Mayer, 1990; Goleman, 1995) yondashuvi agressivlik va prosotsial xulq o‘rtasidagi ko‘prik sifatida empativlikni ko‘rsatadi. Hissiy intellektning asosiy tarkibiy qismlari — o‘z hissiyotlarini anglash, boshqarish, boshqalarning hissiyotlarini sezish va ijtimoiy mahorat — o‘smirlik davrida hali shakllanish jarayonida bo‘ladi. Bu davrda prefrontal korteks va limbik tizim o‘rtasidagi muvofiqlashtirish mexanizmlari yetuk emasligidan, impulsiv agressiv reaktsiyalar tormozlash funksiyasi past bo‘lganda osonroq yuz beradi [5]. Biroq hissiy intellekt rivojlanishi bilan birga o‘smir boshqasining og’riqli holatini tushunish — empativlik — qobiliyatiga ega bo‘ladi; bu esa agressiv impulsni to‘xtatuvchi va prosotsial xulqni uyg’otuvchi psixologik mexanizm sifatida ishlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, empativlik yuqori bo‘lgan o‘smirlarda agressivlik ko‘rsatkichlari past, prosotsial xulq ko‘rsatkichlari esa yuqori bo‘ladi; shu sababli hissiy intellektni rivojlantiruvchi dasturlar agressivlikning oldini olishda eng samarali profilaktik vosita hisoblanadi [1; 5].

To‘rtta yondashuvni integratsiya qilish asosida "agressivlik–ijobiy xulq" o‘rtasidagi dinamik o‘tishni tushuntiruvchi konseptual model taklif etiladi.

Modelning birinchi bloki — stressorlar va tetiklovchi omillar:

- ✓ biologik o‘zgarishlar (gormonlar, miyaning yetilishi),
- ✓ akademik va ijtimoiy bosim,
- ✓ tengdoshlar bilan ziddiyatlar,
- ✓ oiladagi munosabatlar;

Ikkinchi blok — ichki modulyatorlar:

- ✓ hissiy regulyatsiya qobiliyati,
- ✓ empativlik darajasi,
- ✓ kognitiv baholash uslubi (maqsadga yo‘naltirilgan yoki tahdidga yo‘naltirilgan),
- ✓ o‘z-samaradorlik;

Uchinchi blok — ijtimoiy kontekst:

- ✓ referent guruh me'yorlari,
- ✓ kattalar modeli,
- ✓ maktab muhiti,
- ✓ ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;

To‘rtinchi blok esa — chiqish natijasi:

- ✓ yuqori modulyatorlar va ijobiy ijtimoiy kontekst sharoitida agressiv energiya prosotsial xulqqa (himoya, liderlik, muammoni hal etish) yo‘naladi; aksincha holda destruktiv agressiya ro‘y beradi [2; 3; 4].

Bu model agressivlikni bartaraf etish emas, balki uning psixologik energiyasini qayta yo‘naltirish imkoniyatiga e'tibor qaratadi.

O‘smirlik davrida identitet inqirozi (Erikson, 1968) ushbu dinamikani yanada murakkablashtiradi. "Men kimman?" savoliga javob izlayotgan o‘smir turli xulq-atvor namunalarini, jumladan agressiv va prosotsial rollarni, tajriba sifatida sinab ko‘radi. Ba'zan agressivlik o‘zini namoyon qilish, mustaqillik va kuchni ko‘rsatishning yagona mavjud tili bo‘lib ko‘rinadi — ayniqsa prosotsial alternativalar ijtimoiy jihatdan qadrlanmagan muhitda. Bu yerda ijtimoiy tan olish mexanizmi hal qiluvchi rol o‘ynaydi: agar o‘smirning prosotsial xulqiga atrofdagilar tomonidan munosib e'tibor va tasdiqlash berilsa, bu xulq identitetning mustahkam qismiga aylanadi [4]. Aksincha, faqat agressiv epizodlarda e'tibor qaratilganda, o‘smir o‘zini "muammoli shaxs" sifatida belgilashni ichkilashtiradi va bu o‘z-baholashni pasaytirib, yangi agressiv siklni yuzaga keltiradi.

Xulosa. O‘smirlik davrida agressivlik va ijobiy xulq-atvor o‘rtasidagi bog’liqlik qat'iy qarama-qarshilik emas, balki hissiy regulyatsiya, empativlik, ijtimoiy o‘rganish va ekologik muhit sharoitlariga bog’liq dinamik o‘tishlar tizimi ekanligini nazariy tahlil tasdiqladi. Frustratsiya–agressiya nazariyasi, ijtimoiy o‘rganish, ekologik tizimlar modeli va hissiy intellekt yondashuvlarini integratsiya qilish asosida o‘smir xulq-atvorining stressorlar, ichki modulyatorlar va ijtimoiy kontekst kesishuvida shakllanishi ko‘rsatildi. Taklif etilgan konseptual model agressiv energiyani prosotsial yo‘nalishga o‘zgartirish uchun hissiy intellektni rivojlantirish, ijobiy tengdoshlar me'yorlarini mustahkamlash, referent guruh ichidagi prosotsial nambunalarni

kuchaytirish va ekologik muhitni qo‘llab-quvvatlovchi tarzda shakllantirish zarurligini ko‘rsatdi. Natijada, o‘smirlar orasidagi agressivlikni kamaytirish bo‘yicha profilaktik ishning asosi sifatida taqiqlash yoki jazolash emas, balki hissiy ko‘nikmalar, empativlik va konstruktiv konflikt strategiyalarini rivojlantirish belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Berkowitz L. Aggression: Its causes, consequences, and control. New York, McGraw-Hill, 485 p.
2. Dollard J., Miller N. E., Doob L. W., Mowrer O. H., Sears R. R. Frustration and aggression. New Haven, Yale University Press, 209 p.
3. Bandura A. Social learning theory. Englewood Cliffs, Prentice-Hall, 247 p.
4. Bronfenbrenner U. The ecology of human development: Experiments by nature and design. Cambridge, Harvard University Press, 330 p.
5. Goleman D. Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ. New York, Bantam Books, 352 p.
6. Erikson E. H. Identity: Youth and crisis. New York, Norton, 336 p.
7. Karimova V. M. O‘smirlar psixologiyasi: nazariya va amaliyot. Toshkent, O‘zbekiston, 280 b.

BOLALARDA RAQAMLI AGRESSIYA NAMOYON BO`LISHING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Iskandarov Erkinboy G‘ayrat o‘g‘li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti
Urazbayeva Oynura Adilbekovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu tezis bolalarda raqamli agressiyaning (kiberbulling, onlayn haqorat, tahdid, ijtimoiy tarmoqlarda kamsitish) yuzaga kelishida ishtirok etuvchi psixologik mexanizmlarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot konseptual tahlil va empirik kuzatuvlarni integratsiyalash orqali impuls nazorati, empatiya pasayishi, onlayn disinhibitsiya, ijtimoiy o‘rganish hamda guruh me’yorlari ta’sirini asoslaydi. Ilmiy yangilik sifatida raqamli muhit xususiyatlari bilan shaxslararo munosabatlar regulyatsiyasi bog‘liqligi mexanistik modelda izohlanadi.

Kalit so‘zlar: raqamli agressiya; kiberbulling; onlayn disinhibitsiya; empatiya; impuls nazorati; ijtimoiy o‘rganish; guruh me’yorlari

Ключевые слова: цифровая агрессия; кибербуллинг; онлайн-дезингибиция; эмпатия; контроль импульсов; социальное научение; групповые нормы

Аннотация. Данный тезис направлен на выявление психологических механизмов проявления цифровой агрессии у детей (кибербуллинг, онлайн-оскорбления, угрозы, унижение в соцсетях). На основе концептуального анализа и интеграции эмпирических наблюдений обосновывается роль контроля импульсов, снижения эмпатии, онлайн-дезингибиции, социального научения и групповых норм. Научная новизна заключается в механистической модели связи особенностей цифровой среды и регуляции межличностного поведения ребенка.

Abstract. This thesis examines psychological mechanisms underlying children's digital aggression (cyberbullying, online insults, threats, social media humiliation). Using conceptual analysis combined with empirical observations, it explains the roles of impulse control deficits, reduced empathy, online disinhibition, social learning, and group norms. Scientific novelty is presented as a mechanistic model linking digital environment affordances with regulation of interpersonal behavior, clarifying how platform features and peer dynamics facilitate aggressive online actions in childhood.

Keywords: digital aggression; cyberbullying; online disinhibition; empathy; impulse control; social learning; peer norms

Raqamli kommunikatsiya bolalar ijtimoiylashuvining tabiiy maydoniga aylangani sari agressiv xulqning ham yangi ifoda shakllari shakllanmoqda. Raqamli agressiya deganda bolalarning internet va mobil texnologiyalar orqali ataylab zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlari, jumladan, haqoratlash, sharmanda qilish, qo‘rqitish, shaxsiy ma’lumotlarni tarqatish, guruhdan siqib chiqarish, trollyatsiya va davomli ta’qib qilish kabilar tushuniladi. Bu hodisa an’anaviy agressiyadan faqat kanal bilan farqlanmaydi; u psixologik mexanizmlar ishga tushish sharoitlarini o‘zgartiradi: masofa, auditoriya ko‘lami, tezkorlik, iz qoldirish yoki aksincha anonimlikning nisbiyligi, content-ning qayta tarqaluvchanligi hamda “tomoshabinlar effekti” kuchayadi. Shuning uchun bolalardagi raqamli agressiyani tushuntirishda individual xususiyatlar, oilaviy va maktab muhitining umumiy risk omillari bilan bir qatorda, platforma arxitekturasi va onlayn o‘zaro ta’sirning kognitiv-emotsional o‘ziga xosliklarini ham mexanizm sifatida tahlil qilish zarur.

Raqamli agressiyaning psixologik mexanizmlarini tizimli tushuntirish uchun tezisda uch pog‘onali yondashuv asos qilib olinadi:

birinchi pog‘ona individual regulyatsiya (impuls nazorati, affektiv qo‘zg‘alish, empatiya, axloqiy baholash), ikkinchi pog‘ona ijtimoiy o‘rganish va guruh dinamikasi (tengdoshlar ta’siri, me’yorlar, maqom uchun raqobat), uchinchi pog‘ona esa raqamli muhit affordanslari (anonimlik, sinxronlik/asinxronlik, algoritmik tavsiyalar, auditoriya ko‘lamining noaniqligi) bilan izohlanadi. Ushbu uch pog‘ona o‘zaro mustahkam bog‘langan bo‘lib, raqamli agressiya ko‘pincha “shaxs xususiyatlari”ning bevosita natijasi emas, balki vaziyat omillari ta’sirida regulyatsiya tizimining vaqtincha izdan chiqishi bilan ham yuzaga keladi. Raqamli kontekstda bola xulqi bir vaqtning o‘zida o‘zini namoyon qilish, himoyalanish va guruhdagi mavqeni saqlab qolish ehtiyojlari bilan boshqariladi; agressiv kontent esa tez tarqalishi va tez mukofotlanishi (layk, kulgu, qo‘llab-quvvatlovchi izoh) tufayli mustahkamlanadi.

Individual regulyatsiya darajasida asosiy mexanizmlardan biri impuls nazorati va ijro funksiyalarining yetilmaganligidir. Bolalik va o‘smirlik davrida prefrontal nazorat tizimlari hali to‘liq shakllanmagani, emotsional reaktivlik esa yuqoriligi ko‘plab tadqiqotlarda ko‘rsatilgan; raqamli muhit esa “tez javob berish”ni talab qiladigan noturg‘un vaziyatlarni ko‘paytiradi. Onlayn janjal yoki provokatsion kommentariyga darhol javob qaytarish imkoniyati bolaning affektiv qo‘zg‘alishini kuchaytirib, fikrni qayta ishlash va oqibatni bashorat qilishni qisqartiradi. Natijada agressiv javob “tezkor yechim” sifatida tanlanadi: u o‘zini himoya qilish illuziyasini beradi, lekin keyinchalik aybdorlik, uyat va ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Shu nuqtada muhim psixologik bog‘lanish yuzaga keladi: raqamli agressiya ko‘pincha affektni regulyatsiya qilishning disfunksional usuli sifatida namoyon bo‘ladi, ya’ni bola ichki zo‘riqishni tashqi obyektga ko‘chiradi va shu orqali vaqtinchalik yengillikni his qiladi.

Ikkinchi muhim mexanizm empatiyaning pasayishi va deindividuatsiya jarayonlaridir. Raqamli muloqotda yuz ifodasi, intonatsiya, tana tili kabi signallar yo‘qligi boshqaning og‘rig‘ini “ko‘rish”ni qiyinlashtiradi; bu esa kognitiv va affektiv empatiya ishlashini susaytiradi. Onlayn muhitda jabrlanuvchi “ekrandagi obraz”ga aylanadi, real insoniy oqibatlar esa abstraktlashadi. Shu bilan birga, profil, avatar, nik va memlar orqali shaxs fragmentatsiyasi sodir bo‘lib, bola o‘zining real “men”i bilan onlayn “men”i orasida masofa yaratadi; mas’uliyat hissi susayadi. Onlayn disinhibitsiya deb ataluvchi hodisa aynan shu jarayonlarni birlashtiradi: anonimlik yoki pseudonimlik, tezkorlik, “hamma shunday qiladi” degan tasavvur va jazo ehtimolining

subyektiv pasayishi agressiv impulslarning tormozlanishini kamaytiradi [1]. Bunda shuni alohida ta’kidlash lozimki, disinhibitsiya faqat anonimlikka bog‘liq emas; real ism bilan ham bola guruh qo‘llab-quvvatlashi va auditoriya effekti ta’sirida tormozlarni yo‘qotishi mumkin.

Uchinchi mexanizm axloqiy baholash va o‘zini oqlashning kognitiv sxemalari bilan bog‘liq. Raqamli agressiya ko‘pincha “hazil”, “prank”, “tarbiya”, “haqiqatni aytish” kabi niqoblar ostida legitimlashtiriladi, ya’ni bola o‘z harakatini axloqiy jihatdan qayta talqin qiladi. Ijtimoiy-kognitiv yondashuv agressiyani kuzatish va mukofotlanish orqali o‘rganilishini, model xulq-atvorning ichkilashtirilishini asoslaydi [2]. Raqamli makonda bunday modellar ko‘p: blogerlar, strimerlar, sinfdoshlar, trendlar. Agressiv nutq va kamsituvchi memlar “normallashganda” bola ularni zararli deb emas, kommunikativ strategiya deb qabul qila boshlaydi. Bu jarayon axloqiy chekinish mexanizmlari orqali kuchayadi: javobgarlikni guruhga yuklash, jabrlanuvchini ayblash, zarar miqyosini kichraytirish, “u ham shunday qilgan” deya oqlash. Natijada agressiya nafaqat impulsiv, balki instrumental tus ham oladi: mavqe orttirish, raqibni jim qilish, guruhda yetakchilikni mustahkamlash vositasiga aylanadi.

To‘rtinchi mexanizm tengdoshlar guruhi me’yorlari va ijtimoiy identifikatsiya bilan belgilanadi. Maktab yoshi bolalarida “o‘ziniki” va “begona” kategoriyalari kuchli ishlaydi; onlayn chatlarda bu kategoriyalar tez shakllanadi va keskinlashadi. Guruhda qo‘llab-quvvatlovchi reaksiyalar agressiyani ijtimoiy kapitalga aylantiradi: agressor kulgi va e’tibor oladi, “tomoshabinlar” esa faol yoki passiv ishtirokchi sifatida normani mustahkamlaydi. Raqamli muhitda tomoshabinlar soni ko‘p va ko‘rinmas bo‘lishi mumkin, bu esa agressorning kuch hissini oshiradi, jabrlanuvchining esa yolg‘izlik va umidsizlik tajribasini kuchaytiradi. Tadqiqotlar kiberbullingda rollar (agressor, jabrlanuvchi, tomoshabin, himoyachi) dinamik almashinishi mumkinligini ko‘rsatadi; ayniqsa o‘zini past baholaydigan yoki ijtimoiy xavotiri yuqori bolalar vaziyatga moslashish uchun agressiv uslubni ham sinab ko‘rishi ehtimoldan xoli emas [3]. Demak, mexanizmni tushuntirishda “yomon bola” stereotipidan ko‘ra, normativ bosim va maqom uchun kurashni tahlil qilish ilmiyroq natija beradi.

Beshinchi mexanizm oilaviy va pedagogik muhit orqali shakllanadigan raqamli kompetensiya hamda psixologik xavfsizlik bilan bog‘liq. Oilada chegaralar noaniqligi, nazoratning haddan tashqari qattiqligi yoki mutlaq nazoratsizlik, emotsional sovuqlik, konfliktlarning

yuqoriligi bolada tajovuzkor skriptlarni kuchaytirishi mumkin. Biroq faqat “nazorat” tushunchasi bilan cheklanib bo‘lmaydi: raqamli gigiyena, onlayn etiketi, konfliktni tinch hal qilish ko‘nikmalari, empatik muloqot, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish madaniyati kabi componentlar kompleks yondashuvni talab qiladi. Maktab muhitida esa adolatli intizom, tengdoshlar o‘rtasida mediatsiya, sinf iqlimini sog‘-lomlashtirish, o‘qituvchining raqamli muloqotdagi xabardorligi profilak-tikaning tayanch omillaridir. Shu jihatdan, O‘zbekiston sharoitida tez kengayayotgan internet qamrovi va mobil qurilmalarning erta yoshdan qo‘lga kirishi fonida psixoprofilaktika modeli ota-ona, maktab va platforma savodxonligini birlashtirgan holda ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq [4].

Tezisning metodologik asosida raqamli agressiyani ko‘p omilli tizim sifatida ko‘rish yotadi: shaxsiy dispozitsiyalar (temperament, reaktivlik, agressiv skriptlar), vaziyat tetiklovchilari (provokatsiya, sharmanda qiluvchi post, guruh bosimi), va muhit affordanslari (anonimlik, algoritmik kuchaytirish) o‘zaro ta’sirda ishlaydi. Ilmiy jihatdan muhim nuqta shundaki, platformalardagi kontentni tavsiya qiluvchi algoritmlar polarizatsiyalovchi va keskin emotsional materialni ko‘proq ko‘rsatishi ehtimoli mavjud; bu bolada affektiv fonni o‘zgartirib, agressiv javoblar ehtimolini oshiradi. Bunday sharoitda psixologik mexanizm “qo‘zg‘-alishning kumulyativ modeli” orqali izohlanadi: bola ketma-ket irritatsion stimul oladi, tormoz tizimi esa charchaydi va nihoyat bitta kichik trigger ham agressiyani ishga tushiradi. Shu bois raqamli agressiyani kamaytirish faqat jazolash bilan emas, balki raqamli muhitda o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini, pauza qilish, qayta baholash, muloqot etiketi va konfliktni konstruktiv yechish strategiyalarini o‘rgatish bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz kerakki bolalarda raqamli agressiya namoyon bo‘lishi bir sabab bilan emas, o‘zaro bog‘langan psixologik mexanizmlar majmuasi bilan izohlanadi: impuls nazoratining yetilma-ganligi va affektiv reaktivlik onlayn tezkorlik sharoitida keskinlashadi; empatiya signallarining kamayishi va onlayn disinhibitsiya mas’uliyat hissini pasaytiradi; ijtimoiy o‘rganish va guruh me’yorlari agressiyani normal xulq sifatida mustahkamlaydi; axloqiy oqlash sxemalari esa zarar yetkazishni “hazil” yoki “himoya” sifatida legitimlashtiradi. Ushbu mexanizmlar raqamli muhit affordanslari bilan birikkanida kiberbulling va boshqa shakllar barqarorlashadi. Amaliy natija sifatida profilaktika modeli uch yo‘nalishni uyg‘unlashtirishi zarur: bolada o‘zini boshqarish va empatiyani rivojlantirish, tengdoshlar guruhida ijobiy me’yorlarni

qo‘llab-quvvatlash, hamda oilaviy-maktabiy raqamli madaniyatni tizimli shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Suler J. The online disinhibition effect. New York: CyberPsychology & Behavior Publishing, 2004. 12 p.
2. Bandura A. Social foundations of thought and action: A social cognitive theory. Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1986. 617 p.
3. Солдатова Г. У., Рассказова Е. И. Цифровая социализация детей и подростков: угрозы, риски и ресурсы. Москва: Генезис, 2019. 320 с.
4. Karimova V. M. O‘smirlar psixologiyasi va ijtimoiy xulq-atvor muammolari. Toshkent: O‘zbekiston, 2018. 240 b.
5. G‘oziyev E. G. Umumiy psixologiya. Toshkent: O‘qituvchi, 2014. 352 b.
6. Olweus D. Bullying at school: What we know and what we can do. Oxford: Blackwell, 1993. 140 p.

DOSTONLAR VOSITASIDA TALABALARDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA FALSAFIY ASOSLARI

Djumaniyazov Umrbek Maxsudovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “San’at” kafedrasi dotsent v.b

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq dostonlarining yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni, dostonlarning pedagogik xususiyatlari hamda talabalarda milliy o‘zlikni anglash kompetensiyasini rivojlantirishning metodologik jihatlari tadqiq etilgan. Maqolada folklor namunalari orqali talabalarning ma’naviy-axloqiy qiyofasini takomillashtirish va milliy g‘oya asosida tarbiyalash masalalari ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: epos, milliy o‘zlik, kompetensiya, kognitiv yondashuv, etnomadaniyat, qahramonlik dostonlari, sotsializatsiya, aksiologik yondashuv, madaniy meros.

Bugungi kunda jahon ta’lim tizimida “kompetensiyaviy yondashuv” yetakchi o‘rin egallamoqda. Xususan, oliy ta’lim bosqichida talabalarning nafaqat professional, balki ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini shakllantirish muhim strategik vazifadir. Milliy o‘zlikni anglash kompetensiyasi — bu shaxsning o‘z xalqi tarixiy o‘tmishi, tili, madaniyati va qadriyatlari bilan uzviy bog‘liqligini anglab yetishi hamda

ushbu merosni zamonaviy ijtimoiy munosabatlarda namoyon eta olish qobiliyatidir. O‘zbek xalq dostonlari bu borada ulkan didaktik va tarbiyaviy potensialga ega bo‘lgan “ma’naviy kod” vazifasini o‘taydi.

Folkloristik va pedagogik tadqiqotlarda (V. M. Jirmunskiy, H. Zarifov, kabi olimlar ishlarida) ta’kidlanishicha, dostonlar xalqning o‘z-o‘zini anglash shakli hisoblanadi.

Milliy o‘zlikni anglash jarayoni talabalarda quyidagi uchta fundamental komponent orqali rivojlanadi:

Aksiologik (qadriyatli) komponent: Dostonlardagi vatanparvarlik, oila muqaddasligi, do‘stlik va sadoqat kabi universal qadriyatlarni o‘zlashtirish. Etnopsixologik komponent: Xalq xarakterining o‘ziga xos xususiyatlari (andisha, mardlik, bag‘rikenglik) bilan o‘zini identifikatsiya qilish. Lingvistik komponent: Xalq og‘zaki ijodining boy til xazinasi orqali milliy tafakkur tarzini anglash.

Talabalarda ushbu kompetensiyani rivojlantirish uchun dars jarayonida an’anaviy ma’ruza uslubidan voz kechib, interfaol va muammoli ta’lim metodlariga tayanish lozim:

Gnoseologik tahlil metodi: Dostonlardagi tarixiy voqelik va badiiy to‘qima o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish orqali talabalarda tarixiy xotirani uyg‘otish. Masalan, “Alpomish” dostonidagi “qo‘ng‘irot” qabilasi tarixi va ularning birlashish g‘oyasini milliy hamjihatlikning asosi sifatida o‘rganish. Qiyosiy-tipologik yondashuv: O‘zbek dostonlari qahramonlarini jahon eposi qahramonlari bilan qiyoslash orqali milliy qahramonning o‘ziga xos (differensial) jihatlarini kashf etish. Bu talabada o‘z millatining o‘ziga xosligidan g‘ururlanish tuyg‘usini oshiradi. Sotsiomadaniy loyihalashtirish: Talabalarga dostonlardagi urf-odatlarni (masalan, kengash, ko‘pkarilar, to‘ylar) zamonaviy jamiyatdagi transformatsiyasini tadqiq etish vazifasini berish.

“Go‘rog‘li”, “Alpomish”, “Kuntug‘mish” kabi dostonlar talaba shaxsida quyidagi malakalarni shakllantiradi: Mafkuraviy immunitet: Dostonlardagi mardlik va halollik ideallari talabani bugungi kundagi ma’naviy tahdidlarga qarshi tura oladigan, irodali shaxs sifatida tarbiyalaydi. Etik kompetensiya: Kattalarga hurmat, ayolga ehtirom (Barchinoy, Qaldirg‘och timsollari) kabi milliy etiket qoidalari talaba xulq-atvoriga singdiriladi. Ekologik va estetik madaniyat: Dostonlardagi tabiat tasviri, tulporlar (Boychibor, G‘irot) va yurt go‘zalligi orqali tabiatga muhabbat tuyg‘usi rivojlanadi. Pedagogik eksperiment natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quv jarayonida dostonlar matni bilan ishlash, ulardagi arxaik qatlamlarni tahlil qilish talabalarning milliy-madaniy o‘zligini anglash darajasini 25-30% ga oshiradi. Talabalar dostonlarni

shunchaki badiiy asar emas, balki hayotiy strategiyalar manbayi sifatida qabul qila boshlaydilar.

Milliy o‘zlikni anglash — bu statik holat emas, balki dinamik jarayondir. Talaba doston qahramonining xatti-harakatlarini tahlil qilar ekan, beixtiyor “Men bo‘lsam nima qilardim?” degan savol orqali o‘zining axloqiy prinsplarini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, xalq dostonlari talabalarda milliy o‘zlikni anglash kompetensiyasini rivojlantirishning eng ta’sirchan pedagogik vositasidir. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun oliy ta’limning gumanitar fanlar o‘quv dasturlariga dostonlarning falsafiy-pedagogik tahliliga bag‘ishlangan maxsus modullarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Bu esa yoshlarni milliy g‘oya atrofida birlashtirish va ularni vatanparvar ziyoli qilib tarbiyalashning garovidir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. - T.: "Ma’naviyat", 2008.
2. Жирмунский В. М.“Тюркский героический эпос”. - Л.: “Наука”, 1974.
3. Mirzayev T. “Xalq baxshilarining epik repertuari”. - T.: "Fan", 1979.
4. Safarov O. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”. - T.: "Musiqa", 2010.
5. Is’hoqov B. “Milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy tarbiya masalalari”. O‘quv qo‘llanma, 2015.

JALOLIDDIN MANGUBERDI OBRAZINING BADIIY TALQINI: TARIX VA QAHRAMONLIK SINTEZI

Uzakova Xilola Kamilovna

DXX “Temurbeklar maktabi” HAL ona tili va adabiyot fani bosh o‘qituvchisi, (PhD)

Annotatsiya. Maqolada Jaloliddin Manguberdi shaxsiyati va tarixiy merosini o‘rganish orqali harbiy-akademik litsey o‘quvchilarida vatanparvarlik, mardlik va jasorat fazilatlarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil etilgan. Shuningdek, Maqsud Shayxzoda, Erkin Samandar va Baxtiyor Abdug‘afurning Jaloliddin Manguberdi siymosiga bag‘ishlangan asarlari qiyosiy-badiiy tahlil qilinadi. Asarlarda tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning uyg‘unligi, qahramonlik ruhi, vatanparvarlik g‘oyasi hamda milliy o‘zlikni anglash masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, jasorat, qahramonlik. harbiy ta’lim, tarixiy obraz, badiiy talqin, dramatizm, tarixiy ong, milliy g‘urur.

Bugungi kunda yosh avlodni milliy qadriyatlarga sodiq, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, harbiy-akademik litseylar ta’lim tizimida bu masala yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, tarixiy shaxslar, xususan Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatini o‘rganish yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi.

Sulton Jaloliddin Manguberdi – bu nafaqat tarixiy shaxs, balki mardlik, fidoyilik va yurtga sadoqat timsolidir. Uning hayoti yoshlar uchun ibrat maktabidir. Bu esa tarixiy merosni yangicha pedagogik yondashuvlar asosida o‘rganishni taqozo etadi.

Jaloliddin Manguberdi shonli hayot yo‘lini o‘rganishda tarix va adabiyot fanlari integratsiyasi muhim omil sanaladi: tarix – voqealar tahlili jihatidan, adabiyot – obraz va badiiy talqin nuqtayi nazaridan yondashadi.

Masalan, Jaloliddin Manguberdining Sind daryosidan ot bilan sakrab o‘tishi haqidagi voqea nafaqat tarixiy fakt, balki kuchli motivatsion materialdir.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullar istilosiga qarshi kurashda mislsiz jasorat ko‘rsatgan sarkarda sifatida tanilgan.

Mashhur tarixchi Shihobiddin an-Nasaviy Jaloliddin haqida shunday yozadi:

“U o‘z zamonasining eng jasur va mard sarkardasi edi”.

Tarixiy ong tushunchasi ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonida muhim o‘rin egallaydi. U shaxsning o‘tmish haqidagi bilimlari, tarixiy xotirasi va milliy qadriyatlarini ifodalaydi. Jaloliddin Manguberdi obrazi bu jarayonda mardlik va jasorat timsoli, qadriyatlar uyg‘unligini o‘zida jam etgan qahramon sifatida namoyon bo‘ladi.

Jaloliddin Manguberdi obrazi nafaqat tarixiy manbalarda, balki badiiy adabiyotda ham keng talqin etilgan. Adabiyot inson ruhiyatiga bevosita ta’sir qiluvchi kuchli vositadir. Jaloliddin Manguberdi obrazi badiiy matnlarda jasorat, fidoyilik va vatanparvarlik timsoli sifatida gavdalanadi. Bu esa o‘quvchilarda ideal qahramon obrazini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bu borada Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasi, Erkin Samandarning “Sulton Jaloliddin” hamda Baxtiyor Abdug‘afurning “Sulton Jaloliddin Manguberdi” romanlari ushbu obrazni turli badiiy-estetik qarashlar asosida yoritgani bilan ahamiyatlidir.

Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasi tarixiy shaxs — Jaloliddin Manguberdi hayoti va kurashi orqali yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni, ayniqsa, vatanparvarlik, mardlik va jasorat fazilatlarini tarannum etadi.

Dramada asosiy e’tibor yurt ozodligi, milliy g‘urur va mustaqillik uchun kurashga qaratilgan. Jaloliddin obrazida muallif haqiqiy yetakchi – xalqini sevuvchi, uning taqdiri uchun jonini fido qilishga tayyor shaxs timsolini yaratadi. Asar orqali yoshlar ongiga “Vatan uchun yashash va kurashish – eng oliy burch” degan g‘oya singdiriladi.

Asarda Jaloliddinning dramatik qahramon sifatida ideal darajada ulug‘langan bo‘lsa-da, uning ichki kechinmalari, iztiroblari ham berilgan. Bu esa obrazni yanada hayotiy va ta’sirchan qiladi.

Jaloliddin jang oldidan qo‘shiniga shunday ruh beradi:

“Vatan uchun o‘lim – sharaf, qullikda yashash esa xorlik”.

Bu fikr uning jasoratini ochadi: u hayotdan ko‘ra erkinlikni ustun qo‘yadi. Bugungi yoshlar uchun bu – prinsipiallik va or-nomusni qadrlash sabog‘idir.

Asarda u yurtni tashlab ketish taklifiga keskin qarshi chiqadi:

“Bu tuproq mening jonimdan aziz, men uni tashlab qocholmayman”.

Bu jumla orqali uning vatanparvarligi va sadoqati yuksak darajada ko‘rsatiladi.

Jaloliddin o‘zini shunchaki sarkarda emas, balki xalqining himoyachisi deb biladi: “Xalqim menga ishonar ekan, men taslim bo‘lishga haqqim yo‘q”.

Bu kabi sahnalar orqali ijodkor Jaloliddin Manguberdi obrazini nafaqat tarixiy qahramon, balki bugungi yoshlar uchun ibrat maktabiga aylantiradi. Uning jasorati qo‘rquvni yengishda, mardligi esa qiyinchiliklarga qaramay to‘g‘ri yo‘ldan chekinmaslikda namoyon bo‘ladi.

Erkin Samandarning “Sulton Jaloliddin” asari epik ruh va romantik pafos bilan yo‘g‘rilgan. Muallif Jaloliddin Manguberdini millat iftixori sifatida ko‘rsatadi, uning jasoratini yuksak badiiy bo‘yoqlarda tasvirlaydi.

Bu asarda tarixiy voqealardan ko‘ra, qahramonning ruhiy buyukligi va ideal obraz yaratish ustuvor hisoblanadi. Jaloliddin timsoli mag‘lub bo‘lmas iroda, ozodlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Natijada obraz ko‘proq epik qahramon darajasiga ko‘tariladi. Ushbu tarixiy romanida tasvirlanayotgan davr (XIII asr) voqeligini real tasvirlash, asarning tarixiylik ruhiyatini ta’minlash asosiy maqsad qilib olingan.

“Sulton Jaloliddin... Shiddat va jasoratda tengsiz pahlavon, jasur sarkarda, buyuk Horazmshoh, xalqimizning o‘lmas milliy qahramoni. Ne-ne podshohlar Chingizxonga taslim bo‘lib, oyog‘iga poyandozlar to‘shaganida Jaloliddin unga mardonavor qarshi chiqdi, o‘n bir yil davomida Turkiston, Hindiston, Eronzamin va Qofqozda kuchlarni birlashtirib, hurriyat tug‘ini baland ko‘tardi, poydor davlat tuzishga, mo‘g‘ul qo‘shinlarini ketma-ket mag‘lub etishga muvaffaq bo‘ldi.

Romandagi asosiy narsa jang-jadallar emas, balki shunday beshafqat sharoitda odamlar qanday yo‘l tutganliklari, ularning ong va ruhiyatida sodir bo‘lgan evrilishlar jozibasida, ozodlik g‘oyasining mo‘jiza-korligidadir”.

Muallif tarixiy voqealarni dramatik va ta’sirchan tarzda tasvirlab, quyidagi asosiy g‘oyalarni ilgari suradi:

- Yurt ozodligi – har qanday boylik va hayotdan ustun qadriyat.
- Shaxsiy jasorat – tarixni o‘zgartira oladigan kuch.
- Milliy birlik – g‘alabaning muhim omili.

Jang sahnalari orqali Jaloliddinning dovyurakligi yorqin ochiladi. U son jihatdan ustun dushmanga qarshi ham qat’iyat bilan kurashadi, ko‘plab o‘qotishlar va sinovlarga duch keladi. Shunga qaramay, u tushkunlikka tushmaydi.

Erkin Samandar asarda:

- Kuchli dramatizm va keskin syujetdan foydalanadi.
- Qahramon ruhiyatini ichki monologlar orqali ochadi.
- Tasviriy vositalar yordamida jang va tarixiy muhitni jonlantiradi.

Baxtiyor Abdug‘afurning “Sulton Jaloliddin Manguberdi” asari esa zamonaviy adabiy tafakkur mahsuli sifatida ajralib turadi. Muallif tarixiy haqiqatni zamonaviy qarashlar bilan uyg‘unlashtiradi, qahramon shaxsiyatini ko‘p qirrali obraz sifatida ochib beradi. Bu asarda Jaloliddin Manguberdi nafaqat sarkarda, balki murakkab taqdir egasi, siyosiy va ma’naviy qarorlar oldida turgan inson sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif obraz orqali liderlik, strategik tafakkur, mas’uliyat kabi tushunchalarni ilgari suradi.

Baxtiyor Abdug‘afurning “Sulton Jaloliddin Manguberdi” asari tarixiy-badiiy ruhda yozilgan. Asarda asosiy e’tibor Jaloliddin Manguberdining mo‘g‘ul bosqiniga qarshi olib borgan kurashi, uning mustaqillik va ozodlik yo‘lidagi fidoyiligi tasviriga qaratilgan. Muallif tarixiy voqealarni badiiy talqin orqali jonlantirib, o‘quvchida quyidagi tushunchalarni shakllantiradi:

- Vatanga sadoqat – har qanday sharoitda ham yurtni tark etmaslik.
- G‘urur va or-nomus – millat sha’nini himoya qilish.
- Fidoyilik – shaxsiy manfaatlardan ustun turadigan yuksak maqsadlar.

Jaloliddin obrazi ko‘p qirrali mukammal qahramon ekanligi quyidagi sifatlarida gavdalanadi: Jaloliddin Manguberdi faqat jangchi emas, balki dono sarkarda hamdir. U askarlarini ruhlantira oladi, strategik qarorlar qabul qiladi. Asar qahramoni – irodali va sabrli shaxs. Ko‘plab yo‘qotishlar, og‘ir sinovlarga qaramay, Jaloliddin Manguberdi sinmaydi. Uning irodasi temirdek mustahkam. Asar qahramonining bu fazilatlari yoshlarni qiyinchiliklarga bardosh berishga o‘rgatadi.

Uchala asarni qiyoslaganda quyidagi jihatlar aniqlanadi:

Asar muallifi	Asosiy yo‘nalish	Obraz talqini
Maqsud Shayxzoda	Dramatik-realistik	Ichki kechinmalarga boy, tirik obraz
Erkin Samandar	Romantik-epik	Ideallashtirilgan qahramon
Baxtiyor Abdug‘afur	Zamonaviy-analitik	Ko‘p qirrali, murakkab shaxs

Bu farqlar badiiy adabiyotda tarixiy shaxsga turlicha yondashuv mavjudligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Jaloliddin Manguberdi obrazi o‘zbek adabiyotida turli davr va uslublarda talqin etilgan bo‘lsa-da, barcha asarlarni birlashtiruvchi jihat – bu vatanparvarlik va milliy g‘urur g‘oyasidir. Mazkur asarlar yosh avlodni jasorat, fidoyilik, vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Harbiy akademik litseylarda bu kabi asarlarni o‘rganish, ayniqsa, dolzarb bo‘lib, ular o‘quvchilarda liderlik salohiyati, strategik fikrlash, milliy o‘zlikni anglash kabi sifatlarni shakllantiradi.

Badiiy asarlar nafaqat tarixiy hikoya, balki kuchli tarbiyaviy vositadir. Jaloliddin Manguberdining shonli hayot yo‘lini yorituvchi badiiy asarlarni o‘rganish orqali yoshlar qalbida Vatanga muhabbat, mardlik va jasorat kabi yuksak insoniy fazilatlar shakllanadi. Buyuk sarkarda ideal qahramon sifatida bugungi avlod uchun ibrat maktabidir. Jaloliddin Manguberdining yurt uchun kurashi yoshlarni o‘z Vatani taqdiriga befarq bo‘lmaslikka o‘rgatadi. Millat qahramonining qat’iyati va jasorati yoshlarni qo‘rquvni yengishga, o‘z maqsadiga sodiq bo‘lishga undaydi. Tarixiy shaxs obrazi orqali yoshlar o‘z ildizlari va ajdodlari bilan faxrlanishni o‘rganadilar, vatan taqdiriga daxldor, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxs sifatida shakllanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayxzoda M. Jaloliddin Manguberdi, –Toshkent, 2010
2. Samandar E. Sulton Jaloliddin, –Toshkent, 2007.
3. Abdug‘afur B. Sulton Jaloliddin Manguberdi, –Toshkent, 2019
4. Nasaviy Sh. Siyrat as-Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999.
5. Rashididdin. Jome’ ut-tavorix. – Toshkent, 2006.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008.
7. To‘xtayev B. Milliy qahramonlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent, 2015.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-son Qarori

YOSHARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK YONDASHUVI

Tosheva Naima Fatxullayevna
Jaloliddin Manguberdi harbiy-akademik litseyi psixolgiya fani o’qituvchisi
Alijonov Muhammaddiyor Abrorjon o’g’li
Jaloliddin Manguberdi harbiy-akademik litseyi 2-bosqich 24/04guruh o’quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning psixologik asoslari va ahamiyati tahlil qilinadi. Vatanparvarlik tuyg‘usining yoshlar ongida shakllanishi, unga ta’sir etuvchi omillar hamda psixologik yondashuvlar (kognitiv, emotsional va ijtimoiy) yoritiladi. Shuningdek, harbiy tarbiya jarayonida uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Maqolada zamonaviy pedagogik metodlar, jumladan, interaktiv mashg‘ulotlar va amaliy faoliyatlar orqali yoshlarda vatanparvarlik hissini rivoj-lantirishning samaradorligi asoslab beriladi. Xulosa sifatida, bunday tarbiya yoshlarning shaxsiy kamoloti va jamiyat barqarorligi uchun muhim omil ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so’zlar: vatanparvarlik, harbiy tarbiya, yoshlar tarbiyasi, psixologik yondashuv, kognitiv rivojlanish, emotsional barqarorlik, ijtimoiy integratsiya, milliy ong, ma’naviy tarbiya, pedagogik metodlar

Kirish. Ushbu maqolaning maqsadi yoshlarni harbiy vatan-parvarlik ruhida tarbiyalashning zaruriyati va ahamiyatini o'rganishdir. Har bir davlatning mustaqilligini saqlab qolish va rivoj-lantirish uchun

yosh avlodning harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi muhim ahamiyatga ega. Vatanparvarlik, avvalo, mamlakatga bo'lgan sevgi, uning tarixiga, madaniyatiga va an'analarga hurmatni o'z ichiga oladi. Yoshlarning harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi, ularning milliy ongini shakllantirish, shuningdek, davlat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Harbiy tarbiya, nafaqat jangovar tayyorgarlikni, balki ma'naviy-ruhiy tayyorgarlikni ham o'z ichiga oladi. Yoshlar uchun harbiy xizmat, o'zbekistonliklarning ijtimoiy va madaniy hayotida muhim o'rin tutadi, ularning shaxsiy rivojlanishiga, mas'uliyat hissini oshirishga va vataniga nisbatan sadoqatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunday tarbiya, shuningdek, yosh avlodning o'zaro hurmat, hamjihatlik va bir-biriga yordam berish kabi insoniy qadriyatlarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Shu sababli, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, nafaqat harbiy sohada, balki jamiyatning barcha jabhalarida barqarorlikni ta'minlash uchun zarurdir. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, bugungi kunda jamiyatimiz uchun muhim ahamiyatga ega. Bunday tarbiya, avvalo, yosh avlodning o'z vataniga bo'lgan muhabbatini shakllantirishga qaratilgan. Harbiy vatanparvarlik, nafaqat milliy xavfsizlikni ta'minlash, balki yoshlarning axloqiy va ma'naviy kamolotida ham muhim rol o'ynaydi. Ular uchun o'z vatanini himoya qilish, uning tarixini va madaniyatini qadrlash, shuningdek, o'zaro hamjihatlik va bir-biriga yordam berish kabi qadriyatlarni rivojlantirish zarurdir.

Vatanparvarlik tushunchasi, asosan, insonning o'z vataniga bo'lgan chuqur muhabbati va sadoqatini ifodalaydi. Bu tushuncha psixologik jihatdan ko'plab omillar bilan bog'liq bo'lib, ularning ichida shaxsiy tajribalar, oilaviy tarbiya, ijtimoiy muhit va madaniy qadriyatlar alohida o'rin tutadi. Yoshlar tarbiyasida vatanparvarlikni shakllantirish, ularning ruhiy holatini mustahkamlash va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Vatanparvarlik hissi yoshlarni birlashtiradi, ularni umumiy maqsadlar yo'lida birlashtiradi va milliy identifikatsiyani kuch-aytiradi. Shuningdek, bu hissiyot yoshlarning psixologik barqarorligini ta'minlashda, ularning o'zligini anglashida va hayotdagi qiyinchiliklarga qarshi turishda muhim o'rin tutadi. Vatanparvarlik, shuningdek, insonni o'z tarixiga, an'analarga va madaniyatga bo'lgan qiziqishini oshiradi, bu esa ularni faol va mas'uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalashga yordam beradi. Shu bilan birga, vatanparvarlik tarbiyasida muhim rol o'ynovchi omillarni aniqlash va ularni yoshlar o'rtasida kengaytirish, kelajak avlodning ma'naviy va axloqiy rivojlanishi uchun zarurdir. Vatan-parvarlik tushunchasi insonning o'z Vataniga, uning tarixiga va

madaniyatiga bo'lgan hurmatini ifodalaydi. Bu hissiyotlar yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega, chunki ular o'zlarini jamiyatning bir qismi sifatida his qilib, mas'uliyatli fuqarolar bo'lib yetishishlari uchun zarurdir. Vatanparvarlikning psixologik asoslari sifatida, insonning o'zligini anglash, o'z tarixiga va kelajagiga bo'lgan umid tuyg'usi namoyon bo'ladi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ijtimoiy faoliyatda ishtirok etishlarini rag'batlantiradi va ularni ma'naviy jihatdan boyitadi.

Yoshlarni tarbiyalashda qo'llaniladigan psixologik yondashuvlar, o'z navbatida, ularning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy integratsiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu yondashuvlar, asosan, yoshlarning psixologik holatini, hissiyotlarini va ijtimoiy munosabatlarini hisobga olishga qaratilgan. Masalan, kognitiv yondashuv yoshlarning fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga, muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Emotsional yondashuv esa, yoshlarning hissiy intellektini rivojlantirishga, o'z hissiyotlarini anglash va boshqarishga imkon yaratadi. Shuningdek, ijtimoiy yondashuvlar yoshlarning guruhda ishlash ko'nikmalarini oshirishga va ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga yordam beradi. Bu yondashuvlar orqali yoshlar o'zlarini ijtimoiy muhitda erkin his qilishlari, o'z fikrlarini ifoda etishlari va boshqalar bilan samarali aloqa o'rnatishlari mumkin. Psixologik yondashuvlar, shuningdek, yoshlarda o'z-o'zini anglash va o'z maqsadlarini belgilash jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Bularning barchasi yoshlarni sog'lom va barqaror shaxslar sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Yoshlarni tarbiyalashda psixologik yondashuvlar ularga o'z his-tuyg'ularini tushunish va boshqarish, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishda yordam beradi. Masalan, kognitiv yondashuvlar yoshlarning muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi, hissiy yondashuvlar esa ularning emotsional barqarorligini ta'minlaydi. Har bir yondashuvning samaradorligi o'ziga xos kontekstga bog'liq bo'lib, tarbiyalash jarayonida individual farqlarni hisobga olish muhimdir. Bunday yondashuvlar yoshlarning o'z-o'zini anglashini kuchaytiradi va ularning o'z maqsadlariga erishishida qo'llab-quvvatlaydi, natijada ular ijtimoiy va shaxsiy muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Yoshlarni harbiy tarbiyalash jarayonida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularning yechimi uchun kompleks yondashuvlar talab etiladi. Birinchidan, yoshlarning psixologik tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega. Harbiy xizmatga kirish jarayoni ko'plab yoshlar uchun stress manbai bo'lishi mumkin, bu esa ularning motivatsiyasini pasaytiradi. Shuning uchun, psixologik yordam va maslahatlar taqdim

etish orqali bu muammoni hal etish mumkin. Ikkinchidan, harbiy tarbiyalash jarayonida jismoniy tayyorgarlik darajasi ham muhimdir. Yoshlarning turli jismoniy holatlari ularning harbiy xizmatga tayyorgarligini belgilaydi. Shu sababli, individual jismoniy tayyorgarlik dasturlari ishlab chiqilishi zarur. Uchinchi muammo – bu ijtimoiy integratsiya. Yoshlar harbiy xizmat davomida turli ijtimoiy qatlamlardan keladigan boshqa yoshlar bilan birga vaqt o'tkazadilar, bu esa ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini taqdim etadi. Biroq, ijtimoiy kelishmovchiliklar va turli fikrlar o'rtasida muvozanatni saqlash uchun treninglar va seminarlar o'tkazish zarur. Shu tarzda, harbiy tarbiya yoshlarning nafaqat harbiy, balki shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarni harbiy tarbiyalash jarayonida bir qator muammolar mavjud. Ular orasida psixologik tayyorgarlik, ijtimoiy integratsiya va jismoniy salomatlik masalalari alohida o'rin tutadi. Harbiy muhitda yoshlarning o'z-o'zini anglash va liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhimdir. Bunday muammolarni hal etish uchun zamonaviy pedagogik usullarni qo'llash, shuningdek, yoshlarning fikrlarini inobatga olish zarur. Ushbu jarayonlar yoshlarning harbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga va ularni kelajakda muvaffaqiyatli yetakchilar sifatida tayyorlashga yordam beradi.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda qo'llaniladigan metodlar va texnikalar muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda o'zaro ta'sir va hamkorlik asosida tashkil etilgan faoliyatlar, masalan, harbiy o'yinlar, simulyatsiyalar va treninglar, yoshlarning qiziqishini oshiradi hamda ularda jamoaviylik hissini rivojlantiradi. Shuningdek, tarixiy va madaniy merosni o'rganish orqali vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash mumkin. Yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash jarayonida, ularning psixologik va jismoniy holatini yaxshilash maqsadida sport faoliyatlari va jismoniy tarbiya darslari muhim o'rin tutadi. Bunday faoliyatlar yoshlarning iroda kuchini oshiradi va ularni qiyin sharoitlarda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatadi. Shuningdek, ularning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiya berish jarayonida o'qituvchilar va murabbiylarning yetakchilik qobiliyatlari hamda ularga bo'lgan ishonchni oshirish muhimdir. Bu, o'z navbatida, yoshlarning o'z vataniga bo'lgan sevgisini, mas'uliyatini va fidoyiligini yanada kuchaytiradi. Bunday metodlar orqali yosh avlodni o'z vataniga sadoqatli, kuchli va jonkuyar insonlar sifatida tarbiyalash mumkin. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda turli metod va texnikalar qo'llaniladi. Ular orasida amaliy mashg'ulotlar, tarixiy ta'limotlar, sport tadbirlari va

milliy urf-odatlarni o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Bunday usullar yoshlarni o'z vataniga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni jamoaviy ruhda tarbiyalaydi va mustaqil fikrlashga undaydi. Shuningdek, harbiy xizmatga tayyorgarlik va mardlik darslari orqali yoshlarning mardlik, jasorat va fidoyilik kabi sifatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Bu jarayonlar natijasida yoshlar vatanparvarlik hissiyotlarini chuqur his etadilar.

O'tkazilgan tadqiqotlar va tajribalar natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlar o'rtasida vatanparvarlik ruhini oshirishda ta'lim tizimi, ijtimoiy muhit va madaniy tadbirlar muhim rol o'ynaydi. Yoshlarning vatan-parvarlik hissiyotlarini rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida tarix fanlariga alohida e'tibor qaratish zarur. Tarixiy voqealar va buyuk ajdod-larimizning qahramonliklari haqida ma'lumot berish, yoshlar uchun o'z tarixlarini anglash va o'zligini his qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, turli madaniy tadbirlar, festivallar va sport musobaqalari orqali yoshlarni birlashtirish va ularda bir-biriga bo'lgan hurmat va mehr-muhabbatni oshirish mumkin. Yoshlarni vatanparvarlikka targ'ib qilishda ommaviy axborot vositalarining roli ham muhimdir; ularning yordamida ijobiy misollar, muvaffaqiyatli yoshlar haqidagi hikoyalar va qahramonlik namunalarini keng ommaga yetkazish lozim. Bunday yondashuvlar yoshlarning o'z vataniga bo'lgan muhabbatini yanada kuchaytiradi va ularni ijtimoiy faoliyatga jalb etadi. Shu orqali, yoshlar o'z kelajagiga nisbatan mas'uliyatli bo'lib, vatan uchun xizmat qilish istagini oshiradi. O'tkazilgan tadqiqotlar va tajribalar natijalari shuni ko'rsatdiki, yoshlar o'rtasida vatanparvarlik ruhini oshirish uchun ta'lim tizimida interaktiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Yoshlarni milliy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularni tarixiy merosga hurmat bilan qarashga o'rgatish zarur. Bundan tashqari, madaniy tadbirlar va ijtimoiy loyihalar orqali yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, ularning o'z fikrlarini ifoda etish imkoniyatini yaratish muhimdir. Shunday qilib, yoshlar o'z vataniga nisbatan mehr-muhabbatini oshirib, jamiyatda faol rol o'ynashlariga yordam beradi.

Xulosa

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Ushbu jarayon, avvalo, yosh avlodda vatanparvarlik hissini shakllantirish va ularni o'z xalqi, urf-odatlari, madaniyati va tarixi bilan bog'lashga qaratilgan. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining asosiy maqsadi, yoshlarni notinch vaziyatlarga tayyorlash, ularni o'z vatanini himoya qilishga va o'z xalqi uchun xizmat qilishga undashdir. Bu jarayonda ta'lim muassasalari,

oilalar va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlik juda muhim ahamiyatga ega. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning shaxsiy rivojlanishiga, o'z-o'zini anglashiga va ijtimoiy mas'uliyat hissini oshirishga yordam beradi. Kelajakda, bunday tarbiya orqali o'sib kelayotgan avlodlar, o'z vataniga sodiq, axloqiy qadriyatlarni hurmat qiladigan va jamiyatda ijobiy o'zgarishlarni amalga oshira oladigan fuqarolar bo'lib yetishadilar. Shunday qilib, yoshlarni harbiy vatan-parvarlik ruhida tarbiyalash, nafaqat ularning shaxsiy hayotini, balki butun jamiyatning kelajagini ham shakllantiradi. Yoshlarni harbiy vatan-parvarlik ruhida tarbiyalashning ahamiyati, ularning shaxsiy va ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynaydi. Maqolada keltirilgan asosiy fikrlar, bu jarayonning nafaqat yosh avlodning axloqiy qadriyatlarini, balki milliy birlik va mustaqillikni saqlashdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Bunday tarbiya, yoshlarning vataniga bo'lgan sadoqatini oshiradi va ularni jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlaydi. Kelajakda, harbiy vatan-parvarlik ruhida tarbiyalangan yoshlar, o'zlarining davlatiga xizmat qilishga qodir, mas'uliyatli va ma'naviy jihatdan yetuk fuqarolar bo'lib yetishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov, A. Yoshlar tarbiyasi va vatanparvarlik. 2020.
2. Karimov, I. Psixologiya va tarbiya metodlari. 2019.
3. Nurmatov, R. Harbiy vatanparvarlik va yoshlar. 2021.
4. Tursunov, D.Vatanparvarlik ruhida tarbiya. 2018.
5. Qodirov, S. Psixologik yondashuvlar va tarbiya. . 2022.
6. Murodov, E. Yoshlar va harbiy tarbiya: muammolar va yechimlar. 2023.

HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASIGA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY IJTIMOIY-PEDAGOIGIK TALABALAR

Mamajonov Rahimjon Akramovich
Farg‘ona davlat universiteti Harbiy ta’lim fakulteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi, harbiy vatanparvarlikning mazmuni, harbiy faoliyatda axloqiy qadriyatlarining o‘rni, harbiy vatan-parvarlikni shakllantiruvchi ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimi modelini qurish borasidagi mulohazalar bayon etilgan.

Shuningdek, maqolada «Talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirish asoslari» fani bo‘yicha nazariy va amaliy bilim-larining mavjud darajasi hamda ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish borasida ushbu fanning dolzarblik masalasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: patriotizm, harbiy vatanparvarlik ruhi, harbiy kadrlar, harbiy-jangovar axloqiy qadriyatlar, uzluksiz ta’lim, harbiy vatanparvarlik hissini shakllantirish.

Аннотация. В данной статье рассматривается цель воспитания молодежи в военно-патриотическом духе, содержание военного патриотизма, роль моральных ценностей в военной деятельности, построение модели системы морально-нравственных ценностей, формирующих военный патриотизм. В статье также анализируется современный уровень теоретических и практических знаний по предмету "Основы совершенствования системы воспитания студентов и молодежи в духе военного патриотизма", а также актуальность данной науки с точки зрения повышения эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: патриотизм, дух военного патриотизма, военнослужащие, военно-боевые нравственные ценности, непрерывное образование, формирование чувства военного патриотизма.

Annotation. This article discusses the purpose of educating young people in the military-patriotic spirit, the content of military patriotism, the role of moral values in military activity, the construction of a model of the system of moral and moral values that shapes military patriotism. The article also analyzes the current level of theoretical and practical knowledge on the subject" basics of improving the system of education of students and youth in the spirit of military patriotism", as well as the relevance of this science in terms of increasing the effectiveness of the educational process.

Keywords: patriotism, the spirit of military patriotism, military personnel, military-combat moral values, continuous education, the formation of a sense of military patriotism.

Jamiyat rivojlangani sari muhim ahamiyat kasb etadigan ma’naviy qadriyatlardan biri – vatanparvarlik tuyg‘usidir. Vatanparvarlik ona yurtining, xalqining tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo‘lida fidoyilik namunalarini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan shaxslarga xos fazilat. Vatanga, xalqqa bo‘lgan hurmat, muhabbat, ishonch tuyg‘usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar

asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o‘rin oladi, faoliyatiga ta’sir qilib, ularni mas’uliyatli vazifalarni bajarishga safarbar etadi [11, 12]. Shuning uchun ham har bir davlat o‘z fuqarolarida vatanparvarlikni shakllantirishga harakat qiladi va bu orqali ijtimoiy barqarorlikning asoslarini yaratadi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas’uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat [4].

Vatanparvarlik tushunchasining mohiyatini Vatan tushunchasi tashkil qiladi. Vatan tushunchasi yo‘q joyda vatanparvarlik to‘g‘risida so‘z yuritib bulmaydi. Vatan (arab. o‘sgan joy, yurt) – kishining tug‘ilib o‘sgan o‘lkasi, shahri yoki qishlog‘i, yurt, diyor yoxud kishi tug‘ilib o‘sgan va o‘zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat, ona yurt [10, 444] sifatida ta’riflanadi. Ushbu tushuncha horijiy ilmiy manbalarda patriotizm (yunon. patriotes– vatandosh, «patris» - Vatan) Vatanga muhabbat, tug‘ilib o‘sgan yurt bilan bog‘liqlik va unga sadoqat sifatida qo‘llaniladi. Patriotizm ko‘pincha o‘z Vatanining tarixi, madaniyati, qadriyatiga bo‘lgan muhabbat sifatida talqin etiladi. Biroq, patriotizmga nisbatan vatanparvarlikning mazmun jihatdan qamrovi ancha keng – u, nafaqat o‘z vatandoshlari erkini asrash uchun kurash, balki inson ozodligi yo‘lidagi xatti-harakatlardir. Aslida «vatan» - aniq tushuncha. U keng va tor ma’nolarda qo‘llanadi. Bir xalq vakillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hududni ifodalaganda u keng ma’noga ega bo‘ladi. YA’ni, tili, e’tiqodi, urf-odatlari va milliy hususiyatlari bir bo‘lgan avlodlar yashayotgan jug‘rofiy muhitni «Vatan» tushunchasi ifodalaydi. Kishi tug‘ilib o‘sgan uy, mahalla, qishloq, shahar nazarda tutilsa, bu Vatanni tor ma’noda tushunishdir [6, 13]. Vatanparvarlik – kishilarning o‘z ona Vatani, yurtiga muhabbati va uni asrab-avaylashga bo‘lgan intilishini anglatadi. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu Vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi.

Vatanparvarlikni millatchilik sifatida talqin qilinmasligi, vatanni asrab-avaylash har bir fuqaroning majburiyati ekanligini tushuntirish muhim vazifalardan biridir. Zero, «vatanparvarlik millatchilik emas, balki umuminsoniy tuyg‘udir. Fransuz adibi Volter shunday degan edi: Vatanga bo‘lgan muhabbat meni ajnabiylar yutug‘idan ko‘z yumishga majbur qilmaydi. Aksincha, vatanga muhabbatim qanchalik kuchli bo‘lsa, vatanimni jahondagi boshqa xalqlar yutuqlari bilan shunchalik boyitgim keladi» [5, 3]. Demak, o‘zligini anglagan, tarixiy xotirasi butun, mustaqil fikrlaydigan inson o‘z vataniga sotqinlik qilmaydi, balki vatan manfaatini hamma narsadan ulug‘ tutib, uning uchun jon berishga tayyor bo‘ladi. Bu esa Vatan himoyasi chindan ham barchamizning nafaqat vazifamiz, balki sharafli burchimizga aylanib borayotganidan yaqqol dalolat beradi [1, 371].

Dunyo miqiyosida xalqaro terrorizm, ekstremizm kabi xavf-xatarlar, milliy va global xavfsizlikka qarshi tahdidlar O‘zbekistonda harbiy vatan-parvarlik fazilatini yanada kengroq shakllantirishni ijtimoiy zaruriyatga aylantirmoqda.

Ayniqsa, harbiy vatanparvarning burchi mas’uliyatni to‘liq bajarishni talab etadi va Vatanni dushmanlardan himoya qilishni va unga sadoqat bilan xizmat qilishdek ezgu fazilatlarni qamrab oladi. Bu haqida nemis faylasufi Immanuil Kant: «huquqiy burchni bajarish tashqaridan majbur etilsa, axloqiy burch aksincha, fazilatga, ya’ni ichki hodisaga, ixtiyor erkinligiga bog‘liq [7, 216]. Shu bois yoshlarda vatanparvarlikni ichki axloqiy majburiyat sifatida shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Yoshlarda harbiy vatanparvarlikni shakllantirish orqali milliy g‘urur, or-nomus kabi axloqiy meyorlar mustahkamlanadi. Ijtimoiy fanlarga doir o‘quv-uslubiy adabiyotlarda, xususan «Milliy istiqlol g‘oyasi» fanida vatanparvarlik yuksak qadriyatlardan biri sifatida talqin etiladi va harbiy xizmatchilarni shu ruhda tarbiyalash juda muhim masala ekanligi keltiriladi. Chunki ushbu fanning vazifalaridan biri «...vatandoshlarimiz tafakkurida o‘zlikni anglash, tarixiy xotiraga sadoqat, muqaddas qadriyatlarimizni asrab-avaylash, vatanparvarlik tuyg‘ularini kamol toptirish»dan iborat [8, 123].

Harbiy qomusiy lug‘atlarda harbiy vatanparvarlikning mazmuni «yurtga sodiqlik, Vatanga muhabbat, el manfaatlariga xizmat va mamlakatni dushmandan himoya qilish» deb talqin etiladi [3]. Umuman olganda harbiy vatanparvarlikning mazmun-mohiyati shu ta’rifda mujas-sam bo‘lganga o‘xshaydi. Biroq, fuqaro vatanparvarligi – huquqiy madaniyat va qonunga itoatkorlik haqidagi bilimlar tizimi bo‘lib,

jamiyat va davlatdagi siyosiy-huquqiy hodisa-jarayonlarning yangiligini baholash, fuqarolik pozitsiyasiga egalik, xalqiga xizmatda doimo tayyor turish va konstitutsiyaviy burchini bajarishdan iborat»ligi ta’kidlanadi [9].

Talaba-yoshlarda shakllantirish zarur bo‘lgan harbiy vatanparvarlik tarbiyasi – bu O‘zbekiston Respublikasini mardlarcha himoya qilishga qodirligi va tayyorligi, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ma’naviy-axloqiy tizimidir. Talaba-yoshlardaga harbiy vatanparvarlik fazilatini shakllantirishda tarbiyaning mazkur shakli o‘z oldiga quyidagilarni asosiy vazifa qilib qo‘yadi:

talaba-yoshlarda Vatanga muhabbat tuyg‘usini mustahkamlash;

mamlakatni mudofaa qilish va davlatning qurolli kuchlarini jangovar kuchini mustahkamlashda javobgarlik hissini paydo qilish;

jangovar topshiriqlarga qat’iyatlilik va yurtga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish. Buning chun esa «biz ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish uchun «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» degan tamoyilga asoslangan holda, miliy g‘oya va uning mafkuraviy negzlarini puxta ishlab chiqishimiz kerak» [1, 149].

Talaba-yoshlarda harbiy vatanparvarlik ruhini shakllantirish uchun badiiy ta’sir vositasidan, jahonning durdona asarlaridan ham unumli foydalanish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Buyuk mutafakkir olimlarimizning vatanparvarlik to‘g‘risidagi g‘oyalari, o‘gitlarini yoshlarga singdirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’rifatparvar ajdodimiz Alixonto‘ra Sog‘uniy «Keraklicha din ilmini o‘qish hammaga farz bo‘lganidek, Vatanini va millatini saqlash uchun zamonaviy fan ilmini o‘qib bilishlik ham farzdir. ... Shu sababdan tushungan Vatan o‘g‘lon qizlarimiz zamonaviy har ilm-hunarni asosi bilan yaxshi tushunib, imkoniyat boricha bilib o‘zlashtirishga boshqalardan ortiqroq kirishmoqlari lozimdur» [2, 76-77].

Annotation. This article analyzes the advantages and opportunities of organizing the educational process based on a heutagogical approach. Heutagogy, as a modern educational paradigm, aims to develop learners' abilities for self-directed learning, self-development, and critical thinking. The article explains the essence of

the heutagogical approach, its role in the pedagogical process, and its differences from traditional education. It also highlights the possibilities of improving the quality and effectiveness of education through the use of innovative methods, interactive technologies, and digital tools in the learning process. The research results show that lessons organized on the basis of the heutagogical approach enhance students' cognitive activity, develop independent thinking, and contribute to the formation of practical competencies.

Keywords:heutagogy, heutagogical approach, educational process, innovative methods, interactive technologies, self-directed learning, cognitive abilities, critical thinking, competencies, pedagogical technologies.

Annotatsiya. Ushbu maqolada evtagogik yondashuv asosida dars jarayonini tashkil etishning afzalliklari va imkoniyatlari tahlil qilindi. Evtagogika zamonaviy ta'lim paradigmasi sifatida o‘quvchi va talabalarning mustaqil o‘rganish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada evtagogik yondashuvning mohiyati, uning pedagogik jarayondagi o‘rni hamda an'anaviy ta'limdan farqli jihatlari yoritilgan. Shuningdek, dars jarayonida innovatsion metodlar, interfaol texnologiyalar va raqamli vositalardan samarali foydalanish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, evtagogik yondashuv asosida tashkil etilgan darslar talabalarning kognitiv faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar:evtagogika, evtagogik yondashuv, ta'lim jarayoni, innovatsion metodlar, interfaol texnologiyalar, mustaqil ta'lim, kognitiv qobiliyat, tanqidiy fikrlash, kompetensiya, pedagogik texnologiyalar.

KIRISH. Evtagogika andragogikaning (kattalar ta'limi nazariyasining) rivojlangan shakli sifatida qaraladi. Bu yondashuvda o‘rganuvchilar nafaqat qanday o‘rganishni, balki nimani o‘rganishni ham o‘zlari belgilaydi. Andragogikada o‘rganuvchilar o‘qituvchi tomonidan belgilangan mazmunni qanday o‘rganishni boshqarsa, evtagogikada ular o‘quv dasturining mazmunini ham mustaqil tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, evtagogika andragogikadan yana bir jihati bilan farqlanadi — u neyrofan (neuroscience)ga asoslangan yondashuv bo‘lib, inson tabiatan quyidagi jarayonlar orqali o‘rganishga moyil ekanligini ta'kidlaydi: izlanish (exploration), gipoteza sinash

(hypothesis testing), sezgi orqali qabul qilish, tajriba, refleksiya, kontekst, xotira.[4]

Gumanistik va konstruktivistik nazariyalarga asoslangan evtagogika o‘quvchini ta’lim jarayonining markaziga qo‘yadi. O‘rganuvchilar: o‘qishni rejalashtirishda, amalga oshirishda, baholashda faol ishtirok etadi. Shu sababli evtagogika o‘quvchiga yo‘naltirilgan (learner-centred) yondashuv bo‘lib, u andragogikadagi nisbatan o‘qituvchi boshqaruviga asoslangan modeldan farq qiladi.[5]

MUAMMONING O‘RGANILGANLIK DARAJASI: Blaschke evtagogikani XXI asr ta’limi uchun eng mos yondashuvlardan biri sifatida ta’riflab, unda “qobiliyat” (capability)ni rivojlantirishga alohida urg‘u beradi. Chunki bu yondashuv shaxsiy tajriba orqali rivojlanishni ta’minlaydi. Evtagogika tushunchasini ilk bor Stewart Hase va Chris Kenyon ilgari surgan bo‘lib, ular bu yondashuvni pedagogika va andragogikani rivojlantiruvchi yangi ta’lim modeli sifatida asoslaganlar “Evtagogika” atamasi qadimgi yunon tilidagi: “heutos” — “o‘zini”, “agogy” — “o‘rganish” so‘zlaridan kelib chiqqan. Shu bois evtagogika “o‘zini o‘zi o‘rganish” yoki “o‘z-o‘zini boshqaruvchi ta’limni o‘rganish” sifatida talqin qilinadi. Evtagogikaning eng muhim xususiyati shundaki: o‘quvchilar ta’lim jarayonining markazida bo‘ladi, ular o‘z o‘rganish jarayonini nazorat qiladi, o‘qituvchi esa bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi (facilitator) sifatida faoliyat yuritadi.[7] Shunday qilib, evtagogika an’anaviy rollarni o‘zgartiradi:o‘quvchi faol subyektga aylanadi, o‘qituvchi esa yordamchi va yo‘naltiruvchi rolini bajaradi. Natijada ta’lim jarayonida o‘quvchiga yo‘naltirilgan yangi pedagogik munosabat shakllanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR: Shu nuqtai nazardan, evtagogikaning asosiy g‘oyasi o‘qituvchidan o‘quvchiga nazoratni o‘tkazishdan iborat . Bunda o‘quvchi o‘z o‘rganish jarayonining “me’mori” sifatida namoyon bo‘ladi. Evtagogikada o‘quvchi o‘quv maqsadlarini o‘zining shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlariga asoslanib belgilaydi. Shuningdek, u o‘rganish maqsadlariga erishish uchun o‘quv strategiyalarini ham mustaqil ishlab chiqadi. O‘zini o‘zi boshqaruvchi o‘rganish o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faolligini oshiradi va ularga o‘z xatti-harakatlarini mustaqil boshqarish imkonini beradi. Bu esa “o‘z-o‘zini o‘qitish (self-instruction), o‘zini nazorat qilish (self-monitoring) va o‘zini baholash (self-evaluation)” ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali amalga oshadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, evtagogika andragogikaning davomiy shakli sifatida qaraladi, ammo unda o‘quvchiga beriladigan e’tibor yanada kuchaytirilgan. Andragogikada o‘quvchi o‘rganish

jarayonini qanday tashkil etishni mustaqil belgilashi mumkin, biroq o‘quv mazmuni asosan o‘qituvchi tomonidan aniqlanadi. Shu sababli o‘quvchi o‘quv dasturiga to‘liq ta’sir ko‘rsata olmaydi.[8]

XULOSA: Evtagogik yondashuv asosida dars jarayonini tashkil etish zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchi va talabalarning mustaqil bilim olish, o‘z-o‘zini rivojlantirish hamda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, evtagogik yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshiradi, ularni ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi va amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ushbu yondashuv ta’lim jarayonini individuallashtirish, moslashuvchanlikni ta’minlash va innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish imkonini beradi.

TAVSIYALAR: Evtagogik yondashuvni ta’lim jarayoniga samarali joriy etish uchun quyidagi tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq: O‘qituvchilarning evtagogik yondashuv bo‘yicha malakasini oshirish va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish; Dars jarayonida o‘quvchilarning mustaqil ishlashiga yo‘naltirilgan interfaol metodlar va topshiriqlardan keng foydalanish; Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va onlayn platformalarni integratsiya qilish; O‘quvchilarning individual qobiliyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda moslashuvchan o‘quv muhitini yaratish; Baholash tizimini takomillashtirib, unda o‘quvchilarning ijodiy va amaliy faoliyatiga alohida e’tibor qaratish; Ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish orqali evtagogik yondashuvning samaradorligini yanada chuqur o‘rganish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Sobirova.M.R. Evtagogik ta’limning mustaqil soha sifatida rivojlanishi.//Intereducation & global study. 2024. N=4(2).B. 154-161
2. Yo‘ldoshev, J., va Musurmonova, O. (2019). Pedagogika. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Pedagogik mahorat. Darslik / A.A. Xoliqov; O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi-T.: 2011
4. Knowles, M. S. (1990). The adult learner: a neglected species (4th ed.). Gulf Pub Co.
5. Blaschke, L. M. (2012). Heutagogy and lifelong learning: a review of heutagogical practice and self-determined learning. International Review of Research in Open and Distance Learning, 13(1), 56-71.

https://10.19173/irrodl.v13i1.1076 Blaschke, L.M. (2013). E-learning and self-determined learning skills. In Hase, S., & Kenyon, C. (Ed.). Self-determined learning: heutagogy in action. Bloomsbury Publishing.
6. Blaschke, L. M. (2018). Self-determined learning (heutagogy) and digital media creating integrated educational environments for developing lifelong learning skills. In D. Kergel, B. Heidkamp, P. Telleus, T. Rachwal, & S. Nowakowski (Eds.), The digitalturn in higher education (pp. 129-140). Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-658-19925-8_10
7. Hase, S., & Kenyon, C. (2013). Heutagogy fundamentals. In S. Hase & C. Kenyon (Eds.), Self-determined learning:heutagogy in action (pp. 1-17). Bloomsbury Publishing Plc.
8. Snowden, M., & Halsall, J. (2016). Self-determined approach to learning: A social science perspective. Cogent Education, 3(1). https://10.1080/2331186X.2016.1247608.
9. Singer, D. G., Golinkoff, R. M., & Hirsh-Pasek, K. (2006). Play = Learning: How Play Motivates and Enhances Children's Cognitive and Social-Emotional Growth. Oxford University Press.
10. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being. American Psychologist, 55(1), 68–78.

HARBIY -AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARIDA VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISHDA JALOLIDDIN MANGUBERDI SIYMOSINING O‘RNI

Madjidova Saida Mirbasidovna
DXX “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi filologiya fanlari kafedrasi bosh o`qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk sarkarda mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi mardlarcha kurash olib borgan Jaloliddin Manguberdi hayoti va harbiy faoliyatining ibratli jihatlari, xususan, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o‘rni tahlil qilingan. Sultonning mardligi va qo‘llagan harbiy strategiyalari harbiylik sohasini tanlaganlar uchun ma’naviy va amaliy namuna sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, maqolada sarkarda hayotining bugungi kun yoshlari, xususan, "Temurbeklar maktabi" o‘quvchilari uchun tarbiyaviy ahamiyati, harbiy mahorat darslari sifatidagi o‘rni yoritilgan.

Kalit so`zlar: Jaloliddin Manguberdi, vatanparvarlik, harbiy strategiya, milliy g‘urur, jasorat, mardlik, yoshlar tarbiyasi, matonat, tarixiy meros, harbiy mahorat, tarixiy manbalar.

Kirish

Tarix shunday buyuk ustozki, u o‘zining shonli sahifalari bilan har birimizga o‘zligimizni anglatadi, ajdodlarimiz jasorati bizda g‘urur va iftixor tuyg‘ularini shakllantiradi. Xalqimizning boy tarixida nomi mardlik, ozodlik va Vatanga cheksiz sadoqat timsoliga aylangan buyuklar ko‘p. Ular orasida Sulton Jaloliddin Manguberdi siymosi alohida o‘rin tutadi Jaloliddin U XIII asr boshlarida, Xorazmshohlar davlati inqirozga yuz tutgan va mo‘g‘ullar xavfi butun Osiyoga soya solgan bir paytda,maydonga chiqdi. Otasi Muhammad Xorazmshoh chekinayotgan bir paytda, Jaloliddin murosasiz kurash yo‘lini tanladi. Uning uchun Vatan tuprog‘i shaxsiy hayoti va saltanatdagi har xil nizolardan ustun edi. Buyuk sarkardaning Chingizxondek qudratli fotihga qarshi olib borgan o‘n bir yillik murosasiz kurashi, dushmanni ham hayratga solgan mardligi bugungi kun yoshlari, ayniqsa, bo‘lajak harbiylarimiz uchun chinakam hayot maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

Asosiy qism

Jaloliddin Manguberdining shaxsiy kotibi bo‘lgan Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy «Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti» asarida Sultonni «o‘z davrining eng mard va dovyurak kishisi» deb ta’riflaydi. Tarixiy manbalarda Jaloliddinning ot choptirish, qilichbozlik va kamondan otishda mahorati yuksak bo‘lgani aytiladi. Shu bilan birga u adolatli va iymonli inson bo‘lgan.

Darhaqiqat,Sulton Jaloliddin Manguberdi jahon harbiy san’ati tarixida o‘zining mardligi bilan bir qatorda, o‘ta murakkab sharoit-larda qo‘llagan noyob harbiy taktik usullari bilan ham iz qoldirgan. Uning Chingizxondek qudratli va son jihatdan ustun dush-manga qarshi olib borgan janglari bugungi zamonaviy harbiy tay-yorgarlik uchun ham qimmatli saboqlarni beradi. Tarixda buyuk burilish deya e’tirof etiluvchi1221-yilgi Parvon jangi Jaloliddinning harbiy dahosini ko‘rsatib berdi. Sulton o‘zidan bir necha barobar ko‘p bo‘lgan mo‘g‘ul qo‘shiniga qarshi piyoda jang qilish taktikasi orqali g‘alaba qozondi. Bu jangda Sulton Jaloliddin Manguberdi o‘ziga xos usul qo‘lladi. U mo‘g‘ul otliqlari tog‘li hududda harakat qilishi qiyinligini hisobga olib, u o‘z suvoriylariga otlardan tushishni buyuradi.Jangchilar otlarini jilovlaridan bir-biriga bog‘lab, tirik devor hosil qilishgan. Bu usul mo‘g‘ul otliqlarining shiddatli hujumini to‘xtatishga yordam bergan va ularni oson nishonga aylantirgan. Mazkur harbiy taktika bugungi kunda "hududning ustunlik tomonlaridan maksimal foydalanish" tamoyiliga to‘la mos keladi. Parvon jangidagi g‘alaba uning dushman zaif nuqtalarini aniq topa olishi va qo‘shinning jangovar ruhini birlashtira bilganining isbotidir. Bu g‘alaba shunchaki harbiy muvaffaqiyat emas,

balki xalqning ruhini ko‘targan, «mo‘g‘ullarni yengsa bo‘ladi» degan ishonchni uyg‘otgan buyuk burilish edi. Sultonning bu g‘alabasi orqasida millatning birligi va bosh maqsad — ozodlik yo‘lidagi qat’iyat yotardi.Jaloliddin o‘z davrining eng buyuk imperiyasi — mo‘g‘ullar qo‘shini oldida bosh egmagan. U o‘zining kimligini, qaysi sulola va millat vakili ekanligini bir lahza ham unutmagan.

Tarix kitoblarida yozilishicha,Sarkarda ko‘pincha mo‘g‘ullarning o‘z usulini ularga qarshi qo‘llagan. Ya’ni kichik bir guruh bilan hujum qilib, so‘ng mag‘lub bo‘layotgandek chekingan. Dushman tartibsiz quvib kelganda pistirmada turgan asosiy kuchlar bilan ularni qurshovga olgan.Voliya jangida ham u o‘zining oz sonli qo‘shini bilan dushmanning katta qismini aynan mana shunday hiyla ishlatish bilan mahv etgan.

Manguberdining eng kuchli taktikasi — bu uning shaxsan o‘zi jangning eng qaynoq nuqtalarida bo‘lishi edi. U qo‘shin markazi-qalbda turib, eng xavfli lahzalarda dushman qo‘mondoni tomon ot qo‘ygan. Qurshovda qolgan paytda ham taslim bo‘lmaslik, ot bilan daryoga sakrash va narigi qirg‘oqdan dushmanga qilich o‘qtalish — bu dushmanning ruhiyatini sindirishga qaratilgan eng oliy taktika edi

Sultonning irodasi hatto tabiatning shafqatsiz sinovlaridan ham ustun kelgan. Sind daryosi bo‘yidagi jangda u taslim bo‘lmaslik uchun 20 metrli balandlikdagi qirg‘oqdan otda suvga sakraydi va bir qo‘lida qurol, ikkinchi qo‘lida bayroq tutgancha suzib o‘tadi. Bu qochib o‘zni qutqarish emas, balki kurashni davom ettirish mas’uliyati edi.

Jaloliddinning jasoratiga hatto uning ashaddiy dushmani Chingizxon ham tan bergan. Sind daryosi bo‘yidagi mashhur voqea-dan so‘ng, Chingizxon o‘z o‘g‘illariga qarata: «Ota mana shunday o‘g‘ilga ega bo‘lishi kerak!» degan so‘zlarni aytgan. Bu iqtibos bugun har bir vatan himoyasiga chog‘langan o‘g ‘lonning qalbida aks sado berishi lozim. Biz mana shunday ulug‘ ajdodlarning vorislarimiz!

Xulosa

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, Sulton Jaloliddin Manguberdi merosi shunchaki o‘tmish sahifasi emas, balki bugungi va ertangi kunimizning ma’naviy qalqonidir Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin shaxsiyati, jasoratini o‘rganish ularda milliy g‘ururni shakllantirishga zamin bo‘lib xizmat qiladi. Sulton Jaloliddin o‘zining 11 yillik tinimsiz kurashlari bilan bizga bitta buyuk haqiqatni meros qoldirdi: Vatan — nomus, Vatan — onadir. Uni himoya qilish esa har bir farzandning muqaddas burchidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: «Jaloliddin Manguberdi el-yurt istiqloli uchun kurashgan, shu yo‘lda aziz jonini qurbon qilgan ajdodlarimizning buyuk namoyandasidir. Ona yurtga muhabbat va sadoqat bobida unga teng

keladigan shaxslar dunyoda kamdan-kam uchraydi».. Jaloliddin Manguberdi kabi vatanparvar bo‘lish — bu nafaqat tarixni o‘rganish, undan ibrat olish, buyuk salaflarimiz bilan faxrlanish, balki bugungi kunda Vatan xavfsizligi, xalq farovonligi, yurt taraqqiyotiga sadoqat bilan hissa qo‘shish demakdir. Zero, Jaloliddin Manguberdi jasorati mangu barhayot!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shihobuddin Muhammad an-Nasaviy. "Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti" (Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mankubirti). — Toshkent: "O‘zbekiston", 2006.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida"
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. "Jaloliddin Manguberdi" maqolasi.
4. "Jaloliddin Manguberdi — Vatan himoyachisi" mavzusidagi ilmiy konferensiya materiallari. Toshkent, 1999.
5. Maqsud Shayxzoda. "Jaloliddin Manguberdi" (Tarixiy drama).
6. ZiyoUz.com — Tarixiy shaxslar va asarlar kutubxonasi.

PBL METODINING BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INGLIZ TILI O‘QITISH SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

Maxmudova Zulxumor Alim qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda ingliz tili o‘qitishda loyiha asosidagi ta’lim (PBL) metodining mohiyati, bosqich-lari va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi samara-dorligi yoritilgan. O‘zbekiston ta’lim tizimi kontekstida PBL metodini qo‘l-lashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan, uning o‘quvchi-larning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini, hamkorlik va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o‘rni ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: loyiha asosidagi ta’lim (PBL), kommunikativ kompetensiya, boshlang‘ich sinf, ingliz tili o‘qitish, innovatsion metod, kommunikativ yondashuv, til ko‘nikmalari.

Bugungi globallashuv davrida ingliz tilini boshlang‘ich sinfdan boshlab samarali o‘qitish O‘zbekiston ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-sonli “Chet tillarni o‘rganish tizimini

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori barcha umumta’lim maktablarida 1-sinfdan boshlab ingliz tili darslarini joriy etishni belgilab berdi [1]. Ushbu qaror chet tili ta’limida zamonaviy, innovatsion yondashuvlarni qo‘llashni taqozo etadi.

Zamonaviy pedagogikada o‘quvchini faol bilish jarayoniga jalb etuvchi metodlar orasida loyiha asosidagi ta’lim (Project-Based Learning – PBL) alohida o‘rin egallaydi. Kholikova N.N. ta’kid-laganidek, loyiha metodi boshlang‘ich maktabda qo‘llaniladigan asosiy o‘qitish metodlaridan biri bo‘lib, unda o‘quvchi muayyan mavzu bo‘yicha bir necha dars davomida faol ishlaydi va natijada o‘z loyiha mahsulotini yaratadi [2]. Ushbu metod orqali o‘quvchilarda kom-munikativ kompetensiya, ijodkorlik va mustaqil fikrlash shakllantirila boshlaydi.

Maqolaning maqsadi — PBL metodining boshlang‘ich ta’limdagi ingliz tili darslarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi o‘rnini nazariy va amaliy jihatdan asoslashdir.

Kommunikativ kompetensiya — bu o‘quvchining o‘rganilayotgan chet tili vositasida muloqot vaziyatlarida samarali muloqot qila olish qobiliyatidir. U grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komp-etensiyalardan tashkil topgan murakkab tizim hisoblanadi [3]. Kommunikativ yondashuv (CLT) metodida til o‘rgatishning bosh maqsadi ham aynan ana shu to‘rt komponentni bir butun tarzda rivojlantirishdir.

Maxkamova G.T., Gulyamova Z.R. va Subanova D.V. ta’kidlashicha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun autentik muloqot vaziyatlarini yaratish, mini-loyihalar va guruhli ishlash shakllaridan foydalanish samarali natija beradi [4]. O‘quvchilarning yoshga xos xususiyatlari — qiziquvchanlik, o‘yinga moyillik, harakatlilik — bu metodning samaradorligini yanada oshiradi.

Fragoulis va Tsiplakides (2009) tomonidan Gretsiyaning davlat boshlang‘ich maktablarida o‘tkazilgan tadqiqot PBL metodining ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rgatishdagi samaradorligini empirik jihatdan isbotladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, loyiha ishlarida ishtirok etgan o‘quvchilar to‘rt tildagi ko‘nikma — og‘zaki nutq, tinglash, o‘qish va yozish — bo‘yicha sezilarli yutuqlarga erishdi. Ayniqsa, og‘zaki nutq va tinglash ko‘nikmalarida yaxshilanish kuzatildi [5].

PBL metodini boshlang‘ich ingliz tili darslarida qo‘llash quyidagi to‘rt asosiy bosqichdan iborat:

1. **Rejalashtirish.** O‘quvchilar va o‘qituvchi birgalikda ingliz tiliga oid loyiha mavzusini tanlaydi. Mavzu o‘quvchilarning kundalik hayotiga yaqin va yoshiga mos bo‘lishi lozim. Bu bosqichda guruhlarga bo‘linish va har bir ishtirokchiga inglizcha rollar belgilanadi.

2. **Ma’lumot to‘plash.** O‘quvchilar ingliz tilida turli manbalardan — kitoblar, internet, intervyu — ma’lumot to‘playdi va qayta ishlaydi. Bu jarayon o‘qish va yozish ko‘nikmalarini tabiiy yo‘l bilan rivojlantiradi.

3. **Loyihani amalga oshirish.** O‘quvchilar to‘plangan ma’lumotlar asosida inglizcha taqdimot, plakat yoki broshyura tayyorlaydi. Guruhda inglizcha muloqot qilish, gapirish va yozish ko‘nikmalari faol qo‘llaniladi.

4-bosqich: Taqdimot va baholash. o‘quvchilar o‘z loyihalari natijalarini ingliz tilida sinfda namoyish etadi, savol-javob o‘tkazadi. o‘z-o‘zini va tengdoshlari tomonidan baholash ham amalga oshiriladi [5].

Mirzoxidova L.B. va Turgunbayeva T.A. (2025) tadqiqotida boshlang‘ich sinflarda loyiha ishlarini tashkil etishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari batafsil yoritilgan. Mualliflar loyiha usuli orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tadqiqot olib borish, hamkorlik va taqdimot qilish kabi ko‘nikmalari rivojlanishini ta’kidlaydi [6]. Bu ko‘nikmalar ingliz tili darslarida kommunikativ kompetensiyani shakl-lantirishda bevosita qo‘llanilishi mumkin.

O‘zbekiston maktablarining boshlang‘ich sinflarida PBL metodini ingliz tili darslarida qo‘llashga muvofiq bir nechta loyiha namunalari taklif etiladi:

“My Family” loyihasi: o‘quvchilar o‘z oilalari haqida inglizcha qisqa matn, rasm va taqdimot tayyorlaydi. Natijada ular o‘zlari uchun muhim mavzuda inglizcha gapirish va yozish ko‘nikmalarini tabiiy sharoitda rivojlantiradi.

“My City” loyihasi: o‘quvchilar o‘z shahar yoki qishlog‘idagi diqqatga sazovor joylar haqida inglizcha ma'lumot to‘playdi, devoriy gazeta yoki slayd tayyorlaydi. Bu jarayon o‘qish, yozish va og‘zaki nutq ko‘nikma-larini bir vaqtning o‘zida rivojlantiradi.

“My Favourite Animal” loyihasi: o‘quvchilar sevimli hayvon haqida inglizcha matn yozadi, rasm chizadi va sinfda taqdim etadi. Kholikova N.N. ta’kidlaganidek, loyiha metodi 4 yoshdan boshlab qo‘llanishi mumkin, chunki u tilni o‘yin va ijod orqali o‘zlashtirish imkonini beradi [2].

Mirzoxidova L.B. (2024) tadqiqotida ko‘rsatilishicha, kichik sinf o‘quvchilarida loyiha ishlari universal hayotiy ko‘nikmalarni —

muloqot, hamkorlik, ijodkorlik — shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi [7]. Bu ko‘nikmalar ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, PBL metodi bu ikki yo‘nalishni bir dars tizimi doirasida uyg‘un birlashtira oladi.

PBL metodi an’anaviy ingliz tili darslaridan bir qancha jihatlari bilan farqlanadi. An’anaviy darsda o‘qituvchi asosiy bilim beruvchi bo‘lsa, PBL metodida o‘qituvchi qo‘llovchi, maslahatchi va muvofiqlashtirgich rolini o‘ynaydi. o‘quvchi esa faol ishtirokchi, bilim qurivchi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday yondashuv o‘quvchining ingliz tilini o‘z tashabbuslari bilan qo‘llashini ta'minlaydi va tilni real muloqot sharoitida o‘zlashtirish imkonini yaratadi [5].

Yuqorida bayon etilganlar asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin. Birinchidan, PBL metodi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ingliz tilining to‘rt asosiy ko‘nikmasi — gapirish, tinglash, o‘qish va yozish — ni kompleks tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, loyiha jarayonida o‘quvchilar ingliz tilini sun'iy emas, balki real muloqot vaziyatlarida qo‘llaydi, bu esa kommunikativ kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlarini mustahkamlaydi. Uchinchidan, PBL metodi o‘zbekiston boshlang‘ich ta’lim sharoitiga, ya'ni o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va mahalliy kontekstga muvofiq moslashtirilishi mumkin. To‘rtinchidan, mazkur metodning keng joriy etilishi o‘zbekiston Respublikasining chet tillarni o‘rgatish sohasidagi davlat siyosatini, xususan PQ-1875-sonli qarorning maqsadlarini amalga oshirishga munosib hissa qo‘shadi.

Shunday qilib, PBL metodi boshlang‘ich ta’limda ingliz tili o‘qitishda samaradorlikni oshirishning ilmiy jihatdan asoslangan innovatsion vositasi ekanligi isbotlangan. Ushbu metodning amaliyotga keng joriy etilishi o‘quvchilarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1875-sonli qarori. “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – Toshkent, 2012-yil 10-dekabr.
2. Kholikova N.N. Methodology of Teaching English in Preschool and Primary Education. – Bukhara: “Durdona” publishing house, 2022. – 112 b.
3. Musoyeva A.B. Methodology of Teaching Foreign Languages in Primary Education. – Samarkand: "SDCHI" nashriyoti, 2023. – 223 b.
4. Maxkamova G.T., Gulyamova Z.R., Subanova D.V. Methodology of Teaching Foreign Languages in Primary School. – Toshkent: "Ilm ziyo zakovat", 2023. – 140 b.

5. Fragoulis I., Tsiplakides I. Project-Based Learning in the Teaching of English as A Foreign Language in Greek Primary Schools: From Theory to Practice // English Language Teaching. – 2009. – Vol. 2, No. 3. – P. 113–119.
6. Mirzoxidova L.B., Turgunbayeva T.A. Boshlang‘ich sinflarda loyiha ishlarini tashkil etish // International Scientific and Practical Conference "Modern Approaches in Teaching Exact and Natural Sciences". – May 30, 2025. – B. 755–762.
7. Mirzoxidova L.B. Kichik sinf o‘quvchilarining universal hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirishda loyiha ishlarining ahamiyati // o‘zMU xabarlari. – Toshkent, 2024. – 1/11/1-son. – B. 158–161.

TEMPERAMENT SIFATLARI NAMOYON ETILISHINING GENDER XUSUSIYATLARI

Shernazarova Sabina
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti Psixologiya yo’nalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda temperament xususiyatlarining gender asosida namoyon bo‘lish sifatlari hamda uning psixologik mohiyati tahlil qilinadi. Temperamentning asosiy turlari va ularning erkak hamda ayollarda ifodalanish darajasi psixologik jihatdan yoritiladi. Shuningdek, ijtimoiy, biologik hamda madaniy omillarning temperament shakl-lanishiga ta’siri ko’rib chiqiladi. Tadqiqot davomida gender farqlari temperament sifatlarining namoyon bo‘lishida muhim omil bo’lishi, ammo ular individual xususiyatlar bilan ajralmas bog‘liqligi asoslanadi.

Аннотация: В данной работе анализируется гендерное проявление черт темперамента и их психологическая сущность. Психологически выделены основные типы темперамента и степень их выраженности у мужчин и женщин. Также рассматривается влияние социальных, биологических и культурных факторов на формирование темперамента. В исследовании утверждается, что гендерные различия являются важным фактором в проявлении черт темперамента, но они неразрывно связаны с индивидуальными характеристиками.

Abstract: This thesis analyzes the gender-based manifestation of temperament traits and their psychological essence. The main types of temperament and their degree of expression in men and women are psychologically highlighted. The influence of social, biological and cultural factors on the formation of temperament is also considered. The study argues that gender differences are an important factor in the manifestation of temperament traits, but they are inextricably linked with individual characteristics.

Kalit so‘zlar: gender, temperament, psixologiya, hissiylik, individual farqlar, xulq-atvor , shaxs.

Ключевые слова: пол, темперамент, психология, эмоциональность, индивидуальные различия, поведение, личность.

Keywords: gender, temperament, psychology, emotionality, individual differences, behavior, personality.

Shaxs psixologiyasida temperament muhim o‘rinni egallaydi. Temperament insonning tug‘ma psixofiziologik xususiyatlarining majmui bo‘lib, u insonning faoliyat tezligini, hissiy reaktivligini va tashqi ta’sirlarga munosabatini belgilaydi. Temperament shaxsning motivatesiyasi, qiziqishlari hamda xarakteri bilan uzviy bog‘liq hisoblanib, u shaxsning xulq-atvorida bevosita namoyon bo‘ladi. Ilmiy manbalarda temperamentning to‘rt asosiy turi ajratiladi: sangvinik, xolerik, flegmatik hamda melanxolik. Sangvinik shaxslar faol, ijtimoiy va tez moslashuvchan insonlar bo‘ladi. Xoleriklar esa kuchli his-siyotlarga ega bo‘lib, tezkor va qat’iyatli qaror qabul qilishga moyil insonlardir. Flegmatiklar barqaror, sokin va sabrli bo‘lishsa, melanxoliklar esa sezgir, chuqur hissiy kechinmalarga ega va ehtiyotkor shaxslar bo‘ladi.

Temperamentning psixologik xususiyatlari insonning kundalik faoliyatida, stressli vaziyatlarga munosabatida va muloqotida yaqqol ko’zga tashlanadi. Masalan, sangvinik shaxslar yangi muhitga tez moslashsa, melanxoliklar bunday vaziyatlarda ko‘proq ichki kechinmalarni boshdan kechirishi mumkin. Xoleriklar keskin vaziyatlarda tezkor harakat qilsa, flegmatiklar esa bu vaziyatda oldin vaziyatni tahlil qilib, keyin qaror qabul qiladi. Temperament sifatlar-ining shakllanishida nerv tizimi muhim rol o‘ynaydi. Kuchli hamda muvozanatli nerv tizimiga ega shaxslarda sangvinik va flegmatik xususiyatlar ko‘proq uchraydi. Kuchli, lekin muvozanatsiz nerv tizimi xolerik temperamentni yuzaga keltiradi. Zaif nerv tizimi esa melanxolik temperamenti bilan bog‘liq bo’ladi.

Shaxs temperamentining namoyon bo‘lishida gender omili alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Erkak va ayollar o‘rtasidagi biologik farqlar, asosan gormonal tizim, temperament xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Erkaklarda testosteron darajasining yuqoriligi ularning faolroq bo’lishiga, ba’zan esa agressivroq bo‘lishiga olib keladi. Bu holat xolerik temperament belgilarining ko‘proq uchrashiga sabab bo‘lishi ham mumkin. Ayollarda esa estrogen gormoni hissiy sezgirlikni oshirishi isbotlangan. Natijada ular ko‘proq empatiya, ehtiyotkorlik va hissiy barqarorlikka moyil bo‘lishadi. Bu esa melanxolik va flegmatik temperament xususiyatlarining ustunligini anglatadi. Biroq bu farqlar umumiy tendensiya bo‘lib, har bir shaxning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari mavjud bo’ladi.

Gender xususiyatlari temperamentning faqat biologik emas, balki ijtimoiy jihatdan ham shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyatda erkaklarga faol, jasur hamda mustaqil bo‘lish talabi qo‘yilgan. Ayollarga

esa ko‘proq muloyimlik, sabr-toqat va hissiy-emotsionallik xos deb qaraladi. Ushbu ijtimoiy stereotiplar shaxsning o‘z temperamentini qanday namoyon qilishiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Tarbiya jarayoni ham temperament sifatlari rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Oilaviy muhit, ta’lim tizimi va ijtimoiy tajriba shaxsning temperament xususiyatlarini kuchaytirishi yoki susaytirishi mumkin. Masalan, qo‘llab-quvvatlovchi muhitda o‘sgan shaxslar o‘ziga ishonchli va faol bo‘lishi mumkin va bu sangvinik xususiyatlarning rivojlanishiga olib keladi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, temperament qat’iy o‘zgarmas tuzilma emas. U shaxs rivoji davomida ma’lum darajada o‘zgarishi ham mumkin. Ayniqsa, ijtimoiy tajriba, kasbiy faoliyat hamda o‘z ustida ishlash orqali inson o‘z temperamentini boshqarishni o‘rganishi mumkin.

Shuningdek, temperamentning gender jihatdan namoyon bo‘lishi madaniy omillarga ham ko’p jihatdan bog‘liqdir. Turli jamiyatlarda erkak va ayollarga qo‘yiladigan talablar turlicha bo‘lganligi sababli temperament ifodasi ham shunga mos ravishda farq qiladi. Shu bois, temperamentni o‘rganishda madaniy kontekstni ham hisobga olish zarur bo’ladi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, shaxs temperament sifatlarining namoyon bo‘lishi murakkab psixologik jarayon hisoblanib, u biologik, ijtimoiy hamda gender omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Gender farqlar temperamentda ma’lum darajada aks etsa ham, ular mutlaq emas. Har bir shaxs o‘ziga xos individual xususiyatlarga ega bo‘lib, temperament uning hayotiy tajribasi va rivojlanish jarayonida shakllanib boradi. Shu sababli ham shaxsni baholashda kompleks yondashuvning o’rni muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. – T.: O‘qituvchi, 2010.
2. Nemov R.S. Psixologiya. – M.: Vlados, 2015.
3. Eysenck H.J. Personality and Individual Differences. – London, 1998.
4. Rubinstein S.L. Osnovi obshchey psixologii. – M., 2002.
5. Myasishchev V.N. Psixologiya lichnosti. – SPb., 2004.

TEXNOLOGIK TA`LIM TALABALARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Kurbanov Munis Umrbekovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezis texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalari orasida vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishga ta’sir etuvchi

psixologik omillarni tahlil qiladi. Tadqiqotning maqsadi motivatsion-qiymat yo‘nalganlik, ijtimoiy identifikatsiya, emotsional-bilish jarayonlari va refleksiya mexanizmlarining tarbiyaviy jarayondagi rolini asoslashdir. Metodologiya sifatida nazariy tahlil, psixologik-pedagogik modellashtirish va amaliy tavsiyalarni konseptuallashtirish qo‘llanadi. Ilmiy yangilik vatanparvarlikni texnologik kompetensiyalar bilan integratsiyalovchi psixologik omillar tizimini izohlashdadir.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik; motivatsiya; ijtimoiy identifikatsiya; kasbiy o‘zlik; refleksiya; emotsional barqarorlik; qadriyatlar tizimi.

Аннотация. В тезисе анализируются психологические факторы, влияющие на формирование патриотизма у студентов технологического образования. Цель состоит в обосновании роли мотивационно-ценностной направленности, социальной идентификации, эмоционально-когнитивных процессов и рефлексии в воспитательной работе. Методология включает теоретический анализ, психолого-педагогическое моделирование и концептуализацию практических рекомендаций. Научная новизна заключается в системном объяснении факторов, интегрирующих патриотическое воспитание с развитием технологических компетенций.

Ключевые слова: патриотизм; мотивация; социальная идентификация; профессиональная Я-концепция; рефлексия; эмоциональная устойчивость; система ценностей.

Abstract. This thesis analyzes psychological factors shaping patriotism among students in technological education. The aim is to substantiate the role of motivational and value orientation, social identification, emotional-cognitive processes, and reflective mechanisms in educational practice. The methodology relies on theoretical analysis, psycho-pedagogical modeling, and conceptualization of practical recommendations. Scientific novelty lies in a systemic explanation of factors that integrate patriotic education with the development of technological competencies and professional identity.

Keywords: patriotism; motivation; social identification; professional identity; reflection; emotional regulation; value orientation.

Zamonaviy texnologik ta’lim tizimi nafaqat amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarni rivojlantirish, balki talabaning shaxsiy-ijtimoiy yetukligini ta’minlash bilan ham tavsiflanadi. Shu ma’noda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash psixologik jarayon sifatida shaxsning qadriyatlar tizimi, ijtimoiy munosabatlari, kasbiy o‘zligi hamda emotsional-bilish resurslari bilan uzviy bog‘liqdir. Texnologik ta’lim

talabasi ko‘pincha loyiha, konstruktorlik fikrlashi, ishlab chiqarish madaniyati, texnik xavfsizlik va jamoada hamkorlik kabi faoliyatlarni o‘zlashtiradi; ana shu kontekstda vatanparvarlik abstrakt shior emas, balki mas’uliyatli mehnat, sifat, halollik, resurslarga ehtiyotkorlik va jamiyat manfaatiga yo‘naltirilgan kasbiy xulq-atvor sifatida namoyon bo‘lishi kerak. Shu sababli psixologik omillarni aniqlash va ularni pedagogik ta’sir mexanizmlariga aylantirish OAK talablariga mos ilmiy asoslangan yondashuvni taqozo etadi.

Vatanparvarlikning psixologik mazmuni avvalo motivatsion-qiymat yo‘nalganlik orqali ochiladi. Qadriyatlar shaxs uchun “nima muhim” degan savolga javob bo‘lib, maqsad qo‘yish va qaror qabul qilishning ichki mezonlarini belgilaydi. Talabaning vatanparvarlikka moyilligi, odatda, ikki darajada ko‘rinadi: deklarativ daraja (bayon etilgan ijobiy munosabat) va operatsional daraja (amaliy xatti-harakatda namoyon bo‘ladigan mas’uliyat). Shu ikki daraja o‘rtasidagi tafovut motivatsiyaning barqarorligi va ichkilashtirilganligi bilan belgilanadi. Ichki motivatesiya kuchli bo‘lsa, talaba o‘z kasbiy faoliyatini jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘lab ko‘radi; tashqi motivatsiya ustun bo‘lsa, u vatanparvarlikni asosan baho, nazorat yoki rasmiy talablar bilan aloqador deb qabul qiladi. Psixologik nuqtai nazardan tarbiyaviy ta’sirning vazifasi tashqi rag‘batdan ichki qabul qilishga o‘tish mexanizmlarini qo‘llab-quvvatlashdan iborat bo‘lib, bunda ma’no hosil qilish, shaxsiy tajribani qayta ishlash va maqsadlarning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish markaziy o‘rin tutadi [1].

Ikkinchi muhim omil ijtimoiy identifikatsiyadir. Talaba o‘zini muayyan ijtimoiy guruhlarga mansub deb bilishi orqali “biz” obrazini quradi va ushbu “biz” doirasida me’yorlar, kutishlar hamda mas’uliyatni qabul qiladi. Texnologik ta’lim muhitida identifikatsiya bir vaqtning o‘zida bir necha qatlamda shakllanadi: oliy ta’lim muassasasi jamoasi, kasbiy hamjamiyat (muhandislik-ta’limiy yo‘nalish), hududiy hamkorlik tarmog‘i va keng ijtimoiy makon. Vatanparvarlikni psixologik jihatdan kuchaytiradigan holat shundaki, talaba o‘z kasbini mamlakatning ilmiy-texnik taraqqiyoti, ishlab chiqarish madaniyati va innovatsion salohiyati bilan bog‘liq holda tasavvur qila boshlaydi. Bunda ijtimoiy o‘rnak, referent shaxslar va jamoa qadriyatlari muhim: o‘qituvchi, ustoz, ishlab chiqarish amaliyoti rahbari yoki muvaffaqiyatli bitiruvchi talaba uchun “ideal professional” modelini beradi. Ijtimoiy o‘rganish mexanizmlari shuni ko‘rsatadiki, kuzatish va taqlid qilishdan ko‘ra, o‘zini o‘sha rolga psixologik yaqin his qilish, ya’ni “men ham shunday bo‘la olaman” ishonchi kuchliroq tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi [2].

Uchinchi omil emotsional-bilish jarayonlarining uyg‘unligidir. Vatanparvarlik ko‘pincha emotsional yaqinlik, faxr, daxldorlik, mas’uliyat kabi kechinmalar bilan birga kechadi, biroq u faqat hissiyotlar bilan chegaralanib qolsa, vaziyatga bog‘liq va beqaror bo‘lib qolishi mumkin. Shu bois texnologik ta’limda vatanparvarlikni bilish komponenti bilan boyitish, ya’ni tarixiy-ijtimoiy kontekstni, mehnatning jamiyat uchun qiymatini va texnologik yechimlarning ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilishga o‘rgatish zarur. Kognitiv qayta baholash, sabab-oqibatli fikrlash va muammoli vaziyatlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalari emotsional impulsivlikni kamaytiradi hamda qadriyatlarga sodiqlikni kuchaytiradi. Ayniqsa, texnik loyihalash jarayonida “sifat”, “xavfsizlik”, “barqarorlik”, “resurs tejamkorlik” kabi mezonlarning shaxsiy qadriyatlarga aylanishi vatanparvarlikning amaliy ko‘rinishiga xizmat qiladi. Bunda shaxsning o‘zini boshqarish va emotsiyalarni tartibga solish qobiliyati ham tarbiyaviy natijani belgilaydi, chunki jamoaviy loyiha va ishlab chiqarish amaliyoti stress, raqobat va mas’uliyat yukini keltirib chiqaradi [3].

To‘rtinchi omil refleksiya va shaxsiy ma’no hosil qilish mexanizmlaridir. Refleksiya talabaning o‘z tajribasini tahlil qilishi, xatolarni tan olishi, yutuqlar sabablarini anglashiga yordam beradi va shu orqali ichki standartlar vujudga keladi. Vatanparvarlik tarbiyasida refleksiya “men nima uchun bu ishni qilyapman”, “bu ish kimga foyda keltiradi”, “mening kasbiy tanlovim jamiyat bilan qanday bog‘liq” kabi savollar orqali shaxsning ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytiradi. Texnologik ta’lim uchun bu ayniqsa dolzarb, chunki texnologik yechimlar ko‘pincha inson xavfsizligi, ekologik muvozanat, iqtisodiy samaradorlik kabi omillarga ta’sir qiladi. Refleksiv yondashuv talabaning kasbiy o‘zligini shakllantirib, uni oddiy ijrochi emas, balki ijtimoiy oqibatlarni oldindan ko‘ra oladigan mutaxassis sifatida tarbiyalaydi [4].

Mazkur omillarni pedagogik jarayonga integratsiya qilishda psixologik shart-sharoitlar muhim. Birinchidan, tarbiyaviy ta’sirning ishonchliligi va adolatliligi ta’minlanmasa, talaba himoyalanish pozitsiyasini egallaydi va qadriyatlarni yuzaki qabul qiladi. Shuning uchun baholash, fikr-mulohaza berish va talab qo‘yish jarayonlari shaxs qadr-qimmatini saqlagan holda, aniq mezonlar asosida tashkil etilishi kerak. Ikkinchidan, maqsadga yo‘naltirilgan jamoaviy faoliyat vatanparvarlikni “hamkorlikdagi mas’uliyat” sifatida his etishga imkon beradi: masalan, mahalliy ehtiyojlarga mos texnik qurilma prototipini yaratish, ta’lim muassasasi infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan kichik innovatsion loyihalar, yoki ishlab chiqarish amaliyotida sifat va xavfsizlik standar-

tlariga rioya etish. Uchinchidan, talaba muvaffaqiyati va ijtimoiy foyda o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish zarur; bu bog‘liqlik qanchalik aniq va tajribaga tayangan bo‘lsa, motivatsion-qiymat yo‘nalganlik shunchalik barqaror bo‘ladi [5].

Shuningdek, vatanparvarlik tarbiyasida psixologik xavflarni ham hisobga olish lozim. Haddan tashqari normativ bosim yoki faqat emotsional ta’sirga tayanish kognitiv qarshilikni kuchaytiradi, natijada talaba tashqi moslashuvni namoyish etib, ichki qabul qilishdan uzoqlashadi. Yana bir xavf stereotiplash va formalizm bo‘lib, bunda vatanparvarlik kasbiy mahorat, halollik va mas’uliyat bilan bog‘lanmay qoladi. Texnologik ta’lim talabalari uchun aynan amaliy natija, mehnat mahsuli va sifat ko‘rsatkichlari orqali qadriyatlarni mustahkamlash samaraliroq; chunki bu yo‘nalishda “bilim-amaliyot-natija” zanjiri shaxsning o‘ziga ishonchini va daxldorlik hissini kuchaytiradi. Demak, psixologik omillarni boshqarish tarbiyaviy ishning mazmunini real faoliyat bilan bog‘lash, shaxsiy ma’no hosil qilishni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy identifikatsiyani konstruktiv yo‘naltirish orqali amalga oshiriladi [6].

Xulosa siftida shuni aytish kerakki texnologik ta’lim talabalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda psixologik omillar tizimli yondashuvni talab qiladi: motivatsion-qiymat yo‘nalganlik vatanparvarlikning ichkilashtirilishini belgilaydi, ijtimoiy identifikatsiya “biz” obrazini va kasbiy daxldorlikni kuchaytiradi, emotsional-bilish uyg‘unligi qadriyatlarning vaziyatdan mustaqil barqarorligini ta’minlaydi, refleksiya esa shaxsiy ma’no hosil qilish orqali mas’uliyatli kasbiy xulq-atvorni mustahkamlaydi. Tarbiyaviy jarayon texnologik faoliyatning real vazifalari bilan integratsiyalanganida, vatanparvarlik talabaning kasbiy o‘zligi va mehnat madaniyatida amaliy ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya: darslik. Toshkent, O‘zbekiston, 2019. 320 b.

2. Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs, Prentice-Hall, 1977. 247 p.

3. Gross J. J. Emotion Regulation: Conceptual and Empirical Foundations. New York, Guilford Press, 2014. 432 p.

4. Leontiev A. N. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost. Moskva, Politizdat, 1977. 304 s.

5. Zimnyaya I. A. Pedagogicheskaya psikhologiya: uchebnik. Moskva, Logos, 2004. 384 s.

6. Abulkhanova K. A. Strategiya zhizni. Moskva, Mysl, 1991. 299 s.

ESTETIK TA’SIRNI SAQLASHDA FUNKSIONAL-SEMANTIK YONDASHUVNING ROLI

Bekmetova Dilnur Qudrat qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu tezis estetik ta’sirni saqlash muammosini funksional-semantik yondashuv asosida yoritadi. Maqsad badiiy matnda estetik effektni yuzaga keltiruvchi birliklarning vazifa va ma’no qatlamlarini aniqlash hamda ularni qayta ifodalash jarayonida yo‘qotish omillarini tahlil qilishdir. Metod sifatida kontekstual-semantik, funksional va pragmatik tahlil qo‘llanadi. Ilmiy yangilik estetik ta’sirni funksional-semantik maydonlar orqali modellashtirishda ko‘rinadi.

Kalit so‘zlar: estetik ta’sir; funksional-semantik yondashuv; ekspressivlik; konnotatsiya; pragmatika; badiiy diskurs; ma’no qatlamlari

Аннотация. Ушбу тезис эстетик таъсирни сақлаш муаммосини функционал-семантик ёндашув асосида талқин қилади. Мақсад бадиий матнда эстетик эффектни юзага келтирувчи бирликларнинг вазифа ва маъно қатламларини аниқлаш ҳамда қайта ифодалаш жараёнида йўқотиш омилларини таҳлил қилишдир. Метод сифатида контекстуал-семантик, функционал ва прагматик таҳлил қўлланади. Илмий янгилик эстетик таъсирни функционал-семантик майдонлар орқали моделлаштиришда намоён бўлади.

Ключевые слова: эстетическое воздействие; функционально-семантический подход; экспрессивность; коннотация; прагматика; художественный дискурс; слои значения

Abstract. This thesis examines preserving aesthetic impact through a functional-semantic approach. The aim is to identify the functional and meaning layers of units that generate aesthetic effect in literary discourse and to analyze loss factors during re-expression. The study applies contextual-semantic, functional, and pragmatic analysis. Its novelty lies in modeling aesthetic impact via functional-semantic fields and proposing interpretive criteria for maintaining expressive value across reformulation.

Keywords : aesthetic impact; functional-semantic approach; expressiveness; connotation; pragmatics; literary discourse; semantic layering

Estetik ta’sir badiiy nutqning ichki energiyasini belgilovchi murakkab hodisa bo‘lib, u til birliklarining “nima aytilgani”dan ko‘ra “qanday aytilgani” bilan uzviy bog‘liq. Badiiy matnda estetik effekt ko‘pincha leksik tanlov, sintaktik qurilish, ritm, intonatsion tasavvur,

obrazlilik va konnotativ ranglar uyg‘unlashuvi natijasida paydo bo‘ladi. Shu sababli estetik ta’sirni saqlash masalasi nafaqat tarjima amaliyotida, balki bir til doirasida qayta bayon qilish, tahrir, moslashtirish, annotatsiyalash, izohlash kabi faoliyat turlarida ham dolzarbdir. Mazkur tezisning nazariy tayanchi sifatida funksional-semantik yondashuv tanlanishi bejiz emas: u til birliklarini alohida shakl sifatida emas, balki kommunikativ vazifa, ma’no qatlamlari va kontekstda yuzaga chiqadigan pragmatik qiymat bilan bir butun tizimda ko‘rishga imkon beradi [1]. Estetik ta’sir aynan shu tizim ichida barqaror yoki zaiflashgan ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin, demak, uni saqlash ham tizimli tahlilni talab etadi.

Funksional-semantik yondashuvning asosiy ustunligi shundaki, u ma’no va vazifani grammatik daraja bilan cheklamaydi; aksincha, leksik, morfologik, sintaktik va matn darajasidagi vositalarni bir funksional-semantik maydon doirasida integratsiyalab tahlil qiladi [2]. Badiiy matnda estetik ta’sir ko‘pincha biror “yakka” vosita bilan emas, balki vositalar majmuasi bilan yuzaga keladi: masalan, epitetning tanlanishi, so‘z tartibining siljishi, kutilmagan metafora, pauza “sezdiruvchi” qisqa gaplar yoki aksincha, cho‘zilgan davriy tuzilma birgalikda estetik kuchni hosil qiladi. An’anaviy struktural tahlilda bu hodisalar alohida-alohida ko‘rilib, ularning umumiy vazifaviy natijasi yetarlicha ochilmasligi mumkin. Funksional-semantik yondashuv esa “estetik vazifa”ni ustuvor kommunikativ maqsad sifatida ajratib, unga xizmat qiluvchi semantik qatlamlarni hamda ularning nutqiy ro‘yobini birlashtiradi. Natijada estetik ta’sirni saqlash uchun qaysi elementlar “tayanch”, qaysilari “qo‘shimcha” ekani aniqlanadi; bu esa qayta ifodalashda yo‘qotishni kamaytirishning nazariy shartidir.

Estetik ta’sirning “saqlanishi”ni aniqroq talqin qilish zarur: u matndagi barcha shakliy belgilarni so‘zma-so‘z ko‘chirish emas, balki o‘quvchida yuzaga keladigan badiiy-estetik rezonansning, ya’ni hissiy-intellektual ta’sirning muvofiq darajada tiklanishidir. Shuning uchun funksional-semantik tahlilda konnotatsiya, emotsional-ekspressiv bo‘yoq, baholovchanlik, obrazlilik, subyektiv modallik kabi komponentlar markaziy o‘rin tutadi [3]. Masalan, “sokin” va “jim” so‘zlari denotativ jihatdan yaqin bo‘lsa-da, badiiy kontekstda ularning assotsiativ fonlari farq qiladi; birida muloyimlik va tinchlik, boshqasida bosim yoki sirli taranglik kuchayishi mumkin. Estetik ta’sirni saqlashda aynan shu nozik farqlar hal qiluvchi bo‘lib, funksional-semantik yondashuv mazkur farqlarni kontekst bilan bog‘liq holda aniqlashga imkon beradi:

so‘zning o‘zi emas, so‘zning kontekstda bajarayotgan vazifasi, qo‘shni birliklar bilan semantik rezonansi tahlil qilinadi.

Badiiy diskursda estetik effektning muhim mexanizmlaridan biri defamiliyarizatsiya, ya’ni odatiy ko‘rinishdagi predmet yoki hodisani “yangicha ko‘rsatish” orqali idrokni uyg‘otishdir. Bu hodisa ko‘pincha metafora, metonimiya, oksimoron, paradoksal ta’rif, sintaktik inversiya yoki kutilmagan kollokatsiyalar bilan yuzaga chiqadi. Funksional-semantik yondashuv bunday vositalarni “obrazlilik maydoni” doirasida ko‘rib, ularning semantik yadrosi va periferiyasini ajratadi: yadroni tashkil qiluvchi ko‘chma ma’no va baholovchanlik yo‘qolsa, estetik ta’sir keskin pasayadi; periferik unsurlar o‘zgarsa ham, umumiy effektni saqlab qolish ehtimoli yuqori. Shu nuqtada yondashuv amaliy mezon beradi: qayta ifodalashda avvalo funksional-semantik yadroni tiklash, so‘ng sintaktik yoki leksik moslashuvlar orqali estetik muvozanatni saqlash zarur. Bu g‘oya estetik funksiyaning til tizimidagi o‘rni va uning kommunikativ vazifalari haqidagi qarashlar bilan uyg‘unlashadi [4].

Estetik ta’sir ko‘pincha subyektiv modallik va muallif pozitsiyasining nozik ko‘rsatkichlari bilan ham belgilanadi. Masalan, ehtimollik, gumon, kinoya, e’tiroz yoki ichki monologga xos “ikki ovozlilik”ni ifodalovchi birliklar badiiy matnning ohangini belgilaydi. Funksional-semantik yondashuv modallikni faqat modal so‘zlar doirasida emas, balki zamon-aspekt shakllari, shart mayli, so‘roq-inkor konstruktsiyalari, yuklama va partikullar, pauza va sintaktik bo‘linishlar orqali yuzaga chiqadigan yaxlit maydon sifatida tahlil qiladi [2]. Qayta ifodalashda aynan modallikning nozik siljishi ko‘pincha estetik ta’sirni “buzadi”: masalan, ishonch ohangi kuchayib ketishi matnning lirizmini kamaytiradi yoki kinoyani bevosita tanbehga aylantiradi. Shuning uchun estetik ta’sirni saqlashda modallik maydonining funksional-semantik xaritasi tuzilishi, ya’ni qaysi vositalar qanday modallikni hosil qilayotgani oldindan aniqlanishi kerak.

Funksional-semantik yondashuvning yana bir muhim tomoni pragmatik o‘lchamni markazga chiqarishidir. Estetik ta’sir o‘quvchining tajribasi, madaniy kodlari, intertekstual bilimlari bilan ham bog‘liq. Biror obraz yoki iboraning go‘zalligi ba’zan uning milliy-madaniy ramziyligida, ba’zan esa umuminsonga xos arxetiplarga ulanadigan semantik chuqurligida bo‘ladi. Shu bois estetik ta’sirni saqlash strategiyasi “ma’no”ni tor denotatsiya sifatida emas, balki madaniy konnotatsiya va o‘quvchiga qaratilgan ta’sir dasturi sifatida ko‘radi [5]. Funksional-semantik tahlil konnotativ qatlamni ajratib ko‘rsatish orqali qayta ifodalash jarayonida madaniy moslashtirish zaruratini asoslaydi:

ba’zan ramzni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki shu ramz bajarayotgan estetik-pragmatik vazifaga teng keladigan boshqa vositani tanlash estetik ta’sirni yaxshiroq saqlaydi. Bunda ekvivalentlik “shakl”da emas, “vazifa va ta’sir”da qidiriladi.

Tahliliy nuqtai nazardan, estetik ta’sirni saqlashning funksional-semantik modeli uch bosqichli jarayon sifatida tasavvur qilinadi. Birinchi bosqich identifikatsiya bo‘lib, unda matndagi estetik dominantlar aniqlanadi: obrazli birliklar tugunlari, ritmik-sintaktik dinamika, emotsional rangning ko‘tarilishi yoki pasayishi, baholovchanlikning yashirin mexanizmlari. Ikkinchi bosqich interpretatsiya bo‘lib, unda dominantlarning funksional-semantik yadrosi ajratiladi: qaysi konnotatsiya, qaysi modallik, qaysi semantik oppozitsiya estetik effektni “ushlab turibdi”. Uchinchi bosqich rekonstruksiya bo‘lib, unda qayta ifodalashda aynan shu yadroni saqlashga xizmat qiladigan vositalar tanlanadi; sintaktik yoki leksik o‘zgarishlar mumkin, biroq estetik vazifa buzilmasligi shart. Mazkur model tahlilni tavsifiylikdan chiqarib, boshqariladigan mezonlarga tayangan holda xulosalash imkonini beradi va shu tariqa funksional-semantik yondashuvning amaliy qiymatini oshiradi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz kerakki funksional-semantik yondashuv estetik ta’sirni saqlash muammosini tizimli hal etishga imkon beradigan nazariy-metodik asosdir: u badiiy matndagi estetik effektni alohida vositalar yig‘indisi sifatida emas, balki vazifa, konnotatsiya, modallik va pragmatik yo‘nalish birligidan tashkil topgan maydon sifatida modellashtiradi. Tezisda estetik dominantlarni aniqlash, ularning funksional-semantik yadrosini ajratish va qayta ifodalashda shu yadroni rekonstruksiya qilish tamoyili asosiy natija sifatida umumlashtirildi. Natijada estetik ta’sirni saqlashda ekvivalentlikning mezoni shakliy moslik emas, balki o‘quvchida yuzaga keladigan badiiy-estetik rezonansning barqarorligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvistikasi. Toshkent, Fan, 2008. 240 b.

2. Бондарко А. В. Теория функциональной грамматики. Введение. Аспектуальность. Временная локализованность. Таксис. Санкт-Петербург, Наука, 2001. 352 с.

3. Шаховский В. И. Лингвистическая теория эмоций. Москва, Гнозис, 2008. 416 с.

4. Jakobson R. Language in Literature. Cambridge, Harvard University Press, 1987. 498 p.

5. Nida E. A. Toward a Science of Translating. Leiden, E. J. Brill, 1964. 331 p.
6. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. 304 б.

YOSH AVLOTNI TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Alijonov Muhammadali Diyorjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakulteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola bugungi davrida yosh avlodni milliy qadriyatlarimizga yot va zararli g‘oyalar ta’siridan asrash, yosh avlotni tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o‘rni, yosh avlod tarbiyasida avvalo nimalarga e’tibor qaratish lozimligi haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yosh avlod, milliy, qadriyatlar, ma’naviyat, marifat, ta’lim, tarbiya, odob, vatanparvarlik, madaniy munosabatlar, ozodlik, adolatparvarlik, mardlik, do‘stlik, tarbiyalilik, axloqiylik,

KIRISH

Yurtimizda yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Yigit-qizlarimiz barkamol inson bo‘lib ulg‘ayishi uchun ma’naviy tarbiyaga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada qabul qilinayotgan turli qaror va farmonlar, amalga oshirilayotgan tadbirlar, amaliy ishlar natijasida farzandlarimiz barcha sohalarda muvaffaqiyatga erishishmoqda. Farzand tarbiyasida asosiy bo‘g‘in bu albatta ota-ona hisoblanadi. Farzand insonga Haq taolo tomonidan berilgan eng buyuk ne’matdir. Demak, bu saodatga erishgan har bir ota-ona ne’matni qadrlamog‘i lozim. O‘g‘il-qiz oldidagi ota-onalik burchini mukammal ado etib, ularga chiroyli ta’lim-tarbiya berish, Haq taoloning roziligini topadigan, millati, Vataniga munosib farzand bo‘ladigan, tengdoshlari muhabbatini qozonadigan barkamol inson bo‘lib yetishishi uchun jon kuydirish zarur. Farzandning tarbiyali bo‘lishi esa uning odob-axloqli bo‘lishi bilan amalga oshadi. Bu borada Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam bunday marhamat qilganlar: “Ota bolaga go‘zal odobdan yaxshiroq narsani bera olmaydi” (Termiziy rivoyati). Ilk tarbiya, samimiy munosabat, go‘zal muomala oilada ota-ona namunasi orqali shakllanadi. Qush uyasida ko‘rganini qiladi. Ota-ona farzandga qanday ibrat ko‘rsatsa, farzand ayni shu yo‘ldan ketadi. Abu Nasr Forobiyning: “Inson o‘z baxtiga erishishda go‘zallikni ko‘rishi va his qilishining o‘zi yetarli emas, buning uchun go‘zallikni yarata olishi muhimdir”, degan fikrlarida chuqur ramziy ma’no bor.

Mutafakkirning bu so‘zlarida ota-onalar o‘zlari namuna bo‘lgani holda oilada, o‘zgalar bilan o‘zaro munosabatlarda, yurish-turishda, kiyinishda, farzand tarbiyasida, ular bilan bo‘ladigan muomalada go‘zal namuna yarata olishi zarur, degan g‘oya o‘z aksini topgan. Inson hayotining har bir bosqichi muhim hisoblanadi. Yoshlik davri eng nozik, hayot yo‘llarining chorrahasidir. Bu chorrahada turgan yoshlar ilmga yo‘naltirilsa yoki biron-bir kasbni boshini tutishi uchun ota-ona jamiyat, mahalla faollari tomonidan yo‘lga solib yuborilsa, unday yoshlar sekin-astalik bilan hayotda o‘z o‘rnini topib ketadi.

Yosh avlod tarbiyasida avvalo nimalarga e’tibor qaratish lozim? Mutaxassislar tavsiyasiga ko‘ra, bola maktab yoshiga yetgunicha iltimoslari bajarilib, erkaliklardan qaytarilmaydi. Shundan so‘ng unga asta-sekin tushuntirish, kattalarning o‘zi ibrat bo‘lishi orqali tarbiya beriladi. Bola aqlan rivojlanishi uchun uning yoshiga mos turli kitoblar o‘qib beriladi, rivoyat va ibratli hikoyatlar, aqlini charxlaydigan o‘yinlar, mashg‘ulotlarga jalb qilinadi. Ruhiy tarbiyasini yaxshilash uchun yaxshilik va yomonlik, axloq va odob kabi boqiy mavzularda sodda, bola ruhiyatiga mos suhbat va tushuntirish ishlari olib boriladi.

Bolaga go‘dakligidan xalq ertaklari va dostonlaridan, topishmoqlar, maqol va matallardan o‘qib berish, so‘zlash yoki uning o‘ziga o‘qitish ham kerak. Bu bilan bolaning zehni o‘sadi, fikr doirasi kengayadi, dunyoqarashi boyiydi. Eng asosiysi, bola eshitganlarini o‘ziga singdirib, yaxshi odamlarga ergashishga intiladi, ularning xulqu odobidan namuna oladi.

Jismoniy tarbiya berish uchun esa biror foydali mehnatga jalb qilish, milliy o‘yinlarimizdan kurash, suzish, merganlik kabi mashg‘u-lotlarni o‘rgatish lozim. Bu borada Rasulullоh sollallohu alayhi vassallam: “Farzandlaringizga suzish va kamon otishni, qizlarga ip yigirishni o‘rgating”, deganlar (Bayhaqiy rivoyati)[88]. So‘ng qaysi kasb-hunarga moyilligiga qarab, uni shunga yo‘llash lozim. Albatta, yosh avlod tarbiyasining muammoli jihatlari ham yo‘q emas. Taassufki, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi loqaydligi tufayli oilalarda turli muammolar, ziddiyatlar yuzaga kelishi, ularning bilib-bilmasdan turli nomaqbul yo‘llarga kirib qolish holatlari uchrab turibdi. Natijada ular qilgan xato tufayli ota-ona, mahalla-ko‘y, qavmu qarindoshlarning boshi egilib qolmoqda. Farzand kamolotida qanday shaxslar qurshovida bo‘lishi ham juda muhim hisoblanadi. Agar atrofidagi do‘stlari odobli bo‘lsa, u ham albatta, odobli bo‘lishga harakat qiladi. Lekin atrofidagilar tarbiyasiz bo‘lsa, bu farzand tarbiyasiga ham salbiy ta’sir o‘tkazmasdan

qolmaydi. Afsus bilan aytish kerakki, ba’zi bir oilalarda farzand tarbiyasiga e’tibor anchayin susaygan. Ota-ona doimo bolaning ko‘ngliga qaraydi, xarxashasini ko‘taradi, ammo maktabda yurish-turishidan, o‘rtoqlari kim ekanidan bexabar bo‘ladi. Hatto internet saytlariga kirib, nimalarni ko‘rayotganlarini ham bilmaydi. Bunday bola kitob o‘qimaydi, sekin-asta ko‘rgan narsalari ta’sirida, milliylikni yo‘qotib, “ommaviy madaniyat” unsurlarini o‘zlashtira boshlaydi. Shu bois ota-ona jilla qursa nonushta payti dasturxon atrofida farzandga ozgina o‘git berib turishi, milliy qadriyatlar, odob-axloqqa doir hadisi shariflar, turli hikoya, hayotiy voqealarni aytib berishi, kelajakdagi maqsadlari bilan qiziqishi, lozim. Ota-onalik burchi va mas’uliyati mana shunday paytlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. farzand ota-onaning baxti bo‘lsa, tarbiyasi uning ulkan vazifasidir. Zero farzandning buguni, ertasi va umuman kelajagi shunga bevosita bog‘liq. Yoshlarimizning komil inson, go‘zal xulqli, dunyoqarashi sog‘lom bo‘lib voyaga yetishida ota-ona, mahalla faollari va hadisi shariflarning o‘rni beqiyosdir.

Bugungi davrida yosh avlodni milliy qadriyatlarimizga yot va zararli g‘oyalar ta’siridan asrash, xalqimizning ezgu urf-odatlarining munosib davomchilari etib kamolga yetkazish dolzarb vazifalardan. Har qanday millatning taraqqiyoti jamiyatdagi yoshlar qatlamining milliy qadriyatlarga munosabati, uning yoshlar ongiga qanday ta’sir etayotgani, ertamiz egalarini milliy istiqlol g‘oyasi ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir millat o‘ziga xos an’ana va qadriyatlari bilan ajralib turadi. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati va madaniyati bilan chambarchas bog‘liq holda vujudga kelgan. Ko’p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo’shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o’rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, qadim-qadimdan o‘zbek millati jahon sivilizatsiyasida o‘zining munosib o‘rnini egallashida umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat bilan munosabatda bo‘lgan. Har bir xalqning tarixiy, madaniy va ma’naviy merosini chuqur o‘rgangan. Shu bilan birga boshqa millatlar, davlatlar, dinlar va sivilizatsiyalarning o‘ziga xos qadriyatlari va ijobiy tajribalaridan foydalanish natijasida jahon taraqqiyotida munosib o‘rin egallab kelgan. Jahon ma’naviy madaniyatining xilmaxil jihatlari uyg‘onish davrida juda rivojlangan bo‘lib bu davrda yashab ijod qilgan sharq mutafakkirlari Abu NasrFarobiy, al-Xorazmiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Yassaviy kabi allomalar, Alisher Navoiy, Xusayn Bayqaro,

Zahiriddin Muxammad Bobur kabi donishmand mutafakkirlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarning chuqur ildizlari sifatida xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlashda va rivojlantirishda muhim o‘rintutgan va tutib kelmoqda. Shunday ekan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar qadimiy va tarixiy bo‘lib, uning mazmunida jinsidan qathiy nazar, o‘zga millat xalqlariga hurmat bilan qarash dunyoning qaysi burchagida bo‘lmasin, insoniyatning tinchligi va totuvligini tahminlash, har bir millat xalqlarining o‘z huquqlarini o‘zi belgilash, o‘ziga mustaqil bo‘lib, o‘ziga xos davlat tuzib yashash, o‘z tili, dini, urfodatlari o‘zitga xos milliy qadriyatlari bilan bo‘lish natijasida inson kamolotiga erishish, shaxsni ahloqiy shakllantirish kabi yo‘nalishlar muhim o‘rin egallagan. Darhaqiqat, bugungi kunda faqatgina chinakam ma’rifatli odam inson qadrini, milliy qadriyatlarini, bir so‘z bilan aytganda, o‘zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning inson ham-jamiyatida o‘ziga munosib obro‘li o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. Shunday ekan, ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsni har tomonlama ma’naviy-axloqiy shakllantirish, uning qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish hamda ijtimoiy turmush uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish muhim ahamiyatga ega. Demak, yosh xulq-atvoriga milliy qadriyatlarni singdirish nafaqat ijtimoiy falsafiy muammodir. Garchi qadriyatlar nazariyasi falsafiy muammo sifatida 1960-yillardan boshlab sobiq ittifoq tadqiq etila boshlangan bo‘lsa-da, bu qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyatiga faqat mustaqillikka erishilgandan keyin ehtibor berila boshlandi. Falsafiy talqinga ko‘ra, qadriyatlar inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan erkinlik, tinchlik, ijtimoiy tenglik, haqiqat, ma’rifat, go‘zallik, hayotda va tabiatda bo‘ladigan yaxshiligu-ezgulik kabi jamiki hislatu-fazilatlar yig‘indisidir. Ilmiy-pedagogik nuqtai-nazardan esa qadriyatlar insonning ma’naviy ehtiyojlari asosida paydo bo‘lgan. Amaliy faoliyatida davr sinovidan muvaffaqiyatli o‘tgan, o‘z shakli va mazmunida u yoki bu xalqning ma’naviy-ahloqiy olamini ifoda etgan, asrlar davomida xalqning ma’naviy madaniyatini shakllantirish manbai sifatida qadrlanib kelingan jamiki ma’naviy ruhiy jihatlar majmui sifatida izohlanadi. Shunga ko‘ra, umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar manfaatiga mos keladigan ma’naviy xazinadan iborat bo‘lib, milliy qadriyatlar bilan yagona tarbiyaviy asosga egadir. Xullas, g‘oyaviy dunyoqarash, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash zudlik bilan hal qilinadigan ish emas, g‘oyaviy dunyoqarashni shakllantirish, yoshlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish uchun tarbiyaviy ishning mavjud barcha usullari, shakllari, vositalaridan o‘z o‘rnida samarali

foydalanish umumiy maqsadlarmizni amalga oshirishda muhim o‘rin egallaydi. Yosh avlotda ma’naviy-axloqiy tarbiyasini milliy qadriyatlar asosida shakllantirish, vatanparvarlik, jamoatchilik, erk, ozodlik, adolat-parvarlik, mardlik, do‘stlik, tarbiyalilik, axloqiylik, or-nomus, halollik, mehnatsevarlik, mehroqibat kabi ko‘nikmalarning ular tarbiyasida vujudga kelishi bilan bogliqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ismoilova Z.Q. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari (Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar). Ped. fan. dokt. …dis. avtoref. – Toshkent:o‘zPFITI, 2006. – 46 b.

2. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007. – 240 b. https://doi.org/10.31838/jcr.07.05.80

3. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007. – B. 240.

4 Yaxshilikov J., Muxammadiyev N. Milliy g‘oya:o‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. – Toshkent: Cho‘lpon, 2018. 320-bet.

5. Mamarasulov B.Sh. Milliy g‘oyaning substansional va institutsional xususiyatlari – Samarqand. – 2018. 12 – bet.

6.Usmonxon Alimov. “Oilada farzand tarbiyasi”. “Movarounnahr nashriyoti” T:. 2019 y. B-54.

7. G‘aybullayev O. Estetik madaniyat. –Toshkent: Navro‘z, 2020. 146-bet.

8. Sherzodbek, Sharobiddinov. "Ma’naviyat tushunchasiga vorislik nuqtai nazaridan yangicha yondashishning ahamiyati." International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2023): 543-545.

9. Ismoilova Z.Q. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari (Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar). – Ped. fan. dok. …dis. avtoref. – Toshkent:o‘zPFITI, 2006. – B. 46.

10. Musurmonova O. Yuqori sinfo‘quvchilari ma’naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ...dis. – Toshkent, 1993. – B. 364.

SHAXSIY NOTIQLIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Bobojanov Yusufbay Allabergan o‘g‘li
Mamun universitet mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsning notiqlik qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy psixologik omillar va to‘siqlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda notiqlikning ijtimoiy-psixologik tabiati, o‘ziga ishonchi va notiqlikda hissiy aql va muloqot qobiliyatlarining roli o‘rganiladi. Shuningdek, auditoriya bilan samarali aloqa o‘rnatish bilan birga psixologik barqarorlikni ta'minlash usullari bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: omma oldida nutq so‘zlash, psixologik omillar, omma oldida nutq so‘zlash, muloqot qobiliyatlari, hissiy aql, auditoriya, psixologik to‘siqlar, og'zaki va og'zaki bo‘lmagan muloqot.

Аннотация. В данной статье анализируются основные психологические факторы и барьеры, формирующие ораторские способности личности. В ходе исследования освещаются социально-психологическая природа ораторского искусства, уровень самооценки, роль эмоционального интеллекта и коммуникативных компетенций в процессе публичных выступлений. Также даны рекомендации по методике обеспечения психологической устойчивости при установлении эффективного контакта с аудиторией.

Ключевые слова: ораторское мастерство, психологические факторы, публичное выступление, коммуникативные способности, эмоциональный интеллект, аудитория, психологические барьеры, вербальное и невербальное общение.

Abstract. This article analyzes the main psychological factors and barriers that shape an individual's oratory skills. The study highlights the socio-psychological nature of public speaking, the level of self-esteem, the role of emotional intelligence, and communicative competencies in the process of public performance. Furthermore, recommendations are provided on methods for ensuring psychological stability in establishing effective contact with an audience.

Keywords: oratory skills, psychological factors, public speaking, communicative ability, emotional intelligence, audience, psychological barriers, verbal and non-verbal communication.

Bugungi globallashgan va axborotga asoslangan jamiyatda shaxsning kommunikativ salohiyati uning ijtimoiy va professional muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy mezonlardan biriga aylandi. Xususan, mutaxassisning o‘z g'oyalarini auditoriyaga aniq, mantiqiy va ta'sirchan tarzda yetkaza olishi, ya'ni notiqlik qobiliyati nafaqat filologik bilimlar, balki chuqur psixologik omillar bilan ham uzviy bog'liqdir. Hozirgi davrda menejment, ta'lim va ijtimoiy ish sohasidagi xodimlar uchun omma oldida nutq so‘zlash paytida psixologik to‘siqlarni yengib

o‘tish va auditoriya bilan hissiy aloqa o‘rnatish har qachongidan ham muhimroqdir.

Notiqlikning psixologik jihatlari qadim zamonlardan beri o‘rganilgan bo‘lsa-da, zamonaviy psixologiya bu masalaga kognitiv jarayonlar, shaxsiy xususiyatlar va ijtimoiy moslashuv nuqtai nazaridan yondashadi[1]. Xususan, muloqot va o‘zini o‘zi qadrlash psixologiyasi, hissiy barqarorlik va notiqlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda kommunikativ kompetentsiyalar bo‘yicha ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlar o‘tkazildi. Biroq, zamonaviy davrda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va jonli muloqotga bo‘lgan ehtiyojning o‘zgarishi bilan, yangi yondashuvlar yordamida notiqlikning psixologik determinantlarini o‘rganish zarurati tug'ildi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi shaxsning notiqlik mahoratining rivojlanishiga bevosita ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash va ularning o‘zaro munosabatlarini ilmiy asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga asoslanib, quyidagi maqsadlar belgilandi:

- Notiqlik faoliyatining psixologik tuzilishini tahlil qilish;
- Nutq faoliyatiga temperamentli shaxsiy xususiyatlar va ekstroversiya darajasining ta'sirini o‘rganish ;
- Omma oldida nutq so‘zlashdan oldin qo‘rquv va xavotirning psixologik sabablarini ochib berish (glossofobiya);
- Ma'ruzachining hissiy zakovati va auditoriyani boshqarish qobiliyati o‘rtasidagi bog'liqlikni namoyish etish.

Notiqlik mahoratining rivojlanishi psixologiyada uzoq vaqtdan beri o‘rganib kelinayotgan murakkab hodisadir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, notiqlik mahorati nafaqat til qobiliyatlari, balki shaxsning psixofiziologik va ijtimoiy-psixologik tuzilishi bilan ham belgilanadi.

G'arb psixologiyasida D. Karnegi va S. Lukas kabi olimlar omma oldida nutq so‘zlashning amaliy va psixotexnik jihatlariga urg'u berishadi, tinglovchilar bilan vizual va hissiy aloqa o‘rnatishda o‘ziga ishonchni ustuvor deb bilishadi. F.Zimbardoning tadqiqotlari ijtimoiy xavotirni ham batafsil yoritib beradi[2].

Rus psixologlari A.A. Leontiev va I.A. Zimniaya nutq faoliyatini psixolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilib, notiqning ichki nutqi va tashqi kommunikativ harakatlari o‘rtasidagi bog'liqlikni asoslab berishdi. V.P. Sheipel noverbal muloqot elementlarining notiqning xarizmasini rivojlantirishga psixologik ta'sirini o‘rgangan[3].

O‘zbek olimlari M. Davletshin, E. Go‘ziyev va V. Karimova muloqot psixologiyasi va nutq madaniyatining rivojlanishini o‘rgandilar. Ularning ishlarida omma oldida nutq so‘zlash individual shaxsiy xususiyatlar (temperament va xarakter), shuningdek, milliy muloqot odob-axloqi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi[4].

1. O‘z - o‘zini kuzatish effekti

Snayderning nazariyasiga ko‘ra, o‘zini yuqori darajada nazorat qiladigan odamlar tinglovchilarning ijtimoiy signallariga juda sezgir. Omma oldida nutq so‘zlashda san'at Bu mulk :

- Vaziyatga moslashuvchanlik: Ma'ruzachi o‘z nutqini real vaqt rejimida tinglovchilarning yuz ifodalari va reaksiyalariga qarab o‘zgartirish qobiliyati.
- Taassurot Menejment (Taassurotni boshqarish): Notiqning o‘zi haqida ijobiy ijtimoiy imidj yaratish qobiliyati.

2. Kognitiv moslashuvchanlik va ijodiy fikrlash

Omma oldida nutq so‘zlash shunchaki tayyorlangan matnni o‘qish emas , balki kutilmagan savollarga javob berish va mantiqiy qarama-qarshiliklarni hal qilish qobiliyatidir. Bu jarayonda divergent fikrlash (bitta muammoga bir nechta yechim topish) asosiy psixologik omil hisoblanadi.

Kutilmagan "pauzalar" yoki nutqdagi xatolarni hazil yoki g'ayrioddiy burilishlar bilan yashirish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimova V.M. (2018). Ijtimoiy psixologiya. - Toshkent: "Fan va texnologiya", 280 b. (Muloqot va shaxsiy munosabatlar psixologiyasi bo‘yicha asosiy manba).
2. Goziev E.G. (2010). Muloqot psixologiyasi. - Toshkent: "Universitet", 156 b. (Nutq faoliyatining psixologik asoslari).
3. Goleman , D. (2020). Hissiy intellekt: Nima uchun u IQdan muhimroq bo‘lishi mumkin . – Nyu-York: Bantam Kitoblar . (Muallif: hissiy ulanishlar auditoriya bilan ma'ruzachi).
4. Lukas, S. E. (2019). Omma oldida notiqlik: Omma oldida notiqlik san'ati. 13-nashr. McGraw - Hill. Ta'lim . (Xalqaro miqyosda notiqlik bo‘yicha eng mashhur darslik).
5. Cialdini , R. B. (2021). Ta'sir, yangi va kengaytirilgan: Ishontirish psixologiyasi. – Harper. Biznes . (Mexanizmlar psixologik ta'sir yoqilgan auditoriya).
6. Zimniaya I.A. (2001). Nutq faoliyatining lingvopsixologiyasi . – Moskva: MPSI. (Nutq faoliyatining psixolingvistik tahlili).

INGLIZ TILI O‘QITISH METODIKASINING ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Xalillayeva Sabohat Xolbayevna

Xorazm viloyati Gurlan tumani 24-sonli Umumiy o‘rta talim maktabi ingilz tili o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘qitishning (TEFL/TESL) bugungi kundagi eng dolzarb metodik tamoyillari va ularning amaliy ahamiyati keng qamrovli tahlil qilingan.

Tadqiqotda an’anaviy grammatik-tarjima uslubidan zamonaviy kommunikativ yondashuv (CLT), vazifaga yo‘naltirilgan ta’lim (TBL) hamda mazmun va til integratsiyalashgan o‘qitish (CLIL) metodlariga o‘tish jarayonlari yoritiladi. Shuningdek, maqolada o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalarini tatbiq etish, o‘quvchi motivatsiyasini shakllantirishda "affektiv filtr" tushunchasi va darslarda psixologik xavfsiz muhit yaratishning o‘rni ilmiy asoslab berilgan. Maqolaning yakuniy qismida o‘qituvchining zamonaviy ta’limdagi fasilitatorlik roli va shakllantiruvchi baholash tizimining ta’lim samaradorligini oshirishdagi strategik ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Ingliz tili metodikasi, kommunikativ yondashuv (CLT), vazifaga yo‘naltirilgan ta’lim (TBL), CLIL metodikasi, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt (AI), o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim, affektiv filtr, fasilitator, shakllantiruvchi baholash, ta’lim samaradorligi, interaktiv metodlar, zamonaviy pedagogika, ikkinchi tilni o‘zlashtirish.

Ingliz tilini o'qitish metodikasi bugungi kunda shunchaki til o'rgatish emas, balki talabaning dunyoqarashini shakllantirish, uni global axborot maydoniga integratsiya qilish va tanqidiy fikrlash darajasini yuksaltirishga qaratilgan murakkab pedagogik jarayondir. Ushbu jarayonni chuqur tahlil qilish uchun biz til o'qitishning tarixiy ildizlaridan boshlab, eng zamonaviy raqamli texnologiyalar va kognitiv psixologiya yutuqlarigacha bo'lgan keng ko'lamli sohalarni qamrab olishimiz lozim.

O'tgan asrning o'rtalariga qadar hukmronlik qilgan grammatik-tarjima metodi tilni o'lik struktura sifatida ko'rib, asosiy e'tiborni qoidalarni yodlash va matnlarni so'zma-so'z tarjima qilishga qaratgan edi. Biroq, globallashuv va xalqaro muloqotga bo'lgan ehtiyoj ortishi bilan ushbu yondashuv o'zining samarasizligini ko'rsatdi, chunki u o'quvchiga tilni real hayotda qo'llash ko'nikmasini bermas edi. Buning natijasida paydo bo'lgan Kommunikativ til o'qitish (CLT) yondashuvi inqilobiy o'zgarish yasadi. Bu yondashuvning markaziy g'oyasi shundaki, tilni o'rganishning eng yaxshi yo'li — unda muloqot qilishdir. Bu yerda muloqot nafaqat maqsad, balki o'rganish vositasi hamdir. Kommunikativ metodika doirasida o'quvchilar real hayotiy ssenariylarga yaqinlashtirilgan vaziyatlarda ishtirok etadilar, bu esa ularda tilning ijtimoiy kontekstini his qilish va "til to'sig'i"ni (language barrier) yengib o'tish imkonini beradi.

Shu o'rinda Stiven Krashenning "Ikkinchi tilni o'zlashtirish" nazariyasini eslatib o'tish joiz. Uning fikricha, tilni o'rganish (learning) va tilni o'zlashtirish (acquisition) o'rtasida katta farq bor. O'rganish — bu ongli ravishda qoidalarni yodlash bo'lsa, o'zlashtirish — bu tabiiy muhitda, ma'no anglash orqali sodir bo'ladigan jarayondir. Shuning uchun zamonaviy metodika o'qituvchidan darsda "Comprehensible Input" (tushunarli kirish ma'lumoti) yaratishni talab qiladi. Ya'ni, taqdim etilayotgan material o'quvchining hozirgi bilim darajasidan biroz yuqoriroq (i+1 formula bo'yicha) bo'lishi kerak, shunda o'quvchi intellektual kuchlanish orqali yangi bilimlarni tabiiy qabul qiladi. Bu jarayonda Lev Vigotskiyning "Yaqin rivojlanish zonasi" (ZPD) konsepsiyasi ham muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi "scaffolding" (ko'prik qurish) strategiyasidan foydalanib, o'quvchiga u hali mustaqil bajara olmaydigan, lekin yordam bilan bajara oladigan vazifalarni berishi, asta-sekin bu yordamni kamaytirib borishi kerak.

Metodikaning yana bir ustuni — bu vazifaga yo'naltirilgan o'qitish (Task-Based Learning - TBL) hisoblanadi. Bu uslubda an'anaviy "Pre-teach" (oldindan o'rgatish) tamoyilidan voz kechiladi. O'quvchilarga avval vazifa beriladi, ular o'zlaridagi bor bilimlar bilan uni bajarishga urinadilar, so'ngra o'qituvchi ularga yetishmagan til vositalarini tushuntiradi. Bu usul o'quvchida "menga bu bilim nega kerak?" degan savolga amaliy javob beradi. Masalan, biznes loyihani taqdim etish yoki sayohat marshrutini tuzish kabi vazifalar orqali o'quvchi tilni hayotiy ehtiyoj sifatida ko'radi. Shu bilan birga, Integratsiyalashgan til va mazmun (CLIL) metodikasi tilni boshqa fanlar bilan bog'laydi. Bu usul ayniqsa oliy ta'limda juda samarali bo'lib, talaba ingliz tilida matematika, fizika yoki iqtisodiyotni o'rganar ekan, uning miyasi tilni shunchaki fan sifatida emas, balki bilim olish instrumenti sifatida idrok qila boshlaydi.

To'rt asosiy ko'nikmani — eshitish (Listening), gapirish (Speaking), o‘qish (Reading) va yozishni (Writing) rivojlantirishda ham zamonaviy yondashuvlar chuqur integratsiyani talab qiladi. Listening ko'nikmasini shakllantirishda faqat darslik audiolari bilan cheklanmasdan, haqiqiy (authentic) materiallar: TED-talks, BBC yangiliklari, turli aksentlardagi podkastlardan foydalanish lozim. Bu o'quvchini real dunyodagi nutq xilma-xilligiga tayyorlaydi. Reading bo'limida esa "Extensive Reading" (keng qamrovli o'qish) tushunchasi

muhim bo'lib, o'quvchiga o'z qiziqishiga mos bo'lgan uzun matnlarni lug'atsiz, umumiy ma'noni tushunish uchun o'qish tavsiya etiladi. Bu so'z boyligini passiv o'zlashtirishning eng samarali yo'lidir. Writing ko'nikmasi esa bugungi kunda "Process Writing" (jarayonli yozish) modeliga asoslanadi. Ya'ni, o'quvchi matnni bir urinishda yozib topshirmaydi, balki g'oya yig'ish (brainstorming), qoralama yozish (drafting), tahrirlash (editing) va qayta ko'rib chiqish (reviewing) bosqichlaridan o'tadi. Bu esa yozma nutqning mantiqiyligi va aniqligini ta'minlaydi.

Texnologik taraqqiyot, xususan, Sun'iy Intellekt (AI) va raqamli ta'lim resurslari metodikani yangi bosqichga olib chiqdi. Endilikda o'qituvchi darsda yagona bilim manbai emas. Moodle, Canvas kabi ta'limni boshqarish tizimlari (LMS) dars jarayonini sinfdan tashqariga ko'chirish imkonini beradi. "Flipped Classroom" (teskarisiga o'girilgan sinf) modeli darsning samaradorligini keskin oshiradi: nazariya uyda videoroliklar orqali o'rganiladi, sinfda esa faqat amaliy muloqot, loyihalar va debatlar o'tkaziladi. Bu o'qituvchining darsdagi nutq vaqtini (Teacher Talking Time) kamaytirib, o'quvchining nutq vaqtini (Student Talking Time) maksimal darajaga yetkazadi. Sun'iy intellekt vositalari esa har bir talaba uchun individual repetitor vazifasini o'tab, ularning grammatik xatolarini real vaqt rejimida tahlil qilishi va shaxsiy tavsiyalar berishi mumkin.

Biroq, metodikaning eng muhim va ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan qismi — bu psixologiya va motivatsiyadir. "Affective Filter" (hissiy filtr) nazariyasiga ko'ra, agar talaba stressda bo'lsa, xato qilishdan qo'rqsa yoki o'ziga ishonmasa, eng mukammal metodika ham natija bermaydi. Shuning uchun zamonaviy o'qituvchi psixolog bo'lishi, darsda "safe environment" (xavfsiz muhit) yaratishi shart. Xatolarni tuzatishda ham "Immediate correction" (darhol tuzatish) o'rniga "Delayed correction" (kechiktirilgan tuzatish) usulidan foydalanish tavsiya etiladi, ya'ni o'quvchining nutqi bo'linmaydi, u o'z fikrini tugatgach, umumiy xatolar doskada tahlil qilinadi. Bu o'quvchining nutq ravonligini (fluency) saqlab qoladi va uning muloqotga bo'lgan ishtiyoqini so'ndirmaydi.

Baholash tizimi ham tubdan yangilanmoqda. Faqat yakuniy imtihonlarga asoslangan "Summative assessment"dan ko'ra, dars davomida o'quvchining o'sishini kuzatib boruvchi "Formative assessment" (shakllantiruvchi baholash) ko'proq samara bermoqda. Bu

yerda o'qituvchi o'quvchiga faqat baho qo'ymaydi, balki konstruktiv "feedback" (fikr-mulohaza) beradi. Bu feedback o'quvchiga qayerda turgani va qaysi yo'nalishda harakatlanishi kerakligini aniq ko'rsatib beradi. O'z-o'zini baholash (self-assessment) va tengdoshlar baholashi (peer-assessment) esa o'quvchida o'z ta'limi uchun mas'uliyat hissini uyg'otadi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o'qitish metodikasi bu — uzluksiz izlanish va moslashish jarayonidir. 21-asr o'qituvchisi nafaqat tilni mukammal bilishi, balki pedagogik texnologiyalarni egallagan, o'quvchi psixologiyasini tushunadigan va eng muhimi, o'zi ham doimiy o'rganuvchi bo'lishi kerak. Metodikalarning xilma-xilligi o'qituvchiga ijodiy erkinlik beradi: u turli usullarni qorishtirib, o'z auditoriyasiga mos bo'lgan "eklektik" modelni yaratadi. Til o'rgatish bu shunchaki qobiliyat emas, bu — o'quvchining imkoniyatlar dunyosini kengaytirish, unga dunyo bilan tengma-teng muloqot qilish huquqini berishdir. Shuning uchun ham o'qitish metodikasi doimiy ravishda inson omili, texnologik imkoniyatlar va zamon talablari chorrahasida rivojlanib boraveradi. Mazkur jarayonda muvaffaqiyat garovi — metodikani quruq qo'llashda emas, balki har bir darsni jonli, mazmunli va natijaga yo'naltirilgan intellektual sarguzashtga aylantira olish mahoratidadir.

Foydanilgan adabiyotlar.

1. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
2. Harmer, J. (2015). *The Practice of English Language Teaching*. Pearson Education.
3. Krashen, S. D. (1982). *Principles and Practice in Second Language Acquisition*.
4. Nunan, D. (2004). *Task-Based Language Teaching*. Cambridge University
5. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge University Press.
6. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Longman.
7. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). *Techniques and Principles in Language Teaching*. Oxford University Press.
8. Thornbury, S. (2005). *How to Teach Speaking*. Pearson Longman.
9. Richards, J. C. (2006). *Communicative Language Teaching Today*. Cambridge University Press.
10. Scrivener, J. (2011). *Learning Teaching: The Essential Guide to English Language Teaching*. Macmillan Education.

11. Ellis, R. (2003). *Task-based Language Learning and Teaching*. Oxford University Press.

O‘QUVCHINING BILISH FAOLIYATINI RAG‘BATLANTIRISHNING INTEGRATIV MODELI: MAZMUN, METOD VA EMOTSIONAL FON SINERGIYASI

Malikova Xamida Kamolovna
Urganch RANCH texnologiya universiteti Pedagogika mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘quvchilarda bilishga bo‘lgan barqaror qiziqishni shakllantiruvchi fundamental omillarni ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda ta’lim samaradorligining kaliti bilimlarni majburiy qabul qilish emas, balki ichki kognitiv motivatsiya ekanligi ta’kidlanadi. Maqolada o‘quvchining bilish faoliyatini rag‘batlantiruvchi uchta asosiy komponentning integrativ modeli asoslab berilgan: 1) o‘quvchining shaxsiy ehtiyojiga aylanuvchi chuqur ilmiy-amaliy mazmun; 2) o‘quvchini faol izlanishga undovchi interfaol ta’lim metodlari (jumladan, muammoli ta’lim); 3) xavfsiz va ijobiy emotsional o‘quv muhiti. Tahlil natijasida ushbu uchlikning sinergiyasi o‘rganishni tashqi yukdan ichki ijodiy istakka aylantirishi ko‘rsatilgan hamda mazkur integrativ didaktik modelni milliy ta’lim amaliyotiga chuqur singdirish strategik vazifa ekanligi xulosa qilingan. Maqola John Dewey, Jean Piaget va G. I. Shchukina kabi yetuk pedagog va psixologlarning nazariyalariga tayanadi.

Kalit so‘zlar: bilishga qiziqish, kognitiv motivatsiya, ta’lim samaradorligi, interfaol metodlar, integrativ model, emotsional fon, didaktika.

Abstract: This article presents a scientific and pedagogical analysis of the fundamental factors that shape stable cognitive interest in students. It emphasizes that the key to educational effectiveness is not compulsory knowledge acquisition but intrinsic cognitive motivation. The paper substantiates an integrative model for stimulating students' cognitive activity, which is based on three core components: 1) deep scientific and practical content that transforms into a personal need; 2) active (interactive) teaching methods (including problem-based learning) that encourage active exploration; and 3) a safe and positive emotional learning environment. The analysis demonstrates that the synergy of this triad converts the learning process from an external burden into an internal creative aspiration. It is concluded that the implementation of this integrative didactic model across all educational practices is a strategic priority. The article draws upon the theories of prominent

educators and psychologists such as John Dewey, Jean Piaget, and G. I. Shchukina.

Keywords: cognitive interest, intrinsic motivation, learning effectiveness, interactive methods, integrative model, emotional background, didactics.

Аннотация: Данная статья посвящена научно-педагогическому анализу фундаментальных факторов, формирующих устойчивый познавательный интерес у учащихся. Подчеркивается, что ключ к эффективности образования лежит не в принудительном усвоении знаний, а во внутренней когнитивной мотивации. В работе обосновывается интегративная модель стимуляции познавательной активности школьников, включающая три ключевых компонента: 1) глубокое научно-практическое содержание, трансформирующееся в личную потребность ученика; 2) активные (интерактивные) методы обучения (включая проблемное обучение), побуждающие к поиску; 3) безопасная и позитивная эмоциональная образовательная среда. Анализ показывает, что синергия этой триады превращает учебный процесс из внешней обязанности во внутреннее творческое стремление. Сделан вывод о том, что внедрение данной интегративной дидактической модели во все сферы образовательной практики является стратегической задачей. Статья опирается на теоретические положения Джона Дьюи, Жана Пиаже и Г. И. Щукиной.

Ключевые слова: познавательный интерес, когнитивная мотивация, эффективность обучения, интерактивные методы, интегративная модель, эмоциональный фон, дидактика.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatimizning asosiy qonuni sifatidajamiyathayotining barcha sohalarini, jumladan, ta’lim, tarbiya va madaniyatni rivojlantirishuchunmustahkam huquqiy asos yaratadi. Konstitutsiya xalqimizning milliy va umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligini, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashga intilishini aks ettiradi. Ushbu maqolada ta’lim, tarbiya va madaniyat sohalariga oid Konstitutsiyada belgilangan qoidalar hamda ularning ahamiyati tahlil qilinadi. Shu o‘rinda O ‘zbekiston Respublikasi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yoshlarimizning bilim olishi, kasb o‘rganishi, dunyo bilan bellasha oladigan kuchli avlod bo‘lib voyaga yetishi Konstitutsiyada mustahkam qoida sifatida belgilandi.” - deb ta’kidlaydi . Hammamizga ma’lumki, 2023-yil 30-aprel kuni referendum orqali qabul qilingan Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi ta’lim sohasini davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida mustahkamladi. Konstitutsiya normalari ta’limning insoniy qadriyat sifatidagi ahamiyatini belgilab, yoshlar taraqqiyotining huquqiy kafolatlarini aniq ko‘rsatib berdi. Xususan, Konstitutsiyaning 50-moddasida quyidagi normalar mustahkamlangan:

- Har bir shaxs ta’lim olish huquqiga ega.

- Davlat bepul umumiy ta’limni kafolatlaydi.
- Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’limning uzluksizligi va izchilligi konstitutsiyaviy asosga ega bo‘ldi.
- Ta’lim muassasalarida irq, millat, til, din, jins kabi belgilar bo‘yicha kamsitish taqiqlanadi.

Bu normalar esa ta’limni jamiyatning ijtimoiy adolat tamoyillari asosida tashkil etish vazifasini yuklaydi. Konstitutsiyada ta’lim tizimi uzluksiz rivojlanishga yo‘naltirilgan tizim sifatida belgilangan. Xususan, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus va professional ta’lim, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim (magistratura, doktorantura) kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish. Bularning barchasi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi Konstitutsiyaviy darajaga ko‘tarildi. Konstitutsiya ta’lim sohasida davlat zimmasiga bir qator majburiyatlarni yuklaydi. Ta’lim sifatini ta’minlash, ta’limning ideologik neytralligi, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, maxsus ehtiyojli shaxslar uchun inklyuziv ta’lim bilan namoyon bo‘ladi. Konstitutsiyada ta’limni rivojlantirishda davlat, fuqarolik jamiyati institutlari, ota-onalar, nodavlat ta’lim muassasalari o‘rtasida hamkorlik mustahkamlandi. Davlat nodavlat ta’lim muassasalariga teng huquq va sharoit yaratilgan. Konstitutsiyaga ko‘ra ta’limning asosiy maqsadlari bugungi kunda quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Komil insonni tarbiyalash; yuksak intellektual salohiyatga ega yoshlarni shakllantirish; ijtimoiy adolat, insonparvarlik va milliy qadriyatlarga tayangan ta’lim tizimini yaratish; iqtisodiyotning raqobatbardosh kadrlar bilan ta’minlanishidir.

Bu maqsadlar Yangi O‘zbekistonning 2030 strategik rivojlanish yo‘nalishiga mos keladi.

Ta’lim tizimi:

- adolatli,
- inklyuziv,
- zamonaviy,
- uzluksiz,
- xalqaro standartlarga mos

tizim sifatida qayta shakllantirilmoqda.

O‘qitish samaradorligining eng asosiy ko‘rsatkichi bu o‘quvchining bilishga bo‘lgan ichki motivatsiyasi darajasidir. Zeroki, pedagogik jarayondagi samarali natijalar bilimni majburiy qabul qilish emas, balki bilishga bo‘lgan shaxsiy ehtiyoj va qiziqish natijasida erishiladi. Zamonaviy ta’lim paradigmasi o‘quvchini bilimning passiv qabul qiluvchisi rolidan faol izlanuvchi, kashfiyotchi sub’ekt darajasiga ko‘tarishni talab etadi. Aksariyat hollarda ta’lim amaliyotida faqatgina o‘quv materialini qamrab olishga va baholashga urg‘u berilib, o‘quvchining shaxsiy bilishga qiziqishini shakllantirishga yetarlicha e’tibor qaratilmasligi muammo bo‘lib qolmoqda. Bu esa bilimlarning tezda unutilishi va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarining sust rivoj-

lanishiga olib keladi. Shu bois, o‘quvchilarda bilishga qiziqishni samarali shakllantiruvchi asosiy omillarni — bilim mazmuni, qo‘llaniladigan metodlar va ta’lim muhitining emotsional fonlarini — ilmiy-pedagogik jihatdan chuqur tahlil qilish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – ta’lim jarayonida o‘quvchining bilish faoliyatini rag‘batlantiruvchi ana shu uchta asosiy komponentning o‘zaro ta’sirini tahlil qilish, ularning integrativ modelini ishlab chiqish va bilishga qiziqishni barqaror shakllantirishdagi rolini nazariy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Asosiy qism. Bilishga qiziqishning shakllanishidagi birinchi va eng fundamental bosqich bevosita taqdim etilayotgan bilim mazmuniga bog‘liqdir. Mazmunni shunday tuzish kerakki, u o‘quvchining shaxsiy ehtiyojiga aylanib, "bilish zaruriyati"ni uyg‘otsin, ya’ni bilishga bo‘lgan ichki kognitiv disbalansni keltirib chiqarsin. Bu jarayon, eng avvalo, o‘rganilayotgan bilimning hayotiyligi, amaliy aloqadorligi va dolzarbligini ta’minlash orqali amalga oshadi. Bilimning quruq nazariya sifatida emas, balki real hayotiy, ijtimoiy, iqtisodiy yoki texnologik muammolarni hal qilish vositasi sifatida taqdim etilishi qiziqishni keskin oshiradi. O‘quvchilar o‘rganilayotgan tushuncha yoki qonuniyatning ularning kundalik turmushiga, tanlagan kelajak kasblariga yoki global inqirozlarga qanday ta'sir qilishini ko‘rishlari, ya’ni mazmunning transdisiplinar ahamiyatini anglashlari zarur. Bu holatda nazariy bilimlar shaxsiy ahamiyat kasb etib, o‘rganishga bo‘lgan ichki motivatsiya kuchayadi, chunki o‘quvchi o‘z faoliyatining maqsadini tushunadi. Amerikalik faylasuf va pedagog John Dewey o‘zining “Experience and Education” “Shakllantirilishi mumkin bo‘lgan eng muhim munosabat – bu o‘rganishni davom ettirish istagidir”[89] – deb ta’kidlaydi. U bu bilan darslikning maqsadi ma’lumot berishdan ko‘ra, o‘quvchida mustaqil izlanish ehtiyojini uyg‘otish ekanligini, bilim mazmuni esa shu asosiy munosabatni shakllantirishga xizmat qilishi lozimligini uqtiradi. Bundan kelib chiqadiki, mazmunni tuzishda amerikalik psixolog Jerome Bruner tomonidan ilgari surilgan spiral o‘quv dasturi[90] tamoyilidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Unga ko‘ra, murakkab tushunchalar yildan yilga turli murakkablik darajalarida takrorlanib, o‘quvchining oldingi bilimiga yangi ma’lumotlarni faol integratsiya qilishiga zamin yaratadi, bu esa bilishga qiziqishning yo‘qolishining oldini oladi.

Shu bilan birga, bilim mazmuniga yangilik, noodatiylik va kutilmaganlik elementlarini kiritish o‘quvchining aqliy faolligini yuqori darajada faollashtiradi. Mazmunga kiritilgan muammoli vaziyatlar yoki paradoksal (qarama-qarshi) faktlar o‘quvchida kognitiv mojaroga sabab

[89] Dewey J. Experience and Education. – New York. Collier Books. 1938. p. 48.

[90] Bruner J. The process of education. – Cambridge. Harvard University Press. 1977. p. 97. Herr N. The sourcebook for science teaching. -Norhridge. Calofornia state universiteti. 2007. http://www.csun.edu/science/books/sourcebook/chapters/24-curriculum/graphics/layered-spiraling.html

bo‘ladi, bu esa uning yechimini topishga bo‘lgan kuchli intilishni keltirib chiqaradi. Mashhur didaktik psixolog G.I.Shchukina[91] ta’biri bilan aytganda, bilishga qiziqish mohiyatan noma'lumlikni bartaraf etishga bo‘lgan aqliy intilishdir. Shuning uchun, materialda "sir" yoki "topishmoq" elementlarining, to‘liq hal qilinmagan ilmiy masalalarning (Masalan, fanda haligacha ochiq qolgan savollar) mavjudligi o‘quvchida izlanishga, mustaqil tahlilga va javob topishga bo‘lgan kuchli ehtiyojni yuzaga keltiradi. Mazmunni strukturaviy jihatdan mantiqiy, lekin kichik "bo‘shliqlar" bilan berish, o‘quvchini bu "bo‘shliqlar"ni mustaqil ravishda to‘ldirishga undaydi va o‘z-o‘zidan o‘rganish (self-learning) jarayonini ishga tushiradi. Amaliy jihatdan, bu o‘qituvchidan mavzuni tugallanmasdan, balki uni o‘quvchi hayotining yoki kundalik muammolarining bir qismi sifatida taqdim etishni talab qiladi.

Biroq, bilim mazmuni qanchalik jozibali va fundamental bo‘lmasin, agar u passiv (bir tomonlama ma’ruza, oddiy tushuntirish) metodlar orqali yetkazilsa, tezda zerikarli bo‘lib, o‘zining motivatsion kuchini yo‘qotadi. Shuning uchun, bilishga qiziqishni barqaror shakllantirishda o‘quvchini jarayonning markaziga olib chiquvchi, uni faol ishtirok etishga undovchi faol va interfaol metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, muammoli ta’lim strategiyasi (problem-based learning) o‘quvchilarning aqliy kuchlanishini va ijodiy qiziqishini maksimal darajada oshiradi, chunki u o‘quvchilarni real muammoni qo‘yishga, uni tahlil qilishga va yechimning alternativ yo‘llarini izlashga undaydi. Dewey o‘zining “My Pedagogic Creed” asarida metodlarning ijtimoiy rolini shunday ta’riflaydi: “Yagona haqiqiy ta’lim faqat bola o‘zini topgan ijtimoiy vaziyatlarning talablari orqali uning kuch-qudratini rag‘batlantirish orqali keladi”[92]. Bu iqtibos o‘qitish metodlari faqat ma’lumot yetkazish emas, balki ijtimoiy faoliyatga asoslanishi, ya’ni Loyiha ishlari, keys-stadi kabi metodlar orqali o‘quvchining kognitiv salohiyatini o‘zgalar bilan muloqot va real vaziyatlarni hal qilish jarayonida rag‘batlantirishi lozimligini anglatadi. Shveytsariyalik psixolog Jean Piaget[93]ning faoliyat nazariyasiga ko‘ra, bilim passiv qabul qilinmaydi, balki o‘quvchi o‘z harakatlari va tajribasi orqali uni qayta quradi. Interfaol metodlar aynan shu "qayta qurish" jarayonini

[91] Щукина Г. И. Формирование знаний и интересов учащихся в образовательном процессе. – София. Народна Просвета. 1965. 227 с.

[92] Dewey J. My pedagogic creed. – New York. E.L. Kellogg & CO. 1897. p. 15.

[93] Piaget J. Science of education and the psychology of the child. – New York. Viking. 1970. p. 186. Piaget J. **The origins of intelligence in children.** – New York. Norton, 1952. – 419 p.

ta’minlab, o‘quvchiga bilim ustidan egalik qilish (agency) hissiyotini beradi, bu esa ichki qiziqishning barqaror manbai hisoblanadi.

Bundan tashqari, ta’lim jarayoniga o‘yin elementlari (gamifikatsiya) kiritish, ta’limiy dasturiy ta’minotlar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalardan foydalanish bilish faoliyatini hissiy jihatdan boyitadi va uni zamonaviy shaxsning ehtiyojlariga moslashtiradi. Texnologiyalar o‘quv materialini vizuallashtirishga, uni dinamik usulda taqdim etishga imkon beradi. Bu metodlar o‘rganish jarayonini majburiyatdan ko‘ra ko‘proq shaxsiy tanlov va qiziqarli sarguzasht sifatida qabul qilishga yordam beradi. Ta’lim texnologiya-larini qo‘llashda pedagoglar ma’lumotni yuzaki yetkazishdan ko‘ra, o‘quvchining diqqatini muammoli nuqtalarga qaratish va kognitiv yuklamani (cognitive load) optimallashtirishga e’tibor qaratishlari lozim. Ya’ni, metod shunchaki jozibador emas, balki kognitiv jihatdan samarali bo‘lishi kerak.

Nihoyat, bilishga qiziqishning uzluksiz rivojlanishi uchun xavfsiz, qo‘llab-quvvatlovchi va hissiy jihatdan ijobiy o‘quv muhiti talab qilinadi. Ta'lim muhitining emotsional foni bilish motivatsiyasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Pedagogning vazifasi har bir o‘quvchi o‘z darajasiga mos keladigan va uni uddalay olishiga ishonch beradigan topshiriqlar orqali muvaffaqiyat hissiyotini boshdan kechirishi uchun sharoit yaratishdan iboratdir. Bu, psixologik jihatdan, o‘z-o‘ziga samaradorlik (self-efficacy) tuyg‘usini shakllantiradi, bu esa keyingi bilish faoliyatiga bo‘lgan ishonch va rag‘batni oshiradi. O‘qituvchi tomonidan bildirilgan tezkor, konstruktiv va shaxsga emas, balki harakatga qaratilgan ijobiy fikr-mulohaza (fitbek) hamda kichik yutuqlarni e’tirof etish o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini mustahkamlovchi asosiy omillardan sanaladi. V.A.Suxomlinskiy “Men yuragimni bolalarga beraman” (My heart I give to children) asarida shunday deydi: “Bilim shaxsiyatning ajralmas qismidir... Ammo bilishga bo‘lgan qiziqish shaxsiyatning eng muhim elementidir”[94].

Shu bilan birga, o‘qituvchining o‘z faniga bo‘lgan g‘ayrat va ehtirosi (pedagogik entuziazmi) o‘quvchilarga bevosita ijobiy emotsional energiya sifatida o‘tadi, bu esa "hissiy yuqish" (emotional contagion) mexanizmi orqali sinfdagi umumiy fonni yaxshilaydi. Sinfda xato qilishdan qo‘rqmaydigan, munozara va savollarga ochiq bo‘lgan

[94] Suxomlinskiy V.A. My heart I give to children. – Moscva. Progress Publishers. 1981. P. 115.

xavfsiz psixologik muhit yaratish zarur. Bunday ijobiy emotsional fon tanqid ostida qolish qo‘rquvini bartaraf etadi, o‘quvchini ijodiy qidiruvga rag‘batlantiradi, o‘z fikrini erkin bildirishga undaydi va bilish faoliyatini uzluksiz davom ettirishga ilhom beradi. Ta’lim muhiti o‘zaro hurmat va hamkorlik ruhida tashkil etilishi, o‘quvchining qiziqishini hisobga olgan holda faoliyat erkinligini qo'llab-quvvatlashi kerak. Eng muhimi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi dialogik munosabatlar mustahkam bo‘lishi, o‘qituvchi mentor va sherik rolini o‘ynashi, o‘quvchi savollarini shunchaki javob emas, balki yangi tadqiqotlar uchun boshlang‘ich nuqta sifatida qabul qilishi lozim. Bu yondashuv bilish jarayonini majburiy darsdan shaxsiy muloqotga aylantiradi.

Xulosa. O‘quv tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda bilish samaradorligini oshirish uchta fundamental omil – chuqur ilmiy-amaliy mazmun, faol (interfaol) o‘qitish metodlari va ijobiy emotsional fon (psixologik qulay muhit)ning o‘zaro integrativ ta’siri orqali amalga oshiriladi. Bu omillar bir-birini mustahkamlab, samarali natijaga erishish uchun birgalikda ishlashi kerak.

Didaktik psixolog G.I. Shchukina o‘zining "Pedagogikada kognitiv qiziqish muammosi" asarida ta’kidlaganidek: "Qiziqish – bu ehtiyoj bilan shaxsning optimal uyg‘unligi bo‘lib, ta’lim jarayonini zerikarli jarayondan hayajonli kashfiyot maydoniga aylantira oladi."[95] Shu sababli, ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar malakasini oshirishda aynan shu integrativ yondashuvni amaliyotga tatbiq etish barqaror va strategik vazifa bo‘lib qolishi lozim.

Amalga oshirilgan kompleks tadqiqotlar shuni qat’iy tasdiqlaydiki, ta’lim samaradorligini oshirishning kaliti o‘quvchilarda bilishga bo‘lgan ishtiyoqni muntazam rag‘batlantirishdir. Bu jarayon avval aytib o‘tilganidek, uchta o‘zaro bog‘liq poydevorning mutanosibligini talab qiladi: mazmunning interfaolligi va chuqurligi, faol ta’lim strategiyalari hamda qulay emotsional muhit.

Didaktik psixolog G. I. Shchukina nazariyasiga ko‘ra, bilish qiziqishini belgilovchi asosiy omil – bu o‘rganilayotgan obyekt yoki hodisaga irodaviy e’tiborni jalb qilishning o‘ziga xos xususiyatidir. Buning uchun ta’lim-tarbiya ishlari o‘quvchining ichki kognitiv motivatsiyasini qo‘zg‘atishga yo‘naltirilgan bo‘lishi shart. Ushbu uch komponentning sinergiyasi (o‘zaro kuchaytiruvchi ta’siri)gina o‘rganishni samarali yukdan ichki istakka va ijodiy jarayonga aylantira oladi. Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi

[95] Щукина Г.И. Проблема познавательного интереса в педагогике. – Москва. Педагогика. 1971. 75 с.

ushbu integratsiyalashgan didaktik modelni ta’lim amaliyotining barcha bosqichlariga chuqur singdirishni barqaror maqsad qilib qo‘yishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Dewey J. Experience and Education. – New York. Collier Books. 1938. p. 104.
2. Bruner J. The process of education. – Cambridge. Harvard University Press. 1977. p. 97.
3. Щукина Г.И. Формирование знаний и интересов учащихся в образовательном процессе. – София. Народна Просвета. 1965. 227 с.
4. Dewey J. My pedagogic creed. – New York. E.L. Kellogg & CO. 1897. p. 48.
5. Piaget J. Science of education and the psychology of the child. – New York. Viking. 1970. p. 186.
6. Piaget J. **The origins of intelligence in children.** – New York. Norton. 1952. 419 p.
7. Suxomlinskiy V.A. My heart I give to children. – Moscva. Progress Publishers. 1981. 436
8. Щукина Г.И. Проблема познавательного интереса в педагогике. – Москва. Педагогика. 1971. 352 с.

GURLAN SHEVASIGA XOS UY-RO‘ZG‘OR BUYUMLARI NOMLARI HAQIDA

Abdullayeva Nasiba Kuralovna
UrDU Lingvistika(o‘zbek tili) magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm viloyatining Gurlan tumani shevasida qo‘llaniladigan uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari leksik-semantik jihatdan tahlil qilinadi. Tahlilga tortilgan leksik birliklarning semantik xususiyatlari, adabiy til va boshqa shevalar bilan o‘zaro munosabati o‘rganildi. Shuningdek, mazkur birliklarning etnolingvistik va lingvokulturologik jihatlariga ham to‘xtalib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: *dialektologiya, Gurlan shevasi, maishiy leksika, uy-ro‘zg‘or buyumlari, semantika, lingvokulturologiya.*

Аннотация. В данной статье анализируются лексико-семантические аспекты названий предметов домашнего обихода, используемых в диалекте Гурленского района Хорезмской области. Изучены семантические особенности анализируемых лексических единиц, их связь с литературным языком и другими диалектами. Также затронуты этнолингвистические и лингвокультурные аспекты этих единиц.

Ключевые слова: *диалектология, Гурленский диалект, бытовая лексика, предметы домашнего обихода, семантика, лингвокультурология.*

Abstract. This article analyzes the lexical-semantic aspects of the names of household items used in the dialect of the Gurlan district of the Khorezm region. The semantic features of the analyzed lexical units, their relationship with the literary language and other dialects were studied. The ethnolinguistic and linguocultural aspects of these units were also touched upon.

Keywords: *dialectology, Gurlan dialect, household vocabulary, household items, semantics, linguoculturology.*

Xalq shevalari milliy tilning ajralmas qismi bo‘lib, ular xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniyati va turmush tarzini o‘zida aks ettiradi. O‘zbek tili Xorazm shevalari o‘zining xilma-xilligi, qadimiy va boyligi bilan ajralib turadi. Bu shevalar ichida, ayniqsa, Gurlan shevasi o‘ziga xosligi va qadimgi turkiy til elementlari eng ko‘p saqlanib qolganligi bilan katta ahamiyatga ega.

Tilshunoslikda maishiy leksika tadqiqida uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlariga alohida e’tibor qaratiladi. Chunki uy-ro‘zg‘or buyumlariga oid so‘zlar milliy madaniyat, urf-odat va an’analar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular tilning lingvokulturologik xususiyatlarini yoritishda muhim manba vazifasini bajaradi hamda boshqa leksik qatlamlarga nisbatan kamroq o‘zgarishga uchraydi. Shu jihatdan Gurlan shevasidagi uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlarini o‘rganish dialektologiya va lingvokulturologiya uchun muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi. Shuningdek, bunday leksik birliklar til tarixini, xalqning turmush madaniyatini va etnografik xususiyatlarini o‘rganishda ham ishonchli manba sifatida xizmat qiladi.

Bilamizki, hudud aholisi qadimdan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanib kelishgan. Bu jarayonda qadimdan ishlatilib kelayotgan bir qancha uy-ro‘zg‘or buyumlaridan bugungi kunda ham foydalaniladi. Masalan,

kelï – sholi boshoqlaridan guruchni ajratib olish maqsadida qo‘llangan uy-ro‘zg‘or buyumi bo‘lib, dastlab gujum daraxtidan yirikroq tanasidan ichi kovak shaklda tayyorlangan bo‘lsa, keyinchalik qoramon(qattiq tanali daraxt), tol va to‘rang‘il(Xorazm vohasida daryo, kanal, arnalar bo‘ylarida sho‘r yerlarda o‘sadigan ko‘p yillik daraxt)dan yasalgan kelilar ham kuzatilgan.

Kelï mïnān kelsoptï opçïq, shalï tüyämïs. (Gurlan: Olchin, Oqqum, Do‘simbiy)

Kelining aynan Gurlan tumani hududida paydo bo‘lgani va keng qo‘llangani hudud aholisining etnik xususiyatlari va turmush tarzi bilan

ham chambarchas bo‘g‘liq. Bilamizki, bu hududda yashovchi aholi qadimdan, asosan sholikorlik faoliyati bilan shug‘ullanib kelganlar.

kelsop - kelining sopi, tutqichi, 1-1,5 metrlik jiyda va qoramon yog‘ochi g‘o‘lasi-dan o‘rtasi to‘rtburchak qilib teshib tayyorlangan. Keliga solingan sholi kelsop yordamida urib, guruchi ajratilgan.

Kelsoptï yaxşïlap uşa, kelïdägï şalïnï tögäsän. (Gurlan: Olchin, Oqqum, Do‘simbiy)

Kelï-kelsopdan, asosan, ayollar foydalanishgan. Keyinchalik bug‘doy boshoq-laridan donini ajratish, undirilgan bug‘doyni maydalash va boshqa maqsadlarda ham ishlatilgan.

Keyinchalik kelï-kelsop boshqa hududlarda ham qo‘llanilgan. Ellikqal’a tumanining Oqoltin, Toza Amirobod, Saxtiyon mahallalari hududida bu *kelï-soqï, kelsop-sapï* tarzida ishlatiladi.

gubï – qatiqdan sariyog‘ olish maqsadida ishlatiladigan ro‘zg‘or buyumi bo‘lib, dastavval qoromon yog‘ochidan tayyorlangan. Keyin-chalik sopoldan yasalgan gubïlar ham ishlatilgan. So‘nggi yillarda tunuka gubïlärdän keng foydalanilgan.

Gubï çaycaqtä mïzday suv salsaŋ, sarïmayï yaxşi tuşadï. (Gurlan: Olchin, Oqqum, Do‘simbiy)

pïşkäk – ***gubï***ga solingan qatiqni chayish maqsadida yuqoridan pastga qarata ishlatiladigan, yog‘ochdan tayyorlangan qo‘lbola buyum, ***gubï***ning sopi.

Qatïq yaxşï çayïlïşï uçïn pïşkäknï tes-tes aylantïrïş käräk. (Gurlan: Do‘simbiy, Olchin, Qang‘li)

Gubï Yangiariq tumanining Jaloyir, Jumamachit mahallalarida ***kupï,*** Shovot tumanining Bunyodkor, Yangi O‘zbekiston mahallalarida, Ellikqal’a tumanining Madaniyat mahallasi hududida ***kubï,*** Shovot tumani Mevazor, Chig‘atoy, Royat, To‘qmang‘it, Manaq mahallalari, Xonqa tumani Durvadik mahallasi aholisi nutqida ***küyi*** tarzida ishlatiladi. Adabiy tilda ham, shevalarda ham yog‘ olish uchun ishlatila-digan “kuvi” so‘zi ishlatiladi. Adabiy tilda uning detallari alohida nomga ega emas. Ammo shevalarda kuvining tarkibiy unsurlari ham alohida nomga ega. Masalan, kuvi ichidagi suzma va suvni chalib, yog‘ini ajratish vazifasini bajaradigan maxsus cho‘p Qashqadaryo shevalarida “cho‘pkak” nomi bilan yuritiladi[4; 42].

dungul – qadimda kunjut, zig‘ir, chigitdan juvozda siqib olingan yog‘larni saqlash va olib yurishda ishlatilgan moy idish. Bu so‘z so‘nggi davrlarda kerosin, benzin solinadigan idishlarga nisbatan ham ishlatilgan.

Ziğïr moyï mïnän künjït moyïnï ayrïm-ayrïm dungullärgä salïp qoydï. (Gurlan: Morbo‘gat, Do‘simbiy, Olchin, Qang‘li)
Dungul Yangiariq tumanining Jaloyir, Jumamachit mahallari hududida ***toŋŋïr*** deb ataladi.

zağama – faner qurilish materiali qaynoq suvda egiluvchan holga kelgach, doira shaklida egib tayyorlanadigan, sholi, bug‘doy, suli kabilarni yelpish, sovurish uchun ishlatiladigan idish.
Älimä alïppän ullï zağama,
Bir gäpïm bar mïnuv turğän ağāmā,
Xojik bālā mennän kar etävïrmä,
Menäm saŋā ters qäräsam yağamā [4; 340].

Bu uy-ro‘zg‘or buyumi Shovot tumanining Mevazor, Chig‘atoy, Royat mahallalari, Yangiariq tumanining Jaloyir, Jumamachit mahallarida, Urganch tumani Cho‘lobod mahallasi hududida ***tir*** deb yuritiladi.

Gurlan shevasi leksikasida oshxona buyumlari nomlarida ham o‘ziga xoslik ko‘zga tashlanadi. Jumladan,

şännŋïl – suv solish va ichish uchun ishlatiladigan sirlangan maxsus idish.
Bïr şännŋïl suv äpke. (Gurlan: Morbo‘gat, Do‘simbiy, Olchin, Qang‘li)
şännŋïl Xonqa, Xiva, Yangibozor tumanlari hududida ***sarxum*** deb ataladi.

tanqan – o‘choqda choy qaynatish uchun ishlatiladigan cho‘yan idish.
Tanqanda çay qaynat, miymanlar keldï. (Gurlan: Morbo‘gat, Do‘simbiy, Olchin, Qang‘li)

çanaq – sirlangan kichkina metall idish, lagan. Bu so‘z Mahmud Qoshg’ariyning „Devonu lug’at at-turk” asarida ham qo‘llangan bo‘lib, unga „***çanaq(janaq) – yog’ochdan ishlangan idishlar“*** deb izoh berilgan[1; 362]. Lekin bu so‘z bugungi kunda Gurlan shevasida faqat sirlangan kichik metall idishga nisbatan ishlatiladi. Katta sirlangan idishga esa ***kärsän deyiladi.***
Kop xamïr etïş käräk, çanaqnïmäs kärsännï äkï. (Gurlan: Olchin, Oqqum, Do‘simbiy)

çolpï – suvda qaynatilayotgan yoki yog’da qovurilayotgan narsalarni suzib olish uchun ishlatiladidan, suv yoki yog‘ oqib tushishi uchun teshik-teshik qilib ishlangan oshxona buyumi.
Kurtïk pïştï, tavaxğa salïş uçun çolpïnï äpïrvärïŋlär. (Gurlan: Olchin, Oqqum, Do‘simbiy)

maylïq – qo‘ldagi ovqat yog‘ini tozalash uchun ishlatiladigan maxsus kichik sochiq, katta yoshdagilar nutqida ko‘p kuzatiladi. Aslida **maylïq** so‘zi hozirgi o‘zbek adabiy tilida „yog’li“ ma’nosini anglatadi. Ammo Gurlan shevasida bu so‘z to‘y va marosimlarda palov qo‘l bilan

yeyilgandan keyin yog’ini tozalash uchun ishlatiladigan kichkina sochiqqa nisbatan qo‘llanilgan.
Hämmä palavïnï yep boğan bosa, qol Çäydïrïştän äldïn mäylïq berïŋlar. (Gurlan: Do‘simbiy, Olchin, Qang‘li)

Uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari Gurlan shevasi leksikasining muhim qismini tashkil qilib, yuqorida ularning ayrimlarigagina to‘xtalib o‘tdik. Bunday birliklarni leksik-semantik va lingvokulturologik jihatdan tizimli o‘rganish nafaqat dialektologiya, balki etnografiya va lingvokulturologiya fanlari uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Махмуд Кошғарий. Девону луғат ат-турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталибов. Биринчи том. - Тошкент: Фан, 1960. - 498 б.
2. Alimova Sh.M. Xorazm qipchoq shevalarining leksik-grammatik xususiyatlari. Monografiya. Xorazm: Khwarezm publication, 2024. – 132 b.
3. Fayzullayev K. Gurlan shevasi merosi. – Xorazm: Ogahiy nashriyoti, 2026. – 332 b.
4. Musayeva F. O‘zbek xalq so‘zlari. T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2023. – 392 b.

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDA HARBIY BOSHQARUV VA INTIZOM PSIXOLOGIYASINING O‘RNI VA MUAMMOLARI

Saidov Burxon
Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litsey o‘qtuvchisi

Annotatsiya: Mazkur tezisda ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida harbiy boshqaruv va intizom psixologiyasining tutgan o‘rni, uning nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Harbiy jamoalarda samarali boshqaruvni tashkil etish, shaxsiy tarkibda intizomni shakllantirish va mustahkamlashda psixologik omillarning roli yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy globallashuv sharoitida harbiy sohada yuzaga kelayotgan ijtimoiy-psixologik muammolar, jumladan, motivatsiya, liderlik, stressga bardoshlilik va ijtimoiy moslashuv masalalari ko‘rib chiqiladi. Tezisda ushbu muammolarni hal etishning ilmiy asoslangan yondashuvlari hamda ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan integratsiyasi muhim omil sifatida e’tirof etiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-gumanitar fanlar, harbiy boshqaruv, intizom psixologiyasi, liderlik, motivatsiya, stressga bardoshlilik, ijtimoiy moslashuv, psixologik omillar, harbiy jamoa, boshqaruv samaradorligi.

Аннотация: В данном тезисе анализируется место психологии военного управления и дисциплины в системе социально-гуманитарных наук, а также её теоретическое и практическое значение. Освещается роль психологических факторов в организации эффективного управления в военных коллективах, формировании и укреплении дисциплины личного состава. Кроме того, рассматриваются социально-психологические проблемы, возникающие в военной сфере в условиях современной глобализации, включая вопросы мотивации, лидерства, стрессоустойчивости и социальной адаптации. В тезисе подчёркивается значимость научно обоснованных подходов к решению данных проблем и их интеграции с социально-гуманитарными науками.

Ключевые слова: социально-гуманитарные науки, военное управление, психология дисциплины, лидерство, мотивация, стрессоустойчивость, социальная адаптация, психологические факторы, военный коллектив, эффективность управления.

Abstract: This thesis analyzes the role of military management and discipline psychology within the system of social and humanitarian sciences, as well as its theoretical and practical significance. It highlights the role of psychological factors in organizing effective management in military teams, as well as in the formation and strengthening of discipline among personnel. Additionally, the thesis examines socio-psychological issues emerging in the military sphere under conditions of modern globalization, including motivation, leadership, stress resilience, and social adaptation. The study emphasizes the importance of scientifically grounded approaches to solving these problems and their integration with social and humanitarian sciences.

Keywords: social and humanitarian sciences, military management, discipline psychology, leadership, motivation, stress resilience, social adaptation, psychological factors, military team, management effectiveness.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar rivoji- harbiy boshqaruv va intizom psixologiyasi muhim o‘rin egallaydi. Chunki harbiy faoliyat inson omiliga bevosita bog‘liq bo‘lib, unda boshqaruv samaradorligi ko‘p jihatdan psixologik jarayonlarga tayanadi. Harbiy jamoalarda intizomni ta’minlash, buyruqlarni aniq va o‘z vaqtida bajarish, shuningdek, rahbar va bo‘ysunuvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga solishda psixologik yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda harbiy tashkilotlarda boshqaruv tizimini takomillashtirish ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ayniqsa, psixologiya,

sotsiologiya va pedagogika fanlarining integratsiyasi muhimdir. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilarda yuqori darajadagi mas’uliyat, stressga chidamlilik va ijtimoiy moslashuvni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Biroq ushbu sohada qator muammolar mavjud. Jumladan, zamonaviy axborot muhitining ta’siri, individual psixologik xususiyatlarning yetarlicha inobatga olinmasligi, motivatsiya tizimining takomillashmaganligi hamda liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi kamchiliklar boshqaruv samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu muammolarni hal etishda ilmiy asoslangan psixologik yondashuvlar, innovatsion boshqaruv usullari va ijtimoiy-gumanitar bilimlar integratsiyasini kuchaytirish zarur. Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida harbiy boshqaruv va intizom psixologiyasi alohida o‘rin egallaydi, chunki ushbu yo‘nalish inson omili, uning ruhiy holati, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarini chuqur o‘rganishga qaratilgan. Harbiy faoliyat o‘ziga xos murakkab tizim bo‘lib, unda qat’iy tartib, yuqori darajadagi intizom va tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, harbiy boshqaruv samaradorligini oshirishda psixologik bilimlardan foydalanish zaruriy shart hisoblanadi. Harbiy jamoalarda intizomni shakllantirish va mustahkamlash nafaqat tashkiliy choralar, balki psixologik omillar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Jumladan, harbiy xizmatchilarning motivatsiyasi, ularning kasbiy faoliyatga bo‘lgan munosabati, jamoaviy muhit va rahbarning shaxsiy fazilatlari intizom darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Rahbarning psixologik kompetensiyasi, ya’ni ularning bo‘ysunuvchilar bilan samarali muloqot qila olishi, nizolarni boshqarishi va ijobiy psixologik muhit yaratishi harbiy jamoaning barqaror faoliyat yuritishida muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlanishi sharoitida harbiy sohada ham yangi ijtimoiy-psixologik muammolar yuzaga kelmoqda. Axborot oqimining ortishi, turli madaniy ta’sirlar, shuningdek, psixologik bosim va stress omillari harbiy xizmatchilarning ruhiy holatiga sezilarli darajada ta’sir etmoqda. Shu bois, stressga bardoshlilikni oshirish, psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish va shaxsning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, harbiy tashkilotlarda boshqaruv tizimini takomillashtirish ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan, psixologiya, sotsiologiya va pedagogika fanlari bilan integratsiyani talab etadi. Ushbu fanlar asosida ishlab chiqilgan ilmiy yondashuvlar harbiy jamoalarda samarali boshqaruvni tashkil etish, liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish va intizomni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, zamonaviy liderlik nazariyalari va

motivatsiya mexanizmlarini amaliyotga joriy etish boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, mazkur sohada qator muammolar ham mavjud. Harbiy xizmatchilarning individual psixologik xususiyatlarini yetarli darajada hisobga olmaslik, motivatsiya tizimining takomillashmaganligi, rahbarlarning psixologik tayyorgarlik darajasining yetarli emasligi hamda jamoalarda sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishdagi kamchiliklar boshqaruv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa o‘z navbatida intizomning pasayishiga, xizmat samaradorligining kamayishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-gumanitar fanlar rivojida harbiy boshqaruv va intizom psixologiyasi muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Harbiy tashkilotlarda samarali boshqaruvni ta’minlash va mustahkam intizomni shakllantirish bevosita inson omili hamda psixologik jarayonlarga bog‘liqdir. Shu sababli, mazkur yo‘nalishda psixologik yondashuvlardan keng foydalanish boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda yuzaga kelayotgan ijtimoiy va psixologik muammolarni bartaraf etish, harbiy xizmatchilarning motivatsiyasini kuchaytirish, liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda stressga chidamliligini oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammolarni hal etishda ijtimoiy-gumanitar fanlar integratsiyasi va ilmiy asoslangan yondashuvlar muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziev E. **Umumiy psixologiya**. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
2. Karimova V.M. **Ijtimoiy psixologiya asoslari**. – Toshkent: Fan, 2012.
3. Do‘stmuhamedova Sh.A. **Boshqaruv psixologiyasi**. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2015.
4. G‘aniyev A.G. **Harbiy psixologiya**. – Toshkent: Harbiy nashriyot, 2018.
5. Shoumarov G‘.B. **Shaxs va jamiyat psixologiyasi**. – Toshkent: Fan, 2007.
6. Андреева Г.М. **Социальная психология**. – Москва: Аспект Пресс, 2014.
7. Леонтьев А.Н. **Деятельность. Сознание. Личность**. – Москва: Политиздат, 1975.
8. Maslow A. **Motivation and Personality**. – New York: Harper & Row, 1954.
9. McGregor D. **The Human Side of Enterprise**. – New York: McGraw-Hill, 1960.

10.Yukl G. **Leadership in Organizations**. – New Jersey: Prentice Hall, 2013.

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Saidnazarova Mashhura Shuxrat qizi
Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litsey, lobaranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda ijtimoiy-gumanitar fanlarning zamonaviy jamiyatdagi dolzarb muammolari tahlil qilinadi. Muallif axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi, fanlararo integratsiya yetishmovchiligi, moliyaviy va ilmiy resurslarning cheklanishi, jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyatning pastligi va globalizatsiya sharoitida madaniy o‘zgarishlar kabi asosiy muammolarni ko‘rib chiqadi. Ishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning samaradorligini oshirish va yosh mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Tezis jamiyatning barqaror rivojlanishi va zamonaviy ilmiy izlanishlarni rivojlantirish uchun ushbu fanlarning rolini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-gumanitar fanlar , dolzarb muammolar **,** fanlararo integratsiya **,** axborot texnologiyalari **,** globalizatsiya **,** madaniy o‘zgarishlar

Kirish: Ijtimoiy-gumanitar fanlar jamiyatning madaniy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Bu fanlar insoniyatning ijtimoiy munosabatlarini, axloqiy qadriyatlarni, madaniy merosni va siyosiy jarayonlarni o‘rganadi. Biroq, XXI asrning tezkor o‘zgaruvchan sharoitida ijtimoiy-gumanitar fanlar bir qator dolzarb muammolarga duch kelmoqda. Ularning samaradorligini oshirish, yosh mutaxassislarni tayyorlash va jamiyatda ijtimoiy ahamiyatini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Axborot texnologiyalari va bilimning moslashuvchanligi

Raqamli texnologiyalar tez sur’atlarda rivojlanmoqda, va bu jarayonda ijtimoiy-gumanitar fanlar an’anaviy metodlari ko‘pincha zamonaviy talablar bilan mos kelmaydi. Masalan, tarixiy yoki madaniyatshunoslik tadqiqotlarida hali ham ko‘plab manbalar qog‘oz formatida saqlanadi va onlayn resurslarga o'tish jarayoni sekin kechmoqda. Shu bilan birga, yosh mutaxassislar uchun raqamli savodxonlik va axborot tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish zarur, aks holda ular ish bozoridagi talablaridan ortda qoladi.

Fanlararo integratsiya yetishmovchiligi

Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tabiiy fanlar orasida yetarli integratsiya yo‘qligi ilmiy izlanishlarni cheklaydi. Masalan, ekologiya, iqtisodiyot va sotsiologiya sohalaridagi murakkab muammolarni faqat bir fan yondashuvi bilan hal etish qiyin. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, fanlararo integratsiya inson psixologiyasi, iqtisodiy jarayonlar va ijtimoiy xulq-atvorni tushunishda samarali natija beradi. Shu sababli, ijtimoiy-gumanitar fanlar boshqa fanlar bilan faol hamkorlik qilishga majbur.

Moliyaviy va ilmiy resurslarning cheklanganligi. Ko‘plab ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlar yetarli moliyalashtirilmaydi, bu esa yangi bilimlarni yaratish va ilg‘or metodlarni joriy etishni sekinlashtiradi. Masalan, madaniyatshunoslik va antropologiya sohasidagi ilmiy loyihalar ko‘pincha cheklangan mablag‘ bilan ishlaydi. Natijada yosh olimlar chet el tajribasidan foydalana olmaydi, va xalqaro ilmiy hamkorlik imkoniyatlari kamayadi.

Ijtimoiy ahamiyat va jamiyatdagi e’tibor yetishmasligi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar ko‘pincha siyosiy yoki iqtisodiy fanlar bilan solishtirganda kamroq e’tibor va ijtimoiy qadr-qimmatga ega. Bu sohada faoliyat yuritadigan mutaxassislar kam rag‘batlanadi, yosh olimlar esa boshqa sohalarga intiladi. Shuningdek, bu fanlarga asoslangan siyosiy va ijtimoiy qarorlar qabul qilinishi ham sekinlashadi, natijada jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi to‘xtab qolish xavfi yuzaga keladi.

Globalizatsiya va madaniy o‘zgarishlar. Global kommunikatsiya va madaniy almashuv ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, milliy identitetni saqlash, madaniy merosni asrab-avaylash va axborot etikasini shakllantirish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, xalqaro madaniy jarayonlarni tushunish va ularda faol ishtirok etish zamonaviy mutaxassislar oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Xulosa. Ijtimoiy-gumanitar fanlar zamonaviy jamiyatning murakkab muammolarini hal qilishda muhim vosita hisoblanadi. Ularning samaradorligini oshirish uchun fanlararo integratsiya, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va jamiyatda ijtimoiy ahamiyatni oshirish bo‘yicha strategik chora-tadbirlar zarur. Shu bilan birga, yosh mutaxassislarni tayyorlash va ularni ish bozorida raqobatbardosh qilish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolarini hal etish orqali jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash mumkin.

Foydalangan adabiyotlar

1. Giddens, A. *Sotsiologiya asoslari*. Moskva: Aspekt Press, 2018.

2. Huntington, S. *Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi va dunyo tartibi*. Toshkent: Sharq, 2017.

3. Bauman, Z. *Zamonaviylik va uning paradokslari*. Moskva: Kanon+, 2019.

4. Castells, M. *Axborot jamiyati*. Moskva: Lenand, 2016.

5. Kuznetsov, A. *Madaniyatshunoslik asoslari*. Moskva: Akademiya, 2020.

6. Khasanova, F. *Ijtimoiy-gumanitar fanlar va zamonaviy jamiyat*. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

7. UNESCO. *Global trends in education and humanities*. Paris: UNESCO, 2020.

8. Sotsiologiya va antropologiya bo‘yicha so‘nggi ilmiy maqolalar (2018–2023), jurnal: *Sotsiologik Izlanishlar* va *Humanities Review*.

4-SHO‘BA. HARBIY TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA CHAQIRIQQACHA BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

HARBIY AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARI TA’LIM MOTIVATSIYASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Djumaniyazova Muxayya Xusinovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi professori, ps.f.d.(DSc)

Annotatsiya: Mazkur maqolada harbiy akademik litsey o‘quvchilari ta’lim motivatsiyasining psixologik mohiyati, tuzilishi va o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ta’lim motivatsiyasining ichki va tashqi omillari, kasbiy yo‘naltirilganlik, ijtimoiy-moral qadriyatlar hamda intizomiy muhit ta’siri yoritilgan. Shuningdek, harbiy ta’lim sharoitida avtonomiya, kompetentlik va jamoaviylik ehtiyojlarining qondirilishi motivatsiya barqarorligini ta’minlovchi muhim omil sifatida asoslangan. Tadqiqot natijalari harbiy akademik litseylarda ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim motivatsiyasi, harbiy akademik litsey, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, kasbiy yo‘naltirilganlik, vatanparvarlik, intizom, jamoaviylik, avtonomiya, kompetentlik.

Аннотация: В данной статье научно обоснованно анализируются психологическая сущность, структура и специфические особенности учебной мотивации учащихся военных академических лицеев. Раскрываются внутренние и внешние факторы мотивации, профессиональная направленность, социально-нравственные ценности и влияние дисциплинарной среды. Обосновывается значимость удовлетворения потребностей в автономии, компетентности и принадлежности для обеспечения устойчивости учебной мотивации в условиях военного образования. Полученные выводы могут способствовать повышению эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: учебная мотивация, военный академический лицей, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, профессиональная направленность, патриотизм, дисциплина, коллективизм, автономия, компетентность.

Abstract : This article provides a scientific analysis of the psychological essence, structure, and specific characteristics of learning motivation among students of military academic lyceums. It examines intrinsic and extrinsic motivational factors, professional orientation,

socio-moral values, and the impact of a disciplined educational environment. The study substantiates the importance of satisfying the needs for autonomy, competence, and relatedness in maintaining stable academic motivation within military education settings. The findings contribute to improving the effectiveness of the educational process in military academic institutions.

Keywords: learning motivation, military academic lyceum, intrinsic motivation, extrinsic motivation, professional orientation, patriotism, discipline, collectivism, autonomy, competence.

Kirish. Hozirgi globallashuv va xavfsizlikka oid murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitda harbiy ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorlash sifati strategik ahamiyat kasb etadi. Harbiy akademik litseylar - umumta’lim va harbiy-kasbiy yo‘nalishni uyg‘unlashtirgan o‘ziga xos ta’lim tizimi bo‘lib, ularda ta’lim motivatsiyasining mazmuni va shakllanish mexanizmlari oddiy maktab o‘quvchilaridan farq qiladi.

Harbiy akademik litsey o‘quvchilari ta’lim motivatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari mavzusining dolzarbligi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari bilan bevosita bog‘liqdir. Jumladan, prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan PQ-4375-son qaror “O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori mazkur yo‘nalishda ta’lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga olib chiqishni nazarda tutadi. Ushbu qarorda: yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish; harbiy akademik liseylar faoliyatini takomillashtirish; intellektual, jismoniy va ma’naviy jihatdan yetuk kadrlar zaxirasini shakllantirish; Qurolli Kuchlar va davlat xizmati uchun raqobatbardosh mutaxassislar tay-yorlash tizimini rivojlantirish kabi vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda harbiy akademik lisey o‘quvchi-larining ta’lim motivatsiyasi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Chunki harbiy ta’lim muassasalarida o‘qish faqat akademik bilimlarni egallash emas, balki intizom, mas’uliyat, vatanparvarlik, irodaviy barqarorlik va kasbiy yo‘nalganlikni shakllantirishni ham talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, harbiy akademik lisey o‘quvchilarining ta’lim motivatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish: ichki va tashqi motivatsiya omillarini aniqlash; harbiy-kasbiy yo‘nalganlik shakllanish darajasini baholash; motivatsiyaga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarni tahlil qilish; ta’lim

samaradorligini oshirishga qaratilgan psixologik-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Ta’lim motivatsiyasi shaxsning bilim olish faoliyatiga bo‘lgan ichki va tashqi rag‘batlari, ehtiyojlari, qiziqishlari, qadriyatlari va maqsadlari tizimini ifoda etadi. Bu tushuncha ilmiy jihatdan qator psixolog olimlar tomonidan turlicha yoritilgan.

Motivatsiya muammosi jahon psixologiyasida keng o‘rganilgan. **Xususan:**

Abraham Maslow ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasida inson faoliyatini ehtiyojlar tizimi orqali tushuntiradi. Frederick Herzberg ikki omilli nazariyasida ichki (mazmunli) va tashqi (gigiyenik) omillarni ajratadi. David McClelland muvaffaqiyatga intilish, hokimiyat va mansublik ehtiyojlarini asosiy motivasion omil sifatida ko‘rsatadi. Edward Deci va Richard Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘zini aniqlash nazariyasi ichki va tashqi motivatsiyani farqlaydi.

O‘z-o‘zini aniqlash nazariyasiga ko‘ra, shaxsda uchta asosiy psixologik ehtiyoj mavjud:

1) Avtonomiya
2) Kompetentlik
3) Ijtimoiy aloqadorlik

Harbiy litsey sharoitida ushbu ehtiyojlar o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

Harbiy akademik litseylar quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

1) Qat’iy intizom va tartib
2) Iyerarxik munosabatlar tizimi
3) Jamoaviy hayot tarzi
4) Vatanparvarlik va burch hissining ustuvorligi
5) Jismoniy va ma’naviy chidamlilik talablari
6) Kelajak kasbiy yo‘nalishning aniqligi

Bu omillar ta’lim motivatsiyasining mazmuni va tuzilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Harbiy litsey o‘quvchilari ta’lim motivatsiyasining asosiy turlari:

1. Ichki motivatsiya . Ichki motivatsiya bilim olish jarayonidan qoniqish olish, intellektual qiziqish va shaxsiy rivojlanish ehtiyoji bilan bog‘liq.

Harbiy litsey o‘quvchilarida ichki motivatsiya quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

—Harbiy fanlarga qiziqish
—Strategik fikrlashga intilish
—Jismoniy va ruhiy barkamollikka intilish

—Liderlik sifatlarini rivojlantirish istagi

Biroq qat’iy intizom muhiti ayrim hollarda avtonomiya ehtiyojini cheklashi mumkin. Bu esa ichki motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi ehtimoldan holi emas.

2. Tashqi motivatsiya. Tashqi motivatsiya quyidagi omillar bilan bog‘liq:

—Mukofot va rag‘batlantirish

—Yuqori lavozimga erishish

—Ota-ona yoki jamiyat kutilmalari

—Harbiy karyera istiqbollari

—Ma’naviy va moddiy kafolatlar

Harbiy litsey o‘quvchilarida tashqi motivatsiya nisbatan kuchli bo‘ladi, chunki ular kelajakda ofiserlik kasbini egallashni maqsad qiladilar.

3. Kasbiy yo‘naltirilgan motivatsiya. Bu tur harbiy litsey o‘quvchilari uchun eng xarakterli hisoblanadi. Ular:

—Harbiy akademiyaga kirish

—Ofiser bo‘lish

—Vatan himoyachisi sifatida faoliyat yuritish maqsadlarini aniq belgilagan bo‘ladilar.

4. Ijtimoiy-moral motivatsiya. Harbiy litsey muhitida quyidagi qadriyatlar shakllanadi:

—Vatanparvarlik

—Burch va mas’uliyat

—Jamoaviylik

—Intizom

—Sadoqat

Bu qadriyatlar ta’lim motivatsiyasining ma’naviy asosini tashkil etadi.

Harbiy akademik litsey o‘quvchilari asosan o‘smirlik yoshida bo‘ladilar. Ushbu davr quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: shaxsiylikni shakllantirish; kasbiy o‘zini aniqlash; mustaqillikka intilish; o‘z-o‘zini namoyon qilish ehtiyoji.

Qat’iy tartib sharoitida mustaqillik ehtiyoji bilan intizom o‘rtasida ichki ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli pedagogik yondashuv psixologik jihatdan muvozanatli bo‘lishi zarur.

Motivatsiyani kuchaytiruvchi omillar

—Liderlikni rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar

—Amaliy-strategik topshiriqlar

—Musobaqa va reyting tizimi

—Individual muvaffaqiyatni e’tirof etish
—Psixologik qo‘llab-quvvatlash
—Kelajak kasbiy istiqbolni aniq ko‘rsatish
—Motivatsiyani susaytiruvchi omillar
—Haddan tashqari avtoritarlik
—Individual yondashuvning yetishmasligi
—Psixologik bosim
—Shaxsiy qiziqishlarni inobatga olmaslik
—Nomuvofiq rag‘batlantirish

Xulosalar qilib aytganda, ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar natijalari tahliliga ko‘rsatadiki, harbiy akademik litsey o‘quvchilari ta’lim motivatesiyasi ko‘p qirrali va kompleks psixologik tizimdir. Unda: ichki qiziqish, kasbiy maqsad, ijtimoiy burch,
tashqi rag‘bat, shaxsiy o‘zini namoyon qilish ehtiyoji o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Mazkur toifadagi o‘quvchilarda motivatsiya nafaqat bilim olishga, balki kelajakda vatan himoyachisi sifatida shakllanishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek,

1. Harbiy litsey o‘quvchilarida maqsadli va kasbiy motivatsiya yuqori bo‘ladi.
2. Ichki motivatsiya tashqi motivatsiya bilan uyg‘unlashganda yuqori samaradorlik kuzatiladi.
3. Avtonomiya ehtiyojini qondirish motivatsiya barqarorligini ta’minlaydi.
4. Jamoaviy muhit ijtimoiy motivatsiyani kuchaytiradi.
5. Pedagogik qo‘llab-quvvatlash motivatsiyaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi xulosalarni inibatga olgan holda amaliy tavsiyalar berish mumkin. Bular: intizom va avtonomiya o‘rtasida muvozanat yaratish; ta’lim mazmunini kasbiy faoliyat bilan bog‘lash; liderlik treninglarini joriy qilish; motivasion suhbat va kouching usullaridan foydalanish; psixologik diagnostika orqali motivatsiya darajasini baholash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraxmanova Z.E. Yoshlarda milliy birlik tuyg‘usi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Psix.fan. nom. ... dis. - T., 2006. – 129 b.
2. Бакшаева Н.А. Психология мотивации студентов [Текст] / Н.А. Бакшаева, А. Вербицкий. – М.: Университетская книга, 2006. – 184 с.
3. Батаршев, А.В. Учебно-профессиональная мотивация молодежи.– М.: Академия, 2009. – 192 с.

4. Djumaniyazova M.X. Talabalar o‘quv motivatsiyasining rivojlanishi – psixologik muammo sifatida// “Pedagogik akmelogiya” xalqaro ilmiy-metodik jurnal. №6 (8), 2023. – 148-154-betlar
5. Djumaniyazova M.X. Talabalar o‘quv motivatsiyani emperik jihatdan o‘rganilishi// O‘zMU xabarlari. Ilmiy jurnal. 1/7/1 2024. – 82-86-betlar.
6. Печников А.Н., Мухина Г.В. Особенности учебной мотивации курсантов юридических вузов МВД. Психология: итоги и перспективы: Тезисы научно-практической конференции. – СПб.: ЛГУ, 1996. – 328 с.

XORIJIY MAMLAKATLARNING HARBIY TA’LIM VA KADRLAR TAYYORLASHNI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI

Raximov Alisher Sharofidinovich
FarDU Harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘i Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent, podpolkovnik

Annotatsiya: Ushbu maqolamda harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi xorijiy tajriba yo‘nalishlarida Zamonaviy qurolli to‘qnashuv sharoitida barqaror va doimiy nazoratni ta’minlash uchun yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan va shaxsning individual xususiyatlarini rivojlantirgan kadrlar tayyorlashni rivojlantirish tajribasi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: boshqaruv, vazifa, yo‘nalish, ilm-fan, kuch, iroda, ijrochilik, o‘qitish, ta’lim-tarbiya, pedogogik, ishtiyoq, malaka, nazariy, kelajak, adabiyot, sa’nat.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh qo‘mondoni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topgandan beri harbiy kadrlar tayyorlash tizimi masalalariga katta e’tibor qaratgan.

Amaldagi ichki harbiy o‘quv yurtlari yuqori malakali harbiy mutaxassislarni tayyorlashni ta’minlaydigan ta’limning barcha darajalari va bosqichlarini aks ettiradi.

Bugungi kunda kadrlar tayyorlash milliy tizimi, uning miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari doimiy ravishda takomillashib bormoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan yangi o‘quv dasturlari ishlab chiqilib, ularda shaxsiy tarkib bilan ishlashning amaliy yo‘nalishi sezilarli darajada oshirildi.

Harbiy kadrlarni tanlash va tayyorlash tizimida barcha yo‘nalish va darajalarda keng ko‘lamli va maqsadga muvofiq ishlar olib borilmoqda.

Zamonaviy qurolli to‘qnashuv sharoitida barqaror va doimiy nazoratni ta’minlash uchun yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan va shaxsning individual xususiyatlarini rivojlantirgan zobitlar zarur. "Shu bilan birga, "xorijiy tajribani hisobga olgan holda, respublika Qurolli Kuchlari harbiy qo‘mondonlik va boshqaruv organlari

mansabdor shaxslarining tayyorgarlik darajasini baholash metodikasini" takomillashtirish zarur.

Shu munosabat bilan, ayrim xorijiy davlatlarda ofitserlarning harbiy tayyorgarligi xususiyatlarini ko‘rib chiqish o‘rinli ko‘rinadi.

Germaniya

Bundesver (Germaniya) harbiy qo‘mondonligi zobitlarni tayyorlashga ustuvor ahamiyat beradi. Ofitserlikka nomzod 17 yoshdan 25 yoshgacha bo‘lgan, to‘liq bo‘lmagan va to‘liq o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan, tibbiy ko‘rikdan o‘tgan, “ishonchliligi” testi va harbiy xizmatga kasbiy layoqati sinovlaridan o‘tgan Germaniya fuqarosi bo‘lishi mumkin. Ofitserlarga nomzodlarni tanlash Bundesver harbiy xizmatchilari va tinch yoshlar orasidan amalga oshiriladi.

Ofitserlarning harbiy kasbiy ta’limi Bundesver universitetlarida amalga oshiriladi. Talabalar soni Bundesverning bo‘linmalari va bo‘limlari ehtiyojlari bilan aniq belgilanadi. Ta’lim jarayoni ilm-fan, texnika va qurol-yaroq sohasidagi o‘zgarishlarga bevosita bog‘liqdir.

Trening davomida talabalar nazariy, pedagogik mahorat, armiyada xizmat qilish uchun zarur bo‘lgan maxsus bilimlarga ega bo‘ladilar.

Universitetlarda o‘qish kichik miqdordagi guruhlarda bo‘lib o‘tadi, bu esa professor-o‘qituvchilar tarkibiga har bir talabaning tayyorgarligiga ko‘proq e’tibor berish imkoniyatini beradi.

Bundesver tinglovchilari va kursantlari ko‘plab gumanitar fanlarni o‘rganadilar:

xavfsizlik, iqtisodiyot va jamiyat asoslari, harbiy huquq, sotsiologiya, davlat va xalqaro huquq, harbiy geografiya, siyosatshunoslik, xristian axloqi, boshqaruv nazariyasi, falsafa, pedagogika va psixologiya, tarix, shaxsni shakllantirish nazariyasi, jamiyat rivojlanishi nazariyasi, iqtisodiyot, adabiyot va san’at, chettillari va boshqalar.

Ikki yo‘nalish – texnik yoki gumanitar yo‘nalishlardan biriga tegishli kelajakdagi mutaxassislik kaqarab, ushbu fanlarni o‘rganish butun o‘quv vaqtining 25% dan 50% gacha ajratilgan. Qo‘mondon va undan yuqori darajadagi xizmat uchun yuqori malakali ofitserlarning yuqori harbiy kasbiy ta’limi Bundesver harbiy akademiyasida bo‘lib o‘tadi, bu Qurolli Kuchlar xizmatlari xodimlarining ofitserlarini tayyorlashdagi farqlar muammosini hal qilishga va ularni o‘rganishga imkon berdi. "yaxshi" ixtisoslashuv. Har bir kurs uchun kadrlar ofitserlarini tayyorlash quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga olgan o‘ziga xos xususiyatlarni o‘z ichiga oladi:

1) Tayyorgarlikning birinchi bosqichi – Bundesver shtab-kvartirasida xizmat qilish uchun ofitserlarni dastlabki tayyorlash kursi, maxsus tayyorgarlik va malaka oshirish kursi;

2) asosiy kurs (kurs davomiyligi 3,5 oy) Qurolli Kuchlar turidan qat'iy nazar, barcha talabalar tomonidan bitta dastur asosida qabul qilinadi;

3) kurs davlatning harbiy xavfsizligini, qo'shinlarni umumiy tashkil etish va boshqarish tizimini o'rganishni, shuningdek falsafiy tayyorgarlikni ta'minlaydi; bitiruvdan so'ng 1 ta og'zaki va 3 ta yozma imtihon topshiriladi.

4)O'qitishning ikkinchi bosqichi - shtab-kvartirada xizmat ko'rsatish kurslari, katta ofitserlar asosiy tayyorgarlik kursini tugatgandan so'ng kurslarga yuboriladi;

5)bo'linma shtab-kvartirasi tavsiyasiga binoan Germaniya Mudofaa vazirligining ularning boshqarma zobitlarini tanlaydi katta ofitser kadrlarini o'qitish ularning maqsadlarini hisobga oladi.

6)O'qitishning uchinchi bosqichi - maxsus tayyorgarlik va malaka oshirish kurslari (o'quv muddati 10 haftagacha), kurslar yuqori martabali ofitserlar, generallar va admirallarni, shuningdek, NATO shtab-kvartirasida xizmatga tayinlanishidan oldin davlat xizmatchilarini tayyorlaydi. Bundesver akademiyasida har yili barcha kurslarda atigi 2 ming nafargacha ofitser kadrlari va boshqa mamlakatlar bilan harbiy hamkorlik doirasida qabul qilingan bir guruh xorijiy harbiy xizmatchilar yoki tinch aholi o'qishi mumkin.

Hindiston

Tinchlik davrida Hindiston Qurolli Kuchlari diniy mansubligidan qat'i nazar, fuqarolar orasidan ko'ngillilarni jalb qilish orqali qo'shinlar va xizmat shakllarini boshqarish tartibini takomillashtirmoqda.

Qurolli Kuchlarning tegishli tarmoqlarining ofitser kadrlarini tayyorlash harbiy kasbiy ta'limning umumiy qabul qilingan darajasini amalga oshirishga asoslangan:

umumiy ta'lim va boshlang'ich harbiy tayyorgarlik;

Qurolli Kuchlarning barcha tarmoqlari uchun kollej va maktablarda harbiy tayyorgarlik;

asosiy kurslarda qayta tayyorlash va harbiy bilimlarni takomil-lashtirish, shu jumladan malaka oshirish kurslarida xorijiy harbiy o'quv yurtlarida o'qitish.

Abiturientlarni tanlash va Hindiston Qurolli Kuchlarining harbiy ta'lim muassasalarini to'ldirish bolalar harbiy ta'lim muassasalari

bitiruvchilari, Hindiston Kadetlar korpusi, fuqarolik oliy o‘quv yurtlari va kollejlari bitiruvchilari va talabalari hisobidan amalga oshiriladi.

Quruqlik qo‘shinlari kursantlari 3 yil davomida Milliy harbiy akademiyaning (Xadakvasla) armiya kafedrasida yoki quruqlikdagi qo‘shinlar kollejida (Pune) umumiy ta’lim va boshlang‘ich harbiy tayyorgarlikdan o‘tadilar.

O‘quv mashg‘ulotlarini tugatgandan so‘ng kursantlar navbatdagi o‘quv mashg‘ulotlariga Hindiston harbiy akademiyasiga (Dehra Dun) 1-1,5 yillik o‘quv muddati bilan yuboriladi va undan keyin ularga ofitser unvonlari beriladi. Kapitan unvoniga ega va undan yuqori darajadagi ofitserlar, rota komandiri lavozimidan diviziyaga qadar va ularning ijobiy tavsiyalari va attestatsiyalariga ega bo‘lgan va kirish imtihonlarini topshirgan tengdoshlari Qurolli Kuchlarning barcha turlari uchun kollej va maktablarda o‘qiydilar.

Ofitserlar korpusi 2 turga bo‘linadi:

kadrlar xizmati va ofitserlarning nodavlat xizmati. Ofitserlar korpusi Hindistondagi harbiy o‘quv yurtlari bitiruvchilaridan iborat. Ofitserning nodavlat korpusi asosan oliy ma’lumotli va Qurolli Kuchlarda xizmat qilishni istagan fuqarolardan iborat. Bunday holda, tibbiy va texnik ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslarga alohida e’tibor beriladi.

Kanada

Kanada kuchlarining barcha filiallari uchun zobitlar avval Kanada kuchlari qo‘mondonligi va yollash maktabida, alohida Ontario qirollik urush kollejida tayyorlanadi. O‘quv mashg‘ulotidan so‘ng, ular o‘zlarining ixtisosliklari bo‘yicha harbiy xizmatga butun mamlakat bo‘ylab bo‘linadilar. Kanada Qurolli Kuchlari qutqaruv va tadqiqot bo‘linmalari hamda mototeka miltiqlari bo‘linmalarining profes-sionalligi hamda BMTning tinchlikparvar missiyalariga qo‘shgan hissalari bilan mashhur.

Kasbiy ta’limga ko‘maklashish dasturi (MTAP) Kanada hukumati tomonidan 1960-yillarda boshlangan. Shunday qilib, MTAP dasturi yo‘nalishlari bo‘yicha Markaziy, Janubiy Amerika, Karib dengizi, Tinch okeani, Afrika va Yaqin Sharq mintaqalarining rivojlangan mamlakatlari uchun dasturlar to‘plamlari ishlab chiqildi.

Harbiy ta’limga yordam dasturi tinchlikparvarlik operatsiyalarida zarur bo‘lgan ofitserlar va mutaxassislarni tayyorlashda alohida o‘rin tutadi. Xususan, dasturning asosini harbiy kasb-hunar ta’limi va chet elliklarning tillarini o‘rgatish tashkil etadi.

Kanadaning 82 ta harbiy ta’lim muassasalarida har yili 700 ga yaqin tinchlikparvar xizmatchilar ushbu tayyorgarlikdan o‘tadilar. Tilni o‘qitish Sen-Jan va Borden harbiy bazalaridagi chet tillar markazida, ingliz tili o‘qituvchilari uchun uslubiy mashg‘ulotlar Ottava (Kanada) chet tillar maktabida olib boriladi.

Tinchlikparvarlik missiyalari uchun harbiy xizmatchilarni harbiy tayyorgarlik Pirsonnomidagi tinchlikparvar kuchlar maktabida, kuzatuvchilar - BMT tinchlikparvarlik missiyalari ofitserlari Kingston harbiy bazasidagi o‘quv markazida amalga oshiriladi. Ayniqsa, harbiy xizmatchilarning tinchlikparvarligi va tilini o‘qitish uchun harbiy ta’limga ko‘maklashishda xorijiy mamlakatlarning maxsus vakillarining qisqa muddatli kurslarda ishtirok etishini ta’minlaydi:

mudofaa resurslarini boshqarish, davlatlarning harbiy xavfsizligi va harbiy-fuqarolik munosabatlari.

Yaponiya

Yaponiya Qurolli Kuchlari ofitserlarini tayyorlash tizimiga dastlabki tayyorgarlik, qo‘mondonlik va yuqori qo‘mondonlik tarkibidagi ofitserlarni tayyorlash, shuningdek harbiy xizmatchilarning kundalik mashg‘ulotlari davomida olgan bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish kiradi. Zobit kadrlarni dastlabki tayyorlash harbiy universitetlar va harbiy tibbiyot kollejida, shuningdek qurolli kuchlarning turli tarmoqlari ofitserlar maktablarida o‘tkaziladi.

Qo‘mondonlik shtabining ofitserlarini tezkor o‘qitish ofitserlar maktabidagi kurslarda amalga oshiriladi. Kurslarning maqsadi – kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha yosh ofitserlarning bilimlarini oshirish. O‘qishni tugatgandan so‘ng, ofitserlar qo‘shinlarga ular uchun oldindan tayyorlangan lavozimlarda tayinlanadi, ular kurslarga kelishdan oldin egallab olishgan.

Ba’zi bitiruvchilar maxsus tekshiruvdan so‘ng ofitserlik kurslariga oshirilgan harbiy tayyorgarlikka yuboriladi. 45 yoshgacha bo‘lgan katta qo‘mondonlik zobitlari harbiy ilmiy-tadqiqot instituti va qo‘mondonlik-shtat kollejida oliy harbiy ma’lumot olishadi. O‘qish muddati 24-28 hafta.

Shunday qilib, harbiy ofitserlarni tayyorlash bo‘yicha xorijiy tajribani tanlab qiyosiy tahlil qilish natijalari ushbu sohadagi mavjud muammolarni hal qilishning yangi yondashuvlari va usullarini aniqlashga, bunday mashg‘ulotlarda chet el tajribasidan kerakli ma’lumotlarni olishga va xalos bo‘lishga imkon beradi.

Harbiy kasb-hunar ta’limi tizimini rivojlantirish samaradorligini oshirishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolar. Yetakchi xorijiy

mamlakatlarda zamonaviy harbiy kasb-hunar ta’limi tizimini rivojlantirishning asosiy tendentsiyalari quyidagilardan iborat:

ofitserlarning harbiy kasb-hunar ta’limi tizimini tashkil etishga tizimli yondoshish;

harbiy kadrlarni o‘qitish va ularning malakasini oshirishning uzluksizligini ta’minlash;

harbiy tayyorgarlikda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish;

o‘quv jarayonining ilmiy tadqiqot tabiati;

harbiy tayyorgarlikning modulli yo‘nalishi, harbiy oliy o‘quv yurtlari talabalari va kursantlarida yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda harbiy kadr ofitserlarni tayyorlash bo‘yicha xorijiy tajribadan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xorijiy tajribalarga tayangan holda mavjud muammolarni hal qilishning yangicha yondashuvlari va usullarini aniqlashga, bunday mashg‘ulotlarda chet el tajribasidan kerakli bo‘lgan innovatsion usullarni olish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Halq so‘zi, 2020 yil 30 dekabr.
2. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi // https://president.uz/uz/lists/view/3851
3. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi // Xalq so‘zi, 3-soni. - 2017 yil. 10 yanvar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevral kuni tasdiqlangan "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi" Vatanparvar gazetasining № 9 (2760) – soni, 2018 yil 2 mart.

BO‘LG‘USI HARBIY MUTAXASSISLARIDA VATANGA FIDOIYLIK TUSHUNCHALARINI SINGDIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Qo‘chqorov Sobirjon Ahadjonovich
FarDU Harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘ining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari, zahiradagi leytenant

1. Jismoniy tayyorgarlikning nazariy asoslari

Jismoniy tayyorgarlik inson organizmining harakat faoliyatiga tayyorlik darajasini ifodalaydi. Harbiy-akademik litsey o‘quvchilari uchun quyidagi jismoniy sifatlar ustuvor hisoblanadi:

- Kuch – mushaklarning qarshilikni yengish qobiliyati;
- Chidamlilik – uzoq vaqt davomida jismoniy yuklamaga bardosh berish;
- Tezkorlik – harakatlarni tez va aniq bajarish;
- Epchillik – murakkab harakatlarni muvofiqlashtirish;
- Moslashuvchanlik – harakat amplitudasining kengligi.

Mazkur sifatlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, kompleks ravishda rivojlantirilishi lozim.

2. Jismoniy tayyorgarlikni rejalashtirish va boshqarish

Mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish uchun ularni to‘g‘ri rejalashtirish muhimdir. Rejalashtirish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- Yillik reja tuzish;
- Oylik va haftalik mashg‘ulot rejalarini ishlab chiqish;
- Yuklama hajmi va intensivligini belgilash;
- Nazorat va tahlil.

Rejalashtirish jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlari hisobga olinishi lozim.

3. Mashg‘ulotlarni ilmiy asosda tashkil etish

Mashg‘ulotlarni tashkil etishda quyidagi tamoyillar muhim hisoblanadi:

- Muntazamlilik;
- Izchillik;
- Individual yondashuv;
- Tiklanish jarayonlarini ta’minlash.

Shuningdek, mashg‘ulotlar davomida yurak-qon tomir tizimi va nafas olish tizimiga tushadigan yuklama nazorat qilinishi zarur.

4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Jismoniy tarbiya darslarida quyidagi innovatsion yondashuvlar samarali hisoblanadi:

- Interaktiv metodlar;
- Musobaqa asosidagi mashg‘ulotlar;
- Axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- Motivatsion treninglar.

Bu usullar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va natijadorlikni ta’minlaydi.

5. Harbiy-amaliy mashqlar tizimi

Harbiy-amaliy mashqlar jismoniy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- To‘siqlardan o‘tish yo‘laklari;
- Marsh tashlash;
- Qurollar bilan bajariladigan mashqlar;
- Jamoaviy harakatlar.

Bu mashqlar o‘quvchilarda tezkorlik, chidamlilik va muvofiqlashtirishni rivojlantiradi.

6. Psixologik tayyorgarlik va motivatsiya

Jismoniy tayyorgarlik jarayonida psixologik omillar muhim rol o‘ynaydi. Motivatsiya darajasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar yuqori natijalarga erishadilar. Shu sababli:

- Rag‘batlantirish tizimi joriy etilishi;
- Psixologik treninglar o‘tkazilishi;
- Ijobiy muhit yaratilishi zarur.

7. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish

Jismoniy tayyorgarlik samaradorligi sog‘lom turmush tarziga bevosita bog‘liq. Quyidagi omillar muhim:

- To‘g‘ri ovqatlanish;
- Uyqu rejimi;
- Zararli odatlardan voz kechish;
- Faol dam olish.

8. Nazorat va baholash tizimi

Jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun quyidagi usullar qo‘llaniladi:

- Normativ testlar;
- Monitoring;
- Diagnostika;
- Tahlil va prognozlash.

Nazorat natijalari asosida mashg‘ulotlar tizimi takomillashtiriladi.

9. Xavfsizlik choralari

Mashg‘ulotlar jarayonida xavfsizlik qoidalariga qat’iy rioya qilish zarur:

- Mashg‘ulotdan oldin badanni qizdirish;
- Jihozlardan to‘g‘ri foydalanish;
- Murabbiy nazorati;
- Jarohatlarning oldini olish.

Xulosa

Harbiy-akademik litsey o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligini oshirish kompleks yondashuvni talab etadi. Ilmiy asoslangan mashg‘ulotlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, harbiy-amaliy mashqlar va sog‘lom turmush tarzini uyg‘unlashtirish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Mazkur yondashuvlar orqali kelajakdagi harbiy xizmatchilarning jismoniy va ruhiy salohiyatini yanada mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Normurodov A.N. Jismoniy tarbiya. – Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2011. (АКБТ)
2. Ahmedov F.N. Jismoniy tarbiya o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2015. (web-journal.ru)
3. Axmatov M.S. Uzluksiz ta’lim tizimida ommaviy sport-sog‘lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. – Toshkent, 2005. (web-journal.ru)
4. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. – Toshkent, 2005. (web-journal.ru)
5. Pirnafasova R.R. Akademik litseylarda jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini tashkil qilish usullari. – 2024. (universalpublishings.com)
6. Jismoniy tarbiya darslarida zamonaviy ta’lim berish usullari. – Modern Science and Research, 2024. (Библиотека)
7. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘quv qo‘llanma). – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi nashri.
8. Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.
9. Jismoniy tarbiya dasturi (umumta’lim va akademik litseylar uchun). (soff.uz)
10. Jismoniy tarbiya asoslari (ilmiy-nazariy manbalar). (UzPedia)
11. Harbiy tayyorgarlik va jismoniy tayyorgarlik o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘yicha ilmiy maqolalar. (soff.uz)

HARBIY TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QUV JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

Doschanov Damir Rahimovich

Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyi direktorining ma’muriy xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosari

Annotatsiya: Mazkur tezisda harbiy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar asosida o‘quv jarayonini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Harbiy ta’limda elektron ta’lim platformalari, multimedia vositalari, virtual simulyatorlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish va zamonaviy harbiy mutaxassislarni tayyorlashning muhim jihatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy ta’lim, raqamli texnologiyalar, innovatsion yondashuv, multimedia, simulyator, masofaviy ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta’lim.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы совершенствования учебного процесса в системе военного образования на основе цифровых технологий. Проанализированы преимущества использования электронных образовательных платформ, мультимедийных средств, виртуальных симуляторов и информационно-коммуникационных технологий в военном обучении. Также рассмотрены важные аспекты повышения эффективности обучения и подготовки современных военных специалистов с помощью цифровых технологий.

Ключевые слова: военное образование, цифровые технологии, инновационный подход, мультимедиа, симулятор, дистанционное обучение, информационно-коммуникационные технологии, электронное обучение.

Abstract: This thesis discusses the issues of improving the educational process in the military education system based on digital technologies. The advantages of using e-learning platforms, multimedia tools, virtual simulators, and information and communication technologies in military education are analyzed. In addition, important aspects of increasing educational efficiency and training modern military specialists through digital technologies are considered.

Keywords: military education, digital technologies, innovative approach, multimedia, simulator, distance learning, information and communication technologies, e-learning.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonida harbiy ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish harbiy mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy harbiy ta’lim tizimi an’anaviy o‘qitish usullaridan tashqari innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga tayangan holda tashkil etilmoqda.

Harbiy ta’lim muassasalarida elektron ta’lim platformalaridan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Elektron darsliklar, videoma’ruzalar, interaktiv topshiriqlar va onlayn

test tizimlari kursantlarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, masofaviy ta’lim texnologiyalarining rivojlanishi harbiy ta’limni uzluksiz tashkil etish imkonini bermoqda. Bu esa o‘quv materiallaridan istalgan vaqt va joyda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Harbiy ta’limda virtual simulyatorlar va multimedia texnologiyalarining qo‘llanilishi alohida ahamiyatga ega. Chunki jangovar holatlar yoki harbiy texnikalarni real sharoitda o‘rganish ko‘p mablag‘ va xavfsizlik choralarini talab etadi. Virtual simulyatorlar esa kursantlarga turli vaziyatlarni modellashtirish orqali amaliy tajriba hosil qilish imkonini beradi. Natijada o‘quvchilarning tezkor fikrlashi, vaziyatni tahlil qilishi va qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida bilimlarni nazorat qilish va baholash tizimi ham takomillashmoqda. Elektron test tizimlari, avtomatlashtirilgan monitoring va tahlil dasturlari o‘quvchilarning bilim darajasini aniq va tezkor baholash imkonini beradi. Bu esa inson omilini kamaytirib, baholashning xolisligi va shaffofligini ta’minlaydi.

Bugungi kunda sun’iy intellekt elementlarini harbiy ta’lim tizimiga joriy etish bo‘yicha ham izlanishlar olib borilmoqda. Sun’iy intellekt asosidagi dasturlar kursantlarning bilim darajasini tahlil qilish, individual yondashuv asosida o‘quv materiallarini tavsiya etish hamda o‘quv jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. Bu esa harbiy kadrlarni tayyorlash sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Harbiy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish va zamonaviy harbiy mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bois harbiy ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va ulardan samarali foydalanish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Muhokama. Harbiy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi o‘quv jarayonining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni interfaol tashkil etish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa kursantlarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirib, mustaqil fikrlash va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, virtual simulyatorlar va multimedia vositalaridan foydalanish an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan samaraliroq natijalarni beradi. Chunki bunday texnologiyalar orqali murakkab

harbiy jarayonlarni xavfsiz va qulay muhitda modellashtirish mumkin. Natijada kursantlar real vaziyatlarga yaqin sharoitlarda tayyorgarlik ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Biroq, raqamli texnologiyalarni harbiy ta’lim tizimiga joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, barcha ta’lim muassasalarida zamonaviy texnik vositalarning yetarli emasligi, yuqori tezlikdagi internet tarmog‘i bilan to‘liq ta’minlanmaganligi hamda pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu sababli harbiy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va professor-o‘qituvchilarning AKT bo‘yicha malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, sun’iy intellekt va adaptiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish istiqbolda harbiy ta’lim samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi. Bu texnologiyalar orqali har bir kursantning bilim darajasini individual tahlil qilish va unga mos o‘quv materiallarini tavsiya etish mumkin bo‘ladi. Natijada ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv kuchayadi.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar harbiy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish hamda zamonaviy harbiy mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa. Harbiy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zamonaviy ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Elektron ta’lim platformalari, multimedia vositalari, virtual simulyatorlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, kursantlarning nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida bilimlarni nazorat qilish va baholash tizimining avtomatlashtirilishi ta’lim jarayonining xolisligi va shaffofligini ta’minlaydi. Sun’iy intellekt va zamonaviy dasturiy vositalarning qo‘llanilishi esa individual yondashuv asosida sifatli harbiy mutaxassislarni tayyorlash imkonini yaratadi.

Natijada harbiy ta’lim tizimida innovatsion va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish zamonaviy, raqobatbardosh hamda professional harbiy kadrlarni tayyorlashning muhim omili bo‘lib

xizmat qiladi. Shu sababli ushbu yo‘nalishda ilmiy-amaliy izlanishlarni kengaytirish va zamonaviy texnologiyalarni ta’lim tizimiga izchil tatbiq etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim va axborot texnologiyalarini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining harbiy ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha qarorlari.
4. Muslimov N.A. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2019.
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. *Ta’limda innovatsion texnologiyalar*. – Toshkent, 2021.
6. Azizxo‘jayeva N.N. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat*. – Toshkent, 2018.
7. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. *Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish*. – Toshkent, 2020.
8. Qosimov S. *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim tizimi*. – Toshkent, 2022.
9. Karimov I., Rasulov B. *Harbiy pedagogika asoslari*. – Toshkent, 2021.
10. Xudoyberdiyev A. *Raqamli ta’lim muhitini tashkil etish metodikasi*. – Toshkent, 2023.

HARBIY LITSEY O‘QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH

Sadikova Sevara Salayevna

Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi matematika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy litsey o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mazmun-mohiyati, ahamiyati va asosiy yo‘nalishlari yoritilgan. Muallif tomonidan vatanparvarlik tushunchasining pedagogik va ma’naviy jihatlari tahlil qilinib, yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashning samarali usullari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, maqolada harbiy ta’lim muassasalarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar, o‘qituvchi va murabbiylarning ro‘li, oila hamda jamiyatning ta’siri keng yoritilgan. Ushbu ish harbiy litsey

o‘quvchilari, pedagoglar va tarbiyachilar uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, vatanparvar avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Abstract. This article covers the essence, importance and main directions of educating military lyceum students in the spirit of patriotism. The author analyzes the pedagogical and spiritual aspects of the concept of patriotism and shows effective methods for educating young people in the spirit of loyalty to the Motherland. The article also extensively covers the educational work carried out in military educational institutions, the role of teachers and mentors, and the influence of family and society. This work is of practical importance for military lyceum students, teachers and educators, and serves to educate a patriotic generation.

Аннотация. В данной статье рассматриваются сущность, значение и основные направления воспитания учащихся военных лицеев в духе патриотизма. Автор анализирует педагогические и духовные аспекты понятия патриотизма и показывает эффективные методы воспитания молодежи в духе верности Родине. В статье также подробно освещается образовательная работа, проводимая в военных учебных заведениях, роль учителей и наставников, а также влияние семьи и общества. Данная работа имеет практическое значение для учащихся, учителей и педагогов военных лицеев и служит воспитанию патриотического поколения.

Kalit so‘zlar

Vatanparvarlik, harbiy litsey, tarbiya, yoshlar, ma’naviyat, milliy qadriyatlar, harbiy ta’lim, intizom, mas’uliyat, Vatanga sadoqat, mafkuraviy immunitet, jismoniy tayyorgarlik, pedagogika, tarbiyaviy ishlar, jamiyat va oila, yosh avlod, milliy ong, fidoyilik.

Kirish

Globallashuv sharoitida davlat barqarorligi va taraqqiyoti ko‘p jihatdan yosh avlodning ma’naviy yetukligi va fuqarolik pozitsiyasiga bog‘liq [1]. Ayniqsa, harbiy litsey o‘quvchilari kelajakda Vatan himoyachilari sifatida shakllanishi sababli, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi. Vatanparvarlik — bu faqat hissiy kechinma emas, balki shaxsning ongli ravishda Vatan manfaatlarini ustuvor qo‘yishi, uning tinchligi va mustaqilligini himoya qilishga tayyorligi bilan ifodalanadigan ijtimoiy-axloqiy fazilatdir [3]. Vatanparvarlik insonning o‘z yurtiga bo‘lgan muhabbati, sadoqati va fidoyiligidir. Bu tuyg‘u bolalikdan shakllanib, tarbiya jarayonida

mustahkamlanadi. Harbiy litsey o‘quvchilari uchun vatanparvarlik davlat ramzlariga hurmat, harbiy intizom, o ‘zaro do‘stona munosabat , mas’uliyat va fidoyilik orqali namoyon bo‘ladi. Harbiy litseylarda vatanparvarlik tarbiyasining ahamiyati juda ham dolzarb bo‘lib, bu joylar kelajak ofitserlarini tayyorlaydigan muhim maskan hisoblanadi. Bu yerda beriladigan tarbiya o‘quvchilarning nafaqat bilimini, balki ma’naviy dunyoqarashini ham boyitadi. Bunda litsey jamoasi, ustozlar, kutubxona kabi bo‘g‘inlar vatanparvarlikni, milliy ongni shakllantirishga xizmat qiladi. Litsey hayoti uydan uzoqda yashashga, mustaqil bo‘lishga, o’zini shaxs sifatida hayoti uchun javobgarligini anglashiga, mustaqil qarorlar qabul qilishiga, har qanday sharoitlarga tez moslashish, qiyin vaziyatlarda o‘ziga ishonish tuygusini oshirishga, kelajagi uchun maqsadlar qo‘yishga, mas’uliyat hissini oshiradi, jasorat va qat’iyatni rivojlantiradi hamda jamoaviylikni mustahkamlaydi. Vatanparvarlik tarbiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri tarixiy bilimlar orqali tarbiya bo‘lib, ajdodlarimiz jasorati va milliy tarixni o‘rganish orqali o‘quvchilarda faxr tuyg‘usi shakllanadi. Vatanparvarlik tarbiyasi asli oilada boshlanadi. Milliy qadriyatlarni singdirilishi dastlab oilaning shu bilan birga ta’lim davomida esa o‘qituvchi va murabbiylarning ro‘li beqiyos. Murabbiylar o‘quvchilar uchun eng katta namuna hisoblanadi. Ular nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiya qiluvchilar hamdir. Ularning halolligi, fidoyiligi va talabchanligi o‘quvchilarga bevosita ta’sir qiladi. Fikrlash dunyosiga, nutq madaniyatiga, har taraflama yetuk insonlar bo‘lib yetishtirishlarida ustozlarning hissalari benazirdir.

Litseyda ertalabdan vatanparvarlikni oshiruvchi musiqalar yangraydi buning ijobiy tomonlari ancha. Saf maydonida jangovor shaylikni oshiruvchi ‘‘Vatan’’, ‘‘Dushman’’, ‘‘Askar’’ kabi chorlov she’rlari va madhiya ularni milliy g’ururini ko’taradi. Shuningdek harbiy qadriyatlarni singdirish orqali harbiy marosimlar va tartib-intizomlarga mas’uliyat hissini yanada kuchaytiriladi. Harbiy litseylarda vatanparvarlik tarbiyasi tizimli va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u bir nechta muhim yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Birinchidan, tarixiy ongni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ajdodlar jasorati va milliy merosni o‘rganish o‘quvchilarda milliy g‘urur va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini mustahkamlaydi [3]. Ikkinchidan, o‘qituvchi va murabbiylarning shaxsiy namunasi asosiy tarbiyaviy omil hisoblanadi. Ularning kasbiy mahorati, halolligi va fidoyiligi o‘quvchilar uchun

muhim motivatsion manba bo‘lib xizmat qiladi [5]. Uchinchidan, oila va jamiyatning ta’siri muhim o‘rin tutadi. Oila tarbiyaning birlamchi muhitidir va unda shakllangan qadriyatlar keyinchalik shaxsning mustahkam e’tiqodiga aylanadi [8]. Harbiy muhitning o‘ziga xos jihatlari — intizom, tartib, harbiy marosimlar va jamoaviy faoliyatlar o‘quvchilarda mas’uliyat va fidoyilikni kuchaytiradi [7]. Turli tadbirlar, jumladan, harbiy qismlarga tashriflar, faxriylar bilan uchrashuvlar, sport musobaqalari vatanparvarlik ruhini oshiradi. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlardan insholar tanlovi, uchrashuvlar va tadbirlar orqali o‘quvchi-larning dunyoqarashi kengaytiriladi. Bugungi kunda zamonaviy texnologiya-lardan foydalanishda vatanparvarlikni filmlar va multimedia vositalari orqali ta’sir kuchini oshirish mumkin. O‘z navbatida jismoniy tayyorgarlik — sog‘lom va chiniqqan yoshlarni har qanday vazifani ongli qarorlar bilan bajarishga tayyor qilib o‘stiradi.

Bugungi kunda yoshlar turli axborot oqimlari ta’sirida qolmoqda. Shu sababli ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va milliy qadriyat-larga sodiqlikni mustahkamlash muhimdir. Bugungi tahlikali zamonda harbiy ta’lim shunchaki bilim berish jarayoni emas, balki "ongli sadoqat"ni shakllantirish poligonidir. Yangi O‘zbekistonning mudofaa qudrati ta’limning sifatiga, amaliyotning aniqligiga va tarbiya-ning ustunligiga tayanadi. Matematika fani bu zanjirda markaziy o‘rin tutadi: u ta’lim orqali mantiqni, amaliyot orqali ko‘nikmani va tarbiya orqali vatanparvarlik mas’uliyatini birlashtiradi. Litseyda berilayotgan asosiy fanlar jumladan fundamental bilimlar bo‘lg‘usi ofitserning Vatan oldidagi xizmatini yuqori aniqlikda bajarishini ta’minlaydi. Ta’limda olingan nazariy bilim amaliyot bilan birlashganda, kursantda tarbiya ustunligi tufayli "xatosizlik mas’uliyati" shakllanadi. Shu bilan birga, matematik mantiq kursantda axborot xurujlariga qarshi "Mantiqiy immunitet"ni yaratadi. Kursant har qanday mafkuraviy manipulyatsiyani mantiqiy tahlil qilib, uning yolg‘onligini matematik aniqlikda isbotlay oladi. Differensial tenglamalar va funksiyalar nishonni birinchi zarbadayoq yo‘q qilish, o‘q-dorilarni tejash va vazifani talofatsiz bajarish imkonini beradi. Trigonometrik o‘lchovlar GPS tizimlari ishdan chiqqan sharoitda ham qo‘shinni xarita va koordinatalar yordamida adashmasdan olib yurishni kafolatlaydi. Grafiklar nazariyasi ofitserga qo‘shinlarni yoqilg‘i va oziq-ovqat bilan ta’minlashda eng xavfsiz va qisqa yo‘nalishlarni hisoblashga yordam beradi. Sonlar nazariyasi va kriptografiya maxfiy harbiy ma’lumotlarning dushman xakerlaridan himoya qilinishini ta’minlaydi. Insoniyat sivilizatsiyasi bugun o‘ta

qaltis nuqtada. Global xavfsizlik endi faqat diplomatiya emas, balki harbiylarning algoritmik va ma’naviy mukammalligiga bog‘liq. Ta’lim va amaliyot o‘rtasidagi masofa qanchalik qisqa, tarbiya esa qanchalik ustuvor bo‘lsa, harbiy tizim shunchalik barqaror bo‘ladi. Bilimli ofitser — bu global falokatlarning oldini oluvchi intellektual va axloqiy filtrdir.

Xulosa.

Harbiy litsey o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhim va mas’uliyatli jarayon bo‘lib, bunda ta’lim muassasasi, oila va jamiyat hamkorligi zarur. Vatanparvar yoshlar — davlatning mustahkam tayanchi va kelajagidir. Zero Insoniyat sivilizatsiyasi bugun o‘ta qaltis nuqtada. Global xavfsizlik endi faqat diplomatiya emas, balki harbiylarning algoritmik va ma’naviy mukammalligidadir. Maqola davomida zamonaviy tahdidlar sharoitida yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda milliy qadriyatlar va an’analarga hurmat tuyg‘usini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratish zarur. Shu bilan birga, globallashuv jarayonida turli yot g‘oyalar va axborot xurujlariga qarshi ongli munosabatni shakllantirish, yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini kuchaytirish muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. **Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida**. – Toshkent, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. **“Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi to‘g‘risida**. – Toshkent, 2018.
3. Islom Karimov. **Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch**. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
4. Shavkat Mirziyoyev. **Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz**. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
5. Abdullayeva Q. **Pedagogika nazariyasi va amaliyoti**. – Toshkent, 2019.
6. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. **Zamonaviy pedagogik texnologiyalar**. – Toshkent, 2020.
7. To‘raqulov X. **Harbiy pedagogika asoslari**. – Toshkent, 2018.
8. Musurmonova O. **Oila pedagogikasi**. – Toshkent, 2017.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. **Harbiy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi**. – Toshkent, 2021.

CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK O‘QUV FANINI O‘QITISHNING AHAMIYATI

B. Miskinov
Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faol-lashtirish, bu boradagi ta’lim-tarbiyaviy ishlarga mamlakatimiz fuqaro-larini, oliy bilim yurtlaridagi professor va oqituvchilarini yanada faol jalb etish va talabalar ongiga harbiy-vatanparvarlik, mardlik tuyg‘ularini singdirish, talabalarimizning o‘z Vatanga bo‘lgan mehr tuyg‘ularini yanada oshirish, ularning nostandart vaziyatlarda tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qila olishi, fikirlash va dunyoqarashlarini kengaytirish, ajdodlar tarixi va madaniyati, milliy qahramonlar bilan faxirlanish hissi va ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakillantirishga bag‘ishlangan.

Kalit so’z: Qurolli Kuchlar, Vatanparvar, Davlat ta’lim standartlari, jangavor texnika.

Annotation: This article is devoted to improving the effectiveness and intensification of activities aimed at educating students in the spirit of military patriotism. It highlights the importance of actively involving citizens of our country, as well as professors and teachers of higher educational institutions, in educational processes. The study focuses on instilling in students a sense of patriotism, courage, and devotion to the Motherland, strengthening their love for the country, and developing their ability to make quick and correct decisions in non-standard situations. Additionally, it emphasizes broadening students’ thinking and worldview, fostering pride in national history, culture, and heroes, and forming a sense of responsibility to be worthy of them.

Keywords: Armed Forces, patriotism, state educational standards, military equipment.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы повышения эффективности и активизации работы по воспитанию студентов в духе военного патриотизма. Особое внимание уделяется привлечению граждан страны, а также профессорско-преподавательского состава высших учебных заведений к образовательному процессу. В работе подчеркивается важность формирования у студентов чувства патриотизма, мужества и преданности Родине, укрепления их любви к Отечеству, а также развития способности принимать быстрые и правильные решения в нестандартных ситуациях. Кроме того, рассматриваются вопросы расширения мышления и мировоззрения студентов, воспитания

гордости за историю, культуру и национальных героев, а также формирования стремления быть достойными их.

Ключевые слова: Вооружённые силы, патриотизм, государственные образовательные стандарты, военная техника.

KIRISH


Vatanparvarlik tushunchasi

Vatanparvarlik – kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalovchi tushuncha. O‘z vatani, ona yurti, halqini cheksiz sevuvchi, Vatan manfaatlari uchun jonbozlik, ya’ni vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biridir.



Harbiy-vatanparvarlik tushunchasi

Vatanparvarlik va harbiy-vatanparvarlik bir-birining o‘rnini bosuvchi tushunchalardir. Vatanga nisbatan e’tiqodi mustahkam insongina uni sevadi, ardoqlaydi va har qanday favqulotda holatda uni himoya qilishga tayyor turadi. Shunday ekan, xalq Vatan himoyasiga doim tayyor turgan haqiqiy harbiy vatanparvarga, Vatan manfaatlarini ustun qo‘yganlarga ishonch bildiradi. Harbiy-vatanaparvarlik mafkuraviy, harbiy, texnik va jismoniy tayyorgarlik bilan rivojlanadi.



Talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — bu millati, tili va kasbidan qat’i nazar, talabalarda Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish, ularni o‘z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarining ko‘p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

2. Quyidagilar Konsepsiyaning asosiy vazifalari etib belgilansin:

yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish;

milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma’nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O‘zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash;

yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro‘y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko‘nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash;

O‘zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo‘lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta’sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bir oy muddatda Konsepsiya asosida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning hududiy kompleks dasturlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

4. Dasturning bajarilishi uchun mas’ul bo‘lgan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar, shu jumladan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tegishli chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini tashkil etsinlar hamda yilning har choragi birinchi oyining beshinchi sanasigacha bo‘lgan muddatda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga ularning bajarilishi to‘g‘risidagi hisobotlarni taqdim etsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi:

Dasturni bajarish yuzasidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish hamda uning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi yuzasidan tizimli nazorat o‘rnatilishini ta’minlasin;

Dasturni bajarilishi yuzasidan yilning har choragi birinchi oyining o‘ninchi sanasigacha bo‘lgan muddatda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobotlarni taqdim etsin;

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri A.A. Azizov zimmasiga hamda Vazirlar Mahkamasining Madaniyat, san’at va yoshlar siyosati masalalari axborot-tahlil departamentiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2018-yil 23-fevral,
140-son

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-son qaroriga
1-ILOVA

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash
KONSEPSIYASI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda Konsepsiya deb ataladi) mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari va asosiy prinsiplari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog‘liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo‘llari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, oila, mahalla, ta’lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o‘zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi.

2. Mazkur Konsepsiyada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga jismonan va ma’nan sog‘lom avlodni tarbiyalashga oid yaxlit ta’lim-tarbiya tizimining uzviy va ajralmas qismi sifatida qaralib, O‘zbekiston Respublikasini 2017 — 2021-yillarda rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi talablari asosida milliy va jahondagi ilg‘or tajribalar, bugungi O‘zbekiston hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda takomillashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

3. Ona-Vatanimizni ko‘z qorachig‘idek asrash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog‘liq eng muhim tushunchalar, hayotiy va professional ko‘nikmalarni ilm-ma’rifat asosida yoshlarning qalbi va ongiga ilk bolalik davridan boshlab singdirib borish orqali O‘zbekistonning haqiqiy vatanparvar fuqarolarini tarbiyalash Konsepsiyaning asosiy mazmunini tashkil etadi.

4. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — bu millati, tili va kasbidan qat’i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish, ularni o‘z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyat-larini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarining ko‘p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

2-bob. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi va asosiy vazifalari

5. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo‘lish,

ularda o‘z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas’uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

6. Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish;

milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma’nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O‘zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash;

yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro‘y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko‘nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash;

O‘zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo‘lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta’sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish.

3-bob. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi va uning asosiy prinsiplari

7. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi uzluksiz jarayon bo‘lib, u bir-biriga bog‘liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g‘oyaviy-mafkuraviy, madaniy-ma’rifiy tadbirlar majmuasidan iborat.

8. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Qurolli Kuchlarning umumharbiy nizomlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq olib boriladi.

(8-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

9. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari muntazam ravishda tizimli va ilmiy asosda tashkil etiladi.

10. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi quyidagilardan iborat:

ta’lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatga molik qadriyatlarni, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalari;

ommaviy va harbiy-vatanparvarlik ishlarini amalga oshiradigan davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek boshqa tashkilotlar.

11. Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

ilmiylik;

tarixiylik;

aniqlik va tezkorlik;

muntazamlilik;

faollik;

ta’lim va tarbiya ishlarining uyg‘unligi;

tarbiya jarayonining izchilligi;

harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanish.

4-bob. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning usul va shakllari

12. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari yoshlarda zarur hayotiy bilim, ko‘nikma, mahorat va mustahkam irodani, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan omillardan iborat.

Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning usullari hisoblanadi:

ishontirish;

mashq qildirish va mustaqil ishlash;

kuzatish;

rag‘batlantirish;

o‘rnak ko‘rsatish va shaxsiy namuna.

13. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash turli shakllarda, jumladan, ilmiy-amaliy anjumanlar, savol-javob kechalari,

kitobxonlik, o‘yinlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar tarzida va boshqa shakllarda tashkil etiladi. Ular ma’naviy-ma’rifiy ishlarning rang-barangligini ta’minlaydi, pirovard natijada jamiyatda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bunda quyidagi shakllar ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi:

ma’ruza o‘qish, savol-javob kechalari, yakka va jamoaviy suhbatlar;

boy hayotiy tajribaga ega bo‘lgan harbiy xizmatchi va faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda g‘olib bo‘lishgan shaxslar bilan uchrashuvlar;

ilmiy-nazariy va amaliy konferensiyalar, seminar-treninglar, muayyan mavzuga bag‘ishlangan kechalar, bahs-munozaralar, viktorina-lar, davra suhbatlari;

to‘plangan ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish;

jamoatchilik fikri va harbiy jamoalardagi ma’naviy-ruhiy muhitni o‘rganish;

teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar, film va multfilmlar, badiiy va musiqiy asarlar, askar qo‘shiqlari, ommaviy axborot vositalari, veb-sayt-lar va elektron o‘yinlar va boshqa texnik vositalardan foydalanish;

urush va mehnat faxriylari, jangovar harakatlar ishtirokchilari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish;

harbiy xizmatga chaqiriluvchilar kuni, mardlik saboqlarini o‘tkazish va ekskursiyalar uyushtirish.

5-bob. Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning bosqichlari va yo‘nalishlari

14. Davlat yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini tashkil etish, uning natijalari monitoringini yuritishni ta’minlaydigan asosiy institut hisoblanadi. Davlat yosh avlodning tarbiya jarayonini oilada, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalarida, harbiy xizmat davomida, shuningdek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, turli davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari doirasida tashkil etadi.

15. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari quyidagi to‘rt bosqichda amalga oshiriladi:

a) birinchi bosqich (3 — 7 yoshdagilar) atrofdagi olam, Vatan haqida dastlabki tasavvurlar paydo bo‘ladigan bosqich hisoblanib, unda oila va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga turli she’rlar, kuy va qo‘shiqlar o‘rgatish, multfilm va turli o‘yinlar namoyish etish, rasmlar chizish orqali dunyoni anglash, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya)

bilan tanishish asosida ularda ona-yurtga muhabbatni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqichda quyidagilarga asosiy e’tibor qaratiladi:

(15-bandning “a” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 320-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021-y., 09/21/320/0482-son)

harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishida dastlabki tasavvurlarni shakllantirish maqsadida ertak va hikoyalar aytib berish;

ona-Vatanga muhabbat, Vatan himoyasi muqaddas burch ekani bilan bog‘liq mavzulardagi she’r va qo‘shiqlarni yod oldirish;

bolalarning tasavvurini kengaytirishga doir rasmlar chizdirish va jismoniy qobiliyatini mustahkamlash uchun turli musobaqa va tanlovlar tashkil etish, shu orqali ularni ma’naviy rag‘batlantirish;

harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi multfilmlar namoyish etish va turli o‘yinlar o‘tkazish;

harbiy muzeylar va harbiy-vatanparvarlik mavzusi bilan bog‘liq madaniyat va istirohat bog‘lariga ekskursiyalar uyushtirish;

b) ikkinchi bosqichda (7 — 16 yoshdagilar) o‘quvchilarning Vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash, ona-yurt oldidagi farzandlik burchini yuksak mas’uliyat bilan bajarish, ularda Qurolli Kuchlarimizga bo‘lgan ijobiy fikrlarni yanada kengaytirish, harbiy xizmat nufuzini ko‘tarish, yoshlarning jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk, keng dunyoqarashli, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish kabi ezgu ishlarga da’vat etiladi. Bu bosqichda:

zamonamiz qahramonlari haqidagi maqolalar, badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishida madaniy-ma’rifiy tadbirlar, mavzuli kechalar va qo‘shiq tanlovlari tashkil etish, spektakllardan lavhalar namoyish qilish;

o‘quvchi yoshlar ishtirokida “Vatanimni ko‘z qorachig‘idek asrayman”, “Yurt taqdiri — mening taqdirim” mavzularida insholar tanlovini tashkil etish;

sog‘lomlashtirish oromgohlarida “Temurbekning izdoshlari”, “O‘zbekiston farzandlari botir bo‘lur” kabi mavzularda sport musobaqalari va tadbirlar tashkil etish;

harbiy-vatanparvarlik mavzusida badiiy va hujjatli filmlar, multfilmlar namoyish etish va ularning muhokamasini o‘tkazish;

darslik va o‘quv-metodik qo‘llanmalarga buyuk sarkarda-larimizning hayoti va faoliyati haqidagi ma’lumotlarni kiritish, ularning

jasorati, fidoyiligi va qahramonliklari to‘g‘risida yorqin misollar asosida hikoya qilib berish;

Temurbeklar maktablari, oliy harbiy ta’lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning maxsus guruhlari va harbiy qismlarga ekskursiyalar tashkil etish;

“Mard o‘g‘lon” davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan yurtdoshlarimiz bilan uchrashuvlar o‘tkazish, ular erishgan yutuq va natijalarni yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish;

umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilari ishtirokida “Temurbek vorislari” harbiy-sport o‘yinlarini bosqichma-bosqich tashkil etishga alohida ahamiyat berish;

v) uchinchi bosqich (16 — 18 yoshdagilar) yoshlarda Vatanga va uning himoyasi uchun munosib xizmat qilishga ruhan va jismonan tayyorlikni ta’minlashga yo‘naltiriladi. Mazkur bosqichda yuqoridagi vazifalarga qo‘shimcha ravishda quyidagi masalalarga e’tibor qaratiladi:

yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, harbiy xizmatga nisbatan ularning mustaqil fikri va ijobiy qarashlarini shakllantirish, vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirib borish;

o‘quvchi yoshlarning nazariy va amaliy bilim va ko‘nikmalarini boyitish maqsadida mudofaa ishlari bo‘limlari va harbiy qismlar, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda turli sermazmun va qiziqarli tadbirlar tashkil etish;

milliy armiyamiz uchun jismonan baquvvat va ma’nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmatning ahamiyati, Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlar haqida batafsil ma’lumot berib borish;

g) to‘rtinchi bosqich (18 — 30 yoshdagilar) yoshlarning jismoniy va ma’naviy qobiliyati, yetakchilik ko‘nikmalari va intellektual salohiyati, umumiy va professional malakasini oshirish, ularni o‘z ustida muntazam ishlash, sog‘lom hayot kechirishga undash va shunga erishishni nazarda tutadi. Ushbu bosqichda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish talab etiladi:

yosh avlodni har tomonlama yetuk, intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak, ota-ona va Vataniga sadoqatli insonlar etib tarbiya-lashning ahamiyati to‘g‘risidagi tasavvur va bilimlarni yanada boyitish;

Vatan himoyasiga doimo tayyor bo‘lish va Qurolli Kuchlar safida xizmat burchini o‘tayotgan yoshlar bilan faxrlanish, konstitutsion burch va Vatanga qasamyodga sodiqlik tuyg‘ularini shakllantirish;

(15-bandning “g” kichik bandi uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-martdagi 179-sonli

qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.03.2020-y., 09/20/179/0350-son)

harbiy xizmat sharoitlariga moslashish va harbiy ixtisosliklarni puxta egallash, har qanday qiyinchilikka tayyor turish, matonat va jasorat fazilatlarini mustahkamlash, qurol-aslaha, harbiy texnika, davlat va harbiy mulkni asrab-avaylash ko‘nikmalarini rivojlantirish;

jangovar tayyorgarlik va harbiy mahoratni muntazam oshirib borish, harbiy jamoada qaror topgan o‘zaro yordam va do‘stona munosabatlarni qadrlash kabi fazilatlarni shakllantirish;

yoshlarning o‘z tanlagan kasbini puxta egallashi va yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishi uchun yaqindan ko‘maklashish;

kitobxonlikni keng targ‘ib etish, jamiyatda yuksak ma’naviyatni qaror toptirishda badiiy asarlarning roli va ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish;

milliy mafkuramizga zid bo‘lgan yot g‘oyalarga qarshi tanqidiy qarash va mafkuraviy immunitetni, o‘ziga ishonch, hushyorlik va ogohlik tuyg‘ularini mustahkamlash;

yoshlarda faol hayotiy pozitsiya va o‘zining mustaqil fikr-mulohazalarini aniq bayon eta olish, mas’uliyatni his etish, qat’iy tartib va intizomga rioya qilish fazilatlarini shakllantirish, ularni qat’iyatli bo‘lishga o‘rgatish.

6-bob. Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligi va mezonlari

16. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samaradorligi ushbu jarayonning barkamol avlod tarbiyasiga, yoshlarning vatanparvarlik darajasiga qay darajada ijobiy ta’sir etgani bilan belgilanadi.

17. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasidagi samaradorlik darajasini aniqlashning muhim sharti yoshlarda vatanparvarlik, harbiy burch, jangovar an’analarga sodiqlik kabi xislatlarning real holatda yanada rivojlanishi va takomillashuviga ijobiy ta’sir etadigan omillarni muntazam ravishda hisobga olib, tahlil etib borishdan iborat.

18. Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim mezonlaridan biri o‘sib kelayotgan yosh avlod oldiga jamiyat tomonidan qo‘yilgan talablar bu borada olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ma’no-mazmuni, shakl va usullari bilan qay darajada mutanosib ekani bilan belgilanadi.

akademik litseylar hamda o‘rta ta’lim o'quvchilariga chaqiruvga qadar boshlang’ich tayyorgarlik fanini o‘qitishning ahamiyati O‘quvchi yoshlarimizning o‘z Vatanga bo‘lgan mehr tuyg‘ularini yanada oshirish,

ularning nostandart vaziyatlarda tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qila olishi, fikirlash va dunyoqarashlarini kengaytirish, ajdodlar tarixi va madaniyati, milliy qahramonlar bilan faxirlanish hissi va ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakillantirishga bag‘ishlangan.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligi rahbariyati tomonidan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qabul qilingan konsepsiyalarni amalga oshirish doirasida har tomonlama rivojlangan, bilimdon, xalqiga, shuningdek, Vatanga xizmat qilish ishiga sodiq yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha keng miqyoli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘quvchi yoshlarimizda o‘z Vataniga, Prezidentiga sodiq, intellektual salohiyatli, sog‘lom va jismonan baquvvat avlodni shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalari sirasiga kiradi. O‘zbekiston Respublikasi barcha ta‘lim muassasalarining chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani Davlat ta‘lim standartlari talablarida berilgan tayanch ta‘lim mazmunini bajarish, o‘quv dasturiga zamon talablaridan kelib chiqib, fanning falsafiy va metodologik jihatdan yangilanishini, ta‘lim mazmunini va o‘qitish uslubiga nisbatan takomillashtirilgan, samarali boshqaruv usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Muhtaram Prezidentimizning “Jaloliddin Manguberdi” nomidagi harbiy-akademik litseyi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 2023-yil 12-iyundagi PQ-184-sonli qarori bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Jumladan PQ-184-sonli qarorning 4 bandida litseyga ilmiy-metodik yordam ko‘rsatish maqsadida Urganch davlat universiteti va Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti berkitilgani ham o‘quvchi yoshlarga bo‘lgan e’tibordan dalolatdir[96].

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik jarayoni o‘quvchi-yoshlarni Qurolli Kuchlarimizda harbiy xizmatni o‘tash davomida o‘zlarining konstitutsiyaviy burchlarini a’lo darajada bajarish, o‘ziga ishonib topshirilgan jangovar texnika va qurol-aslahalardan to‘g‘ri foydalanishni qisqa muddatda o‘zlashtirib olishlariga imkon yaratish, shuningdek, ro‘y berishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri va tartibli harakatlanish, zaruriyat tug‘ilganda o‘ziga hamda yon atrofidagilarga birinchi tibbiy va boshqa zaruriy yordamni ko‘rsata olishni o‘rgatishdan iborat.

[96] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-184-sonli qarori 2023 yil 12-iyun

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanidan o‘quvchilarga ta’lim berishda harbiy qismlarning jangovar o‘quv faoliyatida bajariladigan mashqlarni qo‘shinlarning jangovar o‘quv faoliyatlariga mumkin qadar yaqinlashtirilgan holda o‘rgatishlarini nazarda tutish lozim. Yoshlarga Vatan himoyasi yo‘lida o‘zining konstitutsiyaviy huquq va burchlarini chuqur anglatish, kindik qoni to‘kilgan, avlod–ajdodlarining xoki-poyi qo‘yilgan yurtini har qanday qurolli tajovuzdan himoya qilishdek muqaddas burchini a’lo darajada ado etishlariga zamin yaratish uchun boshlang‘ich harbiy ta’lim berish kerak. Harbiy kasbga bo‘lgan e’tiqodlarini va qiziqishlarini orttirib, Qurolli Kuchlardagi qurol aslaha va harbiy texnikaning taktik va texnik tavsiflarini, harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyati bilan yaqindan tanishtirish lozim.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini o‘qitish o‘qituvchi va o‘quvchilarning maqsadga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyati bo‘lib, bu jarayonda o‘quvchilarni rivojlantirishni amalga oshiruvchi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar shakllanadi.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani mashg‘ulotlarida ta’lim berishning bir nechta uslublari bo‘lib bularga misol tariqasida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin.

Ta’lim uslublari – ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining birgalikdagi, ya’ni bilimsizlarni bilimga, malakasizlarni malakaga yetaklovchi faoliyat vositalari.

Bayon etish – asosiy o‘quv materiallarni tashkil qiluvchi hodisa va voqeliklarni qisqa,obrazli, emotsional bayon qilib berish.

Tushuntirish – murakkab savollar, qoidalar, tamoyillar, qonunlar va namoyish etishlarbilan birikkan, qurol va priborlarning qismlari, sxemalar, harakat usullari qat’iy tartibini mantiqiy bayon etish.

Ma’ruza – bayon etiladigan materialni keng yoyilgan nazariy yetkazilishining ilmiy tahlili.

Suhbat – o‘quvchilarni yangi bilimlar bilan sodda va tushunarli qilib boyitishning ma’qulimkoniyatlaridan biri.

Mashq qilish – o‘quvchilarda malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, ularni takomillashtirish maqsadida ma’lum bir usul va harakatlar murakkablashtirilib boriladiganbir necha bor takrorlash.

Amaliy ish – qurol va jangovar texnika xizmati, saqlanishi, tejalishi, qurolni qismlarga ajratish va yig‘ishni bajarish. U o‘qitishning yakunida muhim va amaliy uslub hisoblanadi.

Ta’lim amaliyotida kompleks uslub eng keng tarqalgan. Bunda bir mashg‘ulotda ta’lim-tarbiyaning bir nechta uslublari ishlatiladi.

Taktik-saf va taktik mashg‘ulotlariga ta’lim oluvchilar avtomat

maketlari, gazniqoblar, piyoda askar kurakchalari, kurakcha g‘iloflari hamda bayroqchalar bilan chiqadi.

Dasturlashtirilgan ta’lim uslubi – o‘quv materialini qismlarga yanada samaraliroq ajratish, mashg‘ulot rahbarining joylardan ma’lumotlarni, ya’ni ta’lim oluvchilar tomonidan o‘quv materialining har bir qismi o‘zlashtirilishi sifati haqida qaytarma aloqalar yordamida (mashina yordami yoki mashinasiz) uzluksiz olish.

Muammoli olib borish usulida o‘quvchilarga so‘nggi xulosalar e’lon qilinmaydi, balki faqat to‘g‘ri qaror qabul qilish va haqiqatga erishish uchun kerakli to‘g‘ri yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatiladi.

Ta’lim oluvchilarga o‘ta muhim qoida, sana, ta’rif, atama hamda nomlar haqida tushunchalar, ular bilan bog‘liq hodisa-voqealar tayanch konspektlari ta’lim uslubi (Shatalov uslubi) yordamida beriladi.

Musobaqali uslub – kim tez va yaxshi harakat qilishni tashkil etish, o‘rnatilgan me’yorlarni belgilangan vaqtda va sifatli bajarish[97].

Bundan tashqari dars mashg‘ulotlarini sifatli va mazmunli o‘tkazishning bir nechta interfaol metodlari bo‘lib bulardan har bir mavzuga mosini tanlab ishlatish mumkin.

Interfaol (interactive – dialogli) metodlar dialogli ta’lim berish, ya’ni ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi, ta’lim oluvchi va kompyuterning o‘zaro harakati orqali amalga oshiriladi.

Keys-stadi (ingl. sase – to‘plam, aniq vaziyat; stadi – ta’lim) – ta’lim oluvchilarni keysda bayon qilingan muammoni ifodalashga hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo‘naltiruvchi aniq, real yoki sun’iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta’lim uslubi.

Guruhlarda ishlash – o‘quv topshirig‘ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o‘quv jarayonida kichik guruhlarda ishlashda (2 tadan 8 tagacha ishtirokchi) faol o‘ynaydigan, ishtirokchilarga qaratilgan ta’lim shakli. Bunda asosiysi topshiriq-natija emas, balki guruh ichidagi hamkorlik jarayonidir.

Aqliy hujum metodi - Metod o‘quvchilarni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o‘z tasavvurlari, g‘oyalaridan ijobiy foydalanishga oid ko‘nikma, malakalarni hosil qilishga rag‘batlantiradi shunga o‘xshash bir nechta metodlarni misol qilish mumkin.

XULOSA

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani orqali o‘quvchilarda harbiy san’at tarixi, dunyo miqyosida harbiy sohaning

[97] Sotvoldiyev A. Y., Yoqubov A. F., Bo‘tayev A. M. Chaqiruvga qadar boshlang’ich tayyorgarlik 10-sinf o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma 2022 yil

rivojlanishiga hissa qo‘shgan sarkardalar va buyuk sarkardalarning jangovar mahoratlari haqida bilimlarini chuqurlashtirish. Vatanga sodiqlik va o‘z ajdodlaridan faxlanish tuyg‘ularinii shakllantirish.

Xalqimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning qoldirgan bebaho merosi, Vatan ozodligi va farovonligi yo‘lida o‘zini qurbon qilgan zamondosh vatandoshlarimizning qahramonligi asosida O‘zbekiston xalqiga sodiq, qat’iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan o‘quvchilarni tarbiyalashdir[98].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-184-sonli qarori 2023 yil 12-iyun
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash xamda o‘zbekiston respublikasi qurolli kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4375-sonli qarori 2019 yil 28-iyun
3. Sotvoldiyev A. Y., Yoqubov A. F., Bo‘tayev A. M. Chaqiruvga qadar boshlang’ich tayyorgarlik 10-sinf o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma 2022 yil
4. Vatanparvar kutubxonasi Armiya bilan hamqadam, hamfikr, hamnafas Toshkent 2022 yil
5. O‘zbekiston respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni 2020-yil 7-avgust

BUYUK SARKARDA AMIR TEMURNING HARBIY YURISHLARI. “TEMUR TUZUKLARI” HAQIDA

Axmedjanov A’zamjon Qosimjon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent “Temurbeklar maktabi” HAL CHQBT fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Urush va tinchlik – “hayot” deb nomlanuvchi tanganing o‘zaro almashib turadigan ikki tomonidir. Agar tinchlik vaqtida dono va adolatli hukmron zarur bo‘lsa, urush vaqtida esa – janglarni boy bermaydigan shafqatsiz sarkarda kerak bo‘ladi. Tarix ko‘plab buyuk sarkardalarni biladi, biroq ularni hammasini ta’kidlash mushkul.

Kalit so‘zlar: strateg, “Temuriylar renessansi”, “Temur tuzuklari”, davlatni idora etish,

[98] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash xamda o‘zbekiston respublikasi qurolli kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4375-sonli qarori 2019 yil 28-iyun

Buyuk sarkarda Amir Temurning harbiy yurishlari

Amir Temur – buyuk harbiy sarkarda, strateg, ilm-fan, madaniyat homiysi, “Temuriylar renessansi” asoschisidir. Mashhur Sharq allomasi, Sharq metodologiyasi asoschisi alloma Ibn Xaldun “Xotiralari”da “Forslar va arablar dunyoda peshvolik asrini o‘tab bo‘ldi, endi bu vazifa Amir Temur dahosi tufayli turklar qo‘liga o‘tdi”, - degan haqqoniy bahoni bergan edi.


Amir Temurning shijoat va mardlik haqidagi ko‘plab g‘oyalari o‘sha davrdayoq harbiy shiorlar sifatida qadrlangan: Mashhur Anqara jangidan oldin Yildirim Boyazid elchilariga Amir Temur mardlik haqidagi aytgan fikri bunga dalildir. Jumladan, “Mard kishi o‘z so‘ziga vafo qiladi, so‘z bilan ish orasida ixtilof bo‘lishi – nomardlik alomatidir”. Yoki, saltanatni boshqarishda, shamshirni nomus va sharaf bilan tutish borasidagi vasiyatida ham mardlik va yurt tashvishi aks etgan.

Sultoniya arxiyepiskopi Ioann Grinlo o‘z xotiralarida “Temurbek arab, fors va turk tillarda bemalol so‘zlashadi. Ilmi Qur’on va ilmi fiqhda shunchalik zabardastki, hech qanday musulmon olimi u bilan bu mavzuda bellasha olmaydi. U ulamo, olim va shoirlarni bag‘oyat qadrlaydi, e’zozlaydi, sababi uning o‘zi olim va donishmanddir. Temurbekdek mustahkam xotiraga ega kishi dunyoga kelmagan bo‘lsa kerak”, deydi.

Buyuk lashkarboshi va novator harbiy tashkilotchi hisoblanmish Sohibqiron Amir Temur intizomli armiya tuzishga, jang paytida qo‘shin qismlarini oqilona boshqarishga, jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan yo‘llashga, mavjud to‘siq va g‘ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraf etishga, qo‘shindagi jangovar ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishgan. Sohibqiron Sharqda birinchilardan bo‘lib armiyaga o‘t sochar qurol — to‘pni olib kirgan. Tog‘li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi maxsus harbiy qism va bo‘linmalarni tashkil qilgan. Amir Temur jahon harbiy ishi tarixida birinchi bo‘lib qo‘shinni jang maydoniga an’anaviy 5 bo‘lakdan farqli ravishda, 7 ta qo‘lga bo‘lib joylashtirish tartibini joriy etgan.

Qunduzcha yaqinidagi jang. 1391-yilda Amir Temur Oltin O‘rda xoni To‘xtamishxon qo‘shiniga qarshi o‘rta asrlardagi eng yirik janglardan birini o‘tkazdi. Sohibqiron bu jangda markaz, o‘ng va so‘l qanotdan iborat an’anaviy tarkibdan voz kechib, jangovar tartibning yangi usulini qo‘lladi: qo‘shinni 7 ta qo‘lga taqsimladi. Keyingi yurishlarda bu usuldan To‘xtamishxon ham foydalandi.

Terek daryosi qirg‘og‘idagi jang (1395-yil). Amir Temur va Dashti Qipchoq hukmdori To‘xtamishxon qo‘shinlari o‘rtasida Shimoliy Kavkazdagi Terek daryosi qirg‘og‘idagi No‘g‘ay dashtida sodir bo‘lgan. Unda Sohibqiron qo‘shini ilk bor otdan tushib, kamondan o‘q uzish usulini qo‘llagan. O‘q uzish kamonchilarning vazifasi bo‘lgani bois, dushman otliq qo‘shindan buni kutmagan. Avvaliga shiddat bilan hujumga



o‘tgan otliqlarning kerakli masofaga yetganda kamondan o‘q yog‘dirishi dushmanlarni sarosimaga solib, tartibsizlanishiga sabab bo‘lgan. **“Temur tuzuklari”da harbiy sohaga oid ma’lumotlar**

Amir Temur o‘z faoliyati davomida harbiy ilmning rivojiga alohida ahamiyat bergan. “Temur tuzuklari”dagi harbiy sohaga oid nazariy bilimlar – tadbirlar, kengashlar, sipoh saqlash, vazir tutish, mamlakatlarni zabt etish haqidagi ma’lumotlar qimmatlidir.

“Jang-u jadal, urush maydoniga kirish va chiqish, qo‘shinni saflash, g‘anim lashkarini sindirish” tuzuki Amir Temur qo‘shini tarkibidagi qo‘shilmalarning asosi bo‘lib, aynan jang qilish harakatlarini belgilagan. Agar dushman lashkari 12 ming otliqdan kam bo‘lsa, bu urushda lashkarga amir ul-umaro sardorlik qilishi belgilangan. Ushbu tuzukda Sohibqiron qo‘shinning jangovar joylashuvi, dushman bilan jang olib borish ketma-ketligi, qo‘mondonlarning ish tartibi, dushmanni baholash mezoniga qo‘yilgan talablarni yozib qoldirgan.

Jangovar harakatlarda qo‘shinning hududda joylashuvi bo‘yicha talablar

birinchidan, jang maydoni suvga yaqin yoki uzoqligi (hududning suv bilan ta’minlanish shart-sharoitlari) o‘rganilishi;

ikkinchidan, askar saqlaydigan joyning xavfsiz (hududning panalash va bo‘linmalar quduq, ariq va boshqa suv manbalariga imkon qadar yaqin bo‘lgan hududda joylashishi; dushmanning ommaviy qirg‘in va yuqori aniqlikka ega qurollari ta’siridan himoyalashi uchun bo‘linma joylashgan manzil tabiiy pana hududlarga ega bo‘lishi;

niqoblash shart-sharoitlari) bo‘lishi; **uchinchidan,** qo‘shin g‘anim lashkari turgan yerdan yuqorida joylashishi va quyosh shu’lasi sipohlarning ko‘zini qamashtirmasligi uchun oftobga ro‘baro‘ bo‘lmasligi; **to‘rtinchidan,** o‘q uzish, kuzatish sharoitlari qulay bo‘lishi uchun urush maydoni keng va oldi ochiq bo‘lishi lozim.	qo‘shin ustuvorlikka ega bo‘lgan tepaliklarni egallashi, vaziyatni baholash davomida iqlim sharoitlarini inobatga olishi; bo‘linmalarning tarqoq va yashirincha joylashuvi, tezlik bilan yig‘ilish va zarur yo‘nalishda manyovr o‘tkazishni ta’minlash lozim.


Dushmanni baholashga doir talablar

Amir Temur davridagi harbiy san’at	**Zamonaviy harbiy san’at**
sardor va lashkar nazoratchisi dushman sipohining oz-ko‘pligini mulohaza etishni, sarkardalarini g‘anim lashkarboshilari bilan solishtirishni bilishlari kerak; sardor o‘z sipohlarining kam-u ko‘stlarini to‘g‘rilab, jangga hozirlanishi kerak; sardor o‘z sipohining qurol-aslahalarini dushmanniki bilan taqqoslashi kerak.	komandirlar dushman qo‘shinining tarkibiy holati, soni, kuchli va zaif jihatlari, qanday qurol-aslaha va texnikalar bilan qurollangani haqida bilishlari kerak; komandirlar raqibning jangovar harakatlar olib borish tajribasi haqidagi ma’lumotlarni bilishi kerak; shu omillarni o‘rganishi hamda qaror qabul qilish jarayonida ushbu ma’lumotlarni inobatga olishi zarur.

Amir Temur qo‘shinlarida eng katta qism 12 ming kishidan iborat bo‘lgan. Shuningdek, qo‘shinda mustaqil harakatlanadigan ta’minot bo‘linmalari ham faoliyat ko‘rsatgan. Amir Temur o‘z davrida mamlakatni harbiy hududlarga bo‘lgan holda idora etgan.

Poytaxt Samarqand bo‘lgan markaziy qism, ya’ni Movarounnahr va Xorazmni Amir Temurning o‘zi boshqargan.

Sohibqiron o‘z harbiy yurishlarida quyidagi muhim vazifalarni bajarish orqali muvaffaqiyatga erishgan:



Har bir harbiy yurishidan oldin muhoraba (urush, jang) hududini, bo‘lajak urushning xususiyatlarini o‘rgangan.

Urush olib borish uchun kuch va vositalarni tashkil qilgan hamda tayyorlagan.

Muhoraba hududini dushmanga nisbatan oldinroq egallagan (jangga tayyorlash va jihozlash uchun).

Qo‘shin tarkibi va sonini aniq belgilagan, zarurat tug‘ilganda safarbarlik e’lon qilgan.

Janglarni to‘laligicha rejalashtirgan.

Har bir muhorabaning joylashuvidan kelib chiqib, qo‘shinlar harakatining shakl va usullarini ishlab chiqqan.

Zaxiralarni yaratgan va ulardan oqilona foydalangan.

Qo‘shin tarkibidagi barcha kuchlarning hamkorligini puxta tashkillashtirgan.

Qo‘shinlar uchun yagona boshqaruv tizimini yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi.

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2024-yil 20-avgustdagi 9-son majlis bayoni bilan tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja.
2. "Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik", Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik, 2025-y.
3. A.Butayev. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik. Andijon-2004. O‘quv qo‘llanma.
4. A.Butayev. Harbiy atamalarning qisqacha izohli lug‘ati. Toshkent-2012.

5. F.Hasanov. Turon xalqlari harbiy san’ati. Toshkent-2009. O‘quv qo‘llanma.

JALOLIDDIN MANGUBERDI MEROSI VA YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Tosheva Naima Fatxullayevna
Jaloliddin Manguberdi harbiy-akademik litseyi psixolgiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jaloliddin Manguberdi merosining yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o‘rni kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy shaxsning qahramonlik faoliyati, liderlik fazilatlari va vatanparvarlik g‘oyalari zamonaviy pedagogik yondashuvlar nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Shuningdek, vatanparvarlik tushunchasining nazariy asoslari, uning yoshlar ongida shakllanish mexanizmlari hamda ijtimoiy ahamiyati yoritilgan.

Maqolada zamonaviy harbiy tarbiya usullari, jumladan interaktiv metodlar, simulyatsion mashg‘ulotlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Jaloliddin Manguberdi merosidan ta’lim va tarbiya jarayonida samarali foydalanish yo‘llari asoslab berilib, uning yoshlarning milliy o‘zligini anglash, fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish va ijtimoiy faolligini oshirishdagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so’zlar: Jaloliddin Manguberdi, vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, harbiy tarbiya,adolat,qaxramonlik,jismoniy tayyorgarlik,ruhiy-axloqiy tarbiya, jamiyat.

Kirish: Jaloliddin Manguberdi, o'zbek tarixida muhim shaxs bo'lib, o'zining jasorati va qahramonligi bilan xalqning yodida qolgan. Ushbu maqolaning maqsadi, uning merosining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini o'rganishdir. Manguberdi, faqatgina jangchi sifatida emas, balki ma'naviy yetakchi sifatida ham tanilgan. Uning hayoti va faoliyati, yosh avlodga vatanparvarlik, jasorat va adolat tamoyillarini o'rgatishda muhim o'rin tutadi. U, shuningdek, o'z zamonasida mustaqil fikrlash va o'z xalqining qadriyatlarini hurmat qilish zarurligini ta'kidlagan. Bugungi kunda, bu qadriyatlar yoshlarimizni tarbiyalashda asosiy poydevor hisoblanadi. Manguberdi merosining o'rganilishi, yoshlar orasida o'zlikni anglash, tarixiy ildizlarga bo'lgan qiziqishni oshirish va

milliy g'ururni shakllantirishga yordam beradi. Shunday qilib, Jaloliddin Manguberdi nafaqat o'z davrining qahramoni, balki zamonaviy yoshlar uchun ham ilhom manbai bo'lib qolmoqda. Uning qahramonligi va ma'naviy merosi, kelajak avlodlar tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Maqolaning maqsadi, Jaloliddin Manguberdi merosining yoshlar tarbiyasidagi o'rnini o'rganish va uning ahamiyatini aniqlashdir. Manguberdi qahramonligi, adolat va vatanparvarlik g'oyalari bilan yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Uning hayoti va faoliyati, bugungi kunda yoshlar uchun namuna bo'lib, ularni ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga yordam beradi. Shunday qilib, bu meros, zamonaviy tarbiya tizimida o'ziga xos o'rin egallaydi.

Jaloliddin Manguberdi, o'zbek tarixida muhim o'rin tutgan shaxsiyatlardan biridir. U 13-asrda, Mo'g'ul imperiyasining kengayishi davrida yashagan va o'z vatanini himoya qilishda beqiyos qahramonlik ko'rsatgan. Manguberdi, o'zining jasorati va strategik mahorati bilan tarix sahnasida ajralib turadi. U, o'z xalqining erkinligi va mustaqilligi uchun kurashgan, bu esa uni vatanparvarlik ramzi sifatida ko'rishga imkon beradi. Unga xos bo'lgan qahramonlik ruhidagi meros, nafaqat o'z zamonasida, balki keyingi avlodlar uchun ham ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Manguberdi, o'z xalqining madaniyati va an'analarini saqlab qolishga intilgan, bu esa uning shaxsiyatini yanada boyitgan. Uning faoliyatini o'rganish, yosh avlodga o'z vataniga bo'lgan sevgi va sadoqatni oshirishda yordam beradi. Manguberdi merosi, bugungi kunda ham milliy g'urur va birlashuvning timsoli sifatida ahamiyatini yo'qotmagan. Shunday qilib, Jaloliddin Manguberdi, tarixiy shaxsiyat sifatida, o'z xalqining kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Jaloliddin Manguberdi, o'z davrining buyuk liderlaridan biri sifatida, O'rta Osiyoda mustaqillik uchun kurashgan. Uning hayoti va faoliyati, vatanparvarlik ruhida, xalqining ozodligi va erkinligi yo'lida qahramonlik namunasini ko'rsatadi. Manguberdi, jangovar strategiyasi va rahbarlik qobiliyati bilan, o'z davrida ko'plab janglarda g'alaba qozongan, bu esa uning merosini yanada yuksaltirgan.

Vatanparvarlik tushunchasi, insonning o'z vataniga, uning tarixi, madaniyati va xalqiga bo'lgan chuqur muhabbati va sadoqatini anglatadi. Bu tushuncha nafaqat shaxsiy his-tuyg'ularni, balki milliy identifikatsiyani ham o'z ichiga oladi. Vatanparvarlik, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega, chunki u kelajak avlodning o'zligini anglashiga, o'z tarixiga hurmat bilan qarashiga va o'z xalqining an'analarini davom ettirishiga yordam beradi. Zamonaviy yondashuvlar esa vatanparvarlikni faqatgina romantik his-tuyg'ular sifatida emas, balki

faol fuqarolik pozitsiyasi sifatida ko'rishga imkon beradi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning bilim va ma'rifatini oshirish, shuningdek, ijtimoiy mas'uliyatni his qilishlariga zamin yaratadi. Bunday yondashuvlar, yosh avlodning o'z vataniga bo'lgan sadoqatini kuchaytiradi va ularni jamiyatda faol ishtirok etishga undaydi. Shu tariqa, vatanparvarlik nafaqat shaxsiy, balki umumiy ijtimoiy qiymatga ham ega bo'ladi. Vatanparvarlik tushunchasi, insonning o'z yurtiga, uning madaniyatiga, tarixi va an'analariga bo'lgan sevgi va sadoqatini ifodalaydi. Bu tushuncha yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega, chunki u ularning shaxsiy rivojlanishiga va ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy yondashuvlar esa vatanparvarlikni faqat tarixiy yoki siyosiy jihatdan emas, balki madaniy va axloqiy nuqtai nazardan ham o'rganishga qaratilgan bo'lib, yosh avlodni o'z vataniga bo'lgan mehrini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy harbiy tarbiya usullari, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash jarayonida muhim o'rin tutadi. Bu usullar, asosan, jismoniy tayyorgarlik, strategik fikrlash va guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Yoshlar ongida vatanparvarlikni shakllantirishda bu yondashuvlar, birinchi navbatda, ularning o'z vataniga bo'lgan hurmatini oshirishga yordam beradi. Harbiy tarbiya jarayonida amalga oshiriladigan faoliyatlar, nafaqat jismoniy kuchni oshirish, balki axloqiy va ruhiy tayyorgarlikni ham o'z ichiga oladi. Yoshlarni rahbarlik ko'nikmalariga o'rgatish, ularning o'zaro hamkorlik va jamoa ruhini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlar, yosh avlodni o'z vataniga nisbatan mas'uliyatli va fidokorona munosabatda bo'lishga undaydi. Shuningdek, zamonaviy harbiy tarbiya usullari, yoshlarning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni ham rivojlantiradi, bu esa ularning o'zaro munosabatlarini mustahkamlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Natijada, zamonaviy harbiy tarbiya, yoshlarni nafaqat harbiy, balki fuqarolik mas'uliyatiga ham tayyorlaydi. Zamonaviy harbiy tarbiya usullari yoshlarning vatanparvarlik hissini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu usullar orqali yoshlar o'zlarining tarixiy merosini, madaniyatini va vataniga bo'lgan muhabbatini chuqurroq anglashadi. Harbiy tarbiyaning zamonaviy shakllari, shuningdek, jamoaviy ishlash, liderlik va strategik fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, bu esa ularda milliy birlik va vatanparvarlikni mustahkchlaydi.

Jaloliddin Manguberdi merosi, o'zining qahramonligi va vatanparvarlik timsoli sifatida, yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga

ega. Uning hayoti va faoliyati, o'z vatanini himoya qilishdagi fidoyiligi orqali, zamonaviy yoshlar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Manguberdi merosidan foydalanish, nafaqat tarixiy tafakkurni rivojlantirish, balki yoshlarni o'zlarining madaniy va milliy kimligini anglashda ham yordam beradi. Bugungi kunda, bu merosni o'rganish va undan foydalanish zamonaviy ta'lim tizimida yangi yondashuvlarni, masalan, interaktiv ta'lim metodlarini qo'llashni talab etadi. Yoshlarni tarixiy shaxslar orqali tarbiyalash, ularning ruhiy va axloqiy qiyofasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Manguberdi merosining zamonaviy yondashuvlarga ta'siri, yoshlarni o'z o'rnida faol va mas'uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalashga qaratilgan. Bu jarayon, nafaqat tarixiy bilimlarni, balki zamonaviy hayotda zarur bo'lgan ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi, bu esa yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Jaloliddin Manguberdi merosi, yoshlar tarbiyasida yuksak ahamiyatga ega bo'lib, ularning ruhiyatini mustahkamlash va vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tarixiy shaxsning qahramonligi va adolat uchun kurashi, zamonaviy yoshlar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu meros, yoshlarni o'z tarixiga hurmat bilan qarashga undaydi va ularni jamiyatga foydali, faol fuqarolar sifatida shakllantirishga yordam beradi, shuningdek, zamonaviy qiyinchiliklarga qarshi kurashishda zaruriy motivatsiya beradi.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida ishlab chiqilgan dasturlar va loyihalar, ularga o'z vatanlariga bo'lgan sevgi va hurmatni singdirish, shuningdek, harbiy xizmatga tayyorgarlik ko'rish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan. Bu dasturlar doirasida tarixiy va madaniy merosni o'rganish, harbiy tarixni o'rgatish, shuningdek, yurt himoyasi va mustaqillikni asrashga qaratilgan tadbirlar o'tkaziladi. Yoshlar, bunday dasturlar orqali, o'zlarining shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatlarini his qilishadi va vatanparvarlik ruhini o'z ichlariga singdiradilar. Loyihalar, shuningdek, harbiy simulyatsiyalar, sport musobaqalari va turli xil jamoaviy faoliyatlar orqali yoshlarni birlashtirib, ularning jamoa ruhini oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat yoshlarning jismoniy tayyorgarligini, balki ularning ruhiy va axloqiy jihatdan ham shakllanishini ta'minlaydi. Bunday dasturlar, kelajak avlodni mustaqil, mard va vatanparvar fuqarolar sifatida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan dasturlar va loyihalar, avvalo, ularda yurtga bo'lgan muhabbat, shaxsiy mas'uliyat va jamiyat oldidagi burchni anglashni rivojlantirishga qaratilgan. Bu dasturlar, shuningdek, yoshlarni jismoniy va ruhiy

jihatdan tayyorlash, ularni jamoaviy ishga, o'zaro yordamga va hamjihatlikka o'rgatish orqali, vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Buning natijasida, yoshlar o'zlarining kelajakdagi roli va mas'uliyatlarini chuqur anglab yetadilar.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy maqsadlari va vazifalari, avvalo, ularda vatanparvarlik hissini shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan. Bu jarayonda, yosh avlodni o'z vataniga bo'lgan sadoqat, uning tarixi, madaniyati va urf-odatlariga hurmat bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, harbiy tarbiya orqali yoshlarni jismoniy jihatdan tayyorlash, ularni murosasizlik, jasorat va sabr-toqat kabi insoniy fazilatlar bilan qurollantirish maqsadga muvofiqdir. Yoshlarning jamoaviy ruhini oshirish, bir-biriga yordam berish va qo'llab-quvvatlash ruhida tarbiyalash, ularning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Bunday tarbiya, shuningdek, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularda strategik fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Natijada, yoshlar o'zlarining vataniga bo'lgan sevgisini va uning xavfsizligini ta'minlashdagi rolini chuqur anglab yetadilar, bu esa ularda kuchli, mustaqil va mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalashga olib keladi. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy maqsadlari va vazifalari, avvalo, ularda vatan haqidagi ongni shakllantirish va ularni milliy qadriyatlar bilan tanishtirishdan iborat. Buning natijasida, yoshlar o'zlarining tarixiy merosini, madaniyatini va urush va tinchlik davridagi qahramonliklarini anglash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shuningdek, ularning jismoniy va ruhiy tayyorgarlik darajalarini oshirish, jamoaviylik va hamkorlik ruhini rivojlantirish ham muhimdir. Bu jarayon yoshlarni mustaqil fikrlovchi, o'z vataniga sadoqatli fuqarolar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xulosa:Maqolaning asosiy natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlarni tarbiyalashda jismoniy va ruhiy tayyorgarlik darajalarini oshirish, shuningdek, jamoaviylik va hamkorlik ruhini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar natijalari, yosh avlodning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvchanligini ta'minlashda o'zaro aloqalar va guruh faoliyatining ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu jarayonlar nafaqat ularning jismoniy salomatligini, balki ruhiy barqarorligini ham mustahkamlashga yordam beradi. Kelajakdagi tadqiqot yo'nalishlari yoshlar o'rtasida jamoaviy ishning samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi metodologiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiq etishni o'z ichiga olishi lozim. Shuningdek, yoshlarning ijtimoiy faoliyatlarini kengaytirish va ularni turli ijtimoiy muammolarni hal

qilishga jalb etish bo'yicha tadqiqotlar olib borish zarur. Bu orqali nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishlariga, balki jamiyatning umumiy taraqqiyotiga ham hissa qo'shish mumkin. Shunday qilib, kelajak tadqiqotlari yoshlarning o'zaro aloqalarini va ijtimoiy mas'uliyatlarini yanada kuchaytirishga qaratilishi kerak. Maqolaning asosiy natijalari yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq. Kelajakdagi tadqiqot yo'nalishlari, yoshlar orasidagi o'zaro aloqalar, ijtimoiy mas'uliyat va ularning jamiyatga qo'shgan hissasini chuqurroq o'rganishga yo'naltirilishi muhimdir. Bu jarayon, yoshlarning jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamlashga yordam beradi va ularning ijtimoiy taraqqiyotga bo'lgan ta'sirini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, T. “Jaloliddin Manguberdi va uning merosi”. Tashkent: O'zbekiston davlat nashriyoti. 2020.
2. Karimov, I. “Vatanparvarlik va yoshlar tarbiyasi”. Tashkent: Ma'naviyat. 2019.
3. Rahmonov, B. “Harbiy tarbiya: nazariya va amaliyot”. Tashkent: O'zbekiston harbiy akademiyasi. 2021.
4. Murodov, S. “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash”. Tashkent: Yoshlar nashriyoti. 2021.
5. Qodirov, D. “Zamonaviy tarbiya yondashuvlari”. Tashkent: O'zbekiston ta'limi. 2023.
6. Ismoilov, R. “Jaloliddin Manguberdi: tarix va meros”. Tashkent: O'zbekiston tarixiy jamiyati. 2020.
7. Sirojiddinov, A. “Yoshlar va vatanparvarlik”. Tashkent: O'zbekiston yoshlar ittifoqi. 2018.
8. Tursunov, E. “Harbiy tarbiya va uning ahamiyati”. Tashkent: Harbiy tadqiqotlar instituti. 2021.

YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING MUXIM YO‘NALISHLARI

Xoliqov Sardor Raximovich

Farg‘ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakulteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola bugungi davrida yangi yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muxim yo‘nalishlari, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy vatanparvarlik, vatanparvarlik tuyg‘usi, konsepsiya, tarbiya, harbiy bilim, aql-zakovat, buyuk sarkardalar.

Kirish. Bugungi kunda jamiyatimiz va mamlakatimiz oldida yosh avlodni xartomonlama yetuk, aqlan va jismonan barkamol, vatanga

sadoqatli qilib tarbiyalash kabi muxim vazifalar turibdi. Sir emas jaxonda ko‘plab harbiy to‘qnashuvlar, siyosiy majoralar ko‘payib bormoqda. Shuningdek mediya olamida ham bunday ma’lumotlar to‘xtovsiz berib borilmoqda. Bugungi kunda mamlakatni iqtisodiy saloxiyatini rivojlantirish bilan birga harbiy qudratini oshirish, armiyani zamonaviy harbiy texnika bilan ta’minlash bilan birga vatan ximoyachilarini jasur, mard, vatanga sadoqatli qilib tarbiyalash muxim axamiyat kasb etmoqda. Bu borada Respublikamiz xukumati va Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qaror va farmoishlar, ularni amalga oshirish strategik axamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruxida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023 yil, 29.06, 267-sonli qarorida ham yoshlarni Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir qator ko‘rsatmalar va vazifalar belgilab berilgan.

Asosiy qism. Respublikamizda “2023-2027 yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruxida tarbiyalash ishlarini samaradorligini oshirish konsepsiyasi”da ham yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruxida tarbiyalashning asosiy tamoyillarini amalga oshirish muxim vazifa sifatida belgilab berlgan. Mazkur tamoyillarni xar birini moxiyatan tushunish, unga amal qilish, muntazam xolda bajarib borish bog‘cha tarbiyasidan boshlab ta’limning barcha bo‘g‘inlarida, jamoat tashkilotlarida, maxalla fuqarolar yig‘inlarida tizimli yo‘lga qo‘yishimiz zarur. Konsepsiyada ko‘rsatib berilgan ilmiylik tamoyilini yoshlarni bilimli bo‘lishlari va shu orqali dunyoni tushunishlari, siyosatni bilishlari, xar qanday ziddiyatli vazifalarni chuqur ilm va aql-zakovat bilan xal qilishni ko‘rsatib beradi. Bo‘lajak vatan ximoyachilarini zamonaviy bilimlar qatori harbiy bilimlarni bilishi harbiy texnika va texnalogiyalarni osonroq egallashlariga asos bo‘ladi. O‘tmishda vatan ximoyasiga otlangan, davlatimizni qudratli qilishga intilgan Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zaxiriddin Muxammad Bobur kabi buyuk sarkardalar o‘z davrida jang ilmini yetuk namoyondalaribo‘lishgan. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruxida tarbiyalashda tarixiylik tamoyili vatanparvarlik, o‘z xalqini va mamlakatini sevishda, uni dushmandan ximoya qilishda turli urushlarda ishtirok etganligi , ularning jasorati tarixiy namuna sifatida ta’lim va tarbiyaning turli yosh bosqichlarida e’tirof etilib borishi zarurdir. Tarixiy davrlarda harbiy vatanparvarlik dastlab urug‘lar, jamoalar, qabilalar ko‘lamida va asta sekin davlatlar ko‘lamida shakillanib borgan, jumladan qadimgi Yunonistonda harbiy vatanparvarlik tarbiyasini insonga emas, balki davlat manfatlariga

bog‘liq deb hisoblashgan. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi tarixiy davrlarda davlatchilikni shakillanishga olib kelgan.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyalashda tarixiylikning muxim jixati shundan iboratki, o‘tmishda buyuk davlat arboblari va sarkardalarning o‘z xalqining tinchlik va osoyishtaligini saqlash uchun olib borgan faoliyatlarini vatanparvar. O‘zx xalqini ximoya qilaoladigan shaxslarni tarbiyalash orqali amalga oshirganlar.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyalashda tarixiylik buyuk sarkardalar, diniy ullamolar, davlat arboblarining jasoratini xozirgi yosh avlodga namuna sifatida ko‘rsatib beradi. Masalan, shayx Najmiddin Qubro xalqini dushmandan himoya qilish uchun Urganch fuqarolarini bir joyga yig‘adi va ularni dushmanga qarshi janga boshlaydi. Shayx Najmiddin Qubro jangda oldingi qatorda turib, bayroqni ko‘tarib boradi, dushman bayroqni olish uchun uning barmoqlarini kesib tashlaydilar.

Harbiy-vatanparvarlikni shakillantirishga qaratilgan konsepsiyada aniqlik va tezkorlik, muntazamlilik faollik kabi muxim tamoyillar ham borki, zamonaviy ta’lim va tarbiyada shu jumladan harbiy ta’limda muxim axamiyat kasb etadi. Vatanni ximoya qilish tarixiy davrlarda harbiy bilimlarni egallash, jang davomida tezkor qarorlar qabul qilish, muntazam harbiy mashg‘ulotlarni olib borish, jang maydonrida faol xarakat qilish orqali dushmanni sarosimaga solish, uni mag‘lub etish imkoniyatlarini yaratib beradi. Yuqorida qayd etilgan tamoyillar dunyo tajribasida tarixiy davrlardan shu bugungi kunimizgacha bo‘lgan ko‘plab ma’lumotlar va manbalarga ega. Jumladan, Miloddan iavvalgi VI-asirda yashagan Xitoylik mutaffakir Sun-Szi tomonidan yozilgan “Urush sanati ” asarida harbiy taktikada aniqlik va tezkorlik, faollik kabi jixatlarni harbiy strategiya sifatida e’tirof etadi.

Bugungi kunda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat shu soxa vakillarining balki, jamiyatning barcha a’zolarini qamrab oluvchi, tinchlik va barqaror rivojlanishi manfatlariga xizmat qiluvchi ommaviy tadbirlardan iborat bo‘lmog‘i kerak. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi deganda biz urushlarni oldini olish, siyosiy nizolarni muzokaralar orqali xal etishga qaratilgan vatan xavsizligi va daxlsizligi uchun amalga oshiriladigan davlat, jamiyat va jamoatchilik tadbirlarini amalga oshirishni ko‘zda tutishimiz zarur.

Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashda ta’lim va tarbiya ishlarining uyg‘unligi, izchilligi muxim axamiyaga egadir. Bizning mamlakatimizda ta’lim berish jarayonida tarbiya beriladi, tarbiya jarayonida esa ta’lim beriladi. Bunday tamoyil ta’lim tizimida uzviylikni ta’minlab, ta’limni axloqiy sifatlarini yuzaga chiqaradi, yoshlarni xam

aqliy xam ma’nan shakillanishiga yordam beradi. Shuning bilan birga yoshlar ongiga yot g‘oyalarni kirib borishiga yo‘l qo‘ymaydi, vatanni asrash uni ximoya qilish e’tiqodlarini shakillantiradi.

Harbiy vatanparvarlik xissini shakillantirishda ayniqsa maktab va oliy ta’limning axamiyati beqiyosdir, va u oila bilan chambarchas bog‘liq xolda amalga oshirilsa vatan-ostonadan boshlanadi degan ibratli tamoyilni samarasi ayniqsa natijador bo‘ladi. Talaba yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg‘ularini shakillantirishning samarali tashkil etishda quyidagi tamoyillarni axamiyati kattadir.

Bugungi kunda yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakillantirishda matbuot, ommaviy axborot vositalarida ko‘plab maqolalar chop etilmoqda, jamoat tadbirlari, uchrashuvlar o‘tkazilmoqda. Bunday tadbirlarni oila, maxalla, ta’lim muassasalari xamkorligida tashkil etish, yoshlarni turli o‘quv kurslari, to‘garaklarga jalb etish, ularning bandligini ta’minlash orqali biz ko‘zlagan maqsadlarimizga erishishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruxida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 29.06.2023 yil 267-sonli Qarori.
2. Xaydaraliyev X.X “Talabalarni harbiy vatanparvarlik ruxida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish” Pedagogika fanlaribo‘yicha falsafa doktori (PhD) disertatsiyasi avtorefarati. Namangan 2021 y.

HARBIY AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARINING CHIDAMLILIK SIFATINI OSHIRISHDA SPORTNING O'RNI

Xushnud Madraimov Kamildjanovich
Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi, dotsent

Annotatsiya. Ushbu ishda harbiy akademik litsey o‘quvchilarining chidamlilik sifatini oshirishda sport mashg‘ulotlarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Sport turlari orqali jismoniy va ruhiy chidamlilikni rivojlantirish usullari, ularning samaradorligi hamda tizimli mashg‘ulotlarning ta’siri yoritilgan. Shuningdek, harbiy tayyorgarlik jarayonida chidamlilikni shakllantirishning pedagogik va amaliy jihatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: chidamlilik, sport, jismoniy tayyorgarlik, harbiy litsey, mashg‘ulot, sog‘lom turmush tarzi

Аннотация. В данной работе рассматривается роль спортивных занятий в повышении выносливости учащихся военных академических лицеев. Анализируются методы развития физической и психической выносливости через различные виды спорта, а также эффективность систематических тренировок. Особое внимание уделяется педагогическим и практическим аспектам формирования выносливости в процессе военной подготовки.

Ключевые слова: выносливость, спорт, физическая подготовка, военный лицей, тренировки, здоровый образ жизни

Abstract. This work examines the role of sports activities in improving the endurance of military academic lyceum students. It analyzes methods for developing physical and mental endurance through different types of sports and the effectiveness of systematic training. Special attention is given to the pedagogical and practical aspects of endurance development in the process of military training.

Keywords: endurance, sports, physical training, military lyceum, training, healthy lifestyle

Bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ularning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, harbiy akademik litsey o‘quvchilari uchun jismoniy tayyorgarlik va chidamlilik sifatlarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bu ko‘rsatkichlar kelajakdagi harbiy xizmat faoliyatida muhim o‘rin tutadi.

Chidamlilik — organizmning uzoq muddat davomida jismoniy va aqliy yuklamalarga bardosh bera olish qobiliyati bo‘lib, u muntazam sport mashg‘ulotlari orqali shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Sport esa nafaqat jismoniy kuchni oshiradi, balki iroda, sabr-toqat va intizom kabi sifatlarni ham mustahkamlaydi.

Shu nuqtai nazardan, harbiy akademik litsey o‘quvchilarining chidamlilik sifatini oshirishda sportning o‘rni muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu mavzu dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [2].

Harbiy akademik litsey o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligi ularning kelajakdagi harbiy faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonda chidamlilik sifatini rivojlantirish eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chidamlilikning yuqori darajasi o‘quvchilarga uzoq davom etadigan jismoniy yuklamalarni bajarishda charchoqni kechiktirish va samaradorlikni saqlab qolish imkonini beradi.

Sport mashg‘ulotlari chidamlilikni rivojlantirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. Muntazam ravishda bajariladigan yugurish, suzish, kross yugurish va harbiy-amaliy mashqlar organizmning funksional imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu mashqlar yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining faoliyatini yaxshilaydi, mushaklarning ishlash qobiliyatini oshiradi hamda umumiy jismoniy barqarorlikni ta’minlaydi [4,5].

Yengil atletika, ayniqsa uzoq masofaga yugurish, chidamlilikni rivojlantirishda eng samarali sport turlaridan biri hisoblanadi. Bu mashqlar organizmni asta-sekin yuqori yuklamalarga moslashtiradi. Suzish esa nafas olish tizimini mustahkamlab, barcha mushak guruhlarini bir vaqtda ishlatishga yordam beradi. Jamoaviy sport turlari, masalan futbol va basketbol esa nafaqat jismoniy, balki ruhiy chidamlilikni ham shakllantiradi [6].

Shuningdek, harbiy-amaliy sport mashqlari o‘quvchilarda real sharoitga yaqin jismoniy va psixologik tayyorgarlikni shakllantiradi. Bunday mashg‘ulotlar intizom, tezkor qaror qabul qilish va stressga bardosh berish qobiliyatini rivojlantiradi.

Chidamlilikni samarali oshirish uchun mashg‘ulotlar tizimli, bosqichma-bosqich va ilmiy asosda tashkil etilishi lozim. Yuklamalar o‘quvchilarning yosh va jismoniy imkoniyatlariga mos ravishda rejalashtirilishi, dam olish va tiklanish jarayonlari esa to‘g‘ri muvozanatda bo‘lishi zarur [2,3].

Xulosa qilib aytganda, sport mashg‘ulotlari harbiy akademik litsey o‘quvchilarining chidamlilik sifatini rivojlantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. U nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki iroda, sabr-toqat va ruhiy barqarorlikni ham mustahkamlashga yordam beradi [1,3].

Xulosa. Harbiy akademik litsey o‘quvchilarining chidamlilik sifatini oshirishda sport mashg‘ulotlari muhim va ajralmas vosita hisoblanadi. Muntazam jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish o‘quvchilarning nafaqat jismoniy imkoniyatlarini, balki ularning ruhiy barqarorligi, irodasi va intizomini ham mustahkamlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yugurish, suzish, kross va harbiy-amaliy mashqlar kabi sport turlari organizmning funksional tizimlarini rivojlantirib, chidamlilikni samarali oshiradi. Shuningdek, jamoaviy sport turlari o‘quvchilarda hamkorlik, mas’uliyat va stressga bardoshlilikni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, sport mashg‘ulotlarini tizimli va ilmiy asosda tashkil etish harbiy akademik litsey o‘quvchilarining chidamlilik

sifatini rivojlantirishda eng muhim omillardan biri bo‘lib, u kelajakdagi harbiy xizmatga tayyorgarlik darajasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Abdullayev A., Xodjayev F. *Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi*. Toshkent, 2015.
4. Matveyev L.P. *Teoriya i metodika fizicheskoy kultury*. Moskva, 1991.
5. Harbiy pedagogika va jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar.
6. Sport tibbiyoti va jismoniy rivojlanish bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami.

TO‘PLAMI

JALOLIDDIN MANGUBERDI MEROSI VA YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI”

Texnik muharrir: Ro‘zimurod Axmedov
Sahifalovchi: Maftuna Uzaqova
Dizayner: Timur Mustafaev

Tasdiqnoma № 495679. 21.11.2024.
Bosishga 2026-yil 08 - mayda ruxsat etildi:
Bichimi 60x84 1/8. Ofset qog‘oz
— Times new Roman garniturasida ofset usulida bosildi
Nashr tabog‘i – 55 Shartli bosma tabog‘i –27,5.
Adadi 100 nusxa. Shartnoma № 05.05.2026
Buyurtma № 597



UNIDO xalqaro tashkiloti sertifikatiga ega bo‘lgan “Classic” nashriyotida nashrga tayyorlandi

Original maket Classic nashriyotida tayyorlandi.
150114, Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahar,
Aviasozlar ko‘chasi 2-uy.
Telefon: (93) 507-52-72

Poligraf Super Servis MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
150114, Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahar,
Aviasozlar ko‘chasi 2-uy.

1751







